O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI
UNIVERSITETI

# “O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SH.M. MIRZIYOYEVNING OLIY MAJLIS VA O‘ZBEKISTON XALQIGA MUROJAATNOMASI: MILLIY TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI VA ISTIQBOLDAGI VAZIFALAR”

mavzusidagi respublika ilmiy – amaliy konferensiya

**MATERIALLARI TO‘PLAMI**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI**

# “O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SH.M.MIRZIYOYEVNING OLIY MAJLIS VA O‘ZBEKISTON XALQIGA MUROJAATNOMASI: MILLIY TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI VA ISTIQBOLDAGI VAZIFALAR”

mavzusidagi respublika ilmiy – amaliy konferensiya
**MATERIALLARI TO‘PLAMI**

**2026-yil 5-fevral**

**TOSHKENT - 2026**

**KBK – 66.3**
**O‘ - 34**

“O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga murojaatnomasi: milliy taraqqiyotning ustuvor yo‘nalishlari va istiqboldagi vazifalar Yangilangan konstitutsiya-barqaror ekologik taraqqiyot va demokratik huquqiy rivojlanish poydevori” // respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent., O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2026. - 368 bet.

Ushbu konferensiya materiallari to‘plamida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida ko‘rsatilgan vazifalarning o‘z vaqtida ijrosini ta’minlash masalalari o‘rin olgan. Xususan, ochiq, hisobdor va samarali davlat boshqaruvini shakllantirish, qonun ustuvorligini ta’minlash, sud-huquq tizimini mustaqil va adolatli qilish, korrupsiyaga qarshi murosasiz kurashni kuchaytirish orqali huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini rivojlantirish ko‘zda tutilgan.

*Ushbu to‘plamga kiritilgan maqolalardagi barcha ma’lumotlarning aniqligi va ishonchliligi uchun mualliflarning mas’ulligi belgilangan.*

**Mas’ul muharrir:**

**Nuridullayev. A.A.** yuridik fanlar doktori (DSc), dotsent.

**Tahrir hay’ati a’zolari:**

**Xusanov O.T.** yuridik fanlar doktori, professor;
**Axmedov D.K.** yuridik fanlar doktori, professor;
**Usmonov. M.B**. yuridik fanlar doktori, professor;
**Dadasheva A.A.** yuridik fanlar doktori, professor;
**Safarov. D.J.** yuridik fanlar doktori (DSc), dotsent;
**Hakimov G‘.T.** yuridik fanlar nomzodi, dotsent;
**Xomidov E.O.** yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;
**Olimjonov. X.M.** yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;
**G‘iyosov. B.H.** yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD);
**Baxtiyorov F.A.** kafedra o‘qituvchisi.

© O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2026

# YANGI O‘ZBEKISTONNING BAXTLI HAYOTGA OLIB BORADIGAN YO‘L XARITASINI BIRGALIKDA YARATAMIZ

**Rustambayev M.X.**
*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig‘i,*
*O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yurist,*
*yuridik fanlari doktori, professor.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida “Mirzo Ulug‘bek bobomiz bundan olti asr muqaddam insoniyat uchun yulduzlar xaritasini yaratgan edi. Bugun esa biz hozirgi va kelajak avlodlarimiz uchun baxtli hayotga olib boradigan yo‘l xaritasini yaratishimiz lozim” degan so‘zlari xalq manfaatlari yo‘lida ko‘z o‘ngimizda olib borilayotgan tizimli islohotlarga ramziy qiyos bo‘ldi [1].

Boisi yulduzlar xaritasi insoniyat tafakkurining yorqin nigohi, odam qadam bosolmaydigan osmon kengliklarining aql, mehnat va ilm yordamida zabt etilgan makoni bo‘lib, Mirzo Ulug‘bek ilmni afsonadan ajratgan holda, inson aqlining cheksiz imkoniyatlarini dunyoga namoyon etgan.

Shu kabi Yangi O‘zbekistonda so‘nggi to‘qqiz yilda amalga oshirilgan ishlar ham o‘z-o‘zidan emas, avvalo Davlatimiz rahbari boshchiligida olib borilgan mashaqqatli va sharafli mehnatning, maqsadli va amaliy islohotlarning hosilasi, islohotlarni aniq amaliy natijaga aylantirishnining natijasidir.

Shu jihatdan navbatdagi murojaatnoma ortga qaytmas islohotlar shiddatini, amaliy ishlar va xalqaro e’tiroflarni o‘zida namoyon etgan holda istiqboldagi maqsadlarning tayanch nuqtasi, zamonaviy o‘zgarishlar sari qo‘yilgan mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilishi muqarrar. Eng muhimi, islohotlar samarasini har bir mahalla, har bir xonadon, qolaversa har birimiz kudalik hayotimizda his qilmoqdamiz.

Murojaatnomada keltirilgan har bir raqamlar ortida mamlakatimiz va xalqimizning taqdiri va farovonligi, inson huquq va manfaatlarni to‘laqonli

ta’minlash va hayot darajasini yanada yaxshilishga xizmat qilishi mujassam bo‘lib, joriy yilda tariximizda birinchi marta yalpi ichki mahsulotimiz 145 milliard dollardan oshgani buning yaqqol tasdig‘idir. Shu bilan birga kelgusi besh yil davomida amalga oshiriladigan islohotlar natijasida yuqoridagi natijani 240 milliard dollarga yetkazish ko‘zda tutilgan bo‘lib, buni bugungi hayotimizdan deyarli ikki karra yaxshiroq yashashimiz mumkinlini anglatuvchi asos desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Chunki yalpi ichki mahsulot mamlakat farovonligini belgilab beruvchi eng asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanib, uning doimiy o‘sib borishi ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va investitsiya faoliyati kengayishi orqali aholi daromadlarining oshishi, yangi ish o‘rinlarining yaratilishi, ijtimoiy sohalar, xususan, ta’lim, sog‘liqni saqlash ijtimoiy himoya infratuzilmasini rivojlantirishga xizmat qiladi va mamlakat aholisi turmush darajasi va barqaror taraqqiyotining muhim mezoni hisoblanadi.

Shu bilan birga xalqaro miqyosda mamlakatning iqtisodiy salohiyati, raqobatbardoshligi va investitsiyaviy jozibadorligini namoyon etib, barqaror o‘sish orqali xalqaro moliya institutlari, investorlar va xorijiy davlatlar bilan hamkorlikni mustahkamlaydi, O‘zbekistonning jahon iqtisodiyotidagi o‘rni va nufuzini oshiradi hamda mamlakatning mintaqaviy va global jarayonlarda hamkorlik aloqalarini kengaytirishiga xizmat qiladi.

Ma’lumot o‘rnida ta’kidlash lozimki, bu yil iqtisodiyotimizga jalb qilingan xorijiy investitsiyalar hajmi 43,1 milliard dollarga yetib, jami investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 31,9 foizni tashkil etgan holda iqtisodiyotimiz kelgusi yillarda ham yuqori sur’atlar bilan barqaror o‘sib borishi uchun zamin bo‘lmoqda. Mazkur ko‘rsatkichlar xalqaro reytinglarda ham e’tirof etilib, xususan, yetakchi xalqaro reyting agentliklari mamlakatimizning suveren reytingini “BB -”dan “BB” pog‘onasiga ko‘tardi.

Bu avvalo O‘zbekiston iqtisodiyoti va moliyaviy tizimiga bo‘lgan ishonch ortganining in’ikosi bo‘lib, bu davlatning qarz majburiyatlarini o‘z vaqtida va to‘liq bajarish imkoniyatlari yaxshilangani, makroiqtisodiy

barqarorlik ta’minlanayotgani xalqaro miqyosda tan olinganidan dalolat beradi. Shu jihatdan reytingning oshishi mamlakatdagi boshqaruv sifati va iqtisodiy siyosat samaradorligiga berilgan ijobiy bahodir.

Shuningdek mazkur baho xorijiy investorlar ishonchini kuchaytirishi, investitsiya oqimining kengayishi, tashqi moliya bozorlarida qarz mablag‘larini arzonroq shartlarda jalb qilish imkoniyatini yaratishi hamda tashqi savdo va iqtisodiy hamkorlik aloqalarini yanada faollashtirish zamin bo‘lishi bilan ahamiyatlidir.

Murojaatnomada qayd etilgan yana bir e’tirof – Jahon banki e’lon qilib boradigan davlatlarning texnologik yetuklik indeksida O‘zbekiston 71 pog‘ona yuqori ko‘tarilib, dunyoning top-10 ta mamlakati qatoridan joy olgani bo‘ldi. Mazkur indeks mamlakatlarning texnologiyalarni qabul qilish va ulardan samarali foydalanish darajasini baholovchi xalqaro reyting hisoblanib, mamlakatlarda raqamli texnologiyalar, internet infratuzilmasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, innovatsiyalarga kirish imkoniyatlari va texnologiyalarni jamiyat hamda iqtisodiyotga joriy qilish darajasi kabi ko‘rsatkichlarni qamrab oladi [2].

Bunday indeksda yuqori pog‘onaga ko‘tarilish mamlakatimiz uchun katta ahamiyatga ega, chunki bu — xalqaro miqyosda texnologik rivojlanish, raqamli iqtisodiyotni yo‘lga qo‘yish va innovatsiyalarga integratsiya darajasi haqida ijobiy natija bo‘lib xizmat qiladi.

Murojaatnomaning lingvistik tahliliga ko‘ra unda eng ko‘p, ya’ni, 49 marta mahalla so‘zi ishlatilib, islohotlar, yangiliklar va kelgusidagi ustuvor vazifalar ham aynan mahalla bilan chambarchas bog‘liq bo‘ldi.

Eng ahamiyatli jihati 2026 yilni yurtimizda “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili”, deb e’lon qilinishi jamiyat taraqqiyotini eng quyi bo‘g‘in – mahalladan boshlash g‘oyasining amaliy ifodasidir. Bu tashabbus orqali mahallaning ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy salohiyatini oshirish, aholining muammolarini joyida hal etish, fuqarolarni faol hayotga jalb qilishga keng yo‘l ochiladi. Zero mahalla rivoji — oilalar farovonligi, yoshlar tarbiyasi, qo‘shnichilik munosabatlari va jamiyatda barqarorlikni mustahkamlashning asosiy kafolati hisoblanadi. Shu bois, bu nafaqat

mahallaning, balki butun jamiyatning yuksalishiga xizmat qiladigan muhim bosqich sifatida dolzarb ahamiyatga ega bo‘ladi.

Sharq allomalari jamiyat barqarorligini avvalo insonlar o‘rtasidagi yaqin ijtimoiy munosabatlar bilan bog‘lab, Abu Nasr Forobiy jamiyatning kamolotini qo‘shnichilik, o‘zaro yordam va ma’naviy birlikka tayanish orqali ta’minlash mumkinligini ta’kidlaydi va kichik jamoalar – inson tarbiyasi va axloqiy kamolotining ilk maktabi sifatida ta’riflaydi. Imom G‘azzoliy esa qo‘shni haq-huquqlariga rioya qilishni jamiyat pokligi va tinchligining asosi deb biladi, bu esa mahalla mohiyati bilan uyg‘undir. Jadidlar ham mahallani aholini tarbiyalash, bilim berish va axloqiy kamolotini shakllantirishda muhim ahamiyatga egaligini ta’kidlab, zamonaviy bilim va ma’naviyatni keng targ‘ib qilish, xalqni islohotlarga tayyorlash va davlat barqarorligiga xizmat qiluvchi jamiyat modeli sifatida bilishgan. Shu ma’noda, mahalla Sharq tafakkurida faqat hududiy tushuncha emas, balki insonni jamiyatga bog‘laydigan, axloq va ma’naviyatni shakllantiradigan muhim ijtimoiy makon sifatida talqin qilinadi.

Xorijiy tahlillarga ko‘ra, o‘zbek mahallasi – bu odatiy yashash hududi emas, balki jamiyatning ma’naviy va ijtimoiy tayanch nuqtasi bo‘lib, ko‘plab tadqiqotchilar mahallani *“tirik ijtimoiy organizm”* sifatida ta’riflaydilar. Bu jihatdan mahalla instituti milliy o‘zligimiz va qadriyatlar tutashgan makon va zamonaviy ijtimoiylashuv maskani sifatida dunyoda muqobili bo‘lmagan jamiyatning noyob modelidir.

Murojaatnomada qayd etilganidek, 2025-yilda 188 ta mahalladagi 715 ming aholi yashaydigan xonadonlarga birinchi marta toza ichimlik suvi kirib borgani, yana 2 million 300 mingga yaqin aholining suv ta’minoti yaxshilangani, 867 ta “og‘ir” mahalladagi 470 mingta xonadonga tomorqalarni sug‘orish uchun ilk bor suv yetib borgani insonlarning kundalik turmush tarzi yaxshilanganining dalolatidir [3].

Shu bilan birga aholining Vatan ichra “vatanlik” bo‘lishi, ya’ni uy-joy bilan ta’minlanishi bo‘yicha islohotlar so‘nggi 9 yildagi eng asosiy, ilgari kuzatilmagan hodisadir.

Mamlakatimizda amalga oshirilgan arzon uy-joy dasturlari, ipoteka tizimining kengaytirilishi, ko‘p qavatli zamonaviy turar joy massivlarining barpo etilishi minglab oilalarning, millionlab insonlarning o‘z uyiga ega bo‘lishiga imkon yaratdi. Ayniqsa, yosh oilalar, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam va qishloq aholisi uchun uy-joy masalasining hal etilishi odamlarda shukronalik, kelajakka ishonch va yurtga daxldorlik tuyg‘usini mustahkamladi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Mahalla va yaxshi qo‘shnichilik o‘zaro uyg‘un qadriyatlar makoni bo‘lib, ular jamiyatda insoniy va ijtimoiy kapitalni yanada boyitishga beqiyos hissa qo‘shadi. Mamlakatimizda o‘tkazilgan ijtimoiy so‘rovlarda ishtirok etganlarning 90 foizdan ko‘prog‘i o‘zini mahalla jamoasining bir qismi deb hisoblashi ham shundan dalolat beradi.

Joriy yilda aholiga 8 million 100 ming kvadrat metrli, 135 ming xonadondan iborat ko‘p qavatli uylar foydalanishga topshirildi, odamlarning o‘zi ham yashash sharoitini yaxshilash uchun 19 million kvadrat metr maydonda qurilish qildi. Shuningdek, biznes vakillari tomonidan 24 million kvadrat metr noturar-joy Obyektlari barpo etildi. Umuman, so‘nggi to‘qqiz yilda 210 million kvadrat metrli turar-joy va noturar-joy Obyektlari foydalanishga topshirildi.

Shunday ekan uy-joyga egalik nafaqat moddiy farovonlik manbai, balki insonning o‘z Vatanida munosib hayot kechirishga bo‘lgan haq-huquqining amaliy ifodasiga aylandi.

Eng asosiy natijalardan biri sifatida o‘z vaqtida amalga oshirilgan islohotlar natijasida mamlakatimizda kambag‘allikni kamaytirish va hayot darajasini yashash sifatini oshirish bo‘yicha olib borilgan amaliy chora-tadbirlarni qayd etish maqsadga muvofiq.

Davlat tomonidan ishsizlik va kambag‘allik bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etish uchun kompleks dasturlar joriy etilib, iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish, yangi ish o‘rinlari yaratish bo‘yicha amaliy vazifalar bajarildi.

Murojaatnomada aytib o‘tilganidek, joriy yilda 5 million aholimiz daromadli bo‘lib, ishsizlik darajasi 5,5 foizdan 4,9 foizga tushdi. Bu orqali qariyb 1,5 million ehtiyojmand aholi kambag‘allikdan chiqarilib, ilk bor 1

ming 435 ta mahalla “kambag‘allikdan xoli” hududga aylandi. Ahamiyatli jihati yurtimizda kambag‘allik darajasi yil boshidagi 8,9 foizdan 5,8 foizga tushgani xalqaro e’tiroflarga ham sazovor bo‘lmoqda.

Prezidentimiz tashabbuslari asosida “mahalla yettiligi” tizimining joriy etilishi mamlakat taraqqiyotida ijtimoiy barqarorlikni, inson manfaatlari ustuvorligini va islohotlarning joylarda samarali ijrosini ta’minlaydigan noyob boshqaruv modeli bo‘ldi. Mahalla yettiligi tizimi davlat boshqaruvini xalqqa yaqinlashtiradigan, muammolarni joyida hal etishga qaratilgan samarali mexanizm sifatida yetti tayanch tuzilma o‘rtasidagi uzviy hamkorlikka asoslanadi. Shu jihatdan kredit, subsidiya, kompensatsiya kabi 100 dan ziyod xizmatlar orqali ijtimoiy himoyaning mutlaqo yangi tizimini yo‘lga qo‘yilgani va bularni mahalladagi “ettilik”ning o‘ziga berilgani natijasida 8,5 milliondan ziyod odam kambag‘allikdan chiqarilishi natijasida ishsizlik 2 karra qisqardi.

Murojaatnomada Prezidentimizning “Biz – bugun 38 milliondan ziyod katta xalqmiz. Mashaqqatli va sharafli mehnatimiz bilan dunyoda hurmat topayotgan, ertangi kunga ishonch bilan dadil borayotgan, matonatli va g‘ururi baland millatmiz” degan so‘zlari barchamizni faxr va g‘ururga to‘ldiradi. Boisi aholining ko‘pligi nafaqat raqam, balki iqtisodiy taraqqiyot, ma’naviy boylik va intellektual qudrat manbaidir. G‘ururi baland xalqning birdamligi esa mamlakat barqarorligi, taraqqiyoti va jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallashining mustahkam poydevoridir.

Murojaatnomaning yana bir ahamiyatli jihati unda kelgusida amalga oshirilishi ko‘zda tutiladigan strategik va ustuvor vazifalar, aniq marra va rejalarning belgilab olinishida ham ko‘zga tashlanadi. Bu borada Davlatimiz rahbari tomonidan olti muhim yo‘nalishda vazifalar belgilanishi, nafaqat kelgusi yil, balki yaqin va uzoq kelajakka mo‘ljallangan va kechiktirib bo‘lmaydigan islohotlarning mantiqiy davomi bo‘ladi.

Avvalo yangi yil nomidan kelib chiqqan holda mahalla infratuzilmasini yanada yaxshilash, ularga Yangi O‘zbekiston qiyofasini olib kirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilandi. Buning ahamiyati shundaki, mahalla infratuzilmasini takomillashtirish orqali Yangi

O‘zbekistonning barqaror, zamonaviy va insonparvar yuzi yaratilmoqda, davlat va fuqaro o‘rtasidagi aloqa yanada yaqinlashtiriladi, jamiyatda ishonch va hamjihatlik mustahkamlanadi.

Kelgusi yilda tanlab olingan 33 ta tuman va 330 ta sharoiti og‘ir mahalladagi barcha muammolarni bir vaqtning o‘zida hal qiladigan tizim yaratiladi. Ularda bir vaqtning o‘zida tadbirkorlik infratuzilmasi ham rivojlantiriladi. Ushbu maqsadlar uchun barcha manbalar hisobidan 8,5 trillion so‘m mablag‘ ajratiladi.

Murojaatnomada qayd etilganidek, mahallani farovon qilishning eng muhim jihatlaridan biri bu tuman byudjetlariga ajratiladigan mablag‘larni ko‘paytirish, odamlarni daromadli qilish bog‘liq bo‘lib, bu borada 2026 yil 1 yanvardan boshlab, qo‘shilgan qiymat solig‘idan tushumning Toshkent shahrida 5 foizi, qolgan hududlarda 20 foizi qoldirilib, bu mablag‘ning yarmi tumanlar byudjetiga o‘tkazilishi belgilandi.

Bundan tashqari, daromadlarning prognozga nisbatan oshirib bajarilgan qismining 50 foizi, ekin yerlarini ijaraga berish va bozorlardan tushumlar ham to‘liq tuman byudjetiga beriladi. Viloyat, tuman hokimlariga samarasiz va bir-birini takrorlaydigan shtat birliklarni qisqartirib, tejalgan mablag‘ni aholi o‘rtaga qo‘ygan masalalarni hal qilish uchun ajratishga ruxsat etiladi. Bu orqali tumanlar byudjetida yiliga 5 trillion so‘mlik qo‘shimcha manba shakllanadi va u mahallalar infratuzilmasini yaxshilashga sarflanadi.

Bu borada fikr bildirgan Prezidentimizning “Asosiy maqsadimiz – odamlarimizni doimiy daromadli qilishdan iborat. Puli bor odam yaxshi kiyinish va ovqatlanishga, sifatli ta’lim va malakali tibbiy xizmatdan foydalanishga, mazmunli dam olishga, bir so‘z bilan aytganda, farovon yashashga intiladi” degan hayotiy so‘zlari keltirilgan raqamlarning hayotdagi ijobati bo‘ladi.

2026-yildan yo‘lga qo‘yilayotgan yana bir muhim masalalardan biri tuman byudjeti daromadlarini kamida 2 karra ko‘paytirish va orqali mahalla va aholi daromadlarini maqsadli ishlatish bo‘lib, bu borada bir qator yangi amaliy chora-tadbirlar olib borilishi ko‘zda tutilmoqda. Shu maqsadda 2026-yil 1-yanvardan boshlab, qo‘shilgan qiymat solig‘idan

tushumning Toshkent shahrida 5 foizi, qolgan hududlarda 20 foizi qoldirilib, bu mablag‘ning yarmi tumanlar byudjetiga o‘tkaziladi. Shu bilan birga daromadlarning prognozga nisbatan oshirib bajarilgan qismining 50 foizi, ekin yerlarini ijaraga berish va bozorlardan tushumlar ham to‘liq tuman byudjetiga beriladi.

En muhimi kelgusi yilda ilk bor mahalla infratuzilmasini rivojlantirish uchun 20 trillion so‘mni viloyatlarning o‘ziga berilmoqda. Bundan tashqari, 2026-yilda “mahallada sanoat va xizmat” loyihasi orqali 10 mingdan ziyod ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish loyihalarini ishga tushirish uchun 5 trillion so‘m kredit berilishi ko‘zda tutilmoqda. Har bir mahallada 40 tadan mikroloyihani amalga oshirib, 360 ming aholini ishli qilish uchun mahalla bankirlari va hokim yordamchilariga 2026-yilda yana 7,5 trillion so‘m resurs ajratiladi.

Bunday yondashuv mahalliy hokimiyatlarga ko‘proq moliyaviy mustaqillik berib, yo‘l, suv ta’minoti, sog‘liqni saqlash, ta’lim kabi muhim infratuzilma va xizmatlarni rivojlantirish imkonini beradi. Bu esa mahallalarda ijtimoiy loyihalarni amalga oshirib, aholi hayot sifati va farovonligini yaxshilashga xizmat qiladi, chunki daromadlar soliqlarning o‘rniga mahalliy byudjetlarda qoldiriladi va fuqarolarning o‘z tashabbuslariga yo‘naltiriladi.

Ustuvor maqsad 2026-yilda 1 million odamni doimiy ish bilan ta’minlab, 181 ming oilani kambag‘allikdan chiqarish bo‘lib, shuningdek yangi yilda kambag‘allik va ishsizlik darajasini 4,5 foizga tushirish, kambag‘allikdan xoli mahallalar sonini 3,5 mingtaga yetkazish kabi aniq marralar ham belgilangan.

Yana bir ustuvor yo‘nalish iqtisodiyotni texnologik va innovatsion o‘sish modeliga o‘tkazishdan iborat. Bu O‘zbekiston uchun juda muhim strategik yo‘nalish bo‘lib, u nafaqat iqtisodiy o‘sish sur’atlarini jadallashtirish, balki mamlakatning global raqobatbardoshligini oshirish hamda aholining turmush darajasini yaxshilashga xizmat qiladi. Aniq tahlillarga ko‘ra jahon bozorida faqat yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqaradigan davlatlar muvaffaqiyatga erishadi va shu sababli

barcha sohalarda texnologik va innovatsion yondashuvlar muhim ustuvorlikka aylanmoqda.

Shundan kelib chiqqan holda 2030-yilga qadar yalpi ichki mahsulot hajmini 240 milliard dollardan oshirish uchun eng to‘g‘ri yo‘l – barcha sohalarni texnologik va innovatsion o‘sish modeliga o‘tkazish hisoblanadi va bu kelgusi yillarda iqtisodiy taraqqiyot strategiyamizning asosiy yo‘nalishi bo‘lib xizmat qiladi. Bunda kelgusi yili iqtisodiyotda 6,6 foiz o‘sishni ta’minlab, yalpi ichki mahsulotni 167 milliard dollarga yetkazish prognoz qilinmoqda. Prezidentimiz so‘zlari bilan aytganda, “Agar mehnat unumdorligi, energiya samaradorligi va tannarx bo‘yicha qattiq ishlansa, bu ko‘rsatkichni yanada oshirish uchun barcha imkoniyatlar bor” [4].

Ilgari kuzatilmagan yana bir muhim vazifalardan biri sifatida mamlakatimizda kosmik sohadagi tadqiqotlarni rivojlantirish, yo‘ldoshli aloqa texnologiyalarini joriy etish borasida ham katta qadamlar tashlanib, bu borada 2028 yilda Samarqandda Xalqaro astronavtika kongressini o‘tkazishga puxta tayyorgarlik ko‘rilmoqda.

Bu amalda mustaqil O‘zbekiston tarixida ilk bor kosmik sohada sun’iy yo‘ldosh va mamlakatimiz fuqarosi bo‘lgan birinchi o‘zbek kosmonavtini fazoga uchirish bo‘yicha ishlarning boshlanishi bo‘lib, Yangi O‘zbekistonning ilmiy va texnologik rivojlanishiga, umuman, milliy taraqqiyotimizni yangi bosqichga olib chiqishga katta turtki beradi. Kosmonavtning fazoga parvozi esa yoshlarda ilm-fanga qiziqishni oshirib, muhandislik, astronomiya va yuqori texnologiyalar sohalari rivojiga ijobiy turtki beradi hamda mamlakatning kelajak taraqqiyoti uchun ilhom va ishonch manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Murojaatnomada qayd etilgan yana bir muhim yo‘nalish – ichki bozorda talabni rag‘batlantirish masalasi bo‘lib, o‘tgan 9 yil mobaynida bu borada ham amaliy ishlar qilindi. Misol sifatida besh yil oldin aholimiz yiliga 210 mingta kvartira, 600 mingta avtomobil xarid qilgan bo‘lsa, joriy yilda 270 mingta uy, 1 millionta mashina sotib oldi. Bunga birinchi navbatda aholining daromadi, xarid qobiliyati oshishi orqali erishildi. O‘tkazilgan so‘rovlar ham, xalqaro ekspertlar tahlillari ham 75 foiz aholining moliyaviy holati keskin yaxshilanganini tasdiqlamoqda.

Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari mamlakat taraqqiyotining muhim poydevori bo‘lib, bu orqali maktab va oliy ta’lim sifati oshirilib, zamonaviy bilim va kasblarga ega, raqobatbardosh yoshlar tayyorlanmoqda, raqamli texnologiyalar va xalqaro tajribalarning joriy etilishi yosh avlodning salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishga xizmat qilib, jamiyatda ilm-fan, innovatsiya va barqaror iqtisodiy o‘sish uchun mustahkam asos yaratmoqda.

Endilikda esa kelgusida kasblarni rivojlantirish va yangi mehnat bozori arxitekturasini yaratish masalasi ustuvor bo‘lib, bu orqali jahon mehnat bozoriga o‘z o‘rnimizga va mavqeyimizni yanada mustahkamlaymiz. Tahlillarga ko‘ra yaqin besh yilda mavjud kasblarning 30 foizi to‘liq avtomatlashtiriladi, 50 foizi bo‘yicha esa yangi malakalar talab qilinadi.

Mavjud ehtiyoj va tajribalarni inobatga olgan holda kasbiy ta’limning eng muhim bo‘g‘ini bo‘lgan texnikumlarni yangi sifat bosqichiga olib chiqish ko‘zda tutilmoqda. Bunga birinchi navbatda 2026-yildan boshlab, har yili kamida 100 tadan texnikumni to‘liq ta’mirlab, texnologik va talab yuqori bo‘lgan kasblarga mos holda jihozlash, Germaniya, Shveysariya, Buyuk Britaniya, Xitoy, Koreya kabi davlatlarning ilg‘or ta’lim dasturlari joriy qilingan texnikumlar sonini 100 taga yetkazish va bosqichma-bosqich rivojlantirish orqali erishamiz. Bu borada shuningdek, 2026-yilda 7 ta viloyatda, 2027 yilda esa qolgan hududlarda Ilg‘or kasbiy mahorat texnikumi va “Kasblar shaharchasi” faoliyati yo‘lga qo‘yiladi [5]. Bu esa yoshlarni zamonaviy kasb-hunarlarga o‘qitish, mehnat bozoriga mos malakali kadrlar tayyorlash va ishsizlikni kamaytirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, hududlar iqtisodiy rivoji hamda aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

Yana bir muhim masala sifatida mehnat bozoriga yiliga 300 ming oliy ma’lumotli kadrlar kirib kelayotganini inobatga olgan holda endilikda oliygoh bitiruvchilari va ish beruvchilar o‘rtasida ko‘prik bo‘lib xizmat qiladigan raqamli ekotizim yaratiladi. Bu yosh mutaxassislarning kasbiga mos ish topishini osonlashtiradi, ish beruvchilarga esa zarur malakali kadrlarni tez va shaffof tanlash imkonini beradi hamda ta’lim bilan mehnat

bozori o‘rtasidagi uzilishni kamaytirib, bandlik va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Ekologik muvozanatni ta’minlash, “yashil” energetika va suv resurslaridan oqilona foydalanish ham dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib, bu borada yirik korxonalarga filtr, tozalash inshooti va havoga chiqariladigan zararli moddalarni monitoring qilish stansiyasini o‘rnatish, qo‘shni va xorijiy mamlakatlar bilan birgalikda yangi ekoloyihalarni boshlash, avtomobillar chiqarayotgan zararli moddalar darajasiga qarab, ekologik stikerlar tizimi joriy etish, ekologik avtomobillarni ko‘paytirish bo‘yicha besh yillik dasturni amalga oshirish, har bir hududda botanika va dendrologiya bog‘lari hamda 20 tadan soya-salqin sayr ko‘chalari barpo qilish nazarda tutilmoqda.

Umuman olganda ekologiya sohasiga 2026-yilda 1 trillion 900 milliard so‘m yo‘naltirilayotganligi atrof-muhitni muhofaza qilish, havo va suv sifatini yaxshilash, yashil hududlarni kengaytirish hamda ekologik muammolarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etib, aholi salomatligi va kelajak avlod uchun barqaror yashash sharoitini ta’minlashga xizmat qiladi [6].

Murojaatnomada e’tibor qaratilgan ustuvor yo‘nalishlardan biri zamonaviy davlat boshqaruvi va adolatli sud-huquq tizimi borasidagi islohotlarimizni davom ettirish bo‘lib, bunda 2026-yildan boshlab Elektron hukumat platformasi tubdan yangilash, barcha davlat idoralarining mingdan ziyod davlat xizmatlari, 5 mingdan ortiq funksiya va vazifalari, 200 ta ma’lumot bazasi va axborot tizimi va 100 mingdan ziyod davlat xizmatchisining mahalla, tuman, viloyat, respublika darajasidagi vakolatlari Yagona raqamli platformaga integratsiya qilinishi ochiqlik va shaffoflik siyosatini yangi bosqichga olib chiqadi.

Shuningdek 2026-yil 1-yanvardan davlat xaridlarida ochiq, shaffof va adolatli tizim yaratilib, bu tadbirkorlarga 300 trillion so‘mlik kafolatli bozorda o‘zlarining tovar va xizmatlari bilan faol ishtirok etishlari uchun katta imkoniyatlar eshigini ochadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi mamlakatning bugungi holati va yaqin kelajakdagi rivojlanish

yo‘nalishlarini aniq belgilab berishda amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, murojaatnoma jamiyatda ochiqlik va mas’uliyatni kuchaytirib, barcha sohalarda islohotlarni izchil davom ettirishga yordam beradi.

Murojaatnoma kelgusi taraqqiyot uchun ishonchli yo‘l xaritasi bo‘lib, davlat idoralari, tadbirkorlar va keng jamoatchilikni yagona maqsad atrofida birlashtiradi. Bu orqali aholining hayot sifati yaxshilanishi, yoshlar uchun imkoniyatlar kengayishi va mamlakatimizning xalqaro maydondagi nufuzi yanada oshishiga erashamiz. Shunday ekan Murojaatnoma Yangi O‘zbekistonni barqaror, adolatli va raqobatbardosh davlat sifatida rivojlantirishda dasturulamal bo‘lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2025-yil 26-dekabr.

https://president.uz/oz/lists/view/8834

2. Raqamli sakrash: O‘zbekiston GovTech indeksida 71 pog‘ona yuqorilab, dunyoning TOP–10 davlati qatoridan joy oldi. https://www.xabar.uz/uz/

3. Bu yil 188 mahalladagi 715 ming aholi yashaydigan xonadonlarga birinchi marta toza ichimlik suvi kirib bordi. https://uza.uz/oz/

4. Kelgusi yilda iqtisodiyotda 6,6 foiz o‘sishni ta’minlab, yalpi ichki mahsulotni 167 milliard dollarga yetkazish prognoz qilinmoqda. https://gov.uz/oz/

5. Hududlarda Ilg‘or kasbiy mahorat texnikumi va “Kasblar shaharchasi” faoliyati yo‘lga qo‘yiladi. http://www.insonhuquqlari.uz/oz/news/m17049

6. Ekologiya sohasiga 2026-yilda 1 trillion 900 milliard so‘m yo‘naltiriladi. https://yuz.uz/uz/news/

# HOKIMIYATLAR BO‘LINISH PRINSIPINI MAHALLIY DARAJADA TA’MINLASH – BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH OMILI

**Xusanov Ozod Tillabayevich**
*O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori*

2026-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Prezidenti Konstitutsiyamizning 109-moddasi, 6-bandida belgilangan vakolatidan kelib chiqib, Oliy Majlis va O‘zbekiston halqiga murojaat qildi. Unda kelgusida amalga oshiriladigan olti ustivor yo‘nalish belgilandi va oltinchi yo‘nalish sifatida davlat boshqaruvidagi islohotlarni davom etdirish zarurligi ko‘rsatildi.

Haqiqatda ham oldimizga qo‘yilgan barcha, muxim vazifalari bajarilishng asosi sharti bo‘lshishi-zamonaviy, adolatli boshqaruv tizimini shakillantirish doimiy jarayon bo‘lishligini xayotni o‘zi ko‘rsatmoqda. Shundan kelib chiqib barcha davlat hokimiyati organlari, jumladan tuman, viloyat, respublika darajadagi organlarning vakolatlari yagona raqamli platformaga intigratsiya qilinishi; platformaga tushgan murojaatlar, ularni ijrochilarga taqsimlash va ko‘rib chiqish muddatini nazorat qilishni sun’iy intellekt orqali amalga oshirishga o‘tilishi; davlat xizmatlarini ko‘rsatishda inson omilisiz xoli ekotizim yaratish belgilandi.

Murojaatda jiddiy siyosiy islohat sifatida mahalliy Kengash raislari va hokimlar lavozimini ajratilganligi qayd qilinib, bu jiddiy siyosiy isloxat “hokimlar va ijro idoralaridan Kengashlarga munosabatini mutlaqo o‘zgartirishni talab etishi”-qayd qilindi. Haqiqatda ham bu kishilarni ongi, masalaga yondashuvi, ya’ni psixologik xolatiga bog‘liq masala. Agar hokimlar, ijro etuvchi hokimiyat raxbarlari shu borliqni qalbdan, yurakdan xis qilmasa isloxotlardan kutilgan natija bo‘lmaydi.

Shuning uchun ushbu masalani axamiyatini barcha manfaatdor shaxslarga yetkazish, amalga oshiriladigan ishlar borasida tajriba almashuvni tashkil qilish maqsadida Oliy Majlis Senati Kengashi 2026 yil 19-31yanvarda “Halq deputatlari viloyatlar, tuman va shaxar Kengashlari raislari, viloyatlar va Toshkent shaxar Kengashlari kotibiyat mudirlari

xamda tuman (shaxar) hokimlar uchun o‘quv seminarlari tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qaror qabul qildi.

Shu qaror asosida tashkil qilingan o‘quv mashg‘ulotlarida, yangi tizimni vujudga kelishi va takomillashuvi, unda hokimiyatlar bo‘linishi prinsipini qo‘llash va uning mexanizmlari, vakillik, ijro etuvchi hokimiyat hamkorligi (munosabat), mahalliy hokimiyati organlari bilan Senatning munosabati masalalari muxokama qilinib, tegishli hulosalar qilindi.

O‘zbekistonda mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimi, faoliyatini takomillashtirish O‘zbekiston ittifoq tarkibida turli vaqtda boshlangan edi. 1990 yilda o‘tkazilgan vakillik organlariga saylovlarda bu jarayon boshlanib, mahalliy sovetlarga deputatlar muqobillik asosida saylandi, nomzod ko‘rsatuvchi subyektlar doirasi kengaydi, deputatlikka qo‘yiladigan yosh senzi ko‘tarildi, viloyat, tuman, shahar sovetlariga saylanadigan deputatlar soni qisqartirildi. Xalq deputatlari sovetlari raisi lavozimi joriy etildi. 1991 yil dekabr oyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi kuni faqat Toshkent shaxrida, Toshkent shaxar hokimi Toshkent aholisi tomonidan saylandi.

Undan avvalroq ya’ni 1991-yil sentabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi asoslari tug‘risida”gi qonunda, bundan buyon O‘zbekistonda davlat hokimiyati “Hokimiyatlar bo‘linishi prinsipida” tashkil qilinishi belgilab qo‘yildi. 1992-yil 4-yanvarda “O‘zbekiston Respublikasining mahalliy hokimiyat idoralarini qayta tashkil etishi to‘g‘risida”gi qonun, mahalliy miqyosda – vakillik hokimiyati Xalq deputatlari sovetlari, ijro hokimiyati - hokimlar bo‘lishini ko‘rsatib, mahalliy miqyosda ikki turdagi hokimiyat organi bo‘lishligini qonuniy belgiladi. Bu bilan jiddiy takomillashtirilgan vakillik hokimiyati organi deputatlar soveti va mutlaq yangi, yakka boshchilik asosida faoliyat yuritadigan hokim instituti vujudga keldi, hokimga faqat vakolatlar berib qolinmay, ularning ma’suliyati xam kuchaytirildi.

1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan Konstitutsiya bu masalani Konstitutsiyaviy darajada mustahkamladi.

Natijada mamlakatimizda mahalliy hokimiyatning ikki turi: vakillik hokimiyati – xalq deputatlari Kengashlari, ijro hokimiyati – xokimlar

vujudga keldi va ular avvalgidek uch pog‘onada emas, 2 pog‘onada tashkil qilinadigan bo‘ldi. Qishloq va posyolkalarda davlat hokimiyati organlari tuzilmaydigan bo‘ldi.

Konstitutsiyada vakillik va ijro hokimiyatiga hokimlar boshchilik qilishi belgilandi. Konstitutsiya loyihasi muhokamasida bu masalaga turlicha fikrlar bildirildi va bu tartib hokimiyat bo‘linishiga zid bo‘lishi ta’kidlandi.

1992-yil 9-oktabrda nashr qilingan “Xalq so‘zi” gazetasidagi “Yanada takomillashtirish lozim” deb nomlangan maqolada 98-moddada hokimlarni vakillik organlariga boshchilik qilishi ko‘rsatilgan, bu bir tomondan hokim ya’ni ijrochi organning vakillik hokimiyati organidan ustunligini keltirib chiqaradi, ikkinchi tomondan hokimiyatchilikning bo‘linishi prinsipiga ziddir. Gap hokimlarning vakillik organlari ishini uyushtirish haqida borishi kerak. Uyushtirish bilan rahbarlik qilish o‘rtasida farq bor” – degan fikrlar bildirilgan bo‘lib, bu endilikda e’tiborga olindi.

1993-yil 2-sentabrda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi va hozirgi kungacha o‘zgartirish hamda qo‘shimchalar bilan u ishlab kelmoqda.

Mahalliy davlat hokimiyatiga tegishli bir necha Prezident farmonlari, qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari qabul qilingan bo‘lib, bularning barchasi haqida gapirib o‘tish imkoniyati yo‘q. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, 2017-yildan boshlab, mahalliy davlat hokimiyatini takomillash-tirishga jiddiy e’tibor qaratildi va ikki organning mustaqilligini ta’minlash kun tartibiga chiqdi.

2017-yil 8-sentabrda Prezident Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy islohotlar Konsepsiyasi”da “Hokimning mahalliy hokimiyat vakillik organining rahbari sifatidagi maqomini unda ijro etuvchi hokimiyat rahbari maqomini saqlagan va xalq deputatlarini Kengashlarning kotibiyatini tuzgan holda qayta ko‘rib chiqish orqali mahalliy davlat hokimiyati tizimini tashkil etishda hokimiyatlar bo‘linishi tamoyilining amaliy ro‘yobga chiqarilishini ta’minlash” – vazifasi belgilandi.

O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev ham bu masalaga alohida e’tibor qarata boshladi. 2017-yil 22-dekabrdagi Oliy Majlisga murojaatnomasida “... ochiq tan olishimiz lozim, hokimlarning ham mahalliy kengashlarga, ham ijro hokimiyatiga rahbarlik qilishi demokratiya prinsiplariga mos keladi deb bo‘lmaydi ... hokimning hisobotini o‘zi, rahbarlik qilib kelayotgan mahalliy kengashga taqdim qilishi va tasdiqlatishi, o‘zining faoliyatiga o‘zi baho berishi to‘g‘rimi?”.

Bu tizim hokimlar va mahalliy Kengashlarning o‘z vazifalarini samarali bajarilishiga salbiy ta’sir etayotganini zamonning o‘zi ko‘rsatdi. Shu masalani yechimini topish uchun bir necha tadbirlar, eksperimentlar o‘tkazildi. Va nihoyat masalani huquqiy yechimi Konstitutsiyaviy asosda yangi tahrirdagi Konstitutsiyada o‘z o‘rnini topdi.

Konstitutsiyaning 120-moddasi ikkinchi qismida “Xalq deputatlari Kengashiga uning deputatlari orasidan qonunga muvofiq saylanadigan rais boshchilik qiladi” – degan qoida belgilandi.

1992-yil 8-dekabrdagi Konstitutsiyada Kengash va hokim vazifalari ajratilmay bir moddada belgilangan bo‘lsa, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada Kengash va hokim vakolatlari alohida-alohida (122, 123-moddalarda) ko‘rsatib qo‘yildi. Bundan ko‘zlangan maqsad – hokimiyat bo‘linishi prinsipini yanada keng qo‘llab, har bir davlat hokimiyati organlarining o‘zaro hamkorlikda, bir biridan mustaqil faoliyat ko‘rsatishi orqali boshqaruv samaradorligiga erishishdir.

Mahalliy miqyosda ikki mustaqil davlat hokimiyati organlarini tashkil etish hokimiyatlar bo‘linishi prinsipini amaliyotga joriy etishni talab qiladi.

Hokimiyat bo‘linishi prinsipi – demokratik huquqiy davlatning zaruriy shartidir. Hokimiyat bo‘linishi prinsipi amal qilmasa huquqiy davlat bo‘lmaydi. Faqat huquqiy davlatdagina hokimiyatlar bo‘linishi prinsipi amal qilishi mumkin.

Diktaturaga asoslangan davlatlarda hokimiyat bo‘linishi prinsipi amal qilmaydi. Bunga sharoit ham yo‘q, extiyoj ham yo‘q. Diktatura davlatlarida hokimiyat bir qo‘lda (yagona subyektda) mujassamlanadi. Ittifoq davrida shunday bo‘lgan. U tizim “Hamma hokimiyat Sovetlarga”

degan chaqiriq asosida vujudga keldi va faoliyat yuritdi. U davrda faqat Sovetlar hokimiyat organi hisoblanib qolgan organlar ularning bo‘g‘ini deb e’tirof etilgan. Hukumat – ijro organi, sud – sud organi yoki huquqni muhofaza qiluvchi organ.

Hokimiyat bo‘linishi prinsipi qo‘llanilishining ijobiy tomonlari:

1. Hokimiyat bir shaxs qo‘lida to‘planishiga va suiste’mol qilinishiga yo‘l qo‘yilmaydi.
2. Davlat idoralari faoliyatini samarali bo‘lishi ta’minlanadi.
3. Davlat organlari bir-birini o‘rnini egallashiga yo‘l qo‘yilmaydi.
4. Davlat organlari o‘z vakolatlarini mustaqil bajara oladi.
5. Bir-birini tiyib turish mexanizmi mavjud bo‘ladi.
6. Fuqarolar mansabdor shaxslar tazyiqidan xoli bo‘ladi. Fuqarolar huquqini himoyalash tizimi mukammal bo‘ladi.

Oddiy qilib aytganda hokimiyat bo‘linishi prinsipi mehnat taqsimotining oliy ifodasi bo‘lib, hokimiyat tarmoqlarining kasbiy qobiliyatli kishilar boshqarishini ta’minlaydi.

Hokimiyat bo‘linishi nazariyasi, u haqidagi bilimlarning paydo bo‘lishi uzoq o‘tmishga Aflotun, Arastu kabi donishmandlar va buyuk ajdodlarimiz Forobiy, Nizomulmulk davrlariga taqaladi. Bu g‘oyani siyosiy-huquqiy ta’limot sifatida shakllanishi XVII-XVIII asrlarga taqalib, burjua inqilobi mevasi deb qaralib, uning asoschilari Djon Lokk va Sharl Lui Monteske hisoblanadi.

Djon Lokk fikricha hokimiyat bo‘linishi prinsipi inson huquqlarini ta’minlashning eng muhim vositasidir. Lekin Lokk sud hokimiyatini alohida e’tirof etmasdan, uni ijro hokimiyatining tarkibiy qismi hisoblagan.

“Hokimiyatlar taqsimlanishi” deb nom olgan bir butun siyosiy-huquqiyb nazariy ta’limot sifatida burjua revolyusiyasi mahsulidir.

Monteske uchta hokimiyatni har biri o‘z faoliyatidan kelib chiqib hokimiyat alohida mustaqil organ tomonidan amalga oshirilishi kerak deb hisoblaydi. U davlat organlari tizimi, ular o‘rtasidagi aloqalar tabiati, o‘zboshimchalikni cheklash va inson erkinligini ta’minlash maqsadida ularning o‘zaro hamkorligi hamda bir-birini “tiyib turish” munosabatlari muhimligini ko‘rsatgan.

Hokimiyatlar bo‘linishida eng muhimi – hokimiyatni amalga oshiruvchi organlarning mustaqilligi, bir-birining faoliyatiga aralashmasligidir. Hokimiyatlar bo‘linishi prinsipi birinchi marta AQSh Konstitutsiyasida (1787 yil) huquqiy jihatdan mustahkamlangan.

Mamlakatimizda olib borilayotgan mahalliy davlat hokimiyatini isloh qilish borasidagi islohotlar mohiyati ularning faoliyatida hokimiyatlar bo‘linishi prinsipini tadbiq qilish, vakillik va ijro etuvchi hokimiyat organlari hamkorligini, nazoratni, hisobdorlikni ta’minlashga qaratilgandir.

Mahalliy vakillik va ijro etuvchi hokimiyatni har birini talab darajada takomillashtirish islohotlarning asosiy vazifasi bo‘lib, shu vazifani bajarilishi ikki organning aloqasi, munosabati to‘g‘ri va samarali bo‘lishiga olib keladi. Bu oqilona va zamonaviy davlat boshqaruvining ham shartidir.

Mahalliy Kengashlarning mavqeini o‘zgartirish masalasiga 2024 yil oktabr oyida bo‘lib o‘tgan saylov natijasida shakllangan Oliy Majlis Senatining birinchi majlisida mahalliy Kengashlar faoliyatiga baho berilib, rivojlantirish yo‘llari Prezident tomonidan ko‘rsatib berildi. Prezident ta’kidlashicha, Mahalliy Kengashlarga ko‘p vakolatlar berib, maqomi ancha oshirildi. Lekin afsuski, Kengash deputatlari tajriba almashadigan, malaka va amaliy ko‘nikmasini oshirib boradigan tizim yo‘lga qo‘yilmadi. Mahalliy Kengashlarning eng yaxshi tajribalarini boshqa hududlarda ham ommalashtirish yo‘lga qo‘yilsa albatta ishimizning samarasi yanada oshadi.

Majlisda Prezident qonun ijodkorligi jarayoniga mahalliy kengashlarni keng jalb etish; qonunlar bo‘yicha ularning fikrini olish; qonunlarni parlament qo‘mitalarida ko‘rib chiqishda mahalliy kengash deputatlarini keng jalb etish; kengash faoliyatiga ko‘maklashish Senatning ustuvor vazifasi bo‘lishi Mahalliy Kengashlarning nazorat faoliyatini kuchaytirishni nazarda tutuvchi “Kengash so‘rovi”, “Kengash tekshiruvi” institutlar ahamiyati haqida to‘xtaldi.

Shuningdek ma’ruzada hududda qonun hujjatlarini so‘zsiz ijro etish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ekologik jihatdan rivojlantirish

uchun hokimlar mas’ul va javobgar ekanligi ta’kidlanib, Senat mahalliy hokimlik va Kengashlar hamjihat faoliyat yuritishi, o‘zaro munosabatlarini to‘g‘ri tashkil etish uchun ularga yaqindan yordam berishi ko‘rsatildi va buning ijrosini 2026-yil 19-31 yanvar kunlari tashkil etilgan “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari raislari, viloyat va Toshkent shahar Kengashlari kotibiyat mudirlari hamda tuman (shahar) hokimlari uchun o‘quv seminar”da ko‘rdik.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga kiritilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar, Prezidentning ko‘rsatmalari asosida “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 2024-yil 17-oktabr qonuni qabul qilindi.

Unda asosiy g‘oya ikki turdagi hokimiyat organlari faoliyatiga hokimiyat bo‘linishi prinsiplarini keng tadbiq etish, ularning mustaqilligini ta’minlash va shu orqali ish samaradorligini oshirishdir. Qonunda Kengash raisini saylash, lavozimdan ozod qilish tartibi, kimlar Kengash raisi bo‘la olmasligi, muddati, vakolatlari aniq belgilandi.

Kengash va hokim vakolatlari bir-biri bilan munosabati, tiyib turish mexanizmlari belgilandi. Masalan, hokim Kengashning qonunga zid qarorlarini bekor qilishi haqida Kegashga taqdimnoma kiritish, yoki qarorni bekor qilishni so‘rab Oliy Majlis Senatiga yoki sudga murojaat qilishi mumkin. O‘z navbatida Kengash hokim qarorini bekor qilish huquqiga ega. Qonunda “Kengash so‘rovi”, “Kengash surishtiruvi” institutlarini belgilanishi, Kengashning nazorat funksiyasini ijro hokimiyatining hisobdorligini kuchaytiradi.

2025-yil 23-iyunda qabul qilingan Prezidentning “O‘zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini 2030 yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni davlat boshqaruvi islohotida katta ahamiyatli hujjat bo‘ldi. Hujjatning asosiy maqsadi – “Kuchli Kengash, hisobdor va tashabbuskor hokim” tamoyilini ro‘yobga chiqarishdir. Unda qayd qilinishicha mahalliy Kengashlarning

amaldagi maqomi o‘zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatini ta’minlashda yangilangan Konstitutsiyaning hokimiyatlar bo‘linishi tamoyilini to‘laqonli ravishda amalga oshirish imkonini bermayotganligi ta’kidlandi va shunga erishish yo‘llari belgilanib, 2030 yilgacha vakillik organlarini (Kengashlarni) xalqning xohish-irodasini ifoda etuvchi institutga aylantirish, mahalliy vakillik va ijro etuvchi organlarning vakolatlarini aniq taqsimlangan yangi modelini yo‘lga qo‘yish belgilandi. Buning uchun tajribalar chuqur o‘rganilishi, ijobiy holatlar ommalashtirilishi, tajriba almashish doimiy jarayonga aylantirilishi va shular asosida qonunchilik hujjatlari yaratilishi zarur.

2025-yil 26-dekabrdagi O‘zbekiston Prezidentining Oliy Majlisga murajaatnomasida oltita yo‘nalish belgilanib, oltinchi yo‘nalishida davlat boshqaruvidagi islohotlar davom ettirilishi ko‘rsatilib, Parlamentimiz kuchli parlamentlarga xos vakolatlarga ega bo‘lganligi, shu hislatni mahalliy Kengashlarga ham ayta olishimiz kerakligini, buning uchun hokimlar va ijro idoralardan Kengashlarga munosabatini o‘zgartirish talab etilishini alohida ta’kidladi.

2026-yil 19-31-yanvarda Oliy Majlis Senati va Prezident Administratsiyasi tashabbusi bilan o‘tkazilgan “O‘quv seminari”da shu masalaga alohida e’tibor qaratildi. Ijro etuvchi hokimiyat rahbarlarining ongini, qarashini, madaniyatini zamon talabi darajasiga mos ravishda o‘zgartirmasdan maqsadga erishish qiyin.

Bu tez va birgina seminar mashg‘ulotda qilib bo‘lmaydigan vazifa hisoblanadi. Bu masala doimiy jarayonga aylanishi zarur.

Buning uchun hokimiyat bo‘linishi mexanizmlarini doimiy takomillashtirib borish;

O‘zaro nazorat va hisobdorlik samaradorligining muntazam baholab borish;

Kengash va hokim vakolatlarini xaqiqiy holatini muntazam tahlil qilib borish;

Yangi modelni, hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta’sirini o‘rganib borish;

Hokimlarni Kengash sessiyasiga masalalar kiritish, Kengash qabul qiladigan hujjatlarni ishlab chiqishga keng jalb qilish;

Hokim va boshqa ijro etuvchi hokimiyat tarmoqlarni rahbarlarining Kengashga hisobotini eshitishni real voqealikka aylantirish zarur.

Bundan tashqari, hokim, Kengash raislari malaka oshirish kurslarining doimiy holatga aylantirish, tegishli muammo va yutuqlarni OAVga muntazam yoritib borish, tajriba almashinishni yo‘lga ko‘yish lozim.

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SH.M. MIRZIYOYEVNING OLIY MAJLIS VA O‘ZBEKISTON XALQIGA MUROJAATNOMASI: MILLIY TARAQQIYOTNING USUVOR YO‘NALISHLARI VA ISTIQBOLDAGI VAZIFALAR

**Axmedov D.K.**
*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti professori, yuridik fanlar doktori, professor*

Yangi O‘zbekiston Konstitutsiyasining asosiy g‘oyalaridan biri — inson qadr-qimmatini ta’minlashdir. Konstitutsiyada inson sha’ni va qadr-qimmatini kamsituvchi har qanday holatlarga yo‘l qo‘yilmasligi qat’iy belgilangan. Qiynoqlar, zo‘ravonlik, shafqatsiz yoki insoniylikka zid muomala va jazolar taqiqlanadi. Bu normalar xalqaro inson huquqlari standartlariga to‘liq mos keladi. Yangi Konstitutsiya ijtimoiy davlat tamoyilini mustahkamlab, fuqarolarning ijtimoiy himoyasiga alohida e’tibor qaratadi. Unda kam ta’minlangan qatlamlarni qo‘llab-quvvatlash, nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlarini himoya qilish, sog‘liqni saqlash va ta’lim sohalarida teng imkoniyatlar yaratish masalalari aniq belgilangan. Bu esa inson huquqlarini faqat deklarativ emas, balki amaliy jihatdan ta’minlashga xizmat qiladi.

Yangi Konstitutsiya “Inson – jamiyat – davlat” tamoyiliga asoslanib, inson manfaatlarini davlat faoliyatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilaydi. Ushbu hujjat inson huquqlarini nafaqat e’lon qiladi, balki ularni amalda ta’minlashning aniq huquqiy mexanizmlarini ham mustahkamlaydi. Inson huquqlari — bu shaxsga tug‘ilganidan boshlab beriladigan, ajralmas va daxlsiz huquqlardir. Ular insonning erkin yashashi, rivojlanishi va jamiyat hayotida faol ishtirok etishini ta’minlaydi. Yangi O‘zbekiston

Konstitutsiyasida inson huquqlari eng oliy qadriyat sifatida e’tirof etilgan bo‘lib, davlat organlari faoliyati aynan shu huquqlarni ta’minlashga qaratilishi belgilangan. Konstitutsiyada inson huquqlari universal xarakterga ega ekani, ular irqi, millati, tili, dini, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar barcha uchun teng ekani mustahkamlangan.[1] Bu normalar O‘zbekistonning inson huquqlari sohasidagi xalqaro majburiyatlariga to‘liq mos keladi. Yangi Konstitutsiyaning eng muhim jihatlaridan biri — inson qadr-qimmatini oliy qadriyat sifatida belgilanishidir. Konstitutsiyada inson sha’ni va qadr-qimmatini kamsitish qat’iyan man etiladi. Hech kim qiynoqqa solinishi, zo‘ravonlikka uchrashi yoki insoniylikka zid muomalaga duchor etilishi mumkin emas. Mazkur norma davlat

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan murojaatnomasi[2] mamlakat taraqqiyotining muhim bosqichlarini belgilab beruvchi strategik hujjat hisoblanadi. Ushbu murojaatnoma jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olgan bo‘lib, unda milliy taraqqiyotning ustuvor yo‘nalishlari, amalga oshirilayotgan islohotlar natijalari hamda kelgusidagi asosiy vazifalar aniq va ravshan bayon etilgan. Shuningdek, Prezident 2026-yilni mamlakat taraqqiyoti uchun yangi sifat bosqichi, “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” deb e’lon qilish tashabbusini ilgari surdi, bu orqali mahallalarning ijtimoiy rolini tubdan mustahkamlash maqsad qilinganini ta’kidladi.

Mazkur Murojaatnoma nafaqat parlament a’zolari, balki keng jamoatchilik uchun ham davlat taraqqiyotining strategik dasturi hisoblanadi. Hujjat iqtisodiyotdan tortib ekologiyagacha bo’lgan barcha ustuvor yo’nalishlarni o’z ichiga qamrab olgani bilan ahamiyatlidir. Shu nuqtayi nazardan, u hokimiyat va xalq o’rtasidagi muloqotning samarali mexanizmiga aylanib, jamiyat va davlat manfaatlarini birlashtirishda markaziy o’rin tutadi.

Davlat rahbari nutqida oshkoralik va so’z erkinligi tamoyillariga urg’u berilgani fundamental ahamiyatga ega. Murojaatnomada strategik rejalarning aniq statistik ko’rsatkichlar asosida bayon etilishi boshqaruv

tizimida hisobdorlik va shaffoflik madaniyatini qaror toptiradi. Binobarin, mazkur chiqish shunchaki siyosiy bayonot bo'lib qolmay, jamiyat uchun chuqur tahliliy manba sifatida e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis va xalqiga murojaatnomasida xalqimizning salohiyati va mas'uliyatiga alohida urg'u berib, "biz o'zgarishlarni kutib yashamaymiz, aksincha, ularni o'zimiz, o'z aql-zakovatimiz va mas'uliyatli mehnatimiz bilan yaratamiz", deb ta'kidlaydi. Ushbu fikr mamlakat taraqqiyotida fuqarolarning faolligi va tashabbuskorligi muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi. Prezident murojaatnomasida milliy rivojlanish faqat davlat siyosati emas, balki jamiyatning faol ishtiroki bilan bog'liq ekanligi ochib berilgan.

Murojaatnoma nafaqat parlament deputatlari va senatorlar, balki butun xalq uchun mamlakat taraqqiyotining "yo'l xaritasi" vazifasini o'taydi. Unda iqtisodiyot, ijtimoiy soha, ta'lim va sog'liqni saqlash, adliya va sud tizimi, xavfsizlik, ekologiya, xalqaro munosabatlar kabi deyarli barcha sohalar qamrab olinadi. Shu jihatdan Murojaatnoma xalq bilan muloqotning muhim siyosiy vositasiga, davlat va jamiyat manfaatlari uyg'unligini ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim maydonga aylangan. Shuningdek, Murojaatnoma davlat siyosatidagi ustuvor yo'nalishlarni belgilash bilan birga, jamiyatni umumiy maqsadlar atrofida birlashtiruvchi g'oyaviy mezon vazifasini ham bajarmoqda.

Ayniqsa, 2026-yilning "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish"[3] deb nomlanishi davlat siyosatining navbatdagi bosqichi sifatida muhim ramziy va amaliy ma'no kasb etmoqda. Bu qaror islohotlar markaziga yanada yaqinroq insonni, uning kundalik hayoti, muammolari va ehtiyojlarini qo'yayotganidan dalolat beradi. Chunki mahalla – fuqarolik jamiyatining ilk bo'g'ini, ijtimoiy adolat, o'zaro yordam, ma'naviy tarbiya va jamoaviy mas'uliyat shakllanadigan asosiy makondir.

Bu yil 188 ta mahalladagi 715 ming aholi yashaydigan xonadonlarda birinchi marta toza ichimlik suvi kirib bordi, yana 2,3 millionga yaqin aholining suv ta'minoti yaxshilandi. Hamda , 867 ta " og'ir " mahalladagi

470 mingta xonadonga tomorqalarni sug’orish uchun ilk bor suv yetib bordi[1].

Ta’lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy himoya sohasini modernizatsiya qilish, o‘qituvchilarning ijtimoiy nufuzini yuksaltirish va o‘quv dasturlarini raqamlashtirish Prezident siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Bog‘chalardan tortib kasb-hunar maktablarigacha bo‘lgan barcha bo‘g‘inlarda moddiy-texnik bazani yangilash va yoshlarni bozor talablariga mos kadr qilib tayyorlash vazifasi qo‘yildi.

Oliy ta’lim va Ilm-fan: Oliy o‘quv yurtlari o‘rtasida sog‘lom raqobatni shakllantirish, xalqaro reytinglarga kirish va ilm-fanni ishlab chiqarish bilan integratsiya qilish orqali innovatsion iqtisodiyotga o‘tish choralari ko‘rilmoqda.

Sog‘liqni saqlash: Tibbiyotda asosiy e’tibor xizmatlar sifatini oshirish, profilaktikani kuchaytirish va hududiy infratuzilmani yaxshilashga qaratilgan. Pandemiya saboqlari asosida sanitariya-epidemiologiya va tez tibbiy yordam tizimini tubdan yangilash zarurligi uqtirildi.

Ijtimoiy himoya: Sohada "umumiy yordam" modelidan voz kechilib, raqamli ma’lumotlarga asoslangan manzilli ko‘mak tizimiga o‘tildi. Ehtiyojmand qatlamlarni uy-joy va ijtimoiy xizmatlar bilan ta’minlash dasturlari alohida band sifatida qayd etildi.

Joriy yilda 5 million aholi daromadli bo’lib, ishsizlik darajasi 5,5 foizdan 4,9 foizga tushdi. Qariyb 1,5 million ehtiyojmand aholi kambag’allikdan chiqdi, ilk bor 1 ming 435 ta mahalla “kambag’allikdan holi” hududga aylandi.”[4]

Tashqi siyosat, xavfsizlik va strategik maqsadlar bo‘yicha Murojaatnomada tashqi siyosat va milliy xavfsizlik masalalari davlat barqarorligining kafolati sifatida talqin etildi. Xususan, mintaqaviy strategiya Markaziy Osiyoda yaxshi qo‘shnichilik va ishonch muhitini mustahkamlash, suv-energetika hamda transport-logistika sohalarida ko‘p tomonlama hamkorlikni chuqurlashtirish ustuvor vazifa etib belgilandi. Keyingisi global tashabbuslar bo‘lib, O‘zbekiston iqlim o‘zgarishi, raqamli xavfsizlik va terrorizmga qarshi kurash kabi umumsayyoraviy masalalarda

konstruktiv pozitsiyani egallashi, xalqaro hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishi ta’kidlandi.

Ichki barqarorlikni ta’minlashda millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik tamoyillari asosiy tayanch bo‘lib qoladi. Ekstremizmga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirishda ta’lim va fuqarolik jamiyati institutlarining o‘rni alohida qayd etildi.

“Yetakchi xalqaro reyting agentliklari mamlakatimizning suveren reytingini “BB-” dan “BB” pog’onasiga ko’tardi. Birgina ana shu o’zgarish tufayli chetdan jalb qilinadigan resurslarning foiz stavkasi pasayib, tashqi qarz xarajati yiliga 250-300 million dollarga kamaydi[1].”

2025 - yil 26 dekabrdagi Prezidentning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga murojaatnomasi strategik yo‘nalishlarni belgilovchi huquqiy-siyosiy hujjat sifatida davlatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining yangi bosqichini belgiladi. Murojaatnoma orqali erishilgan yutuqlar, kelgusidagi ustuvor vazifalar va milliy maqsadlar aniq ko‘rsatildi. Uning asosiy g‘oyalari –innovatsiyalarni joriy etish, mahallalarning ijtimoiy rolini mustahkamlash, investitsiyalarni jalb etish, iqtisodiy barqarorlik va fuqarolar farovonligini oshirishdir. Ushbu yo‘nalishlar mamlakatni 2026 va undan keyingi davrda samarali rivojlantirish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - https://www.un.int/uzbekistan/uzbekistan/constitution-republic-uzbekistan
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 26.12.2025 // https://president.uz/oz/lists/view/8834
3. 2026-yil — Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili. 26 dekabr 2025 // https://egov.uz/news/2026-yil-mahallani-rivojlantirish-va-jamiyatni-yuksaltirish-yili-2036

“Sog‘lom turmush tarzi va jamoat salomatligi rivoji bo‘yicha istiqbollar”. Gazeta.uz, 2025, 21-28-b.

# ATROF TABIIY MUHITNI MUHOFAZA QILISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

**Usmonov M.B.**
*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti professori, yuridik fanlar doktori, professor*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida “Ekologik muvozanatni taminlash, “yashil” energetika va suv resurslaridan oqilona foydalanish” beshinchi ustuvor yo‘nalish sifatida e’tirof etildi. Yurtboshimizning ta’kidlashicha, “yirik korxonalarga filtr, tozalash inshooti va havoga chiqariladigan zararli moddalarni monitoring qilish stansiyasi o‘rnatish uchun birinchi bosqichda 100 million dollarlik kredit liniyasi ochiladi, Toshkent shahri va Toshkent viloyatida 2 mingga yaqin ko‘mir va gazda isitiladigan issiqxonalardan havoga yiliga 137 ming tonna zararli modda chiqadi. Ularni poytaxt atrofidan ko‘chirib, hamma joyda markazlashgan qozonxonalar orqali isitishni yo‘lga qo‘yamiz. Shu maqsadda 200 gektardan kam bo‘lmagan agroklasterlar tashkil etiladi, ularning tarkibiga o‘tadigan issiqxonalarga alohida subsidiya beriladi” [1].

Global ekologik muammolardan biri bugungi kunda atrof tabiiy muhitning ifloslanishi bo‘lib qoldi. U milliy xavfsizlikka tahdid solayotgan eng xavf-xatarlardan biri bo‘lib, uning ta’siridan ekotizim muvozanatini saqlash dolzarb muammo hisoblanmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev haqli ravishda ta’kidlaganidek, “atrof-muhit muvozanatining buzilishi, tabiiy resurslardan nomutanosib foydalanish, chiqindilarga beparvo munosabatda bo‘lish va ifloslanish ekotizimlarga va aholi salomatligi va farovonligiga, barqarorlik va davlatlar xavfsizligiga ta’sir qilib, salbiy oqibatlarga olib kelmoqda. Tuproq, suv va havoning haddan ziyod ifloslanishi, iqlim o‘zgarishi, o‘simliklar va hayvonot dunyosidagi tashvishli o‘zgarishlar ekologik muammoni taraqqiyotga yuz tutayotgan mamlakatlarning xavfsizligiga jiddiy tahdid solayotgan omillardan biriga aylantirmoqda” [2].

Ekologik xavf-xatarlar bugungi kunda insoniyat va tirik mavjudotning qulay atrof tabiiy muhitda yashashi uchun global muammolar, ya’ni ekologik inqiroz, ekologik ofat, ekologik tanglik, ekologik halokat va ekologik fojialarni keltirib chiqarmoqda. Shunday fojeali ekologik xavf-xatarlar sirasiga atrof tabiiy muhitning ifloslanishi, chiqindilar bilan muomalada bo‘lish munosabatlarining to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmaganligi, sel bosishi ofatlari, sanitariya-epidemiologik holatning yomonlashuvi, turli infeksiyalar (masalan, koronavirus)ning keng tarqalishi oqibatida odamlarning kasallanishi, o‘rtacha umr ko‘rish yoshining pasayishi, inson organizmida modda almashinuvining buzilishi, yurak-qon, rak kabi kasalliklarning ko‘payishi, atmosfera havosida zaharli gazlarning ko‘payishi, toza ichimlik suvining kamayishi, hayvonot va o‘simlik dunyosi noyob turlarining yo‘qolib borishi kabilarni ko‘rsatish mumkin.

Tabiatga qo‘pol va o‘zboshimchalik munosabatida bo‘lishga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Bunday munosabatni tabiat kechirmaydi... Afsuski, hali ko‘plar ushbu muammoga beparvolik va mas’uliyatsizlik bilan munosabatda bo‘lmoqda. Issiqxona effekti hosil qiluvchi gazlar konsentratsiyasining o‘sishi tabiiy issiqxona effektining kuchayishiga va Yer yuzasining isishiga olib kelmoqda. Agar tegishli chora ko‘rilmasa, kelgusi yuz yillikning har o‘n yilligida harorat 0,3°C ga ortadi. Isish o‘z navbatida qutblardagi muzliklarning erishiga va Dunyo okeani sathining ko‘tarilishiga olib keladi: 2030 yilga borib, dunyo okeani sathi o‘rtacha 20 sm ga, XXI asr oxirida esa 65 smga ko‘tariladi.

Bashoratlarga ko‘ra, butun dunyoda yog‘in miqdorining ortishi kutilmoqda. Ehtimolga ko‘ra, XXI asrning ikkinchi yarmida shimoliy yarim sharning o‘rta va yuqori kengliklarida hamda Antarktikada qishki yog‘inlar miqdori ortadi. Tropiklarda esa, ishlab chiqilgan modellarga ko‘ra, ayrim hududlarda yog‘in miqdori ortsa, boshqa joylarda kamayadi. Ushbu muammoni hal qilish uchun aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish, atrof tabiiy muhitning ifloslanish darajasini baholash mexanizmini takomillashtirish, ifloslantiruvchi manbalarning holati va atrof muhitga ta’siri ustidan

monitoringni amalga oshirish, «Yashil makon» umummilliy loyihasini amalga oshirish, hududlarda o‘rmonlar maydonini kengaytirish kabi chora-tadbirlar muhim rol o‘ynaydi.

Shaharlardagi tirbandliklar nafaqat odamlar hayotini qiyinlashtirmoqda, balki ekologiyaga ham jiddiy zarar yetkazmoqda. Shu bois Murojaatnomada dunyo tajribasidan kelib chiqib, avtomobillar chiqarayotgan zararli moddalar darajasiga qarab, ekologik stikerlar tizimi joriy etilishi, katta miqdorda zararli moddalar chiqaradigan avtomashinalarning poytaxt va viloyat markazlari hamda shaharlarga kirishining cheklanishi, bunday transport vositalarini yangisiga almashtirish yoki ularga filtr o‘rnatish uchun davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash choralari ko‘rilishi, yirik shaharlarda jamoat transportini rivojlantirish ustuvor vazifa bo‘lishi, Toshkent, Samarqand va Namangan shaharlarida transport harakatini intellektual svetoforlar orqali boshqarish tizimi joriy etilishi ta’kidlandi [3].

Avtomobil transporti atmosfera havosini ifloslantiruvchi asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, sifatsiz benzin yoqilg‘isini yoqish, katta shaharlardagi tirbandliklar ifloslantirish darajasini yanada oshiradi, odamlar hayotini qiyinlashtiradi, atrof tabiiy muhitga jiddiy zarar yetkazadi. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, har yili atmosferaga 200 million tonnadan ziyod azot oksidi, 50 million tonnadan ortiqroq har xil uglevodorodlar chiqarilmoqda. Jahon sanoati har yili tabiatga 32 milliard kubometr ifloslangan suv, 70 million tonna zaharli gazlar va 250 million tonna changni chiqarib tashlamoqda.

Shu sababdan, Murojaatnomada aytilishicha, ekologik avtomobillarni ko‘paytirish bo‘yicha besh yillik dastur amalga oshiriladi. Elektromobillarni quvvatlash stansiyalarini tashkil qilish uchun tadbirkorlarga 10 foizli imtiyozli kreditlar beriladi; yerlarni auksiondan 2 karra arzon narxda sotib olish imkoniyati yaratiladi. Elektromobillarni quvvatlash stansiyalarida avtomobillarni zaryadlashda 1 kilovatt-soat elektr energiyasi narxining 300 so‘mdan oshgan qismi davlat budjetidan qoplab beriladi.

Ekologik xavfsizlikni taminlashda benzin va gaz bilan yuradigan avtoulovlardan elektron avtomobillardan foydalanishga o‘tish muhim rol o‘ynaydi. Elektromobillarni quvvatlash masalasi ham bu jarayonda alohida e’tiborni talab etadi. Shunga ko‘ra, elektromobillarni quvvatlash stansiyalarini tashkil qilish maqsadida birinchidan, tadbirkorlarga 10 foizli imtiyozli kreditlar beriladi; ikkinchidan, yerlarni auksiondan 2 karra arzon narxda sotib olish imkoniyat yaratiladi; uchinchidan, elektromobillarni quvvatlash stansiyalarida avtomobillarni zaryadlashda 1 kilovatt-soat elektr energiyasi narxining 300 so‘mdan oshgan qismi davlat budjetidan qoplab beriladi. Elektromobilda taksi xizmati ko‘rsatadigan fuqarolarga ham bir qator imtiyozlar beriladi. Bularning barchasi Toshkent shahri va viloyat markazlari hamda yirik shaharlarni faqat ekotransportlar harakatlanadigan hududga aylantiradi.

Atrof tabiiy muhitni muhofaz qilishda hududlarni yashillashtirish ham alohida ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi [4] farmonida “mamlakatimizda aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish, atrof tabiiy muhitning ifloslanish darajasini baholash mexanizmlarini takomillashtirish, «Yashil makon» umummilliy loyihasini amalga oshirish, Respublika hududlarida o‘rmonlar maydonini kengaytirish” kabi chora-tadbirlarning belgilanishi ekologik xavfsizlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 oktabrdagi PF-5863-son farmoni asosida “2030 yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi”da [5] iqtisodiyotni ekologiyalashtirish, atrof muhitni muhofaza qilish sohasida davlat nazoratini takomillashtirish, zaharli kimyoviy va radioaktiv moddalardan ekologik xavfsiz foydalanishni ta’minlash vazifalari belgilab berildi. Ushbu konsepsiyaning amalga oshirilishi natijasida 2030 yilda Orol dengizining qurigan tubida o‘rmonzorlar maydoni uning jami hududiga nisbatan 60 foizgacha yetkaziladi, qishloq xo‘jaligida suv resurslarini yo‘qotish 10 foizga

kamaytiriladi, qishloq xo‘jaligida suv iste’moli (solishtirma gektarga nisbatan) 15 foizga kamaytiriladi, oqava suvlarini tozalash samaradorligi 80 foizgacha oshiriladi, atmosfera havosiga ifloslantiruvchi moddalar chiqarilishi 10 foizga kamayadi, o‘rmonzorlar bilan qoplangan o‘rmon fondi hududi 4,5 mln gektargacha kengaytiriladi, hosil bo‘ladigan qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash hajmi 65 foizgacha ko‘payadi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2 dekabrdagi PQ-436-son “2030 yilgacha O‘zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi [6] qaroriga ko‘ra, 2030 yilgacha O‘zbekiston Respublikasida «yashil» iqtisodiyotga o‘tish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvatini 15 GVtga oshirish, 1 million gektargacha maydonda suv tejovchi sug‘orish texnologiyasini joriy etish, yiliga 200 million ko‘chat ekish orqali shaharlardagi yashil maydonlarni 30 foizdan ortiqroqqa kengaytirish vazifalari belgilab berildi.

Ekologik muammolarni hal qilish, ekologik barqarorlikka erishish, inson salomatligini saqlashda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni asosida 2025 yil 7 fevralda qabul qilingan “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili davlat dasturi [7] alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu dasturda ekologik barqarorlikka erishishning ustuvor yo‘nalishlari sifatida mahallalarning ekologik qiyofasini yaxshilash, ko‘chalarning yashillik darajasini oshirish, aholining salomatligini yaxshilash, ekologik turmush tarzini shakllantirish, tabiiy resurslarni tejash va ulardan oqilona foydalanish, o‘simlik va hayvonot dunyosini asrash, ko‘paytirish va keyingi avlodga yetkazish hamda biologik xilma-xillikni saqlash, “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini keng joriy qilish, iqtisodiyotni iqlim o‘zgarishiga moslashtirish, hududlarda kichik va mikro gidroelektr stansiyalari tarmog‘ini kengaytirish, aholi xonadonlarida quyosh panellarini o‘rnatishni rag‘batlantirish kabilar belgilandi.

Ushbu Dasturda aholi uchun barpo etilayotgan piyodalar va alohida velosiped yo‘laklari bo‘yida daraxtlar va o‘simliklarni ekish orqali “Soyali sayr ko‘chalari” tarmog‘ini yaratish, sohil va daryo bo‘ylarida 80 ta

infratuzilma Obyekti va 110 kilometrdan ortiq sog‘lomlashtirish yo‘laklari qurish, yomg‘ir va oqova suvlardan samarali foydalanish, mahallalardagi daraxtlarni zamonaviy suv tejovchi texnologiyalar orqali sug‘orish tizimini joriy etish natijasida yashillik darajasini oshirish, “Yashil makon” umummilliy loyihasi va “Mening bog‘im” loyihasi doirasida 200 million tup daraxt hamda butalar ekish, Orol dengizi tubida 100 ming gektar “yashil maydon” barpo etish va Orolbo‘yi mintaqasidagi o‘rmonzorlarni 2,1 million gektarga yetkazish, o‘rmon bilan qoplangan maydonlar 4,1 million gektarga va muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar 14,5 foizgacha kengaytirish ustuvor yo‘nalishlar sifatida e’tirof etildi.

Aholisining yarmi “yashil oila” maqomini olgan mahallalarda “Eng toza mahalla” va “Eng yashil mahalla” tanlovlari o‘tkazildi va g‘olib bo‘lgan mahallalar jamg‘armasiga mahalla aholisining takliflarini o‘rgangan holda mahallaning ichki infratuzilmasini yanada yaxshilash tadbirlari moliyalashtirildi, bu mablag‘lar yo‘llarni ta’mirlash, energotejamkor yoritish uskunalarini o‘rnatish, bolalar maydonchasini qurish, “yashil bog‘” yaratish va o‘rindiqlar o‘rnatish, chiqindi yig‘ish maydonchalarini qurish, chiqindi qutilari va konteynerlarini o‘rnatishga safarbar etildi.

2025 yil 1 maydan boshlab Toshkent va Nukus shaharlari hamda viloyat markazlarida asbest, sement ishlab chiqarish, shlam va shlaklar, teri-ko‘nchilik, parrandachilik fabrikalari, qora va rangli metallurgiya zavodlari, tarkibida zaharli aralashmalar bo‘lgan oyna, zaharli kimyoviy moddalar bilan ishlash, xavflilik darajasining I va II sinfiga mansub chiqindilarni qayta ishlash va yoqish korxonalari yo‘nalishlarda yangi loyihalarni amalga oshirish taqiqlandi. Aholini sifatli, ekologik toza va arzon yoqilg‘i bilan ta’minlagan holda AI–80 rusumli avtomobil yoqilg‘isidan foydalanish va sotish cheklandi, respublikaning barcha hududlarida joylashgan issiqlik va elektr energiyasi ishlab chiqarish korxonalariga yoqilg‘i sifatida mazutdan foydalanish to‘liq taqiqlandi. 2025 yil 1 iyuldan boshlab ko‘p qavatli uylar massivlaridagi tuproq va yashil qoplamali umumiy foydalanishdagi hududlarni o‘zboshimchalik

bilan betonlashtirganlik, qurilma va konstruksiyalarni o‘rnatganlik uchun javobgarlik choralari kuchaytirildi.

O‘simlik va hayvonot dunyosini asrash, ko‘paytirish va ularni keyingi avlodga yetkazish maqsadida 2025 yil 1 sentabrdan boshlab yovvoyi holda o‘suvchi o‘simliklarni yig‘ish va tayyorlash uchun tasdiqlangan kvotalar hamda o‘simlik dunyosi Obyektlaridan maxsus foydalanish uchun ruxsatnomalarni elektron auksion orqali berish tartibi joriy etildi. Kvotalar Fanlar akademiyasi tomonidan har yili aniqlanadigan o‘simlik zaxirasi asosida shakllantirilib, Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi tomonidan tasdiqlanadi va auksionga chiqariladi.

Kishilik jamiyati taraqqiyotining bugungi bosqichida milliy xavfsizlikka tahdid solayotgan eng xavf-xatarlardan biri iqlim o‘zgarishi va suv tanqisligi bilan bog‘liq ekologik xavfsizlik muammosi hisoblanadi. Suv muammosining dolzarbligi xususida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev BMT Bosh assambleyasining 78-sessiyasida haqli ta’kidlaganidek, “...keyingi 30 yilda planetamizda havo harorati 1,5 gradusga ko‘tarildi. Oqibatda muzliklar umumiy maydonining qariyb uchdan bir qismi yo‘qolib ketdi. Ushbu tendensiya saqlanib qolsa, yaqin 20 yilda mintaqamizdagi ikkita yirik daryo – Amudaryo va Sirdaryo oqimi 15 foizga qisqarishi mumkin. Jon boshiga suv bilan ta’minlanish darajasi 25 foizga, qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligi esa 40 foizga kamayishi kutilmoqda. Agar o‘z vaqtida ta’sirchan choralarni ko‘rmasak, ushbu muammolar oqibatlari mintaqamizdagi ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka jiddiy putur yetkazadi”. Bundan tashqari, Afg‘onistonda qurilayotgan Qo‘shtepa kanali hisobidan kelgusi 20-30 yil ichida Amudaryoning O‘zbekistonga oqib o‘tuvchi qismidagi suv hajmi keskin kamayib, suv iste’moli yiliga 30 km kubgacha pasayadi.

BMTning ma’lumotiga ko‘ra, so‘ngi 20 yil ichida sayyoramizda aholi jon boshiga chuchuk suv zaxiralari 20 foizdan ortiq qisqargan. Dunyo aholisining uchdan bir qismi, ya’ni 2,3 milliard kishi suv yetishmasligi kuzatilayotgan mamlakatlarda yashamoqda. Hozirda planetamizning uchdan bir qismida yashayotgan aholiga toza ichimlik suvi yetishmaydi. Masalan, 4 mln kishi yashaydigan Gonkong suvni quvur

orqali Xitoydan oladi. Yoki Jazoir davlati ham chetdan olib kelingan suv hisobiga yashaydi. BMTning FAO tashkiloti bashoratiga koʻra, XXI asrning uchinchi oʻn yilligi oʻrtalariga kelib suv tanqisligi sharoitida yashaydiganlar soni 4 mlyard. kishidan oshadi. Bu holat mislsiz inqiroz va ijtimoiy halokatlarga sabab boʻlishi tabiiydir.

Markaziy Osiyoda bu resurs tobora kamayib, mintaqada iqtisodiy muammolarni borgan sari chuqurlashtirmoqda. XX asr boshida 8 mln. kishini tashkil etgan Markaziy Osiyo aholisi bugungi kunda 75 mln. dan oshdi, 2030 yilga borib esa 80 mln. ga yetishi taxmin qilinmoqda. Kelgusi oʻn yillikda iqlim oʻzgarishi va qoʻshni davlatlarda suv isteʼmolining oshishi Oʻzbekistonning Amudaryo va Sirdaryodan suv olishini kamayishiga olib keladi va buning oqibatida qurgʻoqchilik va choʻllanish jarayoni yanada kuchayib, aholining turmush darajasiga jiddiy taʼsir koʻrsatadi.

Suv taqchilligining oldini olishning yoʻllaridan biri, bu suvni tejovchi texnologiyalarni keng qoʻllash hisoblanadi. Mamlakatimizda chuchuk suvlarning 90 foizi qishloq xoʻjaligida ishlatilmoqda. Bu ilgʻor davlatlarga nisbatan 2,5 barobar koʻpdir. Shu bois qishloq xoʻjaligadi tomchilatib, turli innovatsion usullarda sugʻorishga oʻtish juda muhim ahamiyatga ega. Hozirda mamlakatimizda 4,3 mln. gektar sugʻoriladigan yerning 500 ming gektarida tomchilatib sugʻorish texnologiyalari joriy qilingan. 2026 yilga borib suv tejovchi texnologiyalar maydonini 2 mln. gektarga yetkazish rejalashtirilgan.

Suvdan foydalanishdagi isrofgarchilikning yana bir sababi kanallarning foydali ish koeffitsentining pastligi va ichki tarmoqlarda suvning koʻp yoʻqotilishidir. Buning oqibatida qishloq xoʻjaligida har yili 4 mlrd. 800 mln. dollor kam daromad olinayapti. Shu sababdan, suvni tejashning yoʻllaridan biri kanallarni betonlashtirish hisoblanadi. Shu maqsadda davlat budjetidan mlrdlab soʻm pul mablagʻlari ajratilmoqda.

Suv isrofgarchiligidagi yana bir muhim muammo sel suvlaridan foydalanishdagi kamchiliklardir. Mamlakatimizda yiliga 1 mlrd. kub metr sel suvlari behuda oqib ketmoqda. Shu sababdan, mamlakatimizda sel suvlarini kichik havzalarda jamgʻarish masalasi boʻyicha chora-tadbirlar belgilanmoqda. Xususan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining

“O‘zbekiston-2030” strategiyasida “Suv resurslarini tejash va atrof muhitni muhofaza qilish” masalasi mamlakat taraqqiyotining 5 ta ustuvor yo‘nalishi orasida alohida mustaqil, 3-ustuvor yo‘nalish sifatida ajratib ko‘rsatildi. Ushbu ustuvor yo‘nalishda suv resurslarini tejash bo‘yicha islohotlarning 4 ta mustaqil hamda ularga erishish bo‘yicha 18 ta maqsadli ko‘rsatgichlar belgilab berildi.

“O‘zbekiston-2030” strategiyasiga ko‘ra, suv ishlatish samaradorligini 25 foizga oshirish, qishloq xo‘jaligi ekinlarini sug‘orishda suv tejaydigan texnologiyalar bilan qamrab olingan yerlarning umumiy maydonini 2 mln gektargacha, shu jumladan tomchilab sug‘orish texnologiyasini 600 ming gektargacha yetkazish, tuproq qoplamali kanallarni beton qoplamaga hamda ichki sug‘orish tarmoqlarining yopiq quvurli sug‘orish tizimlariga o‘tkazish bo‘yicha yetti yillik dastur doirasida irrigatsiya tizimi va sug‘orish tarmoqlarining foydali ish koeffitsienti ko‘rsatkichini 0,73 gacha yetkazish, suvni qayta ishlash, yetkazish va taqsimlash tizimiga xususiy sektorni jalb etish, dalalarga suv yetkazadigan Obyektlarni tadbirkorlar (fermer xo‘jaliklari va klasterlar) boshqaruviga berish, qo‘shni davlatlar bilan suv resurslarini integrallashgan holda boshqarish, transchegaraviy suv resurslari va davlatlararo suv xo‘jaligi Obyektlaridan birgalikda foydalanish masalalarida faol ikki taraflama manfaatli hamkorlikni davom ettirish, barcha ichimlik suv iste’molchilariga hisoblagichlar o‘rnatishni ta’minlash, 18,7 ming km yoki 66 foizi tuproq o‘zanli bo‘lgan magistral va xo‘jaliklararo kanallarning beton qoplamali ulushini 13,1 ming kmga yoki 46 foizga yetkazish, kamida 100 ta yirik suv xo‘jaligi Obyektlarida avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimini joriy qilish vazifalari belgilab berildi.

Mamlakatimizda suv resurslarini muhofaza qilishga alohida e’tibor qaratilib, davlatimiz rahbarining bir nechta farmon va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan Konsepsiyasini qabul qilish va hayotga tatbiq etish, bu boradagi ishlar yuzasidan keng ko‘lamli tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Asosiy urg‘u suv xo‘jaligini modernizatsiya qilish va rivojlantirish, yirik suv xo‘jaligi Obyektlarini raqamli texnologiyalar asosida boshqarishni avtomatlashtirish, elektr energiya va boshqa

resurslarni tejaydigan zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, suv omborlari va boshqa suv resurslarining xavfsizligi va ishonchli ishlashini ta’minlash, suv resurslaridan foydalanish va ulardan foydalanishni hisobga olishda «Smart Water» (“Aqlli suv”) raqamli texnologiyalarni joriy etish; sug‘oriladigan yerlar meliorativ holatini yaxshilash va barqarorligini ta’minlash, suv resurslarini boshqarishda davlat-xususiy sheriklik va autsorsingni joriy etish, fermer xo‘jaliklari, klasterlar va boshqa tashkilotlar foydalanishi uchun yakka tartibdagi suv xo‘jaligi Obyektlarini ta’minlash, aholini kafolatli suv bilan ta’minlash, xo‘jalik yurituvchi subyektlarni suv bilan barqaror ta’minlash, suv sifatini yaxshilash va ekologik muvozanatni saqlash; transchegaraviy suv resurslaridan foydalanish bo‘yicha davlatlar o‘rtasidagi aloqalarni yaxshilash, suv resurslarini muhofaza qilishda jamoatchilik ishtiroki, ularning huquqiy mexanizmini yanada takomillashtirish, suv resurslaridan foydalanishda ularga zararli ta’sirni oldini olish tizimini yanada rivojlantirishga alohida e’tibor berilgan.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va xalqiga Murojaatnomasida belgilangan vazifalarning ijrosini amalda taminlash atrof tabiiy muhitni ifloslanishdan himoya qilish, iqlim o‘zgarishi va suv taqchilligini oldini olish, aholining salomatligini saqlash hamda ekologik barqarorlik va muvozanatni saqlashga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –T.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021, 383-bet
2. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082
3. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.10.2019 y., 06/19/5863/3979-son; 13.11.2020 y., 06/20/6110/1512-son; 17.03.2021 y., 06/21/6188/0216-son
4. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 05.10.2019 y., 07/19/4477/3867-son. Xalq so‘zi, 2025 yil 8 fevral.

# O‘ZBEKISTONDA SUV TAQCHILLIGINING OLDINI OLISH MUAMMOLARI

**Turg‘unov O.K.**
*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti boshligining birinchi o‘rinbosari, yu.f.d., professor*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida beshinchi yo‘nalish sifatida global ekologik muammolar va suv taqchilligi muammosiga alohida e’tibor qaratildi. Kishilik jamiyati taraqqiyotining bugungi bosqichida milliy xavfsizlikka tahdid solayotgan eng xavf-xatarlardan biri iqlim o‘zgarishi va suv tanqisligi bilan bog‘liq ekologik xavfsizlik muammosi hisoblanadi. Suv muammosining dolzarbligi xususida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev BMT Bosh assambleyasining 78-sessiyasida haqli ta’kidlaganidek, “...keyingi 30 yilda planetamizda havo harorati 1,5 gradusga ko‘tarildi. Oqibatda muzliklar umumiy maydonining qariyb uchdan bir qismi yo‘qolib ketdi. Ushbu tendensiya saqlanib qolsa, yaqin 20 yilda mintaqamizdagi ikkita yirik daryo – Amudaryo va Sirdaryo oqimi 15 foizga qisqarishi mumkin. Jon boshiga suv bilan ta’minlanish darajasi 25 foizga, qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligi esa 40 foizga kamayishi kutilmoqda. Agar o‘z vaqtida ta’sirchan choralarni ko‘rmasak, ushbu muammolar oqibatlari mintaqamizdagi ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka jiddiy putur yetkazadi” [1]. Bundan tashqari, Afg‘onistonda qurilayotgan Qo‘shtepa kanali hisobidan kelgusi 20-30 yil ichida Amudaryoning O‘zbekistonga oqib o‘tuvchi qismidagi suv hajmi keskin kamayib, suv iste’moli yiliga 30 km kubgacha pasayadi.

BMTning ma’lumotiga ko‘ra, so‘ngi 20 yil ichida sayyoramizda aholi jon boshiga chuchuk suv zaxiralari 20 foizdan ortiq qisqargan. Dunyo aholisining uchdan bir qismi, ya’ni 2,3 milliard kishi suv yetishmasligi kuzatilayotgan mamlakatlarda yashamoqda. Hozirda planetamizning uchdan bir qismida yashayotgan aholiga toza ichimlik suvi yetishmaydi. Masalan, 4 mln kishi yashaydigan Gonkong suvni quvur

orqali Xitoydan oladi. Yoki Jazoir davlati ham chetdan olib kelingan suv hisobiga yashaydi. BMTning FAO tashkiloti bashoratiga koʻra, XXI asrning uchinchi oʻn yilligi oʻrtalariga kelib suv tanqisligi sharoitida yashaydiganlar soni 4 mlyard. kishidan oshadi. Bu holat mislsiz inqiroz va ijtimoiy halokatlarga sabab boʻlishi tabiiydir.

Markaziy Osiyoda bu resurs tobora kamayib, mintaqada iqtisodiy muammolarni borgan sari chuqurlashtirmoqda. XX asr boshida 8 mln. kishini tashkil etgan Markaziy Osiyo aholisi bugungi kunda 75 mln. dan oshdi, 2030 yilga borib esa 80 mln. ga yetishi taxmin qilinmoqda. Kelgusi oʻn yillikda iqlim oʻzgarishi va qoʻshni davlatlarda suv isteʼmolining oshishi Oʻzbekistonning Amudaryo va Sirdaryodan suv olishini kamayishiga olib keladi va buning oqibatida qurgʻoqchilik va choʻllanish jarayoni yanada kuchayib, aholining turmush darajasiga jiddiy taʼsir koʻrsatadi.

Suv taqchilligining oldini olishning yoʻllaridan biri, bu suvni tejovchi texnologiyalarni keng qoʻllash hisoblanadi. Mamlakatimizda chuchuk suvlarning 90 foizi qishloq xoʻjaligida ishlatilmoqda. Bu ilgʻor davlatlarga nisbatan 2,5 barobar koʻpdir. Shu bois qishloq xoʻjaligadi tomchilatib, turli innovatsion usullarda sugʻorishga oʻtish juda muhim ahamiyatga ega. Hozirda mamlakatimizda 4,3 mln. gektar sugʻoriladigan yerning 500 ming gektarida tomchilatib sugʻorish texnologiyalari joriy qilingan. 2026 yilga borib suv tejovchi texnologiyalar maydonini 2 mln. gektarga yetkazish rejalashtirilgan.

Suvdan foydalanishdagi isrofgarchilikning yana bir sababi kanallarning foydali ish koeffitsentining pastligi va ichki tarmoqlarda suvning koʻp yoʻqotilishidir. Buning oqibatida qishloq xoʻjaligida har yili 4 mlrd. 800 mln. dollor kam daromad olinayapti. Shu sababdan, suvni tejashning yoʻllaridan biri kanallarni betonlashtirish hisoblanadi. Shu maqsadda davlat budjetidan mlrdlab soʻm pul mablagʻlari ajratilmoqda.

Suv isrofgarchiligidagi yana bir muhim muammo sel suvlaridan foydalanishdagi kamchiliklardir. Mamlakatimizda yiliga 1 mlrd. kub metr sel suvlari behuda oqib ketmoqda. Shu sababdan, mamlakatimizda sel suvlarini kichik havzalarda jamgʻarish masalasi boʻyicha chora-tadbirlar

belgilanmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston-2030” strategiyasida “Suv resurslarini tejash va atrof muhitni muhofaza qilish” masalasi mamlakat taraqqiyotining 5 ta ustuvor yo‘nalishi orasida alohida mustaqil, 3-ustuvor yo‘nalish sifatida ajratib ko‘rsatildi. Ushbu ustuvor yo‘nalishda suv resurslarini tejash bo‘yicha islohotlarning 4 ta mustaqil hamda ularga erishish bo‘yicha 18 ta maqsadli ko‘rsatgichlar [2] belgilab berildi.

“O‘zbekiston-2030” strategiyasiga ko‘ra, suv ishlatish samaradorligini 25 foizga oshirish, qishloq xo‘jaligi ekinlarini sug‘orishda suv tejaydigan texnologiyalar bilan qamrab olingan yerlarning umumiy maydonini 2 mln gektargacha, shu jumladan tomchilab sug‘orish texnologiyasini 600 ming gektargacha yetkazish, tuproq qoplamali kanallarni beton qoplamaga hamda ichki sug‘orish tarmoqlarining yopiq quvurli sug‘orish tizimlariga o‘tkazish bo‘yicha yetti yillik dastur doirasida irrigatsiya tizimi va sug‘orish tarmoqlarining foydali ish koeffitsienti ko‘rsatkichini 0,73 gacha yetkazish, suvni qayta ishlash, yetkazish va taqsimlash tizimiga xususiy sektorni jalb etish, dalalarga suv yetkazadigan Obyektlarni tadbirkorlar (fermer xo‘jaliklari va klasterlar) boshqaruviga berish, qo‘shni davlatlar bilan suv resurslarini integrallashgan holda boshqarish, transchegaraviy suv resurslari va davlatlararo suv xo‘jaligi Obyektlaridan birgalikda foydalanish masalalarida faol ikki taraflama manfaatli hamkorlikni davom ettirish, barcha ichimlik suv iste’molchilariga hisoblagichlar o‘rnatishni ta’minlash, 18,7 ming km yoki 66 foizi tuproq o‘zanli bo‘lgan magistral va xo‘jaliklararo kanallarning beton qoplamali ulushini 13,1 ming kmga yoki 46 foizga yetkazish, kamida 100 ta yirik suv xo‘jaligi obyektlarida avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimini joriy qilish [3] vazifalari belgilab berildi.

Mamlakatimizda suv resurslarini muhofaza qilishga alohida e’tibor qaratilib, davlatimiz rahbarining bir nechta farmon va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan Konsepsiyasini qabul qilish va hayotga tatbiq etish, bu boradagi ishlar yuzasidan keng ko‘lamli tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Asosiy urg‘u suv xo‘jaligini modernizatsiya qilish va

rivojlantirish, yirik suv xo‘jaligi Obyektlarini raqamli texnologiyalar asosida boshqarishni avtomatlashtirish, elektr energiya va boshqa resurslarni tejaydigan zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, suv omborlari va boshqa suv resurslarining xavfsizligi va ishonchli ishlashini ta’minlash, suv resurslaridan foydalanish va ulardan foydalanishni hisobga olishda “Smart Water” (“Aqlli suv”) va shunga o‘xshash raqamli texnologiyalarni joriy etish; sug‘oriladigan yerlar meliorativ holatini yaxshilash va barqarorligini ta’minlash, suv resurslarini boshqarishda davlat-xususiy sheriklik va autsorsingni joriy etish, fermer xo‘jaliklari, klasterlar va boshqa tashkilotlar foydalanishi uchun yakka tartibdagi suv xo‘jaligi Obyektlarini ta’minlash, aholini kafolatli suv bilan ta’minlash, xo‘jalik yurituvchi subyektlarni suv bilan barqaror ta’minlash, suv sifatini yaxshilash va ekologik muvozanatni saqlash; transchegaraviy suv resurslaridan foydalanish bo‘yicha davlatlar o‘rtasidagi aloqalarni yaxshilash, suv resurslarini muhofaza qilishda jamoatchilik ishtiroki, ularning huquqiy mexanizmini yanada takomillashtirish, suv resurslaridan foydalanishda ularga zararli ta’sirni oldini olish tizimini yanada rivojlantirishga [4] alohida e’tibor berilgan.

Hozirgi vaqtda suv resurslarini boshqarish, undan foydalanish va muhofaza qilish sohasidagi ijtimoiy munosabatlar 10 taga yaqin qonun hujjatlari, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi [5], Suv kodeksi, “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi [6] qonuni, shuningdek 20 tadan ortiq qonunosti hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Mazkur qonun hujjatlarining mazmun-mohiyati mamlakatimizda olib borilayotgan izchil islohatlar, ro‘y bergan tub o‘zgarishlar, yangi rivojlanish strategiyasini shakllantirish va shunga mos ravishda suv munosabatlarining ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini o‘zgartirish munosabati bilan qayta ko‘rib chiqishni taqozo etdi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuniga ko‘plab kiritilgan o‘zgartirishlar qonunlar va qonunosti hujjatlari normalarining takrorlanishini va huquqiy tartibga solishdagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etmagan edi.

Shuningdek, yuqorida qayd etilgan Qonunda juda ko‘plab havola normalari mavjud bo‘lib, ularning aksariyati to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilmadi, asosiy tushunchalardan foydalanishda chalkashliklar va noaniqliklar mavjud edi, suv resurslarini boshqarish sohasidagi organlarning vakolatlari, shuningdek, tegishli vazirliklar va mahalliy davlat hokimiyati organlari o‘rtasidagi javobgarlik aniq belgilanmagan edi. Suv kodeksining qabul qilinishi suv sohasida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining bir-birini takrorlovchi vakolatlari bilan bog‘liq bir qator hal qilinmagan masalalarni bartaraf etishda, suvdan oqilona foydalanishda suv yetkazib beruvchilar va suvdan foydalanuvchilarning mas’uliyatini oshirishda, shuningdek, suvdan foydalanish uchun ruxsatnoma olish tartibini soddalashtirishda ijobiy rol o‘ynadi.

Xalqaro suv huquqi normalarini milliy suv qonunchiligiga, shu jumladan suvdan adolatli va oqilona foydalanish, suv resurslarini boshqarishda ekotizimni hisobga olish, inson va ekotizimning hayotiy ehtiyojlari ustuvorligini ta’minlash kabi qoidalarni joriy etilishi O‘zbekistonning xalqaro maydondagi ijobiy imidjini yaxshilashga yordam berdi. Suv kodeksining qabul qilinishi aholi farovonligi va iqtisodiy taraqqiyotning asosi sifatida suv resurslaridan oqilona foydalanish, samarali boshqarish va muhofaza qilishni ta’minlaydigan huquqiy shart-sharoitlarni yaratdi.

Shuningdek, Suv kodeksining qabul qilinishi suv munosabatlari sohasida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining vakolatlarini aniq belgilash, davlat tomonidan tartibga solishning ma’muriy usullaridan foydalanishdan bozor iqtisodiyoti tamoyillariga yo‘naltirilgan usul va mexanizmlarga o‘tish, suv resurslaridan foydalanish, suvni muhofaza qilish, suv resurslarini aholi va iqtisodiyot tarmoqlari hamda atrof-muhit o‘rtasida taqsimlashni to‘liq qamrab olgan holda suv resurslarini integrallashgan boshqarishni joriy etish, milliy kadastr ma’lumotlar bazasi bilan bog‘langan suv resurslarini hisobga olish, rejalashtirish va boshqarishning yaxlit milliy tizimini yaratish, ma’lumotlarning ochiqligi va ulardan foydalana olishni ta’minlash, qishloq xo‘jaligi ehtiyojlarini qondiradigan hamda suvdan samarali va oqilona foydalanish tamoyillariga

javob beradigan sug‘orish uchun suv olish limitlarining yangi tizimini joriy etish, suvni tejashni rag‘batlantirish, suv xo‘jaligiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya va innovatsion texnologiyalarini joriy etish, barcha yer usti, yer osti va qaytariladigan suvlarni integratsiyalashgan holda boshqarish tamoyillarini keng joriy etish, suv xo‘jaligida davlat-xususiy sheriklik va autsorsingni joriy etish ishlarini yanada jadallashtirishga xizmat qilmoqda.

Hozirgi globallashuv jarayonida tabiat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning o‘zaro mutanosib uyg‘un rivojlanishini tegishlicha huquqiy, iqtisodiy va tarbiyaviy mexanizmlar ta’sirisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu o‘z navbatida mamlakatimizda suv boyliklarini muhofaza qilish, suv munsabatlari sohasida ekologik xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha davlat organlari, xususan Milliy gvardiya organlarining funksiyasini takomillashtirish, har bir insondan suv resurslariga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish va undan oqilona foydalanish ko‘nikmasini shakllantirishni taqozo etadi.

O‘zbekistonda suv munosabatlari sohasida xavfsizlikni ta’minlashning ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy muammolari bugungi kunda umumiy huquq nazariyasi va ayrim huquq tarmoqlari doirasida qisman o‘rganilgan bo‘lsada, aynan suv huquqi nuqtai-nazaridan bugungi kunga qadar yetarli darajada o‘rganilmagan.

Suv munosabatlari sohasida xavfsizlikni ta’minlash usuli va vositasi sifatida suv huquqbuzarliklariga qarshi kurashni kuchaytirish, suv munosabatlari sohasida xavfsizlikni ta’minlash funksiyasi yuklatilgan davlat organlari, xususan Milliy gvardiya organlarining faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy normalarni takomillashtirish zaruriyati ushbu muammoning ilmiy-amaliy jihatdan kompleks o‘rganishni taqozo etadi.

Demak, suv munosabatlari sohasida xavfsizlikni taminlashning huquqiy muammolari, Milliy gvardiya organlarining ekologik funksiyasini takomillashtirish muammolarini o‘rganish ilmiy nazariy jihatdan ham, qonunchilikni takomillashtirish nuqtai nazaridan ham, amaliyotdagi kamchiliklarni hal etishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu muammoni tadqiq etish suv huquqi fani nazariyasini boyitishga, suv

qonunchiligidagi bo‘shliqlarni to‘ldirishga, Milliy gvardiya organlarining ekologik funksiyasini takomillashtirish, amaliyotda suv munosabatlari sohasida huquq-tartibotni taminlashga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning BMT Bosh assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqi;
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2030 yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 2019 yil 30 oktabrdagi PF–5863-son Farmoni //Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.10.2019 y., 06/19/5863/3979-son;
3. O‘sha joyda;
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030 yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida» 2020 yil 10 iyuldagi PF–6024-son Farmoni //Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 11.07.2020 y., 06/20/6024/1063-son;
5. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi //Qonunchilik ma’lumotlar milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son;
6. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining axborotnomasi, 1993, 1-son, 38-modda.

## HOKIMNING BIR VAQTDA MAHALLIY KENGASH RAISI BO‘LISHI VAKOLATI KONSTITUTSIYAVIY JIHATDAN BEKOR QILINDI!

**Zulfiqarov Sh.X.**
*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig‘i o‘rinbosari, yu.f.d., professor*

**Turdialiyev Sh.**
*Mustaqil izlanuvchi*

So‘nggi yillarda xalq hokimiyatchiligini to‘laqonli ro‘yobga chiqarish borasida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar, xususan,

xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholini tashvishga solayotgan dolzarb masalalarni hal etish bo‘yicha vakolatlarining takomillashayotganligi, shuningdek, yangilangan Konstitutsiyada mahalliy Kengash raisi va hokim lavozimlari bir-biridan ajratilishi belgilanganligidan kelib chiqib, “Kuchli Kengash, hisobdor va tashabbuskor hokim” tamoyilini ro‘yobga chiqarish maqsadida tizimli ishlar amalga oshirildi.

O‘zbekistonda Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030 yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasi, Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlari faoliyatini samarali transformatsiya qilish, mahalliy Kengashlarning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va boshqa davlat organlari bilan hamkorligini rivojlantirish, mahalliy Kengashlar faoliyatida jamoatchilikning keng ishtirokini ta’minlash kabi muhim va dolzarb masalalarni tartibga solish maqsadida qabul qilindi.

Yangi tahridagi konstitutsiyamizga kiritilgan hokimning bir vaqtning o‘zida mahalliy kengash raisi bo‘lishi normasining bekor qilinishi, hokimiyatlar bo‘linish prinsipining hududlarda to‘laqonli ijro etilishining zaruriy huquqiy kafolati bo‘lib xizmat qildi desak, xato qilmagan bo‘lamiz. Bu konseptual o‘zgarishga muvofiq, yangi tahrirdagi konstitutsiyaning 120, 121- moddalariga, xalq deputatlari Kengashiga uning deputatlari orasidan qonunga muvofiq saylanadigan rais boshchilik qilishi; viloyat, tuman, shahar hokimi lavozimini egallab turgan shaxs bir vaqtning o‘zida xalq deputatlari Kengashining raisi lavozimini egallashi mumkin emasligi; tegishli hududdagi ijro etuvchi hokimiyatga viloyat, tuman va shahar hokimi boshchilik qilishi kabi muhim normalar belgilab qo‘yildi.

Mazkur norma asosida mahalliy darajada vakillik va ijro etuvchi hokimiyat funksiyalari ajratildi. Hokimlarning xalq deputatlari Kengashlariga boshchilik qilishi haqidagi qoidaning chiqarilishi, ularning Kengashlar oldida mas’uliyatini oshirishga, hokimliklar faoliyati ustidan Kengash va deputatlar nazoratini kuchaytirish uchun xizmat qildi.

Qolaversa, mamlakatda amalga oshirilayotgan ma’muriy islohotlarning tizimli mantiqiy davomi bo‘ldi.

E’tibor qaratish lozimki, 2023-yil 1-mayda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonunning 6-moddasiga ko‘ra, “Tegishli normativ-huquqiy bazani tayyorlash, mahalliy vakillik va ijro etuvchi davlat hokimiyati organlari faoliyatining izchilligi hamda uzluksizligini ta’minlash zarurligi munosabati bilan ushbu Konstitutsiyaviy Qonun tahriridagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 120-moddasi uchinchi qismining viloyat, tuman, shahar hokimi lavozimini egallab turgan shaxs bir vaqtning o‘zida xalq deputatlari Kengashi raisi lavozimini egallashi mumkin emasligi haqidagi qoidalari:

viloyatlar hamda Toshkent shahar vakillik va ijro etuvchi davlat hokimiyati organlariga nisbatan 2024-yilda xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari deputatlarining navbatdagi saylovlari yakunlari bo‘yicha;

tuman hamda shahar vakillik va ijro etuvchi davlat hokimiyati organlariga nisbatan esa 2026-yil 1-yanvardan e’tiboran amalga kiritiladi, deb qat’iy belgilab qo‘yilgan.

Xabaringiz bor, konstitutsiyaviy islohotlarimiz doirasida viloyat hokimlari va mahalliy kengashlar raislari lavozimlarini bir-biridan ajratilgan edi. Endi bu tizim, 2026 yil 1 yanvardan 208 ta tuman va shaharda ham yo‘lga qo‘yildi. Ayni paytda ushbu jiddiy siyosiy islohot – hokimlar va ijro idoralaridan Kengashlarga munosabatni mutlaqo o‘zgartirishni talab qiladi.

2025 yilning 29-30 dekabr kunlari O‘zbekistondagi barcha tuman (shahar)larda deputatlar orasidan mahalliy kengashga rais saylandi. Shu tariqa, 2024 yilda viloyatlar va Toshkent shahrida joriy etilgan hokimiyatning bo‘linish prinsipi tumanlar darajasida ham rasman qaror topdi. E’tiborlisi, yangi saylangan kengash raislaridan 15 foizi – ayollar. 5 nafari esa oliy ma’lumotga ega emasligi bilan ajralib turadi.

Tahlillarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, 2025 yil 29-30 dekabr kunlari xalq deputatlari tuman (shahar) kengashi raisi etib saylanganlarning

31 nafari ayollar (14,9 foiz); 18 nafari boshqa millat vakillari (8,5 foiz); 203 nafari oliy ma’lumotli (97,5 foiz); 21 nafari davlat mukofotlari bilan taqdirlangan (10 foiz); 8 nafari ilmiy daraja va unvonga ega (4 foiz) bo‘lganlar tashkil etdi.

Bu tizimning joriy etilishi hokimiyat vakolatlarini bo‘linish prinsipini mahalliy darajada tatbiq etishga, mahalliy kengashlar faoliyati samaradorligini, hokimlarning xalq vakillari oldidagi mas’uliyatini oshirishga olib keladi. Qolaversa, hududlarda xalq manfaatlarini to‘liq ta’minlashga, xalq deputatlari Kengashlarining hududlardagi mavjud muammolarni hal qilishdagi asosiy bo‘g‘inga aylantirishga xizmat qiladi.

*Bu nima beradi degan tabiiy savol tug‘ilishi mumkin?*

birinchidan, bir shaxsning ikkita mustaqil tizimga rahbarlik qilish huquqi konstitutsiyaviy jihatdan bekor qilindi;

ikkinchidan, xalq vakillari o‘zlari orasidan rahbarlik qiladigan mustaqil shaxsni demokratik tarzda saylab olish imkoniyati yaratildi;

uchinchidan, hokimlarning kengash oldidagi mas’uliyati va javobgarligi kuchaytirildi;

to‘rtinchidan, hokimiyatlar bo‘linishi va o‘zaro tiyib turish mexanizmini real amalda ishlashiga zaruriy kafolat, qolaversa shu davrgacha mahalliy davlat hokimiyati tizimidagi mantiqsiz boshqaruv tizimiga so‘zsiz chek qo‘yildi;

beshinchidan, mahalliy boshqaruv tizimining xalqqa yaqinlashish imkoniyatini kengaytirdi.

Mahalliy darajada hokimiyatlar bo‘linishi prinsipini amalga oshirish yoki boshqacha aytganda ijro va vakillik organi rahbarligini alohida mustaqil shaxslarga topshirish masalasi uzoq yillardan buyon keng jamoatchilikning diqqat e’tiborida bo‘lib keldi. Alohida ta’kidlash lozimki, Konstitutsiya qabul qilingandan buyon ushbu masala dolzarb bo‘lib kelmoqda. Hokimlik institutining o‘zi 1992 yildan boshlab mahalliy davlat boshqaruvi tizimiga kirib kelgan. O‘sha davr uchun muhim sanalagan, mahalliy boshqaruvga tayangan hokimlik instituti keng vakolatga ega bo‘ldi, ya’ni ham ijro ham vakillik organlariga rahbarlik qilish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Oxirgi yillarda mazkur nomaqbul an’anaga chek qo‘yish maqsadida, Davlat rahbari boshchiligida ulkan amaliy islohotlar amalga oshirila boshlandi. Demokratik o‘zgarishlar natijasida, mahalliy vakillik organlarining mahalliy ijro hokimiyati ustidan vakillik nazoratini o‘rnatish vakolatlar kengaya bordi. E’tirof etish kerakki, 2017 yil 14 sentabrda Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risidagi qonunga kiritilgan o‘zgartirishlarga muvofiq, ijro organlari rahbarlari, shu jumladan, sog‘liqni saqlash, adliya, ichki ishlar organlari rahbarlarining belgilangan muddatlarda Kengashlar oldida hisobot va axborot berish tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Yana bir muhim o‘zgarishlarga qaraydigan bo‘lsak, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunga (O‘RQ-636-son, 14.09.2020 y.), xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi faoliyatiga tashkiliy-texnikaviy va boshqa jihatlardan xizmat ko‘rsatish vazifasi hokimliklar tuzilmasidan tegishli xalq deputatlari Kengashi kotibiyati zimmasiga yuklatilishi bo‘yicha yangi norma kiritildi. Bu o‘zgarishlar ham albatta qaysidir ma’noda mahalliy kengashlar faoliyatiga o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatdi.

*Xorijiy mamlakatlarda mahalliy boshqaruv qay tarzda o‘z ifodasini topgan?*

Ta’kidlash lozimki, mahalliy darajada ijro va vakillik organini alohida tarzda tashkil etilishi va boshqarilishi xorijiy mamlakatlar amaliyotida ham kuzatishimiz mumkin. Masalan, Fransiya respublikasida har bir hududiy birlik iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik masalalar uchun mas’ul bo‘lgan va mahalliy xarajatlarni nazorat qiluvchi Kengash (1986 yildan beri to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylovlar orqali saylanadi) tomonidan boshqariladi. Mahalliy ijro hokimiyati Prezident tomonidan tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan eng yuqori ijro etuvchi mansabdor shaxs – prefekt tomonidan boshqariladi.

Qo‘shni davlatimiz Qozog‘iston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati va o‘zini o‘zi boshqarish to‘g‘risida”gi qonuniga (2001-yil 23-yanvar) e’tiborimizni qaratadigan bo‘lsak, mazkur qonunning 19-moddasiga ko‘ra, Maslahat raisi (Qozog‘istonda mahalliy vakillik

organi rahbari shunday nomalandi) doimiy asosda ishlaydigan mansabdor shaxs hisoblanadi. U deputatlar orasidan ochiq yoki yashirin ovoz berish yo‘li bilan deputatlar umumiy sonining ko‘pchilik ovozi bilan saylanadi.

Shuningdek, mazkur qonunning 1-moddasi, to‘rtinchi bandiga muvofiq, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organi — viloyat, respublika ahamiyatidagi shahar va poytaxt, tuman (viloyat ahamiyatidagi shahar) hokimi (Qozog‘istonda Akim deb yuritiladi) boshchiligidagi kollegial ijroiya organi bo‘lib, tegishli hududa o‘z vakolatlari doirasida mahalliy boshqaruvni amalga oshiradi. Ko‘rib turganimizdek, Qozog‘istonda mahaliy ijro hokimiyati va mahalliy vakillik organlari faoliyat yuritishi mustaqil tarzda amalga oshirilar ekan.

*Mahalliy kengashlar faoliyati takomillashmoqda!*

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaviy normaga asosan, “Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir” konstitutsiyaviy prinsipini amalga oshirishga xizmat qiluvchi hokimlik idoralari rahbarlarining xalq deputatlari Kengashlari oldida hisobot beradigan samarali tizim yo‘lga qo‘yildi. Eng muhimi, hokimlarni o‘zlari qaror qabul qilib, o‘zlari boshchilik qiladigan kengashlarda ushbu qarorlarni tasdiqlatish, keyinchalik uning ijrosini nazorat qilish kabi amaliyotga chek qo‘yildi.

E’tibor qaratadigan bo‘lsak, oxirgi yillarda mahalliy kengashlarning faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida bir qancha ijobiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Aytishingiz mumkin bu nimalarda ko‘rinmoqda?

Misol tariqasida, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlarining 2025 yil yanvar-noyabr oylari davomidagi faoliyati tahlil qilindi. Unga ko‘ra:

1) Mahalliy Kengashlar tomonidan 2025 yil yanvar-noyabr oylari davomida 2 741 ta sessiya o‘tkazilgan, ularda jami 27 431 ta masala muhokama etilgan hamda tegishli qarorlar qabul qilingan.

*Sessiyalarda:*

*– davlat organlari rahbarlarining hisobot (axborot)lari 15 769 marotaba eshitilgan;*

*– nazorat-tahlil tadbirlari doirasida hududlarni rivojlantirish dasturlari, chora-tadbirlari, muammolarni o‘rganish natijalari 872 marotaba ko‘rib chiqilgan;*

*– hududlarni rivojlantirish dasturlari, bosh reja, mahalliy budjet, mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar miqdorlarini belgilash kabi masalalarga doir 2 860 taqaror tasdiqlangan;*

*– hokimlarning amaldagi qonunchilikka zid bo‘lgan 53 ta qarori bekor qilingan;*

*– mahalliy Kengashlar vakolatiga doir boshqa masalalar 7 162 marotaba muhokama etilgan va qaror qabul qilingan.*

Ijro intizomi nuqtai nazaridan qaraganimizda, Mahalliy Kengashlarning qarorlarida ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlariga nisbatan chora ko‘rish bo‘yicha jami 136 ta *(o‘tgan yilning shu davrida 561 ta)* taklif kiritilgan, shundan 95 nafariga *(o‘tgan yilning shu davrida 109 nafariga)* intizomiy chora ko‘rilgan, 8 nafari *(o‘tgan yilning shu davrida 61 nafari)* lavozimidan ozod etilgan.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, ma’qullash uchun Senatga kiritilgan qonunlarni mahalliy Kengash deputatlari ishtirokida muhokama qilish amaliyoti doirasida 7 385 marta *(o‘tgan yilning shu davrida 5 400 ta)* muhokamalar o‘tkazilgan.

Hammamizga ma’lumki, deputat so‘rovi xalq vakilining eng muhim ta’sirchan vositalaridan biri hisoblanadi. Misol tariqasida, Mahalliy Kengash deputatlari tomonidan davlat organlari mansabdor shaxslariga 2025 yilda yanvar-noyabr oylarida 14 319 ta *(o‘tgan yilga 6 844 taga nisbatan 52,2 foiz ko‘p)* deputat so‘rovi yuborilgan bo‘lib, ularning 13 413 tasiga yoki qariyb 93,6 foiziga *(shundan, 466 tasiga yoki 3,2 foiziga muddatdan kechikib)* javob berilgan. Deputat so‘rovi natijalarining 76 tasi yoki 0,5 foizi sessiyalarda muhokama etilgan. Deputat so‘rovlarining 97 tasiga *(o‘tgan yilning shu davrida 80 tasiga)* javob berilmagan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 26 dekabr kuni Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida, Bundan buyon deputat so‘rovlari ijrosi har chorakda tahlil qilinib, sustkashlikka yo‘l qo‘yilgan holatlar bo‘yicha prokuraturaga taqdimnoma kiritiladi, deb alohida ta’kidlab o‘tdi.

E’tibor qaratadigan bo‘lsak, O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 193 -moddasida, davlat organlarining, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining, mulkchilik shaklidan qat’iy nazar korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning mansabdor shaxslari tomonidan deputatlar hamda senatorlar oldidagi o‘z vazifalarini bajarmaslik, ularning ishiga to‘sqinlik qilish, ularga ataylab soxta ma’lumot berish, deputatlik va senatorlik faoliyatining kafolatlarini buzish, xuddi shuningdek mansabdor shaxslar tomonidan parlament so‘rovini, deputat, senator so‘rovini ko‘rib chiqmasdan qoldirish yoki ularni ko‘rib chiqish muddatlarini uzrli sabablarsiz buzish yoxud ular yuzasidan bila turib noto‘g‘ri ma’lumotlarni qasddan taqdim etish, — mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘lishi qat’iy belgilab qo‘yilgan.

Mamlakatimizda Yangi O‘zbekiston sharoitida 2025 yilning yanvar-noyabr oylari davomida ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash, aholini xabardor qilish maqsadida mahalliy Kengashlarning 27 500 ta qarori “E-Kengash” (“E-qaror”) tizimi orqali rasmiy e’lon qilingan, shuningdek normativ tusdagi 1 025 ta qaror loyihasi adliya organlaridan ekspertizadan o‘tkazilgan. Bu albatta, so‘ngi yillarda mamlakatmizda ochiqlik va shaffoflikka alohida e’tibor qaratilayotganligidan dalolat beradi.

Muxtasar qilib aytganda, ilgari hokim bir vaqtning o‘zida ham ijroiya, ham vakillik hokimiyatiga rahbarlik qilgan. Endigi kiritilgan o‘zgartirishlarga ko‘ra, hokim faqat ijro hokimiyatiga, mahalliy Kengashlarga esa o‘zlari tomonidan saylanadigan deputatlardan biri rais bo‘ldi. Qolaversa, mazkur yangi norma orqali mahalliy hokimiyat organlari vakolatlari barcha sohalarda aniq va batafsil belgilanmoqda, bu orqali ayniqsa, mahalliy xalq deputatlari Kengashlarining davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtiroki kuchaytirildi, joylardagi mahalliy aholini manfaatlarini amalda ta’minlash imkoniyatlari oshirildi. Ushbu o‘zgarishlar kelgusida mahalliy davlat hokimiyati organlarining samarali faoliyatni yangi bosqichga olib chiqadi.

# IJTIMOIY MUNOSABATLARNI TARTIBGA SOLISHDA QONUNLARNING ROLINI KUCHAYTIRISH – ZAMONAVIY DAVLAT BOSHQARUVINING MUHIM SHARTI

**Safarov Dj.I.**
*O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi*
*Sho‘ba mudiri, yuridik fanlar doktori (DSc), dotsent*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasining oltinchi ustuvor yo‘nalishining zamonaviy davlat boshqaruvi qismi doirasida to‘rtta ustuvor vazifa belgilab berilgan bo‘lsa, shulardan ikkinchisi *parlamentning nazorat* sohasidagi vakolatlarini kengaytirish va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda *qonunlarning rolini* yanada kuchaytirish bilan bog‘liq.

Xususan, mazkur yo‘nalishda Oliy Majlisimiz eng kuchli parlamentlarga xos bo‘lgan barcha nazorat vakolatlariga ega ekanligi ta’kidlab o‘tildi. Bu bejiz emas, albatta. Zero, Markaziy Osiyo davlatlari parlamentlari vakolatlarini qiyosiy taqqoslasak, parlamentlar O‘zbekistonda yangilangan Konstitutsiyada (eski tahrirdagi Konstitutsiyada 40 ta) 51 ta (21 ta birgalikdagi vakolat, 12 ta Qonunchilik palatasi va 18 ta Senatning mutlaq vakolatlari), Qirg‘izistonda 33 ta (Joqorg‘i Kenesh – 1 palatali parlament), Tojikistonda 25 ta (7 ta birgalikdagi vakolat, 5 ta quyi palata – Milliy Majlis va 13 ta yuqori palata – Vakillar Majlisining mutlaq vakolatlari), Qozog‘istonda amaldagi Konstitutsiya bo‘yicha 18 ta (7 ta birgalikdagi vakolat, 5 ta quyi palata – Majlis va 6 ta yuqori palata – Senatning mutlaq vakolatlari), yangi tahrirdagi Konstitutsiya loyihasi bo‘yicha – 22 ta (Qurultoy – 1 palatali parlament), Turkmanistonda – 14 ta (Majlis – 1 palatali parlament) vakolatga ega.

Ta’kidlash lozimki, parlamentning nazorat sohasidagi vakolatlari Yangi O‘zbekiston sharoitida karrasiga kuchaydi. Jumladan, yangi tahrirdagi Konstitutsiya qabul qilinishi bilan Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlari 5 tadan 12 taga, Senatning mutlaq vakolatlari esa, 14 tadan 18 taga oshirildi.

Bu borada parlament nazoratining Davlat budjeti ijrosini nazorat qilish, Vazirlar Mahkamasining yillik hisobotini eshitish, Bosh vazirning mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish to‘g‘risidagi hisobotini eshitish, Hisob palatasining hisobotini ko‘rib chiqish kabi masalalar *Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlari* sifatida mustahkamlandi.

Hududlar manfaati va ularni rivojlantirish, yangi vazirliklar tashkil qilish to‘g‘risidagi farmonlarni tasdiqlash masalalari esa, *Senat vakolatlari* doirasiga taalluqli ekanligi mustahkamlandi. Qolaversa, Senatning *sud va nazorat organlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va maxsus xizmatlar faoliyati ustidan nazorat* funksiyalari, shu jumladan, Senatning mansabdor shaxslarni lavozimiga saylash jarayonidagi vakolatlari kengaytirildi. Masalan, *Sudyalar oliy kengashining barcha a’zolarini Senat tomonidan saylash* tizimi kiritildi (ilgari faqatgina Sudyalar oliy kengashining raisi Senat tomonidan saylanardi). Bundan tashqari *Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi rahbarini lavozimiga tayinlash* to‘g‘risidagi Prezident farmonini tasdiqlash masalasi ham Senatning vakolatiga o‘tkazildi.

Shu bilan birga Davlatimiz rahbari tomonidan parlament 2023 yildan buyon tashqi qarz miqdorini belgilab kelayotganligi qayd etildi. Bu yerda 2023 yil 29 aprelda “Davlat qarzi to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilingani, unda Oliy Majlis palatalarining davlat qarzini boshqarish sohasidagi vakolatlari belgilanganligini qayd etish zarur.

Mazkur Qonunga ko‘ra, palatalar davlat qarzi bo‘yicha cheklangan miqdorlarni va davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi kelishuv doirasida xususiy sherikka beriladigan kafolatlar bo‘yicha yillik limitlarni belgilaydi, davlat qarzini boshqarish strategiyasining amalga oshirilishi to‘g‘risidagi hisobotlarni ko‘rib chiqadi, davlat qarzining holati va o‘zgarishi to‘g‘risidagi, shuningdek davlat tomonidan jalb qilingan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanilishi haqidagi, shu jumladan davlat tomonidan mablag‘ jalb qilish hisobidan amalga oshiriladigan loyihalarning bajarilishi jarayoni hamda natijadorligi to‘g‘risidagi hisobotlarni ko‘rib chiqadi, davlat qarzining miqdori yalpi ichki

mahsulotga nisbatan ellik foizga yetganda qonunda nazarda tutilgan chora-tadbirlarni muhokama qiladi.

Shu bilan birga Davlatimiz Rahbari ushbu yo‘nalishda ham muhim tashabbusni ilgari surdilar – davlat kafolati ostida tashqi qarz olish masalasini ma’qullashni ham parlament vakolatiga o‘tkazish.

Bu tashabbus ham hozirgi ijtimoiy-siyosiy vaziyatda o‘ta muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib, ushbu yo‘nalishdagi parlamentning nazorat vakolatlarini yanada kuchaytiradi va aniqlashtiradi.

Davlat kafolati ostida tashqi qarz olish masalasini ma’qullashni parlament vakolatiga o‘tkazilishi parlamentning davlat qarzi bo‘yicha amaldagi vakolatlarini yanada to‘ldiradi va kuchaytiradi. Ya’ni, parlament hozirgi kunda davlat qarzi bo‘yicha cheklangan miqdorini belgilab beradi hamda ushbu cheklangan miqdor doirasida Hukumat kimdan qancha qarz olishni mustaqil ravishda hal qiladi.

Davlatimiz Rahbarining takliflari huquqiy jihatdan rasmiylashtirilsa, Hukumat har safar davlat kafolati ostida tashqi qarz olmoqchi bo‘lsa, ushbu masalani parlamentdan o‘tkazishi lozim bo‘ladi. Davlat kafolati ostida olinadigan tashqi qarz Davlat budjetidan, ya’ni xalqni pulidan qaytarilishini hisobga oladigan bo‘lsak, Prezidentimizning tashabbuslari ushbu jarayonni yanada ochiq, oshkora, xolis va shaffof bo‘lishini, davlat kafolati ostida jalb qilinayotgan tashqi qarzning maqsadli, to‘g‘ri yo‘naltirilishi ustidan parlament nazoratini ta’minlaydi.

Davlatimiz rahbari parlament vakolatlarini kuchaytirish yo‘nalishidagi islohotlar doirasida davlat xaridlari masalasiga ham to‘xtalib o‘tdilar. Xususan, Prezidentimiz ko‘plab ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar fikrini o‘rganib, 2026 yil 1 yanvardan davlat xaridlarida ochiq, shaffof va adolatli tizim yaratilayotgani, bu – tadbirkorlarimizga 300 trillion so‘mlik kafolatli bozorda o‘zlarining tovar va xizmatlari bilan faol ishtirok etishlari uchun katta imkoniyatlar eshigini ochishini qayd etdilar hamda bundan buyon davlat xaridlarida tovar, ish va xizmatlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri sotib olish mumkin bo‘lgan holatlar faqat qonun bilan belgilanishi bo‘yicha yangi muhim taklifni ilgari surdilar.

Bu tashabbus ham davlat xaridlari sohasidagi juda katta muammoga yechim bo‘ladi. Xususan, 2025 yil 5 martda Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengash yig‘ilishida Davlatimiz Rahbarining ma’ruzalarida davlat xaridini tanlov va tenderlarsiz, to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma orqali amalga oshirish holatlari korrupsiya xavfini kuchaytirishi haqida aytilib, bu borada yangi tizimni yo‘lga qo‘yish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma asosida xarid qilinishi mumkin bo‘lgan tovar va xizmat turlarini qisqartirish vazifasi qo‘yilgan edi.

Ta’kidlash lozimki, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarid qilishga ruxsat etilgan tovarlar (ish, xizmat) ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 sentabrdagi PQ–3953-son qarori bilan tasdiqlangan bo‘lib, ushbu ro‘yxat hujjat qabul qilingan 2018 yilda 29 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2024 yilga kelib 53 taga, ya’ni 83 foizga oshgan.

To‘g‘ri mazkur Farmon O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 26 dekabrdagi PF–259-sonli “Davlat xaridlari tizimida raqobat muhiti va shaffoflikni ta’minlash bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoniga asosan 2026 yil 1 yanvardan o‘z kuchini yo‘qotdi hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarid qilinishi mumkin bo‘lgan tovarlarning 27 tasi “taklif so‘rovi” orqali xarid qilinishi belgilandi.

Bu ham ushbu masalaga ma’lum darajada yechim bo‘ladi. Lekin, yuqoridagi tashabbus mazmunidan kelib chiqadigan bo‘lsak, “taklif so‘rovi” orqali xarid qilinishi mumkin bo‘lgan tovarlar (ish, xizmat) ro‘yxatini ham qonun bilan tasdiqlash maqsadga muvofiq bo‘lib, bu ushbu sohada ta’sirchan parlament nazoratini o‘rnatish imkonini beradi.

Umuman, olganda bu tashabbus davlat xaridlari misolida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlaydigan qonunlar masalasi naqadar dolzarb ekanligini ko‘rsatadi.

Chunki, parlamentning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga ta’sir ko‘rsatishi ham, nufuzi va obro‘si ham, avvalo, u qabul qiladigan qonunlarga bog‘liq. Ya’ni, parlamentning asosiy quroli bu – qonun. Shunga ko‘ra, ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishda qonunlarning ulushini oshirmay turib, parlamentning rolini oshirib bo‘lmaydi. Boshqacha aytganda, qonunlarning roli va parlament roli uzviy bog‘liqlikda rivojlanadi, biri ikkinchisisiz rivojlana olmaydi.

Shu bois, ushbu yo‘nalishda ayrim takliflarni ilgari surish mumkin:

*Birinchidan,* huquqiy tartibga solishda qonunlarning ulushini oshirib borish lozim. Hozirgi kunda huquqiy tartibga solishda qonunlar ulushi 6 foizga ham yetmayapti. Xususan, normativ-huquqiy hujjatlar fondi 26 mingdan ortiq yaxlit hujjat, shundan 1 487 tasi qonun. Taqqoslash uchun idoraviy hujjatlar bilan tartibga solish ulushi 33 foizni, qonunosti hujjat bilan tartibga solish ulushi esa, 43 foizni tashkil etmoqda.

Vaholanki, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining 80-maqsadi sifatida “To‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladigan qonunlarni qabul qilish amaliyotini kengaytirish, ularning ulushini kamida 60 foizga yetkazish” va “Idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilishning aniq chegaralarini belgilash orqali ularning sonini keskin qisqartirish” kabilar belgilangan.

Lekin, afsuski, hozirgi kunda 1,5 mingga yaqin qonunlarimizdan qanchasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlaydigan qonun degan savolga aniq javob bera olmaymiz. Chunki, avvalo, to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlaydigan qonunga qo‘yilgan talablar, ular javob berishi kerak bo‘lgan mezonlarning o‘zi yo‘q. Masalan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlaydigan qonunlarda havolaki normalar bo‘lishi mumkinmi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlaydigan qonun bor sohani qonunosti hujjatlar bilan tartibga solish ulushi qanchadan oshmasligi kerak va h.k. So‘nggi yillarda qabul qilingan Suv kodeksi, “Yer qa’ri to‘g‘risida”gi Qonunni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlaydigan qonunga klassik misol sifatida keltirish mumkin.

Albatta, bu borada turli hujjatlarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlaydigan qonunlarni ishlab chiqish uchun ma’lum bilan norma, metodik talablar belgilanmoqda. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 19 fevraldagi “Qonunlarning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi rolini hamda norma ijodkorligi jarayoni sifatini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-75-son qarori bilan “tegishli sohani tartibga soluvchi qonun loyihasini tayyorlashda ushbu sohadagi qonunosti hujjatlari bilan tartibga solingan munosabatlarni qonun darajasiga ko‘tarish imkoniyatini muhokama qilish shartligi” va bu haqda “qonun loyihasining tushuntirish xatida ko‘rsatish” belgilandi. Lekin

amalda ushbu talabga qanchalik rioya etilayotganligini o‘rganib ko‘rish va uning ijrosini ta’minlash ustidan nazoratni kuchaytirish kerak.

Shu bilan birga to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladigan qonunlar ulushini kamida 60 foizga yetkazish bo‘yicha strategik maqsadga erishish uchun yillar kesimida aniq maqsadli ko‘rsatkichlarni belgilab olish maqsadida har yili soha va tarmoqlardagi qonun va qonunosti hujjatlarni tizimlashtirish orqali to‘g‘ridan to‘g‘ri ishlaydigan qonunlarni ishlab chiqish bo‘yicha reja tasdiqlash lozim. Bu rejani har yili tasdiqlanadigan Davlat dasturining alohida ilovasi sifatida rasmiylashtirish maqsadga muvofiq.

*Ikkinchidan,* O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yilning 19 fevraldagi “Qonunlarning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi rolini hamda norma ijodkorligi jarayoni sifatini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–75-son qarorida qonun kuchga kirgan kundan boshlab besh yil o‘tib, mas’ul davlat organi va Oliy Majlis palatalarining qo‘mitalari tomonidan qonunning samaradorligini, maqsadi va kutilgan natijalariga erishilganligini aniqlash uchun uning tartibga solish ta’sirini baholash amaliyoti joriy etilgan edi.

Lekin, o‘tgan davrda ushbu amaliyot ishlamadi, shu bois, mazkur tartibni amalga oshirish mexanizmlarini nazarda tutgan holda qonuniy asoslarini yaratishni taklif etamiz. Shu maqsadda, qonunlar amalda qay darajada qo‘llanilayotgani, qo‘yilgan maqsadga erishilgani, o‘zgartirishga zarurat mavjudligi nuqtai nazaridan o‘rganish funksiyasini parlament nazorati shakllaridan biri sifatida belgilash taklif etiladi.

Bunda qonun kuchga kirgach 5 yil o‘tib, uning ta’sirini baholash haqida parlament palatalari yoki qo‘mitalari tomonidan qaror qabul qilinadi, qo‘mitada qonun ta’sir qilgan manfaatdor shaxslar (guruhlar, qatlamlar) ishtirokida ochiq muhokama va eshituvlar o‘tkaziladi hamda mas’ul vazirlikning hisoboti ko‘rib chiqiladi, qo‘mita tomonidan tahlillardan kelib chiqib, xulosa tayyorlanadi, zaruratga ko‘ra, qonun hujjatiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida loyiha ishlab chiqiladi.

Masalan, Buyuk Britaniyada 2008 yildan buyon Parlamentning tegishli qo‘mitalari qonunlar ijrosini nazorat tartibida o‘rganadi (post

legislative scrutiny). Mas’ul vazirlik qonun kuchga kirganidan 3-5 yil o‘tib, Parlamentga qonunning qo‘llanilishi bo‘yicha hisobot taqdim etadi.

*Uchinchidan,* parlament vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha qonunosti hujjatlar qabul qilish amaliyotiga barham berish zarur. Masalan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada qonun bilan belgilanishi lozim bo‘lgan 30 dan ziyod masalalar belgilangan bo‘lib, ularning ayrimlari aniq masalalarga tegishli bo‘lsa, boshqalari keng doiradagi munosabatlarni qamrab oladi.

Masalan, davlat ramzlari, referendum o‘tkazish tartibi, fuqarolikka ega bo‘lish va uni yo‘qotish asoslari hamda tartibi, jazoga tortish, mol-mulkdan yoki biron-bir huquqdan mahrum etish asoslari, insonning huquq va erkinliklarini cheklash, jamoatchilik nazoratini amalga oshirish tartibi, davlat xizmatini o‘tash bilan bog‘liq cheklovlar, bank operatsiyalari, omonatlar va hisobvaraqlarning sir tutilishi, meros huquqi, aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarini uy-joy bilan ta’minlash tartibi, intellektual mulk, soliqlar va yig‘imlar, monopol faoliyat, deputatlikka nomzodlarga talablar, davlat hokimiyati organlarining tizimi va vakolatlari, bojxona, valyuta va kredit ishlari, ma’muriy-hududiy tuzilish, qonun loyihalarini, qonunchilik takliflarini kiritish va ko‘rib chiqish tartibi, Prezidentni saylash tartibi, Prezident shaxsi daxlsizligi, favqulodda holat joriy etish shartlari va tartibi, Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etish tartibi va vakolat doirasi, mahalliy Kengashlar deputatlari saylovi, Kengashlar va hokimlarning faoliyatini tashkil etish tartibi, saylov o‘tkazish tartibi, sud tizimi va sudlar faoliyatining tartibi, Konstitutsiyaviy sudni, Sudyalar oliy kengashini, advokaturani, prokuraturani tashkil etish va ularning faoliyati tartibi, Markaziy bankning faoliyati tartibi, Qurolli Kuchlarning tuzilishi va ularni tashkil etish, fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlarining budjet jarayonida ishtirok etishi tartibi va shakllari qonunlar bilan belgilanishi lozim.

Lekin, tahlillar Konstitutsiyaga muvofiq, qonun bilan tartibga solinishi lozim bo‘lgan ayrim masalalar hali ham qonunosti va idoraviy hujjatlar bilan tartibga solinayotganligini ko‘rsatmoqda. Xususan, yig‘imlar, imtiyozlar va inson huquqlarini cheklovchi qoidalar qonunosti

va idoraviy hujjatlarda ko‘plab uchraydi. Masalan, qonunosti hujjatlarda belgilangan barcha yig‘imlarni alohida qonun hujjatiga, imtiyoz, subsidiya, preferensiyalarni ham yagona qonun hujjatiga birlashtirish zarur.

Shuningdek, Prezident Administratsiyasi yoki parlament huzurida maxsus komissiya tashkil etib, qonunosti va idoraviy hujjatlarni to‘liq xatlovdan o‘tkazib, ulardagi inson huquqlarini cheklovchi normalarni qonun darajasiga ko‘tarish yoki bekor qilish bo‘yicha dastur ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

*To‘rtinchidan,* qonunda Hukumat tomonidan ishlab chiqilishi belgilangan qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar bo‘yicha “parlament bilan maslahatlashuvlar” institutini joriy etish taklif etiladi. Bunda qonunda Hukumat tomonidan qabul qilinishi nazarda tutilgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari ishlab chiqilganidan so‘ng ular parlamentning tegishli qo‘mitasi bilan kelishiladi, zarur hollarda, loyiha Kengashda yoki palatada ko‘rib chiqiladi va ularning roziligi olinganidan so‘ng qabul qilinishi mumkin bo‘ladi.

*Beshinchidan,* ma’lumki, Hukumat hujjatlari Prezident tomonidan bekor qilinishi mumkin. Lekin, Qonunchilik palatasi Hukumatni shakllantirishda ishtirok etsa-da, uning qaror va farmoyishlarini bekor qilish yuzasidan tashabbus qilish huquqi mavjud emas. Shunga ko‘ra, Qonunchilik palatasiga Hukumat hujjatlarini bekor qilish bo‘yicha Prezidentga, shu jumladan, siyosiy partiyalar tashabbusi asosida taklif kiritish huquqini berish.

*Oltinchidan,* qonunlardagi havolaki normalarni amalga oshirish ham muhim ahamiyatga ega. Chunki “havolaki normalarda” nazarda tutilgan qonunosti hujjatlarining o‘z vaqtida qabul qilinmasligi qonunlarning amalda “ishlamay qolishi”ga sabab bo‘ladi.

Masalan, 2020 yil 28 avgustda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonunda Vazirlar Mahkamasi tomonidan ma’muriy-hududiy birliklarning davlat reestrini yuritish tartibi belgilanishi hamda ma’muriy-hududiy tuzilish masalalari bo‘yicha komissiyalarning ishlash va ularning faoliyatini tugatish tartibi tasdiqlanishi nazarda tutilgan. Ushbu masalalar yuzasidan

Hukumat qarori esa, oradan deyarli besh yil o‘tib, 2024 yil 10 dekabrda qabul qilingan.

Shu bois qabul qilinayotgan qonunlardagi havolaki normalarning bajarilishi hamda qonunosti hujjatlarining qabul qilinishi ustidan doimiy va ta’sirchan parlament nazoratini o‘rnatish zarur.

Shu maqsadda har yili Adliya vazirligi tomonidan yangi qabul qilingan qonunlar ijrosini ta’minlash uchun qonunosti hujjatlarining o‘z vaqtida qabul qilinishi va bu borada amalga oshirilgan ishlar yuzasidan Qonunchilik palatasiga axborot kiritib borish amaliyotini yo‘lga qo‘yishni taklif etamiz.

## GLOBAL RAQOBAT KESKINLASHAYOTGAN SHAROITDA IQTISODIYOT TARMOQLARINI TEXNOLOGIK YANGILASHNING OBYEKTIV ZARURLIGI

**Rasulov N.M.**
*Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti loyiha rahbari, i.f.d., professor*

So‘nggi yillarda mamlakatimizda milliy iqtisodiyotni texnologik jihatdan rivojlantirish, sanoatning ustuvor sohalariga xorijiy investitsiyalarni jalb etish hamda innovatsion o‘sishini ta’minlash borasida ko‘plab chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini texnologik jihatdan rivojlantirish orqaligina sanoatda yuqori qo‘shilgan qiymat ulushini oshirish mumkin ekan. Shu bilan birga mehnat unumdorligini ortishi hisobiga ishlab chiqarish xarajatlari qisqarib, samaradorlik ortib boradi. Bu holatlar mamlakatning eksport salohiyatini yaxshilanishi bilan birga kadrlar salohiyatini ortishiga turtki beradi. Albatta iqtisodiyotning muhim soha va tarmoqlarini texnologik jihatdan rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning o‘rni muhim. Borada O‘zbekiston iqtisodiyotiga 2017-2024 yillarda 188 milliard AQSh dollari miqdorida investitsiya kiritilib, 16 mingdan ortiq xorijiy kapital

ishtirokidagi korxonalar ochildi. 2025 yilda esa iqtisodiyot tarmoqlariga jalb qilingan xorijiy investitsiyalar hajmi 43,1 milliard dollarga yetdi. Jami investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi esa 31,9 foizni tashkil etib, eksport 33,4 milliard dollarga yetdi.

Albatta bunday ko‘rsatkichlarga erishish uchun so‘nggi yillarda xalqaro tashkilotlar, xususan Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg‘armasi, Osiyo taraqqiyot banki tavsiyalariga ko‘ra iqtisodiyotni yetakchi tarmoqlarini yanada rivojlantirish borasida yo‘l xaritalari, tarmoq va sohalarni takomillashtirish borasida o‘rta va uzoq muddatli strategiyalar hamda davlat dasturlari qabul qilindi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktabrdagi ““Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son hamda 2023 yil 11 sentabrdagi ““O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli Farmoni shular jumlasidandir.

Hozirgi xalqaro bozorlardagi o‘zgarishlar, dunyodagi geosiyosiy va geoiqtisodiy taranglik har bir mamlakatdan kechiktirib bo‘lmaydigan darajada milliy iqtisodiyotini texnologik rivojlantirish va innovatsion o‘sishini ta’minlashni talab etmoqda. Chunki rivojlanayotgan mamlakatlar uchun xos bo‘lgan an’anaviy iqtisodiy o‘sish modeli hozirgi global raqobat talablariga javob bermay qoldi. Sababi mazkur model asosan ishchi kuchi, qo‘shimcha xarajatlar hamda xomashyoga tayangan ekstensiv o‘sishga asoslangan bo‘lganligi bois, bu tizimda mehnat unumdorligi past bo‘ladi. Hozirgi resurslar tanqisligi, ekologik omillarning kuchayib borishi, xususan global iqlim o‘zgarishlari, suv resurslarining kamayishi, aholi sonining ortishi mamlakatlardan tejamkor texnologiyalardan foydalanish, raqamli xizmatlarni kengaytirish, sun’iy intellekt imkoniyatlarini ishga solish, inson kapitaliga bo‘lgan munosabatni tubdan o‘zgartirishni talab etmoqda. Ushbu talablarning naqadar muhim ekanligini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2025 yilning 26-dekabr kuni Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida yana bir bor ta’kidlab o‘tdi.

Murojaatnomada davlat rahbari 2026 yilni yurtimizda “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili”, deb e’lon qilgan holda mazkur yilda amalga oshiriladigan eng muhim oltita ustuvor yo‘nalishni belgilab berdi. Davlatimiz rahbari iqtisodiyotni texnologik va innovatsion o‘sish modeliga o‘tkazish 2026 yilda O‘zbekistonda amalga oshiriladigan islohotlarning samarali bajarilishidagi ikkinchi ustuvor yo‘nalish ekanligini qayd etgan holda quyidagi holatlarga alohida e’tibor qaratdi:

Birinchidan, hozirgi kunda jahon miqyosida raqobat tobora kuchayib borayotgan bir sharoitda faqat yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqara olgan mamlakatgina dunyo bozorida o‘z o‘rniga ega bo‘lmoqda. Jahon intellektual mulk tashkiloti (WIPO) hamda BMTning Sanoat rivojlantirish tashkiloti (UNIDO)ning ma’lumotlariga ko‘ra Xitoy, AQSh, Yaponiya, Germaniya, Janubiy Koreya, Singapur kabi mamlakatlar hozirgi kunda jahon bozorida yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlari bilan yetakchilik qilmoqda., Xususan 2024 yilda Xitoy dunyoda eng yirik qiymatga ega bo‘lgan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqargan mamlakati sifatida e’tirof etildi. UNIDO ning ma’lumotlariga ko‘ra Xitoyning sanoat sohasida yaratgan mahsulotlar qiymati 4,6 trln. AQSh dollarini tashkil etib, bu ko‘rsatkich jahon sanoatining 27,7 foizini tashkil etadi. Xitoyda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining asosiy qismi yuqori texnologiyali hamda yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlarni tashkil etadi. O‘rtadan yuqori darajali daromadga ega bo‘lgan mamlakatlar hisoblangan Armaniston, Belarus, Gruziya, Argentina, Braziliya, Meksika, Indoneziya, Malayziya, Tailand kabi davlatlar ham so‘nggi yillarda iqtisodiyotning muhim sohalarini texnologik jihatdan takomillashtirish va innovatsion rivojlantirishiga katta e’tibor qaratishgan. TheGlobalEconomy.com nashrining ma’lumotlariga ko‘ra Armanistonda inson kapitalini rivojlantirish hisobiga eksportda yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushi 22 foizga yetgan. Shuning uchun davlatimiz rahbari Murojaatnomada iqtisodiyotning barcha sohalarida yuqori samaradorlikka erishishni 2026 yilda islohotlarning bosh mezoni bo‘lishini alohida ta’kidlab o‘tdi. “O‘zbekiston-2030” strategiyasida ham mamlakatimiz sanoatida ishlab chiqariladigan texnologik mahsulotlar ulushini 2030 yilga borib 25 foizdan

32 foizga yetkazish, qayta ishlash sanoatida mehnat unumdorligini 2 barobar oshirish hamda sanoatda qo‘shilgan qiymat hajmini 45 milliard AQSh dollariga yetkazish bilan birga 2,5 millionta yuqori daromadli ish o‘rinlarini yaratish maqsad etib belgilangan Mazkur maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish uchun bevosita iqtisodiyotni barcha sohalarida tarmoq va sohalarni texnologik va innovatsion o‘sish modeliga o‘tkazish zarur bo‘ladi.

Ikkinchidan, iqtisodiyotni texnologik rivojlantirish va uning innovatsion o‘sishini ta’minlash borasida jahonda yuz berayotgan tendensiyalardan kelib chiqib, O‘zbekiston milliy iqtisodiyotida ham yangi texnologik bosqichga o‘tish davri kelganini alohida ta’kidlash mumkin. Bu borada so‘nggi yillarda ishlab chiqarish sohasida qo‘shilgan qiymat zanjirini kengaytirish bo‘yicha sanoatni rivojlantirish dasturi ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etila boshlandi. Agar 2024 yil natijalariga e’tibor beradigan bo‘lsak, xorijiy investitsiyalar 2023 yilga nisbatan 1,6 barobar o‘sib, 34,9 milliard dollarni tashkil qildi. Qiymati 10 milliard dollarlik 242 ta yirik va o‘rta loyihalar ishga tushdi, eksport ilk bor 27 milliard dollariga yetdi. 2025 yilda esa bu ko‘rsatkich 43,1 millard AQSh dollarini tashkil etdi. 2026 yildaesa O‘zbekistonda 52 mlrd. AQSh dollarilik 782 ta yangi sanoat va infratuzilma loyihalariga start berilishi ta’kidlab o‘tildi. Natijada joriy yilda 14 mlrd. AQSh dollarilik 228 ta yangi yirik quvvatlar ishga tushiriladi. Ko‘rilayotgan bunday chora-tadbirlar tufayli 2026 yilda iqtisodiyotda 6,6 foiz o‘sishni ta’minlash, yalpi ichki mahsulot hajmini 167 mlrd. tarmoqlariga jalb etayotgan investitsiyalar miqdori ortib bormoqda. Bu o‘z navbatida yangi ish o‘rinlarini yaratish bilan birga ilm talab etadigan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirib bormoqda.

Uchinchidan, O‘zbekistonda joriy yildan boshlab innovatsiya asosida yuqori texnologik mahsulot ishlab chiqarayotgan korxonalar rag‘batlantiriladi. Buning uchun korxona mutaxassislarining ilmiy-tadqiqot va konstruktorlik ishlanmalaridan olgan daromadi soliqdan ozod qilinadi. Shu bilan birga joriy yilda Toshkent shahri, Buxoro, Farg‘ona va Toshkent viloyatlarida 4 ta data-markaz, 2 ta superkompyuter va 15 ta oliy ta’lim

muassasasida sun’iy intellekt laboratoriyasi faoliyati yo‘lga qo‘yiladi. Yaratilayotgan mazkur infratuzilma kelgusida tibbiyot, transport, qishloq xo‘jaligi, geologiya, bank-moliya, jamoat xavfsizligi kabi muhim sohalarda 100 dan ortiq sun’iy intellekt loyihalarini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiyotni texnologik va innovatsion o‘sish modeliga o‘tkazish nafaqat iqtisodiy siyosatning navbatdagi bosqichi sifatida, balki milliy iqtisodiyotni yanada diversifikatsiya qilish, inson kapitalini rivojlantirish va eksport raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan strategik burilish sifatida baholanadi. Mazkur yo‘nalishda qabul qilinadigan qarorlar aniq indikatorlar, o‘lchanadigan natijalar va doimiy analitik monitoring bilan qo‘llab-quvvatlanishi zarur. Bu esa milliy iqtisodiyotning xomashyoga qaramlik darajasini kamaytirib, ilm-talab va yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushining ortishiga olib keladi. Mehnat unumdorligi oshadi, ishlab chiqarilayotgan tovarlarning mahalliy va xorijiy bozorlardagi raqobatbardoshlik darajasi yaxshilanadi. Eksport salohiyati ortadi.

## QONUN IJODKORLIGIDA PREZIDENT SHTIROKINING TASHKILIY-HUQUQIY MEXANIZMLARI

**Xusanova M.A.**
*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izalnuvchisi, yu.f.n*

Keyingi yillarda keng ko‘lamli islohotlar jarayonida konstitutsiyaviy-huquqiy islohotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa, tabiiyki, mamlakatning milliy iqtisodiyoti, ijtimoiy hayot darajasi, xalqaro reytinglardagi o‘rnining sezilarli darajada oshib borishida yuridik asos bo‘lib xizmat qiladi hamda qonunchilik tizimini ham mos ravishda takomillashib borishni taqozo etadi.

Mazkur islohotlar jarayoni, hech shubhasiz, qonun ijodkorligi jarayonining ham uzviy ravishda takomillashtirib borilishini talab etadi.

Tahlillar natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, so‘nggi yillarda qonun chiqaruvchi hokimiyatning jamiyat va davlat hayotidagi o‘rnini oshirishga qaratilgan 20 dan ziyod qonunlar qabul qilindi.

Ayniqsa, 2023 yili umumxalq referendumi orqali qabul qilingan yangi Konstitutsiyada parlament vakolatlari keskin oshirildi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlari 5 tadan 12 taga, Senat vakolatlari esa 14 tadan 18 taga yetkazildi. Sud, korrupsiyaga qarshi kurash va raqobat organlarini shakllantirish bo‘yicha Prezidentning qator vakolatlari qonun chiqaruvchi hokimiyatga o‘tkazildi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig‘i va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta’minlovchi subyekt sifatida qonun ijodkorligi jarayonida faol ishtirok etadi. Prezidentning qonun ijodkorligi sohasidagi ishtirokini quyidagi yo‘nalishlarga bo‘lish mumkin:

Birinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning tashabbusi bilan Yangi O‘zbekistonda zamonaviy davlatchilik asoslari yaratilib, tom ma’nodagi konstitutsiyaviy davlat barpo etishga qaratilgan demokratik islohotlar ortga qaytmas tus olgani, mamlakatning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy va tashqi siyosat sohalarida rivojlantirish borasidagi eng asosiy konseptual qarashlari, nutqlari qonun ijodkorligida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlillarga ko‘ra, davlat rahbarining xalq vakillari bilan uchrashuvlari xalqchil islohotning yorqin namunasi bo‘lib, so‘nggi 9 yilda Prezident Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis palatalarining alohida va qo‘shma majlislarida o‘n sakkiz marta nutq so‘zladi hamda ma’ruzalar qildi. Jumladan:

- Qonunchilik palatasi va Senatning qo‘shma majlislarida - 5 marta;
- Oliy Majlisga Murojaatnoma taqdim etish asnosida - 5 marta;
- alohida-alohida palatalar majlislarida - 4 marta;
- siyosiy partiyalar fraksiyalari a’zolari bilan uchrashuvlarda 4 marta ishtirok etdi va so‘zga chiqdi.

O‘z safida 181 ta milliy parlament va 15 ta mintaqaviy uyushmani birlashtirgan Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley Assambleyasining

aynan Toshkentda o‘tkazilishi ham mamlakatimizda parlamentarizm sohasida olib borilayotgan islohotlarning dunyo nigohida ijobiy ko‘rsatkichlar bilan namoyon bo‘layotganidan dalolat beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Parlamentlararo Ittifoqning 150-Assambleyasidagi nutqida ham parlamentariylarining dunyoning turli mintaqalarida qurolli to‘qnashuvlar, ekologik va texnogen fojialar, iqtisodiy inqirozlar, “savdo urushlari”, terrorizm va ekstremizm tahdidlari tobora kuchayib borayotgan o‘ta murakkab sharoitda jahonda tinchlikni saqlash, ijtimoiy taraqqiyot va adolatni ta’minlashda ishtiroki va ta’sirini oshirishni zamonning o‘zi talab etilayotgani alohida ta’kidlandi.

O‘zbekiston Prezidenti o‘tgan davrda xalqaro parlament tashkilotlari rahbarlari bilan 10 martadan ortiq, milliy parlamentlar rahbarlari bilan ham juda ko‘p marta uchrashdi. Parlamentlararo hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha qator taklif va tashabbuslar bilan chiqdi, parlament forumlariga muntazam ravishda tabrik yo‘llaydi, xorijiy mamlakatlarga tashriflari chog‘ida ham doim parlament rahbarlari bilan uchrashadi. Bularning barchasi – Prezidentimiz O‘zbekiston parlamentiga ishonishi va tayanishidan dalolatdir.

Shu ma’noda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2024 yil 18 – 20 noyabr kunlari O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalaridagi nutqlarida belgilangan ustuvor vazifalarni o‘z vaqtida hayotga tatbiq qilish, «O‘zbekiston — 2030» strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning huquqiy asoslarini yanada mustahkamlash hamda milliy qonunchilik bazasini kompleks tizimlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi kengashining va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati kengashining 2025 yil 4 martdagi “2025—2029 yillarga mo‘ljallangan qonun ijodkorligi dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 595-V-son qo‘shma qarori parlament palatalarining bu boradagi ishi samaradorligini oshirishda dasturil amal bo‘lib xizmat qiladi.

Ikkinchidan, qonunchilik tashabbusi huquqiga ega. Ushbu huquq qonun loyihasini qonunchilik tashabbusi huquqi subyektlari tomonidan

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish orqali amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Prezidenti o‘zining qonunchilik tashabbusi huquqidan foydalanib, o‘tgan 5 yilda 38 ta qonun loyihasini kiritdi. Bu bilan davlatimiz rahbari “Qonunning birdan-bir manbai va muallifi tom ma’noda xalq bo‘lishi shart”, degan o‘z qat’iy talabini ro‘yobga chiqarish borasida parlament a’zolariga namuna ko‘rsatdi.

Uchinchidan, qonun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangach va qonunda belgilangan tartibda rasmiy manbalarda e’lon qilingach, yuridik kuchga ega bo‘ladi.

- O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan ma’qullangan Qonun imzolanishi va e’lon qilinishi uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga o‘n kundan kechiktirmay yuboriladi.
- Agar O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati qonunni ma’qullash yoki rad etish to‘g‘risida oltmish kun ichida qaror qabul qilmasa, Qonunchilik palatasi tomonidan qonun imzolanishi va e’lon qilinishi uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga yuboriladi.
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qonunni oltmish kun ichida imzolaydi va e’lon qiladi.
- Agar O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan rad etilgan qonunni qayta ko‘rib chiqishda Qonunchilik palatasi deputatlar umumiy sonining uchdan ikki qismidan iborat ko‘pchilik ovozi bilan qonunni yana ma’qullasa, qonun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan hisoblanadi hamda imzolanishi va e’lon qilinishi uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga Qonunchilik palatasi tomonidan yuboriladi.

To‘rtinchidan, Konstitutsiyaning 109-moddasiga muvofiq, prezident qonunni o‘z e’tirozlari bilan takroran muhokama qilish va ovozga qo‘yish uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qaytarishga haqli. Qonunni Oliy Majlisga qaytarish Prezident administratsiyasi rahbarining xati bilan rasmiylashtiriladi. Agar qonun avvalgi qabul qilingan tahririda tegishincha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a’zolari umumiy sonining kamida uchdan

ikki qismidan iborat ko‘pchilik ovozi bilan ma’qullansa, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 99-moddasiga muvofiq, qonun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan o‘n to‘rt kun ichida imzolanishi va e’lon qilinishi kerak.

Beshinchidan, prezidentning farmonlari va qarorlarida qonun loyihalarini ishlab chiqish, tayyorlash va qabul qilishga oid vazifalarning aks etishida namoyon bo‘ladi.

Konstitutsiyaning 110-moddasiga ko‘ra, davlat rahbari Konstitutsiyaga va qonunlarga asoslanib hamda ularni ijro etish yuzasidan respublikaning butun hududida majburiy kuchga ega bo‘lgan farmonlar, qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

Shu o‘rinda, Prezidentning farmonlari bilan qabul qilingan Davlat dasturlariga alohida to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiq. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi, 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi muhim ahamiyatga ega. Unda xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha xohish-irodasini ro‘yobga chiqarish, har bir fuqaroga o‘z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog‘lom, bilimli va ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo‘g‘iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta’minlash borasidagi qonunlar loyihalarini tayyorlash, kiritish va qabul qilish bilan bog‘liq vazifalar o‘z ifodasini topdi.

Ta’kidlash joizki, davlat rahbarining 2025 yilning o‘zida qonun ijodkorligi jarayoni samaradorligini amalga oshirishga qaratilgan quyida keltirilgan farmonlari davlat boshlig‘i sifatida islohotlarning huquqiy ta’minlashga mas’ulligini yanada yaqqol ifoda etadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 14 iyuldagi “Davlat boshqaruvi tizimida samaradorlik, proaktivlik va natijadorlikni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-111-son Farmoni hamda ushbu Farmonda belgilangan vazifalarni amalga oshirish, shu bilan birga,

ijtimoiy munosabatlarni o‘z vaqtida hamda samarali huquqiy tartibga solish, islohotlarning huquqiy asoslarini mustahkamlash, davlat organlari mas’uliyati va tashabbuskorligini oshirish maqsadida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 8 sentabrdagi “Islohotlarni huquqiy jihatdan ta’minlash samaradorligini oshirish hamda ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda vazirlik va idoralarning mas’uliyati va tashabbuskorligini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-161-son Farmoni muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 25 noyabrdagi “Qonunchilikdagi huquqiy bo‘shliqlarni bartaraf etish va tartibga solish yukini kamaytirish to‘g‘risida”gi PF-231-son Farmoni qonunchilikdagi huquqiy bo‘shliqlar va kollizion normalarni bartaraf etish, majburiy talablarni qisqartirish, o‘z ahamiyati va dolzarbligini yo‘qotgan qonunchilik hujjatlarini bekor qilish orqali tartibga solish yukini kamaytirishga qaratilganligi bilan ahamiyatli bo‘lib bevosita qonun ijodkorligi samaradorligining oshishiga xizmat qiladi.

Kezi kelganda ta’kidlash joiz, davlat rahbari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning barchasi, yuridik jihatdan, mamlakatda konstitutsiyaviylikni ta’minlash hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini samarali kafolatlashga qaratiladi. Shu bilan birga, olib borilayotgan islohotlar doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 19 fevraldagi “Qonunlarning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi rolini hamda norma ijodkorligi jarayoni sifatini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-75-son Qarori qonun ijodkorligi amaliyotida zaruriy huquqiy hujjat sifatida xizmat qiladi. Unda yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda «O‘zbekiston — 2030» strategiyasining qabul qilinishi milliy qonunchilikni takomillashtirish, qonun ijodkorligi jarayoni sifati va samaradorligini oshirish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladigan qonunlarni qabul qilish amaliyotini kengaytirish, shuningdek, huquqiy tartibga solish barqarorligini ta’minlash bo‘yicha bir qator vazifalarning ijrosini ta’minlash, davlat huquqiy siyosatining institutsional asoslarini rivojlantirish bo‘yicha maqsadiga erishish, shuningdek, qonunlarning

ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi rolini yanada oshirish, shu jumladan, ulardagi huquqiy bo‘shliqlarni to‘ldirish va havolaki normalarini amalga oshirish yuzasidan aniq chora-tadbirlarni belgilash hamda huquqni qo‘llash amaliyotining bir xilligini ta’minlashni nazarda tutilgan.

Shu o‘rinda, huquqni qo‘llash hamda xorijiy mamlakatlarning ilg‘or amaliyotini inobatga olgan holda hamda so‘nggi yillarda mamlakatda konstitutsiyaviylikni ta’minlash sohasida amalga oshirilayotgan izchil va qat’iy islohotlarning uzviy omili sifatida amaldagi qonunchilikka Prezidentning qonunni imzolashdan oldin O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga qonunning Konstitutsiyaga mosligini tekshirish yuzasidan xulosasini olish huquqini mustahkamlash zarurati mavjud. Mazkur normaning kiritilishi konstitutsiyaviy qonuniylikning so‘zsiz ta’minlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa sifatida ta’kidlash joizki, qonun ijodkorligi jarayonida inson-jamiyat-davlat manfaatlarining uyg‘un ta’minlanishida, bugungi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas’uliyat asosida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbuskorligini yuksak baholash mumkin. Shu o‘rinda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Parlamentlararo Ittifoqning 150-Assambleyasidagi nutqida keltirilgan ushbu fikrni keltirib o‘tish o‘rinli: “... Albatta, dunyodagi hech bir davlat va jamiyat faqat ko‘plab qonun yoki qarorlar qabul qilish bilan rivojlana olmaydi. Barchamiz bu yo‘lda birlashib, qonun ijodkorligi ruhini kuchaytirib, bor bilim va tajribamizni yagona maqsad sari safarbar etish orqali umumiy maqsadimizga erisha olamiz”.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023 y., 06/23/158/0694-son; 29.12.2023 y., 06/23/214/0984-son; 21.03.2025 y., 06/25/51/0261-son; 26.03.2025 y., 06/25/56/0274-son; 22.12.2025 y., 06/25/254/1195-son

2. M.Husanova. Milliy davlatchilik, tarixiy tajribamiz in’ikosi, xalqimiz irodasining yorqin ifodasi. //Yangi O‘zbekiston, 2025 yil 8 dekabr (254-son);

3. https://yuz.uz/file/newspaper/41d3944516bd83cff61123353eeefe3d.pdf

4. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2025 yil 16 iyul
5. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2025 yil 9 sentabr
6. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2025 yil 26 noyabr
7. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 20.02.2024 y., 07/24/75/0137-son; 25.06.2024 y., 07/24/231/0445-son
8. https://president.uz/uz/lists/view/8034.

## SHARTNOMA ERKINLIGI DEGANDA NIMA ANGLASHILADI?

**Ruziyev R.Dj.**
*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti professori, yu.f.d., professor*

2025 yil 26 dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga murojaatnomasida mavjud salohiyatimiz, bugungi islohotlarimiz, tadbirkorlarimiz faolligi, xorijiy sheriklarimiz bilan hamkorligimiz o‘sib borayotganligi, bevosita bir qator muhim omillar qatorida shartnoma tuzish va uning ijrosining ta’minlanishidagi erkinlikka ham bog‘liqligi masalasiga e’tibor qaratildi. Xususan, shartnoma erkinligi tamoyil sifatida, ma’lumki, fuqarolik, oila va tadbirkorlik singari huquq sohalarida alohida o‘rin tutadi. Shu nuqtai-nazardan shartnoma erkinligi prinsipi nimani anglatadi va u qanday unsurlarni o‘zida jamlaydi, umuman olganda, mazkur kategoriyaning mazmun-mohiyati xususida to‘xtalib o‘tishlik nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Shartnoma erkinligi tamoyili (prinsipi) (O‘R FK 1-m.1-q.) deganda, mazmunida uchta unsurni, ya’ni, *birinchidan,* shartnoma tuzishni; *ikkinchidan,* tuzilishi rejalashtirilayotgan shartnomaning turi va shaklini tanlashni; *uchinchidan,* mazkur shartnoma mazmunini aniqlash va belgilashni o‘zida jamlagan tushuncha anglashiladi (O‘R FK 354-m.) [1].

Fuqarolik huquqi nazariyasi, jumladan shartnoma tizimi doirasida qaraganda shartnoma erkinligi prinsipini mutlaq tusga ega deb bo‘lmaydi. Zero, chek-chegarasiz huquqni tasavvur qilish mumkin bo‘lmaganidek, har qanday subyektiv huquq qanchalik to‘liq va mazmundor hisoblanmasin, unda muayyan darajada xatti-harakatlarga cheklov o‘rnatiladi va bu tabiiy holat. Demoqchimizki, shartnoma erkinligi muayyan darajada chegaralansada, shartnoma erkinligining har qanday buzilishi yoxud cheklanishi shartnoma huquqi hamda fuqarolik qonunchiligining asosiy prinsiplariga zid deb qaraladi.

Fuqarolik huquqining prinsiplari qatorida shartnoma erkinligi prinsipining birinchi unsuri – uni tuzish erkinligi bo‘lib, ijtimoiy- iqtisodiy munosabatlarda o‘ta muhim ahamiyatga ega. Ma’lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlar qonun bilan ta’qiqlanmagan har qanday faoliyat turi bilan shug‘ullanishlari mumkin bo‘lib, bunda turli xil shartnomalar tuzishlariga ruxsat etiladi. Bu shuni anglatadiki, shartnoma tuzish erkinligi jismoniy va yuridik shaxslar fuqarolik huquqlarini o‘zlarining xohish-irodalariga va manfaatlariga muvofiq ravishda vujudga keltirish va amalga oshirish imkoniyatini yaratadi [2].

Shartnoma erkinligining navbatdagi tarkibiy unsuri bu - jismoniy va yuridik shaxslarning har qanday turdagi hamda shakldagi shartnomaviy munosabatlarga kirishish yoki kirishmaslik huquqiga egaligini anglatadi. Ya’ni, bunda ular o‘zlari uchun hamkor sheriklarni mustaqil tanlaydilar, qonun hujjatlarida ko‘rsatilgan yoki aralash yoxud umuman nazarda tutilmagan shartnomalarni ham tuzishlari mumkin (O‘R FK 354-m. 3-4-q). Biroq, qanday shartnoma tuzishlaridan qat’i-nazar qonun hujjatlari va shartnoma umumiy qoidalariga zid kelmasligi shart.

Shartnoma erkinligi prinsipining navbatdagi unsuri taraflarning shartnoma mazmunini, ya’ni huquq va majburiyatlari hamda shartlarini o‘z xohish-istaklaridan kelib chiqib mustaqil belgilashlarida namoyon bo‘ladi. Shartnomaning rioya etilishi majburiy bo‘lgan shartlar faqat qonun hujjatlari (qonunlar, O‘R Prezidentining normativ huquqiy hujjatlari, Hukumat qarorlari va boshqa huquqiy-me’yoriy hujjatlar)da ko‘zda tutilgan bo‘lishi mumkin. Ko‘pgina hollarda fuqarolik qonun hujjatlarida

dispozitiv (ixtiyoriy) normalar belgilab qo‘yiladiki, ular taraflarning kelishuvi orqali boshqa qoida o‘rnatilmaganligi sababidan qo‘llaniladi. Bunda “taraflar o‘z kelishuvlari orqali dispozitiv me’yorlarning qo‘llanilishini istisno etishlari yoki o‘z ixtiyorlari bilan har qanday boshqa shartni joriy qilishlari mumkin” [3].

Davlat tomonidan belgilangan umummajburiy ijtimoiy normalar tizimi sifatida huquq ijtimoiy munosabatlarni samarali tartibga soluvchi normalarni vujudga keltiradi. Bu esa, qachonki, tartibga solinadigan munosabatlarning xususiyatlarini aks ettiruvchi huquqiy mexanizm ishlab chiqilganida va ushbu mexanizm munosabatlarga muvofiq ravishda to‘g‘ri qo‘llanilganidagina sodir bo‘ladi. Ya’ni, bunda muayyan tizimli belgi bilan shartlashilgan normalar tomonidan tartibga solinadigan shartnomalarda ham aynan shunday belgi mavjud bo‘lishi kerak.

Shartnoma tizimini shakllantiruvchi omillar huquqiy munosabat ishtirokchilarining xohish-istagidan tashqari ham mavjud bo‘ladi. “Bu istak erkinligi bo‘lib, Obyektiv tizim qonuniyatlari bilan chegaralanadi va ularga bo‘ysunadi. Ushbu qonuniyatlar zamirida shakllantirilgan normalar tizimga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan shartnomalarni tartibga soladi” [4].

Madomiki, shartnomalar tizimini vujudga keltiruvchi omillar huquqiy munosabat ishtirochilarining erkiga bog‘liq emas ekan, tizimga xos Obyektiv qonuniyatlar taraflarning shartnoma erkinligini muayyan darajada cheklaydi. Xo‘sh, bu qanday qonuniyatlar?

*Birinchidan,* ma’lum bir tizimli belgi bilan tavsiflanadigan huquqiy munosabatga nisbatan aynan shu belgi asosida shakllantirilgan huquqiy norma qo‘llanilishi kerak. Bunga muvofiq qonunda belgilab qo‘yilgan shartlarni faqat qonunda nazarda tutilgan hollardagina o‘zgartirishga yo‘l qo‘yiladi. Masalan, o‘zining predmetga oid xususiyatiga ko‘ra bir yildan kam bo‘lmagan muddatga tuzilgan bino yoki inshootni ijaraga berish shartnomasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi lozim va ro‘yxatdan o‘tkazilgan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi (O‘R FK 574-m. 4-q.). Tushunarliki, bino yoki inshoot ijarasi shartnomasi taraflari “o‘zaro kelishuv” bilan ushbu imperativ (majburiy) tusdagi normani chetlab o‘ta olmaydilar.

*Ikkinchidan,* taraflar majburiyatda mavjud bo‘lgan tizimli omilga zid keladigan shartnoma shartlarini belgilashlari mumkin emas. Zero, ma’lum bir tizimli belgi asosida vujudga kelgan huquqiy tartibga solish normalari va prinsiplari bunday belgiga ega bo‘lmagan shartnomaga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Jumladan, xizmatni pudratdan ajratib turadigan xususiyati shundaki, haq evaziga xizmat ko‘rsatish shartnomasi bo‘yicha bajariladigan ish to‘g‘ridan-to‘g‘ri natijaga erishishga qaratiladi va uzluksiz ish jarayoniga bevosita bog‘liq bo‘ladi. Aynan ushbu xususiyat mazkur majburiyatlarni huquqiy tartibga solishning turli xil prinsiplarini belgilab beradi. Bu, birinchi navbatda, ko‘rsatiladigan xizmat (bajariladigan ish) uchun to‘lanadigan haq, xizmat (ish)ning sifati va miqdori, shuningdek bajaruvchi (pudratchi)ning mulkiy javobgarligiga taalluqli. Chunki ushbu xususiyat yoxud o‘ziga xoslik Obyektiv mavjud bo‘lib, haq evaziga xizmat ko‘rsatish shartnomasi bo‘yicha taraflar o‘z xohishlariga ko‘ra pudratga oid normalarni qo‘llashlari mumkin emas. Va aksincha, pudrat shartnomasiga nisbatan haq evaziga xizmat ko‘rsatish shartnomasi to‘g‘risidagi qoidalar tatbiq qilinishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Shuning uchun agar xizmat ko‘rsatish shartnomasi mazmuniga ushbu munosabatlar xususiyatiga zid bo‘lgan yoki tabiatiga mos kelmaydigan shartlar kiritilsa, ular haqiqiy hisoblanmaydi. Masalan, agar tibbiy xizmat ko‘rsatish shartnomasining predmeti davolash emas, balki vrachlik faoliyati bo‘lsa, taraflar shartnomaga mijozni davolay olmaganligi uchun vrachga mulkiy javobgarlik yuklash yoki mijoz shifo topgandagina vrachga haq to‘lash haqidagi shartni kiritishlari noto‘g‘ri bo‘ladi.

Xuddi shunday, ilmiy tekshirish, tajriba konstruktorlik va texnologiya ishlarini bajarish bo‘yicha shartnoma pudrat shartnomasi bo‘yicha amalga oshiriladigan ishlardan ijodiylik tabiati bilan farqlanadi. Tabiiyki, ish va natijaning o‘ziga xos xususiyati maxsus huquqiy tartibga solishni taqozo etadi. Shuning uchun ilmiy-tekshirish, tajriba konstruktorlik va texnologiya ishlari shartnomasi taraflari ushbu shartnoma xususiyati yoki tabiatiga zid bo‘lgan shartlarni kelishishga haqli emaslar. Xususan, unga pudrat to‘g‘risidagi normalarni tatbiq qilish unchalik to‘g‘ri bo‘lmaydi yoki umuman qonunga xilof hisoblanadi.

*Uchinchidan,* taraflar qonunda u yoki bu turdagi huquqiy munosabatda mavjud bo‘lishi to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’qiqlangan belgi (xususiyat)ga asoslangan shartnomani tuzishlari mumkin emas. Masalan, vositachilik shartnomasi bo‘yicha bir taraf (vositachi) ikkinchi taraf (komitent)ning topshirig‘i bo‘yicha o‘z nomidan, biroq komitent hisobidan bir yoki bir necha bitimni haq evaziga tuzish majburiyatini oladi (O‘R FK 832-m.). Ta’kidlash joizki, qonun aynan shu yo‘nalishdagi boshqa huquqiy munosabatlarni haq evaziga amalga oshirilishini man etadi. Shuning uchun taraflar tekin vositachilik shartnomasini tuzishlari qonunda nazarda tutilmagan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish o‘rinliki, har qanday shartnoma munosabatlari ishtirokchilarining xatti-harakatlari muayyan darajada qonun normalari bilan cheklanadi. Demak, shartnoma tizimini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan shartnoma erkinligi prinsipi shartli ravishdagina mutlaq deb e’tirof etilishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi (2025 yil 12 maygacha bo‘lgan o‘zgartish va qo‘shimchalar bilan). Rasmiy nashr. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, “Adolat” milliy huquqiy axborot markazi, -T.: 2025 y. -616 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga sharh. 1-jild (birinchi jild) Adliya vazirligi. -T.: “Vektor-Press”, 2010. -B.748; Rahmonqulov X. Majburiyat huquqi (umumiy qism). Darslik. -T.: TDYuI, 2005. -B. 227; Muxammadiev A.A. Fuqarolik huquqi tamoyillarining nazariy va amaliy muammolari. -T.:”TDYuI”, 2010. -B.125-126.

3. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga sharh. 1-jild (birinchi jild) Adliya vazirligi. -T.:”Vektor-Press”, 2010. -B.750-751; *yana qarang:* Muxammadiev A.A. Fuqarolik huquqi tamoyillarining nazariy va amaliy muammolari. -T.:”TDYuI”, 2010. -B.124-142; Fuqarolik va oila huquqi. Darslik / R.J.Ruziyev, V.R.Topildiyev, M.Sh.Choriyev. -T.:”O’R JXU”, 2022. -B.33.

4. Romanes Yu.V. Sistema dogovorov v grajdanskom prave Rossii. -M.: “Yurist”, 2001. -S.81.

# TADBIKORLIKKA OID FUQAROLIK HUQUQI TAMOYILLARI

**Muxammadiyev A.A.**
*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti professori, yu.f.d., professor*

Tadbirkorlikga oid fuqarolik huquqi tamoyillari O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida mustahkamlangan asosiy qoidalar, negizlardir. Tadbirkorliknini rivojlantirishga yo‘naltirilgan fuqarolik huquqi tamoyillari qonunda nimaiki taqiqlamagan bo‘lsa ruxsat berilishi tamoyili va fuqarolik huquqlarining to‘sqinliksiz amalga oshirilish tamoyili subyektlarning erkinligi va huquqlarining himoyalanganligi tamoyillari bilan hamohangdir.

Agarda fuqarolar va yuridik shaxslar o‘z huquqlarini amalga oshirishda ushbu shartlarga rioya etmasalar, sud ularga tegishli huquqni himoya etishni rad qilishi mumkin. Subyektiv fuqarolik huquqini amalga oshirish-zimmasida majburiyat bo‘lgan shaxsni muayyan xatti-harakatni qilishga, agar u o‘z burchini ixtiyoriy ravishda bajarmasa, ushbu xatti-harakatni bajarishlik majbur qilish yo‘li bilan kafolatlanadi.

Fuqarolik kodeksining fuqarolik huquqlari to‘sqinliksiz amalga oshirilishi tamoyili fuqarolik munosabatlarning rivojiga to‘sqinlik qiluvchi har qanday asossiz to‘siqlarni bartaraf etishni nazarda tutadi. Umume’tirof etilgan Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi Xalqaro paktning 15-moddasida[3] faoliyatning barcha jabhalarida erkin harakat qilish huquqi kafolati belgilangan. O‘zbekiston qonunchiligida fuqarolik huquqlari to‘sqinliksiz amalga oshirilishi tamoyili O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasi 1-bandida mustahkamlab qo‘yilgan, unga binoan har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi, intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinishi kafolatlanadi.[1]

Konstitutsiyaning 67-moddasi 3-qismida O‘zbekiston Respublikasi hududida iqtisodiy makon birligi, tovarlar, xizmatlar, mehnat resurslari va moliyaviy mablag‘larning erkin harakatlanishi kafolatlanganligi belgilab qo‘yilgan.[1]

Ushbu fuqarolik huquqlari to‘sqinliksiz amalga oshirilishi tamoyili FKning 1-moddasi 3-bandida oydinlashtirilgan, ya’ni unda tovarlar, xizmatlar va moliyaviy mablag‘lar O‘zbekiston Respublikasining butun hududida erkin harakatda bo‘lishi belgilab qo‘yilgan. Bozor chegara bilmaydi. O‘zbekiston Respublikasining butun hududida fuqarolik huquqiy munosabatlar doirasida amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyatida bir xil qoidalar o‘rnatilishi kerak. Chunki, bu ham fuqarolik huquqlarining to‘sqinliksiz amalga oshirilishining bir ko‘rinishidir, shu sababli ushbu tamoyilga binoan O‘zbekiston Respublikasining subyekt-lari tomonidan qayta sertifikatsiyadan o‘tkazish, qayta markalashni kiritish yo‘li bilan tovarlar, xizmatlar va moliyaviy mablag‘larning erkin harakatini taqiqlashni va cheklashni, mahsulotlarni hududlarga olib kirish va olib chiqishni to‘g‘ridan-to‘g‘ri taqiqlashni belgilovchi, quyi hokimiyatlar ijroiya organlari tomonidan qo‘shimcha ruxsatlar berilishini belgilovchi me’yoriy hujjatlar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Fuqarolik kodeksiga to‘g‘ri kelmaydigan harakat hisoblanadi. Shu munosabat bilan Fuqarolik kodeksining 1-moddasida belgilangan “Tovarlar, xizmatlar va moliyaviy mablag‘lar O‘zbekiston Respublikasi-ning butun hududida erkin harakatda bo‘lishi”[4] tamoyilining real ta’minlanishini kafolatlash maqsadida, bizningcha, ushbu moddaning 4-bandiga quyidagicha o‘zgartish kiritish lozim, deb o‘ylaymiz. “..., tovarlar va xizmatlar harakatda bo‘lishini cheklash qonun hujjatlariga muvofiq joriy etilishi mumkin ”degan so‘zlar o‘rniga “... tovarlar va xizmatlar harakatda bo‘lishini cheklash qonunga muvofiq joriy etilishi mumkin”, deb bayon qilishni taklif etamiz. Shundagina, qonunosti hujjatlar qabul qiluvchi organlar tomonidan tovarlar va xizmatlar harakatda bo‘lishini cheklovchi hujjatlar qabul qilinmasligi kafolatlanib, bu tamoyilning amaldagi ijrosi ta’minlangan bo‘lar edi, - degan fikrdamiz.

Ushbu tamoyilning namoyon bo‘lishiga fuqarolik huquqining ko‘pchilik normalari dispozitivlik xususiyatga egaligi holati sabab hisoblanadi. Chunki, bu xil normalarni tatbiq etish fuqarolik munosabat ishtirokchi-larining xohishiga bog‘liq bo‘ladi. Ular o‘z munosabatlarida dispozitiv-lik normani qo‘llamasliklari mumkin yo bo‘lmasa uning

mazmunini butunlay o‘zgartirishi yoki qisman o‘zgartishi mumkin. Fuqarolik qonunchiligi asosida dispozitiv normalar yotganligi sababli, fuqarolik munosabat ishtirokchilari o‘zlarining huquq layoqatini o‘z xohishlariga qarab amalga oshirishlari, subyektiv huquqlarga ega bo‘lish - bo‘lmaslik, ularga ega bo‘lishning aniq usulini tanlash, o‘zlari ishtirokchi bo‘lgan munosabatning mazmunini o‘z xohishiga ko‘ra tartibga solish, o‘ziga tegishli subyektiv huquqlardan foydalanish, buzilgan huquqni himoya qilish yoki qilmaslik masalasini hal qilish huquqidan foydalanishlari mumkin.

Bunday imkoniyat subyektiv huquqqa to‘liq, shuningdek, uning tarkibiga kiruvchi ayrim huquqlariga ham tatbiq etiladi. Fuqarolik huquqi subyektlarining o‘zlariga tegishli huquqlarini xohishlariga ko‘ra amalga oshirishi faqat ularning mulkiy va boshqa manfaatlari bo‘yicha amalga oshiriladi. Qonuniy manfaati deyilganda qonun tomonidan tan olingan ijtimoiy manfaat tushuniladi. Qonun tomonidan tan olingan ijtimoiy manfaat qonun tomonidan qo‘riqlanadiganlik maqomini olishi uchun bir necha shartlar amalga oshirilishi zarur bo‘ladi. Fuqarolik huquqi ijtimoiy manfaatlarni ularning subyektlarini tartibga soluvchi fuqarolik huquqlari bilan ta’minlash sohasida, yoki bo‘lmasa ularga himoya qiluvchi fuqarolik huquqini berish sohasida tan oladi.

Tartibga soluvchi fuqarolik huquqlari o‘zlari tartibga soluvchi jaryonlarning normal kechishiga chaqirilganligi sababli, tegishli manfaatlar to‘siqlarsiz amalga oshiriladi va shu tufayli himoyaga muhtoj bo‘lmaydi. Ijtimoiy manfaat qonun tomonidan himoyalanishi uchun, u qonun tomonidan, uning subyektini himoyalavchi fuqarolik huquqi bilan ta’minlangan holda, tan olingan bo‘lishi kerak.

Ijtimoiy manfaatning qonun tomonidan himoyalanishi maqomiga ega bo‘lishning yana bir usuli uning himoyalanuvchi fuqarolik huquqini ta’minlavchisi bu manfaatni himoya qilishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Shunday qilib, ijtimoiy manfaatning qonun tomonidan himoyalanganlik maqomini olishi uchun, birinchidan, u qonun tomonidan, uning subyektini himoyalovchi fuqarolik huquqi bilan ta’minlangan holda, tan olingan

bo‘lishi kerak, ikkinchidan, bu huquq mazkur manfaatni himoya qilishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim .

Tadbirkorlik faoliyatini kafolatlaydigan tamoyillardan biri bu - iqtisodiy faollik erkinligi tamoyili hisoblanadi va u O‘zbekiston Konstitutsiyasining 65-moddasida o‘z ifodasini topgan.[1] Bu tamoyilning bozor iqtisodiy munosabatlarini tashkil etishdagi alohida o‘rni shundan iboratki, muqaddam iqtisodiy munosabatlar faqatgina yuqori turuvchi davlat organlarining direktiv ko‘rsatmalari asosida belgilanar edi, bunday tartibning mavjudligi esa fuqarolarning ishbilarmonligi, ijodiy tashabbuskorligi, ijtimoiy faolligiga to‘sqinlik qilar, bir so‘z bilan aytganda yo‘l bermas edi. Bozor iqtisodi sharoiti esa jamiyat ehtiyojini hisobga olgan holda, mulkiy munosabatlarning sifat jihatidan tubdan o‘zgarib borishiga, moddiy ishlab chiqarishni rivojlan-tirishga, mehnat unumdorligini oshirishga, erkin mehnatning qaror topishiga olib keldi, natijada tadbirkorlar yuqoridan buyruq, ko‘rsatma-larni kutmasdan, bozor qonuniyatlariga izchil tayangan holda, moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishni erkin, o‘z ixtiyorlariga binoan, bozor talablariga qat’iy rioya etgan holda amalga oshiradigan bo‘ldi.

Tadbirkorlik faoliyatini kafolatlaydigan tamoyillardan yana biri-bu tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish tamoyili bo‘lib, bunga ko‘ra ularning iqtisodiy manfaati tegishli organlar tomonidan qonunda belgilangan tartibda himoya qilinadi. Masalan, yangi tashkil etilgan tadbirkorlarga moddiy jihatdan o‘z iqtisodini tiklab olishda, ya’ni bank orqali ularga qarz berishda va soliq to‘lashda ma’lum bir imtiyozlar berilgan.

Muhim asosiy tamoyillardan hisoblangan xo‘jalik munosabatlariga iqtisodiy uslublarni qo‘llash asosida davlatning ta’sir etish tamoyili haqida to‘xtalganda, bu tamoyil yurtimizning iqtisodiy rivojlanishiga direktiva, buyruq orqali ta’sir etish usulining iqtisodiy usuliga, mehnat jamoasining, yakka shaxsning tovar ishlab chiqarish, ish va xizmat ko‘rsatishda manfaatlarini hisobga olishga qaratilganligida ifodala-nadi. Bunga soliq undirishni misol keltirsa bo‘ladi. Muqaddam soliqlar barcha tashkilotladan olingan daromaddan bir xilda ushlab qolinmasdan, balki ilg‘or

korxonaning mablag‘idan samarasi past korxona uchun ham ushlab qolinar edi. Hozir esa davlat tomonidan soliqlar tizimining aniq qo‘yilganligi har bir korxona va tashkilotlarning o‘z rivojidan manfaat-dorligini oshiradi. Davlatning korxona va tashkilotlarga ta’sir etishi beriladigan buyruqqa va ko‘rsatmaga emas, balki iqtisodiy usulga asoslanadi, degan xulosaga kelinadi.

Tadbirkorlikga oid asosiy tamoyillardan biri qonuniylik, u barcha fanlarga tegishli umumiy tamoyil bo‘lsa ham, tadbirkorlik munosabatlari sharoitida o‘ziga xos xususiyatga ega va uning mazmunida tadbirkorlik subyektlarining qonun taqiqlamagan har qanday faoliyat bilan shug‘ullanishlari mumkinligi qoidasi yotganligi bilan ahamiyatli.

Ushbu tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan tamoyillar, pirovardida, mamlakatimizda tadbirkorlarning iqtisodiy faoliyatini ma’lum bir maqsad sari to‘g‘ri yo‘naltirib, huquqiy tartibga solib turadi va ularning huquq va manfaatlari kengroq talqin yetilib, kafolatlarini to‘la ta’minlashga xizmat qiladigan qoidalar asos qilib qo‘yilganini anglatadi va shu o‘rinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga murojaatnomasida “tadbirkorlarimiz hal qiluvchi kuch sifatida eng oldingi safda turib, sanoat va servis Obyektlarini tashkil qilib, doimiy ish o‘rni yaratishda, aholimiz ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlarni kasbga o‘rgatib mahallalarning o‘zida ishli va daromadili qilishda alohida jonbozlik ko‘rsatmoqda”[2] deb alohida ta’kidlaganligi tadbirkorlik, tadbirkorlikning mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimiz faravonligini ta’minlashdagi o‘rni nechog‘lik ulkan va zalvorli ekanligidan darak berib turganligini alohida e’tirof etish o‘rinli hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.”O‘ZBEKISTON” NMIU, 2024.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga murojaatnomasi./ prezident.uz. 26.12.2025.

3. *LexUZ* .Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi Xalqaro pakt. 15-moddasi.

4. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi.T.: “Adolat”, 2021.

# MAHALLA - DAVLAT SIYOSATI MARKAZIDA

**Usmanova M.A.**
*O‘zbekiston Respublikasi JXU Jinoiy-huquqiy fanlar kafedrasi professori*

**Nurmuxammedova G.B.**
*O‘zbekiston Respublikasi JXU Jinoiy-huquqiy fanlar kafedrasi dotsenti*

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy islohotlar tizimida mahalla instituti alohida va ustuvor o‘rin egallaydi. Mamlakatni modernizatsiya qilish, aholining turmush darajasini oshirish hamda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan davlat siyosatini amalga oshirishda mahalla tizimi eng quyi, biroq eng samarali boshqaruv bo‘g‘ini sifatida namoyon bo‘lmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ta’kidlanganidek, “Mahalla tinch va ahil bo‘lsa, jamiyat tinch va hamjihat bo‘ladi”. Ushbu fikr mahallaning faqat hududiy-ma’muriy tuzilma emas, balki jamiyatda ijtimoiy barqarorlik, hamjihatlik va taraqqiyotni ta’minlovchi muhim ijtimoiy institut ekanini anglatadi.

Mahalla instituti aholi manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy muammolarni o‘z vaqtida aniqlash va ularga manzilli yechimlar ishlab chiqishda davlat bilan jamiyat o‘rtasida o‘ziga xos vositachi vazifasini bajaradi. Mahallaning ushbu funksiyasi uni ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda muhim amaliy mexanizm sifatida qarashni taqozo etadi.

2026 yilning “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” deb e’lon qilinishi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida mahalla institutining institutsional maqomi va vakolatlarini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan strategik qaror sifatida baholanadi. Bu tashabbus mahallaning faoliyatini tizimli ravishda takomillashtirish, uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, kadrlar salohiyatini oshirish hamda mahalla darajasida ijtimoiy muammolarni hal etish samaradorligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Ilmiy adabiyotlarda mahalla ko‘pincha an’anaviy ijtimoiy institut, urf-odat va qadriyatlar saqlovchisi sifatida talqin qilingan bo‘lsa, mazkur maqolada u davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini amalga oshirishdagi amaliy va funksional mexanizm sifatida tahlil qilinadi. Bu yondashuv mahallaning zamonaviy boshqaruv tizimidagi o‘rni va ahamiyatini ilmiy jihatdan qayta baholash imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan Murojaatnomasida keltirilgan rasmiy ma’lumotlar mahalla tizimi orqali amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida yuqori samaradorlikka ega ekanini yaqqol ko‘rsatadi. Xususan, infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar natijasida minglab mahallalarda aholini toza ichimlik suvi bilan ta’minlash masalasi hal etildi. Bu, o‘z navbatida, millionlab fuqarolarning kundalik turmush sifati, sanitariya-gigiena sharoitlari hamda sog‘liqni saqlash ko‘rsatkichlarining yaxshilanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Shuningdek, suv ta’minoti, elektr energiyasi, yo‘l-transport infratuzilmasi va boshqa kommunikatsiya tarmoqlarining bosqichma-bosqich yaxshilanishi mahallalarning ijtimoiy jozibadorligini oshirish bilan birga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratdi. Natijada, mahalla hududida yangi ish o‘rinlari tashkil etildi, aholining daromad manbalari kengaydi va ijtimoiy faollik darajasi oshdi.

Mahalla O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida nafaqat ijtimoiy barqarorlikni ta’minlovchi an’anaviy tuzilma, balki davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining samarali, manzilli va amaliy instrumenti sifatida namoyon bo‘lmoqda. Uning rolini ilmiy jihatdan chuqur o‘rganish va institutsional imkoniyatlarini yanada kengaytirish mamlakatning barqaror taraqqiyotini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mahalla darajasida joriy etilgan manzilli ijtimoiy himoya tizimi aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo‘llab-quvvatlashda samarali mexanizm sifatida namoyon bo‘ldi. Murojaatnomada ta’kidlanganidek, ijtimoiy nafaqa, subsidiya va kompensatsiya kabi xizmatlarning mahalla orqali taqdim etilishi yordamga muhtoj aholini aniqlashda shaffoflik va

aniqlikni ta’minladi. Natijada millionlab fuqarolar kambag‘allikdan chiqarilib, kambag‘allik darajasining izchil pasayishiga erishildi. Bu jarayon mahallaning aholini ijtimoiy muhofaza qilishda davlat bilan fuqarolar o‘rtasidagi samarali vositachiga aylanganini ko‘rsatadi. Joriy yilda 5 million nafar aholining daromadli bo‘lishi ta’minlanib, mamlakatda ishsizlik darajasi 5,5 foizdan 4,9 foizgacha pasaydi. Bu natija mahalla kesimida aholining mehnat salohiyatini hisobga olgan holda ish o‘rinlari yaratish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash va kasbiy tayyorgarlik choralarining tizimli amalga oshirilgani bilan izohlanadi. Shuningdek, qariyb 1,5 million nafar ehtiyojmand aholining kambag‘allikdan chiqarilishiga erishildi, ilk bor 1 ming 435 ta mahalla “kambag‘allikdan xoli hudud” sifatida e’tirof etildi. Ta’kidlash joizki, mamlakatda kambag‘allik darajasi yil boshidagi 8,9 foizdan 5,8 foizgacha qisqardi. Bu ko‘rsatkichlar mahalla institutining ijtimoiy himoyani manzilli va samarali tashkil etishdagi hal qiluvchi rolini yaqqol namoyon etadi.

Ishsizlik darajasining izchil pasayishi ham mahalla tizimi orqali amalga oshirilgan islohotlarning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy natijalaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Xususan, mahalla darajasida mehnat resurslarini aniq hisobga olish, aholining kasbiy salohiyati va mehnat bozori ehtiyojlarini o‘zaro muvofiqlashtirish asosida ish o‘rinlari yaratish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi. Bu esa ishsiz aholini faqat statistik hisobdan chiqarish emas, balki ularni barqaror daromad manbaiga ega bo‘lgan iqtisodiy faol Subyektlarga aylantirishga xizmat qildi.

Mahalla tizimi orqali tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, ayniqsa, aholining kam ta’minlangan qatlamlari, yoshlar va xotin-qizlarni ish bilan ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etdi. Imtiyozli kreditlar ajratish, kasanachilikni rivojlantirish, oilaviy tadbirkorlik loyihalarini amalga oshirish hamda kasbiy tayyorgarlik va qayta tayyorlash dasturlariga yo‘naltirish orqali aholining iqtisodiy faolligi sezilarli darajada oshdi. Natijada, mahalla hududlarida o‘z-o‘zini band qilish shakllari kengayib, mehnat bozoridagi nomutanosibliklarni kamaytirishga erishildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan va amaliyotga joriy etilgan “yettilik” institutiga keng vakolatlar berilgani mahalla tizimining funksional imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Ushbu institut doirasida ijtimoiy xizmatlar, bandlikka ko‘maklashish, ijtimoiy himoya, ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalaridagi chora-tadbirlar aholiga yanada yaqinlashtirildi. Bu, o‘z navbatida, mahalliy darajada mavjud muammolarni tezkor aniqlash va ularga manzilli yechimlar ishlab chiqish imkonini yaratdi.

Shu tariqa, mahalla tizimi orqali ishsizlikni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar ijtimoiy himoya va iqtisodiy rivojlanish siyosatining uzviy qismi sifatida shakllanib, aholining bandligini ta’minlashda samarali institutsional mexanizm sifatida o‘zini namoyon etmoqda. Bu esa mahallaning zamonaviy davlat boshqaruv tizimidagi ahamiyatini yanada oshirayotgan muhim omillardan biri hisoblanadi.

Mahalla orqali amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosat ta’lim sohasida ham sezilarli natijalar bermoqda. Xususan, kambag‘al oilalarga mansub 168 ming nafar bola davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlariga imtiyozli asosda qabul qilindi. Bundan tashqari, joriy yildan boshlab 208 ta davlat bog‘chasida ilk bor inklyuziv ta’lim tizimi joriy etildi. Ushbu chora-tadbirlar ijtimoiy tenglikni ta’minlash, bolalarning ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish hamda aholining zaif qatlamlarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan davlat siyosatining amaliy ifodasidir. Shu bilan birga, kasbiy ta’lim va “dual ta’lim” tizimining rivojlantirilishi mahalliy mehnat bozori ehtiyojlariga mos kadrlar tayyorlashda muhim omilga aylandi. Ta’lim muassasalari bilan ish beruvchilar o‘rtasidagi hamkorlikning kuchayishi yoshlarning amaliy ko‘nikmalarini oshirish, ularning ish bilan ta’minlanish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qildi. Bu esa mahalla darajasida ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash va aholi daromadlarini oshirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Murojaatnomada keltirilgan raqamlar va tahlillar mahalla tizimini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda yuqori natijalar berayotganini asoslab beradi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Murojaatnomada belgilangan ustuvor vazifalar mahalla tizimini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning markaziy institutiga aylantirishga qaratilgan. Mahalla orqali kambag‘allikni qisqartirish, bandlikni ta’minlash va aholi farovonligini oshirish borasida erishilgan natijalar ushbu siyosatning to‘g‘ri ekanini ko‘rsatadi. Kelgusida mahalla tizimini raqamlashtirish va kadrlar salohiyatini kuchaytirish mazkur yo‘nalishdagi islohotlarning barqarorligini ta’minlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. – Toshkent, 26.12. 2025 y.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
3. “Mahalla to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni.
4. Abdullayev A.J. Mahalla instituti va ijtimoiy boshqaruv. – Toshkent: Fan, 2021.
5. Saidov A.X. Ijtimoiy siyosat va kambag‘allikni qisqartirish mexanizmlari. – Toshkent, 2022.

## ZAMONAVIY DAVLAT BOSHQARUVINING MUHIM TARKIBIY QISMI SIFATIDA VAZIRLAR MAHKAMASI VA UNING FAOLIYATINING TAKOMILLASHUVI: RETROSPEKTIV VA QIYOSIY-HUQUQIY TAHLIL

**Nuridullayev A.A.**
*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti kafedra boshlig‘i, yu.f.d., dotsent*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yildagi Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomalarida zamonaviy davlat boshqaruvi konsepsiyasining asosiy jihatlari ko‘rsatib berildi.

Albatta, zamonaviy davlat boshqaruvi tizimida ijro etuvchi hokimiyatning oliy organi Vazirlar Mahkamasi muhim rol o‘ynaydi. Hukumat haqida so‘z borar ekan, ta’kidlash lozimki, ushbu

konstitutsiyaviy organning maqomi va vakolatlari o‘tgan davrda, shu jumladan, Yangi O‘zbekiston sharoitida ma’lum o‘zgarishlarni boshidan kechirdi.

Bu borada O‘zbekiston – 2030 Strategiyasida[1] davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirishga qaratilgan tashabbuslar bu sohada amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlarning mantiqiy davomi bo‘lishi bilan bir qatorda, hokimiyat tarmoqlari o‘rtasida mutanosib va barqaror muvozanatni ta’minlaydigan mexanizmni joriy etish va yanada takomillashtirishda, shu jumladan, Hukumat ishini tashkil etishni tubdan takomillashtirishda, ijro etuvchi hokimiyat organlarining zamonaviy talablarga javob beradigan sifat jihatidan yangi tizimini shakllantirishda muhim qadam bo‘ldi.

Shu bilan birga yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida bu boradagi islohotlar mantiqiy davom ettirilib, Vazirlar Mahkamasining maqomi takomillashtirildi, Hukumatni shakllantirish tartibi yanada demokratlashtirildi, Vazirlar Mahkamasining mas’uliyati oshirildi, Hukumatning vakolatlari qayta ko‘rib chiqildi va kuchaytirildi, parlament bilan o‘zaro munosabatlari modernizatsiya qilindi.

2024 yil 25 oktabrda O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-982-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”gi[2] Konstitutsiyaviy Qonuni qabul qilinishi ham ushbu islohotlarni huquqiy jihatdan mustahkamlashda muhim qadam bo‘ldi.

Ijro etuvchi hokimiyat – davlat hokimiyati tizimining alohida mustaqil bo‘g‘ini bo‘lib, u konstitutsiya va qonunlar, davlat boshlig‘ining farmoni, farmoyishi va qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida mamlakatni siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ma’naviy rivojlantirish masalalarini hal qilishda aniq yo‘naltirilgan, tashkilotchi, farmoyish beruvchi va tezkor ijrochilik faoliyatini omilkorlik bilan amalga oshiradigan hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlash, aholining turmush farovonligini oshirish uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida o‘ziga berilgan umumiy va maxsus vakolatlar doirasida mamlakatning butun hududida yoki muayyan ma’muriy-hududiy birligida bajarilishi

umummajburiy hisoblangan huquqiy hujjatlar qabul qiladigan davlat boshqaruv organlarining yagona tizimi.[3]

Ijro etuvchi hokimiyat davlat hokimiyatining asosiy turlaridan bo‘lib, qonunchilik hokimiyati va Davlat boshlig‘i tomonidan qabul qilingan qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni butun mamlakat hududida tatbiq etilishini ta’minlaydi. Bu ijro etuvchi hokimiyat, qonunchilik hokimiyatiga bo‘ysunadi degan ma’noni anglatmaydi. Ular mustaqil bo‘lib, ayni damda bir-biri bilan chambarchas bog‘liq ham hisoblanadi.

Ijro etuvchi hokimiyat, qonun chiqaruvchi hokimiyatga nisbatan ko‘proq yakdillik va yagonalikni, markazlashganlikni, davlat mohiyati va funksional yo‘nalishlarini ifodalaydi, boisi davlatning asosiy maqsadi – jamiyatning ichki va tashqi dunyosini muhofaza qilish, uning har tomonlama farovon va ravnaq topishini ta’minlash aksariyat hollarda aynan ijro etuvchi hokimiyat orqali amalga oshiriladi.

Demokratik huquqiy davlat barpo etish yo‘lini tutgan O‘zbekistonda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatini isloh etish, mamlakatimizni demokratik yangilash va modernizatsiya qilish, kuchli fuqarolik jamiyatini qurish sharoitida Hukumat faoliyatining huquqiy asoslari izchil takomillashtirilmoqda.

Zero, respublikamizda amalga oshirilayotgan o‘zgarishlarning ko‘lami kengayib, sur’ati jadallashib borgani sayin bu jarayonlarning izchilligi va davomiyligini saqlagan holda, jamiyatni yanada erkinlashtirish va demokratlashtirish zarurati tobora aniqroq namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekistonda davlat boshqaruvi organlari faoliyatini demokratik me’yorlarga muvofiq takomillashtirish mamlakatimizni isloh etish va modernizatsiyalashning mazmun-mohiyatini tashkil etadi. Mazkur islohotlar tizimida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining huquqiy maqomi va faoliyatini demokratlashtirish, uning mas’uliyati va mustaqilligini kuchaytirish markaziy o‘rin egallaydi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada Hukumat faoliyatiga oid moddalar soni amaldagi 1 tadan 6 taga (114-119-moddalar) ko‘paydi. Bular ham

konstitutsiyaviy islohotlar tizimida Vazirlar Mahkamasining izchil modernizatsiya qilinganligidan dalolat beradi.

Yangi tahririda Konstitutsiyaning qabul qilinishi Hukumatning konstitutsiyaviy-huquqiy maqomini sezilarli darajada takomillashtirdi.

Birinchidan, ilgari Vazirlar Mahkamasi zimmasiga samarali iqtisodiy, ijtimoiy siyosat olib borish mas'uliyati yuklangan edi. Yangi tahririda esa, Vazirlar Mahkamasining zimmasiga moliyaviy, pul-kredit siyosatini yuritish, shuningdek, fan, madaniyat, ta'lim va sog'liqni saqlash hamda iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish mas'uliyati ham yuklandi.

Ikkinchidan, Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 114-moddasida[4] Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatini ijro etuvchi hokimiyat faoliyatining O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadigan asosiy yo'nalishlari doirasida amalga oshirishi belgilangan.

Ta'kidlash lozimki, amalda Prezident boshqaruvi shakliga ega bo'lgan barcha mamlakatlarda mazkur vakolat davlat rahbari sifatida Prezidentga va ijro etuvchi hokimiyatning rahbariga (de-fakto) tegishli. Bu borada xorijiy tajribaga murojaat etadigan bo'lsak, Germaniyada Federal kansler siyosatning asosiy yo'nalishlarini belgilaydi hamda buning uchun javobgardir. Ana shu asosiy yo'nalishlar doirasida har bir federal vazir mustaqildir va u o'ziga tegishli tarmoqlardagi ishlarni o'z javobgarligi ostida yuritadi (Konstitutsiyaning 65-moddasi).

Boshqacha aytganda, mazkur konstitutsiyaviy islohot natijasida Vazirlar Mahkamasini siyosiy organdan ma'muriy-boshqaruv organiga modernizatsiya qilindi.

Ya'ni, ilgari Vazirlar Mahkamasi saylovlar natijasi bilan to'g'ridan to'g'ri bog'langan va siyosiy tabiatga ega hokimiyat organi bo'lgan bo'lsa, endilikda Davlat boshlig'i tomonidan belgilanadigan asosiy yo'nalishlar doirasida harakat qiladigan, Prezident siyosatini amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan ma'muriy-boshqaruv davlat organiga aylandi.

Uchinchidan, konstitutsiyaviy islohotlar natijasida Vazirlar Mahkamasining Oliy Majlis va Prezident oldidagi javobgarligi va

mas’uliyati kuchaytirildi. Jumladan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga Vazirlar Mahkamasi muayyan a’zosining o‘z faoliyati masalalari yuzasidan hisobotini eshitish hamda zarur bo‘lganda uni iste’foga chiqarish to‘g‘risida Prezident ko‘rib chiqishi uchun taklif kiritish vakolati belgilanmoqda.

Umuman olganda, mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va modernizatsiyalashni rivojlantirish jarayoni davlat boshqaruvining barcha bo‘g‘inlarida o‘zining ijobiy samarasini bermoqda. Eng muhimi, hokimiyatning uchta tarmog‘i – qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati faoliyatiga doir islohotlar, ularning har birini vakolatlari kengaytirilishi boshqaruvni demokratlashtirishning o‘ziga xos ifodasi. Ijro etuvchi hokimiyatning davlat boshqaruvini yurituvchi asosiy institutlardan biri sifatida mustaqilligini ta’minlash, shubhasiz, davlat boshqaruvini demokratlashtirishning muhim sharti hisoblanadi.

Muxtasar qilib aytganda, mamlakatimizda parlamentarizm asoslari tobora mustahkamlanib borayotgan sharoitda Vazirlar Mahkamasi konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi tobora takomillashib, mamlakat hukumatining mustaqilligi, vakolatlari doirasi va shu bilan birga, mas’uliyati ham kuchayib bormoqda.

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi bilan ilg‘or xorijiy tajriba inobatga olinib, Bosh vazir nomzodini ko‘rib chiqish va ma’qullash vakolati Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatiga o‘tkazildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada Qonunchilik palatasi va Senatining mas’uliyati sohalarini ajratish, ularning faoliyatidagi parallellikni va bir-birini takrorlashni istisno etish bo‘yicha muhim qadamlar tashlandi. Xususan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada belgilangan modelga binoan, Hukumatni tashkil etish va uning faoliyati ustidan nazorat parlament quyi palatasining mutlaq vakolatiga kiritildi, hududiy ahamiyatga, mahalliy hokimiyatning vakillik organlarini rivojlantirishga, yuqori sud hokimiyati organlarini shakllantirishga, korrupsiyaga qarshi kurashish va monopoliyaga qarshi organining rahbarlariga, huquqni muhofaza qilish va

maxsus xizmatlar ustidan nazoratga taalluqli masalalar va boshqalar esa Senatning mutlaq vakolatlariga kiritildi.

Shu munosabat bilan yangi tahrirdagi Konstitutsiyada Bosh vazir nomzodini ko‘rib chiqish va ma’qullash vakolati Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatiga o‘tkazildi.

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, bunday amaliyot ilg‘or xorijiy tajribaga ham to‘liq mos keladi. Xususan, Rossiya, Turkmaniston, Qozog‘iston, Avstriya, Belgiyada va boshqa mamlakatlarda hukumat va uning a’zolari faoliyati ustidan nazorat parlament quyi palatasining maxsus alohida huquqlari hisoblanadi.

Masalan, Rossiyada Hukumat Raisi uning nomzodini Davlat Dumasi tasdiqlaganidan keyin Prezident tomonidan tayinlanadi, hukumatning o‘z faoliyati natijalari to‘g‘risidagi har yilgi hisobotlarini eshitish uning vakolatlari jumlasiga kiradi (103 va 111-moddalar). Belarusda Vakillar palatasi Bosh vazirni tayinlash uchun Prezidentga rozilik beradi (97-modda). Qozog‘istonda Bosh vazirni tayinlash uchun Prezidentga rozilik berish Majlisning (quyi palataning) alohida vakolatiga taalluqlidir (56-modda).

Germaniyada Federal kansler Federal Prezidentning taklifiga binoan Bundestag tomonidan saylanadi (63-modda). Chexiyada esa, Prezident Hukumat raisini va uning taklifiga ko‘ra Hukumatning boshqa a’zolarini tayinlaydi. Tayinlanganidan keyin 30 kundan kechiktirmay Hukumat deputatlar palatasi oldida hozir bo‘lishi va ishonch bildirish to‘g‘risida iltimos qilishi kerak (68-modda).

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya bilan Bosh vazir nomzodini Qonunchilik palatasiga taqdim qilishdan oldin Prezident tomonidan barcha siyosiy partiyalar fraksiyalari bilan maslahatlashuvlar o‘tkazish tartibi joriy etilgani muhim yangilik bo‘ldi. Xususan, yangi tahrirdagi Konstitutsiya 118-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi Oliy Majlis palatalarining mansabdor shaxslari saylangandan va organlari shakllangandan so‘ng bir oy ichida yoki Bosh vazir lavozimidan ozod etilganidan keyin yoxud Bosh vazir, Vazirlar Mahkamasining amaldagi tarkibi iste’foga chiqqanidan keyin bir oy ichida Qonunchilik

palatasi ko‘rib chiqishi va ma’qullashi uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan barcha siyosiy partiyalar fraksiyalari bilan maslahatlashuvlar o‘tkazilganidan so‘ng taqdim etiladi.

Davlat boshqaruvida siyosiy partiyalar rolini yanada kuchaytirish hamda davlat va jamiyat ishlarida fuqarolar ishtirokini kengaytirish orqali xalq hokimiyatchiligini har tomonlama qaror toptirish Yangi O‘zbekistonni barpo etish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarda muhim o‘rin tutadi.

Shu maqsadda yangilangan Konstitutsiyada Hukumatni shakllantirish tartibini yanada demokratlashtirish bo‘yicha muhim yangiliklar kiritilganligi davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish va yanada xalqchil bo‘lishini ta’minlashga xizmat qiladi, desak shubhasiz, xato bo‘lmaydi.

Avvalambor, eski tartibga ko‘ra, Bosh vazir nomzodini ko‘rib chiqish faqat Qonunchilik palatasiga saylovda eng ko‘p ovoz olgan partiya yoki partiyalar irodasiga bog‘langan. Ya’ni, saylovlarda qatnashgan va Qonunchilik palatasidan o‘rin olgan boshqa siyosiy partiyalarning o‘z saylovoldi dasturlarini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan Bosh vazir lavozimiga nomzodni ko‘rib chiqishdagi ishtiroki cheklangan edi.

Bu esa, Hukumat va Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar o‘rtasidagi aloqadorlik, hamkorlik va muloqotning uzilib qolishiga, parlament va ijro etuvchi hokimiyat munosabatlari faqatgina hukmron siyosiy partiya manfaatlari bilan cheklanib qolishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Masalan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga 2019-yilda bo‘lib o‘tgan saylov misolida olib ko‘radigan bo‘lsak, asosiy elektorati o‘rta sinf vakillari, tadbirkor, ishbilarmon va fermerlardan iborat bo‘lgan O‘zLiDeP partiyasi g‘olib chiqdi va Bosh vazir lavozimiga nomzod bo‘yicha taklif kiritish yuzasidan mutlaq huquqni qo‘lga kiritdi.

Vaholanki, xalqimizning boshqa qatlamlari, masalan, ziyolilar, madaniyat, san’at, axborot, sport sohalari xodimlari va hunarmandlar manfaatlarini ifodalovchi Milliy tiklanish demokratik partiyasi, pedagoglar, shifokorlar, muhandis-texnik, ilm-fan vakillari, xizmat

ko‘rsatish sohasi xodimlaridan iborat Adolat sotsial-demokratik partiyasi, ijtimoiy himoyaga ehtiyojmand aholi, ijtimoiy soha va budjet tashkilotlari vakillarini o‘zida birlashtirgan Xalq demokratik partiyasi yoxud ekologik tashkilotlar xodimlari, ekologiya muammosiga loqayd bo‘lmagan faol fuqarolarning manfaatlarini ifodalovchi Ekologik partiya ushbu jarayondan mutlaqo uzilib qolganligi adolatdan emas, albatta.

Qolaversa, saylovlarda g‘alaba qozongan partiya tomonidan Bosh vazir nomzodini ko‘rsatishning eski tartibi siyosiy partiyalar o‘rtasida yengib bo‘lmas qarama-qarshiliklar yuzaga kelishi tufayli hokimiyat inqirozi ehtimolini keltirib chiqarishi mumkin edi.

Yangilangan Konstitutsiyada bu boradagi qoidalar yanada demokratlashtirildi. Xususan, taklif etilayotgan tartibda barcha siyosiy partiyalar fraksiyalarining nafaqat Bosh vazir nomzodini ko‘rib chiqishda, balki butun Hukumatni shakllantirishdagi ishtiroki ta’minlanadi.

Unga ko‘ra, Bosh vazir lavozimiga nomzod O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi barcha siyosiy partiyalar fraksiyalar bilan maslahatlashuvlar o‘tkazilgandan so‘ng Qonunchilik palatasiga ko‘rib chiqish va ma’qullash uchun kiritiladi.

Yangi joriy etilgan tartib orqali esa, barcha siyosiy partiyalar fraksiyalarining nafaqat Bosh vazir nomzodini ko‘rib chiqishda, balki butun Hukumatni shakllantirishdagi ishtiroki ta’minlanadi. Bu juda ham muhim, chunki, har bir siyosiy partiya o‘z timsolida millionlab fuqarolarimizning xohish-istaklarini ifoda etadigan siyosiy kuch hisoblanadi. Oliy Majlisdagi barcha siyosiy partiyalar mazkur jarayonda ishtiroki esa, shubhasiz, bu boradagi qoidalarga yanada demokratik mazmun baxsh etadi.

Shu bilan birga yana bir masalaga ham e’tibor qaratish kerak. Bosh vazir lavozimiga nomzodni saylovlarda g‘olib chiqqan partiya tomonidan taqdim etish amaliyoti parlamentar boshqaruv shaklidagi mamlakatlar uchun xos. Bu borada xorijiy mamlakatlar tajribasiga murojaat etadigan bo‘lsak, aksariyat prezidentlik-parlamentar boshqaruv shaklidagi davlatlar

tajribasida aynan yangi tahrirdagi Konstitutsiyada belgilangan tartib amal qiladi.

Masalan, qo‘shni Qozog‘iston Respublikasida Prezident Majlisdagi (quyi palata) barcha siyosiy partiyalar fraksiyalari bilan muhokamalardan so‘ng ko‘rib chiqish va rozilik berish uchun Bosh vazir lavozimiga nomzodni kiritadi (Konstitutsiya 44-moddasi). Moldovada ham Prezident Bosh vazir lavozimiga nomzodni parlament fraksiyalari bilan eshituvlardan keyin taqdim etadi (Konstitutsiya 98-moddasi).

Shu bilan birga ko‘p davlatlarda Hukumatni shakllantirishda siyosiy partiya fraksiyalar bilan maslahatlashuvlar o‘tkazish mexanizmi ham nazarda tutilmagan. Masalan, Rossiya Federatsiyasida Hukumat raisi lavozimiga nomzodni Davlat Dumasi (quyi palata) tasdiqlagandan so‘ng Prezident tayinlaydi (Konstitutsiya 111-moddasi). Yoki bo‘lmasa, Belarus Respublikasida Bosh vazir lavozimiga nomzod Prezident tomonidan Vakillar palatasi (quyi palata) roziligiga asosan tayinlanadi (Konstitutsiya 84-moddasi).

Ozarbayjon Respublikasida ham Bosh vazir Prezident tomonidan Milliy Majlis roziligi bilan lavozimiga tayinlanadi (Konstitutsiya 118-moddasi). Litvada ham Bosh vazir Seym roziligi bilan Prezident tomonidan lavozimiga tayinlanadi (Konstitutsiya 92-moddasi). Fransiyada ham Bosh vazir lavozimiga Prezident tomonidan tayinlanadi (Konstitutsiyaning 8-moddasi). Chexiyada ham Prezident Hukumat raisini lavozimiga tayinlaydi va u 30 kun ichida Deputatlar palatasiga (quyi palata) ishonch bildirish to‘g‘risida murojaat qiladi (Konstitutsiya 68-moddasi).

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada taklif etilayotgan Bosh vazir lavozimiga nomzodni kiritish, ko‘rib chiqish va tasdiqlash tartibi quyidagilarga xizmat qiladi:

birinchidan, barcha siyosiy partiyalar fraksiyalarining Bosh vazir nomzodini ko‘rib chiqish va Hukumatni shakllantirishdagi ishtirokini ta’minlash orqali davlat boshqaruvini yanada demokratlashtiradi hamda siyosiy partiyalar faolligini oshiradi;

ikkinchidan, parlament nazoratining muhim shakli bo‘lib ham xizmat qiladi, Hukumatni shakllantirish, uning faoliyatini nazorat qilishda yanada muvozanatlashgan yondashuvni qo‘llash imkonini beradi;

uchinchidan, ijro etuvchi hokimiyat tizimini shakllantirish va samarali faoliyatini ta’minlashda Davlat rahbarining konstitutsiyaviy imkoniyatlarini kengaytiradi, Hukumatning mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning strategik vazifalari amalga oshirilishi samaradorligi uchun mas’uliyatini oshiradi;

to‘rtinchidan, Bosh vazir lavozimiga nomzodni saylovlarda g‘olib chiqqan partiya tomonidan taqdim etish amaliyotida partiyalararo ixtiloflar tufayli hokimiyat kollapsi vujudga kelish ehtimolini bartaraf etadi;

beshinchidan, hokimiyatlar taqsimlanishi, ular o‘rtasida o‘zaro tiyib turish va muvozanatni saqlash prinsipini amalga oshirishning yanada aniqroq va samaraliroq mexanizmini belgilab beradi.

Vazirlar Mahkamasining vakolatlari va faoliyatining asosiy yo‘nalishlari, avvalambor, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida aniq belgilab qo‘yilgan bo‘lib, ular doirasi bosqichma-bosqich kengayib bormoqda.

Masalan, 2011 yilgi tahririda Vazirlar Mahkamasining atigi 2 ta vakolati aniq ko‘rsatilgan bo‘lsa, 2014 yilgi konstitutsiyaviy islohotlardan so‘ng, ularning soni 6 taga yetdi.

2023 yil 30 aprelda referendumda xalq tomonidan qabul qilingan Konstitutsiyada esa, Vazirlar Mahkamasining vakolatlari ikki baravarga ortib, 12 taga yetdi.

Xususan, Hukumat samarali iqtisodiy, ijtimoiy, moliyaviy, pul-kredit siyosati yuritilishi, fan, madaniyat, ta’lim, sog‘liqni saqlashni hamda iqtisodiyotning va ijtimoiy sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha dasturlar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi uchun javobgar bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining asosiy vakolatlari aynan iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda namoyon bo‘ladi. Vazirlar Mahkamasi iqtisodiy islohotlar, Davlat budjeti, soliq, ijtimoiy-iqtisodiy

rivojlantirish dasturlari, tadbirkorlik, xususiy mulk, pul va kredit, bank va moliya sohalari samaradorligi uchun javobgar hisoblanadi.

Vazirlar Mahkamasi barqaror iqtisodiy o‘sishni, makroiqtisodiy muvozanatni ta’minlash, iqtisodiyotni isloh etish va tarkibiy o‘zgartirish bo‘yicha choralar ko‘radi. O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari budjetlari, soliq va budjet siyosatining asosiy yo‘nalishlari O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish prognozlarini hamda eng muhim dasturlarini inobatga olgan holda ishlab chiqilishini va ijro etilishini tashkil etadi.

Shuningdek, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish, texnik, texnologik jihatdan modernizatsiya qilish va diversifikatsiyalash dasturlarini, hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqadi hamda ularning amalga oshirilishini ta’minlaydi.

Erkin tadbirkorlik uchun shart-sharoitlar yaratadi, eng avvalo xususiy mulkni rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtiroki darajasini strategik va iqtisodiy jihatdan asoslangan miqdorlargacha qisqartirish, keng ko‘lamda xususiylashtirish asosida shart-sharoitlar yaratadi, kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo‘lidagi barcha to‘siqlar va cheklovlarni bartaraf etish, qulay ishbilarmonlik muhitini va investitsiyalash sharoitlarini yaratish, iqtisodiyotni monopoliyadan chiqarish bo‘yicha choralar ko‘radi.

Ta’kidlash joizki, ushbu vakolatlar tegishli tarmoq qonunchiligida ham o‘z aksini topgan. Masalan, Budjet kodeksi, «Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida»gi, «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida», «Elektron tijorat to‘g‘risida», «Investitsiya faoliyati to‘g‘risida», «Birjalar va birja faoliyati to‘g‘risida», «Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida», «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida», «Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to‘g‘risida», «Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida», «Raqobat to‘g‘risida», «Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida», «Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida», «Eksport nazorati to‘g‘risida», «Fermer xo‘jaligi

to‘g‘risida»gi va boshqa qonunlarda Vazirlar Mahkamasining iqtisodiyot sohasidagi vakolatlari yanada kengroq aks ettirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijtimoiy sohada ham keng vakolatlarga ega. Vazirlar Mahkamasi samarali ijtimoiy siyosat yuritilishi, fan, madaniyat, ta’lim, sog‘liqni saqlashni hamda ijtimoiy sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha dasturlar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi uchun javobgar.

Vazirlar Mahkamasi ta’lim tizimini rivojlantirishni, uning sifati va samaradorligini oshirishni ta’minlaydi, uzluksiz ta’limdan keng ko‘lamda foydalanish uchun sharoitlar yaratadi, ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini bajarish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Shuningdek, sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish, tibbiy xizmat ko‘rsatish darajasini oshirish, aholining sog‘lig‘ini saqlash va mustahkamlash, sog‘lom turmush tarzi prinsiplarini joriy etish, sanitariya-epidemiologik osoyishtalikni ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Shu bilan birga, ish o‘rinlari tashkil etish va aholi bandligini ta’minlash dasturlarini ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish, ularning ijtimoiy va pensiya ta’minoti tizimlari faoliyat ko‘rsatishini ta’minlaydi, oila, onalik va bolalikni himoya qilishga ko‘maklashadi, yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish bo‘yicha choralar ko‘radi.

Ayni damda «Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida»gi, «Vasiylik va homiylik to‘g‘risida», «Aholini ish bilan ta’minlash to‘g‘risida», «Nogironlarni ijtimoiy muhofaza qilish to‘g‘risida» va boshqa qonunlarda Vazirlar Mahkamasining ijtimoiy sohadagi vakolatlari o‘z ifodasini topgan. Xususan, “Vasiylik va homiylik to‘g‘risida”gi 2014-yil 2-yanvar Qonunining 8-moddasida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining vasiylik va homiylik sohasidagi 6 ta vakolati belgilab qo‘yilgan.

Hukumat fuqarolarning iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Xususan, 2021–2022 yillarda Hukumat tomonidan aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish, yoshlarni tadbirkorlikka jalb etish va ularning biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash,[5] “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari” va “Temir daftar”ga kiritilgan muhtoj fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash, yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan “Mehr daftari” tizimini joriy etish, uy-joyga muhtoj xotin-qizlarni uy-joy bilan ta’minlash, boshpanasiz, og‘ir turmush sharoitiga tushib qolgan fuqarolarning yashash sharoitlarini yaxshilash, yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, gematologik va onkologik kasalliklarga chalingan bemorlarni, nogironligi bo‘lgan shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, yosh mutaxassislar va yosh vatandoshlarga zarur shart-sharoitlar yaratish, ijara huquqi asosida yashayotgan talabalar tomonidan to‘lanadigan ijara to‘lovlarini qoplab berish, davlat oliy ta’lim muassasalari magistratura bosqichida ta’lim olayotgan xotin-qizlarning to‘lov-kontrakt mablag‘larini to‘lab berish, minimal iste’mol xarajatlari qiymatini hisoblash tartibini amaliyotga joriy etish kabi fuqarolarning huquq va manfaatlarini ta’minlashga qaratilgan qarorlar qabul qilingan.

Hukumat davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari ishini muvofiqlashtiradi va yo‘naltiradi, ularning faoliyati ustidan qonunda belgilangan tartibda nazoratni ta’minlaydi.

Vazirlar Mahkamasi O‘zbekiston Respublikasining Hukumati – O‘zbekiston Respublikasining ijro etuvchi hokimiyat organi bo‘lib, u davlat boshqaruvi organlari tizimiga va o‘zi tashkil etadigan xo‘jalik boshqaruvi organlari tizimiga boshchilik qiladi, ularning hamjihatlik bilan faoliyat ko‘rsatishini ta’minlaydi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya bilan Hukumatga quyidagi qo‘shimcha vakolatlar yuklatilmoqda:

– atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy boyliklarni va biologik xilma-xillikni saqlash, iqlim o‘zgarishiga, epidemiyalarga, pandemiyalarga qarshi kurashish hamda ularning oqibatlarini yumshatish sohalarida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta’minlash;

– ijro etuvchi hokimiyat organlarining ishida ochiqlik va shaffoflikni, qonuniylik va samaradorlikni ta’minlash, ularning faoliyatida korrupsiya ko‘rinishlariga qarshi kurashish, davlat xizmatlarining sifati va ochiqligini oshirish bo‘yicha choralar ko‘rish;

– barqaror iqtisodiy o‘sishni, makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, kambag‘allikni qisqartirish, aholi uchun munosib turmush sharoitlarini yaratish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, qulay investitsiyaviy muhitni yaratish, hududlarni kompleks va barqaror rivojlantirish bo‘yicha choralar ko‘rish;

– aholini, shu jumladan nogironligi bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish tizimining samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlash;

– fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlarini amalga oshirish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda ijtimoiy sheriklik dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ularning ishtirok etishini ta’minlash.

Vazirlar Mahkamasiga yuqoridagi majburiyatlar yuklatilinishi Hukumatning mamlakatimizda inson qadri uchun tamoyili asosida amalga oshirilayotgan keng qamrovli, shiddatli va xalqchil islohotlar ijrosini to‘liq, o‘z vaqtida va samarali ta’minlashda mas’uliyati va siyosiy javobgarligini kuchaytirdi.

Xulosa qilib aytganda, Vazirlar Mahkamasi ijro hokimiyatining oliy va mustaqil organi sifatida hokimiyatlar taqsimlanishi tizimida muhim o‘rin tutadi hamda mamlakatimizda samarali iqtisodiy, ijtimoiy, moliyaviy siyosati yuritilishini ta’minlaydi. Mamlakatimizda amalga oshirilgan so‘nggi islohotlar esa, ixcham va samarali Hukumatni shakllantirishga, uning faoliyatini tashkil etishning sifat jihatidan yangi va innovatsion usullarini joriy etishga, davlat siyosati amalga oshirilishi va biriktirilgan sohalarda aniq natijalarga erishish uchun mustaqilligini oshirishga xizmat qildi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi «O‘zbekiston — 2030» strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni

2. O‘zbekiston Respublikasining 25.10.2024 yildagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-982-son Konstitutsiyaviy Qonuni // https://lex.uz/docs/7172667

3. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh / Mas’ul muharrir A.A.Azizxo‘jaev. – Toshkent: O‘zbekiston, 2008. – B.368.

4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // https://lex.uz/docs/ 6445145

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 21.12.2021 yildagi “Yoshlarni tadbirkorlikka jalb etish va ularning biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 765-son qarori // https://lex.uz/uz/docs/ 5787727

## YOSHLAR ORASIDA MA’NAVIY XAVFSIZLIKNI TA’MINLASHNING AHAMIYATI HAMDA YOSHLAR HUQUQBUZARLIGINI NAZARIY ASOSLARI VA TASNIFLASH MEZONLARI

**Xursandov A.S.**

*Jamoat xavfsizligi universiteti Tillarni o‘rganish kafedrasi boshlig‘i, PhD, dotsent*

Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning markazida yoshlar masalasi ham qat’iy belgilab olingan. Binobarin, ularning mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida faol ishtirokini ta’minlash, yuksak ma’naviyatli, mustaqil va erkin fikrlaydigan, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini puxta o‘zlashtirgan har tomonlama sog‘lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishga qaratilgan yoshlarga oid davlat siyosati izchil amalga oshirilib kelinmoqda. Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq yoshlarga oid bugungi davlat siyosatining tamal toshi qo‘yildi. 1991-yil 20-noyabrda “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingani buni yaqqol isbotidir.

Ma’lumki, 2016-yilning 14-sentabrida O‘zbekiston Respublikasining 33 moddadan iborat yangi tahrirdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi O‘RQ-406-son Qonuni qabul qilindi[1]. Mazkur Qonunning

qabul qilinishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining 1991-yil 20-noyabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida»gi 429-XII-son Qonuni o‘z kuchini yo‘qotdi.

Bu sohadagi vaziyat va amalga oshirilgan tadbirlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, yoshlarning keng qatlamlariga daxldor bo‘lgan dolzarb masalalar, ayniqsa, uyushmagan yoshlarning hayotda o‘z o‘rnini topishi uchun munosib sharoit yaratish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, kasbga yo‘naltirish va bandligini ta’minlash, tashabbuslarini rag‘batlantirish borasidagi ishlar talab darajasida tashkil etilmaganligini davrni o‘zi isbotladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga murojaatnomasida ham aynan, to‘rtinchi yo‘nalish – “Kasblarni rivojlantirish va yangi mehnat bozori arxitekturasini yaratish” deb nomlanib, yoshlarni bandligini ta’minlash maqsadida 2026-yilda 7 ta viloyatda, 2027-yilda esa qolgan hududlarda ilg‘or kasbiy mahorat texnikumi va “Kasblar shaharchasi” faoliyati yo‘lga qo‘yiladi. “Kasblar shaharchasi” – maktab o‘quvchilarini qurilish, servis, qishloq xo‘jaligi, sanoat, transport, “yashil” energetika kabi sohalardagi zamonaviy kasblarga yo‘naltirishga xizmat qiladi [2], deyilgan nutqda. Darhaqiqat, yoshlar bandligi jamiyat taraqqiyoti uchun muhimdir, sud-huquq sohasi nuqtai nazaridan huquqbuzarlik va jinoyatchilikni oldini olishga ham xizmat qiladi.

Muhim jihatlardan biri hisolangan, Ma’naviy xavfsizlik – jamiyatning ma’naviy farovonligi, ijtimoiy taraqqiyot darajasi, chunki jamiyatning ma’naviy-axloqiy tomoni hayotiy faoliyat doirasidan qat’i nazar, barcha muammolarni va og‘riqli nuqtalarini ochib beradi. Shu bilan birga, garchi bir qator xavfsizlik muammolari jamiyatda milliy xavfsizlikning asosi sifatida muhim o‘rin egallagan bo‘lsa-da, ijtimoiy bilimlar doirasida ma’naviy xavfsizlikning konseptualizatsiyasi hali yakunlanmagan. Ma’naviy xavfsizlikning mavjud ta’riflari bir xillikda va ko‘plikda farq qilmaydi, buning natijasida biz ushbu ilmiy toifaga qarashimizni taklif qildik, unga ko‘ra, ijtimoiy jihatdan ma’naviy

xavfsizlikni ijtimoiy sharoitlar kombinatsiyasi sifatida tushunish mumkin, bu jamiyatni qayta ishlash, funksiyalash va rivojlanishga imkon beruvchi butun tizim sifatida barqaror rivojlanishga imkon beradi. Xavfsizlik – ustuvor darajada siyosat, geosiyosat makoniga nisbatan qo‘llanadigan, tom ma’noda ma’naviyat, insonlararo hamjihatlik, o‘zaro muruvvatning ifodasi bo‘lgan tushuncha [3, -B.748].

Zamonaviy jamiyatda yoshlarning ma’naviy o‘z-o‘zini aniqlash masalasi ijtimoiy tushunish chizig‘iga to‘g‘ri keladi, shuningdek, bir qator vazifalarni shakllantirish: zamonaviy jamiyatning ma’naviy xavfsizligiga o‘ziga xos tahdid va xavflarni aniqlash, uning qiymatini o‘zgartirish, dunyoqarash umumiy sabablari; yoshlarning ma’naviy o‘z taqdirini belgilashda yuzaga keladigan muammolarni va ular yuzaga keladigan xatarlarni aniqlash bilan bog‘liq. Albatta, zamonaviy jamiyatning ma’naviy xavfsizligi muammosidan boshlash kerak, bu o‘z madaniy salohiyatining xavfsizligini, shuningdek, bu jamiyatning ijtimoiy-madaniy o‘ziga xosligining asosi bo‘lgan alohida turdagi ma’naviyatni saqlab qolish, uning ma’naviy xavfsizligining kafolati ekanini ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini kafolatlab, davlat organlari (shu jumladan prokuratura va ichki ishlar organlari) zimmasiga yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish, huquqbuzarliklarga olib keluvchi sabab va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish vazifalarini yuklaydi[4].

Biroq huquqiy maqomning normativ jihatdan belgilab qo‘yilgani, yoshlar qatlamida huquqbuzarlik sodir etilish mexanizmi “standart” sxemada kechishini anglatmaydi: bu toifa uchun huquqiy ijtimoiylashuv jarayonining to‘liq shakllanib ulgurmaganligi, ta’sirchan ijtimoiy muhit, raqamli kommunikatsiyalar tezkorligi va tengdoshlar guruhining bosimi kabi omillar huquqbuzarlikning sababiy bog‘lanishlarini murakkablashtiradi.

Shu nuqtai nazardan, yoshlar huquqbuzarligining dolzarbligi uning faqat huquqiy bahosi emas, balki kriminologik “ichki mexanizmi” — motiv, vaziyat, ijtimoiy dezadaptatsiya belgilari, huquqiy nigilizm ko‘rinishlari va ijtimoiy nazorat institutlari samaradorligi bilan uzviy

bog‘liq ekanida namoyon bo‘ladi. Kriminologik adabiyotlarda voyaga yetmaganlar va yoshlar huquqbuzarligiga olib keluvchi omillar qatorida nazoratsizlik, ta’lim-tarbiyadagi kamchiliklar, salbiy muhit ta’siri, madaniy hordiq tashkil etilishidagi bo‘shliqlar hamda profilaktika subyektlari faoliyatidagi nuqsonlar alohida ta’kidlanadi [5. –B.152-157.].

Demak, mazkur masalani kirish qismida dolzarb qo‘yishda, qonun normalaridagi maqom va kafolatlar bilan bir qatorda, yoshlar huquqbuzarligining aynan kriminologik dinamikasi — dezadaptatsiya va huquqiy nigilizmning shakllanish sharoitlari, shuningdek raqamli muhitdagi risklar (kiber-deviant xulq)ni hisobga olgan holda kompleks tahlil qilish zarurati asosiy ilmiy tezis sifatida ilgari surilishi maqsadga muvofiq.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi yoshlar huquqbuzarligi fenomeniga qarshi kurashishning huquqiy paradigmasini tubdan o‘zgartirdi. Konstitutsiyaning 79-moddasida davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta’minlashi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag‘batlantirishi [6. –B.45.] bilan mustahkamlandi.

Bu konstitutsiyaviy norma yoshlar huquqbuzarligini faqatgina *“jazolash”* orqali emas, balki ularning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish, ta’lim va bandligini ta’minlash orqali *“profilaktika qilish”* lozimligini anglatadi. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning “Mahalla yettiligi” tizimini joriy etishi ham aynan yoshlar huquqbuzarligining tizimli belgilarini quyi bo‘g‘inda — mahalla darajasida aniqlash va bartaraf etishga qaratilgandir [7].

Shu o‘rinda, mahalliy huquqshunos olimlarning yoshlar huquqbuzarligi fenomeniga oid ilmiy nazariy qarashlariga to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda, mamlakatimizda huquqshunos olimlar o‘zlarining ilmiy nazariy qarashlarini tizimlashtirish orqali murakkab ijtimoiy-huquqiy hodisaning nazariy poydevorini bir nechta o‘zaro bog‘liq konseptual yo‘nalishlar asosida tahlil qilish imkonini beradi.

Ushbu yondashuvni psixologik-yuridik jihatdan professor M.X.Rustambayev to‘ldirib, yoshlar jinoyatchiligining subyektiv tomonidagi "motivlar beqarorligi" fenomenini ilgari suradi. Olimning ta’kidlashicha, yoshlarning hissiy holati tez o‘zgaruvchanligi, impulsiv qarorlar qabul qilishga moyilligi va tashqi ta’sirlarga beriluvchanligi huquqbuzarlik motivlarining beqaror shakllanishiga sabab bo‘ladi. Bu esa yoshlar jinoyatchiligida qasdning to‘satdan paydo bo‘lish xususiyatini nazariy asoslaydi [8. –B. 412-416].

Yoshlar huquqbuzarligining viktimologik belgilar va gender klassifikatsiyasi bo‘yicha esa huquqshunos olimlardan G.A. Abdumajidov va B.A.Gadoyevning viktimologik yondashuvlari muhimdir. G.A. Abdumajidov yoshlar jinoyatchiligining yuqori latentlik (yashirinlik) darajasini alohida fenomen sifatida ko‘rsatadi. Uning fikricha, yoshlar orasidagi huquqbuzarliklarning ko‘p qismi jabrlanuvchining ham yosh va huquqiy himoyasizligi sababli rasmiy statistikadan chetda qoladi. Ushbu g‘oyani rivojlantirgan olim B.A. Gadoyev yoshlarni nafaqat jinoyat subyekti, balki "yuqori viktimlik darajasiga ega toifa" sifatida klassifikatsiyalashni taklif etadi. Bu esa davlatning profilaktika siyosatida yoshlarni jinoiy ta’sirlardan himoya qilish mexanizmini kuchaytirishni taqozo etadi.

Gender xususiyatlariga to‘xtalar ekan, professor Q.R. Abdurasulova yoshlar jinoyatchiligini klassifikatsiyalashda “shaxsning ijtimoiy yo‘naltirilganligi” mezonini birinchi o‘ringa qo‘yadi. Uning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, yoshlar huquqbuzarligining tizimli belgilaridan biri - shaxsda ekstremal vaziyatlarda mustaqil va mas’uliyatli qaror qabul qilish ko‘nikmasining yetishmasligidir. Bu xususiyat ayol va erkak yoshlar orasida turlicha namoyon bo‘lishini ilmiy asoslaydi.

Yuqoridagi mahalliy huquqshunos olimlarning qarashlarini sintez qilish shuni ko‘rsatadiki, ёshlar huquqbuzarligini faqat bitta omil (masalan, iqtisodiy ёki huquqiy) bilan tushuntirib bo‘lmaydi. Bu - psixologik beqarorlik, ijtimoiy nazoratning sustligi va yangi texnologik tahdidlarning umumiy mahsulidir.

Yoshlar huquqbuzarligi fenomenining nazariy-huquqiy tabiatini ochib berishda nafaqat milliy, balki xorijiy mamlakatlarning ilmiy

maktablari tomonidan ilgari surilgan konsepsiyalarni o‘rganish metodologik ahamiyat kasb etadi. Bunda Rossiya, Belorusiya, Xitoy, Malayziya va rivojlangan G‘arb davlatlarining tajribasi alohida qiymatga ega.

Mazkur yuqorida qayt etilgan fikr va mulohazalar yangi O‘zbekistonda yoshlar huquqbuzarligi fenomenining nazariy-huquqiy tabiatini takomillashtirish va uni qonunchilikda legallashtirish orqali jamiyat va davlat hayotida quyidagi muhim natijalarga erishish mumkin:

*birinchidan,* yoshlar huquqbuzarligini klassifikasiyalashning aniq huquqiy mezonlari shakllanadi. “Yoshlar huquqbuzarligi” tushunchasining normativ mustahkamlanishi huquqni qo‘llash amaliyotida ushbu toifadagi deviant xulq-atvorni boshqa ijtimoiy guruhlar jinoyatchiligidan kriminologik jihatdan ajratish imkonini beradi.Bu esa, professor M.X.Rustambayev ta’kidlagan yoshlarning psixo-fiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, jazo tayinlash va profilaktik choralarni individuallashtirish samaradorligini oshiradi;

*ikkinchidan,* profilaktika tizimida “an’anaviy-hududiy” yondashuvdan “raqamli-ekstrateritorial” yondashuvga o‘tish ta’minlanadi. “Raqamli ijtimoiy nazorat” va “kiber-profilaktika*”* tushunchalarining joriy etilishi natijasida, kiber-deviantlik omillarini barvaqt aniqlash mexanizmi yaratiladi. Bu axborot makonida yoshlar ongiga mafkuraviy ta’sir o‘tkazishga qaratilgan xavf-xatarlarni 40-50% gacha kamaytirishga xizmat qiladi;

*uchinchidan,* “oila–mahalla–ta’lim” zanjirining institusional mas’uliyati va hamkorlik algoritmi detallashtiriladi. ProfessorZ.S.Zaripov va S.B.Xo‘jaqulovlarning ijtimoiy sheriklik konsepsiyasi qonun darajasida aniq harakatlar algoritmiga ega bo‘ladi. Natijada, profilaktika subyektlarining vazifalari takrorlanishiga chek qo‘yiladi va yoshlar bilan ishlashda “manzilli va preventiv” ta’sir ko‘rsatish imkoniyati kengayadi;

*to‘rtinchidan,* yoshlarning viktimologik himoya darajasi sezilarli darajada yuksaladi. B.A. Gadoyevning viktimologik profilaktika nazariyasini amaliyotga tatbiq etish orqali yoshlarning, ayniqsa voyaga etmaganlarning axborot tarmoqlari va ijtimoiy muhitdagi jinoiy tajovuzlar

qurboniga aylanish xavfi minimallashtiriladi. Bu jamiyatda yosh avlodning ijtimoiy va huquqiy xavfsizligini ta’minlashning mustahkam kafolati bo‘lib xizmat qiladi;

*beshinchidan,* jinoyatchilikning “samodeterminasiya” (o‘z-o‘zini qayta tiklash) jarayoniga chek qo‘yiladi. Jinoiy submadaniyatning yoshlar orasida tarqalishiga qarshi tizimli to‘siq yaratiladi. Bu kelgusida yoshlar o‘rtasidagi residiv (qayta) jinoyatchilik darajasini pasaytirishga va jamiyatda sog‘lom huquqiy muhitni qaror toptirishga olib keladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, mazkur ilmiy asoslangan takliflarning amaliyotga joriy etilishi O‘zbekiston Respublikasida yoshlar huquqbuzarligi profilaktikasini xalqaro standartlarga mos keladigan, yuqori texnologik va insonparvar tizimga aylantiradi. Bu esa mamlakatimizning xalqaro reytinglardagi (masalan, Global xavfsizlik indeksi) mavqeini mustahkamlash bilan bir qatorda, yangi avlodning “huquqiy ijtimoiylashuvi”ni muvaffaqiyatli yakunlashga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi O‘RQ-406-son Qonuni. https//www.lex.uz/docs/3026246
2. Mirziyoyev Sh.M.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga murojaatnomasi. 26-dekabr 2026-yil www.president.uz
3. Ma’naviyat: asosiy tushunchalar lug‘ati. –T.: 2009.– B. 748.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi O‘RQ-406-son Qonuni. https//www.lex.uz/docs/3026246
5. Qurbonov D.D. Voyaga yetmagan shaxslar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olish // scienceproblems.uz ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. Maxsus son № S/1 (3)-2023 152-157-betlar.
6. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2023. – B. 45.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21 dekabrdagi "Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi

muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi PF-209-son Farmoni.

8. Rustambayev M.X. Jinoyat huquqi (Umumiy qism). Darslik. — Toshkent: IIV Akademiyasi, 2018. — B. 412-416.

## 2025-YIL 26-DEKABR MUROJAATNOMASI ASOSIDA 2026 YIL USTUVOR YO‘NALISHLARI: MAHALLADAN BOSHLANADIGAN TARAQQIYOT VA RAQAMLI ISLOHOTLARNING ILMIY-AMALIY TAHLILI

**Tolipov A.A.**
*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti kafedra boshlig‘i, s.f.b.f.d., (PhD), dotsent*

Davlat rahbarining Murojaatnomasi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab beruvchi strategik dastur hisoblanadi. 2025 yil 26 dekabr kunigi Murojaatnomada 2026 yilni “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” deb e’lon qilish taklif etildi hamda mamlakat taraqqiyotining 6 ta ustuvor yo‘nalishi ko‘rsatib berildi.

Murojaatnomada 2025 yilda iqtisodiyot va ijtimoiy sohada erishilgan natijalar keltirilib, ular 2026 yildagi yangi marralar uchun boshlang‘ich nuqtasi sifatida talqin qilindi. Eksport va investitsiyalar ko‘lamining kengayishi, ishsizlik hamda kambag‘allik darajalarining pasayishi islohotlarning ijobiy ta’sirini aks ettiradi. Shu bilan birga, tashqi kon’yunkturadagi noaniqliklar iqtisodiy siyosatda diversifikatsiya va texnologik modernizatsiyani tezlashtirish zaruratini kuchaytiradi.

2026 yil “tub burilish yili” bo‘lishi uchun quyidagi uchta o‘zaro bog‘liq omil muhim: resurslarni maqsadli safarbar etish; institutlar samaradorligi va huquqiy kafolatlar; inson kapitali va texnologiyalar sinergiyasi. Ushbu omillar KPIlar orqali o‘lchanib, ijro intizomi ta’minlanganda, loyihalarning uzoq muddatli samarasi (qo‘shilgan qiymat, eksport, hayot sifati) barqaror namoyon bo‘ladi.

Mahalla – aholining kundalik ehtiyoji va davlat xizmatlari sifati to‘g‘ridan-to‘g‘ri namoyon bo‘ladigan asosiy ijtimoiy makondir. 2026 yilda mahalla infratuzilmasini (ichimlik suvi, elektr, yo‘l-transport, sog‘liqni saqlash va ta’lim Obyektlari) kompleks rivojlantirish orqali bandlik va farovonlikni oshirish maqsad qilingan. Murojaatnomada 1 mln doimiy ish o‘rni yaratish, 181 ming oilani kambag‘allikdan chiqarish va kambag‘allik hamda ishsizlikni 4,5%ga tushirish kabi maqsadlar qayd etildi.

Mahalla dasturlari samaradorligini baholashda xizmat sifati va ijtimoiy natijalarni o‘lchaydigan ko‘rsatkichlar ustuvor: kommunal xizmatlar barqarorligi, aholi qoniqishi indeksi, mahalla kesimida bandlik-daromad dinamikasi va budjet mablag‘larining samaradorligi.

Iqtisodiyotni yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish va eksport qiluvchi modelga o‘tkazishda 2026 yil uchun qator maqsadlar belgilandi: 52 mlrd dollarlik 782 ta yangi loyihaga start berish, 14 mlrd dollarlik 228 ta quvvatni ishga tushirish, eksportni 40 mlrd dollarga yetkazish va tayyor hamda yarim tayyor mahsulot ulushini 55%dan oshirish vazifalari belgilab berildi. Texnologik modernizatsiyani tezlashtirishda “To‘rtinchi sanoat inqilobi markazi”ni tashkil etish, Industriya 4.0 yechimlarini joriy qilish hamda sun’iy intellekt infratuzilmasini rivojlantirish muhim. Amaliyotda esa investitsiya loyihalari kadrlar tayyorlash, standartlashtirish va texnologik audit bilan bir paketda rejalashtirilsa, samaradorlik oshishi ta’kidlandi.

Ichki talabni qo‘llab-quvvatlashda uy-joy qurilishi va ipoteka bozoriga alohida e’tibor qaratildi. 2026 yilda ipotekaga 23 trln so‘m resurs ajratish, 2,7 trln so‘m subsidiya berish va 140 ming kvartira qurish rejalashtirildi. Shuningdek, xizmatlar bozorini 100 mlrd dollardan oshirish va turizmda 5 yil ichida 20 mln xorijiy turistga yetish maqsadlari belgilandi. Mazkur choralar inflyatsiya va kredit risklarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak. Shu sabab ipoteka va iste’mol kreditlarida makroprudensial monitoring (qarz-daromad koeffitsienti, defolt risklari)ni kuchaytirish maqsadga muvofiq.

Texnologik iqtisodiyotga o‘tish sharoitida kasbiy ta’limni tubdan yangilash vazifasi qo‘yildi. Har yili kamida 100 ta texnikumni kapital

ta’mirlash va zamonaviy kasblarga mos jihozlash, dual ta’limni joriy etgan korxonalarni rag‘batlantirish va texnikumlarda o‘qiydigan 100 ming o‘quvchiga stipendiya joriy etish rejalashtirilgan.

Ta’lim–mehnat bozori uzilishini qisqartirish uchun kompetensiya standartlarini yangilash, kasblar forsaytini yo‘lga qo‘yish va bitiruvchilarning ishga joylashish ko‘rsatkichlarini ochiq e’lon qilish muhim.

Ekologiya va suv resurslari bo‘yicha “yashil” energetika ulushini oshirish, energiya samaradorligini kuchaytirish hamda suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish choralari ilgari surildi. Suv tejash bo‘yicha 3 yillik 5,5 mlrd dollarlik dastur doirasida texnologiyalar qamrovini 2,6 mln gektargacha kengaytirish va yillik 2,5 mlrd kub metr suv tejash maqsadlari belgilandi.

Natijadorlik uchun MRV (monitoring-reporting-verification) tamoyili asosida emissiya, energiya tejash va suv sarfi bo‘yicha yagona hisob va tekshiruv tizimini yo‘lga qo‘yish zarur.

Murojaatnomada Elektron hukumat platformasini yangilash, davlat xizmatlarini integratsiya qilish, murojaatlarni taqsimlash va muddat nazoratida sun’iy intellekt yechimlarini qo‘llash, “proaktiv” xizmatlarni kengaytirish vazifalari belgilandi. Shuningdek, davlat xaridlarida shaffoflik, boshqaruvda vakolatlarni ajratish va “raqamli sud” konsepsiyasi bo‘yicha choralar ilgari surildi.

AI joriy etilishi ma’lumotlar xavfsizligi, algoritmlar shaffofligi va inson huquqlarini himoya qilish bilan birga yurishi shart. Sud-huquq sohasida AI qaror qabul qilishni almashtirmasdan, protsessual xatolarni kamaytirishga xizmat qiluvchi yordamchi texnologiya sifatida qo‘llanishi maqsadga muvofiq.

Belgilangan maqsadlarning ijrosi KPIlar, raqamli monitoring va hisobdorlik mexanizmlari bilan mustahkamlanganda samarali bo‘ladi. Har bir yo‘nalish bo‘yicha indikatorlarning hisob-kitob metodologiyasi ochiq bo‘lishi, hududiy budjetlar imkoniyati kengayishi audit va budjet intizomi bilan muvozanatlanishi, davlat dasturlari ijrosi esa ma’lumotlar birlashtirilgan platformada real vaqtda kuzatilishi maqsadga muvofiq.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda quyidagi amaliy tavsiyalarni berish maqsadga muvofiq:

1. Mahalla loyihalari uchun “natija xaritasi” (infratuzilma + bandlik + xizmat sifati + qoniqish indeksi)ni joriy etish.

2. Sanoat investitsiyalarida texnologik audit va kadrlar rejasini majburiy qilish (texnikum/OTM bilan hamkorlik).

3. Ipoteka va iste’mol kreditlarida makroprudensial indikatorlar bo‘yicha ochiq monitoringni kuchaytirish.

4. AI va raqamli davlat uchun kiberxavfsizlik, ma’lumotlar sifati va algoritmlar shaffofligi bo‘yicha me’yoriy talablarni belgilash.

5. Ekologiya va suv siyosatida MRV asosida yagona hisob-kitob va tekshiruv tizimini yo‘lga qo‘yish.

6. Ta’lim muassasalari KPIlariga bitiruvchilar ishga joylashishi va ish beruvchi qoniqishi indikatorlarini kiritish.

Shunday qilib, 2025 yil 26 dekabr Murojaatnomasi 2026 yil uchun mamlakat taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlarini belgilab, mahalladan boshlanadigan ijtimoiy barqarorlik, texnologik modernizatsiya, ichki talabni rag‘batlantirish, inson kapitali, ekologiya va suv xavfsizligi, shuningdek raqamli davlat va adolatli sud-huquq tizimini bir-biriga bog‘liq dasturlar sifatida shakllantirdi. Ushbu maqsadlar ijrosida KPIlar va raqamli monitoring ustuvor bo‘lib, ilmiy hamjamiyat tomonidan ta’sir baholash (impact assessment) va takliflar tayyorlash jarayoni islohotlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnoma. 26.12.2025. Rasmiy manba: president.uz.

2. Prezident matbuot xizmati. “2026-yil barcha sohalarni rivojlantirishda tub burilish yili bo‘ladi”. 26.12.2025. Rasmiy manba: president.uz.

3. O‘zbekiston Respublikasi Hukumati portali (GOV.UZ). Arxiv materiallari: “Prezident Murojaatnomasi …”. 26.12.2025.

4. O‘zbekiston Milliy axborot agentligi (O‘zA). “Prezident murojaatnomasi – rivojlanishdan yuksalish sari”. 05.01.2026.

# PREZIDENT MUROJAATNOMASIDA MEHNAT MUNOSABATLARI VA BANDLIK MASALALARI

**Yarashev B.Ch.**
*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti kafedra boshlig‘ining o‘rinbosari, PhD, dotsent*

Aholi bandligini ta’minlash, kambag‘allikni qisqartirish, kasbiy ta’limni rivojlantirish, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish hamda mehnat bozorining yangi arxitekturasini shakllantirish masalalari har qanday davlat tariqqiyotining yo‘l xaritasidagi asosiy maqsadlardan biridir. 2026-yilda ushbu maqsadlarga erishishning huquqiy asoslari hamda mustaxkam poydevori esa 2025-yil 26-dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida o‘z aksini topgan.

Mehnat munosabatlari va ijtimoiy ta’minot sohasi ijtimoiy davlat barpo etishda asosiy huquqiy mexanizmlardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida har bir insonning mehnat qilish, munosib ish haqi olish va ijtimoiy ta’minotga bo‘lgan huquqlari kafolatlangan. Unga ko‘ra “Har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to‘lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo‘lmagan tarzda adolatli haq olish, shuningdek ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalanish huquqiga ega.

Mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori insonning munosib turmush darajasini ta’minlash zarurati hisobga olingan holda belgilanadi.

Homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo‘shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanadi.”

So‘nggi to‘qqiz yil ichida mamlakatimiz tom ma’noda katta taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdik. Iqtisodiyotimiz deyarli butunlay yangidan shakllandi, bozor munosabatlari hamda ijtimoiy himoya tizimi

kengaytirildi, qonun ustuvorligini ta’minlash tizimi mustahkamlandi. Amalga oshirilayotgan islohotlar samarasi har bir mahalla, har bir xonadon va har bir inson o‘z hayotida yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Murojaatnomada keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra “2025-yilda 5 million aholi daromadli bo‘lib, ishsizlik darajasi 5,5 foizdan 4,9 foizga tushgan”. Bu natijalar mehnat qilish huquqining amaliy ta’minlanishini hamda mamlakatimizda kambag‘allikni qisqartirish va ijtimoiy sohada olib borilayotgan islohotlarning natijadorligini ko‘rsatadi.

Mamlakatimizda fuqarolarning mehnat huquqlari ta’minlanishi uchun barcha shart-sharoit yaratilgan. Har yili bandlik dasturi doirasida yuzlab yangi ish o‘rni yaratilib, yurtdoshlarimizning munosib sharoitlarda samarali mehnat qilishi uchun keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda mehnatni huquqiy tartibga solish borasidagi xalqaro andozalar, agar ular O‘zbekiston tomonidan tan olingan bo‘lsa, bevosita qo‘llanilishi, ularning qoidalari mamlakatimiz mehnat qonunchligi tarkibiga kiritilishi, ular asosida qonun hujjatlari ishlab chiqilish orqali O‘zbekistonda mehnat huquqining rivojlanishiga ta’sirini o‘tkazmoqda.

Shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 10-moddasida: “Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida xodimlar uchun O‘zbekiston Respublikasining mehnat to‘g‘risidagi qonunchiligiga yoki mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarga nisbatan imtiyozliroq qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma yoki konvensiyaning qoidalari qo‘llaniladi” deya belgilab qo‘yilgan. Bunday ijobiy harakatlar qonunchiligimizning mukammallashuviga va mehnat qiluvchilarning huquqlarini yanada yaxshiroq ta’minlanishiga olib keladi. Bu fuqarolarning yashash darajasi oshishi va davlatning nisbatan muqobil iqtisodiyotga va siyosiy barqarorlikka erishishi uchun juda muhim.

Shuningdek murojaatnomada ta’kidlanganidek, yaqin yillarda mavjud kasblarning 30 foizi avtomatlashtirilishi, 50 foizi esa yangi malakalarni talab qilishi prognoz qilinmoqda. Shu bois mehnat huquqi

tizimi kasbiy ta’lim bilan uzviy bog‘liq holda rivojlantirilmoqda. 2026-yildan:

- har yili kamida 100 ta texnikum to‘liq ta’mirlanishi;
- ilg‘or kasbiy mahorat texnikumlari va “Kasblar shaharchasi” tashkil etilishi;
- xalqaro ta’lim dasturlari joriy qilinishi mehnat bozori talabiga mos mutaxassislar tayyorlashga xizmat qiladi.

Ma’lumki mehnat huquqi va ijtimoiy ta’minot huquqi sohasida xotin-qizlar va yoshlarning mehnat bozorida teng ishtirok etishi muhim o‘rin tutadi. Murojaatnomada ular uchun alohida tadbirkorlik dasturlari, kredit va subsidiyalar nazarda tutilgani qayd etildi. Kambag‘al oilalarga mansub bolalarning davlat bog‘chalariga imtiyozli qabul qilinishi ham ijtimoiy ta’minot huquqining muhim elementi hisoblanadi. Prezidentimiz taabiri bilan aytganda xalqning davlatga nisbatan ishonchining yanada ortishiga sabab bo‘ladi. Ijtimoiy davlat tamoilining ro‘yobga chiqishiga erishiladi.

Ijtimoiy davlat – bu davlatning faoliyati insonning munosib hayot kechirishiga shart – sharoit yaratishga qaratilgan boshqaruv shaklidir. Ya’ni davlat qonun chiqarib, nazorat qilibgina qolmay, aholining ijtimoiy himoyasi, teng imkoniyatlar va adolatni ta’minlashda faoli ishtirok etadi. Sodda qilib aytganda “Agar davlat pensiya to‘lasa, ishsizlarga nafaqa bersa, tibbiy xizmatni kafolatlasa – bu ijtimoiy davlat belgisidir”.

Prezident Murojaatnomasida belgilangan vazifalar ham O‘zbekistonda ijtimoiy davlat tamoyilini yanada mustahkamlaydi. E’tiborli jihati shundaki yangi tahrirdagi konstitutsiyamizga ko‘ra O‘zbekiston ham ijtimoiy davlat sifatida e’tirof etilgan. Mehnat huquqi va ijtimoiy ta’minot huquqi esa ushbu tamoyilning huquqiy poydevoridir. Aholi daromadlarini oshirish, barqaror ish o‘rinlari yaratish va ijtimoiy xavflarni davlat tomonidan qoplash mehnat munosabatlarini huquqiy jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi.

“Konstitutsiyada mehnatga har kim haq to‘lashning eng kam miqdoridan kam bo‘lmagan tarzda adolatli haq olish huquqiga ega ekanligi, mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori insonning o‘zi va oilasi yashashi uchun yetarli bo‘lishi, homiladorligi yoki bolasi borligi

sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo‘shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanishi, har bir ishlovchi ayol homilador bo‘lgan taqdirda va tug‘ish davrida haq to‘lanadigan ta’tilga hamda yangi tug‘ilgan chaqaloqni parvarish qilish uchun ta’tilga yoki bolani farzandlikka olish uchun ta’tilga chiqish huquqiga ega bo‘lishi, “Sud hukmi bilan tayinlangan jazoni o‘tash tartibidan yoki qonunda ko‘rsatilgan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnat taqiqlanishi, majburiy mehnatdan va bolalar mehnatining eng yomon shakllaridan foydalanish taqiqlanishi to‘g‘risida normaning keltirilganligi” yuqoridagilarning muhim asosi xisoblanadi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki Prezident Sh.M.Mirziyoyevning 2025-yil 26-dekabrdagi Murojaatnomasi mehnat huquqi, mehnat munosabatlari va bandlik masalalarini rivojlantirishda strategik ahamiyatga ega hujjat hisoblanadi. Ushbu ishlarni davom ettirish va mamlakatimizni har taomonlama rivojlantirish jaroyonida quyidagilarni alohida e’tiborga olish maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz:

Birinchidan: Mehnat munosabatlari sohasida zamon talablari va xorijiy davlatlar tajribasini keng qo‘llash va mehnat muxofazasini amalga oshirishni yanata takomillashtirish;

Ikkinchidan: Ishsizlar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklarning profilaktikasini asalga oshirish, ishsizlarni ishga joylashtirish choralarini ko‘paytirish, aholi daromadi va turmush tarzini yaxshilash choralarini ko‘rish maqsadga muvofiq. Bunga hududlardagi tadbirkorlik subyektlarini jalb qilish, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish bo‘yicha biznes loyihalari taklif qilib, uning boshlang‘ich sarf-xarajatlari yuzasidan manzilli ishlar olib borish orqali erishish mumkin.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Toshkent, “Yuridik adabiyotlar publish”, 2023 y.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. – 2025-yil 26-dekabr.

3. Yu.F.D.(DSc), G‘.A.Alimov bilan “Ijtimoiy davlat sodda tilda o‘zi nima?” mavzuda o‘tkazilgan intevyudan.

X.Quchqarov “Mehnat qilish huquqlarining konstitutsiyaviy kafolatlari” Yuristlar malakasini oshirish markazi o‘qituvchisi, yuridik fanlari doktori (PhD). https://yuz.uz/news/mehnat-qilish-huquqlarining-konstitutsiyaviy-kafolatlari

## МИКРО И МАКРОЭКОНОМИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ СОЦИАЛНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В ПОСЛАНИИ ПРЕЗИДЕНТА ОТ 26 ДЕКАБРЯ 2026 ГОДА

**Абдуллаева М.С.**

*Профессор университета общественной безопасности РУз*

Обращение Президента Республики Узбекистан Олий Мажлису традиционно выполняет функцию ключевого стратегического документа, определяющего направления социально-экономического развития страны. Послание от 26 декабря 2026 года отличается усилением экономической логики анализа, в рамках которой социалные цели последовательно связываются с макроэкономическими показателями и институционалными условиями развития.

Важной особенностью данного Послания является акцент на согласовании макроэкономических ориентиров с микроэкономическим поведением хозяйствующих субъектов и домохозяйств. Экономическая политика представляется не как совокупност разрозненных мер поддержки, а как система взаимосвязанных решений, направленных на формирование устойчивых источников дохода, занятости и предпринимателской активности.

*Макроэкономические ориентиры развития: ВВП и стратегическая динамика.*

На макроэкономическом уровне в Послании подчёркивается необходимост сохранения устойчивых темпов экономического роста при одновременном повышении его качества. Валовой внутренний продукт рассматривается не как самоцел экономической политики, а как агрегированный показател, отражающий способност националной экономики обеспечиват занятост, рост доходов населения и социалную устойчивост.

В Послании Президента Республики Узбекистан от 26 декабря 2026 года отмечено, что валовой внутренний продукт страны впервые в истории независимого развития превысил 145 млрд долларов США, что зафиксировано как важный рубеж социально-экономического развития [1]. В далнейшем, по мере уточнения годовых статистических данных, объём ВВП в долларовом выражении был оценён на уровне около 147 млрд долларов США[3]. Исползование в Послании именно порогового значения отражает момент достижения стратегически значимого этапа, тогда как более высокая оценка связана с последующей статистической актуализацией итогов года.

Принципиально важно, что достигнутый масштаб экономики в логике Послания не трактуется как конечная цел развития. Напротив, подчёркивается необходимост перехода от оценки количественного роста к анализу его социально-экономического содержания. Рост ВВП должен сопровождатся расширением занятости, увеличением реалных доходов населения и развитием предпринимателского сектора, что придаёт макроэкономическому показателю прикладное значение [1].

В этом контексте стратегия развития «Узбекистан-2030» выступает институционалной формой закрепления макроэкономических ориентиров, обозначенных в Послании. Макроэкономические цели - рост валового внутреннего продукта, повышение устойчивости экономики и улучшение качества экономического роста - получают в стратегии конкретное программное наполнение и временные параметры реализации [2]. Предложение Президента о внесении дополнений и уточнений в стратегию отражает понимание

макроэкономического развития как динамичного процесса и усиливает связку между текущей экономической политикой и долгосрочными целями развития. Следовательно, стратегия в логике Послания рассматривается не как статичный документ, а как инструмент макроэкономического управления, обеспечивающий условия для реализации микроэкономических приоритетов - роста занятости, доходов домохозяйств и предпринимателской активности.

Таким образом, макроэкономические ориентиры, зафиксированные в Послании, формируют рамочные условия социально-экономического развития, однако сами по себе не исчерпывают содержания экономической политики. Их практическая значимост проявляется через каналы воздействия на микроэкономический уровен - поведение домохозяйств, предпринимателскую активност и формирование занятости. В этой логике макроэкономический рост и стратегическое планирование выступают предпосылкой формирования устойчивых микроэкономических результатов.

В результате, макроэкономический уровен анализа в Послании задаёт институционалные и экономические условия, в рамках которых формируются и реализуются микроэкономические приоритеты развития.

*Микроэкономические приоритеты: доход, занятост и предпринимателство.*

В микроэкономическом измерении Послания централное место занимает задача формирования устойчивого дохода домохозяйств. Социалная политика в данной логике перестаёт рассматривается преимущественно как система компенсационных выплат и трансформируется в экономически обусловленный механизм, направленный на вовлечение населения в трудовую и предпринимателскую деятелност [1].

По сравнению с предыдущими этапами социально-экономической политики, в рамках которых доминировал подход, ориентированный на прямую социалную поддержку уязвимых категорий населения через перераспределителные инструменты, в Послании 2026 года чётко обозначен переход к иной логике развития.

На началном этапе реформ социалная политика была сосредоточена на сглаживании последствий структурных преобразований [3], что находило отражение в значителной доле социалных расходов в структуре государственного бюджета, оцениваемой на уровне порядка 30-35%, а также в активном исползовании механизмов адресной материалной поддержки. В отделные годы получателями различных форм социалной помощи становилис миллионы граждан, что объективно позволяло стабилизироват доходы уязвимых групп населения в условиях трансформации экономической системы.

В последующие годы, по мере устойчивого экономического роста на уровне 5-6% в год и увеличения масштаба националной экономики до свыше 145 млрд долларов США, сформировалис предпосылки для смещения акцентов государственной политики. В современных условиях приоритетом становится не компенсация доходов, а формирование устойчивых источников занятости и самостоятелного дохода. В этой логике рост ВВП и инвестиционной активности, доля которых в структуре экономики достигла более четверти валового внутреннего продукта, оценивается прежде всего через их микроэкономический эффект - способност создават рабочие места, обеспечиват рост доходов и повышат экономическую самостоятелност домохозяйств [3,4]. Именно через эти каналы воздействия макроэкономических процессов формируется новая рол домохозяйства в системе экономического развития.

Домохозяйство в логике Послания выступает не пассивным объектом социалной поддержки, а активным субъектом экономического роста. Расширение предпринимателской инициативы, снижение институционалных бареров и развитие локалных экономических возможностей рассматриваются как ключевые условия устойчивого повышения уровня жизни. Тем самым микроэкономические результаты: занятост и доход - фактически становятся индикаторами эффективности макроэкономической политики.

Связ микро- и макроуровней проявляется в институционалной логике Послания: макроэкономические решения оцениваются через

их влияние на поведение хозяйствующих субъектов, тогда как микроэкономические результаты рассматриваются как показател результативности государственной экономической политики в целом [1,2].

Анализ Послания Президента Республики Узбекистан от 26 декабря 2026 года показывает, что макроэкономическое развитие в нём трактуется не через достижение формалных показателей роста, а через их способност трансформировать в устойчивые социально-экономические результаты. Валовой внутренний продукт и инвестиционная активност рассматриваются как инструменты формирования занятости и доходов населения, а не как автономные цели экономической политики.

Установлено, что стратегия развития «Узбекистан-2030» выполняет функцию институционалного закрепления данных макроэкономических ориентиров и обеспечивает их долгосрочную реализацию в изменяющихся экономических условиях. В результате происходит смещение акцентов государственной политики от механизмов прямой социалной поддержки к модели экономического развития, основанной на создании рабочих мест, расширении предпринимателской активности и повышении экономической самостоятелности домохозяйств.

Тем самым микроэкономические результаты - занятост, доход и экономическая активност населения выступают ключевыми индикаторами эффективности проводимой макроэкономической политики и стратегических решений.

Проведённый анализ позволяет рассматриват Послание Президента Республики Узбекистан как этап качественного уточнения модели социально-экономического развития страны. В нём фиксируется переход от восприятия макроэкономических показателей как самостоятелных целей к их трактовке в качестве инструментов формирования устойчивых социально-экономических процессов [1].

Принципиалной особенностю обозначенной в Послании логики является институционализация связи между макроэкономическим управлением, стратегическим планированием и микроэкономическими

результатами. Экономический рост, инвестиционная активност и макроэкономическая стабилност приобретают системное значение постолку, посколку они обеспечивают воспроизводство занятости, устойчивого дохода и предпринимателской активности населения [2].

В этом контексте актуализация стратегии развития «Узбекистан-2030» отражает переход к более гибкой и адаптивной модели стратегического управления, способной учитыват, как достигнутые макроэкономические рубежи, так и новые социально-экономические вызовы. Тем самым формируется целостная конструкция экономической политики, в рамках которой социалное развитие перестаёт быт производным от перераспределителных механизмов и становится результатом функционирования устойчивой экономической системы.

Значимост данного подхода заключается в том, что он создаёт предпосылки для долгосрочного повышения качества экономического роста и социалной устойчивости, формируя основу для далнейшего развития Республики Узбекистан.

**Исползованной литературы:**

1. Послание Президента Республики Узбекистан Олий Мажлису от 26 декабря 2026 года [Электронный ресурс]. - Режим доступа: https://president.uz (дата обращения: 31.01.2026).

2. Указ Президента Республики Узбекистан «О Стратегии развития Узбекистана до 2030 года» [Электронный ресурс]. - Националная база данных законодателства Республики Узбекистан. - Режим доступа: https://lex.uz (дата обращения:31.01.2026).

3. Государственный комитет Республики Узбекистан по статистике. Макроэкономические показатели социально-экономического развития Республики Узбекистан. Ташкент, 2024–2026 гг. - Режим доступа: https://stat.uz -(дата обращения: 02.02.2026).

Министерство экономики и финансов Республики Узбекистан. Основные параметры социально-экономического развития [Электронный ресурс]. - Режим доступа: https://mineconomy.uz (дата обращения:01.02.2026).

# YANGIO‘ZBEKISTON – SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMI ISLOHOTLARI

**Abdullajanova D.S.**
*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti kafedra professori, psixologiya fanlari doktori, professor*

Bugungi kunda tibbiyot sohasida, xususan o‘rta bo‘g‘in tibbiyot xodimlari – hamshiralar yetishmovchiligi nafaqat O‘zbekiston, balki jahon miqyosida ham dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, 2030-yilga borib dunyo bo‘yicha 10 million nafardan ortiq tibbiyot xodimlari tanqisligi yuzaga kelishi prognoz qilinmoqda. Ayniqsa, hamshiralar yetishmasligi sog‘liqni saqlash tizimining uzluksiz ishlashi, profilaktika va parvarish xizmatlari sifati hamda bemor xavfsizligini ta’minlashda jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Mazkur holat bir qator tizimli omillar bilan izohlanadi. Jumladan, tibbiyot xodimlariga yuklamaning ortishi, kasbiy charchash sindromining keng tarqalishi, mehnat sharoitlarining murakkablashuvi, tibbiyot kadrlarining tashqi migratsiyasi, shuningdek, kasbiy ta’lim mazmunining zamonaviy amaliy talablar bilan yetarli darajada uyg‘unlashmaganligi kadrlar yetishmovchiligining chuqurlashishiga sabab bo‘lmoqda. Natijada tibbiy xizmatlar sifati va aholining tibbiyot tizimiga bo‘lgan ishonchi salbiy ta’sir ostida qolmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash xodimlari bilan yil davomida ikki marotaba o‘tkazilgan ochiq muloqotlar sohadagi real muammolarni aniqlash, ularni kompleks tahlil qilish va amaliy yechimlar ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu uchrashuvlar yakunlari bo‘yicha qabul qilingan farmon va qarorlar sog‘liqni saqlash tizimiga davlat darajasida e’tibor kuchayganini, tibbiyot xodimlarining kasbiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va ularning mehnat sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan aniq chora-tadbirlar belgilanganini ko‘rsatadi.

Mavjud statistik ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda O‘zbekistonda har 10 ming aholiga to‘g‘ri keladigan hamshiralar

soni rivojlangan davlatlar ko‘rsatkichlariga nisbatan 1,3–1,5 barobar kam. Ushbu nomutanosiblik sog‘liqni saqlash tizimida kadrlar taqchilligi muammosining faqat miqdoriy emas, balki sifat jihatidan ham mavjud ekanini anglatadi. Ya’ni, nafaqat kadrlar sonini oshirish, balki ularning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish, zamonaviy bilim va ko‘nikmalar bilan qurollantirish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Mazkur vaziyat tibbiy ta’lim tizimini tubdan modernizatsiya qilishni, kasbiy tayyorgarlikni xalqaro standartlar asosida qayta ko‘rib chiqishni, kompetensiyaga yo‘naltirilgan yondashuvni joriy etishni taqozo etadi. Xususan, hamshiralar tayyorlash jarayonida klinik fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, kommunikativ kompetensiyalar, stressga chidamlilik va professional mas’uliyat kabi psixologik va kasbiy sifatlarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish lozim.

Ana shu ehtiyojdan kelib chiqib, O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash tizimi uchun raqobatbardosh va zamonaviy kadrlar tayyorlash maqsadida Angliyaning nufuzli “Pearson” kompaniyasi bilan hamkorlikda har bir hududda bittadan texnikum negizida xalqaro standartlar asosida hamshiralar tayyorlash tizimi joriy etildi. Mazkur tashabbus doirasida o‘quv dasturlari amaliy yo‘naltirilganlik tamoyiliga asoslanib, klinik kompetensiyalarni shakllantirish, zamonaviy tibbiy texnologiyalarni o‘zlashtirish hamda real kasbiy vaziyatlarda samarali faoliyat yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilmoqda. Mutaxassislar baholashiga ko‘ra, xalqaro dasturlar asosida tayyorlangan hamshiralar mehnat unumdorligi va xizmat sifati jihatidan an’anaviy tayyorgarlikdan o‘tgan kadrlariga nisbatan o‘rtacha 20–25 foiz yuqori natija ko‘rsatadi, bu esa mazkur modelning amaliy samaradorligini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, yaqin istiqbolda ushbu texnikumlar faoliyatiga Germaniya, Shveysariya, AQSH va Yaponiya kabi rivojlangan davlatlarning ilg‘or ta’lim dasturlarini bosqichma-bosqich joriy etish rejalashtirilmoqda. Ushbu mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, hamshiralik kasbi sog‘liqni saqlash tizimining tayanch bo‘g‘ini hisoblanadi; xususan, Germaniyada ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlarning 70 foizdan ortig‘i bevosita hamshiralar faoliyati bilan bog‘liq.

O‘zbekistonda ham mazkur ilg‘or tajribalarni tatbiq etish orqali xalqaro talablarga javob beradigan, xorijiy tillarni puxta egallagan, zamonaviy klinik tafakkur va yuqori kasbiy mas’uliyatga ega hamshiralar tarkibini shakllantirish maqsad qilinmoqda. Bu esa kelgusida nafaqat ichki sog‘liqni saqlash tizimining ehtiyojlarini qondirish, balki milliy tibbiyot kadrlarining xalqaro mehnat bozoriga integratsiyalashuvi va raqobatbardoshligini ta’minlash imkoniyatlarini ham sezilarli darajada kengaytiradi.

Murojaatnomada sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirish masalasiga alohida urg‘u berilishi zamonaviy tibbiyotning rivojlanish mantiqi va global tendensiyalar bilan bevosita uyg‘unlashadi. Bugungi kunda rivojlangan davlatlarda tibbiy xizmatlarning 80 foizdan ortig‘i raqamli texnologiyalar asosida boshqarilib, bu jarayon diagnostika aniqligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish, shuningdek, tibbiy xizmatlar tezkorligi va shaffofligini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Raqamlashtirish orqali bemor ma’lumotlarini markazlashtirilgan holda yuritish, klinik qarorlar qabul qilishda analitik vositalardan foydalanish hamda profilaktik tadbirlarni oldindan rejalashtirish imkoniyatlari kengaymoqda.

O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda sog‘liqni saqlash tizimini raqamli transformatsiya qilish yo‘lida muhim qadamlar tashlanmoqda. Xususan, elektron tibbiy karta, onlayn navbat tizimi va masofaviy maslahat xizmatlarining joriy etilishi natijasida aholining tibbiy xizmatlardan foydalanish qulayligi so‘nggi uch yil ichida qariyb 30 foizga oshgani qayd etilmoqda. Bu holat raqamli yechimlar nafaqat xizmat ko‘rsatish sifati, balki aholining tibbiyot tizimiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashda ham samarali mexanizm ekanini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, raqamlashtirish tibbiyot xodimlarining ish yuklamasini optimallashtirish, byurokratik jarayonlarni qisqartirish va klinik faoliyatga ko‘proq e’tibor qaratish imkonini beradi. Endilikda tibbiyot muassasalarini yagona yondashuv asosida rivojlantirish maqsadida “master reja” ishlab chiqilishi sog‘liqni saqlash tizimida tartib, muvofiqlik va samaradorlikni ta’minlashga qaratilgan muhim strategik hujjat sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu reja orqali infratuzilma, kadrlar, moliyalashtirish va

raqamli platformalarni o‘zaro uyg‘unlashtirish, hududlar o‘rtasidagi nomutanosibliklarni kamaytirish hamda tibbiy xizmatlar sifati bo‘yicha yagona standartlarni joriy etish imkoniyati yaratiladi.

Shu bilan birga, mamlakatimizda yuqumli bo‘lmagan kasalliklar sog‘liqni saqlash tizimi oldida turgan eng jiddiy muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Rasmiy statistik ma’lumotlarga ko‘ra, yurak-qon tomir kasalliklari, xususan infarkt va insult holatlari umumiy o‘lim ko‘rsatkichlarining 55–60 foizini tashkil etmoqda, onkologik va nefrologik kasalliklar esa surunkali nogironlik holatlarining 40 foizdan ortig‘iga sabab bo‘lmoqda. Bu ko‘rsatkichlar sog‘liqni saqlash tizimida profilaktika, erta tashxis va uzluksiz davolash mexanizmlarini kuchaytirish zarurligini yaqqol namoyon etadi.

Shu bois mazkur yo‘nalishlarga ajratilayotgan moliyaviy mablag‘larning o‘tgan yillarga nisbatan 1,5 barobar oshirilib, 3,5 trillion so‘m miqdorida belgilanishi aholi salomatligini mustahkamlashga qaratilgan strategik va uzoq muddatli investitsiya sifatida baholanishi mumkin. Ushbu mablag‘lar zamonaviy diagnostika uskunalarini xarid qilish, yuqori texnologik davolash markazlarini rivojlantirish, tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish hamda raqamli monitoring tizimlarini keng joriy etishga xizmat qiladi. Natijada sog‘liqni saqlash tizimining barqarorligi, samaradorligi va aholi ehtiyojlariga moslashuvchanligi ta’minlanib, mamlakatda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va umr davomiyligini oshirish uchun mustahkam asos yaratiladi.

Mazkur mablag‘larning transplantatsiya, vaksinatsiya, ona va bola salomatligini muhofaza qilish kabi ustuvor yo‘nalishlarga yo‘naltirilishi sog‘liqni saqlash tizimida inson hayotini saqlab qolish va demografik barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan kompleks yondashuvning amaliy ifodasi hisoblanadi. Xususan, transplantatsiya xizmatlarini rivojlantirish orqali og‘ir surunkali kasalliklarga chalingan bemorlarning hayot sifatini yaxshilash, vaksinalar bilan qamrovni kengaytirish orqali yuqumli kasalliklarning oldini olish hamda ona va bola salomatligini muhofaza qilishga qaratilgan dasturlar orqali jamiyatning sog‘lom kelajagini ta’minlash ko‘zda tutilmoqda. Bu yo‘nalishlar sog‘liqni saqlash tizimida

profilaktika, erta tashxis va samarali davolash tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, ona va bola salomatligini muhofaza qilish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar muhim ijobiy natijalar bermoqda. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, ushbu sohada joriy etilgan kompleks dasturlar, perinatal yordam tizimining takomillashtirilishi, malakali tibbiyot xodimlari bilan ta’minlash hamda zamonaviy tibbiy texnologiyalardan foydalanish natijasida so‘nggi besh yil ichida ayrim hududlarda onalar va chaqaloqlar o‘limi ko‘rsatkichlari 15–20 foizga qisqargani qayd etilgan. Bu natijalar sog‘liqni saqlash sohasiga yo‘naltirilayotgan investitsiyalar o‘z samarasini berayotganini va tanlangan strategiyaning ilmiy-amaliy asosga ega ekanini tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, Murojaatnomaning to‘rtinchi ustuvor yo‘nalishi doirasida sog‘liqni saqlash tizimida kasbiy ta’limni rivojlantirish, xalqaro standartlarni joriy etish va raqamli transformatsiyani jadallashtirish O‘zbekistonda zamonaviy, samarali va inson salomatligiga yo‘naltirilgan tibbiyot tizimini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur islohotlar tibbiyot xodimlarining kasbiy salohiyati va mas’uliyatini oshirish bilan bir qatorda, tibbiy xizmatlar sifati va ulardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Natijada aholining hayot sifati yaxshilanib, umr davomiyligini oshirish, sog‘lom jamiyatni barpo etish uchun mustahkam ijtimoiy va institutsional asos yaratiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi, 26.12.2025. https://president.uz/oz/lists/view/8834

2. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti. Global Health Workforce Strategy: Workforce 2030. – Geneva: WHO Press, 2020.

3. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi. Sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirish bo‘yicha tahliliy hisobotlar. – Toshkent, 2021–2024.

4. Pearson. BTEC International Health and Social Care Qualifications Framework. – London, 2022.

5. Federal Ministry of Health (Germany). Nursing Care and Health Services in Germany. – Berlin, 2021.

6. World Bank. Digital Health Transformation in Developing Countries. – Washington, DC, 2022.

7. OECD. Health at a Glance: Europe. – Paris: OECD Publishing, 2023.

8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Aholi salomatligini mustahkamlash va yuqumli bo‘lmagan kasalliklarning oldini olish bo‘yicha davlat dasturlari. – Toshkent, 2022.

9. UNICEF. Maternal and Newborn Health Outcomes in Central Asia. – New York, 2021.

10. UNDP. Strengthening Health Systems and Human Capital Development. – New York, 2022.

11. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Sog‘liqni saqlash sohasiga oid rasmiy statistik to‘plamlar. – Toshkent, 2020–2024.

## JAMOAT XAVFSIZLIGI, TA’LIM HAMDA HARBIY-HUQUQNI MUHOFAZA QILISH TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-TAHLILIY ASOSLARI

**Xamidov G‘.S.**
*O‘zbekiston Respublikasi JXU professori*

**Gulyamov N.Sh.**
*O‘zbekiston Respublikasi JXU kafedra boshlig‘ining o‘rinbosari*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrida Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasi jamoat xavfsizligi, ta’lim hamda harbiy va huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan strategik dastur sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Murojaatnomada mamlakat xavfsizligini ta’minlashda inson omili, kasbiy salohiyat, zamonaviy bilim va texnologik yondashuvlarni ustuvor etish asosiy g‘oya sifatida ilgari surildi.

Mazkur murojaatnoma xavfsizlikni faqat kuch ishlatish vositasi sifatida emas, balki ta’lim, profilaktika, huquqiy ong va institutsional barqarorlik bilan uzviy bog‘liq tizim sifatida talqin qiladi. Bu esa uni ilmiy-tahliliy jihatdan chuqur o‘rganishni taqozo etadi.

Ushbu maqolaning maqsadi — 2025-yil dekabr oyidagi Murojaatnoma asosida jamoat xavfsizligi, ta’lim hamda harbiy-huquqni muhofaza qilish tizimlarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini tahlil qilish va amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

1. Jamoat xavfsizligi sohasini rivojlantirishning konseptual yondashuvlari Prezident Murojaatnomasida jamoat xavfsizligini ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Asosiy e’tibor huquqbuzarliklarni bartaraf etishga emas, balki ularning oldini olishga qaratilgan preventiv yondashuvga qaratildi.

Ilmiy nuqtai nazardan, mazkur yondashuv «preventiv xavfsizlik» va «jamoatga yo‘naltirilgan politsiya» nazariyalariga to‘liq mos keladi. Xavfsizlikni ta’minlashda mahalla instituti, jamoatchilik nazorati va raqamli monitoring tizimlarining o‘zaro integratsiyasi muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Shuningdek, axborot xavfsizligi, kiberjinoyatchilikka qarshi kurash va favqulodda holatlarni boshqarish masalalari ham jamoat xavfsizligining tarkibiy qismi sifatida qaraldi.

2. Ta’lim tizimi va kadrlar tayyorlashning xavfsizlikdagi o‘rni 2025-yil Murojaatnomasida ta’lim tizimi jamoat va milliy xavfsizlikni ta’minlashning strategik resursi sifatida talqin etildi. Ayniqsa, harbiy, huquqni muhofaza qilish va jamoat xavfsizligi organlari uchun kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga alohida urg‘u berildi.

Inson kapitali nazariyasiga ko‘ra, kasbiy bilim, amaliy ko‘nikma va ma’naviy barkamollik xavfsizlik tizimining samaradorligini belgilaydigan asosiy omillar hisoblanadi. Shu bois, dual ta’lim, amaliy tayyorgarlikka yo‘naltirilgan o‘quv dasturlari va zamonaviy trenajyor texnologiyalarini joriy etish ilmiy jihatdan asoslangan zaruratdir.

3. Murojaatnomada harbiy va huquqni muhofaza qilish organlarini modernizatsiya qilish, ularning tezkorligi va professional salohiyatini

oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Bu jarayonda boshqaruv tizimini raqamlashtirish, qaror qabul qilishda tahliliy ma’lumotlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy xavfsizlik tizimi faqat ierarxik boshqaruvga emas, balki adaptiv va intellektual modellarga asoslanishi lozim. Bu esa harbiy va huquqni muhofaza qilish ta’limida strategik fikrlash, stressga bardoshlilik va qaror qabul qilish kompetensiyalarini shakllantirishni talab etadi.

4. Mahalla fuqarolar yig‘ini va «mahalla yettiligi»ning jamoat xavfsizligini ta’minlashdagi o‘rni muhim ahamiyatga ega. Murojaatnomada mahalla darajasida jamoat xavfsizligini ta’minlashning asosiy tashkiliy mexanizmi sifatida «mahalla yettiligi» faoliyatini tizimli yo‘lga qo‘yish zarurligi ta’kidlandi. Ilmiy jihatdan, «mahalla yettiligi»ni ko‘p subyektli, o‘zaro bog‘liq va funksional boshqaruv modeli sifatida talqin etish mumkin.

Konseptual modelga muvofiq, «mahalla yettiligi» quyidagi tarkibiy elementlardan iborat:

1. Mahalla fuqarolar yig‘ini raisi — umumiy muvofiqlashtiruvchi va mahallada ijtimoiy barqarorlik uchun mas’ul subyekt;

2. Ichki ishlar organlari profilaktika inspektori — huquqbuzarliklarning oldini olish, xavf guruhlari bilan individual ishlash bo‘yicha asosiy ijrochi;

3. Xotin-qizlar faoli — oilaviy nizolar, zo‘ravonlik holatlari va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha profilaktika subyekti;

4. Yoshlar yetakchisi — yoshlar o‘rtasida huquqiy ong, bandlik va ma’naviy tarbiyani ta’minlovchi bo‘g‘in;

5. Ta’lim muassasasi vakili — voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish va erta profilaktika subyekti;

6. Sog‘liqni saqlash tizimi vakili — ijtimoiy xavf guruhlarini tibbiy jihatdan baholash va reabilitatsiya choralarini tashkil etuvchi subyekt;

7. Ijtimoiy himoya organlari vakili — kam ta’minlangan va xavf ostidagi oilalar bilan manzilli ishlash bo‘g‘ini.

Ushbu modelda har bir subyektning funksiyalari aniq taqsimlangan bo‘lib, ular o‘rtasida axborot almashinuvi, qo‘shma qaror qabul qilish va javobgarlik mexanizmlari shakllantiriladi. Natijada mahalla darajasida jamoat xavfsizligini ta’minlashning integratsiyalashgan, preventiv va barqaror tizimi vujudga keladi.

Prezident Murojaatnomasida ta’kidlangan muhim yo‘nalishlardan biri — ichki ishlar organlari, mahalla fuqarolar yig‘ini va ta’lim muassasalari o‘rtasida uzviy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, ya’ni «IIV – mahalla – ta’lim» integratsiyasi orqali huquqbuzarliklarning oldini olishdir. Bu hamkorlikni ilmiy jihatdan «vertikal va gorizontal integratsiyalashgan profilaktika modeli» sifatida baholash mumkin.

Amaliy keys sifatida quyidagi vaziyatni ko‘rib chiqish mumkin. Mahallada voyaga yetmaganlar o‘rtasida mayda huquqbuzarliklar va dars qoldirish holatlari ko‘paygan. Mazkur holatda profilaktika inspektori, mahalla raisi va ta’lim muassasasi vakili qo‘shma tahlil o‘tkazadi. Huquqbuzarlikka moyil o‘quvchilar ijtimoiy portreti shakllantirilib, ularning oilaviy, ta’limiy va psixologik holati kompleks o‘rganiladi.

Keys doirasida ta’lim muassasasi tomonidan qo‘shimcha tarbiyaviy va huquqiy mashg‘ulotlar tashkil etiladi, mahalla yoshlar yetakchisi orqali sport va ijtimoiy faollikka jalb etish choralari ko‘riladi, profilaktika inspektori esa individual nazorat va maslahat ishlarini amalga oshiradi. Natijada qisqa muddatda huquqbuzarliklar soni kamayishi, o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvi yaxshilanishi kuzatiladi.

Ushbu keys «IIV – mahalla – ta’lim» integratsiyasining amaliy samaradorligini ko‘rsatib, uni respublika miqyosida tizimli joriy etish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

2025-yil 26-dekabrdagi Murojaatnomada quyi tizim — mahalla institutining jamoat xavfsizligini ta’minlashdagi hal qiluvchi ahamiyati alohida ta’kidlandi. Prezident tomonidan mahalla fuqarolar yig‘ini va «mahalla yettiligi» faoliyatini kuchaytirish orqali huquqbuzarliklarning ildiz sabablarini bartaraf etish, ijtimoiy muammolarni erta bosqichda aniqlash va profilaktika qilish ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

Ilmiy nuqtai nazardan, mahalla jamoat xavfsizligini ta’minlashning quyi institutsional bo‘g‘ini hisoblanadi. U ijtimoiy nazorat, jamoatchilik ishtiroki va profilaktik faoliyatni uyg‘unlashtirgan holda amalga oshirish imkonini beradi. «Mahalla yettiligi» (mahalla raisi, profilaktika inspektori, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi, ta’lim muassasasi vakillari, sog‘liqni saqlash hamda ijtimoiy himoya tizimi subyektlari) xavf-xatarlarni kompleks baholash mexanizmi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Prezident Murojaatnomasida mahalla darajasida ishlashda «reaktiv» emas, balki «proaktiv» yondashuvni joriy etish zarurligi qayd etildi. Bu esa kriminologiyada keng qo‘llaniladigan preventiv modellarga to‘liq mos keladi. Huquqbuzarlikka moyil shaxslar bilan individual ishlash, ijtimoiy xavf guruhlarini aniqlash va manzilli choralar ko‘rish mahallaning asosiy vazifalari sifatida belgilab berildi.

Shuningdek, mahalla fuqarolar yig‘inining raqamli platformalar bilan integratsiya qilinishi, yagona axborot bazalari orqali ichki ishlar organlari va boshqa idoralar bilan ma’lumot almashinuvini yo‘lga qo‘yish jamoat xavfsizligini ta’minlash samaradorligini oshiradi.

5. Prezident Murojaatnomasida qonuniylikni ta’minlash va aholining davlat organlariga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash masalalari alohida ta’kidlandi. Jamoat xavfsizligini ta’minlash samaradorligi ko‘p jihatdan fuqarolarning huquqiy ongi va hamkorligiga bog‘liq.

Ilmiy jihatdan, bu ijtimoiy kapital nazariyasi bilan izohlanadi. Davlat va jamiyat o‘rtasidagi ishonch qanchalik yuqori bo‘lsa, xavfsizlik tizimi shunchalik barqaror bo‘ladi.

6. Prezident Murojaatnomasida qonuniylikni ta’minlash va aholining davlat organlariga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash masalalari alohida ta’kidlandi. Jamoat xavfsizligini ta’minlash samaradorligi ko‘p jihatdan fuqarolarning huquqiy ongi va mahalla orqali davlat organlari bilan hamkorligiga bog‘liq.

Ilmiy jihatdan, bu ijtimoiy kapital nazariyasi bilan izohlanadi. Davlat va jamiyat o‘rtasidagi ishonch qanchalik yuqori bo‘lsa, mahalla darajasida jamoat xavfsizligini ta’minlash mexanizmlari shunchalik barqaror va samarali bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi Murojaatnomasi jamoat xavfsizligi, ta’lim hamda harbiy-huquqni muhofaza qilish tizimlarini rivojlantirishning ilmiy jihatdan asoslangan strategik yo‘nalishlarini belgilab berdi. Murojaatnoma xavfsizlikni kompleks ijtimoiy institut sifatida qarash zarurligini yaqqol namoyon etdi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasi.

2. Коэн Л., Фелдман М. Социалный капитал и общественная безопасност. — Москва: Наука, 2019.

3. Becker G.S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis. — Chicago: Univer

## KASBLARNI RIVOJLANTIRISH VA YANGI MEHNAT BOZORI ARXITEKTURASINI YARATISH – MILLIY TARAQQIYOTIMIZNING USTUVOR YO‘NALISHI SIFATIDA

**Mamatkulov D.M.**

*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavsizligi universiteti dotsenti, falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent*

Jahon iqtisodiyotida raqobat ustunligi tobora tabiiy resurslar yoki kapital hajmi bilan emas, balki mehnat resurslarining kasbiy tarkibi, moslashuvchanligi va innovatsion salohiyati bilan belgilanmoqda. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida “Kasblarni rivojlantirish va yangi mehnat bozori arxitekturasini yaratish” masalasining alohida ustuvor yo‘nalish sifatida ilgari surilishi mamlakatning global mehnat taqsimotiga faol qo‘shilish va yuqori qo‘shilgan qiymatga ega iqtisodiyotni shakllantirishga qaratilgan strategik qaror ekanini anglatadi. Mazkur yondashuv mehnat bozorini oddiy ish

o‘rinlari yig‘indisi sifatida emas, balki murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida talqin qilishni talab etadi.

Ilmiy adabiyotlarda “mehnat bozori” deganda mehnat taklifi va mehnatga bo‘lgan talab o‘zaro ta’sir qiluvchi institutsional muhit tushuniladi. “Mehnat bozori arxitekturasi” esa ushbu muhitning ichki tuzilishi, ya’ni kasblar klassifikatsiyasi, malakalar ierarxiyasi, ta’lim - ishlab chiqarish bog‘liqligi, bandlik shakllari va mehnatni tartibga soluvchi mexanizmlar majmuini ifodalaydi. Prezident Murojaatnomasida aynan “arxitektura” atamasining qo‘llanilishi davlat siyosatida mehnat bozorini qisman isloh qilish emas, balki uning konstruktiv asoslarini qayta loyihalash maqsadi qo‘yilganini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston sharoitida mazkur masala ayniqsa ahamiyatli, chunki mamlakatda iqtisodiy o‘sish sur’atlari yuqori bo‘lishiga qaramasdan, mehnat unumdorligi ko‘plab rivojlangan va ayrim rivojlanayotgan davlatlarga nisbatan past darajada qolmoqda. Xalqaro taqqoslashlarga ko‘ra, mehnat unumdorligi yuqori bo‘lgan iqtisodiyotlarda kasblar yuqori malakali, texnologiyaga mos va uzluksiz qayta tayyorlash tizimi bilan qo‘llab-quvvatlanadi. Mamlakatimizda esa iqtisodiy faol aholining muayyan qismi hali ham an’anaviy, past unumdorlikka ega kasblarda jamlangan bo‘lib, bu holat mehnat bozorining tuzilmaviy yangilanishga ehtiyojini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyot, avtomatlashtirish va sun’iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi mehnat bozorida kasblarning yo‘qolishi va yangilarining paydo bo‘lishi jarayonini tezlashtirmoqda. Xalqaro mehnat tashkiloti baholashlariga ko‘ra, yaqin o‘n yillikda mavjud kasblarning kamida 30-40 foizi mazmun jihatdan tubdan o‘zgarishi yoki yangi kasblar bilan almashishi mumkin. Bu esa davlatdan mehnat bozoriga nisbatan faol, prognozli va ilmiy asoslangan siyosat yuritishni talab qiladi.

Murojaatnomada “kasblarni rivojlantirish” masalasining alohida urg‘u bilan ta’kidlanishi mehnat siyosatida miqdoriy bandlikdan sifat jihatdan samarali mehnat faoliyatiga o‘tishni anglatadi. Ilmiy nuqtai nazardan, kasblarni rivojlantirish deganda faqat yangi nomdagi

mutaxassisliklarni joriy etish emas, balki mavjud kasblarning mazmunini zamonaviy iqtisodiy talablar, texnologiyalar va mehnat unumdorligi mezonlari asosida qayta shakllantirish jarayoni tushuniladi. Bu jarayon kasblarni inson kapitali rivojining asosiy institutsional shakli sifatida qarashni talab qiladi.

Ilmiy adabiyotlarda “kasb” - shaxsning muayyan mehnat vazifalarini bajarishga qaratilgan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar tizimi sifatida ta’riflanadi. Zamonaviy iqtisodiyotda kasbning qiymati uning bozorda talab qilinuvchi kompetensiyalar bilan qanchalik uyg‘unligiga bog‘liq bo‘lib, ushbu uyg‘unlik mehnat unumdorligi va daromad darajasini belgilaydi. Shu ma’noda, kasblarni rivojlantirish iqtisodiyot tarmoqlarida qo‘shilgan qiymatni oshirishning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekistonda mehnat bozoriga har yili kirib kelayotgan yoshlar soni dinamikasi tahlil etilganda, bu ko‘rsatkichlar quyidagi:

– mehnat bozoriga bosim yildan-yilga ortib borayotgani;

– kasblarni rivojlantirish siyosati nega strategik zarurat ekani;

– yangi kasblar yaratilmasa, tarkibiy ishsizlik xavfi kuchayishi kabi ilmiy xulosalarni asoslashga xizmat qiladi.

Darhaqiqat, mamlakatimizda 2018 yilda mehnat bozoriga kirgan yoshlar soni taxminan 550 ming nafar bo‘lgan bo‘lsa, 2024 yilga kelib bu ko‘rsatkich 700 ming nafarga yaqinlashgan. Bu esa 6–7 yil ichida qariyb 27 foiz o‘sishni anglatadi. Ilmiy nuqtai nazardan, bunday o‘sish ekstensiv bandlik modeli emas, balki kasbiy sifatga asoslangan intensiv rivojlanish modelini talab qiladi.

Mazkur statistik dinamika shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda mehnat bozoriga kirib kelayotgan yoshlar soni yildan-yilga barqaror o‘sish tendensiyasiga ega. Xususan, 2018–2024 yillar oralig‘ida mazkur ko‘rsatkich 550 ming nafardan 700 ming nafargacha oshgan. Bu holat mehnat bozorida raqobatning kuchayishiga olib kelib, kasblarni rivojlantirishni tasodifiy emas, balki ilmiy asoslangan davlat siyosati darajasida amalga oshirishni taqozo etadi.

Darhaqiqat, O‘zbekistonda kasblar tizimini yangilash zarurati demografik va iqtisodiy omillar bilan izohlanadi. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, mamlakat aholisining o‘rtacha yoshi 29 yosh atrofida bo‘lib, yoshlar ulushi yuqori darajani tashkil etadi. Har yili mehnat bozoriga yuz minglab yoshlar kirib kelayotgan sharoitda ularni an’anaviy, past unumdorlikka ega kasblarga yo‘naltirish iqtisodiy o‘sish salohiyatini cheklaydi. Jahon banki baholashlariga ko‘ra, O‘zbekistonda mehnat unumdorligi ko‘plab o‘rta daromadli mamlakatlarga nisbatan past bo‘lib, bu holat kasblar tarkibining zamonaviy texnologiyalarga mos emasligi bilan bog‘liq.

Kasblarni rivojlantirish masalasi ta’lim tizimi bilan uzviy bog‘liqdir. Ilmiy nuqtai nazardan, ta’lim – kasb – mehnat bozori zanjiri uzilgan jamiyatlarda kasbiy bilimlar bozor talabidan ortda qoladi. O‘zbekistonda keyingi yillarda kasb-hunar ta’limi, texnikumlar va qayta tayyorlash markazlari tarmog‘i kengaygan bo‘lsa-da, ayrim sohalarda kadrlar tayyorlash mehnat bozori real ehtiyojlariga to‘liq javob bermayotgani kuzatilmoqda. Masalan, raqamli texnologiyalar, sanoat avtomatikasi, logistika va xizmatlar sohasida yuqori malakali mutaxassislarga bo‘lgan talab taklifdan yuqori bo‘lib qolmoqda.

Prezident Murojaatnomasidagi “kasblarni rivojlantirish” g‘oyasi kasblarni statik holda emas, balki dinamik tizim sifatida qarashni nazarda tutadi. “Kasblarning dinamik rivoji” deganda ularning mehnat bozoridagi talabga qarab yangilanishi, yangi kompetensiyalar bilan boyitilishi va umrbod ta’lim (lifelong learning) tamoyili asosida doimiy takomillashuvi tushuniladi. Xalqaro mehnat tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, zamonaviy iqtisodiyotlarda xodim o‘z mehnat faoliyati davomida kamida 2-3 marta kasbiy qayta tayyorgarlikdan o‘tadi. Bu tendensiya O‘zbekiston uchun ham dolzarb bo‘lib, kasblarni rivojlantirishni uzluksiz jarayon sifatida tashkil etishni talab qiladi.

Shu tariqa, Murojaatnomada belgilangan “kasblarni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishi inson kapitali sifatiga tayangan iqtisodiy o‘sish modelini shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, u mehnat unumdorligini oshirish, yoshlar bandligini sifat jihatdan ta’minlash va mamlakatning global raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ilmiy jihatdan

ushbu yo‘nalish kasblar tizimini ta’lim, iqtisodiyot va mehnat bozori bilan integratsiyalashgan holda rivojlantirishni nazarda tutuvchi kompleks davlat siyosatining nazariy asosi sifatida namoyon bo‘ladi.

Prezidentimiz tomonidan Murojaatnomada “yangi mehnat bozori arxitekturasini yaratish” vazifasining qo‘yilishi mamlakatda mehnat munosabatlarini boshqarish falsafasi o‘zgarayotganini anglatadi. Ilmiy nuqtai nazardan, “mehnat bozori arxitekturasi” deganda ishchi kuchi taklifi va ish o‘rinlari talabi o‘rtasidagi oddiy iqtisodiy nisbat emas, balki mehnat bozorini tashkil etuvchi barcha elementlar – inson kapitali, ta’lim va kasbiy tayyorlash tizimi, ish beruvchilar, davlat siyosati, raqamli axborot infratuzilmasi va ijtimoiy himoya mexanizmlarining o‘zaro bog‘langan yaxlit tizimi tushuniladi. Oddiy qilib aytganda, “arxitektura” – bu mehnat bozori qanday “qurilgani” va u qay darajada samarali ishlayotganini belgilaydigan tizimdir.

O‘zbekistonda yangi mehnat bozori arxitekturasini shakllantirish zarurati, avvalo, demografik omillar bilan izohlanadi. “Demografik omil” deganda aholi o‘sishi va mehnat bozoriga kirib kelayotgan yoshlar sonining yuqoriligi tushuniladi. Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2025 yil holatiga iqtisodiy faol aholi soni 15,2 million nafarni tashkil etgan, aholining qariyb 60 foizi mehnatga layoqatli yoshda. Har yili mehnat bozoriga o‘rtacha 600–700 ming nafar yoshlar kirib kelayotgani holda, yaratilayotgan barqaror va yuqori unumdor ish o‘rinlari soni bu talabni to‘liq qoplamayapti. Bu holat mehnat bozori arxitekturasida tarkibiy yangilanish talab etilishini ko‘rsatadi.

Yangi mehnat bozori arxitekturasining asosiy maqsadlaridan biri - mehnat unumdorligini oshirishdir. “Mehnat unumdorligi” deganda bir ishchining muayyan vaqt ichida yaratayotgan qiymati tushuniladi. Ayni vaqtda, xizmatlar sohasida band aholining 50 foizdan ortig‘i faoliyat yuritsa-da, ularning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi nisbatan past bo‘lib qolmoqda. Bu holat mehnat bozorida ish o‘rinlari sifati, malaka darajasi va texnologiyalardan foydalanish samaradorligi yetarli emasligini anglatadi.

Yangi arxitekturada markaziy o‘rinni “inson kapitali” tushunchasi egallaydi. “Inson kapitali” - bu shaxsning bilimlari, kasbiy ko‘nikmalari,

malakasi, tajribasi va sog‘lig‘i yig‘indisidir. Ilmiy tadqiqotlarga ko‘ra, inson kapitaliga yo‘naltirilgan investitsiyalarning iqtisodiy qaytimi jismoniy kapitalga nisbatan yuqoriroq. Masalan, OECD hisob-kitoblariga ko‘ra, aholining o‘rtacha ta’lim darajasi 1 yilga oshgan mamlakatlarda YaIM o‘sishi uzoq muddatda 3-5 foizga yuqori bo‘ladi. O‘zbekistonda oliy va o‘rta maxsus ta’lim qamrovi so‘nggi yillarda sezilarli oshgan bo‘lsa-da, ish beruvchilar talab qilayotgan amaliy ko‘nikmalar bilan ta’lim natijalari o‘rtasida tafovut saqlanib qolmoqda.

Shu bois yangi mehnat bozori arxitekturasida ta’lim va mehnat bozori o‘rtasidagi institutsional bog‘liqlik muhim ahamiyat kasb etadi. Institutsional bog‘liqlik deganda ta’lim muassasalari, ish beruvchilar va davlat organlari o‘rtasida barqaror hamkorlik mexanizmlari mavjudligi tushuniladi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda oliy ta’lim muassasalarini tamomlagan bitiruvchilarning taxminan 30-35 foizi birinchi ikki yil ichida o‘z mutaxassisligi bo‘yicha ish topolmaydi. Bu holat mehnat bozorida malaka nomutanosibligining mavjudligini ko‘rsatadi. Yangi arxitektura aynan shu nomutanosiblikni bartaraf etish, ta’lim dasturlarini mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirishni ko‘zda tutadi.

Yangi mehnat bozori arxitekturasining ajralmas qismi sifatida raqamlashtirish alohida ahamiyatga ega. “Raqamlashtirish” deganda mehnat munosabatlarini elektron platformalar va ma’lumotlar bazalari orqali boshqarish tushuniladi. Masalan, elektron mehnat daftarlari, yagona vakansiya portallari va onlayn kasbiy yo‘naltirish tizimlari mehnat bozoridagi axborot asimmetriyasini kamaytiradi. “Axborot asimmetriyasi” - ish beruvchi va ish izlovchi o‘rtasida ma’lumotlar tengsizligi bo‘lib, u ishsizlikning sun’iy oshishiga olib keladi. Xalqaro tajribaga ko‘ra, raqamli mehnat platformalarini joriy etgan mamlakatlarda ish topishga ketadigan o‘rtacha vaqt 20-30 foizga qisqargan.

Yangi arxitekturada muhim o‘rin tutadigan yana bir tushuncha – “faol bandlik siyosati”dir. “Faol bandlik siyosati” deganda davlatning ishsizlikka qarshi kurashda faqat nafaqa to‘lash bilan cheklanmasdan, qayta tayyorlash, malaka oshirish, hududiy mehnat dasturlari va yangi ish o‘rinlari yaratishni qo‘llab-quvvatlashi tushuniladi. Xalqaro mehnat

tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, faol bandlik siyosatiga yalpi ichki mahsulotning kamida 1-1,5 foizini yo‘naltirgan mamlakatlarda yoshlar ishsizligi darajasi o‘rtacha 25-30 foizga pasaygan. O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda qayta tayyorlash va kasbiy o‘qitish dasturlari orqali yuz minglab fuqarolar bandlikka jalb etilmoqda.

Demak, anglash mumkinki, Prezident Murojaatnomasida belgilangan “yangi mehnat bozori arxitekturasini yaratish” yo‘nalishi mehnat bozorini sifat jihatdan qayta qurishga qaratilgan kompleks strategik islohotdir. U mehnat bozorini ishchi kuchi va ish o‘rinlari o‘rtasidagi oddiy munosabat sifatida emas, balki inson kapitali, ta’lim, raqamlashtirish va ijtimoiy himoyani birlashtiruvchi yaxlit tizim sifatida talqin qiladi. Ilmiy tahlillar va statistik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, aynan shunday arxitekturaga ega mamlakatlar yuqori mehnat unumdorligi, barqaror iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy barqarorlikka erishmoqda. Shu ma’noda, mazkur yo‘nalish O‘zbekistonning uzoq muddatli taraqqiyotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida belgilangan “Kasblarni rivojlantirish va yangi mehnat bozori arxitekturasini yaratish” bandi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi va raqamli transformatsiyasi uchun strategik ahamiyatga ega. Kasblarni rivojlantirish nafaqat ishbilarmonlikni ta’minlovchi omil, balki iqtisodiy samaradorlik va innovatsion salohiyatni oshirishning asosiy mexanizmi hisoblanadi.

Yuqorida tahlil qilingan satistik ma’lumotlardan ma’lum bo‘ladiki, 2018-2024 yillarda mehnat bozoriga kirib kelayotgan yoshlar soni qariyb 27 foizga o‘sgan. Xususan, 2018 yilda 550 ming nafar yosh mehnat bozoriga kirgan bo‘lsa, 2024 yilda bu ko‘rsatkich 700 ming nafarga yaqinlashdi. Bu o‘sish mehnat bozorida raqobatbardosh va malaka talabiga mos kadrlarni tayyorlashning strategik ahamiyatini tasdiqlaydi.

Kasblarni rivojlantirish davlat siyosatida yuqori ustuvorlikka ega bo‘lib, ta’lim muassasalari va qayta tayyorlash markazlari orqali yoshlar zamonaviy kasbiy ko‘nikmalarga ega qilinadi. Bu nafaqat shaxslar uchun daromad va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaydi, balki umumiy iqtisodiy

o‘sish va innovatsion rivojlanish uchun ham samarali mexanizm bo‘lib xizmat qiladi.

Shu tariqa, mazkur yo‘nalish kasblarning mazmunini zamonaviy talablarga moslashtirish, yoshlar mehnat bozorida samarali integratsiyalanishi va mamlakat iqtisodiy salohiyatini oshirishga qaratilgan strategik chora-tadbirlar tizimi sifatida amalga oshirilishi kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 26.12.2025. president.uz (murojaat qilingan sana: 15.01.2026).
2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Mehnat bozori va aholi bandligi bo‘yicha ma’lumotlar, 2024–2025 yillar. Stat.uz (murojaat qilingan sana: 16.01.2026).
3. OECD. Skills Strategy and Labour Market Institutions. Oecd.com (murojaat qilingan sana: 15.01.2026).
4. International Labour Organization. Global Employment Trends.
5. World Bank. Uzbekistan Systematic Country Diagnostic. worldbank.com (murojaat qilingan sana: 15.01.2026).
6. International Labour Organization. Skills for a Digital World.

## YUQORI INTELLEKTUAL SALOHIYATLI KADRLAR TAYYORLASHDA OLIY TA’LIM TIZIMINING ROLI

**Saipova M.L.**
*“Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash” kafedrasi professori, psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent*

Bugungi globallashuv va texnologik rivojlanish sharoitida iqtisodiyotning barqaror o‘sishi inson kapitali sifati bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu bois O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimini tubdan modernizatsiya qilish, ustuvor iqtisodiy yo‘nalishlar uchun raqobatbardosh kadrlar tayyorlash davlat siyosatining muhim yo‘nalishiga aylandi. Prezidentning Murojaatnomasida ta’kidlanganidek, endilikda ta’lim tizimining asosiy vazifasi faqat talaba sonini ko‘paytirish emas, balki

yuqori intellektual salohiyatga ega mutaxassislarni yetishtirishdan iboratdir.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimi misli ko‘rilmagan darajada kengayib, qamrov darajasi oshdi. 2017-yilda bor-yo‘g‘i 72 ta oliy ta’lim muassasasi faoliyat yuritgan bo‘lsa, 2023-yilga kelib ularning soni 219 taga yetdi. Bu ko‘rsatkich olti yil ichida uch barobardan ko‘proq o‘sishga erishilganini anglatadi. Jumladan, 2022-yil oxiriga kelib mamlakatda 159 ta OTM bo‘lsa, 2023-yilda yangi tashkil etilgan oliygohlar hisobiga jami 213 taga yetdi.

OTMlar sonining bunday keskin oshishi natijasida yoshlarning oliy ta’lim bilan qamrovi ham sezilarli darajada yuqoriladi - 2017-yildagi 8,3% qamrov darajasi 2024-yilga kelib qariyb 48% ni tashkil etdi. Bu o‘z navbatida talabalar kontingentining keskin ortishida namoyon bo‘lmoqda.

Oliy o‘quv yurtlari soni va ulardagi o‘rinlar ko‘payishi natijasida talabalar soni ham bir necha barobarga oshdi. 2017-yilda mamlakat oliygohlarida tahsil oluvchi talabalar soni qariyb 250 ming nafarni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 1,55 million nafardan oshdi. Shunday qilib, 2021-2025-yillar oralig‘ida oliy ta’limga qabul kvotalarining kengaytirilishi hisobiga talabalar soni muttasil o‘sib bordi. Xususan, 2021-yildan 2024-yilgacha talaba qabul qilish hajmi qariyb ikki barobarga oshirilgani oqibatida umumiy talabalar soni 1 milliondan 1,5 milliongacha ko‘paydi. Yoshlarning oliy ta’limga intilishlari ortib borayotgani ijobiy hol, zero bu kelgusida yuqori malakali mutaxassislar zaxirasini shakllantirishga xizmat qiladi. Biroq son ko‘rsatkichlarining o‘sishi bilan birga ta’lim sifatini ta’minlash masalasi kun tartibiga chiqmoqda. Shu bois davlat rahbari ta’kidlagan “yuksak intellektual salohiyatga ega kadrlar”ni tayyorlash zarurati aynan ta’lim sifati va mazmuniga e’tiborni kuchaytirishni talab etmoqda.

2022-2023-o‘quv yiliga kelib oliy ta’lim muassasalari soni keskin oshgan va 2024-yilda 219 taga yetgan. Xususan, 2022-yil yakunida 30 ta xorijiy universitet filiallari va 24 ta nodavlat (xususiy) oliygohlar tashkil etilgani qayd etilgan. 4-rasmda 2023-yil uchun OTMlar tuzilmasi aks ettirilgan bo‘lib, ulardagi davlat, xususiy va xorijiy muassasalar ulushi mos

ravishda 55%, 31% va 14% ni tashkil etadi. Mazkur ko‘rsatkichlar mamlakat oliy ta’lim tizimi qisqa muddatda diversifikatsiya qilinganini va nufuzli xorijiy ta’lim muassasalarining jalb etilgani natijasida tarmoq jadal kengayganini ko‘rsatadi. Bu holat, albatta, ijobiy o‘zgarish bo‘lib, ta’lim imkoniyatlarining oshishi bilan bir vaqtda raqobat muhitini ham shakllantirmoqda. Shu nuqtayi nazardan, endilikda e’tibor ta’limning sifati va mazmuniga, ayniqsa, ustuvor iqtisodiy sohalar uchun zarur bo‘lgan mutaxassisliklar bo‘yicha malakali kadrlar yetishtirishga qaratilmoqda.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning Murojaatnomasida oliy ta’limni xalqaro standartlar darajasiga ko‘tarish maqsadida keltirilgan muhim tashabbuslardan biri ayrim mahalliy oliygohlarga xorijiy nufuzli universitetlarni jalb qilgan holda boshqaruvga berishdir. Jumladan, Jizzax politexnika institutini Vengriyaning nufuzli “Obuda” universiteti boshqaruviga berish to‘g‘risidagi qaror qabul qilindi. Ushbu yangilik ortidan institut tarkibida zamonaviy Muhandislik maktabi ochilib, yiliga 300 nafar yoshlar uchun dual ta’lim asosida muhandislik yo‘nalishlarida kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi. Shuningdek, Obuda universiteti ishtirokida Jizzax politexnikasida nafaqat avtosanoat uchun, balki elektrotexnika, transport, qurilish materiallari va qishloq xo‘jaligi sohalari uchun muhandis kadrlar, shuningdek sun’iy intellekt bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash tizimi yo‘lga qo‘yilishi rejalashtirilgan. Bu esa mintaqaviy rivojlanish ehtiyojlariga muvofiq kadrlar yetishtirish, xorijiy tajribani bevosita joylarda tatbiq etish imkonini beradi. Vengriyaning Obuda universiteti texnika va muhandislik sohalariga ixtisoslashgan yuqori reytingli oliygoh bo‘lib, uning boshqaruviga o‘tish jarayoni Jizzax politexnika institutida o‘quv dasturlarining modernizatsiyasi, professor-o‘qituvchilar malakasini oshirish va umuman ta’lim sifati oshishiga xizmat qiladi, deb kutilmoqda.

Mazkur tashabbus ortidan xorijiy universitetlarning bevosita ishtiroki bilan mahalliy oliygohlarda o‘qitish tajribasi yo‘lga qo‘yildi va bunday yondashuv boshqa texnika yo‘nalishidagi OTMlarga ham tatbiq etilishi ko‘zda tutilgan. Murojaatnomada “bu tajribani davom ettirib, aniq fanlar va texnika yo‘nalishidagi oliygohlarimizga dunyoning eng nufuzli

universitetlarini jalb qilamiz” deb ta’kidlandi. Darhaqiqat, 2018-yildan beri respublikada bir qator yetakchi xorijiy oliy ta’lim muassasalari filiallari ochildi. Jumladan, Toshkent shahrida Turin Politexnika universiteti (Italiya), Amiti universiteti (Hindiston), Webster universiteti (AQSH), Inha universiteti (Koreya) kabi nufuzli oliygohlar o‘z filiallarini muvaffaqiyatli faoliyat yuritib kelmoqda. Hududlarda esa Janubiy Koreyaning Puchon universiteti (Toshkent viloyati), Qozog‘istonning Janubiy Qozog‘iston universiteti (Chirchiq filiali) kabi xalqaro hamkorlikdagi yangi OTMlar tashkil etildi. Ayni paytda yurtimizda faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy universitetlar asosan texnika, muhandislik, axborot texnologiyalari, biznes boshqaruvi, farmatsiya va tibbiyot kabi yo‘nalishlarga ixtisoslashgan. Bu esa kadrlar tayyorlashni iqtisodiyotning ustuvor sohalari ehtiyojlariga yo‘naltirishga xizmat qilmoqda. Misol sifatida, Turin politexnika universiteti filialida avtomobilsozlik va sanoat texnologiyalari bo‘yicha minglab muhandislar tayyorlanayotgan bo‘lsa, Inha universiteti Toshkent filialida AKT va dasturiy injiniring yo‘nalishida yuqori malakali dasturchilar yetishib chiqmoqda.

Yana bir muhim qadam O‘zbekistonda xorijiy davlatlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishtirokida yangi oliygohlar tashkil etishdir. Prezidentning Murojaatnomasida qayd etilishicha, yaqinda Yaponiya tomonining ko‘magida aniq fanlar bo‘yicha yangi milliy universitetni tashkil etish haqida kelishuvga erishildi. 6-rasmda ushbu hamkorlikka doir hujjatlarning imzolanishi aks etgan. Gap Yaponiyaning mamlakatimizda birinchi universitetini ochish haqida bormoqda - ushbu oliygohni tashkil etishda Yaponiyaning eng nufuzli ilmiy-ta’lim maskanlaridan biri bo‘lmish Tsukuba milliy universiteti ishtirok etadi. 2025-yil 20-dekabr kuni Toshkentda O‘zbekiston hukumati va Yaponiya ta’lim vazirligi o‘rtasida oliy ta’lim sohasida hamkorlik to‘g‘risidagi bitim, shu jumladan Tsukuba universiteti bilan qo‘shma universitet tashkil etish to‘g‘risidagi memorandum imzolandi.

Yaponiyaning Tsukuba universiteti tabiiy va aniq fanlar, muhandislik, axborot texnologiyalari sohalaridagi yetakchi ilm dargohlaridan biri hisoblanadi. Mazkur hamkorlik natijasida Toshkent

shahrida tashkil etilishi rejalashtirilayotgan yangi universitetda matematika, fizika, informatika, sun’iy intellekt, robototexnika, energetika kabi yo‘nalishlarda kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yiladi. Yaponiya tomonining ta’lim sifati va tadqiqot bazasi jahon miqyosida yuqori ekani inobatga olinsa, ushbu qo‘shma universitet O‘zbekistonda innovatsion kadrlar tayyorlash borasida yetakchi markazlardan biriga aylanishi kutilmoqda. Kelgusida mazkur universitet bitiruvchilariga ikkita diplom berish, ta’lim jarayoniga yapon professorlarini jalb etish va ilmiy-tadqiqot laboratoriyalarini shakllantirish rejalari ham mavjudligi aytilmoqda. Bu esa mamlakatimizda yuqori intellektual salohiyatga ega kadrlar tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqishi shubhasiz.

Yuqoridagi kabi xalqaro hamkorlikdagi tashabbuslar natijasida yurtimiz oliy ta’lim tizimi jadal rivojlanmoqda. Xususan, O‘zbekistonning texnologik yetuklik indeksi bo‘yicha jahon reytingida 71 pog‘onaga yuqorilab, dunyoning Top-10 taligiga kirgani ham kadrlar tayyorlashda innovatsion yondashuvlar samarasini ko‘rsatadi. Bunday e’tiroflar ortida, albatta, mamlakatimizning inson kapitaliga doir siyosatida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar turibdi. Murojaatnomada qayd etilgan oliy ta’lim sohasidagi tub yangilanishlar - ta’lim muassasalarini ko‘paytirish, xorijiy universitetlar bilan qo‘shma dasturlarni joriy etish, nufuzli oliygohlarni boshqaruvga jalb qilish - barchasi ustuvor iqtisodiy tarmoqlarni malakali kadrlar bilan ta’minlashga qaratilgandir. Shu jihatdan, yurtimizda yuqori malakali muhandislar, texnologlar, IT-mutaxassislar, tibbiyot kadrlarini ko‘paytirishga qaratilgan sa’y-harakatlar yaqin kelajakda o‘z natijasini berishi kutilmoqda.

Ta’kidlab o‘tilganidek, hozirgi vaqtda O‘zbekistonda har yili oliy o‘quv yurtlarini tamomlagan 200 mingdan ortiq mutaxassis mehnat bozoriga kirib kelmoqda. Murojaatnomada keltirilgan raqamga ko‘ra esa yaqin yillarda bu ko‘rsatkich yiliga 300 ming nafarga yetishi mumkin. Bu shuni anglatadiki, ta’lim tizimidagi keng qamrov natijasida yuzaga kelgan “kadrlar oqimi”ni mehnat bozoriga to‘g‘ri yo‘naltirish, ya’ni bitiruvchilarni o‘z mutaxassisliklari bo‘yicha ish bilan ta’minlash masalasi eng ustuvor vazifalardan biriga aylanmoqda. So‘nggi yillarda hukumat

darajasida mehnat bozorini tartibga solish va bandlikni oshirish borasida izchil ishlar olib borildi. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, 2023-yil yakunida O‘zbekiston iqtisodiyotida ishsizlik darajasi 6,8% gacha pasaygan bo‘lib, bu avvalgi yilga nisbatan 2,1 foiz punktga kamdir. 2025-yil birinchi yarmida esa ishsizlikni yanada qisqartirib, 5,1% darajaga tushirishga erishildi. Biroq yoshlar bandligi masalasi hali ham dolzarbligicha qolmoqda - bozor iqtisodiyoti sharoitida mutaxassislarning malakasi va ish beruvchilarning talab-ehtiyojlari o‘rtasidagi tafovut ko‘plab mamlakatlarda kuzatiladigan murakkab muammo sanaladi.

Murojaatnomada bu masalaga alohida e’tibor qaratilib, oliygoh bitiruvchilari va ish beruvchilar o‘rtasida “ko‘prik” vazifasini o‘tovchi raqamli ekotizim yaratish taklif etildi. Mazkur platforma orqali korxonalar bo‘sh ish o‘rinlari va talabalarning malakaviy ko‘rsatkichlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni onlayn almashishi mumkin bo‘ladi. Natijada, bitiruvchi kurs talabasi o‘ziga mos ish o‘rnini topishi, ish beruvchi esa zarur kompetensiyaga ega nomzodni tanlab olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu tizim aslida ilgari mavjud bo‘lgan ma’lumotlar uzilishiga barham beradi: bundan oldin ko‘plab bitiruvchilar ish qidirish jarayonida vaqt va resurs sarflagan, ish beruvchilar esa malakali xodim tanlashda qiyinchiliklarga duch kelgan bo‘lsa, endilikda yagona elektron platforma ushbu jarayonlarni ancha soddalashtiradi. Bugungi kunda mehnat bozoridagi bo‘sh ish o‘rinlarining qariyb yarmida oliy ma’lumot talab etiladi. Jumladan, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ma’lumotiga ko‘ra, 2021-yilda e’lon qilingan 234 mingta vakant ish o‘rinlarining 107,3 mingtasi (46%) uchun oliy ma’lumotli mutaxassislar talab qilingan. Demak, oliy ma’lumotli kadrlar sonining o‘sishi bilan birga iqtisodiyotda ular uchun yaratilayotgan ish o‘rinlari sonini muvofiqlashtirish talab etiladi. Shu nuqtada, raqamli ekotizim mehnat bozori taklifi va talabi o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash vositasi bo‘lib xizmat qilishi kutilmoqda.

Yuqoridagi jadvalga ko‘ra, iqtisodiyot tarmoqlarida oliy ma’lumotli kadrlar eng ko‘p talab qilinadigan toifani tashkil etadi - bo‘sh ish o‘rinlarining qariyb yarmi (46%) aynan oliy ma’lumot talab etadi. Ushbu

tendensiya shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiyot yuqori malakali, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega mutaxassislarga tobora muhtoj. Shu bois O‘zbekiston hukumati bitiruvchilarni ishga joylashtirishni muvofiqlashtirish, ularga zarur ko‘nikmalarni berish va ish beruvchilar bilan bog‘lash uchun maxsus onlayn platforma - “EduJob” loyihasini ishga tushirdi. 2024-yil fevral oyida Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va O‘zbekiston Iqtisodiyot assambleyasi hamkorligida ushbu platformani joriy etish masalalari muhokama qilindi. *EduJob* tizimi yoshlarni zamonaviy kasblarga onlayn o‘qitish, ularga xalqaro me’yorlarga mos sertifikatlar berish va malakali mutaxassislarni yuqori maoshli ish o‘rinlariga joylashtirish maqsadini ko‘zlaydi. Aslida, Murojaatnomada tilga olingan “raqamli ekotizim” konsepsiyasi aynan *EduJob* loyihasining kengaytirilgan va takomillashgan shakli bo‘lib, unga oliy ta’lim muassasalari va korxonalar integratsiyasi ham qo‘shiladi. Bu tizim orqali oliygohlarning bitiruvchi kurs talabalari o‘z profillarini - o‘qish davomida erishgan natijalari, olgan sertifikatlari, stajirovka tajribalari va hokazolarni - kiritib boradilar. Ish beruvchilar esa mavjud vakant lavozimlar va ularga qo‘yiladigan malaka talablari haqidagi ma’lumotlarni joylashtiradilar. Natijada sun’iy intellekt yordamida platforma nomzodlar va ish takliflari o‘rtasida moslik darajasini aniqlab, ikki tomonlama bog‘lanish o‘rnatadi.

Bu kabi innovatsion yondashuvlar xalqaro tajribada ham keng qo‘llanilmoqda. Misol uchun, AQSh va Yevropa davlatlarida *Handshake*, *LinkedIn* kabi platformalar universitet bitiruvchilari va ish beruvchilarni bog‘lovchi muhim vositalardir. O‘zbekistonda yaratilayotgan milliy raqamli ekotizim esa nafaqat ish izlovchi bitiruvchilarga ko‘maklashadi, balki oliy ta’lim tizimi uchun ham tahliliy ma’lumotlar bazasini shakllantiradi. Platforma orqali qaysi soha bitiruvchilari mehnat bozorida eng ko‘p talabgir ekani, qaysi ko‘nikma va mutaxassisliklar yetishmayotgani kabi ma’lumotlar real vaqtda kuzatilib boriladi. Bu esa, o‘z navbatida, ta’lim muassasalariga o‘quv rejalarini mehnat bozori ehtiyojlariga tezkor moslashtirish, yangi yo‘nalishlar ochish yoki mavjudlarini optimallashtirish imkonini beradi. Shu tariqa, ta’lim va bandlik o‘rtasidagi aloqadorlik mustahkamlanib, iqtisodiyot uchun zarur

“qadriyat zanjiri” vujudga keladi. Prezident ta’kidlaganidek, yaratilayotgan raqamli ekotizim “ko‘prik” vazifasini bajarar ekan, yoshlar uchun keng imkoniyatlar eshigini ochadi hamda iqtisodiyot tarmoqlarini malakali kadrlar bilan uzluksiz ta’minlashga zamin yaratadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimi qisqa muddatda miqdoriy jihatdan sezilarli darajada kengaydi. Biroq kelgusida iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlari uchun yuqori intellektual salohiyatga ega kadrlar tayyorlash ta’lim sifatini oshirish, o‘quv dasturlarini mehnat bozori talablariga moslashtirish va xalqaro hamkorlikni chuqurlashtirishni talab etadi. Prezident Murojaatnomasida ilgari surilgan tashabbuslar aynan ushbu vazifalarni amalga oshirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 26.12.2025. president.uz (murojaat qilingan sana: 15.01.2026).
2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Mehnat bozori va aholi bandligi bo‘yicha ma’lumotlar, 2024–2025 yillar. Stat.uz (murojaat qilingan sana: 16.01.2026).
3. OECD. Skills Strategy and Labour Market Institutions. Oecd.com (murojaat qilingan sana: 15.01.2026).
4. International Labour Organization. Global Employment Trends.
5. World Bank. Uzbekistan Systematic Country Diagnostic. worldbank.com (murojaat qilingan sana: 15.01.2026).
6. International Labour Organization. Skills for a Digital World.

## MARKAZIY OSIYO MINTAQACINI XALQARO MULOQOT MAYDONIGA AYLANISHI HAMDA MADANIY-GUMANITAR ALOQALAR

**Xotamov Sh.X.**
*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti, ped.f.b.f.d, dotsent (PhD)*

Keyingi paytda yurtimiz global masalalar muhokama qilinadigan xalqaro muloqot maydoniga aylanib bormoqda. Xususan, 2025 yil Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley Assambleyasi; YuNESKO Bosh konferensiyasining sessiyasi; “Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi” sammiti va xalqaro Iqlim forumiga mezbonlik qildik.

Shuningdek, O‘zbekiston, Tojikiston va Qirg‘iziston yetakchilarining 2025 yil mart oyida Xo‘jandda bo‘lib o‘tgan uchrashuvida birinchi marta uch mamlakat davlat chegaralarining tutash nuqtasi to‘g‘risidagi tarixiy shartnoma imzolandi hamda “Abadiy do‘stlik to‘g‘risida” gi deklaratsiya qabul qilindi.

Mintaqamiz davlat rahbarlarining 2025 Toshkentdagi Maslahat uchrashuvi chog‘ida biz integratsiya jarayonlarini yangi sifat bosqichiga ko‘tarish uchun Markaziy Osiyo hamjamiyati strategik formatini tashkil qilish g‘oyasini ilgari surdi.

Shuningdek, Ozarbayjonni Markaziy Osiyo hamjamiyati formatiga to‘la huquqli a’zo sifatida qabul qilish to‘g‘risidagi qaror tarixiy ahamiyatga ega bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu qadam Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkaz o‘rtasida strategik bog‘liqlik va barqarorlikni kuchaytirishi shubhasiz.

Shu bilan birga, 2025 yil oktabr oyida Bryusselda O‘zbekiston va Yevropa Ittifoqi o‘rtasida Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi bitim imzolandi. 2025 yil noyabr oyida bo‘lib o‘tgan Markaziy Osiyo va AQSh sammiti ko‘p tomonlama va uzoq muddatli sheriklikni sifat jihatidan mutlaqo yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qildi.

2025 yil dekabr oyida Tokioda Markaziy Osiyo va Yaponiya yetakchilarining uchrashuvida ta’lim, tibbiyot, raqamli texnologiyalar, infratuzilma va sanoat sohalari bo‘yicha muhim kelishuvlarga erishish bu albatta katta yutuqdir. 2025 yil yana bir muhim uchrshuv Sankt-Peterburgda Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi rahbarlari bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuv ham hamkorligimizning dolzarb yo‘nalishlarini belgilab berilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Bularning barchasi xalqaro aloqalarimizni mazmun jihatidan yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Albatta, biz dunyodagi uzoq-yaqin mamlakatlar bilan – Sharq va G‘arb, Shimol va Janub bilan hamkorlik ko‘priklarini qurishda davom etamiz.

XXI asrdagi global jarayonlar Markaziy Osiyo mintaqasidagi suveren davlatlarning iqtisodiy va madaniy jihatdan integratsiyalashishi tezlashishini har tomonlama ta’minladi. Shu bilan bir qatorda, ushbu jarayon mintaqada yashovchi tub millatlar vakillari orasida qo‘shimcha mas’uliyat va vazifalarini ham qo‘yadiki, bu vazifalarning ijobiy yechimi jamiyatning etnosiyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Bular, albatta, mintaqadagi davlatlarning har tomonlama hamkorligi hamda millatlararo munosabatlarning ijobiy rivojiga asoslangan hamkorlikdir.

Markaziy Osiyo mintaqadagi tinchlik va barqarorlikni ta’minlashda mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni yanada rivojlantirish, madaniy-gumanitar sohalarda qo‘shma loyihalarni amalga oshirish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Madaniy-gumanitar hamkorlikning samarasi o‘laroq o‘tgan yillar mobaynida bir qator madaniy tadbirlar o‘tkazilganligi davlatlararo hamkorlikning mustahkamlanishiga xizmat qilgan. Jumladan, Qozog‘istonda O‘zbekiston kunlari 1994-yil may oyida va O‘zbekistonda Qozog‘iston kunlari 1994-yil iyul oyida o‘tkazilgan. O‘zbekistonda “Turkman madaniyati kunlari” (2016), “Tojik madaniyati kunlari” (2017), “Qirg‘iz Respublikasi madaniyati va san’ati kunlari” (2018), shuningdek, “O‘zbek madaniyati kunlari” Turkmanistonda (2017), Qirg‘izistonda (2017), Tojikistonda (2017, 2019) o‘tkazildi.

O‘zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan madaniy hamkorligi madaniyat kunlari, do‘stlik festivallari, “Sharq taronalari” musiqiy festivallari doirasida mustahkamlanib bordi. “O‘zbekiston–2030” strategiyasidan kelib chiqqan vazifalarni amalga oshirish jarayonida “barcha qo‘shni davlatlar bilan yaxshi qo‘shnichilik va strategik munosabatlarini jadal rivojlantirish, siyosiy, iqtisodiy, madaniy va

gumanitar yo‘nalishlardagi ikki va ko‘p tomonlama muzokaralarni muntazam va samarali olib borish hisoblanadi va mazkur masalada ijobiy natijalarga erishildi. Nafaqat qo‘shni davlatlarga, balki ularning chegaradosh viloyatlari jamoatchiligi ishtirokida “xalq diplomatiyasi” ko‘rinishida bir qator madaniy safarlar tashkil etildi. Boisi, O‘zbekiston o‘zining geografik-siyosiy o‘rniga ko‘ra Markaziy Osiyo mintaqasida qo‘shni davlatlar bilan mustahkam hamkorlik o‘rnatishni taqozo etadigan bir qator bog‘liqlik jihatlarga ega. Chunki, mintaqa mamlakatlari, ya’ni O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmanistonni umumiy tarix, uzviy ma’naviy qadriyatlar bog‘lab turadi. Mintaqa xalqlari azaldan qarindoshlik rishtalari, azaliy qo‘shnichilik va o‘zaro hurmat an’analari ushbu davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarda mustahkam asos bo‘lib xizmat qilyapti. Chunki, mintaqa xalqlarida umumfuqaroviy, yaxlit mentalitet va umumiy hududga mansublik xislatlari rivojini milliy madaniy markazlar, ziyolilarning o‘zaro uchrashuvi, adabiy va madaniy dekadalar hamda siyosiy tadbirlar orqali rivojlantirib borishga alohida ahamiyat berilmoqda.

2016-yildan keyin yangi darajaga chiqishiga O‘zbekiston tashabbus ko‘rsatdi. Chunonchi, juda qisqa bir davr ichida Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan madaniyat kunlari doirasida madaniy hamkorlik amalga oshirildi. Ma’lumki madaniyat kunlarining o‘tkazilishi madaniy-gumanitar hamkorlik yo‘nalishida eng zalvorli natija hisoblanadi. Qolaversa, madaniyat kunlarining o‘tkazilishi davlatlarning bunday yo‘nalishda hamkorlikni rivojlantirish va mustahkamlashdan manfaatdor ekanligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Birinchi Prezidenti I.Karimovning fikricha, “Biz uchun Turon – mintaqadagi turkiy tilda so‘zlashuvchi xalqlarning o‘ta siyosiy emas, balki madaniy birligining ramzidir. Bundan tashqari, umumiy madaniy, tarixiy va antropologik ildizlarimiz bizni tojik xalqi bilan ham tutashtiradi. Bu hol bizga o‘z madaniyatimizni Markaziy Osiyo uchun ma’lum darajada noyob bo‘lgan turk va fors madaniyatlarining sintezi deb hisoblashga to‘la huquq beradi”.

O‘zbeklar bilan tojiklar o‘rtasida uzoq davrlar mobaynida uzluksiz davom etib kelayotgan aloqalar hozirgi paytga kelib o‘zaro yaqinlik, qolaversa qon-qarindoshlik, do‘stlik va hamkorlik aloqalari nafaqat tarix sahifalarida, balki bugungi hayotda ham o‘rin topishiga sabab bo‘layotganligi har ikki davlat rahbarlarining sa’y-harakatlari bilan mustahkamlanmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “o‘zbek va tojik xalqlarini ko‘p asrlik umumiy tarix, madaniy-ma’naviy mushtaraklik birlashtirib turadi. Bizning urf-odatlarimiz, an’ana va qadriyatlarimiz, dinu diyonatimiz, kundalik hayot tarzimiz shu qadar yaqin va uyg‘unki, ularni bir-biridan ajratish deyarli mumkin emas”. Ta’kidlash joizki, ikki xalqning ming yillar davomida birgalikda yonma-yon yashab kelganligi O‘zbekiston va Tojikiston davlatlari madaniy-gumanitar sohasi hamkorligi rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonning Turkmaniston bilan madaniy hamkorligi ham Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan madaniy-gumanitar hamkorligining ajralmas tarkibiy qismi sanaladi.

Ikki qardosh mamlakatning adabiyot sohasidagi aloqalarni yanada mustahkamlash yo‘lida O‘zbekistonda ham doimiy ravishda turli shakldagi tadbirlar o‘tkazib turiladi. Bunday tadbirlardan biri 2016-yil 9-noyabr kuni O‘zbekiston Milliy kutubxonasida o‘tkazildi. Ushbu tadbir O‘zbekiston Respublikasi va Turkmaniston shoir-yozuvchilarining ijodiy uchrashuviga bag‘ishlandi. Unda turkman delegatsiyasi vakillari – “Miras” radiokanali muharriri M.Sagatov, Turkmaniston Davlat axborot agentligining yetakchi muxbiri M.Kadjarova, “Dünyä edebiyaty (Jahon adabiyoti)” jurnali tahririyati mas’ul kotibi Ye.Geldimuradova, “Edebiyat we sungat (Adabiyot va san’at)” gazetasi tahririyati bo‘lim muharriri M.Yagmurov, O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi a’zolari, adabiyotshunoslar va tarjimonlar ishtirok etdilar. Ikki mamlakat shoir va yozuvchilarining ijodiy uchrashuvi o‘zbek va turkman xalqlarining adabiy, musiqiy, madaniy hamda do‘stona aloqalarni mustahkamlash maqsadida o‘tkazilgan O‘zbekistonda Turkmaniston madaniyati kunlari doirasida bo‘lib o‘tdi. Tadbirlarda do‘stlik va qo‘shnichilik ruhida barqaror rivojlanib borayotgan

o‘zbek-turkman munosabatlari ikki mamlakat o‘rtasida o‘zaro hamkorlik munosabatlari va madaniy almashinuvning mustahkamlanib borishiga xizmat qilayotganligi ta’kidlab o‘tilgan.

Haqiqatan, adabiyot sohasidagi aloqalar O‘zbekiston va Turkmaniston xalqlarining madaniy yo‘nalishdagi hamkorligining kengayib borishiga va mustahkamlanishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shib kelmoqda. 2017-yil 4-5-fevral kunlari Buxoro va Xorazm viloyatlari vakillarining Turkmanistonning Lebap hamda Toshhovuz viloyatlariga tashriflari ham tegishli hududlar ma’muriyatlari rahbarlari, ishbilarmon va jamoatchilik doiralarining vakillari ishtirokidagi muzokaralarga boy bo‘lgan edi. Tashrif qatnashchilarining ta’kidlashicha, qardosh mamlakat hamda xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonch va hurmatga asoslangan bunday munosabatlarning yuqori darajasi aks etishi o‘zaro hamkorlikda istiqbolli rejalarni belgilab olish imkonini berdi.

Globallashuv jarayonida mintaqa davlatlari o‘rtasida madaniy hamkorlikni mustahkamlashda O‘zbekistonda har ikki yilda bir marta o‘tkazib kelinayotgan “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivalining roli beqiyos bo‘lmoqda va bunda Markaziy Osiyo davlatlari san’atkorlari ham faol ishtirok etib kelmoqda.

Ta’kidlash joizki, o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, tojik va turkman xalqlari hamkorligi, qardoshligi va do‘stligi, tarixiy ildizlari ancha qadimiydir. Ushbu xalqlarning yashash sharoiti, urf-odatlari, turmush tarzi bir-biriga nihoyatda yaqinligi mintaqa xalqlarining tarixiy hamkorligi va aloqalarining qadim-qadimdan meros bo‘lib kelishi, bugungi qardoshlik va do‘stlik munosabatlarining rivojlanishi va mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda. O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlikni ahil-inoq, do‘stona ruhda, o‘zaro manfaatli tarzda rivojlantirishga katta e’tibor qaratishi mintaqaviy integratsiyaning yangicha mazmun kasb etishiga xizmat qilmoqda.

Muxtasar qilib aytganda, Markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqalarni izchil rivojlantirish, mintaqada madaniy almashinuvlarni mustahkamlash, odamlarning borish-kelishlarini ko‘paytirish, savdo va turizm aloqalarini rivojlantirish maqsadida Davlat chegarasini kesib o‘tishda qulay sharoitlar

yaratish O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan madaniy hamkorligining bugungi holatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta’kidlash joizki, jahon tamaddunining markazlaridan biri bo‘lgan O‘zbekistonning tarixiy shaharlari va buyuk siymolari nafaqat o‘zbek xalqining ma’naviy merosi va qadriyatiga aylangan, balki boshqa xalqlar, jumladan, qozoq, qirg‘iz, tojik, turkman xalqining ham ma’naviy merosi va qadriyatiga aylanganligi shubhasiz.

Xulosa qilib aytganda, ushbu takliflar nafaqat madaniy-gumanitar sohada aloqalarni chuqurlashtiradi, balki mintaqaviy birdamlikni mustahkamlash, umumiy tarixiy merosni e’tirof etish va yosh avlodni qon-qardoshlik va bag‘rikenglik ruhida tarbiyalaydi. Shubhasiz, O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan madaniy-gumanitar hamkorligi istiqbolda mintaqada yashovchi turli millat va elatlarning ming yillar mobaynida shakllangan ma’naviy va madaniy hamkorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. Asarlar, 2–jild. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2018. – 456 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. Asarlar, 4 – jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – 410 b.
3. Asqarov A. O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2015. – B. 558.
4. Бабаходжаева Л.М. Международное культурно-гуманитарное сотрудничество Республики Узбекистан (период независимости). 2-е изд., перераб. и доп. –Тошкент: Фан, 2011.- 218 с.
5. Горшенина С.М. Изобретение консепта Средней / сентралной Азии: между наукой и геополитикой. Перевод с французского М.Р. Майзулса. – Вашингтон: Программа изучения сентралной Азии, Университет Джорджа Вашингтона, 2019. – ВИИИ, 119 с.

6. Зиямов Н.Ш. Рол Узбекистана в развити межгосударственного экономического и культурного сотрудничества стран сентралый Азии (1991-2001 гг.): Автореф. дис…канд. ист. наук. – Тошкент: 2001.- 26 с.

7. Mirzayev G‘.R. O‘zbekiston Respublikasi va Turkmaniston hamkorlik aloqalarining shakllanish va rivojlanish tarixi. Tarix fan. bo‘yicha fals. dokt. (PhD) Avtoref. – Toshkent: 2018. – 52 b.

## HARBIY XIZMATCHILARNING HUQUQIY HIMOYASINI TAKOMILLASHTIRISH ASOSLARI

**Olimjonov X.M.**
*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti kafedra dotsenti, y.f.b.f.d. (PhD), dotsent*

Dunyoda sodir bo‘layotgan voqealar sababli yuzaga kelayotgan xavf va tahdidlarning o‘sib borishi va murakkablashuvi jarayonida yurtimizda harbiy xizmatchilarga va harbiy sohaga bo‘lgan e’tibor yanada kuchaymoqda. Chunki, jamoat xavfsizligi dunyo hamjamiyatida global muammolar qatoridan o‘rin egallayotgan davrimizda jamoat xavfsizligini ta’minlovchi harbiy xizmatchilarning huquqlarini takomillashtirish talab qilinmoqda. Jahonda harbiy xizmatning yagona standart modeli mavjud bo‘lmagani singari harbiy xizmatchilar huquqiy muammolarini hal etishning, harbiy-huquqiy namunaviy modelini yaratish sohasida ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga murojaatnomasida “Tinchlik hukm surgan, qonun ustuvor bo‘lgan, fuqarolarning xavfsizligi ta’minlangan joyga investitsiya ham keladi, bu yerda turizm ham rivojlanadi. … Bunday ulug‘vor vazifalar bizdan yurtimizda tinchlik va barqarorlikni, millatlar va dinlararo do‘stlik va ahillikni yanada mustahkamlash, Qurolli Kuchlarimizning jangovar salohiyatini oshirishni talab etadi. Buning uchun biz barcha zarur chora-tadbirlarni amalga oshiramiz” deb ta’kidlab o‘tdilar[4].

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligi, suvereniteti va hududiy yaxlitligini himoya qilish har bir fuqaroning muqaddas burchi hisoblanadi. Ushbu burchni O‘zbekiston Respublikasida Qurolli Kuchlar safida xizmat qilayotgan harbiylar o‘ziga sharaf deb bilib, ado etadilar. Chunonchi, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 152-moddasida O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari O‘zbekiston Respublikasining davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuzilishi belgilangan[1].

O‘zbekiston Respublikasining “Mudofaa to‘g‘risida”gi Qonunida ham Qurolli Kuchlarni tuzishdan asosiy maqsadi, uning tarkibi yanada kengroq, aniqroq bayon qilingan. Ushbu qonunda: “Qurolli Kuchlar urushlar va qurolli mojarolarni qaytarish hamda oldini olish, O‘zbekiston Respublikasining milliy manfaatlarini, suvereniteti, hududiy yaxlitligini hamda aholining tinch hayotini himoya qilish uchun davlat tomonidan tashkil etilgan va saqlab turilgan harbiy birlashmalar, qo‘shilmalar va qismlarni, shuningdek, boshqa harbiy tuzilmalarni o‘z ichiga oladi” deb ko‘rsatilgan[2].

Fikrimizcha, O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligi, suvereniteti, hududiy yaxlitligini himoya qilish va tinchligini ta’minlash har bir fuqaroning muqaddas burchi hisoblanadi. Ushbu burchni O‘zbekiston Respublikasida Qurolli Kuchlar safida xizmat qilayotgan harbiylar o‘ziga sharaf deb bilib, ado etadilar.

O‘zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari jamiyat hayotining muhim bo‘lagi bo‘lib, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta’minlovchi asosiy bo‘g‘indir. Mazkur faoliyatni amalga oshirish jarayoni huquq normalari bilan tartibga solinadi hamda Konstitutsiya, harbiy qonunchilik va harbiy nizomlarning talablariga asoslanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyev Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisidagi nutqida “Ayni paytda butun dunyoda, jumladan, yon-atrofimizda xalqaro terrorizm, ekstremizm va radikalizm xavfi tobora ortib bormoqda, ayrim hududlarda qurolli to‘qnashuvlar hamon davom etmoqda.

Ana shunday keskin vaziyatdan kelib chiqqan holda, mavjud tahdidlarga qarshi munosib zarba berishga tayyor bo‘lishimiz, O‘zbekistonning tinch va barqaror rivojlanishini ta’minlash maqsadida Qurolli Kuchlarimizni yanada isloh qilish, uning jangovar tayyorgarligi va qobiliyatini yuksaltirish bo‘yicha kelgusida amalga oshiradigan ishlarimizni izchil davom ettirishimiz zarur... Uchinchidan, mamlakatimiz xavfsizligini ta’minlash va tashkiliy-shtat tuzilmalarini takomillashtirish bo‘yicha konseptual hujjatlar yangilangani munosabati bilan Qurolli Kuchlarni rejalashtirish va ularni qo‘llashning me’yoriy-huquqiy asoslarini qayta ko‘rib chiqish lozim”[3] deb ta’kidlab o‘tgan.

Shuningdek, muhandislik-texnika, kiberxavfsizlik va axborot xurujlariga qarshi kurashish sohalarida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash eng muhim masala ekanligi, shu bois, muhandislik-texnik yo‘nalishdagi harbiy-ilmiy bazani mustahkamlash, joylarda harbiy texnoparklar tashkil etish zarurligi ko‘rsatib o‘tildi.

Harbiy xizmatchilarning jangovar shayligini yanada mustahkamlash bilan birga, ularning ma’naviy olamini ham muntazam boyitib borishni zamonning o‘zi talab etmoqda. Bunda kitobxonlik muhim o‘rin tutadi. Shu bois, 2026-yilda barcha harbiy qism va muassasalar jami 1 million nusxadagi badiiy adabiyotlar bilan ta’minlanadi.

Qurolli Kuchlar tizimidagi harbiyga yo‘naltirilgan maktab-litsey o‘quvchilari, muddatli harbiy xizmatchilar, kursantlar, serjant va ofitserlar o‘rtasida Oliy bosh qo‘mondon sovrini uchun kitobxonlik tanlovi yo‘lga qo‘yiladi. Okrug, qo‘mondonlik, vazirlik, Oliy bosh qo‘mondon tanlovlarida g‘olib va sovrindor bo‘lgan askarlarning muddatli harbiy xizmati bir oyga qisqartirib beriladi.

Har yili harbiy xizmatchilar o‘rtasida ko‘pkurash, qo‘l jangi, og‘ir atletika kabi sportning 10 dan ortiq an’anaviy turlari bo‘yicha musobaqalar o‘tkazilmoqda. Endi joriy yildan boshlab kibersport, dron va robot texnologiyalari kabi zamonaviy sport turlari bo‘yicha uch bosqichli musobaqalar tashkil etiladi.

Shu sababli, qo‘shinlarni sun’iy intellekt asosidagi robotlashgan majmualar va uchuvchisiz tizimlar, yengil harbiy texnika, zamonaviy

qurol-aslaha, razvedka vositalari bilan jihozlashga alohida e’tibor qaratish kerakligi ko‘rsatib o‘tildi.

Davlat rahbari mudofaa sanoatini yanada rivojlantirish, soha korxonalarida raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektni joriy etish ustuvor vazifalardan biri bo‘lishi kerakligini qayd etdi.

Davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini raqamlashtirish sharoitida kiberxavfsizlikni ta’minlash va milliy raqamli infratuzilmaning barqarorligini mustahkamlash alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois, mutasaddilarga shaxsga doir ma’lumotlar va raqamli tizimlar himoyasini ta’minlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni belgilash topshirildi[4].

Shuningdek, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi mustaqillik bayramiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida bugun jahon miqyosida yurtimiz haqida so‘z ketganda “Yangi O‘zbekiston” iborasi tilga olinayotgani, bu keyingi yillarda taraqqiyotning mutlaqo yangi bosqichiga qadam qo‘yganimiz, erishayotgan zalvorli yutuqlarimizning e’tirofi ekanini alohida ta’kidladi.

Bugungi kunda harbiy xizmatchilarning vatanparvarligi, jangovar tayyorgarligi, bilim salohiyati va huquqiy himoyasi “Yangi O‘zbekiston”ga mos bo‘lishi lozim. Harbiy xizmatchilarning huquqiy himoyasining nazariy – huquqiy asoslari deyilganda harbiy huquq tushunchasiga alohida to‘xtalib o‘tish lozim.

Shuningdek, Qurolli Kuchlar tizimini zamonaviy harbiy texnika va qurol-aslaha bilan ta’minlash bo‘yicha ham bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Braziliyaning Embraer kompaniyasi O‘zbekiston Respublikasi “C-390 Millennium” transport samalyotining buyurtmachisi ekanligini e’lon qildi. Mazkur samalyot taxminan 26 tonnagacha harbiy yuk va texnika tashish, askarlar va parashyutchilardan iborat bo‘lgan desant tushirish, tibbiy evakuatsiya, maxsus modellar bilan yong‘in o‘chirish, tanker sifatida havoda yonilg‘i quyish va gumanitar yordam hamda qutqaruv ishlarini bajarish imkoniyatiga ega hisoblanadi[8].

Shu bilan birga, ushbu harbiy texnika reaktiv bo‘lganligi uchun “C-130 Hercules” kabi eski turbovintli samalyotlardan tezroqligi, zamonaviy avionika va raqamli boshqaruv, beton bo‘lmagan (yarim

tayyor) uchish-qo‘nish yo‘laklaridan ham foydalana olishi, parvoz masofasi va yuk sig‘imi yaxshi muvozanatlanganligi kabi afzallik va qulayliklarga egaligi bilan ahamiyatlidir. Albatta, bunday zamonaviy texnikalar bilan ta’minlanish mamlakat Qurolli Kuchlarini yanada mustahkamlanishiga va harbiy xizmatchilarni jangovar tayyorgarligining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Harbiy xizmatchilarning huquqiy himoyasining takomillashtirishda sport sohasini ham rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, harbiy xizmatchilarning asosiy ish va xizmat faoliyati hamda jangovar tayyorgarligi sport-sog‘lomlashtirish ishlari bilan chambarchas bog‘liq.

Fikrimizcha, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti jismoniy tayyorgarlik va sport kompleksi qaytadan zamonaviy talablarga javob beradigan tartibda ishga tushirildi. Sportning barcha turlari bilan shug‘ullanishga yetarli moddiy-texnik jihatdan ta’minlandi. Mazkur mujmua qoshida “Gvardiya” sport klubi faoliyatini tashkil etish maqsadga muvofiq.

Ushbu sport klubi faoliyatini tartibga solish bo‘yicha Nizom tasdiqlanishi va bandlarida jamoatchilik asosida beg‘araz sport-sog‘lomlashtirish xizmatlarini, shu jumladan jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha tayyorlash, o‘qitish, qayta tayyorlash, malaka oshirish xizmatlarini amalga oshirish va O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Universitet shaxsiy tarkibi (harbiy xizmatchilar) va ularning oila a’zolari, ishchi-xizmatchilariga sport-sog‘lomlashtirish xizmatlarini beg‘araz ko‘rsatish hamda sportchilarni, o‘qituvchi-murabbiylarni, hakamlarni va boshqa sport mutaxassislari huquq va manfaatlarini ijtimoiy-huquqiy himoya qilish taklif etiladi.

Bizning fikrimizcha, harbiy xizmatchilarning huquqiy himoyasini huquqiy asoslarini takomillashtirishda quyidagi yo‘nalishlarda ishlar amalga oshirilishi lozim:

*1) harbiy huquqning mohiyati va harbiy huquqning asosiy institutlari – davlatning harbiy tashkiloti, harbiy xizmat, uning turlari, tamoyillari, harbiy xizmatni o‘tash, uning turlari, tamoyillari, harbiy huquqning mazmun-mohiyati haqida chuqur va tizimli bilim berish.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga murojaatnomasida ta’kidlab o‘tganlaridek “Biz yoshlarimizni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning ona yurtga mehri va sadoqatini oshirishga yanada ko‘proq ahamiyat berishimiz kerak”. Ushbu yo‘nalish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-fevraldagi 140-sonli “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori qabul qilingan[5].

Ushbu qaror yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga doir ishlar samaradorligini oshirish va faollashtirish, bu boradagi ta’lim-tarbiyaviy ishlarga mamlakatimiz fuqarolarini, davlat va nodavlat notijorat tashkilotlarini hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini yanada faol jalb etish va yoshlar ongiga vatanparvarlik, mardlik tuyg‘ularini singdirish maqsadida qabul qilingan edi. Bizningcha, yoshlarimizni harbiy-vatanparvarlik to‘g‘risida tarbiyalanishining harbiy xizmatchilar huquqiy himoyasinining huquqiy asoslarini takomillashtirishda o‘z o‘rni bor. Chunki, kelajakda bu yoshlar Milliy armiyamiz saflarini huquqiy ongi yuksak bo‘lgan, harbiy huquqni takomillashtirishga o‘z xissalarini qo‘shishadi.

*2) harbiy xizmatchilarning huquqlari va ularning cheklanishi, majburiyatlari, huquqiy javobgarligi masalalari bo‘yicha so‘rovnomalar o‘tkazish.*

Ushbu yo‘nalishda mavjud muammolarni o‘rganish bo‘yicha mansabdor shaxslar tomonidan yiliga bir marotaba huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy so‘rovnomalar o‘tkazilishi lozim. Chunki, zamon rivojlangani sayin harbiy xizmatchilarga jamiyatimizning turli sohalarida huquqiy himoya zarur bo‘ladi. O‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari bo‘yicha tegishli qonunchilik hujjatlari ishlab chiqilishi yoki o‘zgartirilishi lozim.

*3) Harbiy xizmatchilarga harbiy qonunchilikda mavjud qonunlarni o‘rgatib borish.*

Mazkur masala bo‘yicha harbiy xizmatchilarga qonunchilik va huquq-tartibotni mustahkamlash bo‘yicha harbiy boshqaruv organlari faoliyatini yanada takomillashtirish, shaxsiy tarkibning huquqiy

madaniyatni oshirish, harbiy xizmatchilarning o‘z xizmat vazifalariga to‘la amal qilishlarini, belgilangan huquqlarining amalda tadbiq etilishini ta’minlash lozim.

Ofitserlar tarkibi uchun alohida, kontrakt asosida xizmat qilayotgan oddiy askarlar, serjantlar tarkibidagilar uchun alohida, muddatli harbiy xizmatchilar uchun alohida, ya’ni barcha toifadagi harbiy xizmatchilar minimum (lotinchadan – eng kam, eng oz) darajada bilishi shart bo‘lgan asosiy me’yoriy-huquqiy hujjatlar ro‘yxati berilgan.

*4) davlatning harbiy faoliyatidagi xorijiy tajriba haqida ma’lumot berish, harbiy xizmatni tashkil etish, harbiy xizmatchilar faoliyatini huquqiy tartibga solish.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga murojaatnomasida “Har yili 500 nafar mutaxassisni eng nufuzli xorijiy oliygoh va markazlarda o‘qitib kelamiz” deb ta’kidlab o‘tdilar. Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarining huquqiy himoyasini huquqiy tartibga solinishini rivojlantirish uchun 500 nafar mutaxassis ichida harbiy soha mutaxassislari ham bo‘lishi lozim. Chunki, rivojlangan xorij davlatlarining harbiy xizmatchilarining huquqiy himoyasini oshirish bo‘yicha amalga oshirgan ishlari, erishilgan ijobiy natijalarini milliy armiyamizga tadbiq etishimiz lozim. Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni “Yangi O‘zbekiston Strategiyasi”da ta’kidlaganidek “Bugun hech bir sohada ilm-fan yutuqlari va innovatsion texnologiyalarni amaliyotda qo‘llamasdan turib taraqqiyotga erishib bo‘lmaydi. Bu esa, keng va zamonaviy bilimga ega kadrlarni tayyorlash, ularning malakasini oshirish, xorijiy tajribalarni o‘zlashtirish kabi dolzarb vazifalarni oldimizga qo‘ymoqda”[6].

Ushbu yo‘nalish bo‘yicha xorijiy davlat vakili bo‘lagan Fransiya harbiy attashesi podpolkovnik Jan-Mari Xoltsinger “Dunyo xaritasiga qaraydigan bo‘lsak, O‘zbekiston Afg‘oniston bilan chegaradosh. Ushbu davlatning shimoliga to‘g‘ri keladigan ayrim hududlarda terrorchi kuchlar harakatlari kuzatilmoqda. Shuning uchun O‘zbekiston Qurolli Kuchlari har doim terrorizmga qarshi kurashishga qobiliyatli bo‘lishi kerak. Bu nafaqat O‘zbekiston, balki butun dunyo uchun muhim”[7] deb ta’kidlab o‘tgan.

*5) harbiy qonunchilikni rivojlantirish va davlatning harbiy tuzilmalarda qonun ustuvorligini mustahkamlashga ko‘maklashish orqali harbiy xizmatchilarning huquqiy himoyasini huquqiy asoslarini takomillashtirish.*

Vatan himoyasining huquqiy asoslari, mudofaa va harbiy xavfsizlik, davlat harbiy tashkilotining huquqiy holati, uning kadrlar bilan ta’minlanishi, harbiy xizmat va harbiy xizmatchilar (harbiy burchni bajarish va kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatga kirish, harbiy xizmat, harbiy xizmatchilarning maqomi, harbiy xizmatchilarni moddiy ta’minlash), qo‘shinlarda huquqni muhofaza qilish faoliyati, harbiy sudlar, harbiy prokuraturalarni tashkil etish va faoliyati, yuridik xizmat, harbiy muassasa va korxonalarning huquqiy holati, harbiy iqtisodiyotni boshqarish, intizom, qonuniylik va tartibni ta’minlash, xalqaro harbiy huquqning o‘rnak jihatlari va xorijiy davlatlarning harbiy huquqini qamrab oladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 2023-y.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Mudofaa to‘g‘risida”gi qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyev Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisidagi nutqi. 2022-yil
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga murojaatnomasi. 2025-yil 26-dekabr. // https://president.uz/oz/lists/view/8834
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-fevraldagi 140-sonli “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni.
7. https://kun.uz/news/Internet ma’lumotlari (Murojaat sanasi: 2026-yil 4-fevral)

# MA’MURIY JAVOBGARLIK INSTITUTI FAOLIYATINI YANGI BOSQICHGA OLIB CHIQISH DAVLAT USTUVOR YO‘NALISHI SIFATIDA

**G‘iyosov B.H.**
*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti, PhD*

Bugungi globallashuv sharoitida davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilish, fuqarolar manfaatlarini ishonchli himoya qilish va adolatli sud-huquq tizimini shakllantirish har bir taraqqiy etayotgan davlat uchun strategik ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar ham aynan shu maqsadlarga qaratilgan bo‘lib, ular jamiyatda qonun ustuvorligi, ochiqlik va shaffoflikni ta’minlashga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, ma’muriy javobgarlik instituti davlat boshqaruvi tizimida qonun ustuvorligini ta’minlash, ijro intizomini mustahkamlash va davlat xizmatchilari hamda mansabdor shaxslarning mas’uliyatini oshirishga xizmat qiluvchi muhim huquqiy mexanizm hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan belgilangan oltinchi ustuvor yo‘nalish – “*Ustuvor yo‘nalishimiz bo‘lgan zamonaviy davlat boshqaruvi va adolatli sud-huquq tizimi borasidagi islohotlarimizni davom ettirish”*[1] masalalari ma’muriy islohotlarni yangi bosqichga olib chiqishni taqozo etmoqda. Mazkur maqolada ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilinib, ularning ahamiyati va istiqbollari yoritiladi. Bu borada Sh.M.Mirziyoyevning “Biz odil sudlov jarayonini “raqamli sud” konsepsiyasi asosida tashkil etishni boshladik. Endi tergovni ham raqamlashtirish orqali inson huquqlari himoyasini kuchaytiramiz. Bunda jinoyat haqidagi arizani qabul qilishdan boshlab, ishni sudga o‘tkazishgacha bo‘lgan bosqichlarga sun’iy intellekt texnologiyalari joriy etiladi va inson omili qisqartiriladi. Yurtimizda tergov sudyalari ish boshlagani – xalqaro tan olingan “Xabeas korpus” institutini qo‘llashning navbatdagi muhim bosqichi bo‘ldi. 2026 yildan tergov sudyalariga sanksiya va majburlov choralarini o‘zgartirish hamda bekor

qilish vakolatlarini ham beramiz. Odil sudlovni amalga oshirishda jamoatchilik ishtiroki va rolini oshirib boramiz”,[2] deya ta’kidlagani mazkur masalaning naqadar muhim ekanligidan dalolat beradi.

Jumladan, Konstitusiyamizning 3-bobi *Konstitusiya va qonunning ustunligi* masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, unga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va qonunlarining ustunligi so‘zsiz tan olinadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi.[3]

Aytish mumkinki, zamonaviy davlat boshqaruvining eng muhim mezonlaridan biri – raqamlashtirish jarayonlarining samarali yo‘lga qo‘yilganidir. Prezident nutqida ta’kidlanganidek, 2026 yildan boshlab Elektron hukumat platformasining tubdan yangilanishi davlat boshqaruvida mutlaqo yangi sifat bosqichini boshlab beradi. Bu orqali yagona raqamli platforma doirasida mingdan ortiq davlat xizmatlari, minglab funksiya va vakolatlar, shuningdek, yuzlab ma’lumot bazalarining integratsiya qilinishi idoralararo hamkorlikni kuchaytiradi. Bu esa davlat xizmatlarini ko‘rsatishda takrorlanish, ortiqcha hujjatbozlik va byurokratik to‘siqlarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

*Sud-huquq tizimini raqamlashtirish va inson huquqlarini himoya qilish jamiyatda* adolatli sud-huquq tizimini yuritishning asosiy ustuni hisoblanadi. “Raqamli sud” konsepsiyasining joriy etilishi sud ishlarini shaffof va xolis yuritish imkonini beradi. Tergov jarayonlarini raqamlashtirish orqali inson huquqlarini himoya qilish darajasi yangi bosqichga ko‘tariladi. Jumladan, *tergov sudyalari* institutining rivojlantirilishi, ularga sanksiya va majburlov choralarini bekor qilish vakolatlarining berilishi “xabeas korpus” institutining amalda to‘liq ishlashini ta’minlaydi. Shuningdek, jinoyat protsessiga xalq vakillari hay’ati institutini joriy etish sud qarorlarining adolatli va jamoatchilik ishonchiga sazovor bo‘lishiga xizmat qiladi.

Aslini olganda, ma’muriy islohotlar doirasida davlat xizmatlarini proaktiv va jamlanma shaklda ko‘rsatish tizimining joriy etilishi ma’muriy javobgarlikning profilaktik funksiyasini kuchaytiradi.[4] Chunki davlat

idoralarining vazifalari, ijrochilari va muddatlari aniq belgilangan holda raqamli platformalarda aks ettirilishi natijasida mansabdor shaxslarning sustkashligi, xizmat vazifalarini lozim darajada bajarmasligi yoki fuqarolarning huquqlarini buzishi tezkor aniqlanadi. Bunday holatlarda ma’muriy javobgarlik choralarini qo‘llash davlat xizmatchilari faoliyatida mas’uliyatni oshirishga xizmat qiladi. Mazkur yo‘nalishning yuqori “richagi” parlament nazoratini kuchaytirish bo‘lib, bu masalaga alohida e’tibor qaratilgani ham ma’muriy javobgarlik instituti bilan bevosita bog‘liqdir. Deputat so‘rovlari ijrosi bo‘yicha sustkashlikka yo‘l qo‘ygan mansabdor shaxslarga nisbatan prokuratura organlariga taqdimnoma kiritilishi ma’muriy-huquqiy ta’sir choralarining ta’sirchanligini oshiradi.[5] Bu esa, ma’muriy javobgarlikni davlat boshqaruvida nazorat va hisobdorlik mexanizmi sifatida mustahkamlaydi.

Mazkur yo‘nalshdagi asosiy masalalardan yana biri ma’muriy huquqbuzarliklarda ijtimoiy reabilitatsiya qilish bo‘lib, bu huquqbuzarliklar profilaktikasi va jamiyat barqarorligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadigan kompleks ijtimoiy-huquqiy institut hisoblanadi. Ushbu jarayon huquqbuzarlikdan jabrlangan shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini tiklash, ularning ruhiy barqarorligini ta’minlash hamda jamiyatga qayta integratsiya qilinishiga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini o‘z ichiga oladi. Ayniqsa, zo‘ravonlik, tazyiq va tahdidlardan jabrlangan shaxslar uchun ijtimoiy reabilitatsiya qilish davlat va jamiyat zimmasiga yuklatilgan ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Ijtimoiy reabilitatsiyaning[6] mazmuni faqatgina bir yo‘nalishdagi yordam bilan cheklanib qolmaydi. U huquqiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy va pedagogik yordam ko‘rsatishni o‘z ichiga olgan holda kompleks xarakterga ega bo‘ladi. Masalan, jabrlanuvchi shaxslarga huquqiy maslahatlar berish, ularning buzilgan huquqlarini tiklashga ko‘maklashish, psixologik reabilitatsiya orqali stress va travmatik holatlarni bartaraf etish, tibbiy yordam ko‘rsatish hamda ijtimoiy xizmatlar bilan ta’minlash ushbu tizimning ajralmas qismidir. Shu bilan birga, ijtimoiy reabilitatsiya qilish huquqbuzarlik sodir etgan yoki sodir etishga moyil bo‘lgan shaxslarga nisbatan ham qo‘llaniladi. Bunda asosiy maqsad jazolash emas, balki

shaxsning ijtimoiy xulq-atvorini tuzatish, unda jamiyatda qabul qilingan normalar va qoidalarga hurmat ruhini shakllantirishdan iborat. Bu jarayonda pedagogik usullar, psixologik korreksiya dasturlari, kasbiy yo‘naltirish va mehnatga jalb qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu ma’noda, ma’muriy javobgarlik tizimi davlat va jamiyat o‘rtasidagi huquqiy muvozanatni ta’minlovchi, fuqarolar huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qiluvchi hamda islohotlar samaradorligini kafolatlovchi muhim institutga aylanadi. Ushbu institutni izchil takomillashtirish esa O‘zbekistonda demokratik, ochiq va adolatli davlat boshqaruvi tizimini barpo etishning ustuvor sharti hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, Prezident nutqida belgilangan ma’muriy islohotlarning mazmun-mohiyati ma’muriy javobgarlik institutining takomillashtirilishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Davlat boshqaruvini raqamlashtirish, parlament va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, korrupsiyaga qarshi qat’iy kurashish orqali ma’muriy javobgarlik tizimi davlat va jamiyat o‘rtasidagi huquqiy muvozanatni ta’minlovchi samarali vositaga aylanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Prezident Murojaatnomasi: yangi O‘zbekiston islohotlarining hujjatli xronikasi va tarixiy xotirasi. 26.12.2025 // https://gov.uz/oz/archive/news/view/114712
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 26.12.2025 // https://president.uz/uz/lists/view/8834
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. 15-modda // https://lex.uz/docs/6445145
4. H.T.Jo‘rayev “Ma’muriy jazo choralarini qo‘llash faoliyatini takomillashtirishdagi islohotlar jarima jazo turi misolida”. Volume 2, Issue 1, January 2025. 215-bet
5. D.Ravshanbekov Deputatlik so‘rovi — xalq ovozi va davlat mas’uliyati o‘rtasidagi ko‘prik. 31.01.2026 // https://uza.uz/uz/posts
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirish, shuningdek, oilaviy-maishiy zo‘rlik ishlatishning

oldini olish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3827-son Qarori // https://lex.uz/uz/docs/3804821

## MILLIY GVARDIYANING JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDAGI HUQUQIY-TASHKILIY ASOSLARINING UMUMIY TAVSIFI

**Xo‘jamberdiyev F.K.**
*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Jinoiy-huquqiy fanlar kafedrasi dotsenti, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori*

Milliy gvardiyaning jamoat xavfsizligini ta’minlashdagi huquqiy asoslarining umumiy tavsifi davlatning huquqiy tizimida muhim o‘rin tutadi. Ushbu masalada asosiy e’tibor Milliy gvardiyaning jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi huquqiy asoslarini yoritishga qaratilib, tadqiqotning yo‘nalishi avvalo O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligining ierarxik tizimini ochib berish va unda Milliy gvardiyaning o‘rni hamda vakolatlarini belgilab beruvchi normalarning izchilligini aniqlashga qaratiladi. Bu borada “O‘zbekiston Respublikasining Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonun asosiy manba sifatida xizmat qiladi. Mazkur Qonunning 6-moddasida qonunchilik tizimini tashkil etuvchi hujjatlar turkumlari aniq belgilangan bo‘lib, ular jumlasiga O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, vazirliklar va idoralar tomonidan qabul qilinadigan buyruqlar hamda qarorlar, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari kiradi. Shuningdek, ushbu Qonunning 7-moddasida normativ-huquqiy hujjatlar qonunchilik hujjatlari sifatida mamlakat qonunchiligini tashkil etishi, Konstitutsiya, qonunlar va Oliy Majlis palatalarining qarorlari esa qonun hujjatlari maqomiga ega ekani belgilangan.

Ushbu normalardan kelib chiqib, Milliy gvardiyaning jamoat xavfsizligini ta’minlashdagi huquqiy asoslari ierarxik izchillikda namoyon bo‘ladi: Konstitutsiya inson huquqlari va erkinliklari, xavfsizlikka oid umumiy prinsiplarni belgilaydi; qonunlar, jumladan “O‘zbekiston

Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi Qonun[1] Milliy gvardiyaning maqomi, vazifalari va funksiyalarini huquqiy jihatdan mustahkamlaydi; Prezident farmonlari va qarorlari Milliy gvardiyaning tashkiliy-huquqiy asoslarini belgilaydi; Vazirlar Mahkamasi qarorlari hamda idoraviy buyruqlar amaliyotda qo‘llaniladigan huquqiy qoidalarni tartibga soladi; mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlari esa Milliy gvardiya faoliyatining hududiy darajada muvofiqlashtirilishini ta’minlaydi. Shu tariqa, Milliy gvardiyaning jamoat xavfsizligini ta’minlashdagi huquqiy asoslari O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik tizimining tarkibiy qismi bo‘lib, ularning izchil amal qilishi davlat xavfsizligi hamda fuqarolar tinchligini muhofaza qilishning huquqiy kafolatini ta’minlaydi.

Bu borada X.M. Olimjonovning ta’kidlashicha, O‘zbekiston Respublikasining jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida olib borilayotgan islohotlar nafaqat harbiy tizimning tashkiliy tuzilmasini yangilash, balki xavfsizlikni ta’minlovchi institutlarning huquqiy maqomini mustahkamlashga ham qaratilgan bo‘lib, bu esa Konstitutsiyada belgilangan tamoyillarning amaliyotda ro‘yobga chiqarilishini taqozo etadi. Olimning fikriga ko‘ra, xalqaro terrorizm, ekstremizm va qurolli to‘qnashuvlar xavf-xatarlarining ortib borishi sharoitida davlatning jamoat xavfsizligini kafolatlashdagi roli yanada kuchayadi, shu sababli Milliy gvardiya faoliyatining normativ-huquqiy asoslarini doimo takomillashtirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda[2].

Shu nuqtai nazardan, huquqiy tartibga solish tizimining izchil rivoji fuqarolar xavfsizligi, davlat suvereniteti va jamiyat barqarorligi uchun konstitutsiyaviy kafolatni mustahkamlaydi. Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarining huquqiy himoyasini kuchaytirish esa Konstitutsiyada belgilangan xavfsizlik tamoyillarini hayotga tadbiq etishning amaliy ifodasidir. Bu jihat Milliy gvardiyaning zamonaviy xavf-xatarlar davrida jamoat xavfsizligini ta’minlashdagi o‘rnini strategik darajada oshiradi.

Yuqorida keltirilgan qonunchilik tizimi va unda Milliy gvardiyaning o‘rnini belgilab beruvchi normativ-huquqiy asoslar davlat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan keng qamrovli huquqiy mexanizmning poydevorini tashkil etadi. Shu nuqtayi nazardan, mazkur tizimning eng yuqori pog‘onasida turuvchi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Milliy

gvardiyaning jamoat xavfsizligi sohasidagi faoliyati uchun fundamental huquqiy asos vazifasini bajaradi. Zero, konstitutsiyaviy normalar nafaqat Milliy gvardiyaning vakolatlari va funksional yo‘nalishlarining umumiy chegaralarini belgilaydi, balki inson huquq va erkinliklarini himoya qilish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha chora-tadbirlarning legitimligini ta’minlaydi. Shunday ekan, Milliy gvardiya faoliyatining mazmunini chuqur va to‘laqonli anglash, avvalo, Konstitutsiyada mustahkamlangan jamoat xavfsizligiga oid prinsiplarga ilmiy-huquqiy tahlil olib borishni taqozo etadi.

Konstitutsiyaning 21-moddasi mazmunidan kelib chiqadiki, inson huquq va erkinliklari davlat tomonidan daxlsiz deb e’tirof etiladi va ularning cheklanishi faqatgina jamoat xavfsizligi hamda jamoat tartibini ta’minlash zarurati mavjud bo‘lgan holatlarda, qonunda belgilangan tartibda hamda proportsionallik tamoyiliga qat’iy rioya qilingan holda amalga oshirilishi mumkin. Ushbu norma bir tomondan, inson huquqlari ustuvorligini kafolatlas ekan, ikkinchi tomondan, jamoat xavfsizligini davlat siyosatining konstitutsiyaviy ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etadi. Binobarin, jamoat xavfsizligi manfaatlarini ta’minlash huquq va erkinliklarni cheklashning legitim asoslaridan biri sifatida konstitutsiyaviy darajada belgilangan.

Konstitutsiyaning 33-moddasi axborotga egalik qilish va uni erkin tarqatish huquqini demokratik jamiyat rivojining muhim omili sifatida e’tirof etadi. Shu bilan birga, ushbu huquqning amalga oshirilishi ham konstitutsiyaviy tuzum asoslari, jamoat xavfsizligi, jamoat tartibi, aholining sog‘lig‘i va ijtimoiy axloqni himoya qilish kabi ijtimoiy muhim qadriyatlar bilan muvofiqlashgan bo‘lishi lozimligi konstitutsiyaviy jihatdan belgilangan. Natijada, zararli, zo‘ravonlikni, ekstremizm va terrorchilikni targ‘ib qiluvchi ma’lumotlarning tarqalishiga qarshi davlat kafolatli huquqiy choralar ko‘rish vakolatiga ega bo‘ladi.

Konstitutsiya jamoat xavfsizligini ta’minlashning asosiy prinsipial asoslarini belgilab bergan bo‘lsa-da, mazkur sohaning o‘ziga xos dinamik va ko‘p qirrali tabiati sababli bir qator jihatlar konstitutsiyaviy darajada yetarlicha konkretlashtirilmagan. Bu holat keyingi normativ-huquqiy tartibga solish orqali to‘ldirilishi lozim bo‘lgan ayrim huquqiy bo‘shliqlarning mavjudligini ko‘rsatadi. Xususan,

Birinchidan, Konstitutsiyada qo‘llanilgan “zarur bo‘lgan doira” va “jamoat xavfsizligi manfaatlari” kabi kategoriyalar umumiy mazmunga ega bo‘lib, ularning huquqiy talqini hamda qo‘llash mezonlari asosan amaldagi qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyoti orqali izohlanadi. Bu esa, bir tomondan, moslashuvchanlikni ta’minlasa-da, ikkinchi tomondan, haddan ortiq cheklovlar qo‘llanilishiga imkon berishi mumkinligi bilan tavsiflanadi.

Ikkinchidan, zamonaviy xavfsizlik tahdidlari, jumladan axborot xavfsizligi, kiberjinoyatchilik va dezinformatsiyaga qarshi kurash kabi yo‘nalishlarga oid normalarning Konstitutsiyada bevosita mustahkamlan-maganligi ham e’tiborga molikdir. Bunday masalalar ko‘proq quyi darajadagi normativ-huquqiy hujjatlarda o‘z aksini topgan bo‘lib, bu esa global xavf-xatarlar tez o‘zgarayotgan sharoitda konstitutsiyaviy normalarning moslashuvchanlik darajasini cheklashi mumkin.

Uchinchidan, inson huquqlarini cheklash mexanizmining konstitutsiyaviy kafolatlari belgilanganiga qaramay, ushbu choralar qo‘llanilganda nazorat va hisobdorlikning institutsional mexanizmlari, xususan, parlament nazorati va sud hokimiyatining qonun ustuvorligini ta’minlashdagi roli aniq tartibga solinmagan.

T.P. Karimovning ta’kidlashicha, Konstitutsiyada mustahkamlangan qonun ustuvorligi, hokimiyatlar bo‘linishi hamda parlament nazorati mexanizmlarining takomillashtirilishi jamiyatda siyosiy barqarorlikni ta’minlash, davlat institutlari faoliyati ustidan samarali nazoratni yo‘lga qo‘yish orqali fuqarolarning xavfsiz hayot kechirishiga xizmat qiladi. Olimning fikricha, konstitutsiyaviy normalarning amaliyotda to‘liq amalga oshirilishi davlat va jamiyat xavfsizligining kafolatlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, xavf-xatarlarning o‘zgarayotgan sharoitida bu tizimni izchil rivojlantirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda[3].

Mazkur yondashuvdan ko‘rinib turibdiki, jamoat xavfsizligini ta’minlash vazifalari nafaqat tegishli organlarning operativ faoliyatini, balki davlat hokimiyatining samarali nazorat ostida bo‘lishi, huquqiy siyosatning izchilligi va fuqarolarning konstitutsiyaviy himoyasi kafolatlanishini ham o‘z ichiga oladi.

Natijada, jamoat xavfsizligini ta’minlashning ayrim yo‘nalishlarida normativ-huquqiy noaniqliklar, huquqni qo‘llash amaliyotiga haddan ziyod

tayanish zaruriyati hamda izoh talab qiluvchi masalalar saqlanib qolmoqda. Shu bois, konstitutsiyaviy normalarning to‘laqonli va samarali ishlashi, avvalo, alohida qonunlar, idoraviy hujjatlar, shuningdek, institutsional mexanizmlarning izchil takomillashtirib borilishiga bevosita bog‘liqdir.

Bu borada R.M. Djurayev ta’kidlaganidek, jamoat xavfsizligini ta’minlash konstitutsiyaviy tuzumning ajralmas tarkibiy elementi bo‘lib, ushbu sohadagi huquqiy kafolatlar O‘zbekiston Respublikasida huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishning asosiy sharti hisoblanadi. Olimning fikricha, Konstitutsiyada insonning hayoti, sha’ni, qadr-qimmati va erkinliklarini oliy qadriyat sifatida e’tirof etish jamoat xavfsizligi tizimini fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini ishonchli himoya qilishga yo‘naltirilgan holda takomillashtirish zaruratini belgilaydi. Shu ma’noda, Milliy gvardiya kabi maxsus institutlar faoliyati konstitutsiyaviy normalarning amaliy hayotga samarali joriy etilishini ta’minlovchi muhim mexanizm sifatida qaraladi[4].

Mazkur ilmiy yondashuv jamoat xavfsizligini ta’minlashning konstitutsiyaviy asoslarini tadqiq etish uchun muhim nazariy-metodologik poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Chunki R.M. Djurayev tomonidan belgilangan tamoyillar Milliy gvardiyaning funksional vazifalarini faqat tashkiliy choralar darajasida emas, balki fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini real himoya qilishga qaratilgan davlat siyosati sifatida talqin qilish imkonini beradi. Ushbu pozitsiya tadqiqotimizda ilgari surilayotgan asosiy g‘oyani — Milliy gvardiyaning jamiyat xavfsizligi tizimidagi o‘rni konstitutsiyaviy legitimlik va insonparvarlik tamoyillari bilan belgilanadi — degan xulosani ilmiy jihatdan qo‘llab-quvvatlaydi.

Shuningdek, zamonaviy xavfsizlik tahdidlari sharoitida huquqiy mexanizmlarni izchil takomillashtirish zarurligini asoslab berish orqali tadqiqot yo‘nalishining dolzarbligini oshiradi hamda Milliy gvardiya faoliyatining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini chuqurroq tahlil qilishga imkoniyat yaratadi.

Jamoat xavfsizligini ta’minlashning tashkiliy-huquqiy asoslarini o‘rganish doirasida O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining rolini zamonaviy huquqiy ta’limot va ommaviy boshqaruv nazariyasi nuqtai nazaridan konseptual tushunishni chuqur o‘rganish metodologik jihatdan

zarur hisoblanadi. 2024-2025-yillar sharoitida global miqyosda "politsiya harbiylashuvi" (policing militarization) deb ataladigan barqaror tendensiya kuzatilmoqda. Bu huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatiga harbiy sohadan taktik, texnik va tashkiliy jihatlarni keng joriy etishda, shuningdek, harbiy tuzilmalarni tinchlik davrida ichki xavfsizlik, jinoyatlarni oldini olish va jamiyatning muhim manfaatlarini himoya qilish vazifalariga jalb etishni nazarda tutuvchi "fuqarolashtirish" jarayonida namoyon bo‘lmoqda.

Ushbu kontekstda O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi an’anaviy kuch ishlatuvchi organ sifatida emas, balki zamonaviy murakkab jamiyatlarga xos bo‘lgan ichki va tashqi tahdidlarning uyg‘unlashuviga davlatning institutsional jihatdan shakllangan javobi sifatida qaralishi lozim. Bu yerda gap o‘z tabiatiga ko‘ra ichki ishlar organlari yurisdiksiyasining an’anaviy doirasiga sig‘maydigan, ammo muntazam qurolli kuchlarni qo‘llashni oqlaydigan darajaga yetib bormaydigan xavf-xatarlar haqida bormoqda. Mazkur hodisa davlatning funksional moslashuvchanligi doktrinasi doirasida nazariy jihatdan asoslanadi. Unga ko‘ra, ommaviy hokimiyat tizimi turli kuch va boshqaruv institutlari vakolatlarining tutashgan nuqtasida joylashgan tahdidlarni bartaraf etish uchun egiluvchan va tabaqalashtirilgan huquqiy mexanizmlarni shakllantiradi.

Ilmiy nuqtai nazardan Milliy gvardiya ichki ishlar organlari yoki Mudofaa vazirligiga nisbatan parallel yoki takrorlovchi tuzilma emasligini ta’kidlash muhim ahamiyatga ega. Aksincha, uning institutsional vazifasi huquqiy va boshqaruv maydonining ichki ishlar organlari resurslari, taktik yoki qonuniy vakolatlari obyektiv ravishda yetarli bo‘lmagan qismlarida (xususan, yuqori darajadagi inqirozli vaziyatlarda, ommaviy beqarorlashtiruvchi jarayonlarda, muhim infratuzilmaga tahdidlar paytida) yuzaga keladigan tarkibiy "xavfsizlik bo‘shlig‘ini" to‘ldirishdan iborat. Bunda muntazam qurolli kuchlardan foydalanish ham milliy qonunchilik normalari, ham davlatning xalqaro-huquqiy majburiyatlari, shu jumladan xalqaro gumanitar huquq va inson huquqlarini himoya qilish standartlari talablari bilan cheklangan.

Aynan shu oraliq, "chegaraviy" maydonda huquqni muhofaza qilish va harbiy harakat mantig‘i o‘rtasida Milliy gvardiyaning kengaytirilgan funksional harakatchanlikka ega bo‘lgan gibrid jamoat xavfsizligi

institutsional subyekti sifatidagi huquqiy maqomi shakllanadi. Ushbu harakatchanlik tinch huquqiy rejim doirasida va shaxsning konstitutsiyaviy huquq hamda erkinliklari ustuvorligini saqlab qolgan holda, kuch bilan majburlash elementlarini profilaktika, qo‘riqlash va muvofiqlashtirish-boshqaruv funksiyalari bilan uyg‘unlashtirish qobiliyatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining huquqiy tuzilishining asosini o‘ziga xos tamoyillar tizimi tashkil etadi. Bu tamoyillar nafaqat aniq me’yoriy ifodalanishni, balki zamonaviy davlat boshqaruvi va jamoat xavfsizligi nazariyasi doirasida doktrinal talqin qilinishini ham talab etadi. Metodologik nuqtai nazardan, ushbu masala E. Ostrom[5]ning tadqiqotlari bilan bog‘liq. U haqiqiy jamiyatlarda jamoat xavfsizligini ta’minlash jarayoni monosentrik vertikal tarzda emas, balki o‘zaro muvofiqlashtiriladigan qaror qabul qilish markazlarining politsentrik tizimi sifatida ishlashini ko‘rsatgan. Bunda samaradorlik vakolatlarning to‘g‘ri taqsimlanishi va muvofiqlashtirish mexanizmlariga bog‘liq bo‘ladi.

Milliy gvardiyani huquqiy asoslarini tashkil etuvchi tamoyillar tizimida funksional subsidiarlik tamoyili muhim o‘rin egallaydi. Bu tamoyil mazkur tuzilmani jamoat xavfsizligini ta’minlashga faqat boshqa subyektlar (asosan, ichki ishlar organlari) resurslari yetarli bo‘lmagan yoki tahdidlar kuchaygan (muhim infratuzilmani qo‘riqlash, terrorchilik harakatlariga qarshi kurashish, ommaviy tartibsizliklar jarayonlarini bartaraf etish) holatlarda maxsus harbiy vakolatlarni qo‘llashni talab qiladigan alohida vaziyatlardagina jalb etishni nazarda tutadi. Konstitutsiyaviy-huquqiy doktrina nuqtayi nazaridan, subsidiarlik vazifalarni shunchaki "texnik" taqsimlovchi emas, balki institutsional kengayishga qarshi huquqiy himoya vositasi hisoblanadi. U "kuchliroq" markazning aralashuv chegaralarini belgilaydi va ommaviy boshqaruvning me’yoriy tartibini haddan ziyod markazlashtirishdan himoya qiladi. Shu ma’noda, R. Shyutse[6]ning murakkab ko‘p pog‘onali davlat hokimiyati tizimlarida vakolatlar va mas’uliyat muvozanatining siyosiy-huquqiy mexanizmi sifatida subsidiarlik haqidagi tadqiqotlari e’tiborga molikdir.

Milliy gvardiya faoliyatining funksional subsidiarlik tamoyili bir vaqtning o‘zida davlat resurslarini oqilona taqsimlashning kafolati va

kundalik huquq-tartibotning harbiylashtirish sekinlashuv xavfining oldini olish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Zamonaviy kriminologiya va huquqni muhofaza qilish fanida bunday harbiylashtirish xavfini P.B. Kraska o‘rgangan bo‘lib, u huquqni muhofaza qilish organlari amaliyotidagi o‘zgarishlarni tahlil qilib, harbiy va huquqni muhofaza qilish organlari javob berish mantig‘i o‘rtasidagi chegaralarning yo‘qolishi kuch ishlatish me’yorlarining (jihozlar, taktika, til, tashkiliy madaniyat) oddiy holga aylanishiga olib kelishini ko‘rsatgan. Bu esa maxsus huquqiy cheklovlar va javobgarlik tartib-qoidalarini joriy etishni taqozo etadi.

Xulosa qilib aytganda, Milliy gvardiyaning jamoat xavfsizligini ta’minlashdagi huquqiy va konstitutsiyaviy asoslarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ushbu institutning faoliyati O‘zbekiston Respublikasida huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonlari bilan uzviy bog‘liqdir. Milliy gvardiya nafaqat kuch ishlatuvchi maxsus tuzilma sifatida, balki konstitutsiyaviy tamoyillar, inson huquq va erkinliklarining ustuvorligi, proportsionallik hamda subsidiarlik prinsiplari asosida faoliyat yurituvchi gibrid jamoat xavfsizligi subyekti sifatida namoyon bo‘ladi. Amaldagi normativ-huquqiy bazaning ierarxik izchilligi va institutsional muvofiqlashtirish mexanizmlarining mavjudligi Milliy gvardiya vakolatlarining legitimligi va samaradorligini ta’minlasa-da, zamonaviy xavf-xatarlarning murakkablashuvi huquqiy tartibga solishni doimiy ravishda takomillashtirib borishni talab etadi. Shu bois, Milliy gvardiya faoliyatining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini yanada aniqlashtirish, nazorat va hisobdorlik mexanizmlarini kuchaytirish hamda inson huquqlarini himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash jamoat xavfsizligini ta’minlashning barqaror va demokratik modelini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 18-noyabr kunidagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risidagi” O‘RQ-647- son Qonuni // lex.uz. (murojaat sanasi 22.08.2024-yil).

2. Olimjonov X.M. Jamoat xavfsizligini ta’minlashda Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarining huquqiy himoyasining nazariy asoslari // “Jamoat xavfsizligi” ilmiy-amaliy jurnali. – 2023. – Maxsus son. – B. 92–96.

3. Karimov T.P. Konstitutsiya – parlament nazoratining huquqiy asosi // “Jamoat xavfsizligi” ilmiy-amaliy jurnali. – 2023. – Maxsus son. – B. 8–13.

4. Джураев Р. М. Гарантии защиты конституционных прав и свобод человека в обеспечении общественной безопасности // Jamoat xavfsizligi: ilmiy-amaliy jurnal. – 2024. – Maxsus son (декабр). – С. 3–6. – ISSN 3030-3230.

5. Ostrom E. Beyond Markets and States: Polycentric Governance of Complex Economic Systems // American Economic Review. – 2010. – Vol. 100. – No. 3. – P. 641–672. – Available at: https://www.aeaweb.org/articles?id=10.1257/aer.100.3.641 (accessed: 10.03.2025).

6. Masterman R, Schütze R, eds. The Cambridge Companion to Comparative Constitutional Law. Cambridge University Press; 2019. DOI: https://doi.org/10.1017/9781316716731 (accessed: 10.01.2026).

## MILLIY GVARDIYANING JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDAGI GIBRID INSTITUTSIONAL MODELI: FUNKSIONAL SUBSIDIARLIK VA POLISENTRIK BOSHQARUVNING HUQUQIY ASOSLARI

**Xo‘jamberdiyev F.K.**
*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Jinoiy-huquqiy fanlar kafedrasi dotsenti, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori*

**G‘iyosov B.H.**
*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti, PhD*

Milliy gvardiyani huquqiy asoslarini tashkil etuvchi tamoyillar tizimida funksional subsidiarlik tamoyili muhim o‘rin egallaydi. Bu tamoyil mazkur tuzilmani jamoat xavfsizligini ta’minlashga faqat boshqa subyektlar (asosan, ichki ishlar organlari) resurslari yetarli bo‘lmagan yoki tahdidlar kuchaygan (muhim infratuzilmani qo‘riqlash, terrorchilik harakatlariga qarshi kurashish, ommaviy tartibsizliklar jarayonlarini bartaraf etish) holatlarda maxsus harbiy vakolatlarni qo‘llashni talab qiladigan alohida vaziyatlardagina jalb etishni nazarda tutadi. Konstitutsiyaviy-huquqiy doktrina nuqtayi nazaridan, subsidiarlik vazifalarni shunchaki "texnik" taqsimlovchi emas, balki

institutsional kengayishga qarshi huquqiy himoya vositasi hisoblanadi. U "kuchliroq" markazning aralashuv chegaralarini belgilaydi va ommaviy boshqaruvning me’yoriy tartibini haddan ziyod markazlashtirishdan himoya qiladi. Shu ma’noda, R. Shyutse[1]ning murakkab ko‘p pog‘onali davlat hokimiyati tizimlarida vakolatlar va mas’uliyat muvozanatining siyosiy-huquqiy mexanizmi sifatida subsidiarlik haqidagi tadqiqotlari e’tiborga molikdir.

Milliy gvardiya faoliyatining funksional subsidiarlik tamoyili bir vaqtning o‘zida davlat resurslarini oqilona taqsimlashning kafolati va kundalik huquq-tartibotning harbiylashtirish sekinlashuv xavfining oldini olish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Zamonaviy kriminologiya va huquqni muhofaza qilish fanida bunday harbiylashtirish xavfini P.B. Kraska o‘rgangan bo‘lib, u huquqni muhofaza qilish organlari amaliyotidagi o‘zgarishlarni tahlil qilib, harbiy va huquqni muhofaza qilish organlari javob berish mantig‘i o‘rtasidagi chegaralarning yo‘qolishi kuch ishlatish me’yorlarining (jihozlar, taktika, til, tashkiliy madaniyat) oddiy holga aylanishiga olib kelishini ko‘rsatgan[2]. Bu esa maxsus huquqiy cheklovlar va javobgarlik tartib-qoidalarini joriy etishni taqozo etadi.

Shu bilan birga, ko‘p subyektli boshqaruv muhitida yakkaboshchilik huquqiy tuzilmasi alohida ilmiy-amaliy qiziqish uyg‘otmoqda. Bu tuzilma Milliy gvardiyaning O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga Oliy Bosh Qo‘mondon sifatida bevosita bo‘ysunishida namoyon bo‘lgan. Polisentrik boshqaruv nazariyasi (Ostrom va M. Makginnis[3]ning tadqiqotlari) shuni aniqlashtirmoqdaki, yakkaboshchilik strategik markaz sifatida mavjud bo‘lishi mumkin, biroq u xavfsizlik sohasidagi ko‘plab ishtirokchilar (politsiya, mahalliy ijro hokimiyati, infratuzilma operatorlari, jamoatchilik nazorati institutlari) o‘rtasida kelishuv va axborot almashish tartib-qoidalari bilan uyg‘unlashgan bo‘lishi shart. Aks holda, monosentrik yondashuv vazifalar bo‘yicha ziddiyatlar va mas’uliyat uzilishlarini keltirib chiqarishi mumkin.

Shu ma’noda, O‘zbekistonda xavfsizlikni boshqarishning vertikal tizimi "Prezident - Milliy gvardiya - mahalla" zanjiri orqali amalga oshirilayotgani muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu profilaktik mexanizmlarga

mahalliy tus bermoqda. Biroq, bu yerda ham doktrina quyi bo‘g‘inning ikki tomonlama xususiyatini ko‘rsatadi: mahalla bir vaqtning o‘zida ijtimoiy monitoring kanali va fuqarolarning o‘zini o‘zi tashkil etish instituti hisoblanadi. Bu esa o‘ta aniq huquqiy tartibga solishni talab etadi.

Bundan tashqari, R. O‘rinboyev o‘zining tadqiqotlarida huquqiy aralashuvlar mahallani rasmiy va norasmiy amaliyotlar uyg‘unlashgan gibrid institutga aylantirganini ta’kidlaydi[4]. Bu esa mahallani davlatning oldini olish funksiyalarini amalga oshirishda muhim "tugun" darajasiga ko‘targani, ayni paytda shaffoflik va hisobdorlikning huquqiy standartlariga qo‘yiladigan talablarni ham oshirganini ko‘rsatib o‘tadi.

Qiyosiy-huquqiy jihatdan, institutning "jandarmeriya" (gibrid) turi haqidagi g‘oya K. Emslining tarixiy-institutsional tahlili orqali yanada asoslanadi. U Yevropadagi "askar-politsiyachi" an’anasini o‘rganib, jandarmeriya modellarining aynan ichki inqirozlar va jamoat tartibini saqlash vaziyatlarida politsiya va armiya o‘rtasidagi funksional bo‘shliqni to‘ldirish uchun davlat vositasi sifatida shakllanganligini ko‘rsatib bergan[5]. Bu tahlil natijasida, jandarmeriya tizimlarining davlat tomonidan ichki tanglik holatlarida va tartib-intizomni saqlash vazifalarida huquqni muhofaza qiluvchi organlar va armiya o‘rtasidagi funksional farqni bartaraf etish vositasi sifatida yaratilganligi yaqqol namoyon bo‘ladi.

Politsiyaning umumiy nazariyasi darajasida D.Beyli shunga o‘xshash fikrni rivojlantiradi. U jamoat xavfsizligining samaradorligini ichki tartib institutlarining to‘g‘ri tuzilishi bilan bog‘laydi. Shuningdek, u tahdidlar murakkablashganda va nafaqat davlat, balki nodavlat tartibni saqlash subyektlarining ahamiyati oshganda, davlat yangi tashkiliy shakllarni izlashga majbur bo‘lishini ta’kidlaydi[6].

Binobarin, 2024-2025-yillarda Milliy gvardiyani jamoat xavfsizligining gibrid institutsional subyekti sifatida nazariy jihatdan qayta ko‘rib chiqish dolzarbligi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

xavfsizlikni boshqarishning zamonaviy ilmi (politsentrilik, subsidiarlik) vazifalarni va muvofiqlashtirish jarayonlarini qonuniy tarzda taqsimlashni talab etmoqda;

politsiyani harbiylashtirish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar kundalik huquq-tartibotni saqlashda harbiy uslublarning me’yoriy chegaralarini belgilash zarurligini ko‘rsatmoqda;

mahallaning gibrid institut sifatidagi tahlili quyi ijtimoiy nazorat huquqiy kafolatlar tizimiga kiritilishi lozimligini tasdiqlaydi;

jandarmeriya modellarining qiyosiy tahlili shuni namoyish etadiki, bunday institutlar faqat markazlashtirilgan boshqaruv va gorizontal idoralararo hamkorlik o‘rtasidagi muvozanatni aniq huquqiy tartibga solish orqaligina samarali faoliyat yurita oladi.

Yuqorida bayon etilgan boshqaruvning polisentrikligi (ko‘p markazliligi) va vakolatlarning subsidiarligi haqidagi doktrinal qoidalar kuch ishlatish tizimi faoliyatining me’yoriy asoslariga yangicha qarash imkonini beradi. Nazariy model davlat ta’sirining moslashuvchanligini ta’minlash uchun "gibridlik" zarurligini asoslasa-da, bu g‘oyani amalda joriy etish mukammal yuridik texnika va qat’iy konstitutsiyaviy bog‘liqlikni talab qiladi. O‘zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlarining amaldagi iyerarxiyasini aynan kuch ishlatish samaradorligi va huquqiy kafolatlarning mustahkamligi o‘rtasidagi muvozanat nuqtai nazaridan tahlil qilish lozim.

Shu munosabat bilan "gibrid aktor"ning umumiy tamoyillarini tahlil qilishdan ushbu tushunchalarning milliy qonunchilikka qay tarzda singdirilganligini batafsil ko‘rib chiqishga o‘tish metodologik jihatdan o‘zini oqlaydi. Bu yerda oliy konstitutsiyaviy qadriyatlarning idoraning funksional qiyofasini belgilovchi sohaviy normalar bilan uyg‘unlashuvi asosiy yo‘nalish sifatida namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib, jamoat xavfsizligini boshqarishga zamonaviy ilmiy yondashuvlarning tizimli tahlili kuch ishlatuvchi institutlarning gibridligi ikkilamchi tashkiliy xususiyat emas, balki tahdidlarning murakkablashuvi, boshqaruvning ko‘p bosqichliligi va xavfsizlik subyektlarining xilma-xilligi sharoitida shakllangan zamonaviy ommaviy boshqaruv modellarining ajralmas xususiyati ekanligini ta’kidlash imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, N. Bagayokning tadqiqotlari xavfsizlikning gibrid institutlari rasmiy-huquqiy tartibga soluvchilar va barqaror norasmiy boshqaruv amaliyotlarining tarkibiy chatishuvi natijasida yuzaga kelishini nazariy

jihatdan asoslab beradi[7]. Bunda ularning me’yoriy institutlashuvining yo‘qligi muqarrar ravishda jamoatchilik mas’uliyatining sustlashuviga, boshqaruv qarorlarining shaffofligini pasayishiga va hisobdorlik tamoyilining buzilishiga olib keladi. Shunday qilib, gibridlik faqatgina konstitutsiyaviy ruxsat etilgan chegaralar doirasida aniq huquqiy shakllantirilgan taqdirdagina barqarorlashtiruvchi va moslashuvchan vazifani bajara olishi to‘g‘risidagi xulosa o‘z tasdig‘ini topadi.

Ushbu g‘oyaning rivojlanishi sifatida B. Bredford va J. Jeksonning asarlari huquq-tartibotni ta’minlovchi organlarning institutsional samaradorligini faqat vositaviy tushunishning cheklanganligini ko‘rsatib beradi. Mualliflar ishonchli tarzda isbotlaydiki, kuch salohiyati va operativ imkoniyatlarning kengayishi jamoat xavfsizligi barqarorligini kafolatlamasdan qolmay, balki qonuniylik va jamoatchilik ishonchi yo‘qolganda, harbiylashtirilgan amaliyotlarning o‘rnini qoplash maqsadida kuchayishiga olib keladi[8]. Shu nuqtai nazardan, ularning qarashi huquq-tartibotni kundalik qo‘riqlashni harbiylashtirishni me’yoriy cheklash zarurligi haqidagi xulosani uslubiy jihatdan mustahkamlaydi. Shuningdek, xavfsizlikning gibrid modellari samaradorligi huquqiy noaniqlik va aniq belgilangan institutsional chegaralarning yo‘qligi bilan mutlaqo mos kelmasligini tasdiqlaydi.

Milliy modelni tahlil qilishda M. Shamsiyevaning ilmiy qarashi alohida ahamiyat kasb etadi. U O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining institutsional rivojlanishini harbiylashtirilgan tuzilmadan mustaqil davlat hokimiyati organiga aylanishining maqsadli va bosqichma-bosqich huquqiy o‘zgarishi natijasi sifatida ko‘rib chiqadi. Muallif asosli ravishda ta’kidlaydiki, Milliy gvardiyaning jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi vakolatlarining kengayishi uning maqomini qonuniy jihatdan aniq belgilash hamda ichki ishlar organlari va xavfsizlik tizimining boshqa subyektlari bilan vakolatlarini aniq chegaralash talablarini tabiiy ravishda oshiradi[9]. Aks holda, vazifalarning takrorlanishi, javobgarlikning yo‘qolishi va jamoat xavfsizligini boshqarish tizimining parchalanishi xavfi yuzaga keladi.

Ushbu tahlilning metodologik asosini L.R.Loznaning qarashi to‘ldiradi. Uning fikricha, boshqaruvning ko‘p markazliligi bir nechta qaror qabul qilish

markazlari o‘rtasida hokimiyat, vazifalar va mas’uliyatni taqsimlashning me’yoriy jihatdan asoslangan strategiyasidir. Shu bilan birga, muallif institutlararo ziddiyatlarni muvofiqlashtirish, kelishish va hal etishning qonuniy tartib-qoidalarisiz ko‘p markazlilik boshqaruv samaradorligini yo‘qotib, tartibsizlik manbaiga aylanishini ta’kidlaydi[10]. Ushbu xulosa Milliy gvardiya faoliyatida markazlashgan boshqaruv va gorizontal idoralararo hamkorlik o‘rtasidagi muvozanatni huquqiy jihatdan tartibga solish zarurati bilan bevosita bog‘liqdir.

Nihoyat, A. Malik va J. Bergning politsiya bilimi chegaralari va kuch ishlatuvchi tuzilmalarning epistemik monopoliyasi to‘g‘risidagi konseptual qoidalari xavfsizlikning gibrid modellarining institutsional mohiyatini chuqurroq anglashga yo‘l ochadi. Mualliflar polisentrik boshqaruv kasbiy-idoraviy bilimning cheklanganligini tan olishni va ekspertizaning plyuralistik shakllarini, jumladan mahalliy hamjamiyatlar va idoralararo hamkorlarning ishtirokini institutsionallashtirish zarurligini asosli ravishda isbotlab beradilar. Bunday epistemik muvozanatning huquqiy mexanizmlari bo‘lmaganda, gibrid tuzilmalar markazsizlashtirishning rasmiy niqobi ostida politsiyaga yo‘naltirilgan iyerarxiyalarni qayta ishlab chiqaradi, bu esa ularning moslashuvchan va demokratik salohiyatini yo‘qqa chiqaradi.

Taqdim etilgan doktrinal nuqtai nazarlar so‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasini jamoat xavfsizligining gibrid institutsional subyekti sifatida huquqiy jihatdan qayta ko‘rib chiqish nafaqat tahdidlar xususiyatining o‘zgarishi va funksional vazifalarning kengayishi, balki, eng avvalo, me’yoriy izchillik, konstitutsiyaviy qonuniylik va institutsional javobgarlikni ta’minlash zarurati bilan bog‘liq, degan xulosaga kelish imkonini beradi. Aynan polisentriklik, subsidiarlik va shaxsning huquqiy kafolatlari tamoyillarining yuridik integratsiyasi darajasi jamoat xavfsizligi milliy modelining barqarorligi uchun asosiy mezon bo‘lib xizmat qiladi. Bu esa metodologik jihatdan Milliy gvardiyaning maqomi, vakolatlari va faoliyat shakllarini tartibga soluvchi O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligini batafsil tahlil qilishga o‘tishni taqozo etadi.

Yuqorida bayon etilgan doktrinal yondashuvlar va qiyosiy-huquqiy xulosalar Milliy gvardiyaning jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimidagi

o‘rni va funksional tabiatini nazariy jihatdan asoslab bergan holda, mazkur institut faoliyatining huquqiy mustahkamligi va legitimligini ta’minlash masalasini kun tartibiga olib chiqadi. Chunki polisentriklik, subsidiarlik va gibridlik kabi zamonaviy boshqaruv tamoyillari o‘z-o‘zidan samaradorlik kafolati bo‘la olmaydi; ular faqat konstitutsiyaviy normalar bilan uyg‘unlashgan, aniq vakolatlar taqsimoti va huquqiy javobgarlik mexanizmlari bilan mustahkamlangan taqdirdagina real institut-sional qiymat kasb etadi. Shu bois Milliy gvardiyani gibrid institutsional subyekt sifatida nazariy qayta talqin qilish uning faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy asoslarni chuqur va tizimli tahlil qilishni Obyektiv zaruratga aylantiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Masterman R, Schütze R, eds. The Cambridge Companion to Comparative Constitutional Law. Cambridge University Press; 2019. DOI: https://doi.org/10.1017/9781316716731 (accessed: 10.01.2026).

2. Peter B. Kraska, Militarization and Policing—Its Relevance to 21st Century Police, Policing: A Journal of Policy and Practice, Volume 1, Issue 4, 2007, Pages 501–513, https://doi.org/10.1093/police/pam065 (accessed: 10.03.2025).

3. Reflections on Vincent Ostrom, Public Administration, and Polycentricity // *Public Administration Review*. – 2012. – Vol. 72. – No. 1. – P. 15–25. – Available at: https://onlinelibrary.wiley.com/ doi/10.1111/ j.1540-6210.2011.02488.x (accessed: 10.03.2025).

4. Rustamjon Urinboyev & Sherzod Eraliev (2022): Informal civil society initiatives in non-Western societies: mahallas in Uzbekistan, Central Asian Survey, DOI: 10.1080/02634937.2022.2058915 Available at: https://doi.org/10.1080/02634937.2022.2058915 (accessed: 10.03.2025).

5. Emsley C. Gendarmes and the State in Nineteenth-Century Europe. – Oxford: Oxford University Press, 1999. – 288 p. – Available at: https://global.oup.com/academic/product/gendarmes-and-the-state-in-nineteenth-century-europe-9780198207986 (accessed: 10.03.2025).

6. Bayley D.H. Police for the Future. – New York: Oxford University Press, 1994. – 224 p. – Available at: https://global.oup.com/

academic/search?q=Bayley+D.H.+Police+for+the+Future.&cc=uz&lang=en (accessed: 10.03.2025).

7. Niagale Bagayoko, Eboe Hutchful & Robin Luckham (2016) Hybrid security governance in Africa: rethinking the foundations of security, justice and legitimate public authority, Conflict, Security & Development, 16:1, 1-32, DOI: 10.1080/14678802.2016.1136137. URL: http://dx.doi.org/10.1080/14678802.2016.1136137 (дата обращения: 11.01.2026 г.)

8. Bradford, Ben and Jackson, Jonathan (2024) Trust in the police: what is to be done? Political Quarterly. ISSN 0032-3179 URL: http://eprints.lse.ac.uk/id/eprint/123524 (дата обращения: 11.01.2026 г.)

9. Shamsieva, M. Evolution of the Uzbek National Guard: From Paramilitary Origins to an Independent Ministry. International Journal of Contemporary Sciences (IJCS) Vol. 2, No. 3, 2024: 143-152 URL: https://journal.formosapublisher.org/index.php/ijcs/article/download/8556/8440/31082

10. Lozny, L. R. Polycentric Governance as a Practical Strategy for Balanced Policing: A Cross-Cultural Analysis. Social Evolution & History, Vol. 22 No. 2, September 2023, pp. 249–284. DOI: 10.30884/seh/2023.02.10.

# INSON KAPITALI YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIY TARAQQIYOTINING STRATEGIK OMILLARI

**Usmonov Sh.Sh.**
*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, "Iqtisodiy fanlar" kafedrasi katta o'qituvchisi i.f.f.d. (Phd)*

**Orziqulov J.J.**
*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, "Iqtisodiy xavfsizlik" ta'lim yo'nalishi 4-bosqich kursanti*

Bugungi globallashuv sharoitida mamlakat iqtisodiy qudrati nafaqat tabiiy resurslar yoki sanoat hajmi bilan, balki inson kapitali sifati, xalqaro nufuzi va global hamkorlikdagi o‘rni bilan belgilanmoqda. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekistonning so‘nggi yillarda sport, ta’lim, ilm-fan va xalqaro maydondagi yutuqlari iqtisodiy rivojlanishning muhim strategik omiliga aylanib bormoqda. Mamlakatimiz raxbari xalqimizga va Oliy Majlisga yo'llagan murojaatnomasi haqiqiy manoda iqtisodiyotimizning hozirda rivojlangan mamlakatlar bilan bir qatorda tura olish darajasiga yetganimizni yaqqol ko'rsatdi[1].

Global iqtisodiy tizimda "o‘yin qoidalari" tubdan o‘zgarib, proteksionizm va logistik cheklovlar birinchi planga chiqqan hozirgi davrda, O‘zbekiston o‘zining iqtisodiy barqarorligini nafaqat saqlab qoldi, balki sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning ta’kidlashicha, 2025-yil yakunlari bo‘yicha eksportning 23 foizga o‘sib, 33,4 milliard dollarga yetishi va investitsiyalar oqimining 43,1 milliard dollarni tashkil etishi tasodifiy emas[2]. Bu natijalar zamirida inson kapitaliga bo‘lgan e’tibor va oqilona tashqi iqtisodiy strategiya yotadi.

Eksportning 23 foizga o‘sishi shunchaki raqam emas, balki logistik cheklovlar sharoitida topilgan oqilona yechimlar natijasidir. O‘zbekiston an’anaviy xomashyo eksportidan voz kechib, yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar va xizmatlar (IT, turizm, transport) bozoriga dadil kirdi.

Bu o‘sish tashqi bozorlardagi "proteksionizm to‘siqlari"ni mahsulot raqobatbardoshligi bilan yengib o‘tilganini ko‘rsatadi.

Investitsiyalar hajmining 43,1 mlrd dollarga yetishi - bu xorijiy sarmoyadorlarning O‘zbekistondagi siyosiy va iqtisodiy barqarorlikka bergan oliy bahosidir. YIMda investitsiyalar ulushining 31,9 foizni tashkil etishi esa "kelajak poydevori" qo‘yilganidan dalolat. Bu mablag‘lar yangi texnologiyalar va yuqori texnologik ish o‘rinlariga aylanmoqda.Bu esa zamonaviy texnologiyalar bilan iqtisodiy munosabatlarga bemalol kira olishimizni anglatadi. Xususan logistik va energetik xarajatlarni kamaytitish orqali infratuzilma hajmi qariyb 2,5 barobarga oshganini alohida ta’kidlash lozim[3].

Jalb qilingan xorijiy investitsiyalar hajmi 43,1 milliard dollarga yetgani O‘zbekistonning mintaqaviy investitsion xabga aylanganini tasdiqlaydi. YIM tarkibidagi ulush: Umumiy investitsiyalarning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 31,9 foizni tashkil etmoqda. Iqtisodiyot nazariyasiga ko‘ra, bu ko‘rsatkichning 30 foizdan yuqori bo‘lishi[4] barqaror va jadal o‘sishning kafolatidir.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, bu muvaffaqiyatlar markazida inson kapitali yotadi. Iqtisodiy o‘sish faqat raqamlarda emas, balki aholi farovonligi, yangi infratuzilma va biznes erkinligida o‘z aksini topmoqda. 2025-yil O‘zbekiston uchun barqaror yuksalish yili sifatida tarixda qolmoqda.

Eksport hajmining 33,4 milliard dollarga yetishi mamlakatda ishlab chiqarish madaniyati va mutaxassislar malakasi oshganidan dalolat beradi. Endilikda O‘zbekiston faqat xomashyo emas, balki yuqori qo‘shilgan qiymatga ega tayyor mahsulotlar (to‘qimachilik, elektrotexnika, kimyo sanoati) eksport qilmoqda.

Eksportdagi 23 foizlik o‘sish tashqi bozorlardagi qattiq raqobatga bardosh bera oladigan "aqlli" kadrlar mehnatining mahsulidir. Inson kapitali – bu nafaqat ishchi kuchi, balki innovatsion g‘oyalar va global standartlarni o‘zlashtirish qobiliyatidir.

Eksportning 33,4 mlrd dollarga yetishi — bu shunchaki savdo hajmi emas, balki "ishlab chiqarish madaniyati" o‘zgarganining isbotidir.

To‘qimachilik, elektrotexnika va kimyo sanoatidagi o‘sish O‘zbekistonning global qiymat zanjirida (value chain) yuqoriroq pog‘onaga ko‘tarilganini ko‘rsatadi. Endi biz "paxta yoki gaz" emas, "brend va texnologiya" sotmoqdamiz.

23 foizlik o‘sish zamonaviy marketing, xalqaro standartlar (ISO, CE) va texnologik jarayonlarni boshqara oladigan "bilimlar iqtisodiyoti" vakillari shakllanganidan dalolat beradi. Bu — inson kapitalining amaldagi samaradorligi.

Oltin-valyuta zaxiralarining 60 mlrd dollardan oshishi[5] mamlakatning har qanday tashqi kutilmagan iqtisodiy zarbalarga (shoklarga) bardosh berish qobiliyatini keskin oshiradi. Bu ko‘rsatkich xalqaro reyting agentliklari oldida O‘zbekistonning kredit reytingini mustahkamlaydi. O‘zbekistonning oltin-valyuta zaxiralari tarixda ilk bor 60 milliard dollardan oshishi mamlakatning xalqaro moliyaviy nufuzini yangi cho‘qqiga olib chiqdi.

Bu ko‘rsatkich xalqaro investorlar va reyting agentliklari (Fitch, S&P, Moody’s) uchun mamlakatning to‘lov qobiliyati yuqori ekanligidan dalolat beruvchi asosiy signaldir. Zaxiralarning mustahkamligi davlatning ijtimoiy majburiyatlarini bajarish va inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan uzoq muddatli loyihalarni (ta’lim, sog‘liqni saqlash) tashqi qarzga qaram bo‘lmasdan moliyalashtirish imkonini beradi[6],[7].

Zaxiralarning tarixiy darajaga yetishi O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun "immunitet" vazifasini o‘taydi. Fitch va S&P kabi agentliklar uchun 60 mlrd dollarlik zaxira — bu "Country Risk" (mamlakat xatari) darajasining pasayishini anglatadi. Bu esa xorijiy investorlarga "bu yerda sarmoyangiz xavf ostida emas" degan kuchli signaldir[8],[9],[10].

Bunday zaxira davlatga tashqi qarz bosimidan xoli bo‘lish va yirik ijtimoiy loyihalarni (masalan, ta'lim islohoti) mustaqil moliyalashtirish imkonini beradi. Ya'ni, iqtisodiy o‘sish endi tashqi yordamga emas, ichki imkoniyatlarga tayanmoqda

Investitsiyalar bilan birga mamlakatga yangi boshqaruv uslublari va nou-xau kirib kelmoqda, bu esa mahalliy mutaxassislarning xalqaro standartlar darajasida o‘sishiga xizmat qiladi.

Prezident 2026-yilni infratuzilmani takomillashtirish bo‘yicha katta o‘zgarishlar yili deb baholadi. Infratuzilma (energetika, transport, raqamlashtirish) - bu inson kapitalining samaradorligini oshiruvchi muhitdir. Zamonaviy yo‘llar va barqaror energiya tizimi biznes xarajatlarini kamaytiradi va aholi farovonligini bevosita oshiradi. Infratuzilmaga tikilgan sarmoya uzoq chekkalardagi aholining ham iqtisodiy jarayonlarda faol ishtirok etishiga sharoit yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonning so‘nggi yillardagi iqtisodiy yutuqlari puxta o‘ylangan strategiya, ochiq tashqi iqtisodiy siyosat va inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan izchil islohotlar samarasidir. Eksport hajmining barqaror o‘sishi, investitsiyalar oqimining kengayishi hamda oltin-valyuta zaxiralarining tarixiy darajaga yetishi mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligi va tashqi xatarlarga nisbatan barqarorligini ta’minlamoqda. Inson kapitalining sifat jihatdan rivojlanishi O‘zbekistonning global iqtisodiy makondagi o‘rnini mustahkamlashda asosiy omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Shu munosabat bilan quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

1. inson kapitalini rivojlantirishda ta’lim tizimini mehnat bozori talablari bilan yanada yaqinlashtirish, ayniqsa texnologik va innovatsion sohalar uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashni kengaytirish;
2. eksport tarkibida yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ulushini oshirish maqsadida ilmiy-tadqiqot ishlari va innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish;
3. investitsiya muhitini yanada yaxshilash uchun infratuzilma, raqamlashtirish va institutsional islohotlarni izchil davom ettirish orqali inson kapitalining iqtisodiy samaradorligini oshirish.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Oliy Majlisga Murojaatnomasi. — Toshkent, 2024–2025-yillar.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. — [www.president.uz](http://www.president.uz)

3. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. *Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari*. — Toshkent, 2024–2025.

4. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. *Yalpi ichki mahsulot, investitsiyalar va eksport bo‘yicha statistik ma’lumotlar*. — stat.uz

5. Markaziy bank. *Oltin-valyuta zaxiralari va makroiqtisodiy barqarorlik bo‘yicha sharhlar*. — cbu.uz

6. World Bank. *Uzbekistan Economic Update*. — Washington, 2024.

7. International Monetary Fund (IMF). *Country Report: Uzbekistan*. — 2024–2025.

8. Fitch Ratings, Standard & Poor’s, Moody’s. *Sovereign Credit Rating Reports on Uzbekistan*. — 2024.

9. Krugman P., Obstfeld M. *International Economics: Theory and Policy*. — Pearson Education.

10. Todaro M., Smith S. *Economic Development*. — Addison-Wesley.

## O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA MOLIYAVIY BARQARORLIK VA INVESTITSIYAVIY FAOLLIKNI OSHIRISH: MUROJAATNOMA TAHLILI

**Usmonov Sh.Sh.**
*Jamoat xavfsizligi universiteti, katta o‘qituvchisi*

**Usmonov H.Sh.**
*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, "Xalqaro iqtisodiyot va menejment" ta'lim yo'nalishi 4- bosqich talabasi*

Bugungi globallashuv va iqtisodiy transformatsiya sharoitida milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlash, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash hamda investitsiyaviy faollikni oshirish masalalari har bir davlat uchun ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Jahon iqtisodiyotida kuzatilayotgan beqarorlik, moliyaviy bozorlar tebranishi va investitsiya oqimlarining keskin raqobat sharoitida shakllanishi davlatlardan puxta o‘ylangan iqtisodiy va moliyaviy siyosat yuritishni talab etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llangan Murojaatnomada ham ushbu masalalar mamlakat iqtisodiy siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlari sifatida belgilab berilgan[1]. Mazkur Murojaatnomada iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, investitsiya muhitini yaxshilash hamda xususiy sektor faolligini oshirish orqali barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishish bo‘yicha muhim vazifalar ilgari surilgan.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli iqtisodiy va moliyaviy islohotlar moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, investitsiyaviy faollikni rag‘batlantirish hamda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan. Shu bilan birga, moliyaviy tizimning barqaror ishlashi, davlat moliyasini samarali boshqarish va investitsiyalarni jalb etish mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy masala bo‘lib qolmoqda.

Mazkur sharoitda Murojaatnomada belgilangan iqtisodiy va moliyaviy ustuvor yo‘nalishlarni ilmiy jihatdan tahlil qilish, ularning amaliy ijrosi jarayonida yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, moliyaviy barqarorlik va investitsiyaviy faollik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni chuqur o‘rganish barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Murojaatnomasida belgilangan vazifalar asosida milliy iqtisodiyotda moliyaviy barqarorlikni ta’minlash va investitsiyaviy faollikni oshirish masalalarini ilmiy-tahliliy jihatdan o‘rganishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun maqolada quyidagi vazifalar belgilandi: Murojaatnomada aks etgan iqtisodiy va moliyaviy ustuvorliklarni tahlil qilish, mavjud holatni baholash hamda moliyaviy-iqtisodiy rivojlanishni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Murojaatnomada belgilangan iqtisodiy va moliyaviy ustuvor yo‘nalishlar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan Oliy Majlis

va O‘zbekiston xalqiga yo‘llangan murojaatda mamlakatni barqaror rivojlantirish, iqtisodiy o‘sishni ta’minlash va aholi farovonligini oshirishga qaratilgan iqtisodiy hamda moliyaviy ustuvor yo‘nalishlar aniq belgilab berilgan. Ushbu strategik hujjatda milliy iqtisodiyotning tarkibiy o‘zgarishini jadallashtirish, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash va investitsiyaviy faollikni oshirish ustuvor vazifalar sifatida ilgari surilgan.

Davlat rahbari tomonidan belgilangan iqtisodiy siyosat yo‘nalishlarida makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, davlat moliyasini samarali boshqarish hamda xususiy sektor faolligini kengaytirish iqtisodiy o‘sishning asosiy drayverlari sifatida e’tirof etilgan. Xususan, byudjet siyosatini muvozanatli yuritish, moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish va fiskal intizomni kuchaytirish orqali iqtisodiyotda barqarorlikni ta’minlash muhim vazifa sifatida ko‘rsatilgan.

Prezident murojaatida investitsiyaviy muhitni yaxshilash va investitsiya oqimlarini rag‘batlantirish iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri sifatida qayd etiladi [1]. Bu borada huquqiy kafolatlarni mustahkamlash, xususiy mulk daxlsizligini ta’minlash hamda tadbirkorlik subyektlari uchun qulay moliyaviy sharoitlar yaratish investitsiyaviy faollikni oshirishning asosiy shartlari sifatida belgilangan. Investitsiyalar hajmining ortishi ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish va yangi ish o‘rinlarini yaratish orqali iqtisodiy o‘sishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi [2].

Shuningdek, mazkur murojaatda moliyaviy sektorni rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilib, bank-moliya tizimini isloh qilish, kredit resurslaridan samarali foydalanish hamda moliyaviy xizmatlar sifatini oshirish ustuvor vazifalar sifatida ko‘rsatib o‘tilgan. Moliyaviy tizimning barqaror faoliyati real sektorni moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish bilan bir qatorda investitsiyaviy faollikni rag‘batlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, davlat iqtisodiy siyosatida iqtisodiy boshqaruvni takomillashtirish, davlat ishtirokini bosqichma-bosqich qisqartirish va bozor mexanizmlarini keng joriy etish orqali raqobatbardosh iqtisodiy muhitni shakllantirish zarurligi ta’kidlangan. Ushbu yo‘nalishlar moliyaviy

barqarorlikni ta’minlash hamda investitsiyalarni jalb etishning institutsional asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, Prezident murojaatida belgilangan iqtisodiy va moliyaviy ustuvor yo‘nalishlar milliy iqtisodiyotda barqaror o‘sishni ta’minlash, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish va investitsiyaviy faollikni oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimini tashkil etadi. Ushbu ustuvor vazifalarning izchil amalga oshirilishi mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishi uchun mustahkam zamin yaratadi.

Iqtisodiy va moliyaviy islohotlarning hozirgi holati. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy va moliyaviy islohotlar milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlash, moliyaviy tizimning mustahkamligini oshirish hamda investitsiyaviy faollikni rag‘batlantirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar majmuini o‘z ichiga oladi. Mazkur islohotlar doirasida makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, davlat moliyasini boshqarishni takomillashtirish va bozor mexanizmlarini keng joriy etish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

Iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida fiskal siyosatning muvozanatli olib borilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Davlat byudjeti ijrosining shaffofligini oshirish, byudjet xarajatlarining samaradorligini ta’minlash hamda fiskal intizomni kuchaytirish orqali iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga erishilmoqda. Shu bilan birga, davlat qarzini boshqarish tizimini takomillashtirish va fiskal xavflarni kamaytirish moliyaviy barqarorlikni saqlashning muhim omillaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Moliyaviy sektorni isloh qilish jarayonida bank tizimini transformatsiya qilish, moliyaviy xizmatlar ko‘lamini kengaytirish va kredit resurslarining real sektor uchun ochiqligini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bank-moliya tizimining barqaror faoliyati investitsiyaviy loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini oshirish bilan bir qatorda tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslarga bo‘lgan ehtiyojini qondirishda muhim rol o‘ynamoqda. Biroq, kredit resurslarining qiymati, uzoq muddatli moliyalashtirish imkoniyatlarining cheklanganligi kabi muammolar investitsiyaviy faollikni

to‘liq ro‘yobga chiqarishga to‘sqinlik qilayotgan omillar sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Investitsiyaviy islohotlar doirasida xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish, investitsiya jarayonlarining huquqiy va institutsional asoslarini mustahkamlashga qaratilgan muhim qadamlar tashlanmoqda. Qulay investitsiya muhitini shakllantirish, investorlar huquqlarini himoya qilish va ma’muriy to‘siqlarni qisqartirish investitsiyaviy faollikning oshishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, hududlar kesimida investitsiyalarni jalb etishdagi nomutanosibliklar va infratuzilmaviy cheklovlar investitsiya siyosatini yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Iqtisodiy va moliyaviy islohotlarning hozirgi holatini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash uchun muhim zamin yaratmoqda. Biroq, moliyaviy barqarorlikni yanada mustahkamlash, investitsiyaviy faollikni oshirish va iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish bo‘yicha mavjud muammolarni bartaraf etish ilmiy asoslangan yondashuv va tizimli takomillashtirishni talab etadi.

Moliya barqarorligini ta'minlash va investitsiyaviy faollikni oshirish masalalari. Milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi bevosita moliyaviy barqarorlik darajasi hamda investitsiyaviy faollikning yuqoriligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Moliyaviy barqarorlik makroiqtisodiy muvozanatni saqlash, moliyaviy tizimning barqaror ishlashini ta’minlash va iqtisodiy subyektlar faoliyati uchun ishonchli muhit yaratishda muhim omil hisoblanadi. Shu jihatdan, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash masalasi investitsiyalarni jalb etish va ularning samaradorligini oshirish bilan uzviy bog‘liqdir.

Moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda, avvalo, davlat moliyasini samarali boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Fiskal siyosatning muvozanatli yuritilishi, byudjet intizomini kuchaytirish va davlat qarzini oqilona boshqarish moliyaviy xavflarni kamaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, moliyaviy resurslarning ustuvor yo‘nalishlarga yo‘naltirilishi investitsiya jarayonlarining barqarorligini ta’minlashga imkon yaratadi [3].

Bank-moliya tizimining barqaror faoliyati investitsiyaviy faollikni oshirishning muhim shartlaridan biridir. Kredit resurslariga kengroq kirish imkoniyatlarini yaratish, uzoq muddatli moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish va moliyaviy vositalar diversifikatsiyasini ta’minlash real sektor investitsiyalarini rag‘batlantiradi. Shu bilan birga, moliyaviy bozorlar infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi investitsiyaviy faollikni cheklovchi omillardan biri bo‘lib qolmoqda.

Investitsiyaviy faollikni oshirishda institutsional muhitning sifati alohida ahamiyatga ega. Investorlar huquqlarining ishonchli himoyasi, shaffof va barqaror huquqiy muhit, ma’muriy tartib-taomillarning soddalashtirilishi investitsiya qarorlarini qabul qilish jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, hududiy rivojlanishdagi nomutanosibliklar investitsiyalarni jalb etish samaradorligini pasaytirishi mumkin.

Moliyaviy barqarorlik va investitsiyaviy faollik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik shundan iboratki, barqaror moliyaviy tizim investitsiya xavflarini kamaytiradi, investitsiyalar hajmining oshishi esa iqtisodiy o‘sish orqali moliyaviy barqarorlikni mustahkamlaydi. Mazkur o‘zaro bog‘liqlikni inobatga olgan holda, moliyaviy va investitsiya siyosatini uyg‘unlashtirish iqtisodiy rivojlanishning muhim sharti hisoblanadi. Shu sababli, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash va investitsiyaviy faollikni oshirish masalalarini tizimli va kompleks yondashuv asosida hal etish zarur. Ushbu yo‘nalishdagi mavjud muammolarni bartaraf etish hamda iqtisodiy islohotlarning samaradorligini oshirish ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishni taqozo etadi.

Xulosa. Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Murojaatnomasida belgilangan ustuvor yo‘nalishlar asosida milliy iqtisodiyotda moliyaviy barqarorlikni ta’minlash va investitsiyaviy faollikni oshirish masalalari ilmiy-tahliliy jihatdan o‘rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, moliyaviy siyosatning izchil olib borilishi hamda investitsiya muhitining yaxshilanishi barqaror iqtisodiy o‘sishning muhim sharti hisoblanadi. Moliyaviy barqarorlik va investitsiyaviy faollik

o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni hisobga olgan holda, ularni uyg‘unlashtirish iqtisodiy islohotlar samaradorligini oshiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnoma. -Toshkent, 2025-yil.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari. -Toshkent, 2024–2025-yillar.

3. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. Davlat moliyasini boshqarish va fiskal siyosat bo‘yicha ma’lumotlar. -Toshkent, 2024-yil.

4. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Pul-kredit siyosati va moliyaviy barqarorlik sharhi. -Toshkent, 2024-yil.

## YANGI O‘ZBEKISTONNI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLA INSTITUTI VA TEXNOLOGIK IQTISODIY O‘SISHNING STRATEGIK AHAMIYATI

**Akbarov L.I.**

*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti, p.f.b.f.d. (PhD), dotsent*

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar mamlakatni barqaror rivojlanishning mutlaqo yangi bosqichiga olib chiqdi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025 yil 26 dekabrda Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan Murojaatnomasida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning asosiy natijalari, mavjud muammolar va 2026 yil hamda o‘rta muddatli istiqbolga mo‘ljallangan ustuvor vazifalar aniq belgilab berildi.

Mazkur Murojaatnoma Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, ijtimoiy soha, mahalla instituti, innovatsiya va texnologik o‘sish masalalarini kompleks tarzda qamrab olgan strategik dastur sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Murojaatnomada ta’kidlanganidek, so‘nggi to‘qqiz yilda mamlakat iqtisodiyoti tubdan yangilandi. Yalpi ichki mahsulot hajmi ilk bor 145 milliard AQSh dollaridan oshdi, eksport hajmi 33,4 milliard dollarga yetdi, oltin-valyuta zaxiralari 60 milliard dollardan ortiqni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkichlar O‘zbekiston iqtisodiyotining tashqi shoklarga chidamli va raqobatbardosh ekanini namoyon etadi.

Xorijiy investitsiyalarni jalb etish borasida ham sezilarli yutuqlarga erishildi. 2025 yilda iqtisodiyotga 43,1 milliard dollar investitsiya kiritilib, investitsiyalarning YaIMdagi ulushi qariyb 32 foizni tashkil etdi. Bu holat kelgusi yillarda ham iqtisodiy o‘sish uchun mustahkam moliyaviy zamin yaratadi.

Murojaatnomada iqtisodiyotni texnologik va innovatsion o‘sish modeliga o‘tkazish ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Sanoat, xizmatlar va qishloq xo‘jaligida yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan tarmoqlarni rivojlantirish orqali 2030 yilga borib YaIM hajmini 240 milliard dollardan oshirish maqsad qilinmoqda.

Ayniqsa, elektronika, elektrotexnika, farmasevtika, mashinasozlik, IT va sun’iy intellekt sohalarida ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, mehnat unumdorligini oshirish va energiya samaradorligini ta’minlash iqtisodiy o‘sishning asosiy drayveri sifatida qaralmoqda. “Industriya 4.0” elementlarini joriy etish va texnologik transferni kengaytirish bu yo‘nalishda muhim ahamiyatga ega.

Murojaatnomada ijtimoiy himoya va aholi farovonligini oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. So‘nggi yillarda kambag‘allik darajasi 8,9 foizdan 5,8 foizga tushirildi, 8,5 milliondan ziyod aholi kambag‘allikdan chiqarildi. 2026 yilda kambag‘allik va ishsizlik darajasini 4,5 foizga tushirish rejalashtirilgan.

Ta’lim, sog‘liqni saqlash, uy-joy qurilishi va infratuzilmani rivojlantirish sohalarida amalga oshirilgan ishlar aholi turmush sifati yaxshilanishiga xizmat qilmoqda. Inklyuziv ta’lim tizimining joriy etilishi, yoshlar va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan dasturlar ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim omil bo‘lmoqda.

Murojaatnomaning muhim jihatlaridan biri — mahalla institutining jamiyatni birlashtiruvchi va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlovchi asosiy

bo‘g‘in sifatida e’tirof etilganidir. 2026 yilning “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” deb e’lon qilinishi mahallaning davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylanganini ko‘rsatadi.

Mahallalar infratuzilmasini yaxshilash, aholini ishli qilish, mikroloyihalarni amalga oshirish, mahalla bankiri va hokim yordamchilari faoliyatini kuchaytirish orqali jamiyatda ijtimoiy adolat va farovonlikni ta’minlash ko‘zda tutilgan.

O‘zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzi yildan-yilga ortib bormoqda. Murojaatnomada ta’kidlanganidek, Yevropa Ittifoqi, AQSh, Yaponiya, Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlik yangi bosqichga ko‘tarildi. Xalqaro forumlar va sammitlarga mezbonlik qilish mamlakatning ochiq va pragmatik tashqi siyosat yuritayotganini tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, 2025 yilgi Murojaatnoma Yangi O‘zbekistonni barpo etishning strategik yo‘nalishlarini aniq belgilab beruvchi muhim dasturiy hujjat hisoblanadi. Unda iqtisodiy o‘sish, texnologik rivojlanish, ijtimoiy himoya, mahalla institutini mustahkamlash va xalqaro hamkorlikni kengaytirish o‘zaro uyg‘un holda aks etgan.

Mazkur tezislar konferensiya doirasida Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining ilmiy-nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. – Toshkent, 26 dekabr 2025 yil.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. www.president.uz

3. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari. – Toshkent, 2024–2025 yy.

4. Respublikasi Statistika agentligi. Rasmiy statistik ma’lumotlar to‘plami. – Toshkent, 2025.

# JINOIY QONUNCHILIKDA OILA-TURMUSH DOIRASIDA SODIR ETILADIGAN HUQUQBUZARLIKLARNI BARVAQT OLDINI OLISH MASALALARI

**Ashurova N.O‘.**
*O‘zbekiston Rsepublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti, y.f.b.f.d. (PhD), dotsent*

Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik hamda oila-turmush doirasida sodir etiladigan huquqbuzarliklar jamiyatdagi eng murakkab va yashirin tusga ega bo‘lgan ijtimoiy-xuquqiy muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu turdagi huquqbuzarliklar, odatda, shaxsiy munosabatlar zamirida sodir etilishi, yopiq muhit — oila doirasida kechishi va ko‘p hollarda latent xarakterga ega ekanligi bilan boshqa jinoyat turlaridan farq qiladi. Shu bois, ularni kriminologik jihatdan tahlil qilish barvaqt profilaktika choralarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik va oila turmush doirasidagi kriminogen vaziyati jinoyatchilikning asl og‘ir mahallalarda omillariga qarshi faoliyatni tashkil etish metodikasi qo‘llanmasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2025-yil 3-yanvardagi PQ–1-son qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan *“2025-yilda Respublika mahallalarida xavfsiz muhit yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimining samaradorligini oshirish bo‘yicha manzilli chora-tadbirlar dasturi”*ning[1] 20.1-bandi ijrosi bo‘yicha tayyorlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 26-dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida[2] “Iqtisodiyotimiz yangidan shakllandi, bozor munosabatlarini, ijtimoiy himoyani kengaytirdik, qonun ustuvorligini mustahkamladik. Eng muhimi, islohotlarimiz samarasini har bir mahalla, har bir xonadon va har bir inson kundalik hayotida his qilmoqda”, deb oila va maxallaga aloxida e’tibor qaratilayotganligini ta’kidlab otdiki, ushbu islohotlarni davom ettirish va keng axoliga

yetkazish har bir insonning, jumladan maxalla yettiligining bevosita vazifalari bo‘lib xisoblalanadi.

Kriminologik nuqtai nazardan oilaviy-maishiy zo‘ravonlikning asosiy xususiyatlaridan biri — sabab va shart-sharoitlarning ko‘p omilliligidir. Bunday huquqbuzarliklar ijtimoiy-iqtisodiy muammolar (ishsizlik, kambag‘allik, qarzdorlik), ruhiy omillar (agressiya, stress, depressiya), ma’naviy-axloqiy omillar (oilaviy qadriyatlarning susayishi, nizolarni zo‘ravonlik orqali hal qilishga moyillik), shuningdek, zararli odatlar (alkogolizm, giyohvandlik) ta’sirida shakllanadi. Ushbu omillar o‘zaro bog‘liq holda ta’sir ko‘rsatib, zo‘ravonlikning kelib chiqishiga zamin yaratadi.

Oila-turmush doirasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarning yana bir kriminologik jihati[3] — jabrlanuvchi va huquqbuzar o‘rtasida yaqin qarindoshlik yoki nikoh munosabatlarining mavjudligidir. Bu holat jabrlanuvchining zo‘ravonlik haqida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilishini qiyinlashtiradi, natijada jinoyatlar ko‘pincha yashirin qoladi. Ayniqsa, xotin-qizlar, bolalar va keksalar ushbu turdagi zo‘ravonlikning asosiy jabrlanuvchilari sifatida namoyon bo‘ladi.

Kriminologik tahlil shuni ko‘rsatadiki, oilaviy-maishiy huquqbuzarliklar ko‘p hollarda davomiy va takroriy xarakterga ega bo‘ladi. Dastlab ruhiy tazyiq, haqorat yoki qo‘rqitish shaklida namoyon bo‘lgan zo‘ravonlik keyinchalik jismoniy yoki iqtisodiy zo‘ravonlikka aylanishi mumkin. Vaqtida profilaktik choralar ko‘rilmagan taqdirda, ushbu holatlar og‘ir jinoyatlarga, hatto og‘ir oqibatlarga olib kelishi ehtimoli yuqori.

Shuningdek, mazkur huquqbuzarliklarning kriminologik tavsifida hududiy va ijtimoiy muhit ta’siri ham muhim o‘rin tutadi. Ayrim mahallalarda ishsizlik darajasining yuqoriligi, ijtimoiy nazoratning susayishi, huquqiy ongning pastligi oilaviy-maishiy zo‘ravonlik holatlarining ko‘payishiga sabab bo‘ladi. Bunday muhitda profilaktika faqat huquqiy choralar bilan cheklanib qolmasdan, ijtimoiy va ma’naviy ta’sir choralarini ham o‘z ichiga olishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik hamda oila-turmush doirasida sodir etiladigan huquqbuzarliklar o‘zining latentligi, ko‘p omilli sabablari, davomiyligi va takroriyligi bilan ajralib turadi. Ularning kriminologik tavsifini chuqur o‘rganish barvaqt aniqlash, xavf guruhidagi oilalar bilan manzilli ishlash va samarali profilaktika chora-tadbirlarini ishlab chiqishning ilmiy asosini tashkil etadi.

O‘rganishlar natijasida mahallalarda qayd etilgan oldini olish mumkin bo‘lgan jinoyatlar sodir etilishiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan asosiy omillar sifatida quyidagilar aniqlandi:

*Ijtimoiy va maishiy omillar*

– fuqarolarning o‘z mol-mulkini saqlashga e’tiborsizlik bilan qarashi.

– mahallalarda yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish ishlarining yetarli emasligi.

– oilaviy nizolarni yashirishga intilish va jamoatchilik nazoratidan qochish.

– oilaviy nizolar va zo‘ravonlikka moyil shaxslarni aniqlash mexanizmining samarasizligi.

– shaxslar o‘rtasidagi mulkiy nizolarning o‘z vaqtida hal etilmasligi.

– ajrim yoqasiga kelib qolgan oilalar bilan manzilli ishlardagi kamchiliklar.[4]

Mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda “Inson qadri uchun” tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so‘zsiz ta’minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlar zamirida tinchlik va xavfsizlik, xavfsiz hududni yaratish, jinoyatchilikka qarshi barqaror kurashish siyosati turibdi, deyish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi Farmonida[5] ham sud huquq tizimini isloh qilish, shaxs huquq va erkinliklariga rioya

etilishini hamda qonun ustuvorligini ta’minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish, jazoning muqarrarligini ta’minlashga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilishi nazarda tutilgan.

Jinoyat omillarining tasniflanishi nisbiy bo‘lib, ayrim hollarda ular bir-biriga nisbatan chambarchas bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Ya’ni ma’lum bir shart sharoit u yoki bu omilga yoxud ularning bir nechtasiga taalluqli bo‘lishi mumkin. Jinoyatning asl omillarini “ilmiy diagnoz” asosida o‘rganishda, ma’lum bir jinoyat yuqoridagi bir nechta omillar tufayli yoki bir nechta jinoyatlar yagona omil tufayli sodir etilgan bo‘lishi mumkin.

Maishiy zo‘ravonlik jinoyatlarining asl omillari:

*Maishiy zo‘ravonlik jinoyati omillarining asosiy turlari:*

– ijtimoiy omillar;
– iqtisodiy omillar;
– psixologik omillar;
– ma’naviy-ma’rifiy omillar;
– huquqiy omillar;
– tibbiy omillar;
– tashkiliy omillar.

Shu bilan birga, aksariyat umumta’lim maktablarida to‘garaklar mehnat bozoriga mos kasblardan kelib chiqib tashkil etilmaydi. Bugungi kunda santexnika, elektrpayvandchilik, elektromontaj, maishiy xizmat ko‘rsatish kabi kasblarga talab yuqori bo‘lsa-da, aksariyat ota-onalar bu singari faoliyat turlariga farzandlarini jalb etishni xohlamasligi kuzatilmoqda. Yoshlardagi ta’lim va malaka darajasining yetishmasligi yoki mehnat bozori ehtiyojlariga mos kelmasligi: Mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasblarga oid bilimlarga ega bo‘lmagan hamda boshqa kasblar bilan shug‘ullanish ko‘nikmalari shakllanmagan yoshlar ish topishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Shuningdek, mas’ullar tomonidan yoshlarning bandligini ta’minlash faoliyatini bashorat qilish masalalarida sustkashliklarga yo‘l qo‘yilayotganligi, xususan, zamonaviy kasb-hunarlar targ‘iboti yetarlicha yo‘lga qo‘yilmaganligi natijasida yoshlar bozor talablariga moslashmayapti. Ayniqsa, axborot

texnologiyalari, xususan, grafik-dizayner, dasturchi, targetolog, kopirayter, marketolog, mobilograf kabi sohalarda mutaxassislarga talab yuqoriligicha qolmoqda.

*Talab va taklif orasidagi nomutanosiblik:*

Davlat va boshqaruv organlari tomonidan xususiy sektor vakillari bilan hamkorlikda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish, yoshlarni kasb-hunar o‘rgatishga ixtisoslashgan markazlarga yo‘naltirish, ularni xorijiy tillar bo‘yicha o‘qitish va chet eldagi kafolatlangan ish o‘rinlariga joylashtirishni tashkil etishdagi sustkashligi, hududdagi ishsizlar sonining oshishiga va bu o‘z navbatida kriminogen vaziyatga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

*Ijtimoiy va demografik omillar, shuningdek, asosan ayollar uchun munosib ish o‘rinlarining kamligi:*

Aholi sonining tez sur’atlar bilan o‘sib borishi ishchi kuchiga nisbatan bo‘lgan talabning oshishiga olib keladi. Bu esa ishsizlik darajasining yuqori bo‘lishiga sabab bo‘lishi mumkin. Chekka hududlarda istiqomat qiluvchi fuqarolar, ayniqsa, ayollar munosib ish o‘rinlarini topishda ko‘plab qiyinchiliklarga duch keladilar. Ular uchun muayyan kasblarda ishlash imkoniyatlarining cheklanganligi xotin-qizlar o‘rtasida ishsizlikning va moddiy jihatdan qaramlikning ortishiga sabab bo‘lishi mumkin.

*Maishiy zo‘ravonlik jinoyatlarining iqtisodiy omillari:*

– moliyaviy munosabatlar bilan bog‘liq omillar:
– doimiy daromad manbaining yo‘qligi yoki yetishmasligi;
– moddiy yordamga muhtojlik;
– aholi vakillari o‘rtasidagi iqtisodiy tengsizlik;
– moliyaviy savodxonlikning pastligi;
– hal etilmagan qarzdorliklarning mavjudligi.
– noqonuniy faoliyat bilan bog‘liq omillar:
– foiz evaziga noqonuniy qarz olish yoki berish;
– tavakkalchilikka asoslangan o‘yin - larni tashkil etish yoki unda ishtirok etish;
– noqonuniy savdo-sotiq va tadbirkorlik bilan shug‘ullanish.

*Boshqa iqtisodiy omillar:*

– moliyaviy masalalarda oila a’zolari o‘r tasidagi ishonchsizlik;
– ijtimoiy yordamlarning yetishmasligi;
– tabiiy resurslardan noqonuniy foydala nish;
– resurslar yoki tovarlar narxining oshib ketishi.

Pul insonlar hayoti uchun muhim vosita. Pulsiz insonning asosiy ehtiyojlarini, ya’ni oziq-ovqat, suv, boshpana, kiyim-kechak, sog‘liqni saqlash va boshqa ehtiyojlarini ta’minlash juda qiyin bo‘ladi. Agar shaxsning imkoniyatlari cheklangan bo‘lsa, u jamiyatda o‘zini barqaror his qilolmaydi. Iqtisodiy yetishmovchilik, doimiy daromad manbaining yo‘qligi, moddiy yordamga muhtojlik maishiy zo‘ravonlik jinoyatlari sodir etilishi ehtimolini oshiradi. Aholining moddiy ehtiyojmand qismiga iqtisodiy ko‘mak berish jamiyatdagi mavjud ijtimoiy dasturlar va iqtisodiy resurslarga bog‘liq.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.01.2025-yildagi “2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-1-son Qarori // https://lex.uz/uz/docs/-7330260

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 26.12.2025 // https://president.uz/oz/lists/view/8834

3. B.Utepov. Oila-turmush doirasida sodir etiladigan jinoyatchilikning oldini olishda profilaktika inspektorining o‘rni. Vol. 5 No. 2 (2025): Educational Yield Insights & Breakthroughs (EYIB)

4. B.Suvanov. Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olish choralari. 13.04.2024 // https://yuz.uz/uz/news

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”ги PF-60-son Farmoni // https://lex.uz/uz/docs/-5841063

# KELAJAK VA PORLOQ ISTIQBOL UChUN BELGILANGAN USTUVOR VAZIFALAR

**Sodiqov X.M.**
*Kafedra katta o‘qituvchisi, podpolkovnik*

Murojaatnomada mamlakatimiz hayotining har bir jabhasini yanada rivojlantirishga oid yirik tashabbuslar ilgari surilishi hamda kelgusi yillardagi eng muhim vazifalar yuzasidan rejalar taqdim etilishi ko‘zda tutiladigan muhim siyosiy tadyuir hisoblanadi.

O‘zbekiston respublikasi Prezidenti faoliyati davomida bir necha marotaba O‘zbekiston Respublikasi xalqiga va Oliy majlisga o‘z Murojatnomalari bilan chiqishlar qildi. Bulardan 2017 yilning 22 dekabr kuni O‘zbekiston tarixida ilk marotaba Prezidentning parlamentga 2017 yilda amalga oshirilgan asosiy ishlar yakunlari hamda O‘zbekiston Respublikasini 2018 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Murojaatnomasi taqdim etildi. Mazkur dasturiy ma’ruza chuqur mazmun va katta ahamiyatga ega bo‘lib, barcha sohalarni qamrab olgani sababli xalqimiz hamda hamkor mamlakatlarda katta qiziqish uyg‘otdi.

2018 yilning 28 dekabr kuni esa Prezidentning ikkinchi Murojaatnomasi parlamentga taqdim etildi. Navbatdagi Murojaatnoma 2020 yilning 24 yanvarida yo‘llandi. To‘rtinchi Murojaatnoma esa 2020 yil 29 dekabr kuni taqdim etildi.

O‘zbekiston yetakchisi Murojaatnomada asosiy e’tiborni mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, aholi farovonligini oshirish va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini kuchaytirish masalalariga qaratgan. O‘zbekiston rahbari aynan iqtisodiyot, rivojlanish barqarorligi va o‘sish sifati mamlakatning ham ichki, ham tashqi imkoniyatlarini belgilab berishini aniq ta’kidladi.

Global ishlab chiqarish va transport-logistika zanjirlaridagi uzilishlar, xomashyo va moliyaviy resurslar narxining oshishiga qaramay, O‘zbekiston iqtisodiyoti barqaror o‘sishda davom etmoqda. «So‘nggi 9 yilda sizlar bilan, el-yurtimiz bilan birgalikda katta taraqqiyot yo‘lini bosib

o‘tdik», — dedi prezident so‘zining avvalida. Davlat rahbari, “Iqtisodiyotimiz yangidan shakllandi, bozor munosabatlari, ijtimoiy himoyani kengaytirdik, qonun ustuvorligini mustahkamladik. Eng muhimi, islohotlarimiz samarasini har bir mahalla, har bir xonadon va har bir inson kundalik hayotida his qilmoqda” – deb takidlab o‘tdilar.

Yil juda murakkab kelganini ta’kidlandi. Dunyoda yaqin-yaqingacha hech kimning xayoliga ham kelmagan o‘zgarishlar ro‘y berayotganini aytildi. Mamlakatlar o‘rtasida iqtisodiy qarama-qarshilik kuzatilmoqda, xavfsizlikka tahdidlar kuchaymoqda, dedi Shavkat Mirziyoyev.

Davlat rahbari xalqning tinimsiz mehnati, do‘stona tashqi siyosat, demokratik yangilanishlarning asosi bo‘lgan, butun dunyoda hayrat uyg‘otayotgan mahallalar faoliyatini e’tirof etdi.

Global ishlab chiqarish va transport-logistika zanjirlaridagi uzilishlar, xomashyo va moliyaviy resurslar narxining oshishiga qaramay, O‘zbekiston iqtisodiyoti barqaror o‘sishda davom etmoqda, dedi prezident.

Murakkab va parchalangan tashqi muhitga qaramay, O‘zbekiston iqtisodiyoti barqaror o‘sish sur’atlarini namoyon etmoqda. 2025 yilda mamlakat tarixida ilk bor YaIM hajmi 145 milliard AQSh dollaridan oshdi, holbuki, bor-yo‘g‘i to‘qqiz yil avval 100 milliard dollarlik marraga erishish juda yuqori ko‘rsatkich sifatida qabul qilingan edi.

Global savdo tizimida «o‘yin qoidalari» o‘zgargan bir sharoitda O‘zbekiston eksporti yakunlanayotgan yilda 23 foizga oshib, 33,4 milliard dollarga yetdi. Oltin-valyuta zaxiralari ilk bor 60 mlrd dollardan oshdi.

O‘zbekiston iqtisodiyotiga jalb qilingan xorijiy investitsiyalar hajmi 43,1 milliard dollarga yetdi.

Yalpi ichki mahsulotda umumiy investitsiyalar ulushi hozirda 31,9 foizni tashkil etmoqda. Bu kelgusi yillarda ham iqtisodiyotning barqaror o‘sishiga zamin yaratishi alohidatakidlabo‘tildi.

2025 yil aholi farovonligi va biznes rivojiga xizmat qiladigan infratuzilmani takomillashtirish bo‘yicha katta o‘zgarishlar yili bo‘ldi, dedi davlat rahbari.

Hududlarda ichimlik suvi ta’minoti yaxshilandi — bu yil 188 ta tumandagi 715 mingta xonadonga ilk bor ichimlik suvi kirib bordi, 2,3

millionga yaqin aholining suv ta’minoti yaxshilandi. 867 ta «og‘ir» hududdagi 470 ming xonadonga ilk bor tomorqani sug‘orish uchun suv kirib bordi.

2025 yilda 8,1 million kvadrat metr uy-joy qurildi, aholining o‘zi ham 19 million kvadrat metr uy-joy qurdi. Biznes tomonidan 24 million kvadrat metr noturar joy Obyektlari qurildi.

To‘qqiz yil ichida 210 million kvadrat metr turar va noturar Obyektlar foydalanishga topshirildi.

Joriy yilda 5 million kishi ish bilan ta’minlangan, ishsizlik darajasi 5,5 foizdan 4,9 foizgacha kamaygan. Qariyb 1,5 million ehtiyojmand aholi kambag‘allikdan chiqarildi, ilk bor 1 ming 435 ta mahalla «kambag‘allikdan chiqarildi». Mamlakatda kambag‘allik darajasi yil boshidagi 8,9 foizdan 5,8 foizgacha tushdi. Natijada uch yil oldin belgilangan 2026 yilgacha kambag‘allikni 2 baravarga qisqartirish maqsadiga erishildi. «Bir eslang, bu ishlarni boshlaganimizda aholimizning uchdan bir qismi kambag‘allik chegarasida yashar edi», — deya eslatdi mamlakat rahbari.

O‘zbekistonda 2026 yil "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili" bo‘lishi belgilab o‘tildi. Prezident Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llayotgan murojaatnomasi chog‘ida shunday taklifni bildirdi.

O‘zbekiston Prezidenti belgilab bergan yana bir strategik ustuvor yo‘nalish — ichki talabni rag‘batlantirishdir. Ekspertning so‘zlariga ko‘ra, ichki bozorni rivojlantirish barqaror o‘sishning asosiy manbai sifatida qaralmoqda. Bu aholi daromadlarini oshirish, kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash hamda moliyaviy instrumentlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishni o‘z ichiga oladi.

Murojaatnomada kasblarni rivojlantirish va mehnat bozorining yangi arxitekturasini shakllantirish masalasiga ham alohida e’tibor qaratilgan. Prezident kasbiy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, yangi kompetensiyalarni rivojlantirish va zamonaviy iqtisodiyot talablariga javob beradigan moslashuvchan, adaptiv mehnat bozorini shakllantirish vazifalarini belgilab berdi.

Shu bilan birga, ekologik muvozanatni ta’minlash, “yashil” energetikani rivojlantirish va suv resurslaridan oqilona foydalanish muhim yo‘nalish sifatida belgilandi. Barqaror rivojlanishga o‘tish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish, energiya va suv samaradorligini oshirish hamda iqlim o‘zgarishiga moslashish strategik vazifalar sifatida ko‘rilmoqda. Ekologiya va “yashil” energetika bugun milliy xavfsizlik va barqaror rivojlanish omili hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. https://president.uz/uz/lists/view/8834
2. https://yuz.uz/oz/news/prezident
3. https://dunyo.info/uzk/Murojaatnoma/vengerskoe-izdanie-hello-magyar-otmechaet-rastushchiy-mezhdunarodny
4. https://sputniknews.uz/20251226/prezident-2026-yil-nomini-elon-qildi-54480668.html.


## MUHOFAZA ETILADIGAN TABIIY HUDUDLARNI DAVLAT TOMONIDAN BOSHQARISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI


**Baxtiyorov F.A.**

*Jamoat xavfsizligi universiteti kafedra o‘qituvchisi*


Bugungi kunda ekologiya sohasidagi eng asosiy vazifa muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvining birinchi shakli normativ-huquqiy hujjatlarni yaratish, qo‘llash va bajarilishini ta’minlashdan iborat. Ushbu usul umumdavlat vakolatlariga ega bo‘lgan davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshiriladi. Oliy Majlis, Prezident va Vazirlar Mahkamasi normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish, qo‘llash va bajarilishini ta’minlash orqali umumdavlat boshqaruvini amalga oshiradilar. Davlat tomonidan muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni muhofaza qilishni tartibga solish davlat organlarining qonunchilik faoliyatini tartibga solish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni himoya qilish bilan bog‘liq munosabatlarning huquqiy holatini belgilab beradi. Davlat

hokimiyati va ijroiya organlari tomonidan qabul qilinadigan qonun, qaror, farmon va boshqa normativ ahamiyatdagi hujjatlar barcha vazirlik, davlat qo‘mitalari, muassasalar, yuridik va jismoniy shaxslar uchun majburiy hisoblanadi.

Ekologik qonunchilikda mustahkamlangan qoidalarni hayotda tatbiq etish davlat ijroiya hokimiyati organlarining asosiy vazifalaridan sanaladi. Qonunchilik hujjatlari talablarining barcha vazirliklar, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishini nazorat qilish va tegishli choralarni qo‘llash bilan bog‘liq bo‘lgan davlat organlarining faoliyati ijtimoiy adolatni ta’minlashga va ishlab chiqarish subyektlari huquqlarini himoya qilishga xizmat qiladi. Shunday qilib, nazarimizda, davlat boshqaruvini amalga oshirish shakllari sifatida quyidagilarni ko‘rsatib o‘tish mumkin: 1) normativ-huquqiy hujjatlar yaratilishi, qo‘llanilishi va bajarilishini ta’minlash (nazoratning ushbu shakliga qonun, qaror, farmon, farmoyish, dastur, shuningdek, normativlar, standartlar va sh.k.larni qabul qilish, tasdiqlash, qo‘llash va bajarilishi ta’minlash kiradi); monitoring xizmatini yuritish; nazorat faoliyatini amalga oshirish (tekshirish, baholash, tahlil o‘tkazish, kadastr yuritish va hisobdorlik). Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni muhofaza qilish sohasidagi davlat boshqaruvi turli usullarda amalga oshiriladi.

Ushbu usullarning har biri o‘z ichiga bir necha faoliyat turlarini qamrab olishi mumkin. Chunonchi, ekologik monitoringni yuritish, nafaqat kuzatish, balki tabiat holati to‘g‘risida ma’lumotlar bazasi yaratishni ham ko‘zda tutadi. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni muhofaza qilish maqsadida davlat o‘zining maxsus vakolatli organlari orqali qonunchilik hujjatlarida belgilangan huquqiy talablar bajarilishini nazorat qiladi. Davlat nazoratining ushbu shakli tabiiy obyektlar monitoringi-nazorati-ekspertizasining yagona tizimini joriy etishni taqozo etadi. Ushbu tizimda birinchi bo‘g‘in sifatida ekologik monitoring namoyon bo‘ladi. Yuridik adabiyotlarda atrof tabiiy muhit monitoringining davlat boshqaruviga kiritish (taalluqligi) xususida yakdil fikr bildirilmagan.

M.M.Brinchuk ham atrof tabiiy muhit holati ustidan davlat kuzatuv xizmati davlat boshqaruvining mustaqil funksiyalaridan biri hisoblanadi, deb qayd etadi. V.V.Petrov ushbu masala yuzasidan “Milliy nuqtai nazardan monitoring keng ma’noda, ya’ni nafaqat atrof tabiiy muhit holati ustidan kuzatuv olib borish, balki tabiatni muhofaza qilish choralari bajarilishi hamda qonunchilik hujjatlari talablariga rioya etish ustidan nazorat sifatida ham talqin etilishi lozim”, degan mulohazasini ilgari suradi. Shu yo‘sinda V.V.Petrovning dalil-isbotlariga tayanib, ekologik monitoringni davlat boshqaruvi tizimiga kiritish mumkin.

O‘z navbatida ekologik monitoringni davlat boshqaruvini amalga oshirish usuli sifatida baholashda nazarimizda quyidagi holatlarni asos qilib olish mumkin: *Birinchidan, ekologik monitoring mazmunini atrof tabiiy muhit holati ustidan kuzatish yoki ma’lumot yig‘ishgina tashkil etmaydi.*[1] Atrof tabiiy muhit holati ekologik monitoringi mohiyat e’tibori bilan tabiatdagi o‘zgarishlarni o‘z vaqtida aniqlash va salbiy jarayonlarni bartaraf etishga, tabiat obyektlari sifatini ta’minlashga qaratilgan tadbir hisoblanadi. Shunday qilib, ekologik monitoring davlat boshqaruvining asosiy obyekti bo‘lmish tabiiy resurslar sifatini ta’minlashga xizmat qiluvchi boshqaruv usulidir. Davlat ekologik monitoringini yuritishning huquqiy asoslarini O‘zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunida va har bir alohida tabiiy obyekt (suv, o‘rmon va sh.k.) bo‘yicha tarmoq qonunchiligida uchratish mumkin. Qonunchilikda davlat ekologik monitoringini amalga oshirishning umumiy tushunchasi, mazmuni va vazifalari belgilab berilgan. Davlat ekologik monitoringini yurituvchi subyektlarni, ularning maqomidan kelib chiqib ikki toifaga ajratishimiz mumkin: umumdavlat miqyosidagi maxsus boshqaruv organlari tomonidan amalga oshiriladigan monitoring; 2) umumdavlat miqyosidagi maxsus boshqaruv organlari tarkibiga kirmaydigan davlat organlari tomonidan olib boriladigan monitoring. Ekologik monitoringning ushbu ikki turi o‘rtasidagi farq shunda namoyon bo‘ladiki, ulardan birinchisida davlat ekologik nazorati amalga oshiriladi va u ekologik monitoring hisoblanadi hamda uning maqsadi bo‘lib, yuqorida zikr etilganidek, nazoratga oid vazifalarni bajarish va aniq bir

qaror qabul qilishga tayyorgarlik ko‘rish hisoblanadi. Ekologik monitoringning navbatdagi ikkinchi turiga, uning davlat boshqaruvi organlari tomonidan oshirilishiga qaramay, davlat monitoringi va davlat ekologik nazoratini amalga oshirish usuli sifatida qarab bo‘lmaydi. Monitoringning ushbu turi asosan, ma’lumot to‘plash, tahlil qilish, baholash va xulosa tuzishdan iborat. Shu ma’noda, davlat boshqaruvi usuli haqida so‘z borganda, tabiiyki, monitoringning birinchi turini nazarda tutamiz.

*Ekologik monitoring maqsadi qonun talablariga muvofiq, qo‘riqxona fondini muhofaza qilish bo‘yicha davlat nazoratini amalga oshirish, huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ularni baholash, tabiatning tabiiy xususiyatlariga salbiy ta’sir etuvchi jarayonlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar tavsiya etish hisoblanadi*. [2]

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar sohasida davlat boshqaruvini amalga oshirishda ekologik kadastr alohida muhim ahamiyat kasb etadi. Quyidagilar muhofaza etiladigan tabiiy hududlar sohasida davlat kadastrining tarkibiy qismlaridir: ro‘yxatga olish, miqdor va sifatini hisobga olish, iqtisodiy baholash, tabiiy kadastrlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar tizimi.

*Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni muhofaza qilish va foydalanish ustidan olib boriladigan nazoratda kadastr ma’lumotlariga asoslangan monitoring alohida ahamiyat kasb etadi*. [3] Darhaqiqat muhofaza etiladigan tabiiy hududlar kadastrini yuritilishi bu boradagi nazoratni amalga oshirilishida o‘z o‘rniga ega. Chunki, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar davlat kadastri, yovvoyi o‘simliklar turlari tarkibi, soni, geografik tarqalishi, miqdoriy va sifat tavsifi, ulardan foydalanish, ularni iqtisodiy baholash, ular o‘sadigan muhitning tavsifi to‘g‘risidagi uzluksiz yangilanib turadigan axborot tizimidir.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar davlat kadastri foydalaniladigan, mintaqadagi ekologik muhitga ta’sir ko‘rsatadigan yoki kamyob va turi yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan yovvoyi holda o‘suvchi tomirli o‘simliklar va qo‘ziqorinlarning hamma turlarini hisobga oladi. [4]

Bu esa o‘simlik dunyosidan foydalanish va muhofaza qilishda kamyob, qayta tiklab bo‘lmaydigan o‘zgarishlar xavfi paydo bo‘lgan va turi yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan yovvoyi holda o‘suvchi o‘simlik dunyosi obyektlaridan foydalanish huquqini cheklash, to‘xtatish va bekor qilish bo‘yicha nazorat olib borishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlat kadastrini yurituvchi organlar, muhofaza etiladigan tabiiy hududlardan foydalanuvchi yuridik shaxslar: qishloq xo‘jaligida band bo‘lgan yerlarda qishloq xo‘jaligi korxonalari, muassasalar va tashkilotlar; davlat o‘rmon fondi yerlarida o‘rmon xo‘jaligi korxonalari; zahiralardagi yerlarda korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, joylardagi davlat hokimiyatining vakolatli organlari o‘simliklarning kamyob va yo‘qolib borayotgan, dorivor oziqbop va manzarali turlari bo‘yicha respublikaning butun hududida O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi muhofaza etiladigan tabiiy hududlar davlat kadastri subyektlari hisoblanadilar. [5]

O‘zbekiston Respublikasi muhofaza etiladigan tabiiy hududlar davlat kadastrida quyidagi guruhlarga birlashtirilgan yovvoyi o‘simliklarning har bir turi bo‘yicha ma’lumotlar mavjud bo‘ladi [6] yovvoyi holda o‘sadigan dorivor va manzarali, shuningdek, oziq-ovqat sifatida foydalaniladigan o‘simliklar; texnik maqsadlarda foydalaniladigan yovvoyi o‘simliklar; tabiiy yaylovlar va pichanzorlardagi o‘simliklar; yovvoyi o‘simliklarning kamyob va yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan turlari.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Oliy majlisga va ko‘p millatli O‘zbekiston xalqiga murojaatnomasi 2026-yil 2-dekabr

2. Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 2019 yil 15 yanvardagi 29-son qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 15.01.2019 y., 09/19/29/2475-son;

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi //Xalq so‘zi, 2017-yil 20-sentabr;

4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. –T.: O‘zbekiston, 2017. – 592 b.;

5. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz /O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi //Xalq so‘zi, 2016 yil 16 dekabr;

6. Mirziyoyev Sh.M.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi //Xalq so‘zi, 2018-yil 29-dekabr

## SIFATLI YO‘LLAR, EKOLOGIK TRANSPORTLAR VA TRANSPORT HARAKATINI INTELLEKTUAL SVETOFORLAR ORQALI BOSHQARISH ZAMON TALABI

**Xadjayev M.A.**
*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Jamoat xavfsizligini ta’minlash kafedrasi o‘qituvchisi*

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyevning 2025 yil 26 dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va O‘zbekiston xalqiga qilgan Murojaatnomasi mamlakat taraqqiyotining yangi bosqichini belgilab beruvchi muhim siyosiy-huquqiy hujjat sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu murojaatda jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olgan holda, o‘tgan davrda amalga oshirilgan islohatlar atroflicha tahlil qilinib, kelgusi istiqbolli vazifa va ustivor yo‘nalishlar aniq belgilab olindi. Ayniqsa, inson manfaatlarini ta’minlash, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va jamoat xavfsizligini kuchaytirish masalalari murojaatning asosiy mazmunini tashkil etdi.

Mazkur murojaat nafaqat hokimiyat organlari, balki keng jamoatchilik uchun ham amaliy dastur vazifasini o‘tab, yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida barchani bir maqsad atrofida jipslashtirishga xizmat qiladi.

Barchamizga ma’lumki, 2026 yil yurtimizda “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili”, deb e’lon qilindi. Davlatimiz rahbari ta’kidlaganlaridek, sifatli yo‘llar iqtisodiyotimizning kamida 2 foiz o‘sishiga turtki beradi. Shu maqsadda, avtomobil yo‘llarining sifatini

yaxshilash, tranzit salohiyatini yanada oshirish bo‘yicha besh yillik dastur amalga oshirilishi belgilandi. Bunda Andijon bilan Qo‘ng‘irotni, Toshkent bilan Termizni, Samarqand bilan Shahrisabzni, Olot bilan Sariosiyoni bog‘laydigan, uzunligi 4 ming kilometr magistral yo‘llarni xalqaro talablarga mos “avtoban”larga aylantirish belgilab olindi. Bundant tashqari Toshkent – Samarqand, Toshkent – Andijon, Toshkent – Bo‘stonliq, Pung‘on – Namangan va Qarshi – Shahrisabz yo‘nalishida yuqori tezlikda harakatlanishga mo‘ljallangan 800 kilometr yo‘llar qurilishiga katta tayyorgarlik ko‘rish ishlari boshlab yuborildi.

Toshkent – Samarqand yo‘lining qurilishi 2026-yilning mart oyidan, qolgan yo‘llar bo‘yicha amaliy ishlar esa 1-iyuldan kechiktirmasdan boshlanishi ta’kidlandi. Yana 1 ming 200 kilometr yo‘llar 2030-yilgacha xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda qayta qurilishi rejalashtirildi.

Ta’kidlash joizki, endilikda yo‘llarni loyihalashtirishda aholining fikri, transport qatnovining atrof-muhitga ta’sirini inobatga olish, piyodalar uchun “to‘siqsiz” muhit yaratish bo‘yicha qat’iy talablar qonun darajasida mustahkamlanadi.

Murojaatnomada shaharlarimizdagi tirbandliklar nafaqat odamlar hayotini qiyinlashtirayotganligi, balki ekologiyaga ham jiddiy zarar yetkazayotganligi ko‘rsatib o‘tildi. Shu bois dunyo tajribasidan kelib chiqib, avtomobillar chiqarayotgan zararli moddalar darajasiga qarab, ekologik stikerlar tizimi joriy etilishi, katta miqdorda zararli moddalar chiqaradigan avtomashinalarning poytaxt va viloyat markazlari hamda shaharlarga kirishi cheklanishi, bunday transport vositalarini yangisiga almashtirish yoki ularga filtr o‘rnatish uchun davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash choralar ko‘rilishi belgilandi.

Buning uchun alohida Jamg‘arma tashkil qilinib, eski mashinalarini almashtirish niyatida bo‘lgan fuqarolarga avtokredit foizining bir qismi qoplab berilishi, filtr o‘rnatib, zararni kamaytirishga tayyor bo‘lgan haydovchilar uchun xarajatlarining bir qismi bo‘yicha subsidiya ajratilishi muhim voqelik bo‘ldi.

Shu bilan birga, poytaxt va yirik shaharlarda jamoat transportini rivojlantirish ustuvor vazifa etib belgilanib, shahar ko‘chalarida avtobus va

taksilar uchun maxsus yo‘laklar ko‘paytirilishi, Toshkent, Samarqand va Namangan shaharlarida transport harakatini intellektual svetoforlar orqali boshqarish tizimi joriy etilishiga, elektromobilda taksi xizmati ko‘rsatadigan fuqarolarga ham bir qator imtiyozlar berilishi, eng asosiysi, bu ishlar to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilsa, poytaxt, viloyat markazlari va yirik shaharlarda faqat ekotransportlar harakatlanadigan hududga aylanishiga alohida e’tibor qaratiladi.

O‘ylaymizki, transport oqimini raqamli va aqlli tizimlar orqali boshqarish tirbandliklarni kamaytiradi, yoqilg‘i sarfini tejaydi, atrof-muhitga salbiy ta’sirini qisqartiradi. Samarali boshqaruv shahar yo‘l tarmog‘idan oqilona foydalanishga hamda harakat xavfsizligini oshirishga imkon yaratadi.

Murojaatnomada belgilab berilgan ustivor yo‘nalishlar – mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida egallab kelayotgan mavqeini yanada oshirishga xizmat qilishiga amin bo‘lgan holda, bu borada har bir fuqaroni, davlat xizmatchilarini vatan oldidagi majburiyatlarini sidqidildan bajarishga chaqirib qolaman.

Fursatdan foydalanib, barcha vatandoshlarimizni “14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni” bilan chin dildan qutlab, kelgusidagi ishlariga ulkan zafarlar tilab qolaman.

## PROFESSIONAL SPORT SOHASIDA MOLIYA-XO‘JALIK FAOLIYATINI AMALGA OSHIRISHDAGI KORRUPSIYAVIY OMILLAR

**Musashayxov K.**
*Huquqni muhofaza qilish akademiyasi mustaqil izlanuvchisi*

Professional sport bugungi kunda jahon iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan birga aylangan. Unda yirik moliyaviy mablag‘lar aylanadi, nodavlat va davlat sektorlari o‘rtasidagi munosabatlar keng qamrovli bo‘lib bormoqda. Afsuski, ushbu sohadagi moliya-xo‘jalik faoliyati ko‘p

hollarda shaffoflik va qonuniylik mezonlariga to‘liq javob bermaydi. Bu esa korrupsiyaviy holatlarga olib kelishi mumkin.

Qayd etish joizki, so‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida ham sport sohasiga davlat tomonidan jiddiy e’tibor qaratilmoqda. O‘tgan to‘rt yilda budjetdan sportga ajratilayotgan mablag‘ 1,5 trillion so‘mdan 3 trillion so‘mga oshganligi ham bundan dalolat beradi.

Shu sababli, bu borada sohaga ajratilayotgan budjet mablag‘larining maqsadli sarflanishi jarayonidagi korrupsiyaviy omillarni oldini olish muhim hisoblanadi.

Zero, olimlardan V.I.Popov to‘g‘ri yozganidek, “katta xajmdagi budjet oqimlari mavjud bo‘lgan joyda, korrupsiya doimo gullab-yashnaydi”.

Izlanishlarda mamlakatimizda nodavlat notijorat tashkiloti hisoblangan sport federatsiyalariga ajratilgan (budjet va davlat korxonalari homiyligi) mablag‘larning maqsadli sarflanishini tizimli nazorat qilish mexanizmi to‘liq yo‘lga qo‘yilmaganligi aniqlandi.

Birgina o‘tgan yilda 12 ta olimpiya sport turi bilan shug‘ullanuvchi federatsiyalarda 10,8 mlrd. so‘m budjet mablag‘lari talon-toroj qilingan.

Qayd etish joizki, O‘zbekiston Respublikasining “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonunning 33-moddasiga ko‘ra, nodavlat notijorat tashkiloti o‘z faoliyatining natijalari hisobini yuritadi hamda ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organga, davlat soliq xizmati organlariga va davlat statistikasi organlariga belgilangan tartibda hisobotlar taqdim etadi.

Afsuski, biron bir normativ yoki idoraviy hujjatlarda nodavlat notijorat tashkiloti hisoblangan sport federatsiyalari ajratilgan budjet mablag‘lari sarfi bo‘yicha hisobotlar topshirishi, jamoatchilikka ochiq e’lon qilishi, ularni ustidan nazorat olib borish mexanizmlari belgilangan.

Shu sababli, sport federatsiyalariga budjetdan va davlat ulushi bo‘lgan tashkilotlardan homiylik hisobidan ajratiladigan mablag‘lardan samarali foydalanishni ta’minlash va mablag‘larni talon-toroj qilish holatlarining oldini olish maqsadida barcha federatsiyalar uchun mablag‘larni sarflash bo‘yicha yagona hujjat ishlab chiqish hamda ajratilgan mablag‘lar va ularning sarflanishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni jamoatchilikka ochiqlash choralarini ko‘rishni belgilash taklif etilmoqda.

Professional sport tashkilotlarining moliyaviy-xo‘jalik faoliyatida korrupsiya xavfi yuqori bo‘lgan yo‘nalishdan yana biri davlat xaridlarini amalga oshirish bo‘lib qolmoqda.

Xususan, tahlil qilingan davrda sport sohasidagi davlat organlari va tashkilotlari tizimidagi 32 nafar xodimlar “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonun talablarini buzib, 13,7 mlrd. so‘m miqdoridagi budjet mablag‘larini talon-toroj qilganlik uchun jinoiy javobgarlikka tortilgan.

Mazkur yo‘nalishdagi korrupsiyaviy omillarni tahlil qiladigan bo‘lsak, birinchidan, tender jarayonlarida shaffoflikning yetishmasligida namoyon bo‘lmoqda.

Masalan, Buxoro olimpiya zaxiralari kolleji binosini joriy ta’mirlash uchun kollej direktori raisligida o‘tkazilgan, go‘yoki ochiq tender tanlovida faqat tadbirkor “F.Q.” ta’sischiligidagi 4 ta korxona qatnashib, ularning bittasi g‘olib deb topilgan.

Ikkinchidan, sport tashkilotlari rahbarlarining shaxsiy aloqalari orqali shartnomalarni tanishlariga berish, ya’ni yashirin manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yilmoqda.

Misol uchun, Toshkent shahridagi Gimnastika sport maktabi binosini ta’mirlash uchun o‘tkazilgan tenderda qatnashgan “F.t” MChJ ta’sischisi va tender g‘olibi “S” MChJ rahbari bir shaxs – Q.F. ekanligi hamda u maktab direktorining akasi ekanligi aniqlangan.

Uchinchidan, professional sport tashkilotlari tomonidan davlat xaridlarini amalga oshirishi ustidan davlat moliyaviy nazorat mexanizmlari amalga oshirilmasligi, jamoatchilik nazorati yo‘lga qo‘yilmaganligi va qonunchilikda sport sohasidagi davlat xaridlariga oid maxsus tartib taomillar belgilanganligi sabab bo‘lmoqda.

Shu bois, professional sport tashkilotlari tomonidan tuzilgan barcha davlat xaridlari bilan bog‘liq shartnomalarni alohida portalda avtomatik e’lon qilish, uning natijalari bo‘yicha hisobdorlik majburiyatini yuklash va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish kabi mexanizmlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shuningdek, sport-ta’lim muassasalarining trener-o‘qituvchilari va yo‘riqchi-uslubchilariga malaka toifalarini berish jarayonida inson omili

yuqori ekanligi oqibatida hujjatlarni soxtalashtirish orqali budjet mablag‘larini talon-toroj qilish holatlariga yo‘l qo‘yilmoqda.

Tahlillarga ko‘ra, 2024 yilda bunday jinoyatlar uchun 1 nafar yo‘riqchi-uslubchi, 6 nafar malaka toifalarini berish bo‘yicha malaka komissiyasi a’zolari, 76 nafar trener-o‘qituvchilar javobgarlikka tortilgan. Budjetdan esa, 1,5 mlrd. so‘m ustama pullari asossiz ravishda talon-toroj qilinganligi aniqlangan.

Bu kabi korrupsiyaviy holatlar yuzaga kelishiga qonunchilikda belgilangan huquqiy mexanizmlar bo‘yicha ayrim tashkiliy chora-tadbirlar yetarli darajada tashkil etilmaganligi sabab bo‘lmoqda.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 3-martdagi 118-son qarori bilan tasdiqlangan reglamentga muvofiq, sport-ta’lim muassasalarining trener-o‘qituvchilari va yo‘riqchi-uslubchilariga malaka toifalarini berish davlat xizmatlari markazi orqali vakolatli organ huzurida tashkil etilgan komissiya qarori bilan amalga oshiriladi.

Bunda arizaga trener-o‘qituvchi tayyorlagan sportchisining musobaqalarda erishgan natijalarini tasdiqlovchi hujjatlar (musobaqa bayonnomasi, diplom nusxasi) va ushbu sportchi unga biriktirilganligini tasdiqlovchi ma’lumotnoma ilova qilinadi.

Aksariyat hollarda talabgor tomonidan ushbu ilova qilinadigan hujjatlar soxtalashtirilgan holda taqdim qilinadi. O‘z navbatida, Reglamentda ushbu taqdim qilingan hujjatlarning haqqoniyligini tekshirish tartibi belgilanmagan. Bu esa, o‘z-o‘zidan asossiz qarorlar qabul qilinishiga shart-sharoit yaratmoqda.

Shu sababli, sport-ta’lim muassasalaridagi trener-o‘qituvchilarga biriktirilgan sportchilar va ularning musobaqalarda erishgan natijalari haqidagi tasdiqlovchi hujjatlarni o‘zida aks ettirgan elektron platforma joriy etish lozim.

Bu esa, inson omilini qisqartirib, trener-o‘qituvchilarga malaka toifalarini berish jarayonidagi korrupsiya omillarini bartaraf qilishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, sport sohasida budjet mablag‘laridan maqsadli foydalanish jarayonida inson omilini kamaytirish, zamonaviy axborot texnologiyalarini, shu jumladan sun’iy intelektni joriy qilish orqali korrupsiyaviy xavflarni bartaraf etish, ochiq va shaffoflikni ta’minlash bo‘yicha barcha zarur choralarni ko‘rishni taqozo qiladi.

Bu borada ayrim ilg‘or xorijiy davlatlarda aniq mexanizmlar yo‘lga qo‘yilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Masalan, Germaniyada professional futbol klublarining moliyaviy faoliyati maxsus organ Deutsche Fußball Liga (DFL) tomonidan nazorat qilinadi. Unga asosan, barcha professional futbol klublari yillik moliyaviy hisobotlarni mazkur organga taqdim etishi shart hisoblanadi.

Shvesiyada esa sport klublari ijtimoiy tashkilot sifatida ro‘yxatdan o‘tkaziladi va ular davlat mablag‘laridan foydalanganida qat’iy moliyaviy hisobot taqdim etishi talab qilinadi. Shu bilan birga, sport klublariga ajratilgan davlat grantlari va subsidiyalar ustidan doimiy ravishda jamoatchilik tomonidan “maqsadli sarflanish monitoringi” amalga oshiriladi.

Avstraliyada alohida organ tomonidan (Australian Sports Commission) har yili barcha milliy sport federatsiyalari shaffoflik, boshqaruv va moliyaviy faoliyati bo‘yicha “Milliy sportning shaffofligi indeksi” asosida baholashdan o‘tkaziladi. Mazkur baholash doirasida sport federatsiyalari ichki audit va nazorat jarayonidan (Integrity Manager Network) o‘tib, ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi ko‘rib chiqiladi hamda korrupsiyaga qarshi kurashish ichki nazorat mexanizmlarining kuchaytirish bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

Yaponiyada esa sport federatsiyalari va tashkilotlari uchun “Yangi korporativ boshqaruv” modeli joriy etilgan bo‘lib, unga asosan 2019 yilda Japan Sports Agency (JSA) tashkiloti tomonidan barcha sport federatsiyalari va tashkilotlariga majburiy bo‘lgan sport boshqaruvi kodeksi ishlab chiqilgan. Agar federatsiyalar mazkur kodeks talablariga rioya qilmasa, ushbu tashkilot tomonidan davlat hisobidan ajratiladigan grant mablag‘lari kamaytirilishi yoki to‘xtatib qo‘yilishi mumkin.

Shu bois, ushbu mexanizm sport klublarining moliyaviy hisobotlarini muntazam ravishda ommaga ochiq e’lon qilishini, tashkiliy va moliyaviy shaffoflik tizimini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Albatta, sport sohasidagi korrupsiyaviy omillarning oldini olish borasida bu kabi tashkilotlar bilan halqaro hamkorlikni kuchaytirish, ilg‘or xorijiy mamlakatlarning tajribasini o‘rganish va o‘zaro faoliyatni muvofiqlashtirishni talab qiladi.

Xulosa qilib aytganda, professional sportda moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirish jarayonida uchraydigan korrupsiyaviy omillar sohaning rivojlanishiga jiddiy to‘siq bo‘ladi. Buning oldini olish uchun tizimli yondashuv, shaffoflik va jamoatchilik nazorati muhim ahamiyatga ega. Zero, mazkur yo‘nalishda korrupsiyani kamaytirish bilan nafaqat moliyaviy samaradorlik oshadi, balki barchaning sportga bo‘lgan ishonchi ham mustahkamlanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O.F.Sattorov Oliy talim sohasida korrupsiya tushunchasi // ОРИЕНС. 2022. №3. Elektron manba: URL: https://cyberleninka.ru/article/n/oliy-ta-lim-sohasida-korrupsiya-tushunchasi.

2. Барышев И.А., Ким Н.В. Борба с коррупцией в сфере физической культуры и спорта в Республике Казахстан//Актуалные вопросы юридических наук: материалы III Междунар. науч. конф. (г.Чита, апрел 2017 г.). – М.: Издателство «Молодой ученый», 2017.-С. 118-119.

3. Трубицына Ю. Ю. Международные аспекты противодействия коррупции в спорте // Вестник Московского университета МВД России. – 2016. – № 7. – С. 115–117.

4. Лясковская К. Коррупция в спорте в Полше – правовой и криминологический аспекты // Уголовно-правовые и криминологические проблемы противодействия преступности в спорте: Сборник научных статей по результатам Всероссийского научнопрактического круглого стола (Санкт-Петербург, 31 октября 2020 г.). – СПб., Астерион, 2020 – С. 65.

5. Иглин А.В. Коррупция в спорте: международно-правовое исследование / А.В. Иглин // Международный журнал гражданского и торгового права. – 2020. – № 2. – С. 8, С. 5–12.

6. Гущина А.М. Коррупционная преступност при организации и проведении профессионалных мероприятий / А.М. Гущина // Юридическая гносеология. - 2018. - № 1-2. - С. 53-59.

7. Иванов А.С. Предупреждение коррупционной преступности при организации и проведении профессионалных спортивных мероприятий: автореф. … канд. юрид. Наук-М., 2017. - С. 7-8.

8. Maennig W. Corruption. // Handbook on the Economics of Sport. / Edited by W. Andreff and S. Szymanski. – Cheltenham: Edward Elgar, 2006. – XVIII; 830 p. – P. 784–794.

9. Corruption in Sport: Causes, Consequences, and Reform / ed. L. A. Kihl. (1sted.). London, 2018. 234 p. https://doi.org/10.4324/9781315677217

10. Gorse S., and Chadwick S. (2010). Conceptualizing corruption in sport: implications for sponsorship programmes. European Business Review

11. Ionescu, L. (2015). The economics of corruption in professional sport. Economics, Management, and Financial Markets, 10, 109–14

## ENVIRONMENTAL REFORMS AND MODERN PUBLIC ADMINISTRATION IN THE NEW UZBEKISTAN

**Alloberdiyeva D.**

*Doctoral student of the Tashkent State University of Law*

In 2026, the Republic of Uzbekistan plans to implement comprehensive reforms in the fields of ecology, green energy, the rational use of water resources, and modern public administration. It would not be an exaggeration to state that the fifth and sixth priority areas identified by the President in the Address represent a significant turning point in the country’s socio-economic development.

In recent years, environmental protection, the rational use of natural resources, climate change mitigation, and adaptation have become key priorities of state policy in Uzbekistan. This policy direction is further reinforced by the President's Address, which designates, as the fifth of the six most important priority areas for 2026, the ensuring of ecological balance, the development of green energy, and the efficient use of water resources.

In this regard, as a primary measure, a credit line of USD 100 million will be allocated to establish filtration and treatment facilities at large industrial enterprises, as well as monitoring stations to track harmful emissions into the atmosphere. In addition, the Global Environment Facility Assembly and the Central Asian International Environmental Exhibition are scheduled to be held in Samarkand next year, creating opportunities for the joint implementation of new environmental projects.

Furthermore, plans include reducing air pollution through the transition of coal- and gas-heated greenhouses in the capital and regions to centralized boiler systems, the introduction of an environmental sticker system to regulate older high-emission vehicles, and the promotion of electric vehicles.

According to data from the World Health Organization (WHO), more than 7 million people die each year worldwide as a result of air pollution [1]. The use of fossil fuels in industry is widely recognized as a major contributor to global warming. The combustion of coal, gas, and oil releases harmful gases that trap heat in the atmosphere, leading to an increase in global temperatures. Carbon dioxide ($CO_2$) emitted as a result of human activity is the most significant driver of climate change, and it is generated primarily through the production and use of fossil fuels. Therefore, measures aimed at controlling $CO_2$ emissions may have substantial adverse effects on economic growth, employment, investment, trade, and living standards across different regions. In addition, the effective functioning and full implementation of the principle of public participation in addressing the challenges of sustainable urban development require a high level of environmental culture among the

population, fostering a responsible attitude toward nature and promoting greater harmony between urban life and the environment [3].

Therefore, the fifth priority area outlined in the Address can be regarded as a strategic step toward addressing global environmental challenges—particularly air pollution and climate change—at the national level. This priority is closely linked not only to public health protection, but also to ensuring industrial sustainability and strengthening efforts to combat climate change.

According to the strategy adopted by the President, the introduction of water-saving technologies is expected to conserve 2.5 billion cubic meters of water annually. Water is the source of life. Since ancient times, our people have regarded water as a priceless gift of nature and have emphasized its careful and rational use. The fact that ensuring access to clean drinking water for the population is addressed at the level of state policy in our country demonstrates that valuing human well-being remains one of the fundamental responsibilities of the state [2]. Major main canals will be lined with concrete, and open drainage and collector systems will be converted into closed systems. As a result of these measures, an additional 500 million cubic meters of water will be saved each year, agricultural land areas will expand, and the microclimate of urban areas will improve. Although 70.9% of the Earth’s surface is covered by water, it remains a limited resource, as only about 0.03% is suitable for drinking and daily human consumption. If current rates of water use continue, it is projected that by 2050 more than half of the world’s population will be living in water-scarce regions. Uzbekistan is among the countries most dependent on water resources in its region. The water volume in the Amu Darya and Syr Darya river basins has been declining year by year. In the country, approximately 80–85% of total water consumption occurs in the agricultural sector. The adoption of water-saving technologies could reduce water use by 30–50%, which in turn may lead to higher crop yields and increased incomes for farmers. Moreover, the rational use of water resources contributes to restoring ecological balance in the Aral Sea region, reducing soil salinization, and preserving biodiversity. As a result,

dust and salt storms may decrease, producing positive effects on the regional climate.

Within the framework of the sixth priority area, public administration and the judicial–legal system will undergo comprehensive digitalization. The e-government platform will be upgraded, and all public services, governmental functions, and databases will be integrated into a unified digital system. This transformation is expected to reduce bureaucracy, prevent corruption, and minimize the human factor in administrative processes. For example, a citizen who has built a new house will be able to arrange connections to water, electricity, and gas services simultaneously while obtaining cadastral documentation. By 2026, the number of such integrated services is planned to reach 100. In addition, an open and transparent system for public procurement will be established, and the powers of local governors and councils will be more clearly defined. The implementation of parliamentary inquiries will be systematically reviewed, and cases of negligence will be referred to the prosecutor's office. Support for civil society institutions and charitable organizations will also be strengthened. Amid the accelerating pace of global digital transformation, Uzbekistan is steadily consolidating its position as a regional leader in the field of e-government. As noted by Nazim Turdumambetov, CEO of Outpost Eurasia and former Director of Government Relations at Philips and Apple, "Digitalization is no longer a choice—it is the foundation of any sustainable and effective governance system. Uzbekistan is not only declaring its goals, but also taking practical steps" [4].

Since 2023, the number of online public services in the country has doubled. Today, more than 50 of these services are designed to support key life events of citizens, including childbirth registration, employment, retirement, and business registration. At present, over 750 online services are available through the national e-government portal, which is used by more than 11 million users. A 10% discount has been introduced for all paid services, while persons with disabilities are eligible for a 50% discount. Uzbekistan has also adopted the principle that "data moves, not citizens." Through the G2G platform, government agencies now exchange

information directly with one another. As a result, more than 1.7 billion interagency requests have been processed, and since 2022, 220 types of documents previously required from citizens have been abolished.

Furthermore, the OneID system has been launched in Uzbekistan, providing a unified digital login for all major government websites and private services. Currently, more than 13 million users have seamless access to over 600 government information systems. Face ID technology also enables citizens to obtain driver's licenses, bank cards, and SIM cards without the need to visit government offices in person [5].

In addition, under the sixth priority area, the judicial and legal system will be digitalized, criminal proceedings will be supported through artificial intelligence technologies, and the administration of justice will be further strengthened. Investigative judges will begin operating, the institution of lay jurors will be introduced, and 30% of enforcement procedures will be carried out without direct human involvement. A National Program to Combat Drug Abuse will be adopted, and preventive measures among youth will be intensified. Systemic measures to prevent domestic violence will also be implemented, alongside strengthened protection of the rights of women and children.

The application of artificial intelligence (AI) in criminal proceedings enables the rapid processing of large volumes of data, thereby streamlining decision-making processes. This not only improves the efficiency of the judicial system but also reduces costs and accelerates progress toward the digital automation of legal decisions. The transition to AI use in the legal field also reflects the evolving nature of the profession, underscoring the need for both new and experienced legal practitioners to acquire competencies in AI tools.

In the contemporary era, societies are striving for sustainable development, effective governance, and just social systems. In this context, environmental protection, digital governance, and digital justice systems have become integral components of state reform agendas.

Environmental protection contributes to safeguarding human health and the interests of future generations through the preservation of the

environment and the sustainable management of natural resources. Modern technologies—including digital monitoring systems, AI-based environmental forecasting, and IoT sensors—enable real-time observation of environmental conditions. This facilitates data-driven, responsive, and effective environmental policymaking, aligning with the fifth priority area of the Presidential Address, which focuses on sustainable ecological development.

A digital judicial system, in turn, accelerates court proceedings, increases transparency, and serves as an important tool in ensuring justice. Electronic filings, online hearings, AI-assisted document analysis, and remote court sessions make it possible to resolve cases more quickly and efficiently. This renders the judicial system more open, understandable, and reliable for citizens, demonstrating the vital role of digital technologies in the delivery of justice.

In conclusion, Uzbekistan is not merely catching up with the digital world; it is developing a distinctive strategic model of digital development based on citizen convenience, robust infrastructure, and transparent cooperation between the public and private sectors. Furthermore, environmental protection, digital governance, and digital justice represent mutually reinforcing domains whose advancement ensures sustainable development, efficiency, transparency, and citizen-centered service delivery. In our view, these reforms are closely linked to the priorities outlined in the Presidential Address and are of decisive importance in building a modern state that places the public interest at the forefront.

**References:**

1. WHO. 9 out of 10 people worldwide breathe polluted air, but more countries are taking action [Elektron resurs] / World Health Organization. – Rezhim dostupa: https://www.who.int/news/item/02-05-2018-9-out-of-10-people-worldwide-breathe-polluted-air-but-more-countries-are-taking-action

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi. Aholini toza ichimlik suvi bilan ta’minlash masalasi. Available at: https://parliament.gov.uz/articles/708

3. Узакова Г. Шаҳарларнинг барқарор ривожланишини таъминлашда жамоатчилик ва фуқаролик жамияти институтларининг иштироки // Общество и инновации. – 2021. – Т. 2, № 2/S. – С. 489–497.

4. Digitalization of Public Services: Enhancing Governance Efficiency // The Government portal of the Republic of Uzbekistan. – 13.01.2026. – URL: https://gov.uz/en/miit/news/view/60642

5. Digital inclusion, not illusion: How governments are transforming the public sector // Euronews. – Published on 24.06.2025. – URL: https://www.euronews.com/next/2025/06/24/digital-inclusion-not-illusion-how-governments-are-transforming-the-public-sector

## NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR IJROSINI TASHKIL ETISH TIZIMINING INSTITUTSIONAL ASOSLARI: AMALDAGI HOLATI VA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

**Yakubov M.**

*Vazirlar Mahkamasi mas'ul xodimi, Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi*

Mamlakatimizda islohotlarning faol amalga oshirilishi munosabati bilan davlat va jamiyatni rivojlantirishga oid qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning soni va ko‘lami oshdi.

Shu bilan birga normativ-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi bilan bir qatorda uning ijrosini tashkil etish ham muhim ahamiyatga ega. Zero, normativ-huquqiy hujjatlar ijrosi ta’minlanmas ekan, uning qabul qilinishi ijtimoiy munosabatlarga hech qanday ta’sir ko‘rsatmaydi. Natijada normativ-huquqiy hujjat va umuman davlat hokimiyatining aholi o‘rtasidagi obro‘sizlanishi ro‘y beradi.

Bu borada mutaxassislar ta’kidlaganidek, “ijro qilinmagan qonun, qabul qilinmagan qonundan zararliroq hisoblanadi. Chunki, har qancha dolzarb, qonun, farmonlar va qarorlar qabul qilinmasin, ular o‘z vaqtida ijro qilinmasa aholining hayot sifati va darajasini yuksaltirish bo‘yicha

islohotlar samarasizligicha qolib ketadi. Bu esa, qonun ustuvorligini ta’minlash bo‘yicha olib borilayotgan ishlarni shubha ostiga qo‘yadi”.

Haqiqattan ham, normativ-huquqiy hujjat qabul qilish orqali davlat jamiyatning barcha a’zolari uchun umumiy bo‘lgan “o‘yin qoidalari”ni belgilab beradi, uning ijro etilmasligi esa, davlat uchun jiddiy salbiy iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va boshqa oqibatlarni keltirib chiqaradi. Shu nuqtai nazardan barcha davlatlarda normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini ta’minlashga alohida ahamiyat qaratiladi. Mamlakatimizda ham “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonunning 7-bobida “Normativ-huquqiy hujjatlarning ijrosini tashkil etish va ta’minlash” masalasi tartibga solingan.

Shu ma’noda normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini tashkil etishda uning institutsional asoslarini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Qonunchilik hujjatlari tahlili mamlakatimizda normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini tashkil etish tizimining institutsional asoslari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish imkonini bermoqda:

Birinchidan, normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini tashkil etish va ta’minlash bo‘yicha mas’ul vazirlik va idoralar tizimining mavjudligi. Xususan, “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonunda normativ-huquqiy hujjatlarning ijrosini tashkil etuvchi va ta’minlovchi organlar belgilab qo‘yilgan.

Unga ko‘ra, Vazirlar Mahkamasi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, Oliy Majlis palatalari qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari hamda Hukumat qarorlarining O‘zbekiston Respublikasining butun hududida ijrosini tashkil etadi hamda ta’minlaydi. Vazirliklar va idoralar, ularning mansabdor shaxslari esa, o‘z vakolatlariga kiritilgan masalalar bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlarning ijrosini tashkil etadilar hamda ta’minlaydilar.

Mazkur Qonun bilan normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini tashkil etish va ta’minlashga doir Vazirlar Mahkamasining 4 ta, Adliya vazirligining 5 ta, vazirlik va idoralarning 6 ta, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlarining 5 ta vakolatlari belgilab berilgan.

Shu bilan birga ushbu tizim ham muayyan kamchiliklardan xoli emas. Bu borada hujjatlarda belgilangan va tegishli vazirlik, idora faoliyatiga taalluqli bo‘lgan yangi tartib-taomillarni xodimlarga yetkazish hamda ularning bu boradagi bilimini baholash tizimini joriy etish lozim, deb hisoblaymiz. Bu ayniqsa, aholi bilan muloqot qilish, fuqarolarga davlat xizmatlarini ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lgan davlat xizmatchilarga birinchi navbatda tegishli bo‘lishi kerak. Basharti, bunday davlat xizmatchilari o‘z faoliyatlariga bevosita taalluqli bo‘lgan qonunchilikdagi yangiliklarni bilmasalar tegishli huquq normalarini hayotga tatbiq eta olmaydilar va buning natijasida normativ-huquqiy hujjat ijro etilmay qoladi. Shu bois ham har bir yangi qabul qilingan normativ-huquqiy hujjat qaysi davlat organi, uning qaysi tarkibiy va hududiy bo‘linmasi tomonidan hayotga tatbiq etilishini aniqlash va ularni ma’lum muddat (yangilikni qo‘llash murakkabligiga qarab bir oygacha muddat) o‘qitish va shundan so‘ng u bo‘yicha imtihon topshirish va undan o‘tgandan so‘nggina ishni davom ettirish tizimini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq. Shu maqsadda normativ-huquqiy hujjatlarning kuchga kirish muddatini ham qabul qilingan sanadan emas, balki undan ma’lum muddat o‘tgach etib belgilash maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, qonunchilik hujjatlari ijrosining samaradorligini oshirishning muhim vositasi sifatida huquqiy monitoring tizimi amal qilmoqda.

“Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq davlat boshqaruvi organlari hamda boshqa tashkilotlar tomonidan normativ-huquqiy hujjatlar ijrosining monitoringi amalga oshirilishi lozim (42-modda).

“Huquqiy monitoring uzviy jarayon bo‘lib, normativ-huquqiy hujjatlarning ishlab chiqish jarayonidan tortib, uning ijrosigacha bo‘lgan bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Huquqiy monitoringni normativ-huquqiy hujjatlar ijrosi bosqichida amalga oshirishga alohida e’tibor qaratish zarur”.

Ushbu institutni amalga oshirish tartib-taomillari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 noyabrdagi PQ–4505-son qarori

bilan tasdiqlangan Normativ-huquqiy hujjatlar ijrosining huquqiy monitoringini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomda belgilab berilgan.

Huquqiy monitoring normativ-huquqiy hujjatlarni qo‘llashning yagona amaliyotini joriy etish, ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning to‘liqligini ta’minlash, normativ-huquqiy hujjatlardagi qarama-qarshiliklar, ziddiyatlar, korrupsiyaga oid omillar, bir-birini takrorlovchi va kollizion normalarni aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonun va qonun osti hujjatlari huquqiy monitoring Obyekti hisoblanadi. Huquqiy monitoring davlat boshqaruvi organlari tomonidan o‘z vakolatlari doirasida tartibga solish predmeti bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlar bo‘yicha amalga oshiriladi hamda huquqiy monitoringni o‘tkazish bo‘yicha davlat boshqaruvi organlari faoliyati Adliya vazirligi tomonidan muvofiqlashtiriladi.

Huquqiy monitoring har yili Adliya vazirligi tomonidan davlat boshqaruvi organlari takliflarini umumlashtirish asosida ishlab chiqiladigan (har yili 20 fevralga qadar) va Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan (har yili 20 martga qadar) reja asosida amalga oshiriladi.

Huquqiy monitoring davlat boshqaruvi organlari tomonidan 4 ta bosqichda o‘tkaziladi: 1) huquqiy monitoring Obyektiga oid ma’lumotlarni to‘plash, umumlashtirish va tahlil qilish; 2) tahliliy ma’lumotnoma tayyorlash; 3) normativ-huquqiy hujjatlarda kamchiliklar aniqlangan taqdirda ularga o‘zgartirish kiritish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish; 4) huquqiy monitoring yakunlari bo‘yicha tayyorlangan tahliliy ma’lumotnoma va takliflarni Adliya vazirligiga taqdim qilish.

Normativ-huquqiy hujjatlarning huquqiy monitoringini o‘tkazish davrida yoki yakunida davlat boshqaruvi organlari tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarning ishonchliligini tekshirish maqsadida Adliya vazirligi tomonidan qo‘shimcha huquqiy monitoring o‘tkazilishi mumkin. Adliya vazirligi har chorakda davlat boshqaruvi organlari tomonidan huquqiy monitoring o‘tkazilishi ahvolini tahlil qiladi, natijalari bo‘yicha zarur hollarda, huquqiy monitoringni sifatli va to‘liq o‘tkazish bo‘yicha davlat boshqaruvi organlariga tegishli maslahatlar berishi yoxud qonunchilikda belgilangan boshqa choralarni amalga oshirishi mumkin.

Shu bilan birga mazkur tizim ham yana takomillashtirilishi lozim, xususan, avvalambor, mutaxassislarning “normativ-huquqiy hujjatlar ijrosining huquqiy monitoringini o‘tkazishning metodikasini ishlab chiqish” to‘g‘risidagi taklifi o‘rinli deb hisoblaymiz. Shu bilan birga huquqiy monitoringni o‘tkazish jarayonida jamoatchilik ishtirokini kengaytirish, monitoring qilishda jamoatchilik fikr va mulohazalarini olish va ularni ham monitoring natijalarida aks ettirish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, mamlakatimizda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning tartibga colish ta’cirini baholash tizimi joriy etilgan.

“Tartibga colish ta’cirini baholash – tartibga colish ta’cirini baholash doiraciga tushadigan normativ-huquqiy hujjatlar bilan joriy etilayotgan davlat tomonidan tartibga colishning yangi yoki mavjud ucul va vocitalari orqali yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ijobiy va calbiy oqibatlarni, shu jumladan, fuqarolar, tadbirkorlik cub’ektlari hamda davlat budjeti uchun foyda va xarajatlarni tahlil qilish, ijtimoiy va iqticodiy cohaga ta’cirni baholash hamda tartibga colishning camarali yoki muqobil vocitacilarini aniqlashni nazarda tutadigan maxcuc tartib-taomil”.

O‘zbekicton Recpublikaci Prezidentining “Tartibga colish ta’cirini baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘ricida” 2021 yil 15 martdagi PQ–5025-con qarori bilan tartibga colish ta’cirini baholash tizimi, Obyektlari va bocqichlari batafcil tartibga colindi.

Xususan, mazkur qaror bilan tasdiqlangan Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini va qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni tartibga solish ta’sirini baholashdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomdga muvofiq, tadbirkorlik faoliyatiga, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga hamda atrof-muhitga ta’sir ko‘rsatishni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat majburiy tarzda tartibga colish ta’cirini baholashdan o‘tkaziladi.

Normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiquvchi yoki tegishli davlat organlari va tashkilotlari tomonidan Vazirlar Mahkamasi tomonidan har yili 20 martga qadar tasdiqlanadigan Normativ-huquqiy hujjatlarni tartibga solish ta’sirini baholashdan o‘tkazish rejasiga muvofiq amalga oshiriladi.

Bunda davlat boshqaruvi organlari va boshqa tashkilotlar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Huquqiy monitoringning zamonaviy mexanizmlari asosida qonun hujjatlari ijrosining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2019-yil 2-noyabrdagi PQ–4505-son qarori ijrosi doirasida normativ-huquqiy hujjatlar ijrosining monitoringi (huquqiy monitoring) normativ-huquqiy hujjatlarni tartibga solish ta’sirini baholashdan o‘tkazish bilan birga amalga oshiriladi va uning natijalari tartibga solish ta’sirini baholashda inobatga olinadi.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 19-fevraldagi “Qonunlarning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi rolini hamda norma ijodkorligi jarayoni sifatini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-75-son qarorida qonun kuchga kirgan kundan boshlab besh yil o‘tib, mas’ul davlat organi va Oliy Majlis palatalarining qo‘mitalari tomonidan qonunning samaradorligini, maqsadi va kutilgan natijalariga erishilganligini aniqlash uchun uning tartibga solish ta’sirini baholash amaliyotini joriy etildi. Bu ham shubhasiz qonunlarning ijrosini tashkil etish va ta’minlash, bu borada qonunlar ijrosiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish imkonini beradi.

To‘rtinchidan, normativ-huquqiy hujjatlarning tarqatish va ijrochilariga yetkazish tizimi yo‘lga qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasining 2017 yil 7 sentabrdagi “Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta’minlash to‘g‘risida”gi O‘RQ-443-son Qonuni bilan Adliya vazirligi huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta’minlash sohasidagi maxsus vakolatli davlat organi etib belgilangan va uning ushbu sohadagi 15 ta vakolati nazarda tutilgan.

Xususan, Adliya vazirligi normativ-huquqiy hujjatlarning rasmiy e’lon qilinishini amalga oshiradi, O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasini (lex.uz) shakllantiradi hamda yuritadi, undan jismoniy va yuridik shaxslarning belgilangan tartibda foydalanishini ta’minlaydi, davlat organlari va tashkilotlarning huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta’minlash sohasidagi

faoliyatini muvofiqlashtirishni, bu faoliyatga uslubiy rahbarlik qilish hamda uni nazorat qilishni amalga oshiradi va boshqalar.

Huquqiy axborotni tarqatish normativ-huquqiy hujjatlarning matnlarini yuborish, ularni rasmiy va norasmiy e’lon qilish, huquqiy targ‘ibotni amalga oshirish hamda jismoniy va yuridik shaxslarga ularning so‘rovlariga ko‘ra huquqiy axborot taqdim etish kabi 5 ta usulda amalga oshirilishi mumkin.

“Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta’minlash to‘g‘risida”gi Qonunda normativ-huquqiy hujjatlarning qo‘llanilish tartibini tushuntirish masalasi ham tartibga solingan. Unga ko‘ra, jismoniy va yuridik shaxslarning so‘roviga ko‘ra davlat organlari va tashkilotlar o‘z faoliyatiga taalluqli normativ-huquqiy hujjatlarning qo‘llanilish tartibini tushuntiradi. Bunda davlat organlari va tashkilotlar tomonidan tayyorlangan normativ-huquqiy hujjatlarning qo‘llanilish tartibi to‘g‘risidagi tushuntirishlar ushbu organlar va tashkilotlarning tarkibiy va hududiy bo‘linmalari uchun majburiy kuchga ega.

Biroq, normativ-huquqiy hujjatlarning qo‘llanilish tartibi to‘g‘risidagi tushuntirishlarni tayyorlash metodikasi ishlab chiqilmagan bo‘lib, bunday tushuntirishlar normativ-huquqiy hujjat mazmunini buzib talqin qilish imkoniyatini bermasligi, uni qo‘llashda inson huquqlari asossiz cheklanishiga yoki kamsitilishiga sabab bo‘lmasligi haqidagi qoidalar belgilanmagan. Fikrimizcha, bunday tushuntirishlar bo‘yicha davlat organi yuridik xizmatining xulosasi, qonun hujjatlari bo‘yicha esa, Adliya vazirligining xulosasi ham olinishi talabini “Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta’minlash to‘g‘risida”gi Qonunda belgilab qo‘yish maqsadga muvofiq.

Qonunlarning huquqni qo‘llovchilarga va aholiga tushuntirish bo‘yicha ishlar holatini ham takomillashtirish lozim. Xususan, bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 19 fevraldagi “Qonunlarning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi rolini hamda norma ijodkorligi jarayoni sifatini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-75-son qarorida qonunlarning huquqni qo‘llovchilarga va aholiga tushuntirish yuzasidan ko‘rilayotgan chora-

tadbirlar samaradorligini oshirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga takliflar kiritish vazifasi yuklatilganligi ham so‘zimizni tasdiqlaydi. Ushbu tizimni hozirgi kun talablaridan kelib chiqib takomillashtirish, shu jumladan, yangi qonunlarning mazmun-mohiyatini tegishli auditoriyalarga (yoshlar, tadbirkorlar, davlat xizmatchilari va b.) mo‘ljallangan holda tarqatish, davlat organlariga murojaat qilganda, ularning hamda davlat organlarining ushbu masala bo‘yicha huquq va majburiyatlari ko‘rsatilgan tarqatma materiallar berish, ularni ushbu tashkilotlar veb-saytlarida ham joylashtirish kabi yangicha usullarni keng joriy etish maqsadga muvofiq.

Beshinchidan, normativ-huquqiy hujjatlarning ijrosi ustidan davlat nazorati tizimi yo‘lga qo‘yilgan.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021 yil 10 fevraldagi PF-6166-son Farmoni hamda “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021 yil 31 maydagi PQ-5132-son qarori bilan qabul qilinayotgan qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etish va monitoring qilishning “vazirlik, idora, mahalliy hokimiyat organlari – Adliya vazirligi – Vazirlar Mahkamasi – Hisob palatasi – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi”dan iborat ta’sirchan tizimi yaratildi.

Oltinchidan, normativ-huquqiy hujjatlar samarali ijro etilishining muhim institutsional asosi bu huquqiy ong, huquqiy madaniyatning shakllanganligi hisoblanadi.

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta’minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda milliy huquq tizimini tubdan isloh qilish, jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish hamda malakali yuridik kadrlarni tayyorlash borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 yanvardagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-5618-son Farmoni bilan jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish “shaxs – oila – mahalla – ta’lim muassasasi – tashkilot – jamiyat” prinsipi bo‘yicha tizimli va uzviy tashkil etilishi belgilandi.

Shu bilan birga Adliya vazirligi jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish sohasida muvofiqlashtiruvchi davlat organi etib belgilandi va uning zimmasiga ijrochilar va aholini qonunchilikning mazmun-mohiyati va ahamiyati to‘g‘risida xabardor qilishning sifatini tubdan oshirish, ushbu faoliyatni tashkil qilishda prinsipial yangi yondashuvlarni ishlab chiqish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish hamda ijrochilar va aholini qonunchilikning mohiyati va ahamiyati to‘g‘risida xabardor qilishning sifatini tubdan yaxshilash maqsadida keng jamoatchilik fikrini o‘rganish, tahlil qilish, ushbu sohada ishlarni yanada takomillashtirish borasida takliflar ishlab chiqish bo‘yicha qo‘shimcha vazifalar yuklatildi.

Shuningdek, “Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta’minlash to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq, Adliya vazirligi Huquqiy targ‘ibot va ma’rifat bo‘yicha davlat organlari ishlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha idoralararo kengashning ishini tashkil etadi. Vaholanki, mazkur kengash faoliyatini tartibga solish bo‘yicha qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 4 apreldagi 175-son qarori O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Idoralararo kollegial organlarni tubdan qisqartirish va yanada optimallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”2018 yil 28 avgustdagi PF-5527-son Farmoni talablaridan kelib chiqib, Hukumatning 2019 yil 23 fevraldagi 161-sonli qaroriga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan. Shunga ko‘ra, hozirgi vaqtda mazkur kengash o‘z faoliyatini tugatganligini inobatga olib, “Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta’minlash to‘g‘risida”gi Qonunni ham takomillashtirish lozim.

Xulosa qilib aytganda, ijro intizomi – har qanday davlat organlari va tashkilotlarning ish samaradorligini ta’minlovchi eng muhim hamda asosiy

faoliyat ko‘rsatkichlaridan biridir. Jamiyat hayotining barcha sohalarida olib borilayotgan islohotlarning samarali amalga oshirilishi, birinchi navbatda, davlat organlari va tashkilotlarning barcha bo‘g‘inlarida ijro intizomining zarur darajada tashkil etilishiga bog‘liq.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Sayidov R. Normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini huquqiy monitoring qilishni takomillashtirish masalalari // Jamiyat va innovatsiyalar. – Общество и инновации. – Society and innovations. – 2021. – №1. – B.131.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 20 apreldagi “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi O‘RQ-682-son Qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 20.04.2021 y., 03/21/682/0354-son.
3. Sayidov R. Normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini huquqiy monitoring qilishni takomillashtirish masalalari // Jamiyat va innovatsiyalar. – Общество и инновации. – Сосиетй анд инноватионс. – 2021. – №1. – B.131.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Huquqiy monitoringning zamonaviy mexanizmlari asosida qonun hujjatlari ijrosining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019 yil 2 noyabrdagi PQ-4505-son qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 02.11.2019 y., 07/19/4505/3987-son.
5. Sayidov R. Normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini huquqiy monitoring qilishni takomillashtirish masalalari // Jamiyat va innovatsiyalar. – Общество и инновации. – Society and innovations. – 2021. – №1. – B.131.
6. Ruziyev A.I. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining tartibga colish ta’cirini baholash: nazariya va amaliyot macalalari: Yurid. fan. fal. fan. dokt. (PhD) ... dicc. – Toshkent: TDYuU, 2022. – B.36.
7. O‘zbekicton Recpublikaci Prezidentining “Tartibga colish ta’cirini baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘ricida” 2021 yil 15 martdagi PQ–5025-son qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 16.03.2021 y., 07/21/5025/0208-son
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 19 fevraldagi “Qonunlarning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi rolini hamda norma ijodkorligi jarayoni sifatini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha

chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-75-son qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 20.02.2024 y., 07/24/75/0137-son

9. O‘zbekiston Respublikasining 2017 yil 7 sentabrdagi “Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta’minlash to‘g‘risida”gi O‘RQ-443-son Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 36-son, 944-modda

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 yanvardagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-5618-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 10.01.2019 y., 06/19/5618/2452-son

## ОБЪЕКТИВНЫЕ ПРИЗНАКИ ПРЕСТУПЛЕНИЙ ПРОТИВ ПОЛОВОЙ НЕПРИКОСНОВЕННОСТИ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ

**Ачилов И.Т.**

*Независимый соискател Ташкентского государственного юридического университета*

При уголовно-правовой классификации преступлений против половой неприкосновенности детей необходимо осуществлят их юридический анализ. Юридический анализ состоит из изучения объекта, объективной стороны, субъекта и субъективной стороны деяния.

В Узбекистане институт ответственности за половое сношение и иные действия сексуалного характера с лицом, не достигшим шестнадцатилетнего возраста, существует давно, однако в теории уголовного права отсутствует единое понимание элементов и особенностей указанных преступлений. В этой связи целесообразно исследоват уголовно-правовые особенности преступлений против половой неприкосновенности несовершеннолетних и провести глубокий юридический анализ. Вместе с тем изучение элементов состава любого общественно опасного деяния следует начинат с анализа его объективных признаков.

Необходимост применения (изучения) объективных признаков заключается, во-первых, в правилной квалификации преступления; в признании антиобщественных деяний лица преступлением; в установлении того, какими будут последствия; в отделных случаях — в определении наличия либо отсутствия последствий; а также в установлении причинной связи, доказателстве того, что вред, причинённый в результате преступления, возник именно вследствие действий данного лица, и в выявлении иных аналогичных обстоятелств.

В уголовном праве объект занимает основное место в понимании содержания преступления и его общественной опасности. Под объектом понимаются общественные отношения, которым причиняется вред или которые ставятся под угрозу в результате совершения преступления. Любые общественные отношения, охраняемые законом, то ест жизн и здорове человека, собственност, половая неприкосновенност, интересы государства и общества, рассматриваются как объект преступления. В этом смысле объект преступления определяет, на какие именно отношения совершено посягателство, а сущност преступления определяется вредом, причинённым именно этим отношениям.

Понятие объекта является основным элементом состава преступления и показывает, какие общественные отношения нарушены или поставлены под угрозу действиями виновного. Например, в преступлениях против личности преступник посягает на жизн или здорове; в экономических преступлениях – на имущественные отношения; в преступлениях против половой неприкосновенности – на чест личности и её половую свободу.

В преступлениях сексуалного характера в отношении несовершеннолетних в качестве охраняемого объекта признаются нормалное физическое и половое развитие лиц, не достигших половой зрелости, а также их половая неприкосновенност как общественные отношения в сфере их нормалной жизнедеятелности,

посколку такие отношения в любом случае требуют специалной защиты.

В преступлениях против половой неприкосновенности несовершеннолетних в качестве объекта посягателства К. Пайзуллаев указывает физическую и половую зрелост несовершеннолетних, Ф. Тохиров — их нормалное половое развитие, М. Рустамбаев — действия, нарушающие половую неприкосновенност наряду с честю и достоинством личности, а С. Ниёзова — нормалное развитие ребёнка.

Как видно, авторы придерживаются различных точек зрения по объекту преступления и исползуют понятие «половая неприкосновенност». В этой связи необходимо разъяснит данный термин.

Неприкосновенност – это состояние или право, которое не может быт нарушено, подвергнуто посягателству либо унижению кем-либо и строго охраняется законом; слово «неприкосновенност» означает защищённост от любой угрозы или посягателства.

Под половой неприкосновенностю понимается запрет, установленный законом, на совершение с детми, то ест с лицами, не достигшими 16 лет, любых половых сношений либо любых иных действий сексуалного (похотливого) характера — независимо от того, согласны они или не согласны.

Здес можно отметит, что в уголовном законодателстве в диспозициях статей, устанавливающих ответственност за преступления против половой неприкосновенности и свободы детей, в качестве условия, влекущего уголовную ответственност, предусмотрена не «половая зрелост», а определённый возраст (14, 16, 18 лет). Это можно объяснит несколкими причинами.

Во-первых, как отмечает Ф. Тохиров, понятие «половая зрелост» включает биологические, психологические, социалные и физические аспекты, и на практике почти невозможно оценит его по чётким и единым критериям. Посколку физиологическое развитие, психическое состояние и интеллектуалные способности каждого ребёнка различны, вопросы «когда наступает зрелост», «в каких

случаях она наступает», «кем и по каким критериям определяется» не могут имет однозначного ответа в уголовном праве. Следовательно, исползование половой зрелости в качестве юридического основания приводит к правовой неопределённости.

Поэтому закон принимает более точный и устойчивый критерий – возраст. Например, любые действия сексуалного характера в отношении лица, не достигшего 14 лет, считаются преступлением; при этом не исследуется, является ли ребёнок «зрелым» или «незрелым», посколку закон гарантирует специалную защиту ребёнка по возрастному признаку.

Во-вторых, в научных исследованиях психологии и медицины, связанных с детской психикой, доказано, что дети не способны полностю осознават сущност и последствия сексуалных отношений. Как подчёркивает Ф. Расулова, даже если ребёнок физиологически зрел, его психическое развитие недостаточно для самостоятелного и осознанного выражения согласия на сексуалные отношения. Поэтому закон не учитывает его согласие и до достижения определённого возраста обеспечивает его абсолютную защиту от любых сексуалных действий.

В-третих, в следственной и судебной практике невозможно установит «половую зрелост». Если бы ответственност зависела от зрелости, экспертные заключения постоянно становилис бы спорными, допускали бы разные толкования и опиралис бы на субъективные выводы. Это привело бы к неэффективности борбы с преступностю, к уходу виновных от ответственности либо, наоборот, к росту случаев незаконного наказания.

В-четвёртых, в уголовном законодателстве требуется правовая определённост (legal certainty), то ест признаки состава преступления должны быт ясными, понятными и исключающими коллизии. Поэтому в диспозициях применяются критерии «не достиг 14 лет», «не достиг 16 лет», «не достиг 18 лет». Это обеспечивает правилную квалификацию преступлений и служит чётким критерием для правоохранителных органов.

В-пятых, это политика максимальной защиты детей. Государство обязано обеспечиват абсолютную защиту нормалного физического, полового и психического развития детей. Поэтому закон обеспечивает абсолютную охрану половой неприкосновенности всех детей до определённого возраста. Такая политика соответствует и требованиям международного права, в том числе Конвенции о правах ребёнка.

Таким образом, необходимост определения ответственности за сексуалные преступления в отношении детей не через «половую зрелост», а через возраст, может быт полностю обоснована такими факторами, как правовая определённост, защита физического и психического развития детей и соответствие международным стандартам.

В этой связи возрастные пределы потерпевших (14, 16, 18 лет) в преступлениях против половой неприкосновенности несовершеннолетних разграничены в соответствии с половым развитием ребёнка и степеню нуждаемости в правовой защите. Исходя из этого, право на половую неприкосновенност несовершеннолетних можно разделит на следующие группы:

Абсолютная половая неприкосновенност – в отношении лиц до 14 лет: определяется тем, что несовершеннолетние данного возраста не обладают способностю осознават сущност сексуалных отношений; биологические и психологические основы сексуалного поведения у них ещё не сформированы; они не могут понимат смысл, последствия и опасност сексуалных действий; поэтому половое сношение с ними абсолютно запрещено независимо от согласия. В связи с тем, что способност к осознанному принятию решения не сформирована, ребёнок не может дат «согласие» на половую связ (ч. 4 ст. 118 и 119 УК).

Относителная половая неприкосновенност – в отношении лиц от 14 до 16 лет: обусловлена тем, что несовершеннолетние частично могут осознават сексуалные действия и сексуалные отношения, достигли полового созревания, но не способны полностю понимат негативные последствия сексуалного контакта; поэтому запрещаются

сексуалные действия, совершённые с применением насилия либо угроз, а значение согласия признаётся в определённых случаях.

Сексуалная свобода – в отношении лиц от 16 до 18 лет: характеризуется достижением возраста половой зрелости и способностю осознават смысл собственных действий; при этом несовершеннолетние могут не полностю осознават последствия половых отношений; согласие приобретает полноценное значение, за исключением отделных случаев (совершение полового сношения либо удовлетворение половой потребности противоестественным способом путём предоставления материалных ценностей либо имущественного или иного стимулирования).

Следовательно, объектом посягателства при преступлениях против половой неприкосновенности детей является половая неприкосновенност и нормалное развитие лиц, не достигших 16 лет. Кроме того, анализируемые деяния создают серёзную угрозу интересам общества, связанным с воспитанием здорового и всесторонне развитого будущего поколения. Дополнителным объектом таких посягателств является здорове личности. Например, при совершении преступлений, предусмотренных частями третей и четвёртой статей 118, 119, а также частю второй стати 128 УК, наряду с посягателством на половую неприкосновенност возможно причинение телесных повреждений различной степени тяжести.

К.П. Пайзуллаев подчёркивает, что такие посягателства опасны для всех лиц, не достигших 16 лет, независимо от пола, и что половое сношение не приводит у лиц мужского пола к последствиям, характерным для девочек, таким как дефлорация, беременност, аборт и т. п. Однако, несмотря на это, раннее начало половой жизни может имет негативные последствия и для малчиков-подростков. По мнению А.Б. Сахарова, трет несовершеннолетних правонарушителей начали половую жизн рано.

В медицине установлено, что незрелый организм может проявлят негативную реакцию на половую жизн, что, в свою очеред, оказывает отрицателное влияние на физическое и половое развитие

подростка и приводит к обеднению его духовного мира. Кроме того, стремление удовлетворит преждевременно пробудившееся половое влечение при ещё не полностю сформированном нравственном сознании выступает мотивом, побуждающим подростка к совершению сексуалных преступлений.

Посягателство на охраняемые уголовным законом общественные отношения представляет собой определённую деятелност субъекта, которая либо создаёт угрозу общественным отношениям, либо причиняет им реалный ущерб. При этом следует отметит, что не все признаки объективной стороны имеют одинаковое содержание в различных преступлениях.

Таким образом, можно сказат, что половая неприкосновенност служит условием нормалного формирования и развития несовершеннолетнего.

Обобщая изложенное, можно прийти к выводу, что непосредственным объектом данного преступления являются общественные отношения, обеспечивающие охрану половой неприкосновенности лица, не достигшего 16 лет, а также обеспечение нормалного нравственного, физического и психического развития несовершеннолетних.

Преступления сексуалного характера в отношении несовершеннолетних, во-первых, причиняют потерпевшему значителный физический вред, во-вторых, унижают его чест и достоинство, в-третих, приводят к негативным психологическим изменениям.

Кроме того, такие преступления нарушают мировоззрение ребёнка и его представления о себе, дестабилизируют отношения с другими людми и препятствуют формированию правилного нравственного воспитания. В частности, по мнению Игнатова, при совершении развратных действий в отношении несовершеннолетних и при половом сношении с лицом, не достигшим половой зрелости, возможно причинение вреда здоровью потерпевшего (например, повреждение девственной плевы либо другие телесные повреждения), а также унижение достоинства личности (например, удовлетворение половой потребности противоестественным

способом с несовершеннолетним). Однако в таких случаях главным объектом, определяющим сущност деяния, является нормалное физическое и нравственное развитие и формирование несовершеннолетних.

М. Рустамбаев и Р. Икрамов, разъясняя, что преступление с объективной стороны выражается в совершении развратных действий без применения насилия в отношении лица, заведомо для виновного не достигшего 16 лет, указывают, что развратные действия проявляются в физической и интеллектуалной формах. М.Гусарова отмечает, что в зависимости от наличия либо отсутствия прямого контакта тела виновного с телом потерпевшего совокупност развратных действий условно может быт разделена на физические и интеллектуалные, контактные и бесконтактные формы.

Учитывая изложенное, чем менше возраст потерпевшего, тем болше и зачастую необратимее нарушения его нравственного, физического и психического развития.

В предыдущей редакции УК обвиняемый, вступивший в половую связ с лицом, не достигшим 16 лет, на основании согласия потерпевшего мог ссылатся на то, что не знал возраста потерпевшего, и быт привлечённым к ответственности по более мягкой стате. В новой редакции обеспечена неизбежност ответственности: установлено, что обвиняемый подлежит уголовному наказанию независимо от того, знал он возраст потерпевшего или нет. То ест деяние лица, совершившего сексуалное насилие в отношении лица, не достигшего 14, 16 либо 18 лет, независимо от осведомлённости о возрасте потерпевшего, должно оцениватся исходя из фактического возраста потерпевшего, с назначением соразмерного более строгого наказания.

Половое сношение осуществляется по взаимному согласию. Одним из основных различий между изнасилованием и половым сношением с лицом, не достигшим 16 лет, является наличие согласия. Однако тонкост вопроса состоит в том, насколко объективно согласие малолетнего. В какой мере ребёнок до 15 лет способен осознават значение своего решения и понимат психологическое воздействие

преступника, а также противостоят ему? Как отмечалос, обязателным условием состава изнасилования является совершение деяния с применением насилия, угроз либо с исползованием беспомощного состояния потерпевшего. В постановлении Пленума Верховного суда от 29 октября 2010 года № 13 «О судебной практике по делам об изнасиловании и удовлетворении половой потребности противоестественным способом» разъяснено, что все лица, не достигшие 14 лет, признаются находящимися в беспомощном состоянии, поэтому половое сношение с ними естественным или противоестественным способом подлежит квалификации по ч. 4 ст. 118 и ч. 4 ст. 119 УК.

Исходя из этого, посколку ст. 128 УК охватывает толко половое сношение с лицом в возрасте от 14 до 16 лет, необходимо заменит в названии и диспозиции ч. 1 ст. 128 УК слова «лицо, не достигшее шестнадцати лет» словами «лицо в возрасте от четырнадцати до шестнадцати лет».

Далее: при изучении материалов уголовных дел по преступлениям, совершённым в 2025 году по ч. 4 ст. 118, ч. 4 ст. 119 и ст. 128 УК, установлено, что во всех случаях полового сношения с лицом до 14 лет деяния квалифицировалис по ч. 4 ст. 118 и ч. 4 ст. 119 УК. Следовательно, в 2025 году возраст потерпевших по делам, возбужденным в рамках ст. 128 УК, составлял исключительно 14–16 лет.

Одной из особенностей объективной стороны преступлений против половой неприкосновенности детей является то, что такие преступления совершаются толко путём активных действий. Поэтому конкретное действие сексуалного характера, то ест реалност совершения действий, причиняющих вред сексуалным интересам лица либо создающих угрозу такого вреда, является обязателным признаком объективной стороны всех посягателств на половую неприкосновенност детей. Однако общественно опасные деяния, которые хотя и направлены на удовлетворение половой потребности, но не нарушают половую неприкосновенност несовершеннолетних, а посягают на иные общественные отношения, не должны включатся в систему сексуалных преступлений.

Все преступления, направленные против половой неприкосновенности детей, являются формалными составами и считаются оконченными независимо от того, достиг ли виновный своей сексуалной цели.

Также после совершения полового сношения причинение потерпевшему телесных повреждений либо угрозы убийством с целю заставит его молчат о произошедшем или по иным мотивам не должны рассматриватся как насилие при изнасиловании, а подлежат квалификации по статям УК, относящимся к преступлениям против здоровя.

С объективной стороны изнасилование детей может быт совершено и посредством угроз, то ест психологического (психического) насилия. По данным К. П. Пайзуллаева, в 16,1% случаев изнасилование детей совершается через угрозы. При этом угроза (за исключением угрозы убийством или применения насилия) не всегда образует самостоятелный состав преступления. По мнению А. Ниёзова, если угроза проявляется как элемент объективной стороны другого преступления, она выступает способом и средством воздействия на психику потерпевшего с целю подавления сопротивления и запугивания возможным причинением вреда в случае невыполнения требований виновного.

Посягателства на половую неприкосновенност несовершеннолетних не всегда сопровождаются грубым физическим насилием. Значителная част подобных преступлений совершается путём психологического воздействия, запугивания и манипулирования сознанием потерпевшего. В таких случаях внешняя форма поведения может не носит выраженного насилственного характера, однако по своему содержанию она направлена на подавление воли ребёнка и устранение его сопротивления.

Угроза в структуре объективной стороны таких преступлений выступает способом воздействия на психику потерпевшего. Она может выражатся в обещании причинит вред самому ребёнку, его близким, распространит позорящие сведения, лишит поддержки, либо

в исползовании религиозных, моралных или авторитетных установок, значимых для несовершеннолетнего. Особенност угрозы в данной категории дел заключается в том, что её воздействие определяется не столко объективной возможностю реализации, сколко субъективным восприятием ребёнком как реалной опасности.

С учётом возрастных особенностей психики несовершеннолетних даже словесное давление может оказатся достаточным для подавления сопротивления. Поэтому оценка угрозы должна строится не по формалным критериям, а исходя из способности конкретного потерпевшего воспринимат её как реалную.

Существенную рол в механизме совершения преступлений против половой неприкосновенности несовершеннолетних играет обман. В отличие от открытого насилия, обман основан на введении ребёнка в заблуждение относительно намерений виновного, характера отношений или последствий действий.

На практике распространены ситуации, когда взрослый, ползуяс доверчивостю несовершеннолетнего, формирует у него иллюзию безопасных или «нормалных» отношений. Обещания вступления в брак, создания семи, материалной поддержки, а также утверждения о якобы распространённости подобных отношений среди сверстников служат инструментом психологического воздействия.

С точки зрения уголовного права такое «согласие», полученное посредством обмана, не может рассматриватся как свободное волеизъявление. Оно формируется под влиянием искажённой информации, что фактически лишает ребёнка возможности осознанного выбора. В резултате вред причиняется не толко физической сфере, но и психике несовершеннолетнего, формируя у него искажённые представления о межличностных отношениях.

Современные информационно-коммуникационные технологии существенно изменили способы совершения преступлений сексуалного характера в отношении несовершеннолетних. Интернет и мобилные приложения позволяют преступникам устанавливат

контакт с детми без непосредственного физического присутствия, создавая иллюзию безопасного общения.

Через социалные сети, мессенджеры и игровые платформы злоумышленники получают возможност завоёвыват доверие ребёнка, исползоват вымышленные личности, направлят непристойные сообщения, изображения и видеоматериалы, а также склонят несовершеннолетних к совершению действий сексуалного характера дистанционно.

Такие формы посягателств обладают высокой латентностю, трансграничным характером и сложностю выявления. Отсутствие непосредственного контакта не снижает общественной опасности деяния, посколку вред психическому развитию ребёнка причиняется независимо от физического взаимодействия.

В уголовно-правовой теории и практике особое место занимает категория удовлетворения половой потребности противоестественным способом. К таким действиям относятся любые формы сексуалного контакта, не представляющие собой естественное половое сношение между лицами противоположного пола.

Данные действия характеризуются повышенной травматичностю для психики несовершеннолетнего, посколку сопровождаются не толко физическим воздействием, но и силным эмоционалным стрессом, чувством унижения и страха. В отношении малолетних лиц такие действия по своей общественной опасности приравниваются к наиболее тяжким формам сексуалных посягателств.

Возраст потерпевшего до четырнадцати лет имеет самостоятелное квалифицирующее значение. Малолетний ребёнок в силу возраста объективно не способен осознават характер и последствия сексуалных действий, а потому его состояние юридически приравнивается к беспомощности.

Это означает, что для квалификации деяния не требуется дополнителного доказывания применения насилия или угроз. Сам факт совершения сексуалных действий в отношении малолетнего

образует состав преступления, посколку согласие такого лица юридически ничтожно.

Сексуалные посягателства на несовершеннолетних оказывают комплексное разрушителное воздействие на личност ребёнка. Помимо возможных физических последствий, они формируют длителные психологические травмы, нарушают процессы социализации, подрывают доверие к окружающим и искажают представления о межличностных отношениях.

Последствия подобных деяний нередко проявляются спустя годы в виде депрессий, тревожных расстройств, нарушений поведения и затруднений в построении семейных отношений. Именно поэтому уголовно-правовая защита детей в данной сфере носит приоритетный и усиленный характер.

Проведённый анализ показывает, что объективная сторона преступлений против половой неприкосновенности несовершеннолетних охватывает широкий спектр форм поведения – от прямого насилия до психологического давления, обмана и дистанционных действий через цифровую среду. Ключевым критерием уголовно-правовой оценки остаётся возраст потерпевшего, обеспечивающий правовую определённост и максималную защиту детей.

Современные тенденции требуют далнейшего совершенствования законодателства с учётом цифровых форм преступности, усиления механизмов выявления таких деяний и обеспечения комплексной защиты интересов ребёнка.

**Исползованной литературы:**

1. Берлыбекова М. Теоретические аспекты причин преступного поведения // *Вопросы криминологии*.

2. Блиндер Б. А. Криминологические аспекты посягателств на половую неприкосновенност несовершеннолетних // *Криминология и уголовное право*.

1. Уголовный кодекс Республики Узбекистан (ст. 118, 119, 128, 129, 129¹ — по тексту).

2. Постановление Пленума Верховного суда Республики Узбекистан от 29 октября 2010 г. № 13 «О судебной практике по делам об изнасиловании и удовлетворении половой потребности противоестественным способом».

3. Конвенция о правах ребёнка (международный договор; в тексте упоминается как стандарт).

4. Уголовное законодателство Германии (в части оценки половых действий с лицом до 14 лет — упоминание сравнителного примера).

5. Уголовный кодекс Полши (в части самостоятелной ответственности за сексуалные действия в отношении лиц, не понимающих сущност происходящего).

6. Пайзуллаев К. П. (позиции об объекте посягателства, угрозе как способе, классификация беспомощности и др.).

7. Тохиров Ф. (критика критерия “половая зрелост”, аргументы за возрастной критерий, вопросы конструкции норм).

8. Рустамбаев М. (позиции по объекту и признакам составов; совместно с Икрамовым).

9. Ниёзова С. (подход к объекту — “нормалное развитие ребёнка”).

10. Расулова Ф. (психологическая/медицинская аргументация о невозможности осознанного согласия ребёнка).

11. Сахаров А. Б. (данные/суждение о раннем начале половой жизни у несовершеннолетних правонарушителей).

12. Игнатов (о вреде здоровью, унижении достоинства и приоритете объекта “нормалное развитие”).

13. Икрамов Р. (в соавт. с Рустамбоевым — формы развратных действий).

14. Гусарова М. В. (деление развратных действий на контактные/бесконтактные, физические/интеллектуалные).

# VOYAGA YETMAGANLARGA NISBATAN ZAMONAVIY TAHDIDLAR TUSHUNCHASI VA TASNIFI

**Jo‘rayev Q.O.**
*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti magistratura tinglovchisi*

So‘nggi o‘n yilliklarda voyaga yetmaganlarning hayoti va sog‘lig‘iga xavf tug‘diyotgan zamonaviy tahdidlarning tabiati sezilarli darajada o‘zgardi, jismoniy zo‘ravonlik va e'tiborsizlikdan tashqari, raqamli, axborot, ideologik va psixologik xatarlarni ham o‘z ichiga oldi[1]. Zamonaviy tahdidlar ularning yashirin tabiati, tez tarqalishi va uzoq muddatli oqibatlari bilan xarakterlanadi. Bu tahdidlar ko‘pincha milliy chegaralarni kesib o‘tadi va zamonaviy ijtimoiy va texnologik tizimlarda chuqur joylashadi. Shu bois, ularning tushunchasi va tasnifini ilmiy ravishda anglash samarali profilaktik strategiyalarni ishlab chiqish uchun muhimdir. Voyaga yetmaganlarning hayoti va sog‘lig‘iga xavf tug‘dirayotgan zamonaviy tahdidlarning tushunchasi, yoshi to‘qsondan kam bo‘lgan shaxslarning hayoti, salomatligi, qadr-qimmati, huquqlari va kompleks rivojlanishi uchun haqiqiy yoki potentsial zarar keltiruvchi zamonaviy xatar omillari, jarayonlari va ta'sirlar tizimi sifatida ta'riflanadi[2].

Bu tahdidlar zamonaviy jamiyatning ijtimoiy, texnologik, iqtisodiy va ideologik transformatsiyalaridan paydo bo‘ladi. An'anaviy tahdidlardan farqli o‘laroq, zamonaviy tahdidlar ko‘pincha bilvosita va tizimli tarzda ishlaydi. Ular darhol jismoniy zarar keltirmasligi mumkin, ammo psixologik barqarorlik, ma'naviy qadriyatlar, ijtimoiy xulq va shaxsiyat shakllanishiga sezilarli ta'sir ko‘rsatishi mumkin[3].

Voyaga yetmaganlarni himoya qilish xalqaro hamjamiyatning asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida tan olingan. 1989-yil 20-noyabr kuni qabul qilingan Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaga ko‘ra “Ishtirokchi-davlatlar bolalarni tegishli xalqaro shartnomalarda belgilanganidek, giyohvandlik va psixotrop moddalarini noqonuniy

iste’mol qilishdan himoya qilish uchun barcha zarur choralarni, jumladan, qonunchilik, ma’muriy va ijtimoiy, shuningdek ta’lim sohasidagi choralarni hamda bunday moddalarni g‘ayriqonuniy ravishda ishlab chiqarishda va ularni sotishda bolalardan foydalanishga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘radilar. Ishtirokchi-davlatlar bolani jinsiy ekspluatatsiya va jinsiy buzishning barcha shakllaridan himoya qilish majburiyatini oladilar. Shu maqsadlarda ishtirokchi-davlatlar, xususan, milliy, ikki tomonlama va ko‘p tomonlama darajalarda quyidagilarning oldini olish uchun hamma zarur choralarni ko‘radilar:

a) bolani har qanday g‘ayriqonuniy jinsiy faoliyatga tortish va majburlash;

b) fohishalik yoki g‘ayriqonuniy boshqa jinsiy amaliyotda bolalarni ekspluatatsiya qilish maqsadlarida foydalanish;

s) pornografiya va pornografiya materiallarini tayyorlashda bolalarni ekspluatatsiya qilish maqsadlarida foydalanish.

Ishtirokchi-davlatlar bolalarni o‘g‘irlash, bolalar savdosi yoki ularni har qanday maqsadlarda va har qanday shakllarda kontrabanda qilishning oldini olish uchun milliy, ikki tomonlama va ko‘p tomonlama darajalarda barcha zarur choralarni ko‘radilar.Ishtirokchi-davlatlar bolani uning farovonligining har qanday jihatiga zarar yetkazadigan ekspluatatsiyaning barcha boshqa shakllaridan himoya qiladilar”[4] deb belgilab qo‘yilgan. Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘yicha dastlabki qadamlar davlatimiz tomonidan 1992-yilda amalga oshirilib, “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiyani ratifikatsiya qilib, milliy qonunchiligimizni konvensiya qoidalariga implementatsiya qilish asnosida 2008-yil 7-yanvarda “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi.

*Bola (bolalar)* – o‘n sakkiz yoshga to‘lgunga (voyaga yetgunga) qadar bo‘lgan shaxs (shaxslar)[5].

*Tahdid* – qo‘rqitish, birovga zarar etkazish va'dasi, yomonlik.

Bolalar o‘zlarining yoshga xos psixologik va fiziologik xususiyatlari tufayli tashqi ta'sirlarga va zararli muhitlarga nisbatan alohida zaifdir.

*Internetda bezorilik*[6] yoki *kiberbulling*[7] – qasddan haqorat qilish,, haqorat qilish, tahdid qilish, tuhmat qilish va zamonaviy aloqa vositalaridan foydalangan holda, qoida tariqasida, boshqalarga zarar yetkazuvchi ma’lumotlarni yetkazish, uzoq muddat,Kibermadaniyatning bir qismi bo‘lgan.

Kibermobbing anglikizmlari ham hodisaga ishora qilish uchun ishlatiladi – bu ingliz tilidan olingan atama (inglizcha: cyber-mobbing), shuningdek, Internet-mobbing (Internet mobbing), kiberbulling (kiberbullying), trolling (trolling — “tutish”), olov (olov — “olov”) ma’nolarida qo‘llanadi.

Bezorilik axborot makonida axborot-kommunikatsiya kanallari va vositalari orqali amalga oshiriladi. Shu jumladan Internetda elektron pochta orqali, lahzali xabar almashish dasturlari (masalan, ICQ), ijtimoiy tarmoqlarda, forumlarda, shuningdek, video portallarda (YouTube, Video va boshqalar) buzg‘unchi video materiallar va xabarlarni joylashtirish orqali (odatda odobsiz so‘zlar bilan) yoki mobil telefon orqali (masalan, SMS xabarlar yoki bezovta qiluvchi qo‘ng‘iroqlar orqali).

Ko‘pincha “troller”, “bezorilar” yoki “mobbers” deb ataladigan bu bezoriliklarning aybdorlari ko‘pincha yashirin tarzda harakat qilishadi, shuning uchun jabrlanuvchi zo‘ravonlik harakatlarini kim amalga oshirayotganini bilmaydi.

Bezorilik deganda, odatda, jamoa a’zolaridan birining boshqasi tomonidan, lekin ko‘pincha bir guruh shaxslar tomonidan tajovuzkor ta’qib qilinishi tushuniladi.

Keng ma’noda bezorilik — bu boshqa shaxsning qadr-qimmatini, masalan, maktabda, ish joyida, qamoqxonada, internet orqali va hokazolarda tizimli, uzoq muddatli ta’qib qilish, haqorat qilish, kamsitishdir. Bezorilik paytida amalga oshiriladigan odatiy harakatlar — bu shaxs haqida bila turib yolg‘on ma’lumot (mish-mishlar va g‘iybatlar) tarqatish, masxara va provokatsiya, to‘g‘ridan-to‘g‘ri haqorat va qo‘rqitish, ijtimoiy izolyatsiya (boykot va namoyishkorona johillik), shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini kamsituvchi hujumlar, shuningdek, moddiy yoki jismoniy zarar yetkazuvchi shaxsdir.

World Wide Web imkoniyatlari an’anaviy bezorilikka xos bo‘lgan psixologik bosim shakllariga qo‘shiladi, buning natijasida u quyidagi funksiyalarga ega bo‘ladi:

*Shaxsiy hayotga 24/7 tajovuz.* Bezorilik vaqt yoki geografik cheklovlarga ega emas. Hujumlar maktabdan yoki ish kunidan keyin tugamaydi. Kiberjinoyatchi (mobber) jabrlanuvchiga texnik vositalar: mobil telefon yoki ijtimoiy tarmoq profili va elektron pochta orqali 24/7 to‘g‘ridan-to‘g‘ri kirish huquqiga ega. Doimiy raqamlar va hisoblar tufayli qurbon uydagi hujumlardan himoyalanmaga. Boshqa tomondan, unchalik qat’iy bo‘lmagan va qobiliyatli bezori qora ro‘yxatga kiritilishi va spam sifatida belgilanishi mumkin.

*Cheksiz auditoriya, axborotni tarqatish tezligi.* Elektron vositalar orqali yuborilgan xabarlar yoki rasmlarni onlayn bo‘lgandan keyin nazorat qilish juda qiyin. Misol uchun, videolar bir Internet portalidan boshqasiga osongina ko‘chiriladi. Shu sababli, auditoriya hajmi va kibermobbingning tarqalish sohasi “oddiy” bezorilikdan ancha kengroqdir. Ko‘p vaqtdan beri unutilgan kontent yana ommaga ko‘rsatilishi mumkin, bu esa jabrlanuvchiga uni zararsizlantirishni qiyinlashtiradi.

*Jinoyatchining anonimligi.* Kiberjinoyatchi o‘z qurboniga o‘zini ko‘rsatmaydi, u anonim tarzda harakat qilishi mumkin, bu esa unga ko‘rinishda bo‘lsa ham xavfsizlikni ta’minlaydi va ko‘pincha uning salbiy “kiber faoliyati” davomiyligini oshiradi. Jabrlanuvchining uni tahqirlayotgan “boshqa” kimligini bilmasligi uni qo‘rqitishi va tinchlikdan mahrum qilishi mumkin[5]. Onlayn zo‘ravonlik qurboni bo‘lgan bolalar ilgari haqiqiy hayotda zo‘ravonlikka duchor bo‘lishgan. Ko‘p hollarda ta’qibchining asosiy zarbasi tashqi ko‘rinishga, o‘smir yoki kattalarning “avatariga” tushadi (masalan, juda nozik yoki juda semiz va hokazo).

Jabrlanganlar va ularni ta’qib qiluvchilarning asosiy soni 11-16 yosh balog‘at yoshiga to‘g‘ri keladi, har qanday haqorat, mish-mishlar va ijtimoiy muvaffaqiyatsizliklarga nisbatan yuqori sezgirlik bilan ajralib turadi. Voyaga yetmaganlarning hayoti va sog‘lig‘iga xavf tug‘dirayotgan zamonaviy tahdidlar o‘zaro bog‘liq va o‘zaro kuchaytiruvchi ekanligini ko‘rsatadi. Ijtimoiy e'tiborsizlik raqamli manipulyatsiyaga moyillikni

oshirishi mumkin, psixologik zaiflik esa ideologik radikalizatsiyani osonlashtirishi mumkin. Shu bois, bu tahdidlarga qarshi kurashish uchun huquqiy tartib, ta’lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimlarini qamrab olgan kompleks, interdisipliner yondashuv talab etiladi.

Voyaga yetmaganlarga zamonaviy tahdidlar zamonaviy ijtimoiy va texnologik voqeliklar ta'sirida shakllangan dinamik va murakkab fenomenni tashkil qiladi. Ularning tushunchasini aniq bilish va tizimli tasnifini ishlab chiqish samarali profilaktika, huquqiy va ta’lim chora-tadbirlarini rivojlantirish uchun muhimdir. Oilalar, ta’lim muassasalari, davlat organlari va fuqarolik jamiyati hamkorligini mustahkamlash voyaga yetmaganlarni himoya qilish va barqaror rivojlanishini ta'minlashda asosiy ahamiyatga ega.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bolalar Jamg‘armasi (UNICEF), Dunyodagi bolalar holati, Nyu-York, 2021.
2. Lansdown, G., Bola huquqlari va bolalarni himoya qilish, UNICEF, 2015.
3. Giddens, A., Zamonaviylik va o‘zlikni anglash, Stanford universiteti nashriyoti, 1991.
4. Bola huquqlari to‘g‘risida konvensiya .29.07.1994-yil. 33,34, 35,36-moddalar.
5. “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining qonuni, 07.01.2008 yildagi O‘RQ-139-son
6. Podgotovka budущix pedagogov k obespecheniyu informatsionnoy bezopasnosti shkolnikov: dissertatsiya … doktora pedagogicheskix nauk : 13.00.08 / Bogatireva Yuliya Igorevna; [Mesto zaщiti: GOUVPO „Tulskiy gosudarstvenniy universitet“]. — Tula, 2014. — 401 s.
7. Парфентев У. Кибер-агрессори //Дети в информатсионном обществе. — 2009. — Т. 2. — С. 66-67.

# AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI SHAROITIDA YOSHLAR O‘RTASIDA KIBERBULLING(KIBERBEZORILIK): TUSHUNCHASI, O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA JINOYAT-HUQUQIY TARTIBGA SOLISH MASALALARI

**Anvarjonov B.A.**
*Huquqni muhofaza qilish akademiyasi tinglovchisi*

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tez sur’atlarda rivojlanishi va keng tarqalishi natijasida shaxsiy hayot daxlsizligi bilan bog‘liq yangi xavflar paydo bo‘lmoqda. Bu xavflardan biri — an’anaviy tahqirlash va tazyiq qilish holatlarining internet muhitida namoyon bo‘lishidir. Haqiqatdan ham, kiberbulling va kibertazyiqning zamonaviy shakllari bolalar xavfsizligi va farovonligi nuqtai nazaridan jiddiy tashvish uyg‘otmoqda.

Shuningdek, kiberbulling holatlarining soni va takrorlanish chastotasi tez sur’atlarda oshib bormoqda va so‘nggi yillarda bolalar internetda tobora keng tarqalgan xavflarga duch kelmoqda. Bu holat odamlarning boshqalarni tuhmat qilish va kiberbulling qilish uchun internetdan tobora ko‘proq foydalanayotgani bilan bog‘liq.

Masalan, Amerikadagi “Cyberbullying Research Center” tomonidan 2025 yil noyabr oyida o‘tkazilgan tadqiqotiga ko‘ra, 2025 yilgi maktab o‘quvchilarining taxminan 58% hayotlarining biron bir davrida kiberbullingga duch kelganliklarini aytishdi. Taxminan 33% so‘nggi 30 kun ichida kiberbullingga uchraganliklarini aytishdi. Oldingi 30 kun ichida boshdan kechirgan kiberbullingning aniq turlari haqida so‘ralganda, eng ko‘p xabar qilingan shakllar quyidagilarni o‘z ichiga oldi: SMS yoki guruh suhbatidan chetlashtirilish (32,5%), internetda joylashtirilgan yomon yoki haqoratli izohlar (31,6%), internetda uyalish yoki xo‘rlanish (31,3%) va internetda mish-mishlar tarqalishi (29,2%).

Shimoliy Irlandiya maslahat xizmati hisobotiga ko‘ra, o‘smirlarning 25 foizi mobil telefon yoki internet orqali takroriy tahqirlashga duch

kelganini bildirgan, 52 foizi esa kiberbulling qurboni bo‘lganini aytgan. Yoshlarning qariyb yarmi kiberbullingning boshqa shakllariga ham duch kelgan. Ulardan qariyb 20 foizi muntazam ravishda kiberbullingka uchraydi.

Bu ma’lumotlar “i-SAFE Foundation” tadqiqotlari bilan ham tasdiqlangan. Buyuk Britaniyada har uch boladan biri (34%) kiberbulling ta’siriga uchragan, o‘zini jarohatlashga chaqiruvchi zararli saytlar kontentini ko‘rgan yoki ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish jarayonida boshqa salbiy oqibatlarga duch kelgan.

Global statistikaga ko‘ra, har 3 nafar yoshdan biri kiberbulling qurboni bo‘ladi. O‘zbekistonda ham bu ko‘rsatkich shunga yaqin ekani taxmin qilinadi, ammo ko‘pchilik bolalar (taxminan 26%) bu haqda hech kimga aytmaydi. YuNISEF va Ichki ishlar vazirligining Kiberxavfsizlik markazi hamkorligida o‘tkazilgan kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki: O‘zbekistondagi har 7 nafar o‘quvchidan kamida 1 nafari (taxminan 14%) maktabda o‘zini xavfsiz his qilmaydi. Bulling holatlari shahar joylarida (19,4%) qishloqlarga nisbatan (15,6%) ko‘proq uchraydi. So‘rovda qatnashgan o‘quvchilarning 21 foizi haqoratlarga uchraganini, 19 foizi esa qo‘rqitish (shantaj) holatlariga duch kelganini bildirgan.

Yuqorida keltirilgan statistik ma’lumotlar internetda sodir bo‘lgan bulling natijasida yoshlar o‘zlariga zarar yetkazgan yoki o‘z joniga qasd qilgan holatlar ko‘p uchraganini ko‘rsatadi. Bunday holatlar favqulodda bo‘lishi mumkin, ammo ko‘p hollarda, ayniqsa yoshlar orasida, internet orqali bosim o‘tkazish orqali shaxsiyatni izchil ravishda vayron qilish holatlari kuzatiladi. Odatda, huquqbuzar kiberbullingni jabrlanuvchi haqida fikr bildirish yoki uning rasmlarini joylash orqali boshlaydi. Yakka tahdid, haqorat, ta’qib yoki ijtimoiy guruhdan chiqarish odatda jinoyat sifatida baholanmasligi mumkin, shuningdek alohida sharmandali suratlarni tarqatish ham har doim jinoyat deb hisoblanmaydi. Biroq ta’qib (stalking) kabi holatlarda, huquqbuzar harakatlari tizimli ravishda takrorlanadi va uning ta’siri uzoq vaqt davom etadi. Kiberbulling qurboni uchun eng og‘ir jihat — bu holatdan qochish imkoni yo‘qdek tuyulishidir.

Bugungi kunda kiberbulling doimiy rivojlanish jarayonida bo‘lgan raqamli dunyoda o‘z o‘rnini topayotgan yangi hodisa sanaladi.

Kiberbulling nima? Taniqli norveg psixologi va tadqiqotchisi Dan Olveus “bulling”ni: *“Bu – bir yoki bir necha shaxsning o‘zini o‘zi himoya qilolmaydigan boshqa yakka yoki bir guruh shaxslarga nisbatan takroran yoki muayyan vaqt davomida sodir etadigan salbiy harakatlaridir”* deb, ta’riflaydi.

BMT Bosh kotibining 2016 yilda Bosh assambleyaning iltimosiga binoan bolalarni tajovuzlardan himoya qilish to‘g‘risidagi nutqida *“Bulling” bu jabrlanuvchiga nisbatan takrorlanuvchi qasddan yoki tajovuzkor xatti-harakatlar bo‘lib, bunda jabrlanuvchi o‘zini himoya qilish bo‘yicha zaifligi va chorasizligini (amalda yoki xayolan) his qilishi”* deb izohlagan.

An’anaviy (yuzma-yuz) bullingga nisbatan kiberbulling butun dunyoda nisbatan yangi hodisa hisoblanadi va u turli xil harakatlarni qamrab olganligi sababli bir nechta turlarga bo‘linadi. Hozircha xalqaro yoki Yevropa darajasida kiberbullingning yagona umum qabul qilingan ta’rifi mavjud emas. Umuman olganda, kiberbulling an’anaviy bullingning internet orqali amalga oshiriladigan shakli sifatida tushuniladi. Kiberbulling va an’anaviy bulling o‘rtasida umumiy xususiyatlar mavjud, jumladan, harakatlarning takrorlanishi va uzluksiz davom etishi. Shu bilan birga, ba’zi holatlarda kiberbulling an’anaviy bullingning davomi sifatida namoyon bo‘ladi. Adabiyotlarda kiberbulling elektron bulling va internet ta’qibini qamrab oluvchi umumiy tushuncha sifatida yoki an’anaviy bullingning asosiy elementlari — takrorlanish, kuchlar nomutanosibligi va qasd — saqlanib qolgan shakli sifatida qaraladi.

*OECDning 2018 yilgi hisobotiga ko‘ra,* kiberbulling — bu bir shaxs yoki guruh tomonidan elektron aloqa vositalari orqali o‘zini himoya qilish imkoniyati cheklangan jabrlanuvchiga nisbatan qasddan, takroriy va uzoq muddatli ravishda amalga oshiriladigan agressiv harakatdir.

Kiberbulling boshqa bulling turlari kabi insonga zarar yetkazishga qaratilgan agressiv xatti-harakatdir. Shu bilan birga, u axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali inson hayotiga muntazam va

uzluksiz ta’sir ko‘rsatishi bilan farq qiladi. Kiberbulling elektron media va AKT orqali amalga oshiriladigan, tengdoshlar o‘rtasidagi ijtimoiy zo‘ravonlikning psixologik jihatdan zararli shakli hisoblanadi. Bu internet texnologiyalari orqali hokimiyatni suiiste’mol qilishning tizimli shaklidir (masalan, Facebook, Twitter va boshqalar). Shu bilan birga, yangi texnologiyalarning qo‘llanilishi muammoni yanada murakkablashtiradi. Masalan, huquqbuzarning shaxsini aniqlashda qiyinchilik tug‘diruvchi anonimlik va bullingning davomiyligi kabi omillar kiberbullingni an’anaviy bullingdan ajratib turadi hamda uning zararini yanada kuchaytiradi. Raqamli dunyo insonlarga katta imkoniyatlar berishi bilan birga, ayniqsa yoshlar uchun kiberbulling kabi xavflarni ham yuzaga keltiradi. Shu sababli kiberbulling mustaqil bulling turi sifatida qaralishi lozim. Kiberbulling ta’rifi bo‘yicha turli qarashlar mavjud bo‘lsa-da, quyidagi asosiy elementlar odatda kiberbulling harakatini tashkil etuvchi belgilar sifatida tan olinadi.

*Kiberbullingning o‘ziga xos xususiyatlari:*

a) Yuqori darajadagi anonimlik

Anonimlik kiberbullingning eng muhim va o‘ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Anonimlik va internetdan foydalanish imkoniyati kiberbullingni an’anaviy bullingdan ajratib turadi. Huquqbuzar shaxs ko‘p hollarda o‘z shaxsini, soxta akkauntlar, noto‘g‘ri profil rasmlari yoki taxalluslar orqali. yashira oladi. Shaxsini yashirish huquqbuzarga jabrlanuvchi ustidan ko‘proq ta’sir o‘tkazish imkonini beradi. Bundan tashqari, huquqbuzar o‘z harakatlari uchun javobgarlik hissini kamroq sezadi va bu holat qo‘rquv darajasini oshirishga xizmat qiladi.

b) Kuchlar nomutanosibligi. Texnologik bilimlar va anonimlik jabrlanuvchi va huquqbuzar o‘rtasida kuchlar nomutanosibligini keltirib chiqaradi. An’anaviy bullingda bu nomutanosiblik jismoniy kuch, ommaboplik yoki ijtimoiy maqom bilan bog‘liq bo‘ladi. Kiberbullingda esa bu ko‘proq texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalari va anonimlik bilan bog‘liq. Masalan, internet texnologiyalarini yaxshi biladigan shaxs boshqa insonga osonlik bilan tazyiq o‘tkazishi mumkin. Shuningdek, kiberbulling nafaqat o‘quvchilar o‘rtasida, balki o‘qituvchilarga nisbatan

ham sodir etilishi mumkin. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda o‘qituvchi haqida tuhmatli guruhlar tashkil qilish yoki uning nomidan soxta akkaunt ochish holatlari uchraydi.

c) Ommaviylik va jabrlanuvchining himoyasizligi. Kiberbullingning yana bir muhim xususiyati — uning ommaviylik darajasi juda yuqori bo‘lishidir. Internet doimiy ravishda mavjud bo‘lgani sababli zararli ma’lumotlar juda ko‘p odamlar tomonidan ko‘rilishi mumkin. An’anaviy bullingda tahqir cheklangan muhitda sodir bo‘ladi. Internetda esa bunday ma’lumotlar butun dunyo bo‘ylab tarqalishi mumkin. Shuningdek, internetda joylashtirilgan ma’lumotlarni to‘liq o‘chirish juda qiyin. Shu sababli jabrlanuvchi hatto o‘z uyida ham xavfsizlikni his qilmasligi mumkin. Bunday holatlarda kuzatuvchilar (bystanders) ham kiberbulling ishtirokchisiga aylanishi mumkin. Masalan, zararli xabarlarni qayta tarqatish yoki tahqirlovchi kontentni ko‘rish orqali ular ham jarayonda ishtirok etadi.

d) Takrorlanish. Takrorlanish kiberbullingning muhim belgilaridan biri hisoblanadi. Internet texnologiyalari sababli bir marta joylashtirilgan xabar yoki rasm qayta-qayta tarqalishi mumkin. Hatto bir marta qilingan harakat ham uzoq vaqt davomida jabrlanuvchiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Kiberbullingda takrorlanish turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Masalan, bir huquqbuzar bir necha marta tazyiq o‘tkazishi yoki bir marta joylashtirilgan ma’lumot ko‘plab odamlar tomonidan ko‘rilishi va tarqatilishi mumkin. Shuning uchun bir marta qilingan harakat ham og‘ir oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Yuqoridagi ma’lumotlardan kelib chiqib, kiberbullingga qarshi samarali huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Ayniqsa, jinoyat huquqi nuqtai nazaridan kiberbulling harakatlarini kvalifikatsiya qilish, ular uchun javobgarlik choralarini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan, turli davlatlar qonunchiligida kiberbullingga qarshi jinoiy-huquqiy yondashuvlarni o‘rganish, ularning o‘ziga xos jihatlari va samaradorligini qiyosiy tahlil qilish dolzarb masala hisoblanadi.

Kiberbullingning salbiy oqibatlariga qarshi yangi qonunlar qabul qilish zarurati tufayli ayrim davlatlar kiberbulling harakatlarini jinoiy javobgarlikka tortishni boshladi. Bu sohadagi qonunlar asosan ikki turga bo‘linadi. Birinchi tur qonunlar mavjud ta’qib yoki ta’qib qilishga oid normalarga *“telekommunikatsiya yoki elektron vositalar orqali”* degan qo‘shimchani kiritish orqali modernizatsiya qilingan. Ikkinchi tur qonunlar esa *kiberbullingni alohida jinoyat* sifatida belgilagan. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida aynan yuqoridagi birinchi turdagi normalarni ko‘rishimiz mumkin.

Amerika Qo‘shma Shtatlari, kiberbullingni qonunchilik yo‘li bilan tartibga solishda yetakchi o‘rinni egallab kelmoqda. 2009 yildan boshlab AQShning bir qator shtatlarida kiberbulling jinoyat sifatida tasniflanadigan qonunlar qabul qilina boshlandi. Bullingka qarshi qonunlar internet yoki mobil telefonlar orqali amalga oshiriladigan bulling harakatlarini qamrab oladi. AQShda 49 ta shtat mavjud bullingka qarshi qonunlariga elektron tarzda amalga oshiriladigan ta’qib (elektron ta’qib) tushunchasini kiritgan. Masalan, Shimoliy Karolina shtati kiberbulling uchun, shu jumladan maktab xodimlariga nisbatan kiberbulling sodir etgan o‘quvchilarga nisbatan jinoiy sanksiyalarni joriy etgan ilk shtatlardan biri hisoblanadi.

Buyuk Britaniyada kiberbulling alohida jinoyat tarkibi sifatida belgilanmagan bo‘lsa-da, kiberbullingga xos xulq-atvorlar ta’qib qilish yoki tahdidli xatti-harakatlar kabi boshqa jinoyatlar tarkibiga kiritilgan. Buyuk Britaniyada kiberbulling holatlariga nisbatan qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan to‘rtta asosiy qonun mavjud. Kiberbullingni sodir etgan shaxslar amaldagi qonunlar asosida sud javobgarligiga tortilgan, jumladan: 1997 yildagi Ta’qibdan himoya qilish to‘g‘risidagi qonun, 2003 yilgi Aloqa to‘g‘risidagi qonun, 1988 yilgi Yovuz niyatdagi xabarlar to‘g‘risidagi qonun, 1861 yilgi Shaxsga qarshi jinoyatlar to‘g‘risidagi qonun, shuningdek 1994 yilgi Jinoyat adliyasi va jamoat tartibi to‘g‘risidagi qonun.

Avstriya 2012 yildagi *OECDning “Bolalarni onlayn himoya qilish” hisobotiga* ko‘ra, Avstriya (Yevropa Ittifoqida kiberbulling darajasi eng yuqori bo‘lgan davlatlardan biri) kiberbullingni huquqiy tartibga solishda

o‘ziga xos misol hisoblanadi. Chunki Avstriya boshqa Yevropa davlatlaridan farqli ravishda kiberbullingni 2016 yil 1 yanvardan boshlab jinoyat deb belgilagan. Avstriya Jinoyat kodeksiga *107c-modda — “Telekommunikatsiya yoki kompyuter tizimlari orqali davomli ta’qib qilish”* kiritilib, kiberbulling uchun jinoiy javobgarlik belgilangan va shu tariqa Avstriya Yevropa davlatlari ichida kiberbullingni ochiq tarzda jinoiylashtirgan birinchi davlat hisoblanadi. Qonun chiqaruvchi “kiberbulling” atamasi o‘rniga “ta’qib qilish” tushunchasini qo‘llagan.

Germaniyada kiberbulling tez sur’atlarda o‘sib borayotgan muammoga aylangan. Germaniyada kiberbulling alohida jinoyat tarkibi sifatida belgilanmagan bo‘lsa-da, kiberbullingga xos xatti-harakatlar boshqa jinoyatlar doirasida baholanishi mumkin. Jumladan, Germaniya Jinoyat kodeksiga muvofiq bunday harakatlar haqorat qilish (185-modda), ta’qib qilish (stalking, 237-modda), shaxsiy hayot daxlsizligini suratga olish orqali buzish (201a-modda), zo‘ravonlik tasvirlarini tarqatish (131-modda), tuhmat qilish (186-modda) va tahdid qilish (240-modda) kabi jinoyatlar tarkibiga kiritilishi mumkin.

Italiyada qonun kiberbullingning birinchi qurboni hisoblangan Karolina Pikkio xotirasiga bag‘ishlangan. U ziyofatda mast holda ekani aks etgan videosi “Facebook” ijtimoiy tarmog‘iga joylashtirilganidan so‘ng sobiq yigiti va uning tanishlari tomonidan internetda tahqirlangan va natijada o‘z joniga qasd qilgan. Mazkur qonun Italiyada birinchi marta kiberbullingga aniq huquqiy ta’rif berdi. Qonunga ko‘ra, kiberbulling — internet orqali voyaga yetmagan shaxsni haqorat qilish, tuhmat qilish, tahdid qilish yoki shaxsini o‘g‘irlash kabi harakatlarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, qonun jabrlanuvchi yoki uning ota-onasiga haqoratli yoki zararli ma’lumot joylashtirilgan veb-saytdan ushbu kontentni 48 soat ichida o‘chirishni talab qilish huquqini beradi.

Ispaniya ham kiberbulling harakatlari uchun maxsus huquqiy normalarni joriy etgan Yevropa davlatlaridan biri hisoblanadi. Ispaniya Jinoyat kodeksining 173 va 169-moddalariga muvofiq, shaxsni muntazam va takroriy ravishda ta’qib qilib, uning kundalik hayotiga jiddiy ta’sir ko‘rsatgan shaxsga nisbatan jarima yoki ozodlikdan mahrum qilish jazosi

qo‘llanilishi mumkin. Mazkur moddalar kiberbulling bilan bog‘liq og‘irlashtiruvchi holatlarni ham belgilaydi. Masalan, jabrlanuvchi yoshi sababli himoyaga muhtoj bo‘lsa yoki aybdor jabrlanuvchi bilan yaqin munosabatda yoki qarindoshlik aloqasida bo‘lsa, javobgarlik og‘irlashtirilishi mumkin.

Umuman olganda, turli huquqiy tizimlarda kiberbulling va unga o‘xshash hodisalarni tartibga solishda ko‘plab bo‘shliqlar mavjud. Shu bilan birga, “kiberbulling jinoyati”ni mustaqil tarkib sifatida yaratish ham oson masala emas. Garchi milliy huquq tizimlarining jinoyat kodekslarida kiberbulling qamrab olinadigan ayrim xatti-harakatlarni tartibga soluvchi normalar mavjud bo‘lsa-da, ilg‘or texnologiyalarning jadal rivojlanishi bunday harakatlarni tartibga solishning yangi usullarini doimiy ravishda yuzaga keltiradi. Natijada kiberbulling mavjud jinoyat tarkiblari doirasidan chiqib ketishi mumkin.

Masalan, yakka tarzda ta’qib qilish haqorat sifatida, pornografik mazmundagi materiallarni tarqatish esa jinsiy zo‘ravonlik (seksual ta’qib) sifatida jazolanishi mumkin. Biroq kiberbullingning ko‘plab jihatlari ya’ni umumiy bulling manzarasining mayda bo‘laklariga o‘xshash harakatlar jinoiy ahamiyat kasb etmaydi. Bularga uyatli kontentni tarqatish, ijtimoiy tarmoqlarda yolg‘on ma’lumot joylashtirish yoki shaxsni internet guruhlaridan chiqarib qo‘yish kabi holatlar kiradi. Shu bilan birga, kiberbullingning ayrim shakllari ancha og‘ir oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Kiberbullingni jinoyatlashtirish orqali huquqiy tizimlar kelajakda boshqa ehtimoliy bulling qiluvchilar tomonidan bunday xatti-harakatlarning takrorlanish ehtimolini oldini olishni maqsad qiladi. Darhaqiqat, zamonaviy jinoyat huquqi ilmida jinoyat huquqi asosan profilaktikaga qaratilgan. Albatta, kiberbulling qilgan shaxslarni jazolash muayyan ma’noda qasos (retributsiya) vazifasini ham bajarishi mumkin. Biroq bunday xatti-harakatlarni jazolashda ustuvor maqsad — maxsus profilaktika yoki umumiy profilaktika (yoki har ikkalasi) hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. — T.: Adolat, amaldagi tahrir.
2. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Kiberxavfsizlik markazi va YuNISEF. Bolalar onlayn xavfsizligi bo‘yicha kuzatuv natijalari. — Toshkent, 2023
3. United Nations General Assembly. Protecting children from bullying. Report of the Secretary-General. A/71/213, 2016.
4. OECD. Students, Computers and Learning: Making the Connection. — Paris: OECD Publishing, 2018.
5. Cyberbullying Research Center. Cyberbullying Data and Statistics (2025).Manba: https://cyberbullying.org
6. UNICEF. Cyberbullying: What is it and how to stop it. Manba: https://www.unicef.org/end-violence/how-to-stop-cyberbullying
7. i-SAFE Foundation. Online Safety and Cyberbullying Research Reports.Manba: https://www.isafe.org
8. Northern Ireland Anti-Bullying Forum. Cyberbullying and Young People Report. — Belfast, 2020.
9. Austria Criminal Code. Section 107c – Persistent harassment involving telecommunication or computer systems.
10. Protection from Harassment Act 1997 (UK).
11. Italian Law No. 71/2017. Disposizioni a tutela dei minori per la prevenzione ed il contrasto del fenomeno del cyberbullismo.

Spanish Criminal Code. Articles 169, 173.

## ПРАВА РЕБЁНКА В ОСНОВНОМ ЗАКОНЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

**Исхаков Б.И.**

*Заместитель начальника Отдела кадров Университета общественной безопасности Республики Узбекистан*

В Республике Узбекистан, как и в любом государстве, несовершеннолетний выступает как субъект, имеющий свой правовой статус, отличающийся в некоторой степени от статуса взрослых, а

отношения, в которых он участвует, регулируются нормами различных отраслей права.

В Республики Узбекистан обеспечение законных прав и интересов детей и молодежи является приоритетом государственной политики и всегда находится в центре его особого внимания.

В частности, принятие Концепции развития государственной молодежной политики в Узбекистане до 2025 года, образование Агентства по делам молодежи, учреждение в Законодателной палате Олий Мажлиса института Уполномоченного Олий Мажлиса по правам ребенка (Детский омбудсман), создание Националных комиссий по вопросам детей, учреждение государственной премии «Мард ўg‘лон», медали «Келажак бунёдкори», а также праздника «Дня молодежи», лиш част тех широкомасштабных государственных реформ недавнего прошлого, которые имеют своей главной целю обеспечения счастливого и безопасного будущего для подрастающего поколения страны.

Выделение в качестве одной из целей Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 – 2026 годы вопроса по формированию системы ювеналной юстиции и кодификации законодателства по правам ребенка, говорит о необходимости нового подхода к решению вопросов обеспечения верховенства закона и совершенствования превентивных механизмов по предупреждению подростковой преступности.

Несомненно, предупреждение преступности среди несовершеннолетних является важнейшим аспектом предупреждения преступности в обществе. Участвуя в законной, социально полезной деятелности и вырабатывая гуманистический взгляд на общество и жизн, молодеж может быт воспитана на принципах, не допускающих преступную деятелност.

С обретением независимости, в Республике Узбекистан возникла необходимост создания новой нормативно-правовой базы страны, которая соответствовала бы требованиям международных стандартов,

а также воплотила в себе многовековые традиции и культуру узбекского народа.

Одним из ключевых этапов в данном направлении явилос принятие высшего нормативного правового акта страны – Конституции Республики Узбекистан. Основной закон заложил основу для обеспечения гарантий прав и свобод человека абсолютно во всех отраслях жизни общества. Так, согласно нормам Основного закона – высшей ценностю является человек, его жизн, свобода, чест, достоинство и другие неотъемлемые права (статя 13). Отсюда и берут свое начало претворяемые в жизн органами государственной власти страны реформы, нацеленные, прежде всего на улучшение жизнедеятелности всех слоев общества, в том числе и подрастающего поколения.

Как отметил Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев, “на основе нашей Конституции сформированы националная законодателная система, государственные органы, институты гражданского общества страны. В настоящее время во всех сферах осуществляются широкомасштабные реформы. Постоянно растет социально-экономический, политический и оборонный потенциал государства, расширяется мировоззрение наших граждан. Все это является непосредственным резултатом реализации Основного Закона страны, обладающего жизнеутверждающей силой”.

Касателно вопросов, относящихся к лицам, не достигших совершеннолетия, в Конституции Республики Узбекистан отмечено, что запрещаются любые формы детского труда, представляющие угрозу здоровю, безопасности, нравственности, умственному и физическому развитию ребенка, в том числе препятствующие ему получат образование (статя 44), для детей с особыми образовательными потребностями в образовательных организациях обеспечиваются инклюзивное образование и воспитание (статя 50), родители и заменяющие их лица обязаны содержат своих детей до их совершеннолетия, заботится об их воспитании, образовании, здоровом, полноценном и гармоничном развитии. Государство и

общество обеспечивают содержание, воспитание, образование, здоровое, полноценное и гармоничное развитие детей-сирот и детей, лишенных родительской опеки, поощряют в этих целях благотворителную деятелност (статя 77), дети равны перед законом вне зависимости от происхождения и гражданского состояния родителей. Обеспечение и защита прав, свобод и законных интересов ребенка, создание наилучших условий для его полноценного физического, умственного и культурного развития являются обязанностю государства (статя 78).

Помимо этого, по нашему мнению, принципиалное значение для определения правового положения несовершеннолетнего составляют и другие нормы Конституции Республики Узбекистан, которые регламентируют общие права и свободы человека. Так, применяя в статях Основного закона государства формулу «каждый», они в одинаковой степени касаются как взрослых, так и несовершеннолетних лиц.

Согласно Преамбуле Основного закона государства, Узбекистан основывается на общепризнанных принципах и нормах международного права, из чего следует, что данный принцип распространяется и на нормы, которые регулируют отношения в сфере защиты прав и интересов детей, осуществления правосудия, предупреждения и профилактики противоправного поведения несовершеннолетних.

В заключении можно с уверенностю сказат, что каждый из нас сегодня осознает, что в годы независимости основой достижений во всех сферах жизни - спокойствия страны и народа, обеспечения благосостояния людей, создания демократического правового государства, утверждения интересов, прав и свобод человека в качестве высших ценностей, демократизации общества и модернизации страны, защиты прав и интересов детей, а также осуществления правосудия - являются права, идеи, принципы, воплощенные в Конституции. В связи с этим каждый год ден

принятия Основного закона страны отмечается в Узбекистане как националный и всенародный праздник.

**Исползованная литература:**

1. Руководящие принципы Организации Объединенных Наций для предупреждения преступности среди несовершеннолетних (Эр-Риядские руководящие принципы), принятые резолюцией 45/112 Генералной Ассамблеи от 14 декабря 1990 года, статя 1. [Электронный ресурс].

2. Конституция Республики Узбекистан. [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://lex.uz/docs/6445147 (дата обращение: 20.12.2025 г.).

3. Указ Президента Республики Узбекистан от 28.01.2022 г. № УП-60, цел 14. [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://lex.uz/docs/5841063 (дата обращение: 20.12.2025 г.).

4. Мирзиёев Ш.М. Уверенно продолжим пут националного развития на новом этапе. I-том. / Ш.М. Мирзиёев. - Т.: Узбекистан, 2018. – 73 с.

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI MUROJAATNOMASIDA SUD ISHLOHATLARI: PROTSESSUAL XATOLIKLARNI TUZATISHDA YANGI YONDASHUVLAR

**Abdihakimov S.S.**

*Toshkent davlat yuridik universiteti tayanch doktaranti*

Yurtimizda sud-huquq tizimini takomillashtirish va undagi muammo va kamchiliklarni aniqlash va oldini olish davlat va jamiyatni rivojlantirishdagi muhim ustuvor yo‘nalishlardan biri sanaladi. Odil sudlovga erishish va qonun ustuvorligini ta’minlashda esa, albatta, bugungi kundagi islohatlar asosiy o‘rin tutadi. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2025-yil 26-dekabr sanasidagi Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida davlat boshqaruvi, sud-huquq tizimi, iqtisodiyot tarmoqlari, ta’lim, ilm-fan, tibbiyot,

madaniyat, sport, ekologiya tizimi sohalarini rivojlantirishda tub burilish yili bo‘lishini ta’kidlab o‘tar ekan, 2026-yilda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan oltita ustuvor yo‘nalishga alohida to‘xtalib o‘tdi. Ushbu ustuvor yo‘nalishlardan oltinchisi sifatida zamonaviy davlat boshqaruvi va adolatli sud-huquq tizimi borasidagi islohotlarni davom ettirishni belgilab berdi [1]. Sud tizimida odil sudlovga, avvalambor, fuqarolar va tadbirkorlarning buzilgan yoki nizolashilayotgan qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish orqali erishish mumkin. Shu bois, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-158-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston - 2030” strategiyasida yurtimizni rivojlantirish istiqbollari belgilangan. Bunda asosiy maqsadlardan biri esa qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimidagi islohatlar hisoblanadi [2]. Ushbu strategiya doirasida davlatimiz tomonidan erishilgan yutuqlar yurtboshimiz tomonidan O‘zbekiston xalqiga murojaatnomasida aks ettirilib, keyingi besh yillikdagi ustuvor yo‘nalishlarni yanada rivojlantirish maqsadida “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini qayta ko‘rib chiqish belgilab berildi. Bu kabi islohatlarning asl maqsadi, birinchi navbatda, O‘zbekiston xalqining yashash farovonligini oshirish bo‘lsa, davlat boshqaruvida qonun ustuvorligini ta’minlash hamda sud-huquq tizimini takomillashtirish unga eltuvchi asosiy yo‘llardan biri hisoblanadi. Bundan kelib chiqqan holda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining murojaatnomasida keltirilgan islohatlarni amalga oshirishda bugungi kunda sud tizimida vujudga keluvchi ayrim muammo va kamchiliklarni bartaraf etish maqsadga muvofiqdir.

Sud tizimini isloh qilishda fuqarolik sud ishlarini yuritish va hal qilishga alohida to‘xtalish lozim. Ma’lumki, fuqarolik sudlarida boshqa sudlarga nisbatan ish hajmi va murojaatlar soni ko‘p qismni tashkil etadi. Sud statistik ma’lumotlarga qaraganda, 2023-yilda fuqarolik sudlari tomonidan jami 943 892 ta [3], 2024-yilda 1 497 184 ta [4], 2025-yil birinchi yarmida esa 1 012 472 ta [5] ish ko‘rib chiqilgan. Mazkur ko‘rsatkichlar yaqin yillarda keskin oshganligini ko‘rish mumkin. Bu esa fuqarolik sud ishlarini yuritishda ish hajmining ortishi natijasida ulardan kelib chiquvchi sud xatolarining ham ko‘payishini anglatadi.

Fuqarolik sud ishlarini yuritishda sud xatolarini tahlil qilish natijasida quyidagi uchta asosiy guruhga ajratish mumkin:

- faktik asoslar bilan bog‘liq xatoliklar;
- moddiy huquq normalarini qo‘llash bilan bog‘liq xatoliklar;
- protsessual huquq normalarini qo‘llash bilan bog‘liq xatoliklar [6].

Mazkur sud xatolaridan protsessual huquq normalarining buzilishi yoki noto‘g‘ri qo‘llanilishiga alohida to‘xtalish lozim. Fuqarolik sud ishlarini yuritishda fuqarolik protsessual qonunchiligida keltirilgan huquqiy normalarga qat’iy rioya etish va ularni amaliyotda to‘g‘ri qo‘llash muhim ahamiyatga ega. Ayrim hollarda ushbu normalarga amal qilmaslik natijasida sud hujjatlari, ayniqsa hal qiluv qarorlarining noto‘g‘ri qabul qilinishi holatlari ko‘p uchraydi. Bu nafaqat sudga murojaat qiluvchi shaxslarning huquq va manfaatlari buzilishiga olib keladi, balki protsessual huquq normalari obro‘sizlanishiga ham sabab bo‘ladi.

Fuqarolik sud ishlarini yuritishda protsessual huquq normalarining buzilishi yoki noto‘g‘ri qo‘llanilishi asoslari O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi (keyingi o‘rinlarda - FPK) $372^4$-moddasida belgilangan. Ushbu moddani tahlil qilish natijasida protsessual xatoliklarni quyidagi ikkita guruhga ajratish mumkin:

- hal qiluv qarorini bekor qilishi yoki o‘zgartirishi mumkin bo‘lgan holatlar;
- har qanday holda hal qiluv qarorini bekor qilish asoslari.

FPK $372^4$-moddasi birinchi qismida keltirilgan norma hal qiluv qarorini bekor qilishi yoki o‘zgartirishi mumkin bo‘lgan holat sifatida qaraladi. Chunki, ushbu normada protsessual huquq normalarining buzilganligi yoki noto‘g‘ri qo‘llanilganligi ishning noto‘g‘ri hal etilishiga sabab bo‘lgan yoki sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan taqdirdagina sudning hal qiluv qarorini bekor qilinishiga asos bo‘lishi belgilangan [7]. Ushbu normada faqatgina hal qiluv qarori bekor qilinishi haqida so‘z boradi. Ammo, birinchi toifadagi protsessual xatoliklar har doim ham hal qiluv qarorini bekor qilinishiga emas, balki o‘zgartirilishiga ham olib keladi. Shu bois, FPK $372^4$-modda birinchi qismini quyidagi tahrirda o‘zgartirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

*“Protsessual huquq normalarining buzilganligi yoki noto‘g‘ri qo‘llanilganligi ishning noto‘g‘ri hal etilishiga sabab bo‘lgan yoki sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan taqdirdagina sudning hal qiluv qarorini, ajrimini, qarorini bekor qilinishiga* ***yoki o‘zgartirilishiga*** *asos bo‘ladi.”*

Ikkinchi guruhga kiruvchi protsessual huquq normalarining buzilishi esa FPK $372^4$-moddasi ikkinchi qismida keltirilgan bo‘lib, ular quyidagicha turlarga ajratilgan:

- ish sud tomonidan g‘ayriqonuniy tarkibda ko‘rilganligi;
- taalluqlilik to‘g‘risidagi qoidalar buzilgan holda ko‘rilganligi;
- ish sud tomonidan sud muhokamasida ishtirok etish huquqiga ega bo‘lgan, ammo sud majlisining vaqti va joyi to‘g‘risida xabardor qilinmagan shaxslardan biror-biri yo‘qligida ko‘rilganligi;
- ish ko‘rilayotganida sud ishlari yuritiladigan tilga doir qoidalar buzilganligi;
- sud ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan shaxslarning huquq va majburiyatlari to‘g‘risidagi masalani hal qilganligi;
- sudning hal qiluv qarorini, ajrimini, qarorini chiqarishda sud maslahatining sir saqlanishiga doir qoidalar buzilganligi;
- hal qiluv qarori, ajrim, qaror ishni ko‘rgan va hal qilgan sudyalardan (sudyadan) boshqa sudyalar (sudya) tomonidan imzolanganligi;
- sud majlisi bayonnomasi imzolanmaganligi [7].

Mazkur protsessual xatoliklarga diqqat qaratiladigan bo‘lsa, barcha keltirilgan asoslar jiddiy buzilishlar ekanligini ko‘rish mumkin. Chunki, ushbu asoslardan biror biri aniqlanganda har qanday holda birinchi instansiya sudi hal qiluv qarorlari bekor qilinishi uchun asos bo‘ladi.

Milliy protsessual qonunchiliklarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi (keyingi o‘rinlarda - IPK) 279-moddasi beshinchi qismida [8] hamda Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksi (keyingi o‘rinlarda - MSIYtK) 220-moddasi beshinchi qismida [9] keltirilgan protsessual xatoliklar jiddiy buzilish sifatida qaralib, ularning mavjudligi har qanday holda hal qiluv qarorini bekor qilinishiga olib kelishi belgilangan. Ushbu asoslar FPK $372^4$-

moddasi ikkinchi qismida keltirilgan asoslar bilan mazmunan bir xil hisoblanadi.

Xorijiy mamlakatlarning fuqarolik protsessual qonunchiligi ham tahlil qilinganda yuqorida sanab o‘tilgan protsessual xatoliklar jiddiy buzilishlar ekanligini ko‘rish mumkin. Jumaladan, Rossiya Federatsiyasi FPK 330-moddasi to‘rtinchi qismida sanab o‘tilgan protsessual xatoliklar mazmun jihatidan O‘zbekiston Respublikasi FPK $372^4$-moddasi ikkinchi qismida belgilangan asoslar bilan bir xillikni tashkil etadi. Rossiya Federatsiyasi FPK 330-moddasi to‘rtinchi qismidagi asoslar har qanday holda hal qiluv qarorini bekor qilinishiga olib kelishi qat’iy belgilab qo‘yilgan [10]. Shuningdek, Germaniya tajribasiga qaraladigan bo‘lsa, Germaniya FPK 547-moddasida yuqoridagi mazmundagi huquq normasining buzilishi holatlari keltirilib, ular har qanday holda hal qiluv qarorini bekor qilish uchun asos sifatida olingan [11].

Yuqoridagi umumiy tahlillardan kelib chiqqan holda O‘zbekiston Respublikasi FPK $372^4$-moddasi ikkinchi qismini quyidagicha o‘zgartirish maqsadga muvofiq:

*“Quyidagi protsessual huquq normalarining buzilganiligi yoki noto‘g‘ri qo‘llanilganligi sudning hal qiluv qarori, ajrimi, qarorini har qanday holda bekor qilish uchun asos hisoblanadi:”*

Protsessual xatoliklarni tuzatish yoki ularni oldini olishda bugungi kundagi islohatlarning o‘rni katta hisoblanadi. Ayniqsa raqamli texnalogiya va sun’iy intellektni (keyingi o‘rinlarda - SI) huquq sohasiga integratsiya qilish masalalari dolzarb ahamiyatga ega. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-avgustdagi PF-140-sonli “Sudlar faoliyatiga sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda sud tizimining moddiy-texnik ta’minotini yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Farmonining qabul qilinishi sud-huquq tizimida yangi davrni ochib berdi. Ushbu farmon doirasida “Raqamli sud” konsepsiyasi qabul qilinib, unda SI texnalogiyalarini sud tizimiga joriy etish orqali odil sudlov darajasini oshirishga erishish mumkinligi belgilandi. Ushbu konsepsiya doirasida quyidagi o‘zgarishlarni alohida ta’kidlash lozim:

- ishda ishtirok etuvchi shaxslar sud binosiga tashrif buyurmasdan sud muhokamalarida masofadan turib ishtirok etishi;

- sud ishlari zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda to‘liq elektron tarzda yuritilishi;

- SI yordamida sud majlisi bayonnomalari real vaqt rejimida matn shaklida tayyorlanishi;

- sud hujjatlari loyihalarini avtomatik shakllantirilishi [12].

Yuqorida sanab o‘tilgan yangi imkoniyatlar ayrim protsessual xatoliklarni oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Jumladan, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning sud muhoakamalariga masofadan turib ishtirok etishi orqali ularning sud muhokamasi to‘g‘risida xabardor qilmaslik va ularning ishtirokisiz ko‘rilishi holatlarini kamaytirishga erishish mumkin. SI texnalogiyalari yordamida sud majlisi bayonnomalarini real vaqt rejimida matn shaklida tayyorlash esa sud bayonnomalarini rasmiylashtirish bilan bog‘liq protsessual xatoliklarni tuzatishga yordam beradi. Shuningdek, sud hujjatlari loyihalarini avtomatik tarzda shakllantirish orqali vaqt va resurslar tejalishiga hamda sud hujjatlarida uchrashi mumkin bo‘lgan protsessual xatoliklarni bartaraf etishga erishish mumkin bo‘ladi.

Umumiy qilib aytganda, yurtboshimiz tomonidan olib borilayotgan islohatlar xalq manfaatlarini ifoda etib, farovonlik darajasini oshishiga xizmat qiladi. Sud-huquq tizimini rivojlantirish borasidagi istiqbolli harakatlarning fuqarolik sud ishlarini yuritish vazifalariga ijobiy ta’sirini ko‘rish mumkin. Ayniqsa, fuqarolik sud ishlarini yuritishda vujudga keluvchi va hal qiluv qarorlarining bekor qilinishi yoki o‘zgartirishiga olib keluvchi protsessual xatoliklarni tuzatish va ularni sodir etilishi darajasini kamaytirish alohida ahamiyat kasb etadi. Bunga esa yuqorida belgilangan protsessual buzilishlar bilan bog‘liq qonunchilik normalarini takomillashtirish hamda SI texnalogiyalarini samarali joriy etish orqali erishish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2025-yil 26-dekabr sanasidagi Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi https://president.uz/oz/lists/view/8834

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrda PF-158-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi https://lex.uz/ru/docs/-6600413

3. Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlarning 2018-2022-yillar hamda 2023-yil asosiy ko‘rsatkichlari 1-bet https://stat.sud.uz/assets/uploads/civil/pdf/civil-2023-full.pdf

4. Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlarning 2024-yil asosiy ko‘rsatkichlari 1-bet https://stat.sud.uz/assets/uploads/civil/pdf/civil-2024-full.pdf

5. Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlarning 2025-yil 1-yarmidagi faoliyat yakunlarining asosiy ko‘rsatkichlari 1-bet https://stat.sud.uz/assets/uploads/civil/pdf/civil-2025-6.pdf

6. Abdihakimov S.S. Fuqarolik sud ishlarini yuritishda sud xatosi tushunchasi va uning nazariy tahlili // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 6 (2025) B. 85–94. 91-bet https://yuristjournal.uz/index.php/lawyer-herald/issue/view/44

7. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi https://lex.uz/docs/-3517337

8. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi https://lex.uz/ru/docs/-3523891

9. O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksi https://lex.uz/docs/-3527353

10. Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik protsessual kodeksi https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_39570/

11. Germaniya Fuqarolik protsessual kodeksi https:// www.wipo.int/wipolex/ru/legislation/details/14316

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-avgustdagi PF-140-sonli “Sudlar faoliyatiga sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda sud tizimining moddiy-texnik ta’minotini yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Farmoni https://lex.uz/en/docs/-7696567

# VATAN VA XALQIMIZ MANFAATI YO‘LIDA

**Xamidova M.A.**
*TDYU huzuridagi M.S.Vosiqova nomidagi akademik litsey*
*Huquqiy fanlar kafedrasi mudiri*

Bugungi kunga kelib yangi O‘zbekistonda “ortga qaytmas islohotlar” amalga oshirilmoqda. 2025-yilning 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning O‘zbekiston Rspublikasi Oliy Majlisi va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida[1] ham kelgusida rejalashtirilgan va amalga oshirish kerak bo‘lgan vazifalar belgilandi.

Prezident Murojaatnomasida davlat xizmatlarini korrupsiyasiz, inson omilisiz ko‘rsatish masalasi ko‘tarildi. Bu esa fuqarolarning o‘z huquqlarini bilishni talab qiladi. Huquqiy ta’lim kuchli bo‘lsa, fuqaro davlatdan qo‘rqmaydi, aksincha davlatdan xizmat talab qiladi. “Yagona raqamli platfoma nafaqat texnologik, balki huquqiy islohot hamdir chunki u ochiqlik, javobgarlik va hisobdordir”.

Murojaatnomaning oltinchi ustuvor yo‘nalishi zamonaviy davlat boshqaruvi va adolatli sud-huquq tizimi borasidagi islohotlar xususida bo‘lib, u nafaqat davlat xizmatlarini raqamlashtirish va sud tizimini avtomatlashtirishni nazarda tutadi. Yoshlar, ayollar va bolalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, jamiyatda ishonchli muhitni takomillashtirish va barqarorlikni ta’minlash, mustahkamlash bilan uzviy bog‘liqdir.

Shuningdek 2026-yildan boshlab elektron hukumat platformasi tubdan yangilanadi. Endi barcha davlat idoralarining mingdan ziyod davlat xizmatlari, 5 mingdan ortiq funksiya va vazifalar, 200 ta ma’lumot bazasi va 100 mingdan ortiq davlat xizmatchisining vakolatlari yagona tizimga integratsiya qilinadi. Shu bilan barcha xizmatlar mahalliy darajadan tortib respublika miqyosigacha markazlashadi. Asosiysi, ular bir markazdan nazorat qilinadi. Platformada sun’iy intellekt va avtomatlashtirish elementlarini joriy etish, murojaatlarni ijrochilarga avtomatik tarzda taqsimlash, ish jarayonlarini monitoring qilish va

resurslarni optimallashtirish imkonini yaratadi. Bu esa inson omilini minimal darajaga tushirib, korrupsiyaga qarshi kurashni kuchaytiradi.

Mazkur Murojaatnomada Prezidentimiz sud-huquq tizimini xalqqa yaqinlashtirishga qaratilgan ishlarni izchil davom ettirishni ta’kidlab o‘tdi. Odil sudlov jarayonini “raqamli sud” konsepsiyasini tadbiq etishni, tergovni raqamlashtirish orqali inson huquqlari himoyasini kuchaytirishga jiddiy e’tibor berilishi xususida to‘xtalib o‘tdi. Bunda jinoyat haqidagi arizani qabul qilishdan boshlab, ishni sudga o‘tkazishgacha bo‘lgan bosqichlarga sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etilishi va inson omilini qisqartirish zaruriyati dolzarblik kasb etmoqda.

Ma’lumki, yurtimizda tergov sudyalari ish boshlagani, xalqaro tan olingan “Xabeas korpus” institutini qo‘llashning navbatdagi muhim bosqichga ko‘tarilishi bo‘ldi.

2024-yilning 10-iyun kuni imzolangan “Tezkor-qidiruv hamda tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi[2] Prezident Farmoni odil sudlovni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Unga ko‘ra, sudlar faoliyatida ochiqlik, shaffoflikni ta’minlash bilan bir qatorda, fuqaro va tadbirkorlarning huquq hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirildi.

2025-yil 1-yanvardan boshlab jinoyat ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sudlarida ish boshlagan tergov sudyalari jinoyat ishlari bo‘yicha sudga qadar ish yurituv davrida protsessual qarorlarga sanksiya berish masalalari — qamoqqa olish yoki uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash, qamoqda saqlash yoki uy qamog‘i muddatini uzaytirish, pasportning (harakatlanish hujjatining) amal qilishini to‘xtatib turish, murdani eksgumatsiya qilish, pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlash, ushlab turish muddatini 48 soatga qadar uzaytirish hamda prokurorning guvoh va jabrlanuvchining (fuqaroviy da’vogarning) ko‘rsatmalarini oldindan mustahkamlash to‘g‘risidagi iltimosnomalarini ko‘rib chiqadi. Shuningdek, tergov sudyalariga ma’muriy huquqbuzarlikka oid ishlarni ko‘rib chiqish vakolati ham yuklatilmoqda. Bu orqali jinoyat ishlari

bo‘yicha birinchi instansiya sudi sudyalari o‘rtasida ish hajmi mutanosibligi ta’minlanadi.

Qolaversa, bu jinoyat ishlarini ko‘rish jarayonida ish bo‘yicha isbotlanishi lozim bo‘lgan barcha holatlarni sinchkovlik bilan to‘liq va xolisona tekshirib chiqish, sudlanuvchilarning barcha vajlarini tekshirish va taraflar tomonidan keltirilgan iltimosnomalarni batafsil ko‘rib chiqishga mustahkam huquqiy zamin yaratadi.

Ushbu qoidalarga ko‘ra, tintuv o‘tkazish haqidagi iltimosnoma tergovchi yoki surishtiruvchi tomonidan dastlab prokurorga yuboriladi. Shundan so‘ng, prokuror tintuv o‘tkazishga rozi bo‘lsa, zarur materiallar bilan ishni tergov sudyasiga yuboradi. Tergov sudyasi ishni 8 soatdan kechiktirmay, yopiq majlisda ko‘rib chiqadi. Agar tergov sudyasi tintuv o‘tkazishni rad qilsa, tintuv o‘tkazishni taqozo qiladigan yangi holatlar yuzaga kelsagina tintuv o‘tkazish uchun yana iltimosnoma kiritish mumkin bo‘ladi.

Lekin shu bilan birga qonunchilikka ko‘ra, kechiktirib bo‘lmaydigan hollarda tintuv tergovchining yoki surishtiruvchining qaroriga asosan sudning roziligisiz o‘tkazilishi mumkin, biroq keyinchalik sud prokuror o‘tkazilgan tintuv haqida 24 soat ichida xabardor qilinishi kerak. Tergov sudyasi tintuv o‘tkazish haqidagi qarorning qonuniyligini tekshiradi, agar o‘tkazilgan tintuv qonunga xilof deb topilsa, tintuv o‘tkazish chog‘ida olingan barcha dalillar – nomaqbul deb topiladi. Shu bilan birga, o‘ziga nisbatan tergov harakatlari olib borilayotgan shaxs tergov sudyasining qarori ustidan o‘sha sud orqali 24 soat ichida apellyatsiya shikoyati berishi mumkin.

Muhim jihatdan biri yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 136-moddasida[3] sudyalar mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo‘ysunishi belgilangan. Shu sababli tergov sudyasi o‘z faoliyatini mustaqil amalga oshirib, faqat qonunga bo‘ysunadi hamda tergov sudyasiga odil sudlovni amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lmagan har qanday vazifalar yuklatilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Tergov sudyasi o‘ziga yuklatilgan vazifalarni adolatli va xolisona bajarishi shart.

Sudyalar sud jarayonida hal qiluvchi o‘rin tutadi. Ular adolatni ta’minlash va barcha ishtirok etuvchi tomonlarning huquqlari himoya qilinishi uchun javobgardir. Adolatli va xolis sudyalar milliy huquqiy tizim faoliyati uchun juda muhim, chunki ular zimmasiga odamlar hayotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan qarorlarni qabul qilish vazifasi yuklatilgan.

Huquqiy nuqtai nazardan, sudyalar qaror qabul qilishda obyektiv va xolis bo‘lishi va qarorlarini faqat qonun va sudda keltirilgan dalillarga asoslashi kerak. Adolatli va xolis sudyalar sud hokimiyatining boshqa hokimiyat tarmoqlaridan mustaqil bo‘lishini ta’minlaydi.

Tergov sudyasi qonun ustuvorligini, ijtimoiy adolatni, fuqarolarni tinchligi va totuvligini ta’minlashga mas’uldir.

Qonun ustuvorligi – barcha davlat hokimiyati organlari faoliyatida Konstitutsiya va qonunlar oliy yuridik kuchga ega bo‘lib, ularning boshqa hamma me’yoriy hujjatlar hamda yo‘riqnomalardan ustun turishidir.

Qonun ustuvorligi jamiyatda demokratiya va qonunchilik ta’minlanishiga xizmat qiladi.

Konstitutsiyamizda belgilangan qonun ustuvorligi prinsipi jamiyatimizda inson huquq va erkinliklarini ta’minlashning muhim kafolatidir. Qonun ustuvorligi prinsipi hech kim hech qaysi davlat organi mansabdor shaxsi yoki fuqaro qonunga bo‘ysunish majburiyatidan xoli emasligini va qonunni buzgan taqdirda javobgarlikka tortilishi muqarrarligini ifodalaydi.

Tergov sudyasi fuqarolar va yuridik shaxslarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini sud yo‘li bilan samarali himoya qiladi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimiz sud-tergov faoliyati sohasidagi islohotlar kelgusida Konstitutsiya ustuvorligi, fuqarolarning odil sudlovga bo‘lgan ishonchini oshirish, tergov ustidan sud nazoratini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Tergov sudyasi o‘z faoliyatini mustaqil amalga oshirib, faqat qonunga bo‘ysunishi hamda tergov sudyasiga odil sudlovni amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lmagan har qanday vazifalar yuklatilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Yuqoridagi o‘zgarishlar sud-huquq tizimida fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini ta’minlash, jinoyat ishlari bo‘yicha sudlarning ish yuklamasini kamaytirish hamda sudyalarning jinoyat ishlarini ko‘rib chiqish jarayonlarida qonuniy, asosli va adolatli qaror qabul qilishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Odil sudlovni amalga oshirishda jamoatchilikni ishtiroki va roli oshib borishi davr talabi. Shu bilan birga kelajakda xorijiy mamlakatlar ilg‘or tajribalaridan, ijobiy natijalar bergan “xalq vakillari hay’ati” institutini bosqichma bosqich amalga oshriladi. Jamityada shov-shuvga sabab bo‘layotgan jinoyatlarni esa jamoatchilik vakillari adolatli ko‘rib chiqishga erishish zarurligi xususida ham to‘xtalib o‘tildi.

Yuqoridagi oldimizga qo‘yilgan vazifalarda samarali natijalarga erishish o‘z navbatida aholining, xususan yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatiga bog‘liq bo‘ladi.

Ta’limning eng muhim yo‘nalishlaridan biri – bu huquqiy ta’limdir. Huquqni bilmagan jamiyatda qonun ustuvorligi haqida gapirish qiyin.

Jamiyat a’zolarining, ayniqsa eng faol qismini tashkil etadigan yoshlarning tarbiyasi hamisha dolzarb masalalardan biri hisoblanib kelingan. Tarbiya - inson ma’naviyatini, e’tiqodini o‘zi anglash, yon-atrofga bo‘lgan munosabatni shakllantirishga qaratilgan jarayondir. Inson qalbi, ongini va o‘sib kelayotgan avlodni uning ma’naviyatiga salbiy ta’sir qiluvchi axborotlardan asrash hozirgi davrning eng muhim masalalaridandir.

Huquqiy madaniyatni shakllantirish aynan yosh avlodning huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilishi lozim. Huquqiy savodli bo‘lmasdan turib huquqiy madaniyatli bo‘lish mumkin emas.

Huquqiy madaniyatni takomillashtirishda ta’lim tizimi bosqichi muhim ahamiyatga ega. Maktab o‘quvchisida dastlab fuqarolik majburiyati emas, balki ma’naviy mas’ullik kuzatiladi. Maktab o‘quvchisi talabalik muhitiga o‘tgach, jamiyatning to‘la huquqli fuqarosiga aylanadi. Endi uning zimmasida nafaqat ma’naviy mas’uliyat, balki ushbu mas’uliyatni bajarish uchun fuqarolik majburiyat ham bo‘ladi. Huquqiy madaniyat ushbu ikki jihatni ma’naviy mas’ullik va fuqarolik majburiyatni uyg‘unlikda shakllantiradi.

Shuningdek, huquqiy madaniyat jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligining muhim amaliy shartidir. Bu o‘rinda, ham jinoyatchilikka qarshi kurash qatnashchilarining o‘zaro hamkorligini tashkil etish, ham aholi bilan birgalikda tarbiyaviy-profilaktika chora-tadbirlarini olib borish kutilgan natijani beradi. Ushbu maqsadlarga erishish davlat va jamiyatning ma’sul xodimlari vazifasi deyish mutlaqo noto‘g‘ri. Buning uchun barcha fuqarolar, aholining barcha qatlamlarini jalb etish, huquqiy ong va xulq-atvorini shakllantirish usullari hamda imkoniyatlaridan foydalanish orqali jamiyatda umumiy huquqiy madaniyatni yuksaltirish zarur.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunida[4] korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo‘yicha alohida ajratilgan bob muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur bobda davlat organlari va boshqa tashkilotlar korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish bo‘yicha zarur chora-tadbirlar ko‘rishi, shu jumladan korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga doir tushuntirish ishlarini amalga oshirish, huquqiy tarbiya va ta’limni, ilmiy-amaliy tadbirlarni tashkil etish, o‘quv-uslubiy va ilmiy adabiyotlarni ishlab chiqish orqali amalga oshirish belgilangan.

Umuman olganda mazkur murojaatnoma O‘zbekiston Respublikasining amalga oshirayotgan islohotlarining samaradorligini oshiradi, kelajakda barqaror va inkliziv davlat boshqaruvi tizimini yaratish uchun asos prezidentimiz iborasi bilan aytganda “Vatan manfaati, halqimiz manfaati” uchun xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. https://president.uz/oz/lists/view/8834
2. https://lex.uz/uz/docs/-6964387
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.T.”Adolat”milliy huquqiy axborot markazi.2023 y.-120 b.
4. https://lex.uz/docs/-3088008

# FUQAROLIK ISHLARINI SUDDA KO‘RISHDA DALILLARGA BAHO BERISHGA OID USTUVOR MASALALAR

**Axmedov J.D.**
*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti*
*Boshqarma boshlig‘i, PhD*

Fuqarolik ishlarini sudda ko‘rishda dalillarga baho berish fuqarolik protsessual huquqining eng muhim va murakkab institutlaridan biri bo‘lib, adolatli sudlovni ta’minlashning asosiy mezonidir. Mazkur jarayon kompleks tarzda tahlil qilinadi, chunki sud qarorining qonuniyligi va asoslantirilganligi bevosita dalillarga berilgan bahoga bog‘liq. Ishda dalillarning tushunchasi, turlari, isbotlash predmeti va isbotlash yukining taqsimlanishi fuqarolik protsessual qonunchiligi, sud amaliyoti va ilmiy tadqiqotlar asosida chuqur yoritilgan.

Sud tomonidan dalillarni baholashda bir nechta protsessual prinsiplar muhim ahamiyat kasb etadi. Ichki ishonch prinsipi sudyaga dalillarni o‘z mantiqiy va huquqiy bahosiga tayangan holda tahlil qilish imkonini beradi, biroq bu ishonch subektiv emas, balki qonuniy, dalillarga asoslangan va sud vijdoni bilan uyg‘unlashgan bo‘lishi lozim. Qonuniylik prinsipi esa barcha dalillarni qonunda belgilangan tartibda olinganligi va protsessual normalarga muvofiq baholanishini ta’minlaydi; noaniq yoki noqonuniy yo‘l bilan olingan dalillar sud qarorida asos sifatida e’tiborga olinmaydi.[1]

Shuningdek, xolislik va tarafkashlikning yo‘qligi prinsipi sudning har bir dalilni taraflarning manfaatdorligidan qat’i nazar, adolatli tahlil qilishini ta’minlaydi. Bevositalik prinsipi esa sudyaga dalillarni shaxsan tekshirish, guvohlarni tinglash, ekspert xulosalarini ko‘rib chiqish va ashyoviy hujjatlarni tekshirish orqali ishning har tomonlama va to‘liq tahlil qilinishini kafolatlaydi.[2] Bundan tashqari, dalillarga baho berish jarayoni sud qarorining asoslantirilganligini ta’minlash bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, sudning har bir xulosasi ilmiy, huquqiy va mantiqiy jihatdan mustahkam bo‘lishi talab etiladi. Sud amaliyotida dalillarning maqbulligi,

aloqadorligi, ishonchliligi va yetarliligi mezonlari orqali ularning sud qaroriga ta’siri aniqlanadi.

Shu tariqa, dalillarga baho berish protsessual kafolatlar bilan mustahkamlangan, fuqarolik protsessining adolatli va qonuniy amalga oshishini ta’minlovchi murakkab mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, fuqarolik ishlarida dalillarga baho berish jarayoni dalillarni turkumlash va ularni tahlil qilish metodologiyasini ham o‘z ichiga oladi.[3] Fuqarolik protsessual qonunchiligiga ko‘ra, dalillar quyidagi asosiy turlarga ajratiladi:

*Yozma dalillar* – hujjatlar, shartnomalar, qarorlar, arizalar va boshqa rasmiy hujjatlar. Ularning haqiqiyligi, rasmiyligi va protsessual tartibga muvofiqligi tekshiriladi.

*Asliy dalillar* – moddiy predmetlar, mahsulotlar, mol-mulk yoki boshqa jismoniy obektlar, ular ishning mohiyatini aniqlashda bevosita guvohlik qiladi.

*Guvoh ko‘rsatmalari* – voqealarni shaxsan ko‘rgan yoki bilgan shaxslarning sud oldidagi bayonotlari. Ularning ishonchliligi, tarafkashlik darajasi va izchilligi alohida baholanadi.

*Ekspert xulosalari* – maxsus bilim talab qiladigan holatlar bo‘yicha ekspertlar tomonidan berilgan ilmiy-huquqiy yoki texnik xulosalar. Ekspertizaning aniqligi va obektivligi sud tomonidan tahlil qilinadi.

*Elektron va axborot-resurs dalillari* – elektron hujjatlar, elektron pochta xabarlari, video va audio yozuvlar, internetdagi ma’lumotlar.[4] Bunday dalillarni baholashda ularning manbai, o‘zgartirilmaganligi va autentifikatsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Dalillarning ushbu turkumlari sud qarorining asoslantirilganligini ta’minlashda o‘zaro bog‘liq tarzda baholanadi. Sudyalar, odatda, dalillarning maqbulligi, aloqadorligi, ishonchliligi va yetarliligi mezonlariga tayanadi. Shu nuqtai nazardan, har bir dalilning ish bo‘yicha ahamiyati, boshqa dalillar bilan o‘zaro munosabati va ularning yig‘indisi sud qarorining asosiy tarkibiy qismini tashkil qiladi.[5]

Bundan tashqari, dalillarga baho berishda isbotlash yukining taqsimlanishi alohida ahamiyat kasb etadi. Odatda, ish bo‘yicha talabni

ilgari surgan tomon o‘z da’vosi yoki e’tirozini isbotlash uchun dalillarni taqdim etadi, biroq ba’zi hollarda qonunchilik taraflarning isbotlash yukini teng taqsimlashni yoki maxsus holatlarda taraflarni yengillashtirishni nazarda tutadi. Shu bilan birga, sud amaliyotida ichki ishonch va sud vijdoni asosida, dalillarning yetarliligi va ularning ishonchliligi bo‘yicha xulosa chiqarish sudning asosiy funksiyalaridan biri hisoblanadi. Dalillarga baho berish jarayoni fuqarolik sud amaliyotining adolat va qonuniylik kafolati sifatida namoyon bo‘ladi.[6] Sudlar o‘z qarorlarida har bir dalilning qiymatini tushuntirib, uning asoslantirilganligini ko‘rsatishi shart. Shu bilan birga, noaniq, tarafkashlikka moyil yoki yetarli asosga ega bo‘lmagan dalillardan kelib chiqadigan xatolar sud qarorining bekor qilinishiga, apellyatsiya yoki kassatsiya instansiyalarida o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin.

Shu boisdan, dalillarga baho berishning protsessual-huquqiy mexanizmini takomillashtirish va sud amaliyotini yanada tizimli qilish zarur. Dalillarga baho berish jarayonining samaradorligi sud qarorining asoslantirilganligi bilan bevosita bog‘liq. Sud har bir dalilga bergan bahosini tushuntirib, qaror matnida uning mantiqiy va huquqiy asoslarini ko‘rsatishi lozim. Shu bilan birga, noto‘g‘ri yoki yetarli asosga ega bo‘lmagan baholar qaror bekor qilinishiga, apellyatsiya va kassatsiya instansiyalarida o‘zgarishlarga olib keladi. Bu esa nafaqat ishning taraflari, balki sud tizimining obro‘-e’tiboriga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Dalillarga baho berish — bu sudning o‘z ichki ishonchiga, qonun normalariga va barcha tomonlarning dalillar majmuasiga asoslanib chiqaradigan xulosasidir.[7] Sudning ichki ishonchi — subektiv qaror emas, balki barcha dalillarni mantiqiy va huquqiy tahlil qilib, voqea-holatlarning mavjudligini yoki mavjud emasligini aniqlovchi asosdir. Hech bir dalil sud oldindan kuchga ega emas, ya’ni avtomatik qabul qilinmaydi yoki rad etilmaydi; sud ularni barcha holatlar bilan taqqoslab baholaydi.

Fuqarolik ishlarini sudda ko‘rishda dalillarga baho berish — fuqarolik protsessual huquqining eng muhim va murakkab institutlaridan biri bo‘lib, adolatli sudlovni ta’minlashning asosiy mezonidir.[8] Mazkur

jarayon kompleks tarzda tahlil qilinadi, chunki sud qarorining qonuniyligi va asoslantirilganligi bevosita dalillarga berilgan bahoga bog‘liq. Ishda dalillarning tushunchasi, turlari, isbotlash predmeti va isbotlash yukining taqsimlanishi fuqarolik protsessual qonunchiligi, sud amaliyoti va ilmiy tadqiqotlar asosida chuqur yoritilgan. Sud tomonidan dalillarni baholashda bir nechta protsessual prinsiplar muhim ahamiyat kasb etadi.

*Ichki ishonch prinsipi* sudyaga dalillarni o‘z mantiqiy va huquqiy bahosiga tayangan holda tahlil qilish imkonini beradi, biroq bu ishonch subektiv emas, balki qonuniy, dalillarga asoslangan va sud vijdoni bilan uyg‘unlashgan bo‘lishi lozim.[9]

*Qonuniylik prinsipi* esa, barcha dalillarni qonunda belgilangan tartibda olinganligi va protsessual normalarga muvofiq baholanishini ta’minlaydi; noaniq yoki noqonuniy yo‘l bilan olingan dalillar sud qarorida asos sifatida e’tiborga olinmaydi.

Shuningdek, *xolislik va tarafkashlikning yo‘qligi prinsipi* sudning har bir dalilni taraflarning manfaatdorligidan qat’i nazar, adolatli tahlil qilishini ta’minlaydi.

*Bevositalik prinsipi* esa sudyaga dalillarni shaxsan tekshirish, guvohlarni tinglash, ekspert va mutaxassis xulosalarini ko‘rib chiqish hamda ashyoviy hujjatlarni tekshirish orqali ishning har tomonlama va to‘liq tahlil qilinishini kafolatlaydi.[10]

Fuqarolik protsessual qonunchiligida dalillarga baho berish xususiyati O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksida ham mustahkamlangan. Masalan, FPKning 67-moddasida sud bevosita dalillarni sud majlisida tekshirishi va barcha holatlarni har tomonlama, to‘liq va xolis ko‘rib chiqish asosida ichki ishonchga tayanib baho berishi belgilangan. Bu norma fuqarolik protsessining principlariga mos ravishda sudyaga dalillarning qiymatini qonun va vijdon bo‘yicha aniqlash imkonini beradi.

Sud dalillarni baholash jarayonida har bir dalilni maqbulligi, aloqadorligi, ishonchliligi va yetarliligi mezonlari bo‘yicha tahlil qiladi.

*Maqbullik* deganda, dalilning qonuniy yo‘l bilan olinganligi, protsessual normalarga mos kelishi tushuniladi.[11]

*Aloqadorlik,* ya’ni dalilning ish bo‘yicha isbotlanishi zarur bo‘lgan holatga bevosita aloqasi bo‘lishi, sudga uni inobatga olish imkonini beradi.

*Ishonchlilik mezoni* — dalilning faktga mosligi va uni inkor etuvchi holatlarning yo‘qligi bilan belgilanadi.

*Yetarlilik* esa, dalillar majmuasi sudga ish bo‘yicha aniq xulosa chiqarishga imkon beradigan darajada bo‘lishini bildiradi.

Bundan tashqari, dalillarga baho berish jarayoni sud qarorining asoslantirilganligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Sud qarorining asoslantirilganligi — sud tomonidan har bir dalilga berilgan baho mantiqiy, huquqiy va ilmiy asoslangan tarzda bayon etilgan bo‘lishini talab qiladi.[12] Asoslantirish qismida sud qaysi dalillarni tan olgani, ularga qanday baho bergani va nimaga asoslanganini aniq ko‘rsatishi lozim. Bu nafaqat sud qarorining ochiqligi va shaffofligini ta’minlaydi, balki apellyatsiya va kassatsiya instansiyalarida sud qarorlarini qayta ko‘rib chiqishda ham muhim ahamiyatga ega.Shu bilan birga, FPKning amaliyoti sudlar tomonidan ishlab chiqilgan pozitsiyalar orqali chuqur mustahkamlanmoqda.

Sud amaliyotida dalillarni baholash preliminar, final va nazorat baholari orqali amalga oshiriladi: preliminar baho — dalillar qabul qilinayotganda, final baho — qaror chiqarish paytida, nazorat bahosi esa yuqori instansiya sudlari tomonidan qayta ko‘rib chiqishda qo‘llanadi. Bu amaliyot dalillarning alohida mezonlari — aloqadorlik, maqbullik va ishonchlilik — bo‘yicha tizimli tahlilni ta’minlaydi.

Yuqorida ta’riflangan protsessual prinsiplar va meyorlar fuqarolik sudlovida dalillarga baho berishning murakkab, lekin izchil mexanizmini tashkil etadi. Bu mexanizmning samarali ishlashi sud qarorining qonuniy, asoslantirilgan va adolatli bo‘lishini kafolatlab beradi hamda fuqarolarning sudga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // https://lex.uz/docs/-6445145

2. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi // https://lex.uz/docs/-111189

3. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi. – T.: Huquq, 2021. – 256 b // https://lex.uz/acts/-3517337

4. Shukurov R, Fuqarolik protsessual huquq: nazariya va amaliyot. – T.: Yuridik, 2019. – 312 b.

5. Xolmatov B, Sud amaliyotida dalillarga baho berish. – T.: Huquq va jamiyat, 2020. – 198 b.

6. Islomov M, Fuqarolik ishlarida ekspertiza va guvoh ko‘rsatmalari. – T.: Yuridik, 2018. – 145 b.

7. Raximov J, Elektron dalillar va zamonaviy fuqarolik protsessi. – T.: Ilm, 2021. – 172 b.

8. Sud amaliyoti materiallari. – O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining rasmiy veb-sayti: www.supcourt.uz

9. Toshkent davlat yuridik universiteti ilmiy jurnallari. – 2018–2022 yillar.

10. Mirzayev A, Fuqarolik protsessida dalillarning maqbulligi va aloqadorligi. – T.: Huquq, 2017. – 136 b.

11. Ergashev D, Isbotlash yukining taqsimlanishi fuqarolik sudlovida. – T.: Yuridik fanlar, 2020. – 158 b.

12. Kurbanov S, Sudning ichki ishonchi va vijdoni prinsipining amaliyoti. – T.: Sud va huquq, 2019. – 110 b.

## GIYOHVANDLIK VOSITALARI BILAN QONUNGA XILOF MUOMALA QILISHGA QARSHI KURASHNING ILK BOSQICHLARI

**Abdullayev J.G‘.**
*TDYuU mustaqil izlanuvchisi*

Bugungi kunda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof muomala qilish jamiyat xavfsizligi, aholi salomatligi va davlat barqarorligiga jiddiy tahdid soluvchi ijtimoiy xavfli hodisalardan biri hisoblanadi. Mazkur illat nafaqat shaxsning jismoniy va ruhiy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, balki jinoyatchilikning o‘sishi, oilalar parokandaligi

va yoshlar kelajagiga xavf tug‘dirishi bilan ham harakterlanadi.

Shu bois, giyohvandlikka qarshi kurash har bir davlatning ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilanib, ushbu sohada samarali huquqiy mexanizmlarni yaratish va takomillashtirish doimiy e’tibor markazida bo‘lib kelmoqda. Ayniqsa, giyohvandlik vositalari bilan qonunga xilof muomala qilish uchun jinoiy javobgarlikni belgilash va uning amaliy qo‘llanilishini ta’minlash mazkur muammoni hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Giyohvandlikka qarshi qonunchilikning shakllanishi va rivojlanishi tarixiy, ijtimoiy va siyosiy omillar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u turli davrlarda turlicha yondashuvlar asosida takomillashib borgan. Xususan, jazolovchi choralar bilan bir qatorda profilaktika, davolash va reabilitatsiyaga qaratilgan mexanizmlarning joriy etilishi mazkur sohadagi huquqiy siyosatning yangi bosqichga ko‘tarilganini ko‘rsatadi. Qadim zamonlardan boshlab giyohvand o‘simliklarni tibbiyotda og‘riqni qoldiruvchi vosita sifatida ishlatib kelinganligi hammaga ayon. Ayniqsa, Yaqin Sharq, Hindiston, Xitoy, Markaziy Amerikada ushbu vositalardan foydalanish keng tarqalganligini ko‘rishimiz mumkin. Yevropada giyohvandlik XIX asrdayoq keng tarqala boshlagan edi[1]. Ushbu davrdagi notinchlik, jangu jadallar o‘zidan keyin iqtisodiy nochorlikka, jamiyatdagi ijtimoiy va ruhiy holatning buzilishiga olib keladi, insonlarda ishonchsizlik, himoyasizlik holati yuzaga keladi. Ijtimoiy hayotda muvozanatning buzilishi iqtisodiy tanglik, ishsizlikka, migratsiya darajasining oshishiga va natijada jinoyatchilikning oshishiga sabab bo‘ladi. Ushbu holatda ruhiy buzilishlarni, ishonchsizlikni sun’iy yo‘l bilan, ya’ni giyohvandlik vositalarini sotish yordamida yaxshi yashashga intilish holatlari ko‘proq kuzatila boshlandi. Jamiyat o‘zagini kemiruvchi va unga xavf soluvchi mazkur illatni oldini olish kerakligi dolzarb muammoga aylana bordi. Ushbu holatda tub burilish jahon hamjamiyati tomonidan giyohvand moddalarni iste’mol qilishga, ishlab chiqarishga, tarqatishga va tibbiy maqsadlardan tashqari foydalanishga qarshi bir qator konvensiyalar qabul qilinishi bo‘ldi.

1912 yilda Opiumga qarshi Gaaga konvensiyasi, 1925-yil 2 fevraldagi tozalangan opiumni ishlatish, sotish, ishlab chiqarishni taqiqlovchi Jeneva kelishuvi, 1925 yil 19 fevraldagi Opium bo‘yicha xalqaro Jeneva konvensiyasi, 1931 yilning 27 noyabrdagi “Opiumni chekishni taqiqlash to‘g‘risida”gi Bangkok kelishuvi, 1931-yilning 13 iyulida qabul qilingan giyohvandlik vositalarini ishlab chiqarish va tarqatishga qarshi qaratilgan konvensiya, 1936 yil 26 iyundagi “Zararli dori vositalari bilan qonunga xilof ravishda muomalada bo‘lganlikka qarshi Jeneva konvensiyasi” va shu kabi xalqaro huquqiy hujjatlar giyohvandlik vositalarining noqonuniy savdosiga qarshi kurashning xalqaro huquqiy asoslarini shakllantirdi.

Mamlakatimizda giyohvandlikka qarshi kurashda jinoyat huquqiy vositalarga katta e’tibor berilib kelingan. Shu bilan birgalikda, qonunda giyohvandlik vositalari bilan bog‘liq jinoyatlar uchun javobgarlik ushbu jinoyatlarning tajovuz Obyektiga nisbatan qarashlarning rivojlanishi asosida shakllanib kelgan. Masalan, O‘zSSRning 1926 yildagi Jinoyat Kodeksining 184-moddasida giyohvanddik vositalari bilan bog‘liq jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan bo‘lib, ushbu modda “boshqaruv tartibiga qarshi boshqa jinoyatlar” bobiga kiritilganligi uzoq davr mobaynida (1959 yilgi JK qabul qilingunga qadar) ushbu tajovuzlar Obyekti haqida to‘g‘ri tasavvurning bo‘lmaganligini ko‘rsatadi. Bu esa giyohvandlikka qarshi kurash jinoyat huquqiy siyosatning manfaatlaridan uzoqda bo‘lganligidan dalolat beradi[2].

1926-1956 yillar mobaynida giyohvandlik vositalari bilan muomala qilishni tartibga soluvchi bir qator normativ hujjatlarga va amaldagi qonunchilikka qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritildi. 1928 yilining 23 mayida qabul qilingan “Giyohvandlik vositalarini oldi sotdisini tartibga solish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorga muvofiq kokain, gashish, morfiy, dionin, pantopon bilan erkin muomala qilish taqiqlab qo‘yildi. Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, Jinoyat Kodeksida faqatgina giyohvandlik vositalarini ishlab chiqarganlik va u bilan noqonuniy muomalada bo‘lganlik harakatlari uchungina jinoiy javobgarlik ko‘zda tutilgan edi. Lekin giyohvand mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun zarur bo‘ladigan

xom ashyo bilan muomalada bo‘lish javobgarliqsan tashqarida qolib ketgan edi. Mazkur bo‘shliq 1934 yil 27 oktabrda qabul qilingan “Opiy makini va hind konoplyasini o‘stirishni taqiqlash to‘g‘risida”[3] qaror bilan to‘ldirildi, mazkur holat faqatgina tibbiy va ilmiy maqsadlardan tashqari mazkur o‘simliklarni o‘stirishni ham taqiqlar edi. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan JKga tegishli ruxsatsiz opiy makini va hind konoplyasini o‘stirganlik uchun javobgarlik belgilangan normalar kiritildi. Shunday qilib giyohvand moddalarning xom ashyosi bo‘lmish o‘simliklarni o‘stirganlik uchun ham javobgarlik yuzaga keldi.

Mazkur davrdagi giyohvandlik vositalari bilan bog‘liq jinoyatlar uchun javobgarlikning o‘ziga xos tomoni sifatida qatiy choralar (ozodlikdan mahrum qilish jazosi)ning belgilanganligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birgalikda mazkur jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan qonunlarning rivojlanishida xalqaro shartnomalarning o‘rni ham orta bordi[4]. 1931 yilning 13 iyulida qabul qiligan Jeneva konvesiyasiga rioya qilgan holda Sobiq ittifoq hududida opium va boshqa giyohvand vositalarni ishlab chiqarishni cheklash va ularni tartibga solish Sog‘liqni Saqlash Xalq Komissariyatiga topshirilgan edi. Giyohvandlik vositalari bilan muomala qilishni nazorat qilish maqsadida mamlakatda Sog‘liqni Saqlash Qo‘mitasining 1938 yilning 2 noyabridagi buyrug‘iga asosan mazkur moddalarni mamlakatning tibbiy muassalarida qabul qilib olish, saqlash, kuchli ta’sir qiluvchi vositalarni saqlash qoidalari ishlab chiqildi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining tuzilishi bilan birga giyohvandlikka qarshi kurashda yangi davr boshlandi. 1946 yildan boshlab bu tashkilot faoliyat doirasida oldin muomalada bo‘lgan bir qator shartnomalar va konvensiyalarga o‘zgartirishlar kiritilgan holda muhim hujjatlar qabul qilindi. Masalan, 1946 yilning 2 dekabrida Leyk-Saksessiyada imzolangan Giyohvand vositalarga bag‘ishlangan konvensiyaga va shartnomaga, 1948 yilning 19 noyabrida qabul qilingan “Dori vositalari ustidan xalqaro nazorat” to‘g‘risidagi Parij Protokoliga, 1953 yilning 23 iyunida Nyu-Yorkda imzolangan “Opiumni ishlab chiqarish, uning xalqaro savdosi, iste’mol qilinishini cheklash to‘g‘risida”gi konvesiyalarga o‘zgartirishlar kiritildi. Venada 1961 yilda imzolangan “Giyohvandlik vositalar haqidagi

Yagona konvensiya” giyohvanddik vositalarini tarqalishini oldini olish va ularni ishlatishni tartibga solishga bag‘ishlandi.

Giyohvandlik vositalarini tarqatilishiga qarshi qaratilgan huquqiy normalarni shakllantirish va mustahkamlashda xalqaro me’yorlar bilan birga 1959 yilda qabul qilingan O‘zSSR JK ham katta rol o‘ynadi. Ushbu kodeksning 216-moddasidan 218-moddasigacha giyohvandlik vositalari bilan bog‘liq jinoyatlarga bag‘ishlangan edi. 216-modda kuchli ta’sir qiladigan va zaharli moddalarni sotish maqsadida g‘ayriqonuniy tayyorlash, sotib olish, saqlash, tashish, jo‘natish yoki sotishga bag‘ishlangan. Ushbu modda ikki qismdan iborat bo‘lib birinchisi, narkotik modda hisoblanmagan kuchli ta’sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni sotish maqsadida g‘ayriqonuniy tayyorlash, sotib olish, saqlash, tashish yoki jo‘natishni, shuningdek, bunday moddalarni g‘ariqonuniy sotishni nazarda tutsa, ikkinchi qism, narkotik modda hisoblanmagan kuchli ta’sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni ishlab chiqarish, sotib olish, saqlash, hisobga olish, berish, tashish yoki jo‘natish yuzasidan belgilangan qoidalarni buzishni nazarda tutgan edi.

216-modda 9 ta prim moddalardan iborat bo‘lib ular:

$216^1$-modda. “Kuchli ta’sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni talon taroj qilish” deb nomlanib, 3 qismdan iborat bo‘lgan:

a) kuchli ta’sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni talon- taroj qilish;

b) bunday harakatlar takroran yoki bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib yoki kishilar hayoti va sog‘lig‘i uchun xavfli bo‘lmagan zo‘ravonlik yo‘li bilan sodir etilgan taqdirda yoxud o‘z xizmat mansabi bo‘yicha bunday moddalar ishonib topshirilgan yoki ularni saqlash uchun javobgar bo‘lgan shaxs tomonidan sodir qilinsa;

v) narkotik hisoblanmagan kuchli ta’sir qiluvchi yoki zaharli moddalarning alohida xavfli residivist tomonidan yoki bosqinchilik yo‘li bilan talon-taroj qilinishi, shuningdek, bu moddalar ko‘p miqdorda talon-taroj qilinganligi uchun javobgarlik belgilangan.

$216^2$-modda. “Narkotik vositalarni g‘ayriqonuniy tayyorlash, sotib olish, saqlash, tashish, jo‘natish yoki sotish” deb nomlanib, ikki qismdan iborat bo‘lgan.

Birinchi qism sotish maqsadida narkotik vositalarni g‘ayriqonuniy tarzda tayyorlash, sotib olish, saqlash, tashish yoki jo‘natish, shuningdek, narkotik vositalarni g‘ayriqonuniy sotish, ikkinchi qism o‘sha harakatlar takroran yoki bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib yoxud ushbu kodeks $216^1$ va 217-moddalarida ko‘zda tugilgan jinoyatlardan birini ilgari sodir qilgan shaxs tomonidan yoki alohida xavfli residivist tomonidan sodir etilgan taqdirda, shuningdek, bunday harakatlar ko‘p miqdordagi narkotik vositalar bilan bog‘liq bo‘lgan hollar uchun jazo ko‘zda tugilgan edi.

$216^3$-modda. “Narkotik vositalarni talon-taroj qilish” deb nomlanib, narkotik vositalarni talon-taroj qilish:

a) bunday harakatlar takroran yoki bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib, yoxud kishilar hayoti sog‘ligi uchun xavfli bo‘lmagan zo‘ravonlik yo‘li bilan sodir etilgan taqdirda yoki o‘z xizmat mansabi bo‘yicha shunday moddalar ishonib topshirilgan yoxud ularni saqlash uchun javobgar bo‘lgan shaxs tomonidan, shuningdek, ushbu Kodeksning $216^2$, $216^4$, $216^5$ va 217-moddalarida ko‘zda tutilgan jinoyatlardan birini ilgari sodir qilgan shaxslar tomonidan sodir etilsa;

b) narkotik vositalarning alohida xavfli residivist tomonidan yoki bosqinchilik yo‘li bilan talon-taroj qilinishi, shuningdek, narkotik vositalarning ko‘p miqdorda talon-taroj qilinishini o‘z ichiga olgan.

$216^4$-modda. “Narkotik vositalar iste’mol qilinadigan bangixonalar tashkil etish yoki ularni saqlash” deb nomlanib, narkotik vositalar iste’mol qilinadigan bangixonalar tashkil etish yoki ularni saqlash yoxud ayni shunday maqsadlar uchun binolar ajratib berganlik uchun javobgarlikni nazarda tutgan.

$216^5$-modda. “Narkotik vositalarni iste’mol qilishga jalb etish” deb nomlanuvchi mazkur modda 2 qismdan iborat bo‘lgan:

a) narkotik vositalarni iste’mol qilishga jalb etish;

b) bunday harakatlar ikki shaxsga yoki undan ko‘proq shaxsga nisbatan yoxud voyaga yetmagan shaxsga nisbatan amalga oshirilgan yoki narkotik vositalarni iste’mol qilishga birovlarni o‘rgatganligi uchun ilgari sudlangan shaxs tomonidan, shuningdek, ushbu kodeksning $216^2$, $214^4$ va

217-moddalarida ko‘zda tutilgan jinoyatlardan birini ilgari sodir qilgan shaxs tomonidan sodir etilgan takdirda javobgarlik belgilangan.

$216^{6}$-modda. “Narkotik vositalarni sotish maqsadini ko‘zlamay g‘ayriqonuniy tayyorlash, sotib olish, saqlash, tashish yoki jo‘natish” deb nomlanib, birinchi qism narkotik vositalarni sotish maqsadini ko‘zlamay g‘ayriqonuniy tayyorlash, sotib olish, saqlash, tashish yoki jo‘natish, ikkinchi qism, o‘sha harakatlar takroran sodir etilgan yoki ushbu kodeksning $216^{2}$, $216^{5}$, 217 va $217^{1}$ moddalarida ko‘zda tutilgan jinoyatlardan birini ilgari sodir qilgan shaxs tomonidan sodir etilganda javobgarlikni nazarda tutadi.

$216^{7}$-modda. “Narkotik vositalarni iste’mol qilish”. Narkotik vositalarni iste’mol qilganlik uchun yoki ushbu kodeksning $216^{9}$- moddasida nazarda tutilgan nojo‘ya harakatlar uchun ma’muriy jazo chorasi qo‘llanilganidan keyin bir yil mobaynida bunday vositalarni vrach ruxsatisiz yana iste’mol qilganlik uchun javobgarlikni nazarda tutadi.

$216^{8}$-modda. “Narkotik vositalarni ishlab chiqarish, sotib olish, saqlash, hisobga olish, berish, tashish yoki jo‘natish qoidalarini buzish”ni nazarda tutadi.

$216^{9}$-modda. “Narkotik vositalarni ko‘p bo‘lmagan miqdorda g‘ayriqonuniy tarzda sotib olganlik yoki saqlaganlik” uchun yoxud ushbu kodeksning $216^{7}$-moddasida nazarda tutilgan nojo‘ya harakatlar uchun ma’muriy jazo chorasi qo‘llanilganidan keyin bir yil mobaynida yana shunday harakatlar qilganlik uchun javobgarlikni nazarda tutadi.

Jinoyat Kodeksining 217-moddasi yetishtirish taqiqlangan ko‘knor va nasha ekkanlik yoki o‘stirganlikni nazarda tutib, ikki qismdan iborat edi:

yetishtirish ta’qiqlangan ko‘knor, shuningdek, Hindiston, Janubiy Manjuriya, Janubiy Chu, Janubiy Arxo va Janubiy Krasnodar nashasini ekkanlik yoki o‘stirganlik uchun;

o‘sha harakatlar qayta sodir etilgan yoki ushbu kodeksning $216^{2}$, $216^{5}$ va $217^{1}$-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlardan birini ilgari sodir qilgan shaxs tomonidan sodir etilganda javobgarlikni nazarda tutadi.

$217^{1}$-modda moyli ko‘knor va nashani g‘ayriqonuniy tarzda ekish va yetishtirganlik uchun javobgarlikni nazarda tutgan. Mazkur modda

217-modda birinchi qismida ko‘rsatilgan turlardan tashqari moyli ko‘knor, shuningdek, nashani g‘ayriqonuniy tarzda ekish yoki yetishtirish shunday nojo‘ya harakatlar uchun ma’muriy jazo chorasi qo‘llanilganidan keyin bir yil mobaynida takroran sodir etilishini nazarda tutsa, ikkinchi qism, o‘sha harakatlar mazkur moddaning birinchi qismida hamda ushbu kodeksning $216^3$, $216^5$ va 217-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlardan birini ilgari sodir qilgan shaxs tomonidan sodir etilganda javobgarlikni nazarda tutgan.

1961 yil 31 iyulda qabul qilingan ‘Giyohvand vositalarga qarshi yagona konvensiya” va shartnomalarga muvofiq jinoiy javobgarlikka sabab bo‘luvchi qilmishlar doirasiga giyohvandlik vositalarini tayyorlash, sotish maqsadida saqlash va sotishdan tashqari yana, sotish maqsadida ularni qo‘lga kiritish, saqlash, ularni tashish ham kiritildi[5]. Opiy makini va hind konoplyasini ekkanlik uchun giyohvandlik moddalarni sotish va iste’mol qilish mo‘ljallangan xonalarni saqlash kabi moddalar ham kiritildi. Mazkur guruhdagi barcha normalar muqobil sanksiyaga ega bo‘lib, o‘z navbatida javobgarlik differensiatsiyasiga, jazoning individuallashtirilishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan[6].

Giyohvandlik bilan bog‘liq jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan normalar ko‘paytirilganligi ushbu qilmishlarning kamayishiga olib kelmadi, aksincha, mazkur yillarda ushbu jinoyatlarning mamlakat hududida sodir etilishi ko‘payishi kuzatildi. Natijada 1965 yilning 27 yanvarida ‘Giyohvandlik vositalarni ishlab chiqarish va ularni tarqalishiga qarshi kurash chora tadbirlarni kuchaytirish” haqida qaror qabul qilindi. Mazkur holat JKga o‘zgartirish kiritishni taqozo qilar edi. Sobiq Ittifoqning 1969 yil 2 iyulda qabul qilingan “SSSR ittifoqi va boshqa ittifoqdosh Respublikalar Jinoyat qonunchiligiga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi qonuniga binoan JKga o‘ta xavfli residivist tomonidan giyohvandlik vositalari bilan bog‘liq jinoyatlar sodir qilganlik uchun javobgarlik kiritildi. 1972 yilning 18 mayida SSSR Oliy Soveti Prezidiumining qaroriga asosan “SSSR ittifoqi va boshqa ittifoqdosh Respublikalar Jinoyat qonunchiligiga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida” qonunining 7-moddasiga qo‘shimchalar kiritilib, unga og‘ir jinoyat hisoblanuvchi giyohvandlik vositalarini sotish

maqsadida tayyorlash, saqlash, talonchilik yo‘li bilan qo‘lga kiritish so‘zlari kiritildi. Shu davr mobaynida giyohvandlikka qarshi yana bir kurash yo‘li, ya’ni narkomanlarga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov chorasi qo‘llanila boshlandi va ularning sog‘ayishi va reabilitatsiya qilinishiga katga e’tibor berila boshlandi[7].

1971 yilda Venada psixotrop vositalar to‘g‘risida konvensiya qabul qilinib, psixotrop vositalar bir nechta guruhlarga bo‘lindi. Giyohvand va psixotrop moddalar ustidan nazorat qilishda amalga oshiriluvchi xalqaro normalar tizimining shakllanishi milliy qonunchilikning ushbu sohada rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Aholi sog‘lig‘iga xavf tug‘diruvchi jinoyatlarga qarshi kurashish sohasida qonunchilik faollashuviga Vena konvensiyasining psixotrop vositalar to‘g‘risidagi 1971 yilda qabul qilingan konvensiyasi ta’sir ko‘rsatdi; ushbu hujjat jahon miqyosida giyohvandlikka qarshi kurashishda yagona yo‘nalishning mavjud emasligi holatini qisman bo‘lsada bartaraf qildi. Deyarli barcha Ittifoq respublikalari JKlari tomonidan giyohvand moddalarini sotish maqsadida ularni tayyorlash, sotish hamda o‘zlashtirish, saqlashga oid holatlar muammosi bir xil hal qilinsada, ularni shaxsiy ehtiyoj uchun olish, qabul qilish, noqonuniy yetkazib berish va saqlash kabi holatlarda turlicha jazo choralari qo‘llanildi[8].

Sobiq Ittifoq Oliy Kengashining 1974 yil 25 apreldagi “Giyohvandlikga qarshi kurash choralarini kuchaytirish” to‘g‘risidagi qaroriga asosan jinoyat qonuniga o‘zgartirishlar kiritildi. Ushbu normativ hujjatni amalga oshirish maqsadida giyohvandlik vositalariga bog‘liq jinoyatlarni sodir etganligi uchun jinoiy javobgarlikka tortiluvchi harakatlar doirasi kengaytirildi.

O‘zSSR Sovet ittifoqi tarkibida bo‘lgan davrda 1961 yildagi giyohvandlik vositalari to‘g‘risidagi yagona konvensiya; 1971 yildagi qabul qilingan psixotrop moddalar to‘g‘risidagi konvensiya; 1987 yilda Venada o‘tkazilgan xalqaro giyohvandlik vositalarini noqonuniy iste’mol qilish va ular bilan noqonuniy muomala qilishga qarshi kurashga oid konvensiya, 1989 yilda BMTning Giyohvandlikka qarshi kurashga oid Vena konvensiyasi, 1990 yilda BMTning jinoyatchilikni oldini olish va

huquqbuzarlik bilan muomala qilishga oid kongress ishtirokchisi bo‘lib kelgan.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin jinoyat qonuni ham yangidan ishlab chiqildi. 1994 yilda qabul qilingan va hozirda amalda bo‘lgan Jinoyat kodeksining 1959 yilgi kodeksdan farьili tomonlari shundaki, amaldagi JKda giyohvandlik vositalari bilan qonunga xilof muomalada bo‘lishga maxsus bir bob ajratildi. 1959 yilgi JKda giyohvandlik vositalari bilan qonunga xilof ravishda muomalada bo‘lish jamoat tartibi va jamoat xavfsizligiga qarshi qaratilgan jinoyatlar bobiga kiritilgan bo‘lib mazkur jinoyatlarga 2 ta moddagina ajratilgan edi. Amaldagi Jinoyat kodeksi esa 7 ta moddada mazkur jinoyatlar uchun javobgarlikni nazarda tutgan edi:

270-modda. Taqiqlangan ekinlarni yetishtirish;

271-modda. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda egallash;

272-modda. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda o‘tkazish;

273-modda. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni o‘tkazish maqsadini ko‘zlab qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash va boshqa harakatlar qilish, shuningdek, ularni qonunga xilof ravishda o‘tkazish;

274-modda. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni iste’mol qilishga jalb qilish;

275-modda. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni ishlab chiqarish yoki ulardan foydalanish qoidalarini buzish;

276-modda. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarini o‘tkazish maqsadini ko‘zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash va boshqa harakatlar.

Tergov va sud amaliyotida JK 272 va 273-moddalarini kvalifikatsiya qilishda bir qancha muammolar kelib chiqdi. Chunki ushbu moddalarda aynan bir xildagi jinoyatlar uchun javobgarlik ko‘zda tutilgan edi. Shu sababli 1999 yil 20 avgustda O‘zbekiston Respublikasining JKga kiritilgan o‘zgartish va qo‘shimchalar tufayli JKning 272-moddasi chiqarib tashlandi, JKning 273-moddasi yangi tahrirda qabul qilindi.

Ko‘rib chiqilayotgan jinoyatlar bo‘yicha JKda yana bir muhim o‘zgartirish 2018 yil 22 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga jamoat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-503-son qonun[9] bilan kiritildi.

Shu bilan birgalikda, o‘tgan davr mobaynida JKda giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar noqonuniy muomalasi bilan bog‘liq jinoyatlar uchun javobgarlikni takomillashtirish, bunday vositalarni targ‘ib qiluvchi mahsulotni tayyorlash, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish yoki bunday moddalarni iste’mol qilishga jalb etganlik uchun javobgarlikni belgilash bo‘yicha o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritib kelindi.

Shu bilan birgalikda, zamon o‘zgarishi bilan qonunchilik ham, shu jumladan, giyohvandlik vositalari bilan bog‘liq jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan normalar ham o‘zgarib, takomillashib boraveradi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 3 noyabrdagi “Aholi salomatligi va millat genofondini giyohvandlik va narkojinoyatlardan samarali himoya qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-207-son Farmoni[10] giyohvandlik bilan bog‘liq jinoyatlar uchun javobgarlikni takomillashtirishda muhim qadam bo‘lishini alohida ta’kidlab o‘tish lozim.

Ushbu farmon bilan, JKga quyidagi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha qonun loyihasini ishlab chiqish vazifasi belgilandi:

uyushgan narkojinoyatchilikka jinoiy-huquqiy mexanizmlar orqali qarshi kurashish faoliyatini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish maqsadida Jinoyat kodeksiga “Aholi salomatligi va millat genofondiga qarshi jinoyatlar” nomli alohida yangi bo‘lim kiritish (giyohvandlik bilan bog‘liq jinoyatlar jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar bo‘limidan chiqarilib, yangi tashkil etilayotgan bo‘limga kiritiladi);

voyaga yetmagan shaxsni kuchli ta’sir qiluvchi moddalarni iste’mol qilishga jalb etganlik uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri jinoiy javobgarlik belgilash;

giyohvandlik vositalari, psixotrop va kuchli ta’sir qiluvchi moddalarni ta’lim tashkilotlari hamda ularga tutash hududlarda, internet

tarmog‘idan foydalanib, shuningdek, voyaga yetmaganlarga o‘tkazganlik uchun javobgarlikni keskin og‘irlashtirish;

ayrim narkojinoyat sodir etgan shaxslarni jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilmaslik tartibini joriy etish va boshqalar.

Bu endilikda bunday turdagi jinoyatlar avvalo aholi salomatligi va millat genofondiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omil sifatida baholanganligi va unga qarshi kurashish bo‘yicha yangicha yondashuvlar yuzaga kelayotganligini bildiradi. Biz ushbu o‘zgartirishlarni qo‘llab-quvvatlagan holda, aholi orasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, ularning giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarga nisbatan qarshi immunitetni shakllantirish, shuningdek, inson salomatligini ta’minlashga qaratilgan islohotlar o‘z samarasini beradi, deb hisoblaymiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Кажарский Д.Д. О практике применения уголовно-правовгх норм об ответственности за наркотизм // Вестник МГУ, Серия 11, Право. 1988. №2. - С. 40.; Казакова А. В. Обзор законодателства зарубежннх государств по борбе с распространением наркотиков. По материалам зарубежной печати. М.: МВД России. 1996. — С. 101.

2. Abdurasulova Q, Uteniyazov M. Voyaga yetmaganlar giyohvandligini oldini olishning jinoyat huquqiy choralari // Giyohvandlikka qarshi kurash: nazariya va amaliyot (ijtimoiy-huquqiy jihatlar) mavzusidagi xalqaro ilmiy-amalii konferensiya materiallari. - T.: SilMEG, 2002. — B. 58-58.

3. SZ SSSR. 1934,- №56. - Sg. 422

4. Гасанов Э.Г. Борба с наркотической преступностю: международнй и сравнительно-правовой аспектн. — М.: «YurInfoR» 2000. — С. 75.

5. Ikramova M.G. Уголовно-правовая борба с наркоманией. — Т.: «Fan» 1982. - S.29; Кадров М.М. Проблемы уголовно-правовой борбы с незаконным оборотом наркотических средств. — Ташкент, 1993. — С. 24.

6. Кадров М.М. Проблемы уголовно-правовой борбы с незаконным оборотом наркотических средств. — Ташкент, 1993. — С. 24.

7. Осмоналиев К.М. Уголовно-правовне мерг предупреждения и пресечения незаконного оборота наркотических средств (по

материалам Кыргызской Республики). Автореф. дис.... канд. юрид. наук. - М., 1997. — С. 17.

8. Fetkulov G.X. Ugolovno-pravovaya borba s nezakonntm prigotovleniem, priobreteniem, xraneniem, perevozkoy, pereselkoy, sbtom narkoticheskix sredstv ili psixotropnых veщestv. Kand.diss. Karaganda, 1999. - S. 65.

9.https://lex.uz/uz/docs/4011752?ONDATE=23.10.2018%2000#4012190

10. https://lex.uz/docs/7818774

## SHAXSGA DOIR MA'LUMOTLAR TO'G'RISIDAGI QONUNCHILIKNI BUZGANLIK UCHUN JINOIY JAVOBGARLIKNING RIVOJLANISHI

**Choriyev A.Q.**

*Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi*

Shaxsga doir ma'lumotlar qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik mamlakatimiz qonunchiligi uchun yangi institut bo'lsada, ammo shaxsiy hayot daxlsizligiga oid munosabatlar ancha oldindan rivojlanib kelgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 27-moddasiga muvofiq, har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega.

Erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi - insonning asosiy huquqlaridan biri bo'lib, u shaxsga boshqa odamlar va umuman jamiyat huquqlarini buzmaydigan barcha narsalarni qilish imkoniyatini anglatadi. Erkinlik huquqi, xususan, shaxsiy (turar joyni tanlash erkinligi, harakat erkinligi, jinsiy erkinlik va boshqalar), siyosiy (fikr erkinligi, so'z erkinligi va boshqalar), kasbiy (mehnat erkinligi, ijodkorlik erkinligi va boshqalar) hayot sohalarida amalga oshiriladigan muayyan vakolatlar majmuini o'z ichiga oladi. Shaxsiy daxlsizlik shaxsning individual faoliyat sohasiga tashqaridan har qanday aralashuvning qabul qilinmasligini nazarda tutadi va jismoniy hamda ruhiy daxlsizlikni o'z ichiga oladi.

L.Strahilevitz fikricha, "Shaxsiy hayot daxlsizligi huquqning pozitiv nazariyasi bo'yicha shaxsiy hayotning birlamchi xususiyatlari:

- "oilaviy masalalar" (oiladagi munosabatlarga oid ma'lumotlar);

- “tashkiliy masalalar” (kun tartibini belgilash, o‘qish yoki ish joyini tanlashda va tashkiliy masalalarda namoyon bo‘ladi);

- “tibbiy masalalar” (sog‘liqni saqlashga qaratilgan harakatlarda ifodalanadi);

- “hordiq chiqarishga oid masalalar” (dam olish va ko‘ngil ochish kabi harakatlarda namoyon bo‘ladi);

- “turli munosabatlarga oid masalalar” (do‘stlar, tanishlar va boshqalar bilan munosabatlar);

- “jinsiy munosabatlarga oid masalalar” (jinsiy odatlar) va boshqalarda namoyon bo‘ladi”[1].

Demak, shaxsiy ma’lumotlar bu shaxsiy hayot daxlsizligining bir qismi hisoblanadi. Shu munosabat bilan biz ushbu paragrafda, shaxsiy ma’lumotlarga oid qonunchilikning takomillashuvini aynan shaxsiy hayot daxlsizligining huquqiy asoslari rivojlanishini bilan ko‘rib chiqamiz.

Shaxsiy hayot daxlsizligi masalasin tadqiq qilgan F.Madiev, milliy huquq tizimida shaxsiy hayot daxlsizligi huquqini ta’minlashning rivojlanish bosqichlarini quyidagi xronologik ketma-ketlik joylashtirishni taklif qilgan:

“1) Qadimgi davr (m.a. I ming yillik o‘rtalaridan milodiy VIII asr boshlariga qadar);

2) O‘rta asrlar davri (VIII asr boshlaridan XX asrning boshlariga qadar);

3) Yangi davr (XX asrning boshlaridan XX asrning oxiriga qadar);

4) Zamonaviy davr (XX asrning oxiridan 2016 yilgacha);

5) Eng yangi davr (2016 yildan va hozirga qadar)” [2].

Biz ham F.Madievning ushbu xronologik ketma-ketiligiga umuman olganda qo‘shilgan holda, shaxsga oid ma’lumotlarni buzganlik uchun javobgarlik rivojlanishi tarixini mamlakatimizda islomgacha bo‘lgan davr, islom (shariat) huquqi amal qilgan davr, sobiq sovet ittifoqi davri, milliy qonunchilik rivojlanishi davri hamda yangi davr (2019 yildan keyingi davr)ga bo‘lishni taklif qilamiz.

Islomgacha bo‘lgan davr. Islomgacha bo‘lgan davrda asosiy huquqiy manba sifatida Avesto o‘rganilganligi uchun, biz ham ushbu masalada Avestoga tayanamiz.

“Avesto” dunyodagi eng qadimgi yozma manbalardan biri bo‘lib, Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi davrdagi tarixi, turmushi, urf-odatlari, dinlari, ma’naviyati haqida juda qimmatli ma’lumotlar beradi.”Avesto” miloddan avvalgi VII asrning oxiri va VI asrning boshlarida yaratilgan. Unga Zardusht asos solgan, eng so‘nggi tahriri milodiy VI asrda tugallangan. Demak, “Avesto” bir necha ming yildan ortiq muddatni o‘z ichiga olgan voqealarni qamrab olgan bo‘lib, unda faqat diniy ma’lumotlarning o‘zigina bo‘lmay, balki tarixiy hodisalar ham o‘rin olgan. Shu sababli “Avesto” Markaziy Osiyo va Eron xalqlarining qadimiy madaniyatini (e’tiqodi, tili, adabiyoti), qisman tarixini o‘rganishda asosiy manba hisoblanadi.

Zardushtiylikda Ahura Mazda azal mavjud va abadiy iloh sifatida alohida mavqega qo‘yilgan. Umuman, barcha ezgu borliq uning tomonidan yaratilgan deyiladi. Har bir ezgu xilqatning yovuz ziddi esa Axriman timsolida yaratiladi[3].

“Avesto”da odamiylik, inson baxt - saodati uchun kurash ulug‘langan. Jumladan, quyidagi fikrlar ilgari surilgan: Yaxshi fikr, ilohiy qonun ruhidagi , yaqin kishisiga mehribon bo‘lish, muhtojlik va xavf-xatar ostida qolganda kumaklashishga shaylik, yovuzlikka qarshi, kishilar baxt- saodati uchun faol kurashishga shaylik, hamma bilan ahil va totuvlikda o‘z maslakdosh birodorlari bilan do‘stlik va hamjamiyatlilikda yashashga intilish ruhidagi niyatlar va fikrlar musaffoligi targ‘ib qilingan. Inson o‘z fikr - xayolida boshqalarga hasad qilmasligi lozimligiga alohida e’tibor qaratilgan, yaxshi niyatli insonlar amaliy faoliyatlarida hamisha ezgulikni tarannum etib, ma’rifatni targ‘ib qilishi va shu asosda jamiyatda jaholatga qarshi kurashda muhim o‘rin tutishiga e’tibor qaratilgan”[4].

zardushtiylik ta’limotida rostlik va haqiqat uchta ma’naviy – huquqiy g‘oyaga asoslanadi: ezgu fikr, ezgu kalom, ezgu amal. Zardusht bu uchlikka amal qilgan kishining qalbi behad pokiza bo‘lg‘ay deb uqtiradi.

Zardushtning buyuk xizmati shundaki, u dinni tom ma’nodagi ma’naviy-axloqiy asosga qurdi. “Zardusht, –deb yozadi doktor Rizoiy, – dunyo tarixida mazhabni sehru jodugarlikdan, zohiriy udum va marosimlarni ko‘r-ko‘rona bajarishdan, mavhumlik va xurofotdan xalos

qilganva uni axloq poyasida ustuvor etgan birinchi shaxsdir”[5]. Haqiqatda ham u axloq me’yorini hayotning mezoni deb bildi va baniy basharga yaxshi ish va yaxshi xulqu amal olamni ham, odamni ham bezaydi, deb tushuntirdi. Inson aslida ozod va erkin, uning yashashi, ruhiyati,ijodiy intilishi mehnatiga hamroh va payvast bo‘ladi.

Avestoda shaxsiy hayot daxlsizligi bo‘yicha aohida qoidalar mavjud bo‘lmasada, uning kurtaklarini yolg‘on gapirish, tuhmat qilishga nisbatan qarashlarda kuzatishimiz mumkin.

Islom (shariat) huquqi amal qilgan davr. Shaxs va jamiyat munosabatlarining diniy talqinining aqidaviy va amaliy asoslari, uning manbalari hisoblanmish, Qur’oni karim, hadisi shariflar hamda fiqh (musulmon huquqshunosligi) ning asosi – shariatda o‘z ifodasini topgan. Islom ta’limotida insonlarning shaxsiy va ijtimoiy hayotlarining barcha jihatlari: moddiy va ma’naviy, xo‘jalik va siyosiy, oilaviy va ijtimoiy, huquqiy, ilmiy va baynalmilallikdan iborat faoliyatlari uchun ko‘rsatmalar mavjud.

Hijriy I asrda Islom huquqi shakllana boshlab, hijriy II va III asrlarda taraqqiyot bosqichlariga ko‘tarildi. Hijriy II asr boshlarida ilk huquqiy maktablar (mazhablar) yuzaga kela boshladi va yangi shakllangan Islom jamiyati o‘zining boshlang‘ich huquqiy va qonuniy institutlari – muassasalarini qurishga muvaffaq bo‘ldi.

Ta’kid etish joizki, O‘zbekistonda islom huquqi (fiqh) yoki shariat o‘tgan asrning yigirma beshinchi yilligiga qadar davlat hokimiyati tuzilmalari, jumladan qozilik amaliyotida qo‘llanilgani bois, milliy davlatchiligimizning huquq tarixi o‘zagi deb qaraladi. Hozirgi kunda esa jamiyatda milliy qadriyatlar va ma’naviyatning milliylik asosida yuksalishiga islom huquqining ibodatlarga oid qoidalarining ta’siri va o‘rni beqiyos ahamiyatga ega ekanining alohida ta’kidlash o‘rinlidir.

Mamlakatimiz hududida shariat normalari amal qilgan davrlarda ham jinoyatlarni tasniflashga oid normalar mavjud bo‘lgan. M.Rajabova “shariat nafaqat jinoyat haqida umumiy tushuncha, balki bir qancha og‘ir jinoyat turlariga ham yetarlicha ta’rif va tasnif berilgan”ligini qayd etadi[6].

J.Toshqulov islom jinoyat huquqida tadqiqotchilar jinoyatlarni uchta katta guruhga ajratishini qayd etgan.

“1. Had turidagi jinoyatlar – Allohning belgilab qo‘yilgan chegarasidan o‘tib (musulmon jamoasining) huquqlariga qarshi qaratilgan va islom huquqining asosiy manbalari – Qur’oni Karim va Sunnada aniq jazo choralari belgilangan jinoyatlar.

M.Rajabova Qur’oni Karimda ko‘plab jinoyatlar haqida so‘z yuritilgan bo‘lib, ularni ikki guruhga bo‘lib o‘rganish mumkinligini qayd etadi 1) Aniq jazo belgilangan jinoyatlar. 2) Aniq jazo belgilanmagan jinoyatlar.

2. Qasos yoki diyat turidagi jinoyatlar – alohida shaxslarning haqhuquqlariga qarshi qaratilgan jinoyatlar. Bular insonni yashash huquqidan mahrum qilish va sog‘lig‘iga zarar yetkazishga qaratilgan jinoyatlar.

3. Ta’zir turidagi jinoyatlar – Allohning (musulmon jamoasining) va alohida shaxslarning haq-huquqlariga qarshi qaratilgan hamda islom huquqi manbalarida aniq jazo choralari belgilanmagan, ularni belgilash huquqi qoziga yoki hukmdorga berilgan jinoyatlar. Bular zakot to‘lamaslik, shartnomalar bo‘yicha majburiyatlarni bajarmaslik, savdo-sotiq qoidalarini buzish, sudxo‘rlik, poraxo‘rlik kabi jinoyatlar”[7].

Islom huquqiga oid manbalarning tahlili “jiddiy” hisoblangan har qanday gunoh yoki jinoyat musulmon tafakkurlarini buzganlik uchun jazoga loyiq qattiq harakat sifatida qaraladi. Uning mohiyati islomning din, hayot, aql-idrok, avlodlar davomiyligi va mulkka egalik kabi besh prinsipga tayangan huquqiy qonun-qoidalarda o‘z ifodasini topadi. Islom huquqida har qanday qonunbuzarlikka Allohning irodasiga bo‘ysunmaslik deb baholanadi. Shuning uchun ham shariatda huquqiy jamoatdan g‘ayriqonuniy hisoblangan musulmon huquqi qoidalaridan chetga chiqqan har qanday xatti-harakatlar faqatgina “dunyoviy” sanksiyalardangina emas, shu bilan birga ular diniy tomondan gunoh hisoblanib, oxirat jazosiga ham sabab bo‘ladi, deb qaraladi. “Xojag‘on – Naqshbandiya” tariqatidagi pirlari ham aynan shariatga qat’iy rioya qilish, ayniqsa katta-yu kichik gunohdan saqlanib, jazoga yo‘liqmaslik chorasini ko‘rganligi

bilan muhim ahamiyatga ega ta’limot sifatida bizgacha kelgani bilan ahamiyat kasb etadi [8].

Inson huquqlari mavzusi qadimgi zamonlardan beri islomda o‘rganilib kelinayotgan huquq nazariyasining ajralmas qismidir. Shariat bo‘yicha egasi tomonidan bir shaxsga xos va boshqa shaxsga o‘tkazilmaydigan deb belgilangan manfaat haq deb ataladi. Arab tilida huquq ko‘plik shaklda huquqlar deb ataladi, bu haq va huquq bir xil ma’noga ega ekanligini anglatadi. Mohiyat jihatdan huquq degani shaxsga tegishli bo‘lgan, undan ajratib olinmaydigan va boshqa shaxsga o‘tkazib berilmaydigan shaxsiy huquqlar majmui deb aytish mumkin (hayot huquqi, sharaf, qadr-qimmat, shaxsiy hayotning daxlsizligi, mualliflik huquqi va boshqalar).

Shaxs huquqlarini belgilashda Qur’onning insonga munosabati muhim ahamiyatga ega. Shuni ta’kidlash kerakki, ayrim dinlar tasavvurida inson o‘z gunohlari uchun Xudo tomonidan la’natlangan va u bu dunyoda faqat o‘sha gunohlarni yuvish uchun mavjuddir. Buning uchun u o‘zini azob-uqubatlarga solishi va dunyoviy hayotdan voz kechishi kerak. Islomga ko‘ra esa, Odam gunoh qilgach, darhol tavba qildi va Alloh uni kechirdi, hozir esa har kim gunohsiz bo‘lib tug‘iladi. Shunday qilib, dinshunoslar fikricha, islomda inson - sharafli mavjudotdir. Demak, islomda inson huquqlari haqida gapirilganda, oliy, muqaddas mavjudotning huquqlari nazarda tutiladi va qolgan hamma narsa unga bo‘ysunishi va foyda keltirishi kerak.

Islom huquqining asosiy huquq manbasi hisoblanadigan Qur’oni Karimda shaxsiy hayot daxsizligiga oid qoidalar mavjud. Jumladan, “Nur” surasining 27-29-oyatlarida hamda “Hujurot” surasining 11-12-oyatlarida shaxsiy hayot daxlsizligiga bag‘ishlangan qoidalar keltirib o‘tiladi [9].

Bundan tashqari, Islom huquqining ikkilamchi manbasi bo‘lgan “hadis” kitoblarida biri “Sahihi Buxoriy”da: Abdulloh ibn Abbos roziyallohu anhudan rivoyat qilgan hadisda Rasuli akram sollallohu alayhi vasallam: “Kim birodarining maktubiga uning iznisiz nazar solsa, xuddi do‘zax otashiga nazar solgandek bo‘ladi”[10], mazmundagi hadis

keltirilgan bo‘lib, bunda shaxsiy hayot daxlsizligining bir elementini kuzatish mumkin.

Fikrimizcha, Islom huquqida shaxsning daxlsizligi nihoyatda yuqori darajada himoya qilinganbo‘lib bundan tashqari, birovning uyiga ruxsatsiz kirib borish u yoqda tursin, ruxsatsiz qarash, ko‘z tashlash ham mumkin emas. Chunki ko‘z tashlagan odam ichkarida uy egasi, uning ahli ayolini har xil holatda ko‘rishi, boshqalardan sir tutgan narsalaridan voqif bo‘lib qolishi ehtimoli mavjudligi ko‘rsatib o‘tiladi. Demak mazkur davrda shaxsiy hayot daxlsizligi shariat normalari bilan muhofaza etilganligi bilan xususiyatlanadi.

Sobiq sovet ittifoqi davri. Ushbu davr o‘z ichiga 1924 yildan 1991 yilga mustaqillikkacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi.

Shaxslarni jinoiy javobgarligiga tortish sohasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi birinchi normativ-huquqiy hujjat 1922 yilda qabul qilingan RSFSR Jinoyat kodeksi bo‘ldi. Bizda ham O‘zSSR Jinoyat kodeksi qabul qilingunga qadar ushbu kodeks qo‘llanilgan. U bu bosqichda tarixiy rivojlanish davrining ruhiga to‘liq mos keldi va faqat jamoaviy manfaatlarni himoya qildi. Bu davrning amaldagi qonunchiligida “shaxsiy sir” tushunchasi ham yo‘q edi, JK da esa shaxsiy sirni himoya qiluvchi normalar ham yo‘q edi. Ushbu qoidalardan yagona istisno 117-moddada aks etgan bo‘lib, unda mansabdor shaxs tomonidan e’lon qilinmasligi kerak bo‘lgan ma’lumotlarni oshkor etganlik uchun javobgarligi haqidagi norma mavjud edi. Bu ushbu davrda maxfiy axborotni himoya qilishni ta’minlash bo‘yicha huquqiy munosabatlarning juda tor doirada ekanligidan dalolat berdi, chunki jinoiy javobgarlik faqat maxsus Subyekt - mansabdor shaxsga nisbatan mavjud edi. Shuningdek, amaliyotda huquqni muhofaza qilish va sud organlari ushbu normani faqat zamonaviy tilda xizmat (yoki boshqa har qanday kasbiy) sir deb ataladigan ma’lumotlarni oshkor etish holatida qo‘llagan.

1927 yilda qabul qilingan RSFSR Jinoyat kodeksi va 1927 yilda qabul qilingan O‘zSSR Jinoyat kodeksida shaxsiy ma’lumotlarni sir saqlashni kafolatlaydigan norma mavjud emas edi. Bu esa, shaxsga doir

ma’lumotlarni sir saqlash davlatning asosiy vazifalaridan deb qaralmaganligini ko‘rsatadi.

Biroq 1929 yil 15 fevralda SSSR Xalq komissarlari Soveti qarori bilan tasdiqlangan “Pochta, telegraf, telefon va radio aloqasi nizomi”ning qabul qilinishi bilan vaziyat biroz o‘zgardi. Ushbu nizomning 6-moddasida “Barcha turdagi pochta, telegraf va radiotelegraf xat-xabarlarning mazmuni xat-xabarlarni oluvchi shaxslarning sirini tashkil etadi. Aloqa xodimlariga ushbu sirni buzish, shuningdek o‘zga shaxslarga xat-xabarlarni kimga berganligi yoki kim va kimdan olganligi haqida ma’lumotlar berish taqiqlanadi. Ushbu moddadagi qoidalarni buzganlik uchun xodimlar ittifoqdosh respublikalar qonunchiligi belgilagan tartibda jinoiy javobgar bo‘ladi” deb belgilangan bo‘lsada, ammo ushbu davr jinoyat kodeksida yuqorida ko‘rsatilgan javobgarlikni ta’minlaydigan maxsus norma qonunda mavjud emas edi.

1936 yilda qabul qilingan SSSR Konstitutsiyasi va uning asosida 1937 yilda qabul qilingan O‘zSSR Konstitutsiyasida birinchi marta turar-joy yozishmalar, telefon so‘zlashuvlari, pochta va telegraf xabarlari daxlsizligi mustahkamlandi. Ammo, ushbu normalar jinoyat qonunchiligida o‘z aksini topmadi.

1960 yilda O‘zSSRning yangi Jinoyat kodeksida qabul qilingan bo‘lsada, unda ham dastlab shaxsga doir ma’lumotlarni himoya qilishga oid normalar mavjud emas edi. Faqat 20-asrning 80-yillariga kelib, jinoyat qonunida yozishmalarning sir saqlanishi tartibini buzish hamda farzandlikka olish sirini oshkor qilganlik uchun javobgarlik belgilangan moddalar kiritildi.

Ko‘rinib turibdiki, sobiq Sovet ittifoqi tarkibida bo‘lgan davrimizda shaxsiy hayot daxlsizligi, shaxsga doir ma’lumotlarni saqlash masalasiga jiddiy e’tibor qaratilmagan.

Milliy qonunchilik rivojlanishi davri. 1991 yilda mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan keyin jamiyat hayotining barcha sohalarida bo‘lgani kabi, jinoyat qonunchiligini ham jahon talablariga mos holda rivojlantirish, xalfaro standartlar talablarini qonunchilikka implementatsiya qilish jarayonlari boshlandi.

1994 yilda O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi qabul qilindi. Ushbu kodeks 1992 yilda qabul qilinib, 2023 yil 1 mayga qadar amalda bo‘lgan tahririda belgilangan har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega (25-modda), har kim o‘z sha’ni va obro‘siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalanish va turar joyi daxlsizligi huquqiga ega.

Hech kim qonun nazarda tutgan hollardan va tartibdan tashqari birovning turar joyiga kirishi, tintuv o‘tkazishi yoki uni ko‘zdan kechirishi, yozishmalar va telefonda so‘zlashuvlar sirini oshkor qilishi mumkin emas (27-modda) kabi huquqlarni himoya qilishning jinoyat-huquqiy asoslarini ham belgiladi.

JKning 143-moddasida xat-yozishmalar, telefonda so‘zlashuv, telegraf xabarlari yoki boshqa xabarlarning sir saqlanishi tartibini buzganlik uchun, 174-moddasida axborotlashtirish qoidalarini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilandi.

JK 143-moddasida xat-yozishmalar, telefonda so‘zlashuv, telegraf xabarlari yoki boshqa xabarlarning sir saqlanishi tartibini qasddan buzish, shunday harakatlar uchun ma’muriy jazo qo‘llanilgandan keyin sodir etilgan bo‘lsa, jinoiy javobgarlik belgilangan bo‘lib, hozir ham deyarli shu tahrirda amal qilmoqda. Bu modda qabul qilinganida bugungi davrdagi internet, raqamli texnologiyalar mavjud emas edi, va ushub norma bilan odatda pochta xodimlari javobgar bo‘lishardi.

JK 174-moddasi esa, axborotlashtirish qoidalarini buzganlik uchun javobgarlikni belgilab, u ikki qismdan iborat edi. Birinchi qismida axborotlashtirish qoidalarini buzish, ya’ni axborot tarmog‘idan ruxsatsiz foydalanish yoki foydalanishga ruxsati bo‘lgani holda tegishli himoya choralarini ko‘rmaslik yoki axborotlar tarmog‘idan qonunga xilof ravishda axborotlar olish, shuningdek, axborotlashtirish tizimidan foydalanishga ruxsati bo‘lgan holda undagi ma’lumotlarni qasddan o‘zgartirish, yo‘qotish, olib tashlash yoki yo‘q qilib yuborish ancha miqdorda zarar yetkazilishiga sabab bo‘lsa, javobgarlik belgilangan edi.

Ikkinchi qismida kompyuter tizimlarida saqlanayotgan ma’lumotlar yoki dasturlarni o‘zgartirish maqsadida tegishli ruxsatsiz kompyuter

viruslari yoki dasturlarini ishlab chiqish va tarqatish, shuningdek, ruxsati bo‘lmagani holda axborot tizimidan foydalanish ma’lumotlarning buzilishi, olib tashlanishi, yo‘q qilib yuborilishi yoki bu tizimning ishdan chiqishiga sabab bo‘lganligi uchun javobgarlik belgilangan edi.

Shaxsga doir ma’lumotlarga oid talablar buzilishi yuqorida ko‘rsatilgan ikkita modda bilan javobgarlikka sabab bo‘lardi.

Axborot texnologiyalarining jadallik bilan rivojlanishi va hayotimizga kirib kelishi huquqiy munosabatlarga ham ta’sir ko‘rsatdi.

1994 yil 6 mayda “Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma’lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to‘g‘risida”gi 1060-XII-son Qonun, 2003 yil 11 dekabrdagi “Elektron raqamli imzo to‘g‘risida”gi 562-II-son Qonun (eski tahrir), 29.04.2004 yil 29 apreldagi “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi 613-II-son Qonun (eski tahrir), 29.04.2004 yil 29 apreladgi “Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida”gi 611-II-son Qonun, 2005 yil 16 dekabrdagi “Elektron to‘lovlar to‘g‘risida”gi O‘RQ-13-son Qonun (eski tahrir), 2015 yil 9 dekabrdagi “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi O‘RQ-395-son qonunlarning qabul qilinishi, shaxsga doir ma’lumotlarning ham elektron qurilmalar orqali aylanishiga olib keldi.

Jinoyat kodeksidagi mavjud normalar esa, shaxsga doir ma’lumotlarning axborot texnologiyalari orqali aylanishini muhofaza qilishda orqada qolayotgan edi. Shu sababdan ham, 2007 yil 26 dekabrda “Axborotlashtirish va ma’lumotlar uzatish sohasida qonunga xilof harakatlar sodir etganlik uchun javobgarlik kuchaytirilganligi munosabati bilan O‘zbekiston respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonun bilan Jinoyat kodeksi Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar deb nomlangan XX$^1$ bob bilan to‘ldirildiva o‘z navbatida JK 174-moddasi chiqarib tashlandi.

XX$^1$ bobda axborotlashtirish qoidalarini buzish (278$^1$-modda), kompyuter axborotidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish (278$^2$-modda), kompyuter tizimidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish uchun maxsus vositalarni o‘tkazish maqsadini ko‘zlab tayyorlash yoxud o‘tkazish va tarqatish (278$^3$-modda), kompyuter axborotini modifikatsiyalashtirish (278$^4$-modda), kompyuter sabotaji

(278[5]-modda), Zarar keltiruvchi dasturlarni yaratish, ishlatish yoki tarqatish (278[6]-modda) kabi normalar aks ettirildi. Ushbu normalar axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir qilinayotgan jinoyatlarga nisbatan o‘z vaqtida choralar ko‘rishga imkon bergan bo‘lsada, ammo internet va ijtimoiy tarmoqlarning jadal rivojlanishi, ijtimoiy tarmoqlarda shaxsga doir ma’lumotlar bazalarining yaratilishi, insonlarning ijtimoiy tarmoqlarga shaxsiy ma’lumotlarini ularning tarqalishi oqibatlarini o‘ylamagan holda kiritishi, boshqa shaxslarga yuborishi natijasida shaxsiy ma’lumotlarni yirik ishlab chiqaruvchi, xizmat ko‘rsatuvchilarga sotish, firibgarlik, o‘g‘irlik, tovlamachilik jinoyatlari uchun vosita bo‘lib qolishiga olib kelish hollari shiddat bilan ko‘payishi sodir bo‘ldi. Bu esa o‘z navbatida, shaxsga doir ma’lumotlarni himoya qilishga oid alohida qonun qabul qilish zaruratini keltirib chiqardi.

Yangi davr (2019 yildan keyingi davr). Dunyo bo‘yichsa axborot texnologiyalarining rivojlanishi, globallashuv jarayonlari xalqaro miqyosda shaxsga doir ma’lumotlarning himoya qilinishini ta’minlash mexanizmlarini ishlab chiqish zarurati keltirib chiqardi.

Yevropa Kengashining 1981 yil 28 yanvardagi “Shaxsiy ma’lumotlarni avtomatlashtirilgan qayta ishlash jarayonida shaxslarni himoya qilish to‘g‘risida”gi 108-Konvensiya ushbu sohadagi birinchi xalqaro hujjat hisoblanadi[11]. Ushbu Konvensiya xalqaro ma’lumotlar almashinuvi uchun minimal standartlarni belgilab, har bir davlatda ushbu soada mustaqil nazorat organi tashkil qilishni taklif qilgan.

BMT Bosh Assambleyasi (rezolyusiya 45/95) tomonidan 1990 yil 14 dekabrda qabul qilingan “Shaxsiy ma’lumotlarning kompyuterlashtirilgan fayllarini tartibga solish bo‘yicha rahbariy prinsiplar”[12] da davlatlarga shaxsga doir ma’lumotlar bazalari yuzasidan boshqaruv prinsiplarini belgilashni tavsiya etilib, ma’lumotlarning qonuniy, adolatli va shaffof qayta ishlanishini hamda Subyektning o‘z ma’lumotlariga kirish va uni to‘g‘rilash huquqini tan olishi bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

2016 yil 27 aprelda qabul qilingan Yevropa Ittifoqining Shaxsiy ma’lumotlar umumiy reglamenti (GDPR) ni dunyodagi shaxsga doir ma’lumotlarni himoya qilishga oid eng qat’iy va ta’sirchan tartibga

soluvchi hujjat deb atash mumkin. Ushbu hujjat Yevropa Ittifoqi tarikbiga kirgan barcha davlatlar uchun shaxsga doir ma’lumotlarni shakllantirish, qayta ishlash va saqlash sohasida bir xil huquqiy mexanizmalarni belgilaydi. U quyidagi huquqlarni kafolatlaydi:

ma’lumotlarga kirish huquqi (Right of Access) - Subyekt o‘z haqida to‘plangan barcha ma’lumotlarni olishga haqli, shaxs u haqda ma’lumot yig‘ilayotgani, qaysi maqsadda va qancha muddat saqlanishini bilish huquqiga ega; shaxs o‘zi haqidagi ma’lumotlar qaysi tashkilotlar yoki shaxslarga berilgani haqida ham xabardor qilinishi kerak;

unutilish huquqi (Right to Erasure yoki Right to be Forgotten) – Subyekt agar ma’lumotlar yig‘ish maqsadiga mos bo‘lmay qolsa, agar u ma’lumotlar yig‘ilishiga avval rozilik bergan bo‘lsa-yu, keyin uni bekor qilishni talab qilsa, shuningdek ma’lumotlar noqonuniy tarzda yig‘ilgan bo‘lsa, ularni o‘chirib tashlashni talab qilish huquqiga ega. Ushub huquq asosida shaxs internetdagi, ijtimoiy tarmoqlardagi rasmlar, postlar, ma’lumotlarni o‘chirib tashlashni talab qilishi mumkin;

ma’lumotlarni ko‘chirish huquqi (Right to Data Portability) – Subyekt o‘zi haqidagi ma’lumotlarni bir xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotdan boshqasiga ko‘chirishni talab qilish huquqiga ega. Masalan, telefon operatori, bankdan ma’lumotlarni boshqa telefon operatori yoki banklarga ko‘chirishni so‘rash mumkin;

qayta ishlashga qarshi chiqish huquqi (Right to Object) – Subyekt o‘zining shaxsiga doir ma’lumotlarni qayta ishlash (masalan, marketing, profillash) qarshi chiqishi, undan reklama, taklif yoki tahlil qilish maqsadida ishlatishni taqiqlashi mumkin:

ma’lumotlarni tuzatish huquqi (Right to Rectification) – agar ma’lumot noto‘g‘ri, yetarli bo‘lmagan yoki yangilanmagan bo‘lsa, Subyekt uchun to‘g‘irlashni yoki to‘ldirishni talab qilishi mumkin;

ma’lumotni qayta ishlashni cheklash huquqi (Right to Restriction of Processing) – to‘plangan ma’lumotlar to‘g‘riligiga nisbatan shubhalar bo‘lsa, ish yuzasidan tekshiruvlar o‘tkazilayotgan bo‘lsa, Subyekt o‘zi haqidagi ma’lumotlarni qayta ishlashni vaqtincha to‘xtatib turishni so‘rashim mumkin;

Avtomatik qarorlarga qarshi chiqish huquqi (Right not to be subject to Automated Decision-Making) – Subyekt ma’lumotlar avtomatik tizimlar, masalan kredit reytingi, ishga qabul qilish algoritmi faqat axborot texnologiyasi asosida qaror chiqarayotgan bo‘lsa, bu qarorga qarshi chiqish, uni inson tomonidan ko‘rib chiqishni talab qilish huquqiga ega.

GDPR tegishli talablarni buzganlik uchun ma’lumotlarni to‘playdigan, qayta ishlaydigan tashkilotlarga nisbatan jiddiy moliyaviy jazo choralarini ham nazarda tutadi [13].

Shuningdek, internet va ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi sari, ular tomonidan shaxsga doir ma’lumotlarni to‘planishi ko‘lami oshishi, ushbu ma’lumotlar boshqa davlat hududida saqlanishi kabi holatlar har bir davlatlarda shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risidagi alohida qonunlar ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqardi.

Aynan shu sababdan ham, 2019 yil 2 iyulda O‘zbekiston Respublikasining “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi. Ushbu Qonun 36-moddadan iborat bo‘lib, shaxsga doir ma’lumotlar tushunchasi, shaxsga doir ma’lumotlar sohasini davlat tomonidan tartibga solish, shaxsga doir ma’lumotlarga ishlov berish, ishlov berish shartlari va tartibi, shaxsga doir ma’lumotlarni himoya qilish, shaxsga doir ma’lumotlarga ishlov berish ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari kabi masalalar o‘z aksini topdi.

Ushbu qonunning 33-moddasida shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘lishi belgilandi.

2019 yil 8 iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslariga hamda O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi O‘RQ-548-son Qonun qabul qilindi. Ushbu qonun bilan Jinoyat kodeksiga Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish deb nomlangan $141^2$-modda kiritildi. Ushbu modda mazmuniga ko‘ra, “Shaxsga doir ma’lumotlarni qonunga xilof ravishda yig‘ish, tizimlashtirish, saqlash, o‘zgartirish, to‘ldirish, ulardan foydalanish, ularni

berish, tarqatish, uzatish, egasizlantirish va yo‘q qilish o‘sha harakatlar uchun ma’muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, —

eng kam oylik ish haqining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

O‘sha harakatlar:

a) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo‘lsa;

b) takroran yoki xavfli residivist tomonidan sodir etilgan bo‘lsa;

v) g‘arazli yoki boshqacha past niyatlarda sodir etilgan bo‘lsa;

g) xizmat mavqeidan foydalangan holda sodir etilgan bo‘lsa;

d) og‘ir oqibatlarga sabab bo‘lsa, —

eng kam oylik ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi”.

Shuningdek, ushbu qonun bilan Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish deb noimlangan $46^2$-modda kiritildi va u qo‘yidagi tahrirda bayon etildi:

“Shaxsga doir ma’lumotlarni qonunga xilof ravishda yig‘ish, tizimlashtirish, saqlash, o‘zgartirish, to‘ldirish, ulardan foydalanish, ularni berish, tarqatish, uzatish, egasizlantirish va yo‘q qilish, —

fuqarolarga eng kam oylik ish haqining uch baravaridan besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — besh baravaridan o‘n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi”.

Ushbu qilmishlar uchun ma’muriy va jinoiy javobgarlikning belgilanishi shaxsga doir ma’lumotlar bilan ishlash to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik ta’minlashda huquqini muhofaza qiluvchi organlar va sud uchun bir muncha qulaylik tug‘dirdi. Ammo, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan moddalarga tezda o‘zgartirish kiritish zaruratini keltirib chiqardi.

Jumladan, 2021 yil 29 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-726-son Qonun bilan JK $141^2$-moddasi va MJtKning 46-moddasi

yangi tahrirda bayon etildi. asosiy o‘zgartirish axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, shu jumladan Internet jahon axborot tarmog‘ida O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining shaxsga doir ma’lumotlariga ishlov berilayotganda jisman O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan texnik vositalarda hamda Shaxsga doir ma’lumotlar bazalarining davlat reestrida belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan shaxsga doir ma’lumotlar bazalarida shaxsga doir ma’lumotlarni yig‘ishga, tizimlashtirishga va saqlashga oid talablarni bajarmaganlik jinoyat va ma’muriy huquqbuzarlik tarkibiga kiritilgan. Ushbu talab, “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonunning $27^{1}$-moddasida beliglangan mulkdor va (yoki) operator O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining shaxsga doir ma’lumotlariga axborot texnologiyalaridan foydalangan holda ishlov berishda, shu jumladan Internet jahon axborot tarmog‘ida ishlov berishda ularning jisman O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan texnik vositalarda hamda belgilangan tartibda Shaxsga doir ma’lumotlar bazalarining davlat reestrida ro‘yxatdan o‘tkazilgan shaxsga doir ma’lumotlar bazalarida yig‘ilishini, tizimlashtirilishini va saqlanishini ta’minlashi shartligi haqidagi qoidadan kelib chiqqan.

Ta’kidlab o‘tish lozimki, ushbu o‘zgartirish amalda ishlamayapti, chunki 2021 yilda mazkur o‘zgartirishlar kuchga kirganida Facebook, YouTube kabi platformalarga mazkur talablarga rioya qilish talab qilinganida va ularga O‘zbekiston hududida kirish cheklanganida ushbu talab bajarilmagan edi. Chunki ushbu talabni bajarish uchun katta mablag‘ talab etadigan data-markazlar tashkil etilishi kerak.

Ikkinchi muhim o‘zgartirish, bu jazo choralarining kuchaytirilishi bo‘ldi. Ammo amaliyot tahlili, jazo choralarining kuchaytirilishi mazkur jinoyatlarning kamayishiga olib kelmayotganligini ko‘rsatmoqda. Jumladan, Ichki ishlar vazirligining Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik qo‘mitasi yig‘ilishida bergan ma’lumotlariga ko‘ra, 2024 yilda mamlakatimizda jami 132 298 ta jinoyat sodir etilganligi ro‘yxatga olingan bo‘lib, shundan, Kiberxavfsizlik yo‘nalishida 58,8 mingta jinoyat sodir etilgan va ularning 97,7 foizi fuqarolarning bank plastik kartalaridagi pullarni qo‘lga kiritish bilan bog‘liq bo‘lgan[14].

Bu ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, kiberfiribgarlik jinoyatlarining aksariyati aynan shaxsga doir ma’lumotlar, ya’ni shaxslarning bank plastik kartalaridagi ma’lumotlarni olish orqali sodir etiladi. Bu esa, shaxsga doir ma’lumotlar bilan ishlash bo‘yicha qonunchilikni takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. L.Strahilevitz. Toward a positive theory of privasy law //Harvard Law Review. – 2013. – T. 126. – №. 7. – S. 2010-2042. https: // shisagounbound. ushisago. Edu /sgi/viewsontent.sgi?artisle=1588& sontext=law_and_esonomiss.
2. Madiev F. (2023). Shaxsiy hayot daxlsizligi huquqining konstitutsiyaviy kafolatlarini genizisi. *Nauka i texnologiya v sovremennom mire*, *2*(20), 4–12. izvlecheno ot https://in-academy.uz/index.php/ zdift/ article/view/20096
3. Maxmudova G.T. Avestoning falsafiy mohiyati.-T.: Noshir, 2015.- B.- 155-160.
4. Xo‘jamurodov I.R. Avestoda e’tiqod masalasi //O‘zbekiston Agrar fani xabarnomasi , 2013, 2-soni.B.-91.
5. Homidov Hamidjon. “Avesto” fayzlari / Ilmiy muharrir: N. Komilov. –T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr., 2001. –B.29.
6. M. Rajabova. Islom huquqi: jinoyat va jazo. O‘quv qo‘llanma. O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi. 2021 y. 183-b.
7. J. Toshqulov. Islomda jinoyat huquqi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent islom universiteti. T., 2018 y. 33-b.
8. Radjabova Mavjuda. ISLAMIC LAW (FIQH) AND TARIKAT KHOJAGAN-NAQSHBANDIYA (THE PATH OF SPIRITUAL PERFECTION) INTERCONNECTION AND HARMONY. Journal of Law Research. 2020, special issue 2, pp. 352-358.
9. Hujurot surasi, 9-12.https://islom.uz/maqola/71722.
10. Sahih Bukhari.https://hadithcollection.com/sahihbukhari.
11. Convention for the Protection of Individuals with regard to Automatic Processing of Personal Data. https://www.coe.int/en/web/ conventions/full-list/-/conventions/treaty/108.

12. UN Guidelines for the Regulation of Computerized Personal Data Files. https://digitallibrary.un.org/record/43365?v=pdf

13. GDPR (General Data Protection Regulation – 2016/679/EU). https://eur-lex.europa.eu/eli/reg/2016/679/oj.

14. https://daryo.uz // O‘zbekistonda-2024-yilda-sodir-etilgan-jinoyatlar-statistikasi-ochiqlandi

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI

**Achilov A.T.**
*Tashkent International Universiteti kafedra professori v.b., PhD, dotsent*
**Abzalov M.M.**
*Mustaqil izlanuvchi*

Ma’lumki, Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev 2025-yil 26-dekabrda Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga qilgan Murojaatnomasida “Takror va takror aytaman. Korrupsiya – davlat taraqqiyotiga to‘siq bo‘ladigan, adolat va qonun ustuvorligini izdan chiqaradigan, jamiyatda ishonch muhitini zaiflashtiradigan eng jiddiy tahdid. Korrupsiyaga yo‘l qo‘yish esa – islohotlarimizga xiyonatdir. Bu illatga qarshi kurashish bo‘yicha 2026-yilda “favqulodda holat” e’lon qilamiz.” - deb ta’kidlab o‘tdilar.

Bugungi globallashuv sharoitida barcha davlatlar oldidagi muammolardan biri iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy hayotiga xavf soladigan, qolaversa, mamlakat taraqqiyotiga to’siq bo’ladigan korrupsiya illati va unga qarshi kurash tizimini takomillashtirish masalasi xisoblanadi. "Korrupsiya " tushunchasi lotincha - corrumpere - talon-taroj qilish so’zidan olingan bo’lib, foyda olish maqsadida davlat hokimiyatini suiiste’mol qilish sifatida talqin etiladi. O‘zbekistonda "korrupsiya" ta’rifi 2017 yil 3 yanvardagi 419-son O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to’g’risida”gi Qonunida berilgan.

Korrupsiya aynan qachon paydo bo’lgani noma’lum bo’lib, dunyoning barcha mamlakatlarida unga qarshi kurash olib borilayotganiga

qaramay, u qancha vaqt davom etadi degan savolga javob berish imkoniyati mavjud emas. Shu o'rinda korrupsiya illatini tarixiy ildizlarini aniqlashga harakat qilib ko'rsak. Ehtimol, korrupsiya jamiyatning tabaqalanishi davrida, ba'zi odamlar ko'proq kuchga ega bo'lgan va ularning ijtimoiy mavqei nimanidir hal qilishi mumkin bo'lgan davrda paydo bo'lgan. Ma'lumki, inson tabiatiga xos bo'lgan yaxshiroq yashash istagi uni "ochko'zlik" illatiga duchor qilib, tezroq boyib ketishga undaydi. O'zbekiston hududida ham korrupsiya ancha oldin paydo bo'lgan, ammo o'sha paytda uni biroz boshqacha, ya'ni "tamagirlik" deb atashgan. Bu atama haqida birinchi eslatma XIV asrga to'g'ri keladi, keyinchalik u "Temur tuzuklari" va boshqa tarixiy asarlarda ham tilga olingan.

O'sha davrlarda poraxo'rlikni kuchayishiga oddiy xalqning soddaligi va huquqiy ongining pastligi muhim rol o'ynagan, aholi hukumat va boshqa amaldorlarni boqishga majbur bo'lgan, bu esa oddiy xalq bilan munosabatlarida hokimlarni "boyitish" va su'iste'mol qilish uchun sharoit yaratgan, bundan tashqari, mahalliy hokimiyat organlari o'zlari turli xil narsalar uchun, masalan, nizolarni hal qilish, suvdan foydalanishga ruxsat berish va boshqa ko'p narsalar uchun turli xil soliq va yig'imlarni joriy qilganlar, bu o'sha kunlarda odamlar orasida hukumatga nisbatan nafratni keltirib chiqarar edi. Tarixdan ma'lumki, Amir Temur amaldorlarni davlat maoshi bilan yashashlarini va tamagirlikka yo'l qo'ymaslik maqsadida ularni davlat g'aznasidan yuqori maosh va mukofotlar berishni joriy qilgan. Lekin, ushbu rag'batlantirishlardan qoniqmagan poraxo'r amaldorlarga nisbatan o'lim jazosi ham qo'llanilgani ma'lum.

Poraxo'rlik muammosi doimo dolzarb bo'lib kelgan va bugungi kunda bu masala keng yoritilib, jamoatchilik noroziligiga sabab bo'lmoqda. Ijtimoiy so'rovlarga ko'ra, inson hayotida kamida bir marotaba turli davlat idoralarida amaldorlar tomonidan o'z vakolatlarini suiste'mol qilishiga duch kelishgan. Achinarlisi shundaki, hozirgi davrda ayrim insonlar bu holatlarni "yaxshi yashash uchun oddiy holat va zarurat" deb qabul qilishadi. Ommaviy axborot vositalarida berilayotgan kundalik yangiliklardan korrupsiya bizni hamma joyda, bolalar bog'chalarida,

maktablarda, universitetlarda, barcha turdagi ma’muriyat va bo’limlarda, hatto huquq-tartibot idoralarini ham qamrab olganligin kuzatishimiz mumkin.

Davlat boshqaruvi sohasida korruptsion holatlarning aksariyati soliq tizimi, sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlarning faoliyatida ko’p uchrayotganligi ayniqsa xavfli hisoblanadi. Chunki aynan bular turli noqonuniy harakatlar va jinoyatlarni oldini olib, jamiyatda adolat va xavfsizlikni ta’minlaydigan asosiy institutlar hisoblanadi. Bu esa fuqarolarda davlatga va uning vakolatli tuzilmalariga nisbatan ishonchsizlik va pessimistik kayfiyatlarni keltirib chiqaradi.

Ta’kidlab o’tilganidek, korrupsiya hayotning deyarli barcha sohalariga ta’sir qiladi, xususan, iqtisodiyotga salbiy ta’sir ko’rsatishi quyidagilarda namoyon bo’ladi:

– iqtisodiy munosabatlarda noqonuniy faoliyat olib boradigan subyektlarning ko’payishi, yashirin iqtisodiyotni chuqurlashib ketishi va uning kriminallashishi;

– davlat organlarining korrupsiyalashgan elementlarini noqonuniy biznes va uyushgan jinoyatchilik bilan aralashishi, “pullarni yuvish” uchun shart-sharoitlarning yaratilishi;

– bozorning sog’lom raqobat mexanizmlarining buzilishi va ular samaradorligining pasayishi, ya’ni Obyektiv raqobatbardosh subyektning muvaffaqiyatli faoliyat olib borishi uchun imkoniyatga ega bulishi emas, balki pora berish yo’li bilan ishlab chiqarish va tovarlar bozorida imtiyozlarni olgan tadbirkorlarning monopollashuvi va ular manfaatlarining ustunligi;

– davlat byudjeti mablag’lari samarasiz ishlatilishi, moliyaviy dastur, buyurtma va resurslarining adolatsiz taqsimlanishi;

– korrupsiya mavjudligi tufayli narx-navolarning oshirilishi, iqtisodiy subyektlarning davlat organlari va hokimiyatga nisbatan ishonchsizligining oshishi;

– mamlakat investitsion jozibadorligining pasayishi va uning hududiga sarmoyalarni kirib kelishiga imkoniyat beruvchi stimullarning susayishi;

– aholi o’rtasida keskin moddiy-mulkiy tengsizlikning vujudga kelishi, ijtimoiy muvozanatni buzilishi, buning natijasida aholining daromadlari va turmush darajasining pasayishi, qashshoqlik va ijtimoiy tanglikning o’sishi.

Yashirin iqtisodiyot bilan duch kelmagan davlat dunyoda yo’q. Korrupsiya esa har qanday davlatning iqtisodiy va boshqaruv tizimini izdan chiqaradi. Dunyo olimlari tadqiqotlari davomida amalga oshirilgan hisob-kitoblarga ko’ra, har yili 20-25 mlrd. AQSh dollarlik kapital xorijga chiqib ketishi natijasida, mamlakatlar soliq qonunchiligidagi nomutanosiblik hisobiga yalpi ichki mahsulotning 2,5 foizi miqdori yo’qotilishi va barcha darajadagi mansabdorlarga berilgan pora miqdori bitimlarning 10 foizgachasini tashkil etishini tasdiqlagan. Shuningdek, hozirda dunyodagi korrupsiyadan etkazilgan zarar 3 trillion dollarni tashkil qilishi taxmin qilinadi. Ammo, bu katta raqam haqiqiy vaziyatni va haqiqiy zarar miqdorini to’liq aks ettirmaydi, eng yomoni, etkazilgan ma’naviy zarar ko’lamini o’lchash imkoniyati mavjud emas.

So’nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish davlat siyosatining asosiy yo’nalishlaridan biri bo’lib, uning huquqiy asoslari, tashkiliy tuzilmasi va amalga oshirish strategiyasi belgilanib olindi. “Korrupsiyaga qarshi kurash to’g’risida” qonun qabul qilindi, unda birinchi marotaba ushbu sohadagi faoliyatning aniq huquqiy asoslari belgilab berildi. Qonunda korrupsiyaga qarshi kurash choralarini amalga oshirish mexanizmlari, shu jumladan ushbu vazifalar uchun mas’ul organlar tizimi ham belgilangan. Qonunning ijrosi muntazam ravishda yangilanib turadigan milliy va idoraviy harakatlar rejalari bilan qo’llab-quvvatlandi. Umuman olganda, Qonunchilik bazasi sezilarli darajada takomillashtirilib, davlat hokimiyati organlari faoliyatining ochiqligi va hisobdorligini ta’minlashga qaratilgan bir qator muhim qonunlar-hujjatlari ham qabul qilindi.

Shuningdek, davlat xaridlari sohasida, ma’muriy protseduralarni, shu jumladan litsenziyalash, ro’yxatdan o’tkazish va davlat xizmatlarini ko’rsatish bilan bog’liq boshqa tartiblarni tubdan isloh qilish boshlandi. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida aholining xabardorligi ham o’sib

bormoqda va shu bilan birga jamiyat tomonidan davlat tomonidan talab va umidlar darajasi ham o’sib boradi. Nodavlat sektor va xalqaro hamjamiyat vakillari davlat idoralarining ishi, shubhasiz, jamoatchilik uchun yanada ochiq bo’lib qolganini va xodimlarning eng kichik qonunbuzarliklari ommaviy axborot vositalarida va ijtimoiy tarmoqlardagi turli guruhlarda keng e’lon qilinishi kuzatilmoqda. Shuningdek, davlat xizmatlarini elektron shaklda olish uchun yaratilgan imkoniyat korrupsiyaga qarshi kurash sharoitida shubhasiz oldinga qo’yilgan qadamdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi Farmoniga muvofiq, 2020 yilning 29 iyunida Korrupsiyaga qarshi kurash agentligi tashkil etildi. Ushbu Agentlik faoliyatining maqsad va vazifalariga quyidagilar kiradi:

– mamlakatda korrupsiya holatini tizimli tahlil qilishni ta’minlash;

– korrupsiyaga oid xavf-xatarlar yuqori bo’lgan sohalarni aniqlash;

– korrupsiyaga qarshi kurashish choralarining samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat va boshqa dasturlarni amalga oshirish;

– fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish orqali jamiyatda korrupsiyaning barcha ko’rinishlariga murosasiz munosabatni shakllantirish;

– vazirlik va idoralarning korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;

– davlat va xo’jalik boshqaruvi organlari, davlat korxonalari va ustav kapitalida davlat ulushi bo’lgan korxonalar, shu jumladan, banklarda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi (komplaens-nazorat)ni joriy etish;

– davlat xizmatchilarining daromad va mol-mulkini deklaratsiya qilish tizimi joriy etilishi va samarali faoliyat ko’rsatishini ta’minlash;

– korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish;

– korrupsiyaning holati, tendentsiyalari va sabablari hamda korrupsiyaga qarshi choralar ko’rishning samaradorligi yuzasidan sotsiologik, ilmiy va boshqa tadqiqotlarni tashkil etish;

– korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo’yicha faoliyatning ochiqligi va shaffofligini ta’minlash va boshqalar.

Ta’kidlash lozimki, mamlakatimiz Prezidenti tomonidan berilgan topshiriqqa ko’ra, yaqin vaqtlarda O‘zbekiston 2030 yilga qadar korrupsiyaga qarshi kurashish bo’yicha milliy strategiya ishlab chiqiladi va Agentlik ishiga xorijiy tajriba, shu jumladan korrupsiyaga qarshi tergov amaliyoti tadbiq etiladi.

Yuqorida ta’kidlab o’tilganidek, so’nggi yillarda O‘zbekiston korrupsiyaga qarshi qator muhim islohotlarni amalga oshirdi. Shunga qaramay, ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligi darajasini, shuningdek, jamoatchilik va parlament nazorati mexanizmlarini takomillashtirish zarur. Korrupsiyaga qarshi kurash strategiyasi va korrupsiyaning oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun mas’ul organlar institutsional rivojlanish va muhim qo’shimcha resurslarga muhtoj.

Mamlakatimizda korrupsiyani oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilayotgan bo’lsa-da, huquqni qo’llash amaliyotida mansabdor shaxslarning korrupsiya bilan bog’liq jinoyatlarni sodir etayotganlik holatlari hali hamon uchramoqda. Statistik ma’lumotlarga ko’ra, 2024-yilda O‘zbekistonda 4906 nafar mansabdor shaxs jinoiy javobgarlikka tortildi, bu 2023-yilga (3575) nisbatan 37,2 foizga ko‘pdir, deb xabar qildi Bosh prokuratura matbuot xizmati. Javobgarlikka tortilgan mansabdor shaxslarga nisbatan jinoyat ishlari soni 3821 tani tashkil etdi, bu 2023-yilga (3412) nisbatan 12 foizga ko‘p. Sudlanganlarning 71 nafari (2023-yildagi 49 ga nisbatan, +44,9%) vazirlik, idoralar va tashkilotlarning respublika boshqarmalari xodimlari hisoblanadi, 410 nafari (267, +53,6%) — viloyat, 4425 nafari (3259, +35,8%) — tuman (shahar) boshqarmalari.

Hozirgi kunda Korrupsiyaga qarshi samarali kurash quyidagi yo’nalishlarda olib borilishi kerak deb hisoblaymiz:

– qonun ustuvorligini va fuqarolar huquq va erkinliklarini kafolatlovchi sud - huquq tizimini takomillashtirishni izchil davom ettirish, sud tizimining mustaqilligini mustahkamlash;

– davlat xizmatchilarini ijtimoiy himoyalash me’yoriy aktlarni ishlab chiqish, ular mehnatiga haq to’lash tizimini isloh qilish, bunga tibbiy xizmat bilan, uy-joy bilan ta’minlash (sotib olish) bo’yicha imtiyozlar ham kiradi.

– davlat xizmatchilari va ularning oila a’zolarining mol-mulki, daromadlari hamda katta hajmdagi harajatlarini deklaratsiya qilishning majburiy etib belgilash. Bundan ko’zlangan asosiy maqsad mansabdor shaxslarning noqonuniy daromad olishni oldini olish va manfaatlar to’qnashuvini bartaraf etishdan iboratdir. Davlat xizmatida ushbu usul bugungi kunda 150 dan ortiq mamlakatda qo’llanilmoqda. Korrupsiyaga qarshi amaldagi xalqaro standartlar, jumladan, BMTning Korrupsiyaga qarshi konventsiyasi va boshqa qator huquqiy hujjatlarda davlat xizmatchilari tomonidan aktivlarning e’lon qilinishi korrupsiyaga qarshi samarali vosita ekani e’tirof etilgan.

– aholining huquqiy savodxonligini oshirish. Fuqarolarimiz amaldorlarga bosim o’tkazish uchun ham halollik printsipiga tayanishni ustivor deb bilishlari lozim. Axir, korrupsiya bu, birinchi navbatda, ijtimoiy hodisa va unga qarshi turishning asosiy chorasi jamiyatda axloqiy asoslarni rivojlantirish va mustahkamlash hisoblanadi. O’zini qadrlaydigan va shaxs sifatida hurmat qiladigan fuqaro hech qachon jinoyatchilik qurboniga aylanmaydi, aksincha, korrupsiya omillariga samarali qarshi kurashadi.

Umuman olganda, korrupsiya hodisasiga so’zning keng ma’nosida yondashadigan bo’lsak, bu shunchaki jinoyat yoki huquqbuzarlik emas, balki ma’naviy buzilish holatidir. Shunday ekan, o’ylaymizki, mazkur illatga qarshi kurashda nafaqat davlat organlari, balki, jamiyat va umuman barcha fuqarolarimiz mas’uldirlar. Faqatgina davlat va jamiyat ushbu xunuk illatga qarshi kurashda o’z kuchlarini birlashtirgan holdagina korrupsiyaga barham berish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 26-dekabrda Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga qilgan Murojaatnomasi, https://president.uz/oz/lists/view/8834

2. O‘zbekiston Respublikasining 03.01.2017 yildagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to’g’risida”gi 419-son Qonuni, https://lex.uz/docs/-3088008

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.06.2020 yildagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PF-6013-son Farmoni. https://lex.uz/ru/docs/-4875784

4. Е.В. Коленко, Г.Р. Маликова // Где тонко, там и рвется, или Ретроспективный анализ истории коррупции.

5. Achilov A.T. Tashqi iqtisodiy faoliyatni jinoiy-huquqiy muhofaza qilishni takomillashtirish. Monografiya. –Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2024. -205 bet

## OMMAVIY TADBIRLARNI TASHKIL ETISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI: XALQARO AMALIYOT TAHLILLARI

**Yusupov M.B.**
*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi*

Xalqaro hujjatlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, 1948 yil dekabrda BMT Bosh Assambleyasining uchinchi sessiyasida 217 A (III) rezolyusiyasi (“Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro pakt”) bilan qabul kilingan Inson huquqlari umumjaxon deklaratsiyasining 19-moddasida shunday deyilgan: “Har bir inson o‘z fikri va so‘z erkinligi huquqiga ega....”, 20-moddasi esa tinch yig‘ilishlar va uyushmalar o‘tkazish erkinligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaat qilib, “Hech kim biron bir uyushmaga kirishga majburlanishi mumkin emas” deb ko‘rsatilgan.

Bundan tashkari ommaviy tadbir sifatida yig‘ilish erkinligi 1950-yil noyabrda Rimda tuzilgan Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini ximoya kilish to‘g‘risidagi konvensiyada xam kayd etilgan. Bu yerda fuqarolarning huquqlarining buzilishlari to‘g‘risidagi shaxsiy shikoyatlarini kurib chikadigan Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudida

e’lon kilingan huquqlarni ximoya kilishning amaldagi mexanizmы ishlab chikilgan. Konvensiyaning [2] 11-moddasida “nafaqat har kimning tinch yig‘ilishlar o‘tkazish erkinligi va boshqalar bilan uyushmalar tuzish erkinligi huquqini, balki ushbu huquqni amalga oshirishda “qonun bilan belgilangan va demokratik jamiyatda zarur bo‘lganidan boshqa hech qanday cheklovlar qo‘yilishi mumkin emasligini e’lon qilib, milliy xavfsizlik va jamoat tartibini ta’minlash, tartibsizlik va jinoyatlarning oldini olish, sog‘liq va ma’naviyatni muhofaza qilish yoki boshqalarning huquq va erkinliklarini himoya qilish”ni nazarda tutadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 38-moddasiga muvofiq “Fuqarolar o‘z ijtimoiy faolliklarini O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq mitinglar, yig‘ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga ega. Hokimiyat organlari faqat xavfsizlik nuqtai nazaridangina bunday tadbirlar o‘tkazilishini to‘xtatish yoki taqiqlash huquqiga ega”. Ushbu huquqiy asoslarga binoan fuqarolar tinch yig‘inlar, turli xildagi tadbirlar o‘tkazish imkoniyatidan foydalanib jamoat tadbirlarini o‘tkazishi va unda qatnashishi mumkin, shuningdek xavfsizlikni ta’minlashga yo‘naltirilgan muayyan qoidalarga amal qilishlari lozim.

Ommaviy tadbirlar ko‘p sonli odamlar ishtirokida o‘tkaziladigan yig‘ilish, bayram yoki boshqa tadbirlar bo‘lib, ular ochiq maydonlarda yoki yopiq binolarda tashkil etilishi mumkin. Bunday tadbirlar vaqtida jamoat tartibini ta’minlash va ishtirokchilar xavfsizligiga alohida e’tibor qaratish muhim hisoblanadi.

Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish bilan bog‘liq huquqiy munosabatlarni tahlil qilish jarayonida ta’kidlash lozimki, ushbu sohada jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan asosiy normativ-huquqiy manbalardan biri O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda ommaviy tadbirlar paytida jamoat tartibini va xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan davlat idoralari, shuningdek, ichki ishlar idoralari va Milliy gvardiya bo‘limlari faoliyatini takomillashtirish choralarini ishlab chiqishda tegishli xalqaro tajriba katta ahamiyatga ega.

Bunday tajribani o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab mamlakatlarda ushbu tadbirlarni tashkil etish to‘g‘ridan-to‘g‘ri qabul qilingan qoidalarga, ya’ni politsiya, jandarmeriya, qurolli kuchlar va ommaviy tadbirlar o‘tkaziladigan joylarda qonun va tartibni saqlash uchun mas’ul bo‘lgan boshqa kuchlarni boshqaradigan qonunlar (shu jumladan xalqaro) va nizomlarga bog‘liq.

Bu borada Buyuk Britaniya, Germaniya Federativ Respublikasi, Fransiya, Yaponiya va boshqa bir qator mamlakatlar qonunchiligi alohida qiziqish uyg‘otadi. Buyuk Britaniyada ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi 1986-yilgi “Jamoat tartibi to‘g‘risida”gi qonun (Public Order Act 1986) bilan belgilanadi. Ushbu qonunning 2-moddasiga muvofiq, rejalashtirilgan ommaviy tadbirlarni tashkil etuvchilar rejalashtirilgan tadbir o‘tkaziladigan joydagi politsiya bo‘limiga kamida besh ish kuni oldin yozma ariza topshirishlari shart. Bayonotda quyidagilar bo‘lishi kerak: ommaviy tadbirning sanasi va vaqti; ishtirokchilarning mo‘ljallangan yo‘nalishi va tashkilotchilarning ismlari va yashash manzillari.

Politsiya organining rahbari o‘z yurisdiksiyasi hududida yoki okrugning bir qismida mavjud bo‘lgan muayyan holatlar tufayli, ommaviy tadbirlar paytida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan jiddiy tartibsizliklarning oldini olish maqsadida, ular uch oygacha bo‘lgan muddatga hududdagi barcha ommaviy tadbirlarni taqiqlash to‘g‘risidagi buyruqni mahalliy kengashga murojaat qilish huquqiga ega, deb hisoblaydi.

Shunga o‘xshash vaziyatda, London politsiya komissari Ichki ishlar vazirligi davlat kotibining roziligi bilan o‘z vakolati bo‘yicha bunday buyruq chiqarishi mumkin.

Germaniya Federativ Respublikasida ommaviy tadbirlarni o‘tkazish tartibiga oid asosiy masalalar Konstitutsiyada mustahkamlangan bo‘lib, uning 8-moddasida “barcha nemislar qurol olib yurmaslik sharti bilan oldindan ro‘yxatdan o‘tmasdan yoki maxsus ruxsatnomasiz tinch namoyishlar va yig‘ilishlarda ishtirok etish huquqiga ega” deyilgan. Shuni ham ta’kidlash kerakki, ushbu qoida Germaniyada yashovchi chet elliklarga ham tegishli bo‘lib, ular uchun qonun hech qanday maxsus

cheklovlar qo‘ymaydi.

Germaniyada ko‘chalarda va jamoat joylarida ijtimoiy-siyosiy xarakterdagi ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda ular1978-yil 15-noyabrda o‘zgartirilgan va qo‘shimcha qilingan 1953-yil 24-iyuldagi Assambleyalar to‘g‘risidagi maxsus qonunga amal qiladilar.

Yuqorida tilga olingan Qonunning 14-bo‘limida “ochiq osmon ostida ommaviy yig‘ilish yoki namoyish, yurish yoki odamlar ishtirokidagi boshqa tadbirni tashkil qilmoqchi bo‘lgan har bir kishi bu haqda o‘z niyatini rasman ye’lon qilishdan kamida 48 soat oldin vakolatli organlarga xabar berishi shart” deb belgilangan. Ommaviy tadbir o‘tkazish to‘g‘risidagi ariza og‘zaki, telefon orqali yoki yozma ravishda mahalliy politsiya bo‘limida quyidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan maxsus bayonnoma tuzish orqali berilishi mumkin: tadbir davomida ko‘chalarda tartibni saqlash uchun mas’ul bo‘lgan tashkilotchilar yoki shaxslar haqida ma’lumot; tadbirning joyi, vaqti va maqsadi haqida ma’lumot. Ushbu Qonunda potensial xavflarni (mumkin bo‘lgan namoyishlar, qarshi namoyishlar, provokatsiyalar, qarama-qarshi guruhlar va tashkilotlar bilan to‘qnashuvlar) tezda aniqlash uchun rejalashtirilgan tadbirning maqsadlari va mohiyati haqida alohida ma’lumotlar keltirilgan.

Germaniya qonunchiligiga ko‘ra, o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan ommaviy tadbirlarning (ya’ni shoshilinch, rejalashtirilmagan xarakterdagi tadbirlarning) huquqiy baholanishi qiziqarlidir. Amaldagi Germaniya qonunchiligida ommaviy tadbirlar, istisno hollarda, muhim voqealar (muhim siyosiy qarorlar qabul qilinishi, umumiy ijtimoiy islohotlarni amalga oshirish va boshqalar) arafasida, hokimiyat organlarining oldindan xabardor qilmasdan yoki roziligisiz o‘tkazilishi mumkinligi belgilangan. Bunday tadbirlar oldindan rejalashtirilmasligi kerak; aks holda ular taqiqlanishi yoki bostirilishi mumkin. Ishtirokchilarga bosma axborot materiallari (varaqalar, murojaatlar) tarqatish yoki oldindan tayyorlangan plakatlar, shiorlar yoki bannerlardan foydalanish bilan spontan namoyishlar taqiqlanadi.

Germaniya qonunchiligi fuqarolarning namoyishlar o‘tkazish huquqlarini cheklashni taqiqlaydi. Ommaviy tadbirni taqiqlashda

hokimiyat organlari o‘z xohishiga ko‘ra, uni to‘xtatish uchun choralar ko‘rishlari mumkin, jumladan, kuch bilan. Biroq, qonuniy javobgarlik va sanksiyalar faqat tashkilotchilarga yoki tadbirni o‘tkazish uchun mas’ul shaxslarga nisbatan qo‘llaniladi. Oddiy ishtirokchilarga hech qanday sanksiyalar qo‘llanilmaydi, chunki ularga politsiya tomonidan taqiq haqida xabar berilmaydi.

Amerika Qo‘shma Shtatlarda fuqarolar tomonidan ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazishni tartibga soluvchi qoidalar maxsus qonunchilikda mustahkamlanmagan, balki sud amaliyotidan, sud qarorlaridan kelib chiqadi yoki politsiya xizmatlari va advokatlar o‘rtasidagi hamkorlik orqali ishlab chiqiladi. Ushbu masalalarni tartibga solish shtat va mahalliy hokimiyat organlarining vakolatiga kiradi.

AQShning amaldagi amaliyotiga muvofiq, ayrim ko‘chalar, mahallalar yoki bloklarni transport vositalari va piyodalar uchun yopishni talab qiladigan ommaviy tadbirlarni o‘tkazish uchun mahalliy hokimiyat organlaridan, odatda politsiya bo‘limidan maxsus ruxsat talab qilinadi. Masalan, AQSh poytaxti Vashingtonda ko‘chalarda ommaviy tadbirlarni o‘tkazish qoidalari mahalliy hokimiyat tomonidan belgilanadi va rejalashtirilgan ommaviy tadbirdan kamida to‘rt kun oldin (dam olish va bayram kunlari bundan mustasno) hokimiyat organlariga maxsus ariza shaklini topshirishni talab qiladi. Agar tadbir tashkilot tashabbusi bilan o‘tkazilsa, ruxsat faqat u mahalliy hokimiyatda kamida ikki oy ro‘yxatdan o‘tgan va bosh qarorgohi Vashingtonda joylashgan bo‘lsa olinishi mumkin. Ommaviy tadbir tashkilotchisi sifatida faoliyat yurituvchi uchta voyaga yetgan fuqaro tomonidan topshiriladigan ariza shakli tadbirning maqsadlarini, ishtirokchilarning harakatlarining taxminiy mohiyatini va ularning texnik vositalardan (nutqni kuchaytirish moslamalari, transport vositalari va boshqalar) foydalanish imkoniyatini ko‘rsatadi.

Ko‘pgina xorijiy davlatlarning qonunlari davlat amaldorlari va politsiyaga ommaviy tadbirlarni taqiqlash yoki muayyan shartlarga rioya qilishni talab qilish huquqini beradi. Qoida tariqasida, yig‘ilishlar, yurishlar va boshqa ommaviy namoyishlar quyidagi hollarda taqiqlanishi mumkin: 1) jamoat xavfsizligi va tartibiga bevosita tahdid mavjud

bo‘lganda; 2) ularning o‘tkazilishi haqida mahalliy politsiya organlariga xabar berilmagan bo‘lsa; 3) ishtirokchilar xabarnomada ko‘rsatilgan shartlarga rioya qilmasalar yoki o‘z majburiyatlarini buzsalar. Agar tashkil etilayotgan tadbir belgilangan qoidalarni buzsa yoki ishtirokchilar qurollangan bo‘lsa, politsiya uni to‘xtatish huquqiga ega.

Fransiyada, agar politsiya vakolatlariga ega bo‘lgan organ rejalashtirilgan tadbir jamoat tartibini buzishga olib kelishi mumkin deb hisoblasa, u buni maxsus buyruq bilan taqiqlaydi, bu haqda tashkilotchilarga darhol xabar beriladi.

Ko‘pgina xorijiy davlatlar qonunlariga ko‘ra, politsiya, ularning fikricha, jamiyatning "xavfsizligi va tinchligiga" tahdid mavjud bo‘lgan har qanday vaziyatga aralashishga vakolatli. "Tahdid" tushunchasining o‘zi juda noaniq bo‘lgani uchun, politsiyaga qiyin vaziyatlarda keng vakolat beriladi.

Yaponiyada ijtimoiy-siyosiy yo‘nalishdagi ommaviy tadbirlar mahalliy hokimiyat organlari tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan Nizomlarga muvofiq o‘tkaziladi. Masalan, Tokio prefekturasida barcha namoyishlar va boshqa ommaviy tadbirlar faqat prefektura ruxsati bilan o‘tkazilishi mumkinligini belgilovchi mitinglar, guruhli yurishlar va ko‘cha namoyishlari to‘g‘risidagi Nizom mavjud. Bunday ruxsatni olish uchun tashkilotchilar tadbirdan 72 soat oldin prefekturaga yozma ariza topshirishlari kerak. Ushbu arizada quyidagilar ko‘rsatiladi: tadbirning maqsadi, ishtirok etuvchi tashkilotlarning nomlari, tashkilotchilarning nomlari va manzillari, tadbirning sanasi va vaqti hamda tadbir o‘tkaziladigan joy. Ishtirokchilarning yo‘nalishlari va boshqalar. Ariza ommaviy tadbir o‘tkazilishi rejalashtirilgan politsiya bo‘limi orqali topshiriladi.

Shuni ta’kidlash kerakki, ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazishni tartibga soluvchi xorijiy qonunchilik fuqarolarning ham, ularda ishtirok etuvchi barcha tomonlarning huquq va majburiyatlarini juda aniq va bir ma’noda tartibga soladi.

So‘nggi o‘n yilliklarda chet elda ommaviy tadbirlar o‘tkaziladigan joylarning ishonchliligi va xavfsizligiga katta ye’tibor qaratildi. Masalan,

Shveysariyada stadion yegasi - aksariyat hollarda davlat organi (shahar yoki mahalliy hokimiyat) - Obyektni shartnoma asosida, masalan, sport tadbiri uchun foydalanish uchun tashkilotchiga o‘tkazadi. Yegasi stadionning strukturaviy yaxlitligi va zarur jihozlarning mavjudligi va ishlashi uchun javobgardir. Xususan, “Stadionlarda xavfsizlik to‘g‘risida”gi Federal qonunga (1975) muvofiq, okrug kengashi yoki London kengashi (mahalliy hokimiyat organlari) belgilangan sport maydonchalari (stadionlari) uchun xavfsizlik sertifikatlarini berish va amalga oshirish uchun javobgardir.

Xavfsizlik sertifikati stadionlar va boshqa sport maydonchalari uchun xavfsizlikni boshqarish tizimining bir qismi sifatida ko‘rib chiqilishi kerak. Unda mahalliy hokimiyat organlari tomoshabinlarning oqilona xavfsizligini ta’minlash uchun zarur va o‘rinli deb hisoblagan shartlar, shuningdek, sertifikat egasi tomonidan sport maydonchasi (stadioni) xavfsiz ishlashini ta’minlash uchun ko‘rilgan choralar aks ettirilgan. Biroq, sport maydonchasida xavfsizlikni ta’minlash uchun asosiy mas’uliyat har doim uning menejerlari (egasi, ijarachisi yoki futbol klubi) zimmasida bo‘ladi.

Mahalliy hokimiyat organlari tomoshabinlar xavfsizligiga tahdid solishi mumkin bo‘lgan har qanday hodisa yoki tekshirish davomida aniqlangan xavfsizlik tizimidagi kamchiliklarga javoban zudlik bilan quyidagi choralarni ko‘rishi mumkin:

— sport maydonchasi yoki uning ma’lum bir qismining sig‘imini kamaytirish;

— taqiqlash to‘g‘risida bildirishnoma berish;

— xavfsizlik sertifikati buzilgan taqdirda ogohlantirish berish yoki hujjatlarni sudga yuborish.

Xalqaro tajriba tahlili shuni ko‘rsatadiki, Amerika Qo‘shma Shtatlar, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya va Belgiya kabi mamlakatlarda politsiya idoralari sport va boshqa tomoshabinlar ishtirokidagi tadbirlarda ommaviy tartibsizliklar muammosini hal qilishda kompleks yondashuvni qo‘llaydilar. Bunday huquqbuzarliklar soni va ko‘lami, ayniqsa futbol o‘yinlari paytida, barqaror ravishda oshib bormoqda. Ushbu yondashuv

ushbu salbiy hodisaga qarshi profilaktika choralarini, xususan, ommaviy axborot vositalarini jalb qilgan holda muxlislar o‘rtasida ta’lim va tashkiliy ishlarni ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi.

Ko‘pincha, yirik tadbirlar paytida, ayniqsa stadionlar va boshqa sport inshootlarida boshlangan ommaviy jamoat tartibini buzishlar katta miqdordagi mulkka zarar yetkazdi va qurbonlarga olib keldi, ko‘pincha shahar ko‘chalarida davom etadi va u yerda turli xil guruh bezoriliklari - avtomobillar va avtobuslarni ag‘darish, kafe va restoranlarda oynalarni sindirish va boshqalar bilan yakunlanadi. Bu asosan ingliz futbol klublari muxlislari guruhlariga tegishli. Stadionlardagi futbol bezoriligi birinchi marta 1963 yilda Angliyada paydo bo‘lgan. Ingliz muxlislari milliy terma jamoa bilan sayohat qilishda o‘zlarining noqonuniy xatti-harakatlarini boshqa mamlakatlarga “eksport qilishgan” va bu yerda “ingliz kasalligi” nomi bilan mashhur bo‘lgan.

Britaniya hukumati Angliya futbol jamoalari muxlislari tomonidan milliy obro‘ga yetkazilgan zarar haqida xavotir bildirdi. “Stadion xavfsizligi to‘g‘risidagi qonun” (1975) va “Futbol muxlislari to‘g‘risidagi qonun” (1989) qabul qilindi. Mingga yaqin bezori muxlislarga futbol jamoalari bilan chet elga sayohat qilish taqiqlandi. 1989 yilda “Milliy futbol xavfsizligi bo‘limi” deb nomlangan yangi politsiya xizmatini tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qilingan, uning asosiy vazifasi politsiya ishini mamlakat ichida va xorijda futbol bezorilari bilan muvofiqlashtirish edi.

Qonunga muvofiq, barcha ingliz klublari muxlislari uchun shaxsiy kartalar joriy etildi, ular tomoshabinlarning ismlarini o‘qiydigan va saqlaydigan maxsus yelektron turniketlar o‘rnatilgan stadionlarga kirish uchun yo‘llanma vazifasini bajaradi. Tribunalarda bezorilik qilganlikda ayblanganlarga nafaqat kartalari, balki futbol o‘yinlariga kirish huquqi ham berilmaydi.

Muxlislar uchun matbuot va politsiya bilan uchrashuvlar tashkil etiladi. Bu tadbirlarning barchasi turli xizmatlar, jamoat tashkilotlari vakillari ishtirokidagi keng ijtimoiy dasturlar va huquqiy maslahatlar berish doirasida o‘tkazilishi tavsiya etiladi. Boshqa vazifalar qatorida, politsiya xodimlari muxlislar faoliyati va ma’lum tartibsizliklarni keltirib

chiqarganlar haqida doimiy ravishda ma’lumot almashish uchun javobgardir. Politsiya klublar, huquqni muhofaza qilish organlari va “tinch” muxlislar uyushmalari bilan aloqada bo‘ladi. Musobaqa paytida ularning ishtiroki ko‘plab tartibsizliklarning oldini olishga yordam beradigan muxlislar guruhlariga ma’lum "aloqa" rasmiy vakili tayinlanishi mumkin. Ushbu mamlakatlarda futbol klublari politsiyaga bezorilarni aniqlash va ularning noqonuniy faoliyatining oldini olishda faol yordam beradi.

MDH davlatlarining ommaviy tadbirlar to‘g‘risidagi qonunchiligini kompleks tadqiq qilish mazkur sohadagi huquqiy tartibga solish mexanizmlarini chuqur anglash, ularning shakllanish tendensiyalari va amaliy qo‘llanilishi xususiyatlarini ochib berish imkonini beradi. Bunday tadqiqot doirasida ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi, davlat organlarining vakolatlari, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ta’minlash kafolatlari, jamoat xavfsizligi va jamoat tartibini saqlashga qaratilgan ma’muriy-huquqiy choralar o‘zaro qiyosiy-huquqiy tahlil etiladi.

Shuningdek, MDH mamlakatlarida qo‘llanilayotgan huquqiy yondashuvlarni o‘rganish orqali ommaviy tadbirlar vaqtida huquqbuzarliklarning oldini olish, xavf-xatarlarni baholash va boshqarish, profilaktik mexanizmlarni takomillashtirish bo‘yicha ilg‘or tajribalar aniqlanishi mumkin. Bu esa milliy qonunchilikni takomillashtirish, xalqaro standartlar va mintaqaviy o‘ziga xosliklarni inobatga olgan holda huquqni qo‘llash amaliyotini yaxshilash uchun ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Qolaversa, mazkur tadqiqot fuqarolik jamiyati institutlarining ommaviy tadbirlarni o‘tkazishdagi ishtiroki, davlat va jamiyat manfaatlari o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash, shuningdek, huquqiy cheklovlarning maqsadga muvofiqligi va mutanosibligini baholash imkonini berib, sohaning nazariy asoslarini boyitish bilan bir qatorda amaliy ahamiyatga ham ega bo‘ladi.

Masalan, Rossiya Federatsiyasining ommaviy tadbirlarni o‘tkazishni tartibga soluvchi x,ujjatlarini urganadigan bulsak, “Yig‘ilishlar, mitinglar,

namoyishlar, yurishlar va piketlar xdkida”gi qonuni [8] mavjud bulim, ushbu ko nu i 3 ta, ya’ni “Umumiy koidalar”, “Ommaviy tadbirlarni o‘tkazish va tashkillashtirish tartibi”, “Fuqarolarning ommaviy tadbir utkazish huquqidan foydalanish kafolatlari” deb nomlanuvchi bulimlardan va 19 ta moddalardan iborat.

Ushbu qonunning 2-moddasida “ommaviy tadbir - ochik, tinch, x,amma uchuy ochik, yig‘ilish, miting, namoyish, yurish yoki piket shaklida yoki ushbu shakllarning turli kombinatsiyalarida Rossiya Federatsiyasi fuqarolarining tashabbusi bilan o‘tkaziladigan aksiya bulib, unda siyosiy partiyalar, boshqa jamoat birlashmalari va diniy birlashmalar, shu jumladan transport vositalaridan foydalanib o‘tkaziladi” deb ko‘rsatilgan.

Belorussiya Respublikasining “Ommaviy tadbirlar xakida”gi qonuni [9] esa 3 ta, ya’ni “Umumiy koidalar”, “Ommaviy tadbirlarni tashkillashtirish va o‘tkazish tartibi”, “Ommaviy tadbirlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik” deb nomlanuvchi bulimlardan va 16 ta moddalardan iborat.

Yuqoridagi holatlardan xulosa qilish mumkinki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolarning ijtimoiy faolligini amalga oshirishga oid muhim kafolatlar mustahkamlangan. Xususan, Konstitutsiyaning tegishli normalariga ko‘ra, fuqarolar o‘z ijtimoiy faolliklarini O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq mitinglar, yig‘ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga ega ekanligi belgilangan bo‘lib, davlat hokimiyati organlari tomonidan bunday tadbirlarni to‘xtatish yoki taqiqlash faqat jamoat xavfsizligini ta’minlash nuqtai nazaridan amalga oshirilishi mumkin.

Biroq, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida mitinglar, yig‘ilishlar va namoyishlarni tashkil etish hamda o‘tkazishning aniq huquqiy tartibi belgilab berilmagan. Mazkur qarorda asosan ommaviy tadbirlarni o‘tkazish to‘g‘risida vakolatli organlarga xabar berish tartibi majburiy qoida sifatida mustahkamlangan bo‘lib, fuqarolarning ushbu

turdagi ommaviy tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirishga doir huquqlarini to‘liq va kompleks tarzda huquqiy ta’minlashga qaratilgan normalar yetarli darajada nazarda tutilmagan.

Shuningdek, Konstitutsiyaning 39-moddasida O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egaligi, siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, ommaviy harakatlarda, shuningdek davlat hokimiyati vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muxolifatchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hech kim kamsitishi mumkin emasligi alohida ta’kidlangan. Konstitutsiyaning 70-moddasida O‘zbekiston Respublikasida kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar tashkilotlari, faxriylar, yoshlar va nogironligi bo‘lgan shaxslar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar hamda fuqarolarning boshqa birlashmalari jamoat birlashmalari sifatida e’tirof etiladi.

Jamoat birlashmalarini tarqatib yuborish, ularning faoliyatini taqiqlab yoki cheklab qo‘yish faqat sud qarori asosidagina amalga oshirilishi mustahkamlangan.

Biroq mazkur konstitutsiyaviy normalarga qaramasdan, jamoat birlashmalari va ommaviy harakatlar faoliyati doirasida o‘tkaziladigan ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazishga oid aniq tartib-qoidalar hamda samarali huquqiy mexanizmlar amalda mavjud emas yoki qisman mavjud bo‘lib, bu esa ushbu jarayonlarni to‘liq huquqiy jihatdan ta’minlashga to‘sqinlik qilmoqda. Shu bois, mazkur sohada qonunchilikni tizimli ravishda takomillashtirish va huquqni qo‘llash amaliyotini aniq mexanizmlar bilan boyitish zarurati mavjud.

Xulosa qilib aytganda, ushbu mavzu bilan bog‘liq barcha masalalarni ushbu maqola doirasida yoritish qiyinligini ta’kidlamoqchimiz. Bizning fikrimizcha, bir qancha mamlakatlar bu sohada boy tajriba to‘plagan, bu shubhasiz O‘zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan chuqur tahlil qilinishi va qo‘llanilishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Всеобщая декларация прав человека: принята Генералной

Ассамблеей ООН 10 декабря 1948 г. // Рос. газ. - 1995. - 5 апреля

2. Конвенсия о защите прав человека и основных свобод: заключена в г. Риме 4 ноября 1950 г. (с изм. от 13 мая 2004 г.)

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2014 yil 29 iyul kungi “Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari tutrisida”gi 205-son qarori

4. Академия управления МВД СССР. Экспресс-информатсия. Вып.5. М., 1989. С. 21.

5. https://legislationline.org/taxonomy/term/16431 murojaat qilingan sana (02.02.2026y.)

6. Belorussiya Respublikasining “Ommaviy tadbirlar xdkida”gi qonuni. 1997 yil dekabr kuni qabul kilingan. Qonun №114-3

## SUD AMALIYOTIDA DALILLARNI BAHOLASHDA XATOLAR VA ULARNING OQIBATLARI

**Axmedov J.D.**
*O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i, yu.f.b.f.d.(PhD)*

Sud-huquq tizimining asosiy vazifasi — adolatni ta’minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda qonun ustuvorligini mustahkamlashdir. Ushbu maqsadga erishishda sud qarorlarining asoslanganligi va adolatliligi muhim ahamiyat kasb etadi. Sud qarorining to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri bo‘lishi esa, asosan, dalillar qanday to‘plangani, tekshirilgani va baholangani bilan belgilanadi.

Dalillarni baholash — bu sud faoliyatining markaziy bosqichi bo‘lib, ish bo‘yicha haqiqatni aniqlashga qaratilgan murakkab intellektual va huquqiy jarayondir. Mazkur jarayonda sudya dalillarning qonuniyligi, ishonchliligi, aloqadorligi va yetarliligini aniqlashi lozim. Biroq amaliyotda turli omillar ta’siri ostida dalillarni baholashda xatolar yuzaga kelishi mumkin.

Bunday xatolarning sabablari xilma-xildir. Ularga sudyaning subyektiv yondashuvi, yetarli tajribaga ega emasligi, dalillarni yuzaki tahlil qilishi, ekspertiza xulosalarini noto‘g‘ri talqin qilishi, shuningdek, dalillarni baholash bo‘yicha aniq metodikaning yo‘qligi kiradi. Bundan

tashqari, tergov organlari tomonidan dalillarni noto‘g‘ri to‘plash, protsessual qoidalarni buzish yoki ayrim dalillarni e’tiborsiz qoldirish ham sud bosqichida xatolarga olib kelishi mumkin.

Sud amaliyotida dalillarni baholashdagi xatolar jiddiy huquqiy oqibatlarga olib keladi. Ular noto‘g‘ri sud qarorlarining chiqarilishiga, aybsiz shaxslarning javobgarlikka tortilishiga yoki aybdor shaxslarning jazodan qutulib qolishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bu esa nafaqat alohida shaxslarning huquqlarini buzadi, balki jamiyatning sud tizimiga bo‘lgan ishonchini ham pasaytiradi.

Shu bois, sud amaliyotida dalillarni baholashda uchraydigan xatolarni aniqlash, ularning sabablarini tahlil qilish va ularni oldini olish mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Mazkur maqola aynan shu masalalarni chuqur o‘rganishga va sud amaliyotini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan.

Sud amaliyotida dalillarni baholash sud qarorining qonuniyligi, asoslanganligi va adolatliligini belgilovchi eng muhim bosqich hisoblanadi. Aynan shu jarayonda sudya ishning faktik holatlarini aniqlaydi, taqdim etilgan dalillarni tahlil qiladi va ular asosida yakuniy xulosaga keladi. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, dalillarni baholash jarayoni murakkab bo‘lib, unda turli xatolar yuzaga kelishi mumkin. Mazkur xatolar nafaqat alohida ishning natijasiga, balki butun sud tizimining obro‘siga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Dalillarni baholashdagi xatolar ko‘pincha sudyaning subyektiv yondashuvi bilan bog‘liq bo‘ladi. Ba’zi hollarda sudya ayrim dalillarga haddan tashqari katta ahamiyat berib, boshqa muhim dalillarni e’tibordan chetda qoldirishi mumkin. Masalan, guvoh ko‘rsatmasiga ortiqcha ishonch bildirish, biroq uning ziddiyatlarini tekshirmaslik sud xatosiga olib keladi. Shuningdek, sudya ekspert xulosasini tanqidiy tahlil qilmasdan qabul qilishi yoki aksincha, yetarli asos bo‘lmasdan rad etishi ham noto‘g‘ri qaror chiqarilishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Dalillarni baholashdagi yana bir keng tarqalgan xato — bu ularning qonuniyligini yetarlicha tekshirmaslikdir. Amaliyotda ba’zan dalillar

protsessual qoidalar buzilgan holda olingan bo‘lishi mumkin. Masalan, shaxsiy yozishmalar maxsus ruxsatsiz olingan, tintuv qonun talablariga rioya qilinmasdan o‘tkazilgan yoki videokuzatuv materiallari noqonuniy yo‘l bilan qo‘lga kiritilgan bo‘lishi ehtimoli mavjud. Agar sud bunday holatlarni e’tiborga olmasa, noqonuniy dalillar asosida qaror chiqarilishi mumkin, bu esa adolat tamoyillariga zid hisoblanadi.

Raqamli texnologiyalar rivojlanishi ham dalillarni baholash jarayonini murakkablashtirdi. Bugungi kunda sudlarda elektron yozishmalar, video yozuvlar, ijtimoiy tarmoqdagi postlar, GPS ma’lumotlari kabi raqamli dalillar tobora ko‘proq uchramoqda. Biroq sudyalar va huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari har doim ham bunday dalillarni texnik jihatdan to‘g‘ri tahlil qilish imkoniyatiga ega emas. Masalan, soxta video (deepfake), montaj qilingan audio yozuv yoki tahrirlangan skrenshot sudni chalg‘itishi mumkin. Agar bunday materiallar yetarlicha tekshirilmasa, noto‘g‘ri xulosa chiqarilishi ehtimoli yuqori.

Dalillarni baholashdagi xatolarning oqibatlari juda jiddiydir. Eng og‘ir oqibat — bu adolatsiz sud qarorining chiqarilishi. Bu bir tomondan, aybsiz shaxsning javobgarlikka tortilishiga olib kelishi mumkin, ikkinchi tomondan esa, haqiqiy aybdorning jazodan qutulib qolishiga sabab bo‘lishi mumkin. Har ikki holatda ham fuqarolarning huquqlari buziladi va sud tizimiga bo‘lgan ishonch pasayadi.

Bundan tashqari, dalillarni baholashdagi xatolar sud qarorlarining bekor qilinishiga yoki qayta ko‘rib chiqilishiga olib keladi. Apellyatsiya yoki kassatsiya instansiyasida qaror bekor qilinsa, bu nafaqat sud tizimining samaradorligini pasaytiradi, balki qo‘shimcha vaqt va resurslarning sarflanishiga ham sabab bo‘ladi. Shu bilan birga, noto‘g‘ri qaror tufayli zarar ko‘rgan shaxslar davlatdan tovon puli talab qilishi mumkin, bu esa byudjet uchun qo‘shimcha yuk hisoblanadi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun sud amaliyotida dalillarni baholash tizimini takomillashtirish zarur. Avvalo, sudyalar uchun maxsus treninglar tashkil etilib, ularda dalillarni tahlil qilish, ekspert xulosalarini baholash va raqamli dalillar bilan ishlash ko‘nikmalari rivojlantirilishi

lozim. Shuningdek, sud amaliyotida dalillarni baholash bo‘yicha yagona metodika ishlab chiqilishi zarur.

Bundan tashqari, tergov bosqichida dalillarni yig‘ish sifati oshirilishi, protsessual qoidalarga qat’iy rioya qilinishi va har bir ish bo‘yicha zarur ekspertizalar o‘z vaqtida tayinlanishi muhim ahamiyatga ega. Raqamli dalillar bilan bog‘liq ishlarda esa maxsus kompyuter-texnik ekspertiza tayinlash amaliyotini kengaytirish zarur.

Umuman olganda, sud amaliyotida dalillarni baholashdagi xatolarni kamaytirish sud tizimining adolatli va samarali ishlashini ta’minlash uchun zarur. Bu nafaqat fuqarolarning huquqlarini himoya qiladi, balki jamiyatning sud tizimiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi. Sud amaliyotida dalillarni baholash sud qarorlarining qonuniyligi, asoslanganligi va adolatliligini ta’minlovchi markaziy mexanizm hisoblanadi. Mazkur tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, dalillarni baholash jarayonida yo‘l qo‘yiladigan xatolar ko‘pincha subyektiv omillar, protsessual buzilishlar, yetarli professional tayyorgarlikning yo‘qligi hamda raqamli dalillar bilan ishlashdagi murakkabliklar bilan bog‘liq bo‘ladi. Bunday xatolar nafaqat alohida sud ishining natijasiga, balki umuman sud tizimiga bo‘lgan jamoatchilik ishonchiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Dalillarni baholashdagi xatolarning eng jiddiy oqibati adolatsiz sud qarorlarining chiqarilishidir. Bu esa aybsiz shaxslarning javobgarlikka tortilishi yoki, aksincha, haqiqiy aybdorlarning jazodan qutulib qolishiga olib kelishi mumkin. Har ikki holat ham fuqarolarning huquq va erkinliklarini buzadi hamda sud tizimining obro‘siga putur yetkazadi. Bundan tashqari, bunday xatolar apellyatsiya va kassatsiya instansiyalarida sud qarorlarining bekor qilinishiga, sud jarayonlarining cho‘zilishiga va davlat byudjeti uchun qo‘shimcha xarajatlarga sabab bo‘ladi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, sud amaliyotida dalillarni baholash tizimini takomillashtirish zarur. Buning uchun sudyalar, tergovchilar va prokurorlarning kasbiy malakasini oshirish, ayniqsa, raqamli dalillar bilan ishlash bo‘yicha maxsus treninglar tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, dalillarni baholash bo‘yicha yagona metodikani ishlab

chiqish, ekspertiza tizimini rivojlantirish va protsessual qonunchilikni zamonaviy talablar asosida takomillashtirish lozim.

Xulosa qilib aytganda, sud amaliyotida dalillarni baholashdagi xatolarni kamaytirish nafaqat adolatli sud qarorlarini ta’minlash, balki fuqarolarning huquqlarini himoya qilish va sud tizimiga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash uchun zarur. Shu bois, ushbu yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlarni davom ettirish va amaliy choralarni kuchaytirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

## “AUTSORSING TIZIMINING DAVLAT BOSHQARUVIDA O‘RNI VA AHAMIYATI (O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY GVARDIYASI MISOLIDA)”

**Boboxonov S.R.**
*JXU Tahririyat-noshirlik bo‘limi katta ofitseri katta leytenant*

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat organlari resurslardan samarali foydalanish, ortiqcha byurokratik yukni kamaytirish va aholi uchun ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirish zarurati bilan yuzlashmoqda. Shu nuqtai nazardan, ayrim yordamchi funksiyalarni xususiy sektor yoki boshqa tashqi ijrochilarga topshirish, ya’ni autsorsing tizimidan foydalanish keng tarqalmoqda [2]. Davlat boshqaruvida autsorsing nafaqat xarajatlarni qisqartirish, balki yadro (asosiy) funksiyalarga konsentratsiyalash, innovatsion texnologiyalar va malakali resurslarni jalb etish imkonini beradi[3]. Biroq mudofaa va ichki xavfsizlik sohalarida autsorsingdan foydalanish milliy xavfsizlik, davlat suvereniteti va javobgarlik chegaralariga doir murakkab savollarni yuzaga keltiradi [4].

Maqolaning maqsadi – autsorsing tizimining davlat boshqaruvidagi o‘rni va ahamiyatini, xususan O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi misolida, nazariy-amaliy jihatdan tahlil qilish, uning iqtisodiy samaradorligi, xavfsizlikka ta’siri va boshqaruv mexanizmlarini asoslashdir. Shu maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilandi: 1) autsorsing tushunchasi va asosiy nazariy yondashuvlarni umumlashtirish; 2) davlat sektorida autsorsing mexanizmlarini tizimlashtirish; 3) harbiy va

xavfsizlik tuzilmalarida autsorsing tajribasini tahlil qilish; 4) Milliy gvardiya tizimi uchun mos autsorsing yo‘nalishlari va xavfsizlik cheklovlarini asoslash; 5) iqtisodiy samaradorlik modelini ishlab chiqish va siyosiy-boshqaruv tavsiyalarini shakllantirish.

Adabiyotlar tahlili. Xorijiy adabiyotlarda jamoat xizmatlari autsorsingi ko‘proq transaksion xarajatlar, “make or buy” qarorlari va shartnomaviy boshqaruv nuqtai nazaridan tadqiq etiladi [1]. Ko‘plab tadqiqotlarda autsorsing qarori ikki asosiy omil – davlat va xususiy yetkazib beruvchilar xarajatlari farqi hamda quvvat cheklovlari bilan izohlanadi; ayrim sohalarda autsorsing hisobiga 10–20 foizgacha budjet tejalishi mumkinligi qayd etiladi [3]. Boshqa ishlar esa haddan tashqari optimistik kutishlarni tanqid qilib, shartnomalar to‘liq bo‘lmasligi, monitoring va nazorat xarajatlari kutilgan tejamlashni “yeyib qo‘yishi” mumkinligini ko‘rsatadi. Empirik sharhlar autsorsing natijalari ko‘p jihatdan shartnomaviy va munosabatlarga asoslangan boshqaruv, ishonch, axborot assimetriyasi va bozor raqobatiga bog‘liq ekanini ta’kidlaydi.

Nazariy yondashuvlar sirasida ko‘p vazifali prinsipal-agent modeli asosida davlat buyurtmachisi va pudratchi o‘rtasidagi rag‘batlar kontrakt orqali sozlanishi, sifat bo‘yicha axborot assimetriyasi sharoitida tejab qolingan xarajatlarni davlat va pudratchi o‘rtasida taqsimlash zarurligi ko‘rsatiladi. Boshqa tomondan, “qiymat uchun qiymat” (“value for money”) yondashuvi xarajatlarni emas, balki iqtisodiylik, samaradorlik va ta’sirchanlikni birgalikda hisobga oluvchi modellardan foydalanishni taklif etadi. Strategik rejalashtirish nuqtai nazaridan, autsorsing davlat organlarining asosiy funksiyalariga e’tibor qaratish, yordamchi funksiyalarni esa bozorga chiqarish imkonini beruvchi vosita sifatida talqin qilinadi. Autsorsing noto‘g‘ri qo‘llanganda davlatning xususiy pudratchilarga haddan tashqari qaram bo‘lib qolishi, bozor kuchlari o‘rniga “kvazi-rejalashtirish” yuzaga kelishi va samaradorlikdan ko‘ra murakkablik hamda risklar oshishi mumkinligi ta’kidlanadi[4].

Mudofaa va harbiy tuzilmalar misolida olib borilgan tadqiqotlar autsorsingni logistika, ta’minot, texnik xizmat ko‘rsatish, IT va revers logistika kabi yo‘nalishlarda qo‘llash mumkinligini, bu orqali harbiy

bo‘linmalarning jangovar tayyorgarlikka ko‘proq e’tibor qaratishiga erishish mumkinligini ko‘rsatadi. Biroq Rossiya qurolli kuchlari tajribasi shuni anglatadiki, nazorat va shaffoflik yetarli bo‘lmaganda autsorsing xarajatlarning karralab oshishi, korrupsiya xavfi va milliy xavfsizlik tahdidlariga olib kelishi mumkin [5]. Shu bois, harbiy tashkilotlarda autsorsing bo‘yicha xalqaro adabiyotlar qat’iy xavfsizlik cheklovlari, dual nazorat, favqulodda vaziyatlarda tezkor mobilizatsiya shartlarini kontraktlarda aniq belgilash zarurligini uqtiradi [6].

Tadqiqot metodologiyasi quyidagi yondashuvlarni o‘z ichiga oladi:

Nazariy-metodologik tahlil – autsorsing bo‘yicha transaksion xarajatlar nazariyasi, prinsipal-agent modeli, resursga asoslangan yondashuv va “qiymat uchun qiymat” konsepsiyasini umumlashtirish [7].

Komparativ tahlil – turli davlatlar (Yevropa Ittifoqi, Buyuk Britaniya, Rossiya, Turkiya va boshqalar) davlat sektori hamda mudofaa sohasida autsorsingni qo‘llash tajribasini solishtirish.

Kontseptual model qurish – Milliy gvardiya uchun autsorsing qarorlarini qabul qilishda risklar, xavfsizlik talablari va iqtisodiy samaradorlikni integratsiyalovchi “make or buy” qaror daraxti va samaradorlik formulasini loyihalash.

Shartli-hisoblash (modellashtirish) yondashuvi – tashqi pudratchiga topshirish va o‘z kuchlari bilan bajarish scenariylarini xarajatlar, sifat va xavfsizlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha taqqoslash uchun soddalashtirilgan matematik modeldan foydalanish.

Ekspert yondashuvi – harbiy-xavfsizlik tizimlariga oid xorijiy maqolalarda ta’riflangan ekspert baholari va kuzatuvlardan foydalanib, Milliy gvardiya sharoitiga mos xulosalar chiqarish. Ushbu metodologiya Milliy gvardiya bo‘yicha ochiq statistik ma’lumotlar cheklangan sharoitda nazariy-amaliy asoslangan model va takliflar ishlab chiqishga imkon beradi.

Autsorsing tushunchasi va nazariy asoslari. Autsorsing – tashkilotning ayrim funksiyalarini shartnoma asosida tashqi ixtisoslashgan tashkilotlarga topshirish orqali resurslarni optimallashtirish, xarajatlarni kamaytirish va asosiy faoliyatga konsentratsiyalashga qaratilgan

boshqaruv texnologiyasidir[8]. Davlat sektori uchun autsorsing “to‘liq bozorlashtirish” emas, balki davlat javobgarligi saqlangan holda jamoat xizmatlarini ko‘rsatishda xususiy sektor resurslaridan maqsadli foydalanish shakli sifatida qaraladi. Nazariy jihatdan autsorsing quyidagi yondashuvlar bilan izohlanadi:

Transaksion xarajatlar nazariyasi – funktsiyani ichki (hierarxiya) orqali bajarish va bozor orqali sotib olish (autsorsing) o‘rtasidagi tanlov shartnoma tuzish, monitoring va ijroni ta’minlash xarajatlari asosida amalga oshirilishi kerak.

Prinsipal-agent modeli – davlat (prinsipal) va pudratchi (agent) o‘rtasida maqsadlar farqi, axborot assimetriyasi sharoitida shartnoma orqali rag‘batlar va javobgarlikni moslashtirish zarur.

Resursga asoslangan yondashuv – tashkilot o‘zining yadro kompetensiyalariga (strategik vazifalar) e’tibor qaratib, boshqa funksiyalarni tashqi resurslar orqali bajarishi samaraliroq bo‘lishi mumkin[8].

Qiymat uchun qiymat (value for money) – autsorsing qarorlari faqat xarajatni qisqartirish emas, balki iqtisodiylik (economy), samaradorlik (efficiency) va ta’sirchanlik (effectiveness) kombinatsiyasini hisobga olishi kerak.

Harbiy va xavfsizlik sohalarida bu yondashuvlar qo‘shimcha ravishda milliy xavfsizlik, maxfiylik, davomiylik va favqulodda vaziyatlarda boshqaruv ustunligi kabi cheklovlar bilan to‘ldiriladi.

Davlat boshqaruvida autsorsing mexanizmlari. Davlat boshqaruvida autsorsing turli shakllarda namoyon bo‘ladi: xizmatlar, infratuzilma, IT tizimlari, logistika, texnik xizmat ko‘rsatish va boshqalar. Mexanizmlar quyidagi asosiy bosqichlardan iborat bo‘lishi taklif etiladi:

1. Ichki funksiyalarni tahlil qilish – davlat organlari o‘z faoliyatini doimiy ravishda qayta ko‘rib chiqib, strategik va yordamchi funksiyalarni ajratishi, bozorga chiqarish mumkin bo‘lgan xizmatlarni aniqlashi lozim.
2. Bozor tahlili – autsorsingdan oldin bozor sig‘imi, yetkazib beruvchilar soni, raqobat darajasi va ularning malakasi baholanadi.

3. Xarajat va natijalar tahlili – o‘z kuchlari bilan bajarish tannarxi (C_in) va autsorsing narxi (C_out), shuningdek kutilayotgan sifat va natija indikatorlari taqqoslanadi.

4. Shartnoma dizayni – xizmat ko‘lami, ko‘rsatkichlar tizimi (KPI), rag‘bat va jarimalar, monitoring va hisobot talablari, favqulodda vaziyatlarda davlatning ustuvor huquqlari aniq belgilanishi zarur.

5. Monitoring va baholash – autsorsing jarayoni davomida natijalar doimiy ravishda o‘lchanadi, zarur hollarda shartnomalar qayta ko‘rib chiqiladi yoki funksiyalar qayta “insorsing” qilinadi.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, samara ko‘proq autsorsing kontraktlarini boshqarish salohiyati, axborot tizimlari, shaffoflik va manfaatdor tomonlar bilan muloqotga bog‘liq.

*1-jadval.*

Davlat boshqaruvida autsorsingdan kutiladigan asosiy ta’sirlar

| Ta’sir turi | Qisqacha mazmuni |
|---|---|
| Xarajatlarni kamaytirish | Xususiy sektor samaradorligi hisobiga tejam |
| Sifatni oshirish | Ixtisoslashgan mutaxassislar va texnologiyalar |
| Moslashuvchanlik | Talab o‘zgarishiga tez javob berish |
| Xavfsizlik risklari | Maxfiy ma’lumotlar va uzluksizlikka tahdid |
| Nazorat xarajatlari | Monitoring, audit va kontrakt boshqaruvi yuklari |

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tizimida autsorsing amaliyoti (konseptual tahlil)

Milliy gvardiya – ichki xavfsizlik, jamoat tartibini saqlash, terrorizm va boshqa tahdidlarga qarshi kurashish, muhim obyektlarni qo‘riqlashga mas’ul bo‘lgan harbiylashtirilgan tuzilma hisoblanadi. Xalqaro amaliyotdan kelib chiqib, bunday tuzilmalarda quyidagi yo‘nalishlar shartli ravishda autsorsing uchun nisbatan mos hisoblanadi:

– moddiy-texnik ta’minot (omborxona xizmati, ta’mirlash, transportning ayrim turlari);

– infratuzilma va binolarga texnik xizmat ko‘rsatish (ta’mir, kommunal xizmatlar bilan bog‘liq operatsiyalar);

– maishiy xizmatlar (ovqatlantirish, kiyim-kechakni yuvish, maishiy xizmat ko‘rsatish);

– IT infratuzilmasi, dasturiy ta’minot va texnik qo‘llab-quvvatlash (maxfiy bo‘lmagan segmentlar bo‘yicha);

– revers logistika – eskirgan jihozlar, texnikani ta’mirlash va qayta ishlashga berish.

Shu bilan birga, qo‘riqlash, maxfiy operatsiyalar, razvedka, tezkor-jangovar vazifalar, qurol-yarog‘ va maxfiy aloqa tizimlari bilan bog‘liq funksiyalar davlat organining ichida saqlanishi kerakligi ta’kidlanadi. Milliy gvardiya uchun autsorsing amaliyoti komparativ jihatdan NATO mamlakatlari, Rossiya va boshqa harbiy tuzilmalardagi tajriba bilan solishtirib baholanishi lozim.

Afzallik va muammolar. Afzalliklar tomonlarga quyidagilar kiradi:

Xarajatlarni optimallashtirish – bozor raqobati va ixtisoslashgan pudratchilar hisobiga xizmat birligining tannarxini kamaytirish imkoniyati.

Yadro funksiyalariga konsentratsiya – Milliy gvardiya xodimlari jangovar tayyorgarlik, operativ boshqaruv va xavfsizlik vazifalariga ko‘proq vaqt va resurs ajrata oladi.

Texnologiyalarni yangilash – xususiy sektorning ilg‘or texnologiyalari va boshqaruv amaliyotlari jalb etiladi[8].

Moslashuvchanlik – ehtiyojga qarab xizmat hajmini tez o‘zgartirish, yangi xizmatlarni sinovdan o‘tkazish imkoniyati.

Milliy xavfsizlik tahdidlari – maxfiy axborotning sizib chiqishi, infratuzilmaning zaiflashuvi, inqiroz paytida pudratchilarga qaramlik.

Nazorat va monitoringning murakkablashuvi – kontraktlarni boshqarish salohiyati yetarli bo‘lmaganda xarajatlar oshishi, sifat pasayishi[9].

Bozorning cheklanganligi – ba’zi ixtisoslashgan xizmatlar bo‘yicha malakali pudratchilar soni oz bo‘lsa, monopoliya va “partnerga qul bo‘lib qolish” holatlari yuzaga keladi.

Davlat javobgarligining saqlanishi – autsorsing qilingan xizmat natijasida yuzaga kelgan salbiy oqibatlar uchun aholiga nisbatan baribir davlat javobgar bo‘lib qoladi.

Korrupsiya xavfi – shaffof bo‘lmagan tanlov, “ikki marta to‘lash” (“double payment”) holatlari, noratsional kontraktlar.

Xavfsizlik va nazorat mexanizmlari. Harbiy-xavfsizlik tuzilmalarida autsorsingni joriy etishda quyidagi mexanizmlar alohida ahamiyatga ega:

Funktsiyalarni kategoriyalash – strategik va maxfiy funksiyalar, sezgir texnologiyalar bilan bog‘liq operatsiyalar faqat davlat ichida bajariladi; autsorsing faqat nisbatan xavfsiz yordamchi funksiyalar uchun qo‘llanadi.

Kompaniyalarni sertifikatsiyalash – harbiy obyektlarda ishlaydigan pudratchilar uchun maxsus xavfsizlik tekshiruvlari, litsenziyalash va doimiy audit tizimi joriy etiladi [4] [5].

Shartnoma cheklovlari – axborot maxfiyligi, favqulodda vaziyatlarda xizmatni davom ettirish (“continuity of operations”) talablari va davlatning bir tomonlama kontraktni bekor qilish huquqi kontrakt shartlariga kiritiladi.

Ikki pog‘onali nazorat – Milliy gvardiya ichki nazorati bilan bir qatorda, mustaqil davlat auditi va parlament nazorati mexanizmlaridan foydalaniladi [9].

Kadrlar salohiyatini oshirish – kontraktlarni dizaynlash, muzokara yuritish, risklarni boshqarish va monitoring bo‘yicha maxsus tayyorgarlikka ega davlat xizmatchilarini shakllantirish.

Davlat boshqaruvida autsorsing tizimi samarali boshqaruv, xarajatlarni optimallashtirish va xizmatlar sifatini oshirish uchun muhim instrument bo‘lishi mumkin. Xalqaro tajriba autsorsing qarorlariga tizimli yondashuv, shaffof tanlov, kuchli shartnomaviy boshqaruv va doimiy monitoring mavjud bo‘lgandagina barqaror ijobiy natijalar qo‘lga kiritilishini ko‘rsatadi. Mudofaa va ichki xavfsizlik sohalarida autsorsing bo‘yicha noto‘g‘ri qarorlar milliy xavfsizlikka tahdidlar, ortiqcha xarajatlar va davlat javobgarligining oshishi bilan bog‘liq ekanligi ham yaqqol namoyon bo‘lgan.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi sharoitida quyidagi takliflar maqsadga muvofiq bo‘lishi mumkin:

– funksiyalarni xavfsizlik darajasi va strategik ahamiyatiga qarab kategoriyalash, autsorsingni faqat nisbatan xavfsiz yordamchi yo‘nalishlar bilan cheklash;

– autsorsingdan oldin tizimli “make or buy” tahlili va iqtisodiy samaradorlik modelini qo‘llash;

– kontraktlarni boshqarish bo‘yicha ixtisoslashgan bo‘linma va mutaxassislar tayyorlash;

– pudratchilarni tanlash, nazorat va audit jarayonlarida maksimal shaffoflik va javobgarlikni ta’minlash;

– autsorsingni bosqichma-bosqich, pilot loyihalar orqali joriy etib, natijalar asosida kengaytirish yoki qayta ko‘rib chiqish;

– favqulodda vaziyatlarda xizmat uzluksizligini ta’minlash bo‘yicha aniq mexanizmlarni kontraktlarga kiritish.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Soliño, A.S. (2019). Sustainability of Public Services: Is Outsourcing the Answer? Sustainability.

2. Mykytyuk, P. et al. (2021). Outsourcing as a tool of strategic planning in public administration. Studies of Applied Economics.

3. Shiva, M. et al. (2024). Beyond “make” or “buy”: Evaluating value-for-money in public service delivery. Annals of Public and Cooperative Economics.

4. Vasiliauskas, A.V. et al. (2024). Challenges of Ensuring Reverse Logistics in a Military Organization Using Outsourced Services. Sustainability.

5. Martynenko, T.V. et al. (2020). Contradictions of the use of management technology "outsourcing" in the Armed Forces of Russian Federation.

6. Dudukalov, E. et al. (2020). Implementation of Outsourcing Technology through Revision of Functions of National Security Governance in Russia. International Journal of Recent Technology and Engineering.

7. Duhamel, F. et al. (2025). Implementing Successful Public-Private IT Outsourcing Relationships: Relational View to Fostering Public Value. J. Theor. Appl. Electron. Commer. Res.

8. Kulembayeva, F. et al. (2021). Economic Efficiency of Outsourcing Business Models: A Comparative Assessment. Global Journal of Flexible Systems Management.

9. Innes, A. (2020). The limits of institutional convergence: why public sector outsourcing is less efficient than Soviet enterprise planning. Review of International Political Economy.

## JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLAShDA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY GVARDIYaSI VAZIFALARINI MUVOFIQLAShTIRIShNING HUQUQIY ASOSLARI

**J.X.Maxmudov**
*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi*

Mamlakatimizda aholining tinch va osoyishta hayotini ta’minlash, jamiyatimizda qonunga itoatkorlik hamda jamoat tartibini saqlash madaniyatini yanada shakllantirish muxim axamiyat kasb etmoqda. Xususan, jamoat tartibini saqlash yo‘nalishida amalga oshirilayotgan islohotlar “Xalq manfaatlariga xizmat qilish” tamoyiliga asosan joriy etilib, davlat organlarining jamoatchilik tuzilmalari bilan o‘zaro maqsadli hamkorligini yo‘lga qo‘yishga xizmat qilmoqda.

Darhaqiqat, mamlakatda jamoat xavfsizligini ta’minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish yo‘nalishlaridagi faoliyatlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish shuningdek, sodir etilayotgan jinoyatlarning omillarini o‘z vaqtida bartaraf etish orqali ularni barvaqt oldini olish maqsadida yangi O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tashkil etildi shuningdek, mazkur organ faoliyatini tartibga soluvchi “*O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”*gi Qonuni tasdiqlandi. Mazkur qonunning 3-moddasida Milliy gvardiyaga huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish, shu jumladan, mazkur huquqbuzarliklarni sodir etilishi sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash kabi vakolatlar belgilangan.

Shuningdek, 2021 yil 29 noyabrda yangi O‘zbekistonda jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada rivojlantirish, ushbu sohadagi davlat siyosatining istiqbolli yo‘nalishlarini belgilash, shuningdek, mavjud

huquqiy bo‘shliqlarni bartaraf etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27-son Farmoni qabul qilindi.

Mazkur farmon bilan Milliy gvardiyaga aholining tinch va osoyishta hayotini ta’minlash, jamiyatimizda qonunga itoatkorlik va jamoat xavfsizligi madaniyatini shakllantirish maqsadida *Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda hamda istirohat bog‘lari, xiyobonlar va bozor hududlari* biriktirildi hamda ma’muriy kodeksning “Ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqishga vakolati bo‘lgan organlar” deb nomlangan uchinchi bo‘lim, $248^1$ – moddasiga ko‘ra ma’muriy huquqbuzarliklar bo‘yicha ta’sir chorasini qo‘llash vakolatlari belgilandi.

Bugungi kunda mamlakatda huquqni muxofaza qilish organlarining asosiy vazifasi jinoyat oqibatlari bilan kurashish emas, balki jinoyatchilikning asl omillarini aniqlash va o‘z vaqtida bartaraf etish orqali uning barvaqt oldini olishni ustuvor maqsadga aylantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shu bilan birga respublikada kuzatilayotgan jinoyatchilik tendensiyalarini tahlil va prognoz qilish, jinoyatchilik omillarini ilmiy diagnoz qilish, qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish orqali ularni bartaraf etish, shuningdek, ilmiy tadqiqotlarni huquq-tartibot amaliyotidagi muammolarning manzilli hal etilishiga yo‘naltirish mexanizmlarini tubdan isloh qilish zarurati yuzaga kelgan.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi, “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonunlarida va O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasida belgilangan vazifalar ijrosini tashkil etish, shuningdek, jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasini ilmiy tadqiq qilish bo‘yicha faoliyatni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish hamda jinoyatlarning omillarini o‘z vaqtida bartaraf etish orqali ularni barvaqt oldini olish tizimi natijadorligini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

*“Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasini ilmiy tadqiq qilish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”*gi PF-10-son Farmoni qabul qilindi.

Mazkur hujjat mamlakatda jamoat xavfsizligini ta’minlashning nafaqat nazariy balki huquqiy asoslarini ilmiy tahlil qilish orqali, mavjud muammolarni aniqlash va ularga asosli yechimlar topish yuzasidan asoslantirilgan ilmiy takliflar ishlab chiqish imkoniyatlarini yanada kengaytirmoqda. Shu o‘rinda, bugungi kunda Milliy gvardiya faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish maqsadida amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni umumiydan xususiyga qarab ilmiy tahlil qilish davr talabiga aylanmoqda. Mazkur jarayonlarni tizimli amalga oshirishda esa quyidagi savollarga batavsil to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiqdir. Xususan:

*birinchidan,* bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi faoliyatini tartibga soluvchi qanday normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan?

*ikkinchidan,* mazkur normativ-huquqiy hujjatlarning aynan qaysi turlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri Milliy gvardiyaning jamoat xavfsizligini ta’minlash vazifasi bilan bog‘liq?

*uchinchidan,* mazkur normativ-huquqiy hujjatlar o‘rtasida qanday huquqiy bo‘shliqlar mavjud?

*to‘rtinchidan,* jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatini takomillashtirish maqsadida ilmiy izlanishlar olib borgan mahalliy hamda horijiy huquqshunos olimlarning ilmiy asarlar tahlili qanday? degan o‘rinli savol yuzaga keladi.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi ma’lumotga ko‘ra, 2017 yildan 2024 yilning yakuniga qadar Milliy gvardiya faoliyatini tartibga soluvchi 300 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo‘lib, shundan qonunlar 22 tani, Prezident farmonlari va qarorlari 160 tani, Vazirlar Mahkamasining qarorlari 130 tani va Adliya vazirligidan ro‘yxatdan o‘tgan boshqa hujjatlar esa 10 tani tashkil etmoqda. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar ilmiy jihatdan tahlil qilinganida, aynan Milliy gvardiyaning *“jamoat*

*tartibini saqlash, shu jumladan ommaviy tadbirlar, mitinglar, yig‘ilishlar, namoyishlar o‘tkazilayotganda hamda fuqarolar gavjum bo‘ladigan joylarda jamoat tartibini saqlash”* bilan bog‘liq vazifalari quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar mazmunida aks ettirilganini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, bularga:

1) O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining beshinchi (umumiy qoidalar) va yettinchi (shaxsiy huquq va erkinliklar) boblari;

2) O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risida”gi kodeksiga o‘zgartishlar kiritish haqida”gi qonuni;

3) O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi qonuni;

4) O‘zbekiston Respublikasining “Ekstremizmga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuni;

5) O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi to‘g‘risida”gi qonuni;

6) O‘zbekiston Respublikasining “Yong‘in xavfsizligi to‘g‘risida”gi qonuni;

7) O‘zbekiston Respublikasining “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi qonuni;

8) O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida” gi qonuni;

9) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yirik bozorlarda jamoat tartibini saqlash va yong‘in xavfsizligini ta’minlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori;

10) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda fuqarolar xavfsizligini ta’minlash hamda jamoat tartibini saqlash tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qarorlari hamda boshqa shu kabi hujjatlar shular jumlasidandir.

Endilikda, mazkur normativ-huquqiy hujjatlarni ilmiy yondashuvlar asosida tahlil qilib, mavjud huquqiy bo‘shliqlar, normalar o‘rtasidagi

ziddiyatlar shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlarning mazmunida uchraydigan takrorlanishlarni aniqlab, ularni ilmiy tahlillar asosida bartaraf etish davr talabiga aylanmoqda. Shu o‘rinda, huquqshunos olimlardan A.Sh.Sodikov fikricha “har bir mustaqil davlatda norma ijodkorligi faoliyatida normativ-huquqiy hujjatlarning ishlab chiqilishi mazkur davlatning demokratik yondashuvlari, sivilizatsiyasi va madaniyat darajasini ko‘rsatib berishga xizmat qiladi” degan fikri o‘rinlidir. Darhaqiqat, mamlakatda normativ-huquqiy hujjatning amaliyotda samarali ishlab ketishi uchun zaruriy ma’lumotlar bazalarini ilmiy texnik jihatdan qo‘llab-quvvatlanganligi kelajakda mazkur normalarni muvaffaqiyatli tadbiq etilishini prognozlashtirish mexanizmlarini joriy etish, axborot kommunikatsiya texnologiyalarini keng tatbiq etish kabi ustuvor vazifalarni amalga oshirish jamiyat taraqqiyotini belgilab beradi, desak adashmagan bo‘lamiz. Shuningdek, huquqshunos olim Sh.A.Saydullaev fikricha esa, *huquqiy bo‘shliqni aniqlanishi* – bu vakolatli shaxs (mansabdor shaxs) huquqni qo‘llash jarayonida aniqlangan muammolar bo‘yicha qonunchilikda normalari (hujjatlari)da aniq yechimni topa olmaganligi namoyon bo‘ladi deydi.

Bundan tashqari, huquqshunos olim V.V.Lazarevning yuqoridagi masalalar yuzasidan quyidagi fikrlari e’tiborga loyiq ekanligini alohida ta’kidlash joiz. Xususan, uning fikricha, agar huquqdagi bo‘shliqlarni aniqlash bilan ularni huquqni qo‘llash jarayonida yengib o‘tish yoki bartaraf etish masalalari ahamiyatiga qarab taqqoslanadigan bo‘lsa, bunda asosiy e’tibor aynan bo‘shliqlarni aniqlash vazifasiga qaratilishi lozim deydi. Chunki, ushbu masalaning ijobiy hal etilishi, o‘z navbatida, qonuniylikka rioya etish hamda huquqiy tartibga solish tizimini takomillashtirishga qaratilgan faoliyatni to‘g‘ri yo‘nalishda borishini ta’minlash nuqtai nazaridan birlamchi ahamiyat kasb etadi.

Huquqdagi bo‘shliqlarning mavjud yoki mavjud emasligi to‘g‘risidagi masalalarni aniqlash metodlariga keladigan bo‘lsak, bunda bo‘shliqlarni to‘ldirishda muayyan mexanizmlardan foydalanishning qanchalik to‘g‘ri bo‘lishiga oid holatlar yuzasidan huquqshunos olimlarning yondashuvlari turlicha ekanligini ko‘ramiz. Bunda

bo‘shliqlarni aniqlash metodlari eng avvalo, norma ijodkorining bo‘shliq hodisasi mohiyati va ushbu hodisaning turli xil shakllariga oid masalalarni qay darajada tushunishi va hal etishiga bog‘liq. Bizning fikrimizcha, aynan ushbu holatlar bo‘shliqlarni aniqlash metodlarini huquqshunoslik metodologiyasi kategorial apparatining tarkibiy elementi sifatida tavsiflashga asos bo‘ladi.

Ayrim huquqshunos olimlarning fikricha, bo‘shliqlarni amaldagi, qonuniy jihatdan rasmiylashtirilgan va huquqiy doiraga kiruvchi sohalardan *(tegishli qonunning umumiy qoidalari mazmunida nazarda tutilgan bo‘lsada, lekin uning aniq normasi bilan belgilanmagan holatlarda)* izlash lozim. Bu borada D.B.Abushenkoning fikricha, qonun hujjatlaridagi bo‘shliq huquqiy jihatdan tartibga solinishi lozim bo‘lgan munosabatlar doirasining amalda tegishli huquq normalari bilan qamrab olingan munosabatlar majmuidan hajm jihatidan oshib ketgan holatlarda namoyon bo‘ladi deydi.

Bugungi kunda Milliy gvardiyaning jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash kabi vazifalar ijrosini ta’minlashga huquqiy asos bo‘luvchi normativ-huquqiy hujjatlar mazmunida ayrim huquqiy bo‘shliqlar mavjudligini ko‘rishimiz mumkin. Bularga:

*birinchi muammoli holat*, “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonunning 4-moddasi “Ichki ishlar organlari faoliyatining asosiy yo‘nalishlari” deb nomlanib, mazkur normaga ko‘ra “jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash” ichki ishlar organlarining asosiy yo‘nalishlaridan biri etib belgilangan. Ammo, bugungi kunda mazkur vazifa aynan “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi Qonunning “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining huquqiy maqomi va asosiy vazifalari” deb nomlangan 3-moddasida “jamoat tartibini saqlash, shu jumladan ommaviy tadbirlar, mitinglar, yig‘ilishlar, namoyishlar o‘tkazilayotganda hamda fuqarolar gavjum bo‘ladigan joylarda jamoat tartibini saqlash” kabi mazmunda yoritilganini kuzatish mumkin.

Bizning fikrimizcha har bir davlatda agarda mitinglar, yig‘ilishlar, namoyishlar o‘tkazilsa yohud fuqarolar gavjum bo‘lib yig‘ilsa davlatning

barcha qurilli kuchlar tizimi bir maqsadda hamkorlikda harakat qilishi barchaga ayondir. *(Masalan, 2022 yilning yanvar oyida Qozog‘iston Respublikasida favqulodda holat rejimi e’lon qilinib, Olmaotadagi namoyishchilar hokimiyat binosi, prezident qarorgohi va aeroportni egallab olgani fikrimiz tasdig‘idir).*

Shu o‘rinda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27-son Farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasiga *Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda hamda istirohat bog‘lari, xiyobonlar va bozor hududlarida jamoat tartibini saqlash* kabi qo‘shimcha vazifalar yuklatilgan bo‘lsada, ammo bugungi kunga qadar mazkur vazifa “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi Qonunning “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining huquqiy maqomi va asosiy vazifalari” deb nomlangan 3-moddasiga kiritilmaganligini ko‘rishimiz mumkin. Bugungi kunda qonunchilikda shu kabi huquqiy bo‘shliqlarning mavjudligi mamlakatda huquqiy munosabatlarning murakkablashishiga shuningdek, huquqni qo‘llash amaliyotida noaniqliklar va qiyinchiliklarni yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi.

Shu o‘rinda, Yu. Kamolov va I. Qurbonovlar to‘g‘ri ta’kidlaganidek, mamlakatda normativ-huquqiy hujjatlarning tizimli ravishda takomillashtirilmasligi, ularning tarqoqligi va ziddiyatliligi huquqni qo‘llash amaliyotida jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi deydi. Bundan tashqari, R. Rahimov esa qonunchilikdagi tarqoqlik huquqiy bo‘shliqlarni keltirib chiqarib, mamlakatda korrupsiya xavfini oshirishiga sabab bo‘ladi to‘g‘ri ta’kidlagan. D.A.Kelsenbekov ta’biricha esa, huquqiy bo‘shliqlarning kelib chiqish sabablariga quyidagilarni bayon etadi. Bularga: *a) qonun ijodkorligi jarayonidagi kamchiliklar; b) jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning tez o‘zgarishi; v) qonunlarning o‘z vaqtida yangilanmasligi va zamonaviy talablarga javob bermasligid*ir. Mazkur huquqiy bo‘shliqlar quyidagi: a) huquqni qo‘llashda noaniqlik va turli talqinlar yuzaga kelishi; b) sud amaliyotida ziddiyatli qarorlarni qabul

qilinishi; v) fuqarolarning huquqiy himoyasizligi kabi salbiy oqibatlarni yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi deydi.

Yuqoridagi ilmiy nazariy qarashlardan kelib chiqib, bugungi kunda mamlakatda aynan jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatinining u yohud bu jihatlarini takomillashtirish maqsadida ilmiy izlanishlar olib borgan mahalliy yohud horijiy huquqshunos olimlarning ilmiy nazariy qarashlarini shuningdek, rivojlangan davlatlarning ijobiy tajribalarini ham yoritib o‘tish maqsadga muvofiqdir. Xususan:

I.Ismailov va B.Batirov o‘zining “Jamoat xavfsizligini ta’minlash Obyektlari va Subyektlarining o‘zaro aloqadorligi” nomli maqolasida jamoat xavfsizligini ta’minlashda Subyektlar va Obyektlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tadqiq qiladilar. Ular xavfsizlikni ta’minlash Subyektlari sifatida davlat va jamoat tuzilmalari, ichki ishlar organlari, milliy gvardiya, fuqarolik jamiyati institutlari rolini aniqlab, ularning o‘zaro integratsiyasini takomillashtirish zarurligini ta’kidlaydilar. Shuningdek, ilmiy asar yakunida quyidagi xulosalarni ilgari suradi: *a) jamoat xavfsizligini ta’minlash Subyektlari va Obyektlari o‘rtasida samarali hamkorlik mexanizmlarini shakllantirish zarurligi; b) innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalarni joriy etish xavfsizlik samaradorligini oshirish; v) xavfsizlik tadbirlarini tashkil etishda ilmiy asoslangan modellar ishlab chiqilishi lozimligiga* alohida e’tibor qaratadi. U.Ye.Rasulev bo‘lsa o‘zining “Jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash muhim vazifa: milliy va xorijiy tajriba” nomli ilmiy maqolastda jamoat tartibini saqlash yo‘nalishida milliy va xorijiy tajribani taqqoslash orqali, unda jamoat tartibini saqlash bo‘yicha samarali mexanizmlarni o‘rganadi. Shuningdek, u o‘z ilmiy qarashlari orqali: a) *mamlakatda jamoat tartibini saqlash yo‘nalishidagi milliy qonunchilik bazasini rivljlangan davlatlarning ijobiy tajribasida asosida takomillashtirish dolzarbligiga*; *b) bundan tashqari jamoat xavfsizligini ta’minlashda politsiya, milliy gvardiya va jamoatchilik hamkorligini kuchaytirishga alohida o‘z ilmiy nazariy qarashlari bilan qisman to‘xtalib o‘tgan*. Huquqshunos olim A.F.Joldasov esa o‘zining “Jamoat tartibi: tushunchasi, ta’rifi va o‘ziga xos xususiyatlari” nomli ilmiy asarida yangi

O‘zbekistonda jamoat tartibi tushunchasining huquqiy va ijtimoiy jihatlarini tahlil qiladi. Unda jamoat tartibini saqlashdagi asosiy elementlar va mexanizmlar, shuningdek, uning qonun hujjatlar bazasini tahlil qilib, mamlakatda *a) jamoat tartibini ta’minlash tushunchasi universal mezonlarga ega bo‘lib, uning ijtimoiy, huquqiy va psixologiyaviy jihatlari mavjud; b) jamoat tartibini ta’minlashda davlat va jamoat institutlarining o‘zaro hamkorligi muhimligi; v) ijtimoiy tartibning buzilishining oldini olish uchun fuqarolar huquqiy madaniyatini oshirish* kabi ilmiy nazari qarashlarni ilgari surgan.

Bundan tashqari, M.Z.Ziyodullaev, A.S.Tursunov va A.Sh.Murodov esa “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatlarni jilovlash bo‘yicha “fuqarobay”, “oilabay” va “mahallabay” ishlash tizimini tashkil etish” nomli maqolasida mamlakatda huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikni jilovlash borasida zamonaviy modellarni taklif etadilar. Shuningdek, F.K.Xujamberdievning “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatining huquqiy asoslarini takomillashtirish” nomli ilmiy maqolasida O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining jamoat xavfsizligini ta’minlashda: *a) Milliy gvardiyaning jamoat xavfsizligini ta’minlashdagi funksiyalari; b) xavfsizlik choralarini takomillashtirish uchun qonunchilikni rivojlantirish; v) Milliy gvardiya va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik mexanizmlarini yanada takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar bergan.* Shuni alohida ta’kidlash joizki, huquqshunos T.R.Choriev “Jamoat tartibini saqlashga oid qonunchilikni takomillashuvi” nomli ilmiy asarida jamoat tartibini saqlashga oid qonunchilik normalarining evolyusiyasini tahlil qiladi. Unda, u jamoat tartibini saqlashga oid qonunchilikning shakllanish bosqichlarini, milliy qonunchilikni xalqaro tajriba bilan qiyosiy tahlil qilib, milliy qonunchilikni xalqaro huquqiy normalarni integratsiya qilish davr talabi ekanligiga alohida e’tibor qaratgan.

Endilikda, “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi Qonunning “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining huquqiy maqomi va asosiy vazifalari” deb nomlangan 3-moddasida ilgari surilgan vazifalardagi huquqiy bo‘shliqlarni AQSh, Fransiya va Germaniya

kabi davlatlarida faoliyat yuritayotgan Milliy gvardiya organlarining vazifalari bilan ilmiy, qiyosiy tahlil qilinishi mazkur tadqiqot ishida ilgari surilayotgan takliflarni rivojlangan davlatlar tajribalari bilan yanada asoslashga xizmat qiladi. Xususan:

Amerika Qo‘shma Shtatlari *(National Guard)* – mazkur davlatning Milliy gvardiyasi harbiylashtirilgan tuzilma bo‘lib, u federal va shtat hukumatlariga bo‘ysunadi. Uning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

a) favqulodda vaziyatlarda davlat xavfsizligini ta’minlash – *terrorizmga qarshi kurashda faol ishtirok etish; tabiiy va texnologik ofatlar davomida xavfsizlikni ta’minlash; ichki notinchliklarni bartaraf etishda faoliyat olib borish;*

b) tabiiy ofatlar va hodisalar vaqtida qutqaruv va evakuatsiya ishlarini amalga oshirish – *AQSh Milliy gvardiyasi o‘rmon yong‘inlari, dovullar, suvi toshqinlar va yer qimirlashlar kabi ofatlar oqibatlarini bartaraf etishda muhim rol o‘ynaydi; talofatga uchragan hududlarda gumanitar yordam tashkil etish; favqulodda holatlarda aholi evakuatsiyasini ta’minlash;*

v) qurolli kuchlar tarkibida mudofaa operatsiyalarida ishtirok etish – *Milliy gvardiya askarlari xalqaro harbiy operatsiyalarda ishtirok etadi; boshqa harbiy qismlar bilan birgalikda mudofaa vazifalarini bajaradi; Federal miqyosda AQSh armiyasi va Milliy gvardiya birgalikda ishlaydi;*

g) jamoat tartibini saqlash va strategik Obyektlarni himoya qilish – *Milliy gvardiya shtat gubernatorlari buyrug‘i asosida jamoat tartibini tiklash uchun jalb etish; harbiy va iqtisodiy ahamiyatga ega Obyektlarni muhofaza qilish; keng ko‘lamli tartibsizliklarni bartaraf etishda ishtirok etish;*

Fransiya davlati *(Gendarmerie Nationale)* – mazkur davlatda Jandarmeriya politsiya va harbiy himoya vazifalarini amalga oshirib, Milliy gvardiyaga o‘xshash modelga ega. Uning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

a) davlat va jamoat xavfsizligini ta’minlash – *Jandarmeriya Fransiya ichki ishlar vazirligiga bo‘ysunadi va umumiy tartibni ta’minlashda politsiya bilan hamkorlik qiladi; jamoat tartibini saqlash va*

*jinoyatchilikka qarshi kurashadi; qishloq hududlarida huquq-tartibotni ta’minlash;*

b) strategik Obyektlar, diplomatik vakolatxonalar va konsullik muassasalarini muhofaza qilish – *Jandarmeriya diplomatik muassasalar, aeroportlar va davlat Obyektlarini muhofaza qiladi; oliy davlat rahbariyati va muhim shaxslarning xavfsizligini ta’minlash;*

v) ommaviy tartibsizliklarning oldini olish va favqulodda holatlarda xavfsizlikni ta’minlash – *ommaviy tartibsizliklar, norozilik namoyishlari va favqulodda holatlarda Jandarmeriya maxsus bo‘linmalari jalb etiladi; terrorizmga qarshi kurashda politsiya va armiya bilan hamkorlik qilish; Fransiya hududida xavfsizlikni kuchaytirish maqsadida tezkor harakat qilish.*

Germaniya davlatida esa *(Bundeswehr Military Police - Feldjäger)* Germaniyada Milliy gvardiyaga o‘xshash tuzilma Bundeswehr harbiy politsiyasi (Feldjäger) hisoblanadi. Unga bir vaqtning o‘zida qator muhim vazifalar yuklatilgan:

a) harbiy Obyektlarni va davlat xavfsizligini ta’minlash – *Germaniya armiyasiga tegishli muhim harbiy Obyektlarni muhofaza qilish; davlat xavfsizligiga ta’sir ko‘rsatuvchi tahdidlarga qarshi kurashish;*

b) harbiy intizomni nazorat qilish va harbiy xizmatchilar xavfsizligini ta’minlash – *Germaniya armiyasi tarkibidagi harbiy xizmatchilarning intizomini nazorat qilish; harbiy qonunbuzarliklarni tekshirish va tartibga solish;*

v) jamoat tartibini nazorat qilish va xavfli vaziyatlarda harakat qilish – *Germaniyada xavfsizlikka tahdid tug‘diruvchi holatlar bo‘yicha tezkor choralar ko‘rish; ommaviy tartibsizliklar paytida jamoat xavfsizligini ta’minlash; harbiy va fuqarolik sektorlari o‘rtasida xavfsizlikni ta’minlash.*

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Мирзиёев Ш. “Ўзбекистон Республикаси жамоат хавфсизлиги концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ни ПФ-27-сон Фармони // https://lex.uz/docs/5749291

2. Мирзиёев Ш. “Жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасини илмий тадқиқ қилиш фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-10-сон Фармони // https://lex.uz/uz/docs/6755597

3. Ўзбекистон Республикаси қонунчилик маълумотлари миллий базаси маълумоти / https://lex.uz/

4. Ўзбекистон Республикасининг “Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида”ги № ЎРҚ-371-сон Қонуни // https://www.lex.uz/acts/2387357

5. Содиков А.Ш. Норма ижодкорлиги жараёнини ахборот билан таъминлаш: илмий-амалий масалалар // Ҳуқуқий тадқиқотлар журнали / Т.: 2020 й. 33-34-бб. / huquq-2020-s4.pdf (journals.uz)

6. Сайдуллаев Ш.А. Ҳуқуқдаги бўшлиқлар ва уларни аниқлаш механизмларини такомиллаштириш масалалари // Ҳуқуқий тадқиқотлар журнали / 75-бет / huquq-2020-s4.pdf (journals.uz)

7. Лазарев В.В. О видах пробелов в праве // Правоведение. – Л.: Изд-во Ленингр. ун-та, 1969, № 6. – С.30;

8. Абушенко Д.Б. Судебное усмотрение в гражданском и арбитражном процессе. - М.: Норма, 2002. – С.110.

9. https://kun.uz/kr/news/2022/01/06/qozogistondagi-inqiroz-songgi-malumotlar

10. Мирзиёев Ш. “Ўзбекистон Республикаси жамоат хавфсизлиги концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ни ПФ-27-сон Фармони // https://lex.uz/docs/-5749291

11. Камолов Ю., Қурбонов И. Қонунчиликдаги ҳуқуқий бўшлиқлар ва уларнинг салбий оқибатлари. – Тошкент, 2022.

12. Раҳимов Р. Давлат бошқарувида ҳуқуқий нормаларнинг тизимлилиги ва тартибга солиш механизмлари. – Тошкент: Юристлар нашриёти, 2021.

13. Келсенбеков Д.А. Ҳуқуқий бўшлиқлар: назарий ва амалий жиҳатлар. – Тошкент: Ўзбек Миллий университети нашриёти, 2019.

14. https://www.researchgate.net/publication/364569668_Zamoat_havfsizligini_taminlas_obektlari_va_subektlarining_uzaro_alokadorligi/citation/download

15. Расулев У.Е. “Жамоат тартибини сақлаш ва жамоат хавфсизлигини таъминлаш муҳим вазифа: миллий ва хорижий тажриба” / журнал Eurasian Journal of Academic Research https://cyberleninka.ru/article/n/zhamoat-tartibini-sa-lash-va-zhamoat-havfsizligini-taminlash-mu-im-vazifa-milliy-va-horizhiy-tazhriba

16. Жолдасов А.Ф. “Жамоат хавфсизлиги: тушунчаси, таърифи ва ўзига хос хусусиятлари” //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 12. – С. 1163-1174.

17. Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси ва жиноятларни жиловлаш бўйича “фуқаробай”, “оилабай” ва “маҳаллабай” ишлаш тизимини ташкил этиш методикаси: Ўқув-методик қўлланма / М.З. Зиёдуллаев, А.С. Турсунов, А.Ш. Муродов ва бошқ. – Т.:Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2021. – 125 б. 2

18. Хужамбердиев Ф.К. Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардиясининг жамоат хавфсизлигини таъминлаш фаолиятининг ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш // юф.ф.д (PhD) диссертацияси.

19. O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitet “Jamoat xavfsizligi” ilmiy-amaliy jurnali 45-бет.

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA MA’NAVIY-AXLOQIY QADRIYATLARNING O‘RNI

**I.N.Usarov**

*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi*

Jamoat xavfsizligi masalasi har bir davlatning barqaror rivojlanishi, fuqarolarning tinch va osoyishta hayotini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Hozirgi globallashuv, axborot tezkorligi va ijtimoiy jarayonlarning

murakkablashuvi sharoitida jamoat xavfsizligini ta’minlash faqat huquqiy chora-tadbirlar bilan cheklanib qolmasdan, ma’naviy-axloqiy omillarga ham tayanishni taqozo etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, huquqiy normalar va jazo choralarining o‘zi jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni to‘liq bartaraf etish uchun yetarli emas. Bu borada jamiyat a’zolarining ma’naviy ongi, axloqiy qarashlari va qonunga hurmati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtai nazardan, jamoat xavfsizligini ta’minlashda ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning o‘rnini chuqur o‘rganish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

1. Jamoat xavfsizligi tushunchasi va uning ijtimoiy-huquqiy mohiyati

Jamoat xavfsizligi tushunchasi jamiyat a’zolarining hayoti, sog‘lig‘i, huquq va qonuniy manfaatlarini turli ichki va tashqi tahdidlardan himoya qilish holatini anglatadi. U davlat xavfsizligining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ijtimoiy barqarorlik va tinchlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Ijtimoiy nuqtai nazardan jamoat xavfsizligi jamiyat a’zolari o‘rtasidagi munosabatlarning barqarorligi, o‘zaro hurmat va ishonchga asoslanganligi bilan belgilanadi. Agar jamiyatda qonunga itoatkorlik va axloqiy mas’uliyat yetarli darajada shakllanmagan bo‘lsa, xavfsizlikka tahdidlar kuchayadi.

Shuning uchun jamoat xavfsizligi nafaqat davlat organlari faoliyatining natijasi, balki jamiyatning ma’naviy holatini aks ettiruvchi ko‘rsatkich sifatida ham namoyon bo‘ladi.

2. Ma’naviy-axloqiy qadriyatlar: tushuncha, mazmun va manbalari

Ma’naviy-axloqiy qadriyatlar insonning jamiyatdagi xulq-atvorini belgilaydigan axloqiy me’yorlar, qarashlar va e’tiqodlar majmuidir. Ular halollik, adolat, vijdon, insonparvarlik, bag‘rikenglik, qonunga hurmat kabi fazilatlarni qamrab oladi.

O‘zbek jamiyatida ma’naviy-axloqiy qadriyatlar asrlar davomida shakllangan bo‘lib, milliy an’analar, urf-odatlar, diniy va ma’rifiy ta’limotlar bilan uzviy bog‘liq. Mazkur qadriyatlar insonning ichki

dunyosiga ta’sir etib, uning ijtimoiy faolligi va jamiyat oldidagi mas’uliyatini belgilaydi.

Ma’naviy qadriyatlar jamiyatda ijtimoiy nazoratning norasmiy, biroq samarali mexanizmi sifatida xizmat qiladi.

3. Ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning jamoat xavfsizligini ta’minlashdagi profilaktik ahamiyati

Jinoyatchilikka qarshi kurashda profilaktika asosiy yo‘nalish hisoblanadi. Ma’naviy-axloqiy tarbiya esa profilaktikaning eng samarali shakllaridan biridir. Yuksak ma’naviyatga ega shaxs huquqbuzarlik sodir etishdan ichki axloqiy to‘siqlar sabab voz kechadi.

Ma’naviy tarbiya orqali fuqarolarda:

qonunga hurmat,

ijtimoiy mas’uliyat,

jamoat tartibiga ehtirom,

zo‘ravonlikka nisbatan murosasizlik shakllanadi.

Bu esa jamoat joylarida tartib-intizomni ta’minlash va mojarolarning oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

4. Oila institutining jamoat xavfsizligini ta’minlashdagi o‘rni.

Oila shaxs ma’naviy tarbiyasining birinchi va eng muhim maktabi hisoblanadi. Bolaning axloqiy qarashlari, xulq-atvori va qonunga munosabati avvalo oilada shakllanadi.

Oilada sog‘lom ma’naviy muhit mavjud bo‘lsa, bolada:

jamoat qoidalariga rioya qilish,

kattalarga hurmat,

mas’uliyat hissi kabi fazilatlar qaror topadi.

Shu sababli jamoat xavfsizligini ta’minlashda oilalar bilan ma’naviy-ma’rifiy ishlarni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

5. Mahalla instituti va uning jamoat xavfsizligidagi ahamiyati

Mahalla O‘zbekiston jamiyatiga xos noyob ijtimoiy institut hisoblanadi. U jamoat xavfsizligini ta’minlashda davlat va jamiyat o‘rtasidagi muhim bo‘g‘in vazifasini bajaradi.

Mahallaning jamoat xavfsizligiga qo‘shadigan hissasi quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

huquqbuzarliklarni barvaqt aniqlash,

ijtimoiy xavf guruhlari bilan ishlash, yoshlar o‘rtasida ma’naviy targ‘ibotni tashkil etish.

Mahalla faoliyatida ma’naviy-axloqiy qadriyatlarga tayanish profilaktika samaradorligini oshiradi.

6. Ta’lim tizimi va ma’naviy tarbiyaning jamoat xavfsizligiga ta’siri

Ta’lim muassasalari ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Maktab va oliy ta’lim tizimida huquqiy va ma’naviy tarbiya uyg‘unligi yosh avlodda qonunga hurmat va fuqarolik pozitsiyasini shakllantiradi.

Yoshlar orasida huquqiy madaniyatni oshirish jinoyatchilikning oldini olishda samarali vosita hisoblanadi.

7. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida ma’naviy-axloqiy mezonlar

Jamoat xavfsizligini ta’minlashda huquqni muhofaza qiluvchi organlar yetakchi o‘rin tutadi. Ularning faoliyati samaradorligi esa xodimlarning ma’naviy-axloqiy saviyasiga bevosita bog‘liq.

Xodimlarda halollik, adolat, inson huquqlariga hurmat va xizmat burchiga sadoqat kabi fazilatlar mavjud bo‘lishi jamoat ishonchini oshiradi.

8. Milliy ma’naviy qadriyatlar asosida jamoat xavfsizligini ta’minlash istiqbollari

Milliy ma’naviy qadriyatlarga tayanish jamoat xavfsizligini ta’minlashning barqaror modeli hisoblanadi. Ushbu qadriyatlarni davlat siyosati, ta’lim tizimi va jamoat institutlari faoliyatiga chuqur joriy etish ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi.

Jamoat xavfsizligi tushunchasining falsafiy-metodologik asoslari

1.1. Jamoat xavfsizligi kategoriyasining falsafiy mohiyati

Falsafada “xavfsizlik” tushunchasi inson, jamiyat va davlat mavjudligining barqarorligi bilan uzviy bog‘liq kategoriya sifatida qaraladi. Jamoat xavfsizligi esa ijtimoiy hayotning muayyan makonida fuqarolarning hayoti, sog‘lig‘i, qadr-qimmati, huquq va erkinliklarini turli tahdidlardan himoya qilish holatini ifodalaydi. U faqat tashqi yoki jinoiy tahdidlar bilan cheklanib qolmasdan, ijtimoiy beqarorlik, ma’naviy inqiroz, axloqiy buzilish kabi ichki omillarni ham qamrab oladi.

Falsafiy nuqtai nazardan jamoat xavfsizligi — bu ijtimoiy tizimning ichki uyg‘unligi va barqarorligini ta’minlovchi holat bo‘lib, u jamiyat a’zolarining o‘zaro munosabatlarida ma’naviy me’yorlar ustuvorligiga tayanadi. Agar jamiyatda axloqiy qadriyatlar zaiflashsa, qonunlarning ijrosi ham formal tus oladi, natijada jamoat xavfsizligiga putur yetadi.

Antik falsafadayoq jamoat tartibi va xavfsizligi insonning axloqiy kamoloti bilan bog‘lab talqin qilingan. Arastu jamiyat barqarorligining asosini fazilatli fuqarolar tarbiyasida ko‘rgan. Sharq mutafakkirlari, jumladan Forobiy, Ibn Sino, Beruniy asarlarida ham adolat, ma’naviyat va ijtimoiy tartib o‘rtasidagi bog‘liqlik chuqur asoslab berilgan.

1.2. Jamoat xavfsizligi va ma’naviyat o‘rtasidagi dialektik bog‘liqlik

Jamoat xavfsizligi va ma’naviy-axloqiy qadriyatlar o‘rtasida dialektik bog‘liqlik mavjud. Bir tomondan, yuksak ma’naviyat jamoat xavfsizligining mustahkam poydevorini yaratadi. Ikkinchi tomondan, barqaror va xavfsiz ijtimoiy muhit ma’naviy qadriyatlarning shakllanishi va rivojlanishi uchun zarur shart-sharoit yaratadi.

Ma’naviy-axloqiy qadriyatlar deganda insof, adolat, qonunga hurmat, vatanparvarlik, jamoat manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo‘yish kabi fazilatlar tushuniladi. Ana shu fazilatlar jamiyatda ijtimoiy intizomni ichki ehtiyojga aylantiradi. Natijada jamoat xavfsizligini ta’minlash faqat tashqi nazorat vositasi emas, balki insonning ichki ongiga singib ketgan ijtimoiy me’yor sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston sharoitida jamoat xavfsizligini ta’minlashda ma’naviy omillarga alohida e’tibor qaratilayotgani bejiz emas. Chunki milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an’analar jamiyatda o‘zaro hurmat va hamjihatlikni mustahkamlaydi, bu esa xavfsizlikni ta’minlashning eng samarali yo‘llaridan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasida Jamoat xavfsizligini ta’minlashda ma’naviy-axloqiy qadriyatlar strategik ahamiyatga ega. Huquqiy chora-tadbirlar ma’naviy tarbiya bilan uyg‘un holda amal qilgandagina jamiyatda tinchlik, barqarorlik va qonun ustuvorligi ta’minlanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O‘zbekiston Respublikasining Jamoat xavfsizligiga oid qonun hujjatlari.
3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.
4. Sh.M.Mirziyoyev Ma’naviyat va jamiyat taraqqiyotiga oid asarlari.

# АХБОРОТ-КОММУНИКАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ШАРОИТИДА ЁШЛАР ЎРТАСИДА КИБЕРБУЛЛИНГ(КИБЕРБЕЗОРИЛИК): ТУШУНЧАСИ, ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ ВА ЖИНОЯТ-ҲУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИШ МАСАЛАЛАРИ

**Б.А.Анваржонов**
*Ҳуқуқни муҳофаза қилиш академияси тингловчиси*

Ахборот-коммуникация технологияларининг тез суръатларда ривожланиши ва кенг тарқалиши натижасида шахсий ҳаёт дахлсизлиги билан боғлиқ янги хавфлар пайдо бўлмоқда. Бу хавфлардан бири — анъанавий таҳқирлаш ва тазйиқ қилиш ҳолатларининг интернет муҳитида намоён бўлишидир. Ҳақиқатдан ҳам, кибербуллинг ва кибертазйиқнинг замонавий шакллари болалар хавфсизлиги ва фаровонлиги нуқтаи назаридан жиддий ташвиш уйғотмоқда.

Шунингдек, кибербуллинг ҳолатларининг сони ва такрорланиш частотаси тез суръатларда ошиб бормоқда ва сўнгги йилларда болалар интернетда тобора кенг тарқалган хавфларга дуч келмоқда. Бу ҳолат одамларнинг бошқаларни туҳмат қилиш ва кибербуллинг қилиш учун интернетдан тобора кўпроқ фойдаланаётгани билан боғлиқ.

Масалан, Америкадаги “Cyberbullying Research Center” томонидан 2025 йил ноябрь ойида ўтказилган тадқиқотига кўра, 2025

йилги мактаб ўқувчиларининг тахминан 58% ҳаётларининг бирон бир даврида кибербуллингга дуч келганликларини айтишди. Тахминан 33% сўнгги 30 кун ичида кибербуллингга учраганликларини айтишди. Олдинги 30 кун ичида бошдан кечирган кибербуллингнинг аниқ турлари ҳақида сўралганда, энг кўп хабар қилинган шакллар қуйидагиларни ўз ичига олди: SMS ёки гуруҳ суҳбатидан четлаштирилиш (32,5%), интернетда жойлаштирилган ёмон ёки ҳақоратли изоҳлар (31,6%), интернетда уялиш ёки хўрланиш (31,3%) ва интернетда миш-мишлар тарқалиши (29,2%).[1]

Шимолий Ирландия маслаҳат хизмати ҳисоботига кўра, ўсмирларнинг 25 фоизи мобил телефон ёки интернет орқали такрорий таҳқирлашга дуч келганини билдирган, 52 фоизи эса кибербуллинг қурбони бўлганини айтган. Ёшларнинг қарийб ярми кибербуллингнинг бошқа шаклларига ҳам дуч келган. Улардан қарийб 20 фоизи мунтазам равишда кибербуллингка учрайди.

Бу маълумотлар “i-SAFE Foundation” тадқиқотлари билан ҳам тасдиқланган. Буюк Британияда ҳар уч боладан бири (34%) кибербуллинг таъсирига учраган, ўзини жароҳатлашга чақирувчи зарарли сайтлар контентини кўрган ёки ижтимоий тармоқлардан фойдаланиш жараёнида бошқа салбий оқибатларга дуч келган.[2]

Глобал статистикага кўра, ҳар 3 нафар ёшдан бири кибербуллинг қурбони бўлади. Ўзбекистонда ҳам бу кўрсаткич шунга яқин экани тахмин қилинади, аммо кўпчилик болалар (тахминан 26%) бу ҳақда ҳеч кимга айтмайди. ЮНИСЕФ ва Ички ишлар вазирлигининг Киберхавфсизлик маркази ҳамкорлигида ўтказилган кузатувлар шуни кўрсатадики: Ўзбекистондаги ҳар 7 нафар ўқувчидан камида 1 нафари (тахминан 14%) мактабда ўзини хавфсиз ҳис қилмайди. Буллинг ҳолатлари шаҳар жойларида (19,4%) қишлоқларга нисбатан (15,6%) кўпроқ учрайди. Сўровда қатнашган ўқувчиларнинг 21 фоизи ҳақоратларга учраганини, 19 фоизи эса қўрқитиш (шантаж) ҳолатларига дуч келганини билдирган.[3]

Юқорида келтирилган статистик маълумотлар интернетда содир бўлган буллинг натижасида ёшлар ўзларига зарар етказган ёки ўз

жонига қасд қилган ҳолатлар кўп учраганини кўрсатади. Бундай ҳолатлар фавқулодда бўлиши мумкин, аммо кўп ҳолларда, айниқса ёшлар орасида, интернет орқали босим ўтказиш орқали шахсиятни изчил равишда вайрон қилиш ҳолатлари кузатилади. Одатда, ҳуқуқбузар кибербуллингни жабрланувчи ҳақида фикр билдириш ёки унинг расмларини жойлаш орқали бошлайди. Якка таҳдид, ҳақорат, таъқиб ёки ижтимоий гуруҳдан чиқариш одатда жиноят сифатида баҳоланмаслиги мумкин, шунингдек алоҳида шармандали суратларни тарқатиш ҳам ҳар доим жиноят деб ҳисобланмайди. Бироқ таъқиб (stalking) каби ҳолатларда, ҳуқуқбузар ҳаракатлари тизимли равишда такрорланади ва унинг таъсири узоқ вақт давом этади. Кибербуллинг қурбони учун энг оғир жиҳат — бу ҳолатдан қочиш имкони йўқдек туюлишидир. Бугунги кунда кибербуллинг доимий ривожланиш жараёнида бўлган рақамли дунёда ўз ўрнини топаётган янги ҳодиса саналади.

Кибербуллинг нима? Таниқли норвег психологи ва тадқиқотчиси Дан Олвеус “буллинг”ни: *“Бу – бир ёки бир неча шахснинг ўзини ўзи ҳимоя қилолмайдиган бошқа якка ёки бир гуруҳ шахсларга нисбатан такроран ёки муайян вақт давомида содир этадиган салбий ҳаракатларидир”* деб, таърифлайди.[4]

БМТ Бош котибининг 2016 йилда Бош ассамблеянинг илтимосига биноан болаларни тажовузлардан ҳимоя қилиш тўғрисидаги нутқида *“Буллинг” бу жабрланувчига нисбатан такрорланувчи қасддан ёки тажовузкор хатти-ҳаракатлар бўлиб, бунда жабрланувчи ўзини ҳимоя қилиши бўйича заифлиги ва чорасизлигини (амалда ёки хаёлан) ҳис қилиши”* деб изоҳлаган.[5]

Анъанавий (юзма-юз) буллингга нисбатан кибербуллинг бутун дунёда нисбатан янги ҳодиса ҳисобланади ва у турли хил ҳаракатларни қамраб олганлиги сабабли бир нечта турларга бўлинади. Ҳозирча халқаро ёки Европа даражасида кибербуллингнинг ягона умум қабул қилинган таърифи мавжуд эмас. Умуман олганда, кибербуллинг анъанавий буллингнинг интернет орқали амалга ошириладиган шакли сифатида тушунилади. Кибербуллинг ва

анъанавий буллинг ўртасида умумий хусусиятлар мавжуд, жумладан, ҳаракатларнинг такрорланиши ва узлуксиз давом этиши. Шу билан бирга, баъзи ҳолатларда кибербуллинг анъанавий буллингнинг давоми сифатида намоён бўлади. Адабиётларда кибербуллинг электрон буллинг ва интернет таъқибини қамраб олувчи умумий тушунча сифатида ёки анъанавий буллингнинг асосий элементлари — такрорланиш, кучлар номутаносиблиги ва қасд — сақланиб қолган шакли сифатида қаралади.

*OECDнинг 2018 йилги ҳисоботига кўра,* кибербуллинг — бу бир шахс ёки гуруҳ томонидан электрон алоқа воситалари орқали ўзини ҳимоя қилиш имконияти чекланган жабрланувчига нисбатан қасддан, такрорий ва узоқ муддатли равишда амалга ошириладиган агрессив ҳаракатдир.

Кибербуллинг бошқа буллинг турлари каби инсонга зарар етказишга қаратилган агрессив хатти-ҳаракатдир. Шу билан бирга, у ахборот-коммуникация технологиялари орқали инсон ҳаётига мунтазам ва узлуксиз таъсир кўрсатиши билан фарқ қилади. Кибербуллинг электрон медиа ва АКТ орқали амалга ошириладиган, тенгдошлар ўртасидаги ижтимоий зўравонликнинг психологик жиҳатдан зарарли шакли ҳисобланади. Бу интернет технологиялари орқали ҳокимиятни суиистеъмол қилишнинг тизимли шаклидир (масалан, Facebook, Twitter ва бошқалар). Шу билан бирга, янги технологияларнинг қўлланилиши муаммони янада мураккаблаштиради. Масалан, ҳуқуқбузарнинг шахсини аниқлашда қийинчилик туғдирувчи анонимлик ва буллингнинг давомийлиги каби омиллар кибербуллингни анъанавий буллингдан ажратиб туради ҳамда унинг зарарини янада кучайтиради. Рақамли дунё инсонларга катта имкониятлар бериши билан бирга, айниқса ёшлар учун кибербуллинг каби хавфларни ҳам юзага келтиради. Шу сабабли кибербуллинг мустақил буллинг тури сифатида қаралиши лозим. Кибербуллинг таърифи бўйича турли қарашлар мавжуд бўлса-да, қуйидаги асосий элементлар одатда кибербуллинг ҳаракатини ташкил этувчи белгилар сифатида тан олинади.

Кибербуллингнинг ўзига хос хусусиятлари.

а) Юқори даражадаги анонимлик. Анонимлик кибербуллингнинг энг муҳим ва ўзига хос хусусиятларидан бири ҳисобланади. Анонимлик ва интернетдан фойдаланиш имконияти кибербуллингни анъанавий буллингдан ажратиб туради. Ҳуқуқбузар шахс кўп ҳолларда ўз шахсини, сохта аккаунтлар, нотўғри профиль расмлари ёки тахаллуслар орқали. яшира олади. Шахсини яшириш ҳуқуқбузарга жабрланувчи устидан кўпроқ таъсир ўтказиш имконини беради. Бундан ташқари, ҳуқуқбузар ўз ҳаракатлари учун жавобгарлик ҳиссини камроқ сезади ва бу ҳолат қўрқув даражасини оширишга хизмат қилади.

b) Кучлар номутаносиблиги. Технологик билимлар ва анонимлик жабрланувчи ва ҳуқуқбузар ўртасида кучлар номутаносиблигини келтириб чиқаради. Анъанавий буллингда бу номутаносиблик жисмоний куч, оммабоплик ёки ижтимоий мақом билан боғлиқ бўлади. Кибербуллингда эса бу кўпроқ технологиялардан фойдаланиш кўникмалари ва анонимлик билан боғлиқ. Масалан, интернет технологияларини яхши биладиган шахс бошқа инсонга осонлик билан тазйиқ ўтказиши мумкин. Шунингдек, кибербуллинг нафақат ўқувчилар ўртасида, балки ўқитувчиларга нисбатан ҳам содир этилиши мумкин.[6] Масалан, ижтимоий тармоқларда ўқитувчи ҳақида туҳматли гуруҳлар ташкил қилиш ёки унинг номидан сохта аккаунт очиш ҳолатлари учрайди.

c) Оммавийлик ва жабрланувчининг ҳимоясизлиги. Кибербуллингнинг яна бир муҳим хусусияти — унинг оммавийлик даражаси жуда юқори бўлишидир. Интернет доимий равишда мавжуд бўлгани сабабли зарарли маълумотлар жуда кўп одамлар томонидан кўрилиши мумкин. Анъанавий буллингда таҳқир чекланган муҳитда содир бўлади. Интернетда эса бундай маълумотлар бутун дунё бўйлаб тарқалиши мумкин. Шунингдек, интернетда жойлаштирилган маълумотларни тўлиқ ўчириш жуда қийин.[7] Шу сабабли жабрланувчи ҳатто ўз уйида ҳам хавфсизликни ҳис қилмаслиги мумкин. Бундай ҳолатларда кузатувчилар (bystanders) ҳам

кибербуллинг иштирокчисига айланиши мумкин. Масалан, зарарли хабарларни қайта тарқатиш ёки таҳқирловчи контентни кўриш орқали улар ҳам жараёнда иштирок этади.

d) Такрорланиш. Такрорланиш кибербуллингнинг муҳим белгиларидан бири ҳисобланади. Интернет технологиялари сабабли бир марта жойлаштирилган хабар ёки расм қайта-қайта тарқалиши мумкин. Ҳатто бир марта қилинган ҳаракат ҳам узоқ вақт давомида жабрланувчига салбий таъсир кўрсатиши мумкин. Кибербуллингда такрорланиш турли шаклларда намоён бўлади. Масалан, бир ҳуқуқбузар бир неча марта тазйиқ ўтказиши ёки бир марта жойлаштирилган маълумот кўплаб одамлар томонидан кўрилиши ва тарқатилиши мумкин. Шунинг учун бир марта қилинган ҳаракат ҳам оғир оқибатларга олиб келиши мумкин.[8]

Юқоридаги маълумотлардан келиб чиқиб, кибербуллингга қарши самарали ҳуқуқий механизмларни ишлаб чиқиш заруриятини келтириб чиқаради. Айниқса, жиноят ҳуқуқи нуқтаи назаридан кибербуллинг ҳаракатларини квалификация қилиш, улар учун жавобгарлик чораларини белгилаш муҳим аҳамият касб этади. Шу муносабат билан, турли давлатлар қонунчилигида кибербуллингга қарши жиноий-ҳуқуқий ёндашувларни ўрганиш, уларнинг ўзига хос жиҳатлари ва самарадорлигини қиёсий таҳлил қилиш долзарб масала ҳисобланади.

Кибербуллингнинг салбий оқибатларига қарши янги қонунлар қабул қилиш зарурати туфайли айрим давлатлар кибербуллинг ҳаракатларини жиноий жавобгарликка тортишни бошлади. Бу соҳадаги қонунлар асосан икки турга бўлинади. Биринчи тур қонунлар мавжуд таъқиб ёки таъқиб қилишга оид нормаларга *“телекоммуникация ёки электрон воситалар орқали”* деган қўшимчани киритиш орқали модернизация қилинган. Иккинчи тур қонунлар эса *кибербуллингни алоҳида жиноят* сифатида белгилаган. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодексида айнан юқоридаги биринчи турдаги нормаларни кўришимиз мумкин.

Америка Қўшма Штатлари, кибербуллингни қонунчилик йўли билан тартибга солишда етакчи ўринни эгаллаб келмоқда. 2009 йилдан бошлаб АҚШнинг бир қатор штатларида кибербуллинг жиноят сифатида таснифланадиган қонунлар қабул қилина бошланди.[9] Буллингка қарши қонунлар интернет ёки мобил телефонлар орқали амалга ошириладиган буллинг ҳаракатларини қамраб олади. АҚШда 49 та штат мавжуд буллингка қарши қонунларига электрон тарзда амалга ошириладиган таъқиб (электрон таъқиб) тушунчасини киритган. Масалан, Шимолий Каролина штати кибербуллинг учун, шу жумладан мактаб ходимларига нисбатан кибербуллинг содир этган ўқувчиларга нисбатан жиноий санкцияларни жорий этган илк штатлардан бири ҳисобланади.

Буюк Британияда кибербуллинг алоҳида жиноят таркиби сифатида белгиланмаган бўлса-да, кибербуллингга хос хулқ-атворлар таъқиб қилиш ёки таҳдидли хатти-ҳаракатлар каби бошқа жиноятлар таркибига киритилган. Буюк Британияда кибербуллинг ҳолатларига нисбатан қўлланилиши мумкин бўлган тўртта асосий қонун мавжуд. Кибербуллингни содир этган шахслар амалдаги қонунлар асосида суд жавобгарлигига тортилган, жумладан: 1997 йилдаги Таъқибдан ҳимоя қилиш тўғрисидаги қонун, 2003 йилги Алоқа тўғрисидаги қонун, 1988 йилги Ёвуз ниятдаги хабарлар тўғрисидаги қонун, 1861 йилги Шахсга қарши жиноятлар тўғрисидаги қонун, шунингдек 1994 йилги Жиноят адлияси ва жамоат тартиби тўғрисидаги қонун.[10]

Австрия 2012 йилдаги *OECDнинг "Болаларни онлайн ҳимоя қилиш" ҳисоботига* кўра, Австрия (Европа Иттифоқида кибербуллинг даражаси энг юқори бўлган давлатлардан бири) кибербуллингни ҳуқуқий тартибга солишда ўзига хос мисол ҳисобланади. Чунки Австрия бошқа Европа давлатларидан фарқли равишда кибербуллингни 2016 йил 1 январдан бошлаб жиноят деб белгилаган. Австрия Жиноят кодексига *107c-модда — "Телекоммуникация ёки компьютер тизимлари орқали давомли таъқиб қилиш"* киритилиб, кибербуллинг учун жиноий жавобгарлик белгиланган ва шу тариқа Австрия Европа давлатлари ичида кибербуллингни очиқ тарзда

жиноийлаштирган биринчи давлат ҳисобланади. Қонун чиқарувчи “кибербуллинг” атамаси ўрнига “таъқиб қилиш” тушунчасини қўллаган.

Германияда кибербуллинг тез суръатларда ўсиб бораётган муаммога айланган. Германияда кибербуллинг алоҳида жиноят таркиби сифатида белгиланмаган бўлса-да, кибербуллингга хос хатти-ҳаракатлар бошқа жиноятлар доирасида баҳоланиши мумкин. Жумладан, Германия Жиноят кодексига мувофиқ бундай ҳаракатлар ҳақорат қилиш (185-модда), таъқиб қилиш (сталкинг, 237-модда), шахсий ҳаёт дахлсизлигини суратга олиш орқали бузиш (201а-модда), зўравонлик тасвирларини тарқатиш (131-модда), туҳмат қилиш (186-модда) ва таҳдид қилиш (240-модда) каби жиноятлар таркибига киритилиши мумкин.[11]

Италияда қонун кибербуллингнинг биринчи қурбони ҳисобланган Каролина Пиккио хотирасига бағишланган. У зиёфатда маст ҳолда экани акс этган видеоси “Facebook” ижтимоий тармоғига жойлаштирилганидан сўнг собиқ йигити ва унинг танишлари томонидан интернетда таҳқирланган ва натижада ўз жонига қасд қилган. Мазкур қонун Италияда биринчи марта кибербуллингга аниқ ҳуқуқий таъриф берди. Қонунга кўра, кибербуллинг — интернет орқали вояга етмаган шахсни ҳақорат қилиш, туҳмат қилиш, таҳдид қилиш ёки шахсини ўғирлаш каби ҳаракатларни ўз ичига олади. Шунингдек, қонун жабрланувчи ёки унинг ота-онасига ҳақоратли ёки зарарли маълумот жойлаштирилган веб-сайтдан ушбу контентни 48 соат ичида ўчиришни талаб қилиш ҳуқуқини беради.

Испания ҳам кибербуллинг ҳаракатлари учун махсус ҳуқуқий нормаларни жорий этган Европа давлатларидан бири ҳисобланади. Испания Жиноят кодексининг 173 ва 169-моддаларига мувофиқ, шахсни мунтазам ва такрорий равишда таъқиб қилиб, унинг кундалик ҳаётига жиддий таъсир кўрсатган шахсга нисбатан жарима ёки озодликдан маҳрум қилиш жазоси қўлланилиши мумкин.[12] Мазкур моддалар кибербуллинг билан боғлиқ оғирлаштирувчи ҳолатларни ҳам белгилайди. Масалан, жабрланувчи ёши сабабли ҳимояга муҳтож

бўлса ёки айбдор жабрланувчи билан яқин муносабатда ёки қариндошлик алоқасида бўлса, жавобгарлик оғирлаштирилиши мумкин.

Умуман олганда, турли ҳуқуқий тизимларда кибербуллинг ва унга ўхшаш ҳодисаларни тартибга солишда кўплаб бўшлиқлар мавжуд. Шу билан бирга, “кибербуллинг жинояти”ни мустақил таркиб сифатида яратиш ҳам осон масала эмас. Гарчи миллий ҳуқуқ тизимларининг жиноят кодексларида кибербуллинг қамраб олинадиган айрим хатти-ҳаракатларни тартибга солувчи нормалар мавжуд бўлса-да, илғор технологияларнинг жадал ривожланиши бундай ҳаракатларни тартибга солишнинг янги усулларини доимий равишда юзага келтиради. Натижада кибербуллинг мавжуд жиноят таркиблари доирасидан чиқиб кетиши мумкин.

Масалан, якка тарзда таъқиб қилиш ҳақорат сифатида, порнографик мазмундаги материалларни тарқатиш эса жинсий зўравонлик (сексуал таъқиб) сифатида жазоланиши мумкин. Бироқ кибербуллингнинг кўплаб жиҳатлари яъни умумий буллинг манзарасининг майда бўлакларига ўхшаш ҳаракатлар жиноий аҳамият касб этмайди. Буларга уятли контентни тарқатиш, ижтимоий тармоқларда ёлғон маълумот жойлаштириш ёки шахсни интернет гуруҳларидан чиқариб қўйиш каби ҳолатлар киради. Шу билан бирга, кибербуллингнинг айрим шакллари анча оғир оқибатларга олиб келиши мумкин.

Кибербуллингни жиноятлаштириш орқали ҳуқуқий тизимлар келажакда бошқа эҳтимолий буллинг қилувчилар томонидан бундай хатти-ҳаракатларнинг такрорланиш эҳтимолини олдини олишни мақсад қилади. Дарҳақиқат, замонавий жиноят ҳуқуқи илмида жиноят ҳуқуқи асосан профилактикага қаратилган. Албатта, кибербуллинг қилган шахсларни жазолаш муайян маънода қасос (ретрибуция) вазифасини ҳам бажариши мумкин. Бироқ бундай хатти-ҳаракатларни жазолашда устувор мақсад — махсус профилактика ёки умумий профилактика (ёки ҳар иккаласи) ҳисобланади.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси. — Т.: Адолат, амалдаги таҳрир.
2. Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги ҳузуридаги Киберхавфсизлик маркази ва ЮНИСЕФ. Болалар онлайн хавфсизлиги бўйича кузатув натижалари. — Тошкент, 2023
3. United Nations General Assembly. Protecting children from bullying. Report of the Secretary-General. A/71/213, 2016.
4. OECD. Students, Computers and Learning: Making the Connection. — Paris: OECD Publishing, 2018.
5. Cyberbullying Research Center. Cyberbullying Data and Statistics (2025).
Манба: https://cyberbullying.org
6. UNICEF. Cyberbullying: What is it and how to stop it.
Манба: https://www.unicef.org/end-violence/how-to-stop-cyberbullying
7. i-SAFE Foundation. Online Safety and Cyberbullying Research Reports.
Манба: https://www.isafe.org
8. Northern Ireland Anti-Bullying Forum. Cyberbullying and Young People Report. — Belfast, 2020.
9. Austria Criminal Code. Section 107c – Persistent harassment involving telecommunication or computer systems.
10. Protection from Harassment Act 1997 (UK).
11. Italian Law No. 71/2017. Disposizioni a tutela dei minori per la prevenzione ed il contrasto del fenomeno del cyberbullismo.
Spanish Criminal Code. Articles 169, 173

## JAMOAT EKOLOGIK NAZORATINI AMALGA OSHIRISHINING HUQUQIY MEXANIZMLARI

**Madrimov Raximboy G‘ulomjon o‘gli**
*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi, katta leytenant*

Mamlakatimizda barqaror rivojlanishni ta’minlashning omili sifatida tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlash hamda atrof muhitni muhofaza qilish borasida keng ko‘lamli islohotlar muvaffaqiyatli amalga

oshirilmoqda. 2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida hamda uni amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturlarida: «odamlarning ekologik xavfsiz muhitda yashashini ta’minlash, atrof-tabiiy muhit, aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan ekologik muammolarni oldini olish[1]; atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan samarali foydalanish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash[2]; ekologik muvozanatni saqlash va barqaror rivojlanishda tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni tartibga solish[3]; suvni tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish[4]; tabiatni qayta tiklashga qaratilgan kompensatsiya mexanizmlarini keng joriy etish[5] kabi muhim vazifalar belgilangan. Ko‘rsatilgan vazifalarni bajarish o‘z navbatida samarali ekologik siyosatni amalga oshirish bilan bir qatorda tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning mohiyati, tavsifi va tashkiliy-huquqiy va iqtisodiy mexanizmini qonunchilikda aniq belgilash orqali yanada takomillashtirish zarurligidan dalolat beradi.

Mamlakatimizda yuritilayotgan oqilona ekologik siyosat davlat va jamoatchilik tomonidan tabiatni muhofaza qilish va undan samarali foydalanilishini nazorat qilish, aholining ekologik xavfsizligini ta’minlashga oid ekologik faoliyat amalga oshirilishini taqozo qiladi.

Professor M.M.Mamasiddiqovning fikricha, ekologiya’ni muhofaza qilish va atrof-muhitni asrab-avaylash ishlarida fuqarolik jamiyati institutlari, jumladan, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari alohida o‘rin tutishini e’tirof etib o‘tadi[7].

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tashkiliy jihatdan davlat hokimiyatidan ajratilgan bo‘lsa-da, funksional ravishda ular o‘zaro bog‘liqdir. Ular iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik jihatdan umumdavlat siyosati o‘zagida harakat qiladilar, ayrim davlat vakolatlarini bajarishlari, davlat dasturlarini amalga oshirishda qatnashishlari mumkin[8].

“Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”[9] gi Qonunning 4-moddasida davlat organlarining va ular mansabdor shaxslarining qabul qilinayotgan normativ hujjatlarda, davlat dasturlarida jamoatchilik manfaatlarini va fikrini inobatga olish, fuqarolarning va yuridik shaxslarning huquqlari

hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan qonunchilik talablarining ijrosini ta’minlash, zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish, davlat xizmatini ko‘rsatish, ijtimoiy sherikchilik bo‘yicha bajariladigan shartnomalar, loyihalar hamda dasturlarni bajarishga oid faoliyati jamoatchilik nazoratining obyekti sifatida belgilangan. Bunda, davlat ekologiya organlari “atrof tabiiy muhitga zararli ta’sir ko‘rsatayotgan obyektlar faoliyatini cheklash, to‘xtatib qo‘yish, tugatish va o‘zgartirish” bo‘yicha qaror qabul qilayotganda jamoatchilik nazorati organlari, xususan, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining fikrini inobatga olishlari lozimligi belgilangan. Shuningdek, bu borada, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1993 yil 17 mayda tasdiqlagan O‘zbekiston Respublikasida davlat yong‘in xavfsizligi nazorati to‘g‘risidagi nizomda fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining “belgilangan tartibda obyektlar va aholi yashayotgan punktlarning yong‘in xavfsizligi holati, ularni nazorat qilish natijalari haqida jamoatchilikka axborot berib borish, yong‘inga qarshi kurash bo‘yicha targ‘ibot ishlarini amalga oshirish, yong‘inning oldini olishga bag‘ishlangan adabiyotlar, plakatlar, bukletlar nashr etish”[10] vakolatlari belgilangan. “Ekologik nazorat to‘g‘risida”gi Qonunda “jamoatchilik ekologik nazorati natijalari belgilangan tartibda ma’lumotnoma yoki axborot tuzish orqali rasmiylashtirilishi mumkinligi, jamoatchilik ekologik nazoratining natijalari maxsus vakolatli davlat organlarini, mahalliy davlat hokimiyati organlarini va fuqarolarni jamoat ekologik nazoratining natijalari haqida xabardor qilish, tegishli davlat organlariga tabiatni muhofaza qilishga oid qonun talablarining buzilishi yuzasidan aniqlangan fakt bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish uchun takliflar kiritish kabi shakllarda ro‘yobga chiqarilishi”[11] belgilangan. Maxsus ekologiya qonunlarida aks etgan yuqorida aytib o‘tilgan ekologik vakolatlar “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”[12] gi Qonunda to‘liq aks etmagan yoki qonunchilikka muvofiqlashmagan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev o‘z ma’ruzasida “shahar va qishloqlar qiyofasini o‘zgartirish, qurilish va obodonlashtirishga oid qarorlar dastlab

o‘sha joydagi aholi o‘rtasida muhokama qilinishini va jamoatchilik ekspertizasidan o‘tkazilishi shartligi”[13] ni ta’kidlangan edi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, mamlakatimizdagi ekologik muammolarni hal qilishda fuqarolik jamiyati institutlarining, xususan, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ekologik - huquqiy vakolatlari ichida muhim bo‘lgan jamoat ekologik ekspertizasini amalga oshirish faoliyatining amaliy jihatlari va uning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish bugungi davrning o‘z yechimini kutayotgan talablaridan biriga aylandi. Fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining faoliyatini yanada rivojlantirish masalasi Prezident Sh.Mirziyoyev asarlarida ham dolzarb qilib ta’kidlanganligi bejiz emas[14]. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari ekologik vakolatlari ichida ekologik ekspertizani amalga oshirish alohida ahamiyatga ega. Shu boisdan ham bunday ekspertizaning nazariy-huquqiy jihatlarini o‘rganish va uni amalda o‘tkazishni “jonlantirish” ning muhim zaruriyati mavjud.

Shuningdek, 2013 yil 27 dekabrda qabul qilingan “Ekologik nazorat to‘g‘risida” gi Qonunning 15 - moddasida “fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari tabiatni muhofaza qilish va undan foydalanish jarayonlari bo‘yicha jamoatchilik fikrini o‘rganishi hamda jamoatchilik ekologik ekspertizasini o‘tkazishi”[15] haqidagi qoida mustahkamlangan. Lekin, bu qonunlarda mazkur vakolatni fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan qanday amalga oshirishi lozimligi xususida hech narsa deyilmagan. Binobarin, amaliyotda bu organlar tabiatni muhofaza qilish, obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha komissiyasi tashkil qilinishidan boshqa mexanizmlardan foydalana olmayaptilar.

O‘zbekiston Respublikasi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonunning 8-moddasi 2-qismida “fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmasligi va qonun bilan berilgan vakolatlarini tegishli hududda amalga oshirishi”[16] qayd etilgan. Bizning mamlakatimizda xorijiy mamlakatlardan farqli ravishda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyat yuritadi hamda ular o‘zlariga berilgan vakolatlarni,

jumladan ekologiya sohasiga oid vakolatlarini amalga oshiradi, shuningdek tegishli hududda milliy qadriyatlardan va an’analardan kelib chiqqan holda mahalliy muammolarni davlat organlarining aralashuvisiz mustaqil hal qiladi hamda tabiatni muhofaza qilish masalalari yuzasidan davlat organlariga ko‘maklashadi. O‘zbekiston Respublikasi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonunning 8-moddasi 2-qismida “fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmasligi va qonun bilan berilgan vakolatlarini tegishli hududda amalga oshirishi” qayd etilgan. Bizning mamlakatimizda xorijiy mamlakatlardan farqli ravishda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyat yuritadi hamda ular o‘zlariga berilgan vakolatlarni, jumladan ekologiya sohasiga oid vakolatlarini amalga oshiradi, shuningdek tegishli hududda milliy qadriyatlardan va an’analardan kelib chiqqan holda mahalliy muammolarni davlat organlarining aralashuvisiz mustaqil hal qiladi hamda tabiatni muhofaza qilish masalalari yuzasidan davlat organlariga ko‘maklashadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, atrof muhitni muhofaza qilishda, tabiat boyliklaridan samarali foydalanishda fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari jamoat nazoratini amalga oshirishda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish zarur deb hisoblaymiz.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni // www.lex.uz.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 22 yanvardagi PF–5308-son “2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni // www.lex.uz.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 yanvardagi PF–5635-son “2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning

beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni // www.lex.uz.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 2 martdagi PF–5953-son “2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni // www.lex.uz.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 3 fevraldagi PF–6155-son “2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni // www.lex.uz.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2020 yil 24 yanvar // www.president.uz

7. Mamasiddiqov M.M. Mamlakatimizda inson huquqlarini ta’minlashda davlat organlari faoliyati ustidan samarali jamoatchilik nazorati mexanizmini ishlab chiqish va takomillashtirish. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. – T:, 2018 yil 6 may. B. 25.

8. G.R.Malikova, G.S.Ismailova. “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonunga sharh. T., O‘zbekiston, 2009.-B. 32.

9. www.Lex.uz

10. G.R.Malikova, G.S.Ismailova. “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga sharh. T., O‘zbekiston, 2009.-B. 99.

11. “Ekologik nazorat to‘g‘risida” gi Qonunning 21,22-moddalari // www..Lex.uz

12. www.Lex.uz

13. 2019 yil 7 dekabrda Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 27 yilligiga bag‘ishlangan “Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik

davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir” nomli ma’ruzasi // www.president.uz

14. Sh.Mirziyoyevning 2016 yil 7 dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi” nomli ma’ruzasi // www.president.uz

15. O‘zbekiston Respublikasi “Ekologik nazorat to‘g‘risida” gi qonuni. www.Lex.uz

16. 2013 yildagi O‘zbekiston Respublikasi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonunning 11-moddasi // www.Lex.uz

## ЖИНОЯТ ПРОЦЕССИДА ДАЛИЛЛАРНИ ПРОЦЕССУАЛ ҚАЙД ЭТИШ ИСБОТ ҚИЛИШНИНГ АСОСИЙ ВОСИТАСИ

**Нуралиев Мурод Маъруфович,**
*Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети мустақил изланувчиси*

Суд-ҳуқуқ тизимида бўлаётган ва босқичма-босқич амалга оширилаётган ислоҳотлар амалдаги жиноят ва жиноят-процессуал қонунчилигимизнинг либераллашувига олиб келмоқда ҳамда инсон ҳуқуқ ва эркинликларини муҳофаза қилишнинг кафолатига айланмокда.

Мамлакатимизда жадал суръатлар билан олиб борилаётган суд-ҳуқуқ ислоҳотлари жиноят-процессуал қонунчилик билан боғлиқ ижтимоий муносабатларда демократик институтларнинг барқарорлашувига олиб келмоқда. Кейинги йилларда амалдаги Жиноят-процессуал кодексига киритилган қўшимча ўзгартишлар ҳамда уларни такомиллаштириш юзасидан берилаётган таклифлар шундан далолат беради.

Шунга қарамай жиноят процессида ҳал қилиниши лозим бўлган муаммолар мавжуд. Мисол учун, жиноят процесси принциплари тизимини кенгайтириб, халқаро ҳуқуқнинг умумэътироф этилган

норма талабларига мослаштириш ёки процесс иштирокчиларининг ҳуқуқ ва мажбуриятларини кенгайтириш, жиноят иши бўйича исбот қилиш, далилларни процессуал қайд этиш ҳамда мустаҳкамлаш билан боғлиқ муаммоларни ҳал қилишга эҳтиёж сезилмоқда.

Шундай экан, ишни судга кадар юритишда далилларни процессуал қайд этиш самарадорлигини ошириш масаласи ушбу ҳуқуқий институтнинг процессуал қонун ҳужжатларида қандай тартибга солинганлигига бевосита боглиқ. Ҳар қандай қонун муайян соҳага оид ижтимоий муносабатларни тартибга солиб турувчи ҳуқуқий меъёрлар, қоидалар (нормалар) йиғиндисидан ташкил топади. Ҳуқуқ нормаси деганда эса барча ҳуқуқ субъектлари учун мажбурий бўлган, давлат томонидан ўрнатилган ёки маъқулланган, ижтимоий муносабат қатнашчиларининг ҳуқуқ ва мажбуриятларини ўзида ифодалаган хатти-ҳаракат қоидаси, ҳулқ-атвор мезонидир[1].

Ишни судга қадар юритишда далилларни процессуал қайд этишни ҳуқуқий жиҳатдан тартибга солиб турувчи ҳуқуқий меъёрлар жиноят-процессуал қонуннинг таркибий қисми ҳисобланади ва жиноят-процессуал норма деб номланади. Жиноят-процессуал нормалар йиғиндисини жиноят-процессуал қонунчилиги ташкил этади. Жиноят-процессуал қонунчилиги жиноят ишларини тергов килиш ва ҳал этиш тартиби, суриштирув, дастлабки тергов, прокуратура органлари ва суднинг фаолияти, шунингдек уларнинг жиноят ишларини юритишда иштирок этувчи фуқаролар ҳамда ташкилотлар билан муносабатларини белгилаб беради.[2]

Ҳар бир қонун муайян мақсад ва вазифаларни амалга оширишга йўналтирилган бўлади. Жумладан, далилларни процессуал қайд этиш

[1] Давлат ва ҳуқуқ назарияси: Дарслик / Х.Т.Одилқориев, И.Т.Тультеев ва бошқ. - Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2009. – Б. 271; Муқимов З. Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи: олий ўқув юртлари талабалари учун дарслик. - Т.: «Адолат», 2003. - Б. 7-8.

[2] Ўзбекистон Республикасининг жиноят процесси: Дарслик / Б.А.Миренский, А.Х.Рахмонқулов, Д.Камалходжаев, В.В.Кадирова ва бошқ. Тўлдирилган иккинчи нашри. - Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2012. - Б. 25; Jinoyat-protsessual huquq: Darslik / yuridik fanlar doktori, professor M.A.Rajabova tahriri ostida. To‘ldirilgan va qayta ishlangan uchinchi nashri. - T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2019. - Б. 20.

ҳам жиноят-процессуал қонунчилигининг вазифаларини руёбга чиқариш учун хизмат қилиши лозим.

Ўзбекистан Республикасининг Жиноят-процессуал кодексининг 9-боби бевосита исбот қилишга бағишланган. Мазкур бобда исбот қилиш тушунчаси, предмети, мақсади, исбот қилиш элементларининг исбот килиш субъектлари томонидан амалга оширишнинг процессуал тартиблари, исботлашнинг умумий шартлари назарда тутилган бўлиб, уларнинг бажарилмаслиги ҳар қандай тергов ҳаракати натижаларининг судда кўриб чиқиш вақтида далилий аҳамияти йўқолишига олиб келади[3]

Эътироф этиш жоизки, далилларни процессуал жиҳатдан қайд этиш жиноят процессининг мақсадларига, хусусан, қонунчиликни мустаҳкамлаш, шахс, давлат ва жамият манфаатларини таъминлашга зид бўлмаслиги лозим[4]. Бунинг учун ишни судга кадар юритиш боскичларида далилларни процессуал қайд этишнинг ҳуқуқий тартиби мукаммал бўлиши лозим.

Бугунги кунда исботлаш предмети ва доираси, исботлаш иштирокчилари, уларнинг исботлаш жараёнидаги ҳуқуқ ва мажбуриятлари жиноят-процессуал ҳуқуқ фанининг муҳим масалаларидан бири бўлиб ҳисобланади. Чунки жиноят-процессуал фаолиятнинг асосини исботлаш жараёни ташкил қилади[5]. Фақатгина исботлаш жараёни давомида олинган ишончли маълумотлар процессуал жиҳатдан тўғри расмийлаштирилгандан сўнг жиноят иши юзасидан қонуний ва асослантирилган қарорлар қабул қилинади.

Жиноят процессида исбот қилиш - бу жиноят ҳолатларини англашнинг процессуал шакли бўлиб, ушбу жараён айбланувчи,

[3] Янгиев Ғ. Исбот килиш института // http://huquqburch.uz/uz/view/5549.
[4] Маслов А.К. Деятельность следователя по процессуальному оформлению предметов, вещей и иных документов в качестве доказательств по уголовным делам: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. - Краснодар, 2011. - С. 11.
[5] Фаткулин Ф.Н. Общие проблемы процессуального доказывания. Науч. ред.: Аварах Я.С. - 2-е изд., доп. - Казань: Изд-во Казан, ун-та, 1976. - С. 128.

жабрланувчи, ҳимоячи ва бошқа шахслар иштирокида суриштирувчи, терговчи, прокурор ва судья томонидан амалга оширилади.[6]

М.С.Строгович таъриф беришича, исбот қилиш - жиноят иши ҳолатларини, фактларини англаш жараёнидир.[7]

П.А.Лупинская таъкидлашича, жиноят процессида исбот қилиш - амалий, мантиқий ва фикрлаш фаолиятлари бирлигини мужассам килади.[8]

Фикримизча, жиноят процессида исбот қилиш тушунчаси билан биргаликда далиллар ҳуқуқи, далиллар назарияси каби тушунчалар ҳам мавжуд. Исботлаш предмети ва доираси, шунингдек ушбу жараённи амалга оширувчи нормалар йиғиндиси далиллар ҳуқуқини ташкил қилади. Далиллар ҳуқуқи ҳар бир иш бўйича исбот қилиш мақсадига эришиш учун кафолат ҳисобланади ва исбот қилиш шартлари, йўналишлари мазмунини белгилаб беради. Исбот қилишнинг аниқ мазмунини эса процессуал ҳаракатлар ва муносабатлар ташкил қилади. Далиллар назарияси исбот қилишининг ҳуқуқий, мантиқий ва психологик асосларини ўрганади, шунингдек, ҳуқуқий нормаларнинг жиноятларни тергов қилиш давомида қонуний қўллаш амалий фаолиятини тартибга солади. Далиллар назариясининг асосий вазифаси жиноят-процессуал ҳуқуқни ўрганишда юзага келадиган ҳар қандай ҳолатларга аниқлик киритиш баробарида ҳақиқатни аниқлашга хизмат қилади.

Бу борада А.Я.Вишинскийнинг «.. .исбот килиттт давомида аник объектив хакикатга эришиб булмайди ва исботлашда конунийликка риоя килмаса хам булади»[9], деган фикрларига қўшилиб бўлмайди. Чунки жиноят- процессуал қонунчилиги жиноят процесси субъектларидан процессуал исботлашни амалга оширишда объектив

---

[6] Иноғомжонова З.Ф., Тўлаганова Г.З. Жиноят процесси муаммолари: ўқув қўлланма. - Т.: ТДЮИ, 2006. - Б. 63-69.

[7] Строгович М.С. Курс уголовного процесса. - М.: Наука, 1968. - С. 296.

[8] Лупинская П.А. Доказательства и доказывание в новом уголовном процессе // Российская юстиция, 2002. - № 7. – С. 5; Лупинская П.А. Вопросы понимания истины в уголовном судопроизводстве: «Уголовно-процессуальное право Российской Федерации» / Отв. ред. П.А. Лупинская. - М.: Норма, 2010. - С. 285-290.

[9] Иноғомжонова З.Ф., Тўлаганова Г.З. Жиноят процесси муаммолари: Ўқув қўлланма. - Т.: ТДЮИ нашриёти, 2006. - Б. 63-69.

ҳақиқатга эришишни талаб қилади ва барча процессуал ҳаракатларни қонунда белгиланган тартибда олиб борилишини зиммасига юклайди.

Шу томонлама Ф.Н.Фаткуллиннинг, процессуал исбот қилиш жиноят иши бўйича аниқланиши лозим бўлган ҳолатлар ва фактларни билишнинг ягона усулидир»[10] - деган фикрини қўллаб-қувватлаш мумкин.

Бизнинг фикримизча, далиллар исботлаш воситаси бўлиши учун авваламбор, уларни тўплаш, яъни у ёки бу процессуал ҳаракатлар билан далилий маълумотлар орасидан кўз илғамас, лекин иш учун аҳамиятли бўлган ҳақиқий маълумотларни уларнинг муҳимлигидан келиб чиққан ҳолда ажратиб олиб, исботлаш фаолиятини амалга оширувчи субъект ихтиёрига тайёр далил сифатида ўтиши лозим.

А.Х.Рахмонқуловнинг фикрига кўра, исботлаш - бутун жиноят-процессуал фаолиятга сингиб кетган ва жиноят процесси вазифаларининг иш бўйича ҳақиқатни аниқлаш орқали амалга оширилишини таъминлайдиган мураккаб жараён. Исботлашнинг мазмунини, аввало, ишни қонуний, асосланган ва адолатли ҳал қилиш учун аҳамиятга эга бўлган ҳолатлар тўғрисидаги ҳақиқатни аниқлаш мақсадида далилларни тўплаш, текшириш ва баҳолашдан иборат процессуал ҳаракатлар мажмуи ташкил килади.[11]

Б.А.Ражабов таҳлилига кўра қуйидаги хулосаларни илгари сурган:

1) исбот қилиш - бу далилларни тўплаш, текшириш ва баҳолашдан иборат;

2) исбот қилиш - бу тергов тусмолларини илгари суриш ва уларни динамик ривожлантириш, жиноят ишининг фактлари ҳамда ҳолатлари тўғрисидаги маълумотларни ва далилларни тўплаш, текшириш, шунингдек процессуал қарорларни ҳамда жиноят иши

---

[10] Фаткуллин Ф.Н. Общие проблемы процессуального доказывания. - Казань: Изд-во Казан, унта, 1973. - С. 17-18.

[11] Ўзбекистон Республикасининг жиноят процесси: Дарслик / Б.А.Миренский, А.Х.Рахмонқулов, Д.Камалходжаев ва бошқ. Тўлдирилган иккинчи нашри. - Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2012. - Б. 119; Сазонова Т.П. Иные процессуальные действия как способы собирания доказательств в досудебном производстве: Автореф. дис...канд. юрид. наук. - Челябинск, 2009. - С. 30.

бўйича ишончли хулосаларни шакллантириш ва асослаш; 3) исбот қилиш - бу ҳақиқий маълумотларни қидириб топиш ва тақдим этиш; 4) исбот қилиш - бу далилларни тўплаш, уларни текшириш, уларга баҳо бериш ва улардан фойдаланиш; 5) исбот қилиш - бу далилларни аниқлаш ва тўплаш, текшириш ҳамда баҳо бериш; 6) исбот қилиш - бу далилларни излаб топиш, тўплаш, мустаҳкамлаш ва баҳолаш.[12]

Фикримизча, иш буйича тўпланган ҳар бир далил алоҳида ва барча далиллар бир тизимга келтирилиб умумий баҳоланади. Далиллар ўртасида ҳеч қандай мантиқий зиддиятлар бўлмаслиги лозим, акс ҳолда айбдор шахснинг айби тўла исботланмаган деб ҳисобланади. Бу эса тергов бир ёқлама олиб борилганини гумон қилинувчи ва айбланувчининг процессуал манфаатлари тўла текширилмаганлиги, тергов сифатсиз ҳамда юзаки олиб борилганини кўрсатувчи ҳолат деб баҳоланади.

Жиноят процессида далилларни қайд этиш тартибига куйиладиган асосий талаблар Жиноят-процессуал кодексида белгиланган. ЖПКнинг 90-моддасига кўра, маълумотлар ва нарсалардан, улар тергов ҳаракати баённомаси ёки суд мажлиси баённомасида қайд этилганидан кейингина далил сифатида фойдаланиш мумкин.

Ишни юритишга масъул булган давлат органлари, мансабдор шахслар ва ишда иштирок этувчи бошқа шахслар барча қабул қилинадиган қарорлар ҳамда амалга ошириладиган процессуал ҳаракатларни жиноят процессининг асосий принципи бўлган қонунийлик асосида амалга оширилиши шартлиги Жиноят-процессуал кодексида белгилаб қўйилган[13]. ЖПК ва ҳуқуқни қўллаш фаолияти далилларни процессуал қайд этиш жараёнида яна бир қатор муҳим бўлган қоидаларга риоя қилишни талаб этади.

Хусусан, умумилмий билиш усули сифатида кузатиш - далилларни тўплаш жараёнида биринчи навбатда далил сифатида

---

[12] Ражабов Б.А. Ишни судга кадар юритишда исбот килишнинг умумий шартларига риоя этилишини таъминлаш: Юрид. фан. д-ри (DSc) ... дис. автореф. - Т., 2019. - Б. 13.

[13] Хўжақулов С.Б. Процессуал ҳаракатлар: тушунчаси, таснифланиши ва тизимлаштирилиши: Ўқув қўлланма. - Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2013. - Б. 63.

фойдаланиш мумкин бўлган фактик маълумотларни аниқлашга хизмат қилади. Кузатишнинг марказий элементи - қабул қилишдир, яъни биринчи навбатда объектнинг бевосита акс этган томонларини ўзида намоён қилувчи маълумотлардир. Ушбу маълумотлар айнан қабул қилишнинг моҳиятини ташкил этади.[14]

Далилларни тўплашда умумилмий билиш усулларини қўллашнинг бошқа йўлларини тавсифлашнинг ҳожати йўқ, сабаби улар у ёки бу йўллар билан далилий маълумотларни олиш, қайд этиш ва сақлашга йўналтирилган.[15] Умумий шаклда хулоса қилинганда умумилмий усул билан бир қаторда махсус усулларни қўлланилиши далилларни тўплашда маълумот ташувчининг тавсифи ва шартларига боғлиқ. Далилнинг у ёки бу манбаининг ўзига хос хусусияти қайд этишнинг шакл ва усулларида яққол намоён бўлади.[16]

Маълумки, ҳақиқий назария доим амалий хусусиятга эга бўлади, шу асосда биз ҳақиқий маълумотлар “далиллар”, “фактик маълумотлар”, “исботлаш воситалари”, “далилларни расмийлаштириш” ва “далилларни мустахдамлаш” каби тушунчаларни кўриб чиқиш мақсадга мувофиқ.

ЖПКнинг 81-моддасига биноан ижтимоий хавфли килмишнинг юз берган ва бермаганлигини, шу килмишни содир этган шахснинг айбдор, айбсиз эканлигини ва ишни тўғри ҳал қилиш учун аҳамиятли бўлган бошқа ҳолатларни суриштирувчи, терговчи, прокурор ва суд томонидан қонунда белгиланган тартибда аниқлашларига асос бўладиган ҳар қандай ҳақиқий маълумотлар жиноят иши бўйича далил ҳисобланиши белгиланган.[17]

---

[14] Костенко Р.В. Доказательства в уголовном процессе: концептуальные подходы и перспективы правового регулирования: Автореф. дис... д-ра. юрид. наук. - Санкт-Петербургский университет. - СПб, 2006. - С. 24.

[15] Гришина Е.П. Достоверность доказательств и способы ее обеспечения в уголовном процессе: Автореф. дис... канд. юрид. наук. - М., 1996. - С. 21.

[16] Демурчев Л.Г. Собирание доказательств в ходе досудебного производства путем проведения иных процессуальных действий: Автореф. дис... канд. юрид. наук. - Краснодар, 2012. - С. 13.

[17] Сахаддинов С. Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодексига шарҳлар. Умумий қисм (илмий-амалий шарх,) / Масъул муҳаррир: проф. Б.Х.Пўлатов. — Т.: Янги аср авлоди, 2014. - Б. 179.

Шахс хотирасида сақланган воқеа тафсилотлари, масалан, бузиш оқибатида бино, жой (омборхона) эшикларнинг шикастланиш, яъни воқеа излари терговчи томонидан қабул қилиниб, ушбу излардаги маълумотлар мақбул шаклда ифодаланмагунча далилга айланмайди ва излигича қолаверади.[18] Далилларни келиб чиқишини таҳлил килувчи ва акс эттирувчи жараён қуйидагиларда намоён бўлади: ходиса биринчи навбатда бизни ўраб турган муҳитда акс этади, ўзида маълумотни сақловчи изларни қолдиради, шундан кейин бу излар билиш жараёнида иштирок этувчи субъектлар (суриштирувчи, терговчи, прокурор ва суд) онгида акс этади, мазмунга бой шаклларда ёзма ифодалангач, исботлаш мақсадида фойдаланиш учун олинган маълумот сифатида сақлаш имкониятини яратади. Ушбу кўп босқичли жараён ўзида барча турдаги, яъни кўрсатувлар, хулосалар, баённомалар билан бирга ашёвий далиллар, ёзма далиллар ва ҳужжатлардан иборат далилларнинг шаклланишини қамраб олади.

Исботлаш жараёнида тўпланган, баҳоланган, текширилган далиллардан улар қайд этилганидан сўнг далил сифатида фойдаланиш мумкин. Тергов ҳаракатлари ёки суд мажлиси баённомалари далилларни процессуал қайд этиш воситалари бўлиб хизмат қилади[19]. Далилларни қайд этишни мукаммал таҳлил қилиш учун уларнинг исботлаш жараёнида тутган ўрни ҳақидаги масаланинг очиб берилиши мақсадга мувофиқдир. Аввало, далилларни процессуал қайд этмасдан туриб, далилларни шакллантириш жараёни тугалланган деб ҳисоблаш мумкин эмас.

О.Я.Баевнинг фикрича, далилларни қайд этиш - исбот қилишнинг далилларни тўплаш босқичини ташкил этувчи элементидир. Далилларни тўплаш деганда, турли хил далилларни

---

[18] Шейфер С.А. Формирование доказательств по уголовному делу - реальность оказательственной деятельности // Российская юстиция. - 2009. - № 4. - С. 46-48; Безлепкин Б.Т. Уголовно-процессуальное право Российской Федерации: 2-е изд., перераб. и доп. - М., 2007. - С. 128.

[19] Дегтярь Т.С. Собирание и формирование доказательств в процессе расследования преступлений: Автореф. дис... канд. юрид. наук. - М., 2001. - С. 18.

топишга, қайд этишга, олиш ва сақлашга каратилган харакатлар мажмуаси тушуниш мумкин.[20]

А.В.Белоусовнинг таърифича, далилларни қайд этиш - исботлаш жараёни биринчи босқичини якунловчи элементидир. Далилларни қайд этишни ишни тўғри ҳал этиш учун аҳамиятли бўлган фактик маълумотларни қайд этиш тизими сифатида ҳам тушуниш мумкин.[21]

А.Р.Белкин, далиллардан исботлаш воситаси сифатида фойдаланилиши учун, авваламбор, уларни тўплаш зарур, яъни маълумотлар орасидан кўз илғамас, лекин иш учун аҳамиятли бўлган фактик маълумотларни ажратиб олишдир. Далилларни тўплаш - процессуал ва криминалистик адабиётларда моҳиятан исботлаш жараёнининг зарурий даври сифатида таърифлайди.[22]

Ю.К.Якимович келтиришича, далилларни тўплаш жараёнига далилларни аниқлаш ва мустаҳкамлашни қўшмаган ҳолда ўзида далилларни тўплаш, қайд этиш ва тадқиқ қилишни қамраб олган фаолият.[23]

В.А.Лазарева таҳлилича, далилларни тўплаш - бу суриштирувчи, терговчи, прокурор ва суд томонидан ўрнатилган тартибда аниқлаш, талаб қилиш, олиш ва қайд этиш билан амалга оширилган процессуал харакатдир.[24]

Б.А.Ражабов эса, далиллар тўплаш бу жиноят ишини тўғри ҳал қилиш учун аҳамиятли бўлган ҳолатлар ва фактлар тўғрисидаги аниқланган маълумотларни процессуал тартибда олиш ва мустаҳкамлашга қаратилган, терговга кадар текширув органи

---

[20] Баев О.Я. Тактические операции в досудебном производстве по уголовным делам: основы теории и практики: науч.-практич. издание. - М.: Юрлитинформ, 2016. - С. 185-200.

[21] Белоусов А.В. Процессуальное закрепление доказательств при расследовании преступлений. - М.: Юрлитинформ, 2001. - С. 174.

[22] Белкин А.Р. Теория доказывания в уголовном судопроизводстве. - М.: Норма, 2005. — 187 с.

[23] Якимович Ю.К. Доказательства и доказывание в уголовном процессе: Учебное пособие. - Томск: Изд-во Томский университета, 2015. – С. 42.

[24] Лазарева В.А. Доказывание в уголовном процессе: учебное пособие для бакалавриата и магистратуры / В.А. Лазарева. - 7-е изд., перераб. и доп. - М.: Издательство Юрайт, 2019. - С. 63.

мансабдор шахси, суриштирувчи, терговчи, прокурор, суд, судья ва химоячи (адвокат)нинг фаолиятидир[25] - деган фикрни илгари суради.

Далилларни тўплашнинг муҳим элементларидан бири объектда мавжуд фактик маълумотларнинг мазмунини аниқлашдир[26].

Бир қарашда бу фаолият далилларни топиш билан уйғунлашиб кетади: объектни кўрган заҳоти биз унинг далилий аҳамиятга эга хусусиятларини пайқаймиз. Энг оддий ҳолатларда ҳақиқатан ҳам шундай, бироқ чуқур таҳлил асосида бунинг акси эканлиги кўриш мумкин. Суриштирувчи, терговчи ўзларида қолган ахборотларни иш материалларига ўтказиш учун объектни синчиклаб ўрганишлари, ундаги жиноятга алоқадор ёки жиноят таъсирида пайдо бўлган аломатларни ажратиб олишларига тўғри келади. Бошқача айтганда, далилий аҳамиятга эга ахборотнинг мазмуни аниқланиши лозим[27].

Айнан шу мақсадларда қонунга биноан кўздан кечириш, тинтув, олиб қўйиш ҳаракатлари давомида топилган нарса ва ҳужжатлар махсус текширувдан ўтказилади. Худди шундай усулда сўроқ қилиш орқали гувоҳлар доираси аниқлангандан кейин, суриштирувчи ёки терговчи улар қандай маълумотларга эга эканликларини аниқлаши, фактик маълумотларни тахминий ёки ишга алоқаси бўлмаган ахборотлардан ажратади.

Далилларни тўплаш - бу нафақат маълумотлар топиш, балки уларни процессуал тартибда тўғри қайд этиш, хусусан, ҳужжат ва нарсаларни иш материалларига бириктириш эканлигини унутмаслигимиз лозим. Бундай қарор қабул қилиш фақат исбот

[25] Ражабов Б.А. Ишни судга кадар юритишда исбот килишнинг умумий шартларига риоя этилишини таъминлаш: юрид. фан. д-ри (DSc) ... дис. автореф. - Т., 2019. – Б. 25.

[26] Барыгина А. А. Доказывание в уголовном процессе: допустимость доказательств: учебное пособие для вузов. - 2-е изд., перераб. и доп. - М.: Издательство Юрайт, 2019. - С. 58.

[27] Аубакирова А.А. Допустимость доказательств в уголовном процессе Республики Казахстан // Вестник ЮУрГУ. Серия «Право», - Т. 14. 2014. - № 3. - С.18; Абросимов И.В. Актуальные вопросы обеспечения допустимости и достоверности доказательств в уголовном судопроизводстве: Автореф. дис... канд. юрид. наук. - М., 2007. – С. 18.

қилиш субъектлари, яъни суриштирувчи, терговчи, прокурор ва судга тегишлидир.[28]

Б.А.Ражабов фикрича, исбот қилишни 5 та боскич: далилларни аниқлаш, далилларни тўплаш, далилларни текшириш, далилларни баҳолаш ва далиллардан фойдаланишдан иборат.[29]

Бизнинг фикримизча, исботлаш жараёнида далилларни аниқлаш фаолиятини далилларни тўплаш жараёнидан ажратиб бўлмайди, сабаби бу икки тушунча бир-биридан ажралмасдир. Шунингдек, далилларни аниқлаш, олиш, қайд этиш ва сақлаш каби процессуал ҳаракатлар бир бутун мажмуа сифатидаги далилларни тўплаш фаолиятини ифодалайди.

Зеро, далилларни аниқлаш ва тўплаш - терговга кадар текширувни амалга оширувчи орган, суриштирувчи, терговчи, прокурор ва суднинг фактик маълумотлар манбаини аниқлаш, ундан зарур ахборотни олиш ҳамда уни қайд этиш борасидаги фаолияти бўлиб, ушбу фаолият жиноят- процессуал қодексида назарда тутилган шакл ва усулларда амалга оширилади[30].

Давлат органлари ва мансабдор шахслар далилларни ЖПКнинг 22,
86-моддаларининг талаблари асосида тўплайдилар. Далилларни, шунингдек гумон қилинувчи, айбланувчи, ҳимоячи, жабрланувчи, фуқаровий даъвогар, фуқаровий жавобгар, уларнинг вакиллари, ҳар қандай жисмоний ва юридик шахслар ҳам тақдим этишлари мумкин. Далиллар жиноят процессининг ҳар қандай босқичида ҳар бир босқичнинг процессуал хусусиятларидан келиб чиқадиган шакл ва усулларда тўпланади.[31]

---

[28] Жиноят процесси (Умумий қисм): юридик институт ва факультетлари талабалари учун дарслик (З.Ф.Иноғомжонованинг умумий тахрири остида.)- — Т.: ТДЮИ нашриёти, 2008. - Б. 310.

[29] Ражабов Б.А. Ишни судга қадар юритишда исбот қилишнинг умумий шартларига риоя этилишини таъминлаш: юрид. фан. д-ри. (DSc) ... дис. автореф. - Т., 2019. - Б. 14.

[30] Воробьева Ю.Ю. Современные проблемы процесса доказывания в российском уголовном судопроизводстве: Автореф. дис... канд. юрид. наук: - Оренбург, 2006. – С. 19.

[31] Жиноят процесси: ўқув қўлланма / Тузувчи муаллифлар Д.М.Миразов, И.Э.Хожаназаров, Ш.Н.Бердияров. - Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2013. – Б. 105-106.

Назаримизда, Ўзбекистон Республикасининг амалдаги ЖПКда келиб чиқиши, кимга тегишлилигини, маълум мақсадларда фойдаланганлигини ёки фойдаланишга яроқлилигини, қўлдан-қўлга ўтганлиги ёки турган жойи ўзгарганлигини, у ёки бу моддалар, нарса, жараён ва ҳодисалар таъсир этганлигини аниқлаш мумкин бўлган физикавий аломатлар ёки белгиларга, шунингдек иш ҳолатларини аниқлашга хизмат қиладиган ҳар қандай бошқа аломатлар ва белгиларга эга бўлган нарса ашёвий далил ҳисобланиши кўрсатиб ўтилган. Шунингдек, мансабдор шахс ёки фуқаро томонидан сўз, рақам, чизма ёки бошқа шаклда ёзилган ва иш учун аҳамиятли бўлиши мумкин бўлган маълумотларни сақлаш, ўзгартириш, бериш учун мўлжалланган ҳужжат ёки бошқа ёзувлар ёзма далил ҳисобланиши белгиланган.

Шунга ўхшаш ҳолатлар ишга бошқа ҳужжатларни қўшиб қўйишда ҳам кузатилади. Бизнингча, ушбу ҳужжатларни олиниши (олиб қўйиш тўғрисида қарор, сўровнома, баённомада қайд этилиши) ҳолати тасдиқланиб, тегишлилиги ва мақбуллиги аниқлангач, далил сифатида тан олиниши мумкин.

Лекин ашёвий далиллар ҳам, ёзма далиллар хам жиноят ишини юритишга масъул ҳисобланган процесс иштирокчилари, яъни терговга кадар текширувни амалга оширувчи орган, суриштирувчи, терговчи, прокурор ва суд томонидан жиноят-процессуал қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда тегишли баённомаларда қайд этилгандан кейингина далил сифатида фойдаланиш мумкин.[32]

Қайд этиш лозимки, қонунга мувофиқ бўлган ҳар қандай акс эттириш жараёнида, шунингдек, исботлашда акс эттирилган маълумотни қайта ифодалаш, яъни далилий маълумотга қонун талаб этадиган процессуал шакл бериш мазмунан далилларни шакллантириш дейилади.[33]

---

[32] Астанова Л.А. Жиноят ишини юритишга масъул бўлган давлат органлари ва мансабдор шахслар. - Т., 1997. - Б. 18.

[33] Сахаддинов С. Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодексига шарҳлар. Умумий қисм (илмий-амалий шарҳ) / Масъул муҳаррир: профессор Б.Х.Пўлатов. - Т.: Янги аср авлоди, 2014. - Б. 198.

Далилларни процессуал қайд этиш моҳияти қонунда ўз ифодасини топиши далилларни процессуал қайд этиш билан боғлиқ муаммоларни қонуний ҳал этилишига, далилларнинг мақбуллигини таъминлашга хизмат қилади[34].

Хулоса қилиб айтганда, исботлаш даврида далил сифатида фойдаланиладиган маълумотларнинг тааллуқлилиги ва мақбуллиги бирламчи характерга эга бўлади. Процессуал нуқтаи назардан далилларни қайд этиш ўз навбатида исботлаш субъекти фаолиятини тасдиқлайди. Исботлаш субъекти фаолиятининг тасдиғи маълумотларни далил сифатида фойдаланилишини таъминлаш мақсадида жиноят-процессуал қонунчилиги асосида уларни қайд этилишини назарада тутади.

## ФИРИБГАРЛИК ЖИНОЯТЛАРИ НАТИЖАСИДА ЕТКАЗИЛГАН ЗАРАРНИ ҚОПЛАШНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСИ

**Усмонов Бекзод Абсаломович**
*Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети мустақил изланувчиси*

Ҳозирги кунда мамлакактимизда қонун устуворлигини таъминлаш, қонунийликни мустаҳкамлаш, суд-ҳуқуқ тизимини изчил демократлаштириш ва либераллаштириш фуқароларнинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш, ҳуқуқ ва эркинликларининг поймол бўлишининг олдини олиш каби вазифалар бугунги кундаги давлат дастурининг асосий йўналишларидан бирига айланган.

Конституциямизнинг 54-моддасига мувофиқ мулкка эгалик қилиш, ундан фойдаланиш ва уни тасарруф этиш ҳуқуқи фақат шу мулкнинг эгасига тааллуқли. Шунинг учун мулкий ҳуқуқни амалга оширишга ҳар қандай ноқонуний аралашиш ушбу ҳуқуқнинг жиддий бузилишига сабаб бўлади ва жиноий жавобгарликни тақозо этади.

[34] Бестаев А.О. Способы собирания доказательств в уголовном процессе России: Автореф. дис... канд. юрид. наук. — Ростов-на-Дону, 2007. — С. 16; Авилов А.В. Субъекты обязанности доказывания в уголовном судопроизводстве: Автореф. дис. канд. юрид. наук. - Краснодар, 2011. - С. 10.

Қабул қилинган қонунлар билан фирибгарлик жиноятлари учун жазонинг содир қилинган жиноятга мутаносиблигини таьминлашга, бундай қилмишларнинг олдини олишга қаратилган чора-тадбирларнинг самарадорлиги оширилди. Жумладан, фирибгарлик жиноятини содир қилганлик учун максимал жазо муддати кучайтирилди.

Ўзбекистон Республикаси Жиноят Кодексининг 168-моддасига мувофиқ, Фирибгарлик,яьни алдаш ёки ишончни суиистеьмол қилиш йўли билан ўзганинг мулкини ёки ўзганинг мулкига бўлган ҳуқуқни қўлга киритиш уч йилгача, анча миқдорда, бир гуруҳ шахслар томонидан олдиндан тил бириктириб содир этилган бўлса уч йилдан беш йилгача, кўп миқдорда, такроран ёки хавфли ресидивист томонидан содир этилган бўлса беш йилдан саккиз йилгача, жуда кўп миқдорда, ўта хавфли ресидивист томонидан, уюшган гуруҳ томонидан ёки унинг манфаатларини кўзлаб содир этилган бўлса саккиз йилдан ўн йилгача озодликдан маҳрум қилиш билан жазоланади[35] Жиноятнинг бевосита обьекти — ўзганинг мулки ёки мулкий ҳуқуқларини муҳофаза қилишга қаратилган ижтимоий муносабатлардир.

Фирибгарликнинг предмэти мулкдан ташқари юридик категория сифатида ўзганинг мулкига бўлган ҳуқуқ, мулкка бўлган алоҳида ваколатлар (масалан, айбдор уйда яшаш ҳуқуқини қўлга киритиши мумкин) ҳисобланади. Бу ҳуқуқлар турли хил ҳужжатларда, масалан, васиятнома, суғурта полиси, муайян бойликларни олиш учун ишончнома, турли хил қимматли қоғозларда мустаҳкамланган бўлиши мумкин.

Обектив томондан фирибгарлик алдаш ёки ишончни суистеьмол қилиш йўли билан ўзганинг мулкини ёки ўзганинг мулкий ҳуқуқини эгаллашдан иборат. Ушбу жиноятнинг ўзига хослиги шундаки, ташқи тарафдан мулкдор томонидан мулкни «ихтиёрий» равишда бериш ёки бегоналаштириш ва жиноятчига ўтказиш кузатилади. Айнан алдаш

[35] Ўзбекистон Республикаси жиноят кодекси 168-моддаси

ёки ишончни суистеьмол қилиш мулкдорда ёки мулкнинг бошқа қонуний эгасида мулкни ёҳуд мулкий ҳуқуқларни жиноятчига ўтказиш фикрини туғдиради. Шу усулда жабрланувчининг онги ва ихтиёрига таьсир этиш ёки унинг ишончини суистеьмол қилиш орқали фирибгар мулкни ўз фойдасига ёки бошқа шахслар фойдасига ўтказиш мақсадига эришади. Бу ерда алдаш ёки ишончни суиистеьмол қилиш талон-торож қилишнинг зарурий усули сифатида гавдаланади.

Алдаш деганда, мол-мулк эгаси ёки мол-мулк ишониб топширилган шахснинг ўзи уни фирибгарга ихтиёрий равишда, ўз хоҳиши билан беришига эришиш мақсадида, жабрланувчини чалғитиш учун айбдор шахс томонидан ҳар қандай фактни бузиб кўрсатиш ёки ҳақиқатни яшириш ёхуд била туриб ёлғон маьлумотларни хабар қилиш тушунилади.

Алдаш биринчи навбатда шахснинг онгли равишда ўзгага нотўғри маьлумотларни тарқатишида ифодаланади. Алдаш фирибгарлик билан талон-торож қилиш усули сифатида айбдорнинг ҳақиқий мақсадларига (масалан, мулкни қайтариб бермаслик мақсадида қарзга олиш); предметга, унинг нархи, миқдори ва сифатига (рангли металлардан фойдаланган ҳолда тилла буюмлар сифатида ҳар хил нарсалар ишлаб чиқариш, тўлиқ бўлмаган товарни тўлиқ нархида сотиш) тааллуқли бўлиши мумкин. Алдаш, шунингдек, фирибгарнинг шахси, унинг мансаби ва ижтимоий мавқеи, касбига ҳам боғлиқ бўлиши мумкин (масалан, шахс ўзини солиқ инспексияси ходими сифатида таништиради ва солиқ тўловлари сифатида пул маблағларини олади).

Айбдор фирибгарликни содир этишда сохта ҳужжатлардан фойдаланса, унинг қилмиши фирибгарлик таркиби билан қамраб олинади ва у ЖК 209-моддаси (Мансаб сохтакорлиги) ёки 228-моддаси билан қўшимча квалификация қилишни талаб қилмайди. Бироқ, фирибгарлик ҳаракатларини содир этиш мақсадида айбдор шахснинг ўзи ҳужжатлар, штамплар, муҳрлар, бланкалар тайёрласа, уларни қалбакилаштирса, унинг қилмишлари жиноятлар жами бўйича

Жиноят кодексининг 168 ва 228-моддалари (Ҳужжатлар, штамплар, муҳрлар, бланкалар тайёрлаш, уларни қалбакилаштириш, сотиш ёки улардан фойдаланиш) билан квалификация қилиниши лозим. Шунга эътибор бериш лозимки, агар сохта ҳужжат (касаллик варақаси, ҳайдовчилик гувоҳномаси, маьлумотнома ва ҳоказо) фирибгар томонидан тайёрланмаган бўлиб, у бошқа шахс томонидан тайёрланиб, ушбу шахс ҳужжатдан талон-торож қилишда фойдаланишини билган бўлса, унда бу шахс нафақат ҳужжатларни қалбакилаштирганлик учун, балки фирибгарлик орқали талон-торож қилишда ёрдамчи сифатида жавобгарликка тортилади.

Фирибгарлик ҳаракатларини содир этишда айбдор ўзини бошқа шахс сифатида (давлат ҳокимият органи расмий вакили кийимини кийиш ёки ҳокимият вакилининг гувоҳномасини қалбакилаштириш) намоён қилиш орқали ўзганинг мулкини қўлга киритиши мумкин.

Ишончни суистеьмол қилиш деганда айбдор шахс томонидан ўзганинг мулкини қонунга хилоф равишда ўз фойдасига олиш учун ўзи ва мулк эгаси ёхуд мулк эгалиги ихтиёрида турган шахс ўртасидаги алоҳида, ўзаро ишончга асосланган муносабатлардан қонунга хилоф равишда мулкни ўз фойдасига олиш учун фойдаланиши тушунилиши лозим. Одатда, ишончга асосланган муносабатлар фирибгар ва жабрланувчи шахс ўртасида прокат, ижара, олди-сотди, топшириқ шартномаси ва ҳ.к.ларда вужудга келиши мумкин. Фирибгар ниятига эришиш учун хизмат, қариндошчилик, дўстлик муносабатларидан ҳам фойдаланиши мумкин.

Фирибгарлик ўзганинг мулки қўлга киритилган ва айбдорда ўз ихтиёрига кўра талон-торож қилинган мулкни тасарруф этиш имконияти пайдо бўлган пайтдан бошлаб тугалланган жиноят ҳисобланади.

Агар шахс алдаш ёки ишончни суистеьмол қилиш йўли билан ақли норасо шахснинг ёхуд ўзига нисбатан содир этилган ҳаракатларнинг хусусиятини тушунмайдиган ёш боланинг мулкини қўлга киритиб олса, айбдор фирибгарлик учун эмас, балки ўғрилик учун жиноий жавобгарликка тортилиши керак.

Субектив томондан фирибгарлик тўғри қасддан ғараз мақсадда содир этилади, ғараз мақсаднинг мавжудлиги фирибгарликнинг зарурий белгиси ҳисобланади.

Олий суд Пленумининг «ўзгалар мулкини ўғирлик, талончилик ва босқинчилик билан талон-торож қилиш жиноят ишлари бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги қарорида «айбдор томонидан содир этилаётган воқеани тушуниб этиш қобилиятига эга бўлмаган (масалан, ёши жуда кичиклар, руҳий жиҳатдан ақли норасолар, алкоголдан ёки наркотик моддалардан кучли мастлик даражасида бўлган ёки ухлаб қолган) шахсларнинг мулкини ўғирлаш ўзганинг мол-мулкини яширин равишда талон-торож қилиш деб тавсифланиши керак»[36]]

Айбдор ўзганинг мулкини қўлга киритиш мақсадида жабрланувчини чалғитаётганлигини ёки била туриб ишончини суистеьмол қилаётганлигини англаб этади ва бунинг содир этилишини хоҳлайди. Шунингдек, ушбу жиноий қилмишни айбдор мулкий фойда олиш ва бойиб кетиш мақсадида содир этади, ғараз мақсаднинг мавжудлиги фирибгарликнинг зарурий аломати ҳисобланади, шу билан бирга, агар мулкни алдаш йўли билан ғаразли мақсадларсиз эгаллаган бўлса (масалан, бошқа шахснинг номидан ойлик иш ҳақини унга бериб қўйиш мақсадида олиш), қилмишни фирибгарлик сифатида квалификация қилиб бўлмайди.

«Бу ўринда ўзганинг мулкини қўлга киритиш мақсади нафақат мулкий битимларни амалга оширишдан олдин, балки уларни бажариш жараёнида ҳам пайдо бўлиши мумкинлиги эътиборга олиниши лозим. Баён қилинганлардан келиб чиқиб, узрли сабабларга кўра қарзни ўз вақтида қайтармаган ва ўзганинг мулкини текинга

[36] [Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1999 йил 30 апрелдаги «Ўзгалар мулкини ўғирлик, талончилик ва босқинчилик билан талон-торож қилиш жиноят ишлари бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 6-сонли қарори (Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2002 йил 14 июндаги 10-сонли қарорига асосан киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар билан) // Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. 1991—2006, 1-жилд. — Т.: «ўқитувчи» НМИУ, 2007. — 221-б.

қўлга киритиш мақсади бўлмаган шахснинг ҳаракатини фирибгарлик деб баҳолаб бўлмайди»[37] .

Фирибгарлик жиноятининг субекти 16 ёшга тўлган, ҳар қандай ақли расо жисмоний шахс бўла олади.

Суд-тергов амалиётида фирибгарликни ўғирликдан фарқлашда айрим қийинчиликлар мавжуд. Фирибгарликни содир этишда алдаш ёки ишончни суистеьмол қилиш ўзганинг мулкини қўлга киритиш усули бўлиб хизмат қилади, ўғирлик содир этишда алдашни қўллаш ўғирланадиган нарсани қўлга туширишни енгиллаштириш воситаси ҳисобланади. Фирибгарлик содир этилганда жабрланувчи шахс мулкни ёки мулкий ҳуқуқни фирибгарга ўз ихтиёри билан топширади, ўғирликда эса айбдор шахс уни мулк эгасининг ёки мулк кимнинг ихтиёрида турган бўлса, ўша шахснинг рухсатисиз яширин равишда талон-торож қилади. Фақат ўзганинг мулкигина ўғирлик предмэти бўлиши мумкин, фирибгарлик предмети эса ўзганинг мулки ёки мулкка бўлган ҳуқуқи ҳам бўлиши мумкин.

Жиноят кодексининг 168-моддаси 2-қисмида фирибгарлик содир этганлик учун жавобгарлик белгиланган:

а) анча миқдорда;

б) бир гуруҳ шахслар томонидан олдиндан тил бириктириб;

в) компютер техникаси воситаларидан фойдаланиб содир этилган бўлса.

Шарҳланаётган модданинг 3-қисмида фирибгарлик содир этганлик учун жавобгарлик белгиланган:

а) кўп миқдорда;

б) такроран ёки хавфли рецидивист томонидан;

в) хизмат мавқеидан фойдаланиб содир этилган бўлса.

---

[37] Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1998 йил 17 апрелдаги «Иқтисодиёт соҳасидаги жиноий ишлар бўйича суд амалиётида юзага келган айрим масалалар тўғрисида»ги 11-сонли қарори (Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2002 йил 14 июндаги 10-сонли, 2002 йил 25 октябрдаги 28-сонли ва 2006 йил 3 февралдаги 5-сонли қарорларига асосан киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар билан) // Тўплам, 1-жилд. — 119-б.

Шарҳланаётган модданинг 4-қисмида фирибгарлик содир этганлик учун жавобгарлик белгиланган:

а) жуда кўп миқдорда;

б) ўта хавфли рецидивист томонидан;

в) уюшган гуруҳ томонидан ёки унинг манфаатларини кўзлаб содир этилган бўлса.

Жиноят кодексининг 168-моддаси 5-қисмида рағбатлантирувчи норма назарда тутилган бўлиб, унга кўра, агар айбланувчи етказилган моддий зарарнинг ўрнини қоплаган тақдирда, озодликни чеклаш ҳамда озодликдан маҳрум қилиш тариқасидаги жазолар қўлланилмайди. Жиноят кодексида моддий зарар қанча миқдорда қопланиши лозимлиги кўрсатилмаган, бироқ моҳиятидан моддий зарар тўла ҳажмда қопланиши келиб чиқади.

Кейинги пайтларда аҳоли ўртасида турли фирибгарлик ҳолатлари кўп учрамоқда. Бундай фирибгарликлар нафақат шахс моддий қимматликларига, балки фуқароларнинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатлари ҳамда эркинликларининг поймол бўлишига олиб келмоқда.

Фирибгарликка қарши курашда барчамиз эга бўлган энг катта қурол бу билимдир.

Ҳар қандай жиноятчиликка қарши курашнинг энг самарали услуби бу жиноятнинг олдини олиш ҳисобланади. Оҳирги йилларда фирибгарлик жиноятининг ортиб, турли кўринишга эга бўлаётганлиги кўплаб салбий оқибатларни келтириб чиқармоқда. Маълумки фирибгарлик жиноятларини содир этиш сабабларини аниқлаб, унга имкон бераган шарт-шароитларни ўрганиб, жиноятнинг олдини олишда ички ишлар органлари билан бирга барча жамоатчилик ташкилотлари ҳам бирдек маъсулдир.

Ҳар қандай жиноятчиликка қарши курашнинг энг самарали услуби бу жиноятнинг олдини олиш ҳисобланади. Оҳирги йилларда фирибгарлик жиноятининг ортиб, турли кўринишга эга бўлаётганлиги кўплаб салбий оқибатларни келтириб чиқармоқда. Маълумки фирибгарлик жиноятларини содир этиш сабабларини

аниқлаб, унга имкон бераган шарт-шароитларни ўрганиб, жиноятнинг олдини олишда Миллий гвардия, Ички ишлар органлари билан бирга барча жамоатчилик ташкилотлари ҳам бирдек масъулдир.

Хулоса қилиб айтганда, ушбу турдаги жиноятни олдини олиш мақсадида барча давлат органлари вакиллари билан биргаликда маҳалла фуқаролар йиғини ва ҳудудлардаги профилактика инспекторлари томонидан, маъмурий худудда жойлашган корхона, ташкилот ва муассасалар, таълим муассасаларида, аҳоли ва кенг жамоатчилик ўртасида фирибгарлик жиноятларининг олдини олиш бўйича тарғибот – ташвиқот ишларни жадаллаштириш мақсадга мувофиқдир.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Ўзбекистон Республикаси жиноят кодекси;

2. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1999 йил 30 апрелдаги «Ўзгалар мулкини ўғирлик, талончилик ва босқинчилик билан талон-торож қилиш жиноят ишлари бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 6-сонли қарори (Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2002 йил 14 июндаги 10-сонли қарорига асосан киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар билан)// Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. 1991—2006, 1-жилд. — Т.: «Ққитувчи» НМИУ, 2007. — 221-б.

3. “Фирибгарлик жиноятларини барвақт олдини олиш ҳудуд методикаси” методик ва амалий қўлланма 2019 йил.

4. Ўзбекистон Республикаси Олий суд Пленумининг ““Жиноят натижасида етказилган мулкий зиённи қоплашга оид қонунчиликни қўллаш бўйича суд амалиёти тўғрисида”ги 2016 йил 27 декабрь, 26-сон қарор

## MUNDARIJA

**Rustambayev M.X.** Yangi O‘zbekistonning baxtli hayotga olib boradigan yo‘l xaritasini birgalikda yaratamiz ..... 4
**Xusanov O.T.** Hokimiyatlar bo‘linish prinsipini mahalliy darajada ta’minlash – boshqaruv tizimini takomillashtirish omili……16
**Axmedov D.K.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga murojaatnomasi: Milliy taraqqiyotning usuvor yo‘nalishlari va istiqboldagi vazifalar..... 24
**Usmonov M.B.** Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishning dolzarb muammolari..... 29
**Turg‘unov O.K.** O‘zbekistonda suv taqchilligining oldini olish muammolari..... 39
**Zulfiqarov Sh.X., Turdialiyev Sh.** Hokimning bir vaqtda mahalliy kengash raisi bo‘lishi vakolati konstitutsiyaviy jihatdan bekor qilindi!.... 45
**Safarov Dj.I.** Ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda qonunlarning rolini kuchaytirish – zamonaviy davlat boshqaruvining muhim sharti ..... 53
**Rasulov N.M.** Global raqobat keskinlashayotgan sharoitda iqtisodiyot tarmoqlarini texnologik yangilashning obyektiv zarurligi…….61
**Xusanova M.A.** Qonun ijodkorligida prezident ishtirokining tashkiliy-huquqiy mexanizmlari ..... 65
**Ruziyev R.Dj.** Shartnoma erkinligi deganda nima anglashiladi?.....72
**Muxammadiyev A.A.** Tadbikorlikka oid fuqarolik huquqi tamoyillari…77
**Usmanova M.A., Nurmuxammedova G.B.** Mahalla - davlat siyosati markazida……...82
**Nuridullayev A.A.** Zamonaviy davlat boshqaruvining muhim tarkibiy qismi sifatida vazirlar mahkamasi va uning faoliyatining takomillashuvi: retrospektiv va qiyosiy-huquqiy tahlil ..... 86
**Xursandov A.S.** Yoshlar orasida ma’naviy xavfsizlikni ta’minlashning ahamiyati hamda yoshlar huquqbuzarligini nazariy asoslari va tasniflash mezonlari……..…100
**Tolipov A.A.** 2025-yil 26-dekabr murojaatnomasi asosida 2026-yil ustuvor yo‘nalishlari: mahalladan boshlanadigan taraqqiyot va raqamli islohotlarning ilmiy-amaliy tahlili……..……..107

**Yarashev B.Ch.** Prezident murojaatnomasida mehnat munosabatlari va bandlik masalalari……111
**Абдуллаева М.С.** Микро и макроэкономические ориентиры социально-экономического развития Республики Узбекистан в послании президента от 26 декабря 2026 года……115
**Abdullajanova D.S.** Yangio‘zbekiston – sog‘liqni saqlash tizimi islohotlari……..121
**Xamidov G‘.S., Gulyamov N.Sh.** Jamoat xavfsizligi, ta’lim hamda harbiy-huquqni muhofaza qilish tizimini rivojlantirishning ilmiy-tahliliy asoslari……..126
**Mamatkulov D.M.** Kasblarni rivojlantirish va yangi mehnat bozori arxitekturasini yaratish – milliy taraqqiyotimizning ustuvor yo‘nalishi sifatida ..... 131
**Saipova M.L.** Yuqori intellektual salohiyatli kadrlar tayyorlashda oliy ta’lim tizimining roli ..... 130
**Xotamov Sh.X.** Markaziy Osiyo mintaqasini xalqaro muloqot maydoniga aylanishi hamda madaniy-gumanitar aloqalar ..... 144
**Olimjonov X.M.** Harbiy xizmatchilarning huquqiy himoyasini takomillashtirish asoslari..... 144
**G‘iyosov B.H.** Ma’muriy javobgarlik instituti faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish davlat ustuvor yo‘nalishi sifatida ..... 159
**Xo‘jamberdiyev F.K.** Milliy gvardiyaning jamoat xavfsizligini ta’minlashdagi huquqiy-tashkiliy asoslarining umumiy tavsifi……..…164
**Xo‘jamberdiyev F.K., G‘iyosov B.H.** Milliy gvardiyaning jamoat xavfsizligini ta’minlashdagi gibrid institutsional modeli: funksional subsidiarlik va polisentrik boshqaruvning huquqiy asoslari..... 171
**Usmonov Sh.Sh., Orziqulov J.J.** Inson kapitali yangi O‘zbekiston iqtisodiy taraqqiyotining strategik omillari..... 179
**Usmonov Sh.Sh., Usmonov H.Sh.** O‘zbekiston iqtisodiyotida moliyaviy barqarorlik va investitsiyaviy faollikni oshirish: murojaatnoma tahlili .. 183
**Akbarov L.I.** Yangi O‘zbekistonni rivojlantirishda mahalla instituti va texnologik iqtisodiy o‘sishning strategik ahamiyati ..... 189
**Ashurova N.O‘.**Jinoiy qonunchilikda oila-turmush doirasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish masalalari ..... 192

**Sodiqov X.M.** Kelajak va porloq istiqbol uchun belgilangan ustuvor vazifalar ..... 198
**Baxtiyorov F.A.** Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni davlat tomonidan boshqarishning o‘ziga xos jihatlari ..... 202
**Xadjayev M.A.** Sifatli yo‘llar, ekologik transportlar va transport harakatini intellektual svetoforlar orqali boshqarish zamon talabi..... 206
**Musashayxov K.** Professional sport sohasida moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirishdagi korrupsiyaviy omillar..... 208
**Alloberdiyeva D.** Environmental reforms and modern public administration in the new uzbekistan..... 215
**Yakubov M.** Normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini tashkil etish tizimining institutsional asoslari: amaldagi holati va takomillashtirish istiqbollari . 221
**Ачилов И.Т.** Объективные признаки преступлений против половой неприкосновенности несовершеннолетних..... 231
**Jo‘rayev Q.O.** Voyaga yetmaganlarga nisbatan zamonaviy tahdidlar tushunchasi va tasnifi ..... 244
**Anvarjonov B.A.** Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sharoitida yoshlar o‘rtasida kiberbulling(kiberbezorilik): tushunchasi, o‘ziga xos xususiyatlari va jinoyat-huquqiy tartibga solish masalalari ..... 248
**Исхаков Б.И.** Права ребёнка в основном законе республики узбекистан……...258
**Abdihakimov S.S.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti murojaatnomasida sud ishlohatlari: protsessual xatoliklarni tuzatishda yangi yondashuvlar……...262
**Xamidova M.A.** Vatan va xalqimiz manfaati yo‘lida.....269
**Axmedov J.D.** Fuqarolik ishlarini sudda ko‘rishda dalillarga baho berishga oid ustuvor masalalar……275
**Abdullayev J.G‘.** Giyohvandlik vositalari bilan qonunga xilof muomala qilishga qarshi kurashning ilk bosqichlari……280
**Choriyev A.Q.** Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlik uchun jinoiy javobgarlikning rivojlanishi……292
**Achilov A.T., Abzalov M.M.** O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy yo‘nalishlari……308

**Yusupov M.B.** Ommaviy tadbirlarni tashkil etishning o‘ziga xos jihatlari: xalqaro amaliyot tahlillari……315
**Axmedov J.D.** Sud amaliyotida dalillarni baholashda xatolar va ularning oqibatlari……...326
**Boboxonov S.R.** “Autsorsing tizimining davlat boshqaruvida o‘rni va ahamiyati (O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi misolida)”…....330
**Maxmudov J.X.** Jamoat xavfsizligini ta’minlashda O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi vazifalarini muvofiqlashtirishning huquqiy asoslari.....338
**Usarov I.N.** O‘zbekiston Respublikasida Jamoat xavfsizligini ta’minlashda ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning o‘rni……..…..351
**Анваржонов Б.А.** Ахборот-коммуникация технологиялари шароитида ёшлар ўртасида кибербуллинг(кибербезорилик): тушунчаси, ўзига хос хусусиятлари ва жиноят-ҳуқуқий тартибга солиш масалалари.....356
**Madrimov R.G‘.** Jamoat ekologik nazoratini amalga oshirishining huquqiy mexanizmlari.....363
**Нуралиев М.М.** Жиноят процессида далилларни процессуал қайд этиш исбот қилишнинг асосий воситаси……369
**Усмонов Б.А.** Фирибгарлик жиноятлари натижасида етказилган зарарни қоплашнинг ҳуқуқий асоси.....381

# “O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SH.M.MIRZIYOYEVNING OLIY MAJLIS VA O‘ZBEKISTON XALQIGA MUROJAATNOMASI: MILLIY TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI VA ISTIQBOLDAGI VAZIFALAR”

mavzusidagi respublika ilmiy – amaliy konferensiya
**MATERIALLARI TO‘PLAMI**

**2026-yil 5-fevral**

Muharrir: Murakayeva Z.I
Texnik muharrir: Boboxonov S.R.
Korrektor: Odilova F.K.

Bosishga ruxsat etildi: 17.02. 2026. Buyurtma: №16. Format 60x90/16
Times New Roman garniturasida raqamli usulida bosilgan.
Hajmi: 22,5 sh.b.t., 18,5 t.h.t. Adadi: 2 nusxa.

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti bosmaxonasi